O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

PEDAGOGIKA.PSIXOLOGIYA
fanidan o’quv - uslubiy majmua

GULISTON - 2019

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYa KAFEDRASI

PEDAGOGIKA.PSIXOLOGIYA FANIDAN

GULISTON-2018

Ushbu o’quv-uslubiy majmua O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo’nalishlari bo’yicha o’quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018 yil 18- avgustdagi №- 4 sonli majlis bayoni bilan tasdiqlangan fan dasturiga asosan ishlab chiqilgan.

U. Xoliqov «Pedagogika.Psixologiya » fanini o’quv- uslubiy majmua. Guliston. 2018 y. ___ bet.

Ushbu o’quv-uslubiy majmua mavzularning nazariy asoslarini mukammal o’rganish, tahlil qilish, qiyosiy taqqoslashga mo’ljallangan vazifalar, ayrim jihatlarini chuqur egallashga qaratilgan topshiriqlar, olgan bilimlarni amalda tatbiq etish yo’l-yo’riqlari qayd etilgan.

Mas’ul muharrir: p.f.n.dots., X.Abdukarimov

Taqrizchilar: p.f.n.dots., M. Muxliboev,
p.f.n.dots., G. Isaeva

O’quv-uslubiy to’plam Guliston Davlat universiteti Kengashida muxokama qilindi. (_№____ _____ 2018 yil, -bayonnoma)

GulDU ©

M U N D A R I J A

KIRISH.....
O’QUV MATERIALLARI .....
AMALIY MAShG’ULOTLARI .....
MUSTAQIL TA’LIM MASHG’ULOTLARI .....
GLOSSARIY .....
ILOVALAR .....……
Fan dasturi.....
Ishchi fan dasturi.....
Test savollari..... .....
Qo’shimcha didaktik materiallar.....

KIRISh

Bakalavrlarga mazkur fanning mazmuni va mohiyatini tushuntirish va bilimlarini shakllantirish bilan, fanning xususiyatlari doirasida mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga etkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo'yicha keng ko'lamli aniq yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.
Fanni o'rganish bilan bir qatorda asosiy dolzarb masala mamlakatimizda barcha sohalarni malakali kadrlar bilan ta'minlash, xodimlarning professional bilimdonligi darajasini oshirish, ularning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun barcha sharoitlarni yaratish ilmiy jarayonni jadallashtirishning asosiy omilidir. Fanni o'rganish bilan talabalar mamlakatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish jarayonlarining mohiyatini tushunishda zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollanadi. Shuningdek, bu fan jamiyatning har bir a'zosini g'oyaviy jihatdan yo'naltirish, ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish, iqtisodiy madaniyatini oshirishga ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Mukammal fan sirlarini o'rganish uchun tayyorlangan dastur talabalarning bu boradagi bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

.2. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad — pedagogik, psixologik sohalardagi o'quv jarayonida bilimlar tizimini, ta'lim va tarbiya jarayoni jamiyatning alohida funktsiyasi sifatida, shaxsni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni va shu asosda ta'lim va tarbiya nazariyasi va uslubiyoti to'g'risida bilimlarni shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, pedagogik, psixologik jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda, pedagogika va o'qitish jarayonlari, ta'lim mazmuni va tarbiya nazariyasi hamda ta'lim va tarbiyaning metodlarini o'rganish, psixologik tushunchalar, kategoriyalar, qonuniyatlar, psixik jarayonlar va ularning toifalanishini o'rganish, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fanning vazifalari -talabalarga pedagogik psixologiya fani doirasida nazariy va amaliy bilimlarni qo'lga kiritish hamda rivojlanishning pedagogik jarayonda uchraydigan o'zgarishlar yuzasidan ma'lumotlar berish orqali ta'lim-tarbiya jarayonining to'g'ri tashkil qilishning psixologik mexanizmlari bilan tanishtirishdir.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

Fan buyicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yidagi talablar qo'yiladi. ***Talaba:***

- amaliyotda o'qitish va ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning qulay metod va vositalarini qo'llash to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lishi;***
- pedagogika va psixologiya nazariyasi asoslarini, pedagogik hamda qonunlar, tushunchalar, kategoriyalarni, pedagogik jarayonlarning xususiyatlarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***
- talaba zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyani qo'llay bilish, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, o'quv jarayonida ta'limning metod, vosita va shakllarini tanlash, tarbiyalanuvchilarni yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***

Fanni o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Pedagogik psixologiya fani asosiy mutaxassislik fani hisoblanib, 1-semestrda o'qitiladi. Fanni o'zlashtirish uchun Umumiy psixologiya, Umumiy pedagogika, Etnopedagogika, Falsafa, Mantiq, Etika kabi fanlardan yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi.

Faning ta'limdagi o'rni

Ta'lim - tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil qilish, bilimlarni samarali o'zlashtirishning asosiy sharti shaxs psixologiyasiga doir bilim va ko'nikmalarni qo'lga kiritishdan iboratdir. Shuning uchun shaxs kamoloti, unda ro'y beradigan psixologik, fiziologik, jismoniy o'zgarishlarni bilish muhim sanaladi. Pedagogik psixologiya talabalarni aynan shu bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantiradi.

1.1. Fanni o'zlashtirgan talabaning malakaviy darajalari

Fan buyicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yidagi talablar qo'yiladi. ***Talaba:***

- amaliyotda o'qitish va ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning qulay metod va vositalarini qo'llash to'g'risida ***tasavvurga ega bo'lishi;***
- pedagogika va psixologiya nazariyasi asoslarini, pedagogik hamda qonunlar, tushunchalar, kategoriyalarni, pedagogik jarayonlarning xususiyatlarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***
- talaba zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyani qo'llay bilish, pedagogik vaziyatlarni modellashtirish, o'quv jarayonida ta'limning metod, vosita va shakllarini tanlash, tarbiyalanuvchilarni yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.***

O’QUV MATERIALLARI

PEDAGOGIKA FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI.
ASOSIY SAVOLLAR:

Pedagogika fani va uning asosiy kategoriyalari.
Pedagogika fanining paydo bo’lishi va rivojlanishi.
Pedagogik fanlar tizimi.
Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi.
Ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o’tkazish.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: ijtimoiy tarixiy tajriba, barkamol avlod, ta’lim-tarbiya, obyekt va predmet, pedagogika, pedagog; mazmun, maqsad, qonun-qoida, shakl va usullar, nazariya va amaliyot, kategoriya, tushuncha, ma’lumot, ta’lim, tarbiya, rivojlanish; metodologik asos, pedagogik fanlari tizimi; ilmiy-tadqiqot usullari va hakozo. Metod, ilmiy-tadqiqot metodi, metodologiya, ilmiy kashfiyot, ilmiy faraz, kuzatish, suhbat, tajriba-sinov, ijodiy ishlarni o’rganish, maktab va arxiv hujjatlarini o’rganish, anketa va testlar, matematika-kibernetika, statistika, ilmiy-tadqiqot natijasi.

Darsning maqsadi. **Pedagogika fani, predmeti haqida tushuncha berish, pedagogikaning ta’rifini izohlash, uni har bir talabaning o’zlashtirib olishiga erishish. Pedagogikaning maqsad va vazifalarini bayon etish.Pedagogikaning fan sifatida shakllanishida bosqichlarini o’quvchilar ongiga etkazish dunyo olimlari orasida pedagogikaga hissa qo’shgan Markaziy Osiyo allomalarini ajratib ko’rsatish milliy g’urur hissini tuydirish.**

1-savol bayoni

Er yuzida odam zoti paydo bo’libdiki, u ta’lim tarbiya bilan shug’ullanib keladi, komillikkka intiladi. Kattalar yosh avlodga o’zlarining tajribalarini, insoniy fazilatlarini, bilim ko’nikma va malakalarini singdirishga harakat qiladi. Bu vazifalar turli usullarda turlicha hal etilgan bo’lib, ularning natijasi sifatida, pedagogika fanining dastlabki ta’limotlari tarkib topib borgan. Inson tafakkuri, bilimi uning ijtimoiy tajribalarida aks etgan.

Qadimshunos olimlarning ta’kidlashlaricha, minglab yillar oldin kishilar etuk onglilik asosida madaniy meros namunalarini yaratganlar. Ammo ularga berilgan ta’lim-tarbiyaning mazmuni va mohiyati. qanday amalga oshirilganligi mukammal tarzda bizgacha etib kelmagan. Ayniqsa ko’hna sharq mamlakatlari Xitoy, Hindiston, Markaziy Osiyo, Arabiston, Eron, Turkiya va boshqa joylarda o’ta mukammal ta’lim tarbiya tizimi mavjud bo’lganligi madaniy-me’moriy yodgorlikda turli sa’nat va muxandislik inshoatlarida uchratish mumkin.

Hozirgi kunda saqlanib qolgan eng eski pedagogik ta’limot qadimgi Yunoniston davlatlari: Sparta va Attikada amalga oshirilgan. Pedagogika tushunchasi ham o’sha zamonlarda qo’llanila boshlagan.

Avvalo «pais ageines» «ya’ni bola etaklash» degan ma’noni anglatadi. Quldorlarning bolalarini qo’riqlab, himoya qilib yuradigan kishilarni shunday atagan. Keyinchalik maktablarning kuchayishi, ta’lim tarbiyaning takomillashib borishi natijasida ta’lim-tarbiya bilan shug’ullanuvchi kishilarni pedagoglar deb atashgan.

Pedagogika ta’lim-tarbiya haqidagi ta’limotlarni o’rganadigan soha sifatida falsafaning tarkibida shakllanib bordi.

Pedagogikaning predmeti sifatida ta’lim-tarbiya jarayoni va unda amalga oshirishga qaratilgan maxsus tayyorgarlik ko’rgan kishilarning faoliyati tushuniladi.

Turli manbalar va mualliflarning pedagogikaga bergan ta’riflaridan kelib chiqqan holda uni quyidagicha ifodalash mumkin:

Pedagogika jamiyatning barcha a’zolarini ijtimoiy ehtiyojga mos holda tarbiyalash, shaxs sifatida shakllantirish, zamonaviy bilim ko’nikma va malakalar berishning yo’l-yo’riqlari qonuniyat hamda mazmun mohiyatini o’rganuvchi fandir.

Bu ta'rif ma'lum darajada «Ta'lim to'g'risida» qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning mazmuniga mos keladi. Faqat o'quvchi yoshlar emas, jamiyatning barcha a'zolari ta'lim va tarbiyadan baxramand bo'lishlari, uzluksiz ta'lim tizimi ta'sirida kamolot sari intilish zarur. O'zbekistonning milliy istiqlolga erishishi pedagogika fanining maqsad va vazifalarini yangilanishiga olib keldi.

Sho'rolar tizimi davridagi komunistik mafkuraga asoslangan tarbiya ko'p jihatlari bilan barcha xalqlar va millatlarni bir qolipda «ulug' og'a» ruhiga moslashtirib ulg'aytirishga mo'ljallangan edi. Bu illatdan voz kechib, birinchi navbatda milliy ruhda tarbiyalashga alohida e'tibor berildi. Birinchi Prezidentimmiz I.Karimov ta'kidlaganlaridek: «Buyuk davlat, buyuk kelajagimizga erishish uchun oqil, ma'rifatli, ayni paytda o'zining o'tmishi, ulug' qadriyatlari, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan insonlarni tarbiyalashimiz kerak. Bunday insonlarni tarbiyalash esa ijtimoiy fanimizning muqaddas burchidir».[1]

Xalqimiz boy milliy tarbiya an'analariga ega, unga suyagan holda komillikka intiluvchi shaxsni tarkib toptirish mumkin. Lekin pedagogika fani umuminsoniy tarbiyaning nodir namunalari ta'sirida milliy tarbiyani boyitib borishni ham maqsad qilib qo'ygan. Bu buyuk maqsadlar o'z navbatida ta'lim va tarbiyaning tajribada sinalgan shakllari bilan bir qatorda, jahondagi ilg'or pedagogik texnologiyalardan qo'llanish, etuk mutaxassislar tayyorlash, yoshlarning qobiliyati, qiziqishi va imkoniyatlarini hisobga olgan vazifalarni hal etishga qaratilgan.

Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga "ta'lim", "tarbiya", "ma'lumot", "rivojlantirish" kabi tushunchalar kiradi, ular bir-birini to'ldiradi. Bulardan tashqari, "o'quvchi", "o'qituvchi", "usul", "qoida", "jamoa", "intizom", "irsiyat", "muhit", "direktor" va hakozo kabi tushunchalar mavjudki, bular haqida alohida mavzularda so'z yuritamiz.

Ma'lumot – bu insoniyat to'plagan ilmiy va madaniy qadriyatlar tizimini o'zlashtirish natijasidir. U asosan rejali ta'lim-tarbiya va boshqa yo'llar bilan olinadi. Ma'lumot to'liq olib bo'lingach kishiga tegishli hujjat beriladi: guvohnoma, diplom, sertifikat va hakozo.

Ta'lim – bu maxsus tayyorlangan kishi rahbarligida amalga oshiriladigan ma'lumot berish jarayonidir. Bu jarayonda o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi, ularning qobiliyatlari rivojlantiriladi.

Tarbiya – bu milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida o'sib kelayotgan yosh avlodda shaxsiy sifat va insoniy fazilatlarni shakllantirish jarayonidir.

Rivojlanish – bu shaxsning jismoniy va ma'naviy kamolga yetishida ketma-ket harakati, quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga o'tib borishidir.

Nazorat savollar:

1. Pedagogika fanining predmeti nima?
2. «Pedagogika» so'zining ilk manosi?
3. Bugungi kunda pedagogika nimalarni o'rganuvchi fan?
4. Dastlabki pedagogik g'oyalar nimalarda ifodalangan?
5. . Kategoriya deganda nimani tushunasiz? Javobingizni izohlang.
6. Pedagogikaning asosiy kategoriyalariga nimalar kiradi?
7. Fanning asosiy tushunchalari nimani ifodalaydi?
8. Pedagogik tushunchalarning ro'yxatini tuzing. Unga asoslanib o'qituvchilik kasbi haqidagi fikr-mulohazalaringizni yozma bayon eting.

2-savol bayoni

Pedagogika insonlar tomonidan yaratilgan eng qadimgi fanlardan biri sanaladi. Odamlar o'zlarining dastlabki ongli xarakatlarini axloqiy fazilatlarini o'zlarining nasl-nasabidan bo'lgan yoshlarga o'rgatganlar. Shuning uchun ham olimlar pedagogik ta'limotlarning dastlabki ko'rinishlari ibtidoiy jamiyatda paydo bo'lganligini asoslashadilar. Oilaning kelib chiqishi pedagogik qarashlarning rivojiga katta hissa bo'lib qo'shildi. Hatto buyuk allomalar Suqrot (469-399y eraga qadar) Aflotun (427-347y). Arastu (384-322y) va boshqalar dunyo ilmiga ulkan hissa qo'shganlari holda qullarni odam o'rnida ko'rmaganlar. Qullar kundalik turmush tarzida jismoniy mehnatgagina o'rganganlar. Pedagogika fanining taraqqiyoti Sharq uyg'onish davri allomalarining qo'shgan hissalari barakali bo'lgan. Ayniqsa Muso Al-Xorazmiy, Axmad Al-Farg'oniy, Axmad-Yugnakiy, Imom Al-Buxoriy,

Iso At-Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Xojib, Burxoniddin Al-Marg'iloniy, Axmad Yassaviy va boshqalar o'zlarining buyuk ilmiy kashfiyotlari bilan birga pedagogikaning turli muammolarini ishlab chiqdilar. X1U-XU1 asrlarda Markaziy Osiyo xududida kuchli rivojlangan davlat tarkib topdi. Bu davlatning asoschisi ulug' sohibqiron Amir Temur edi. U ilm-fanning taraqqiyotiga madaniyat va maorif ravnaqiga alohida e'tibor berdi. Yoshlar tarbiyasi keng ko'lamda olib borildi.Shu davrda o'zlarining pedagogik qarashlari bilan mashhur bo'lgan olimlar faoliyat yuritdilar. Ular qatorida Muhammad Tarag'ay Ulug'bek Abdurazzoq Samarqandiy Alisher Navoiy Jaloliddin Davoniy Xusayn Voiz Koshifiy Zaxiriddin Muhammad Bobur va boshqalar edi. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti XIX-XX asrlarda o'zining eng yuqori taraqqiyot darajasiga erishdi. Jadidchilik xarakati ta'lim-tarbiyaning yangi shakl mazmun va usullarini ilgari surdi. Ismoilbek Gaspirali ta'limoti tarafdorlari sifatida Maxmudxo'ja Bexbudiy, Munavvarqori Abdurashidxon, o'g'li Isxoqxon Ibrat, Abdulqodir Shakuriy, X.X. Niyoziy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy va ko'plab o'zbek ziyolilari maktab maorif masallarini ilmiy asoslashga xarakat qildilar. Sho'rolar tizimi sharoitida pedagogika fani o'ziga xos rivojlandi. Ammo bunda rus milliy ustunligi barcha xalqlarning ilg'or g'oyalarini ruslashtirdi. Shunday bo'lsada bu davrdagi fan taraqqiyotini inkor etib bo'lmaydi. Jahon pedagogikasi ilg'or g'oyalar bilan boyib boradi. Evropada XV-XVI asrlarda ko'p pedagogik ta'limotlar ishlab chiqildi. Yan Amon Kamenskiy, J.Lokk, J.J.Russo, I.G. Pestolotstsi, R. Ouen, A. Disterveg, I.Gerbard va boshqalar o'z ta'limotlarini yaratdilar. Rossiyada pedagogika fanini rivojlantirishga M.Lomonosov, V.Belinskiy, A.Gertsen, N.Chernishevskiy, K.Ushinskiy, N. Pirogov, P.Lesgraft va boshqalar hissa qo'shganlar. Sho'rolar tuzumi sharoitida A. Makarenko, S.Shatskiy, P.Blonskiy, N.Krupskaya, V. Suxomlinskiy, M. Danilov, I.Ogorodnikov, N.Boldrev, M.Skatkin, Yubabanskiy, I.Lerner, V.Kraevskiy va ko'plab boshqa olimlar pedagogika sohasida ilmiy va amaliy faoliyat yuritdilar.

Ta'lim uchun bo'lgan barcha harakatlarimizda – yetarli izlanish va o'qish bilan ta'minlashda – biz hech qachon ta'limning ayni yuragini sedan chiqarmasligimiz lozim: Yahshi o'qitishning o'zini yahshi o'qituvchilar shunchaki tug'ilmaydilar, ular eng baland ilhomning natijasidir. [1]

O'zbek olimlaridan S.Rajabov, E.Qodirov, J.Umurboev, A.Boboxanov, I.Xusanxo'jaev, Z.Mirtursunov, M.Ochilov, K.Hoshimov, O.To'raeva, N.Shodiev, E.Choriev va boshqalar pedagogikaning dolzarb muammolarini ishlab chiqishdi va
hayotga tadbiq etishda faollik ko'rsatdilar.

Ikkinchi savol bo'yicha nazorat topshiriqlari;

1. Dastlabki pedagogik g'oyalar nimada ifodalangan?
a) yozma pedagogik adabiyot namunalarida.
v) xalq tajribasi va og'zaki ijod namunalarida.
s) davlatning ta'lim –tarbiya haqidagi hujjatlarida.
d) san'at asarlarida.
2. Quldorlik jamiyatida ta'lim va tarbiya kimlarga berilgan?
a) jismonan kuchli va voyaga etgan kishilarga.
v) faqat erkak kishilarga.
s) ayollarga.
d) imkoni bo'lgan barcha kishilarga.
3. Noyob yozma pedagogik adabiyot namunasi.
a) «Baxt saodatga erishuvchi haqida»
v) o'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar»
s) donishmandnoma»
d) "Avesto"
4. Asarlarning muallifini aniqlang.
a) "Qobusnoma" A.Navoiy Al-Forobiy
v) "Fozil odamlar shaxri" A.Avloniy Kaykovus
s) "Axloqi muxsiniy" Koshifiy.
d) "Maxbub ul-qulub".
6. Pedagogika fan taraqqiyoti hissa qo'shgan chet ellik olimlarni ta'limotlarini qisqacha bayon eting.
7. Chet ellik buyuk pedagog olim.

a) Ya.A.Komenskiy
v) I.Nyuton V.
s) Galiley
d) J.Bruno

3 – savol bayoni.:

Pedagogika fani falsafa, tarix, iqtisod, psixologiya, sotsiologiya, etika va estetika kabi fanlar bilan doim aloqadordir. O'qituvchi – tarbiyachi bu fanlarni bilmay turib ish ko'rishi mumkin emas. Falsafa pedagogikaning metodologik asosini tashkil etadi. Etika, estetika fanlari esa pedagogikaning tarbiya nazariyasi bo'limi bo'yicha ma'lumot beradi.

Tarix, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlarni ham o'qituvchi bilmasligi mumkin emas. Pedagogika fani bolalar anatomiyasi, fiziologiyasi, maktab gigiyenasi va pediatriya kabi fanlar bilan ham mustahkam aloqada chambarchas bog'liq.

Pedagogika fani obyekti asta sekin kengayib bormoqda, natijada uning tarmoqlari bir necha guruhlarga ajratilmoqda. Ular pedagogika fanlari tizimi deb ataladi.

Hozirgi vaqtda pedagogika bir nechta tarmoqlarga bo'lingan.

1. **Maktabgacha ta'lim pedagogikasi -** maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash muammolari bilan shug'ullanadi;
2. **Maktab pedagogikasi -** maktab yoshdagi o'quvchilarni tarbiyalash va o'qitish haqida bahs yuritadi
3. **Kasb-hunar ta'limi** pedagogikasi
4. **Oliy ta'lim pedagogikasi -** talabalarga kasbiy ta'lim va tarbiya berish muammolari bilan shug'ullanadi
5. **Harbiy pedagogika**
6. **Pedagogika tarixi**
7. **Fanlarni o'qitish metodikasi**
8. **Oila pedagogikasi**
9. **Maxsus pedagogika.**

Pedagogika faqat sog'lom o'quvchilar ta'lim-tarbiyasi bilangina emas, balki kamolotda qusuri bor bolalar ta'lim-tarbiyasini ham o'rganadi. Bunday tarmoqlarni **maxsus pedagogika** deb yuritiladi.

1. **Maxsus pedagogika tuzilishiga:** oligofreno-pedagogika (aqliy jihatdan orqada qolgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish); "tiflo-pedagogika" (ko'r bolalarni tarbiyalash); surdo-pedagogika (kar-soqov bolalarni tarbiyalash)da gogopediya kabi fanlar kiradi.

Nazorat savollar:

1. Pedagogika qanday fanlar bilan yaqin aloqada rivojlanadi?
2. Falsafa – pedagogikaning metodologik asosi ekanligini izohlab bering.
3. Pedagogika fani tarmoqlariga nimalar kiradi?
4. Maktab o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berish bilan shug'ullanuvchi pedagogika haqida tushuncha bering.
5. Oligofreno pedagogikasi qanday qusuri bo'lgan o'quvchilar ta'lim – tarbiyasi bilan shug'ullanadi?
6. Pedagogika fanlari tizimining yoshlarga ta'lim-tarbiya berishdagi ahamiyatini tavsiflang.
7. Pedagogika qanday fanlar bilan bog'langan? Javobingizni izohlang.
8. Pedagogika fani tarmoqlariga nimalar kiradi?

4-savol bayoni.

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan aloqasi. Ijtimoiy tarbiya mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash ma'lum pedagogik hodisaning muayyan vaziyatlarda namoyon bo'lish qonuniyatlarini bilishni taqozo etadi. Bizga ma'lumki, pedagogik hodisa murakkab tuzilmaga ega bo'lib, uning umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun bir qator fanlarning imkoniyatlariga tayaniladi. Ko'rsatilgan fanlar pedagogik bilimlar rivojida qanday o'rin tutadi?

1. Falsafa – shaxs rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g'oya, qarash hamda ta'limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.
2. Iqtisodiyot nazariyasi – ta'lim muassasalarining faoliyatini yo'lga qo'yish, o'quv binolarini qurish, ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarini anglashga xizmat qiladi.
3. Sotsiologiya – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma'lumotlarga ega bo'lish asosida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.
4. Etika (axloqshunoslik) – shaxs ma'naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong va ma'naviy-axloqiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o'rin tutuvchi nazariy g'oyalarni pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o'rin tutadi.
5. Estetika – shaxs tomonidan go'zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo'nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.
6. Fiziologiya – o'quv-tarbiya jarayonida bolalarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang'ich asoslarni beradi.
7. Gigiena – o'quvchilarning salomatligini muhofazalash, ularning jinsiy jihatdan to'g'ri shakllantirishda nazariy va amaliy g'oyalari bilan yordam beradi.
8. Psixologiya – shaxsda ma'naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish uchun zamin yaratadi.
9. Tarix – pedagogika fani taraqqiyoti, ta'lim-tarbiya jarayonlarining dinamik, dialektik xususiyatlarini inobatga olish, shuningdek, xalq pedagogikasi g'oyalarini kelgusi avlodga uzatish uchun yo'naltiriladi.
10. Madaniyatshunoslik – o'quvchilarda insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy madaniyat asoslari haqidagi tasavvurni shakllantirish, ularda madaniy xulq-atvor xislatlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.
11. Tibbiy fanlar – shaxsning fiziologik-anatomik jihatidan to'g'ri rivojlanishini ta'minlash, uning organizmida namoyon bo'layotgan ayrim nuqsonlarni bartaraf etishga amaliy yondashuv, shuningdek, nuqsonli bolalarni o'qitish hamda tarbiyalash muammolarini o'rganishda ko'maklashadi.
12. Ma'naviyat asoslari – jamiyat, inson va ma'naviyat o'rtasidagi munosabatlarni, ma'naviyatning jamiyat taraqqiyoti, inson ongini rivojlanishidagi roli, fuqarolarni ma'naviy tarbiyalash omillarini o'rganadi.

Nazorat savollar :

1.Pedagogikaning qaysi fanlar bilan aloqasi borligini sanab o'tadilar.
2. Pedagogikaning metodologik asosini tashkil etuvchi fanga izoh beradilar.
3. Pedagogika fanini tarmoqlarga ajratadilar.
4. Pedagogika fanining mavzu bahslariga aniqlik kiritadilar.

5-savol bayoni.

Pedagogika fani rivoji muayyan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g'oyasi, mazmuni hamda natijalari hisobiga ta'minlanadi. Ijtimoiy va ishlab chiharish jarayonining keskin rivojlanishi shaxsni har tomonlama kamol toptirish imkonini beruvchi omil hamda pedagogik shart-sharoitlarni aniqlash, jamiyat va shaxs ma'naviyatiga ziyon etkazuvchi holatlarni bartaraf etishni taqozo qiladi. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash ularni keng yoki tor doirada o'rganish, mavjud ko'rsatkichlar vositasida ularning sodir bo'lish sabablarini o'rganish, zarur chora-tadbirlarni belgilash ilmiy izlanishlarni tashkil etish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Pedagogik izlanishlarning samarali kechishi bir qator ob'ektiv va sub'ektiv omillarga bog'liq. Mazkur jarayonda maqsadga muvofiq keluvchi, maqbul. Ayni vaqtda samarali bo'lgan metodlarni tanlay olish ham muhimdir.
Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlari shaxsni tarbiyalash, unga muayyan yo'nalishlarda chuqur, puxta ilmiy bilimlarni berishga berish tamoyillari, ob'ekti va sub'ektiv omillarini aniqlovchi pedagogik jarayonning ichki mohiyati, aloqa va qonuniyatlarini maxsus tekshirish va bilish usullaridir.

Ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasida pedagogik yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar dialektik yondashuvga asoslanadi. Pedagogik hodisa, voqelik va ularning qonuniyatlarilarni aniqlashga bunday yondashuv pedagogik hodisa va jarayondlarning umumiy aloqasi, ularning izchil, uzluksiz rivojlanishi, bolaning fiziologik rivoji uning psixologik, intellektual jihatdan takomilashtirib borishini ta'minlashi, harama-harshiliklarning shaxs kamolotini ta'minlashdagi o'rni va roli, shuningdek, dialektika kategoriyalarining ahamiyatini e'tirof etadi.

Pedagogik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish murakkab, muayyan muddatni taqozo etuvchi, izchillik, uzluksizlik, tizimlilik hamda aniq maqsad kabi xususiyatlarga ega bo'lgan jarayon bo'lib, uning samarali bo'lishi uchun bir qator shartlarga rioya etish zarur. Ular quyidagilardir:

1) muammoning dolzarbligi va mavzuning aniq belgilanganligi;
2) ilmiy farazlarning to'g'ri shakllantirilganligi;
3) vazifalarning tadqiqot maqsadi asosida to'g'ri belgilanganligi;
4) tadqiqot metodlar tizimiga nisbatan ob'ektiv yondashuv;
5) tajriba-sinov ishlari jarayoniga jalb etiluvchi respondentlarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, shuningdek, shaxs rivojlanishi qonuniyatlarining to'g'ri hisobga olinganligi;
6) tadqiqot natijalarini oldindan tashhislash va uning natijalarini bashoratlash;
7) tadqiqot natijalarining kafolatlanganligi.

Zamonaviy sharoitda pedagogik yo'nalishda tadqiqotlarni olib borishda quyidagi metodlardan foydalanilmoqda:

1. Pedagogik kuzatish metodi.
2. Suhbat metodi.
3. Anketa metodi.
4. Intervyu metodi.
5. Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
6. Test metodi.
7. Pedagogik tahlil metodi.
8. Bolalar ijodini o'rganish metodi.
9. Pedagogik tajriba metodi.
10. Matematik-statistik metod.

Pedagogik kuzatish metodi. Uni qo'llash jarayonida ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi, tajriba- avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'lumotga ega bo'linadi. Pedagogik kuzatish murakkab va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Kuzatish aniq maqsad asosida, uzluksiz, izchil va tizimli amalga oshirilsa, kutilgan natijani qo'lga kiritish mumkin. Olib borilayotgan pedagogik kuzatish ta'lim-tarbya sifatini oshirish, o'quvchi shaxsini shakllantirishga xizmat qilsa, mazkur metodning ahamiyati yanada oshadi.

Pedagogik kuzatuvni tashkil etishda xatoga yo'l qo'ymaslik muhimdir. Buning uchun tadqiqotchidan quyidagilar talab etiladi:

1) kuzatuv jarayonida aniq maqsadga egalik;
2) kuzatishni tizimli ravishda yo'lga qo'yish;
3) kuzatishning har bir bosqichida muayyan vazifalarni hal etish;
4) har bir holatning mohiyatini sinchiklab o'rganish;
5) xulosa chiharishga shoshilmaslik.

Suhbat metodi. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lingan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatga to'g'ri baho berish, muammoning echimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba-sinov ishlari sub'ektlari imkoniyatlarini muammo echimiga jalb etishga yordam beradi. Suhbat maqsadga muvofiq holda indiviudal, guruhli hamda ommaviy shaklda o'tkaziladi. Suhbat jarayonida respondentlarning imkoniyatlari to'la-to'kis namoyon bilishga erishish muhimdir. Uning samarali bo'lishi uchun quyidagilarga amal qilish maqsadga muvoiq:

1) maqsaddan kelib chiqqan holda suhbat uchun belgilanuvchi savollarning mazmuni aniqlash hamda savollar o'rtasidagi mantiqiylik va izchillikni ta'minlash;
2) suhbat joyi va vaqtini aniq belgilash;

3) suhbat ishtirokchilarining soni xususida ma’lum to’xtamga kelish;
4) suhbatdosh to’g’risida avvaldan muayyan ma’lumotlarga ega bo’lish;
5) suhbatdosh bilan samimiy munosabatda bo’lish;
6) suhbatdoshning o’z fikrlarini erkin va batafsil ayta olishi uchun sharoit yaratish;
7) savollarning aniq, qisqa va ravshan berilishiga erishish;
8) olingan ma’lumotlarni o’z vaqtida tahlil qilish.

Anketa metodi (frantsuzcha – tekshirish). Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to’plangan dalillar boyitiladi. Anketa metodi ham tizimlangan savollar asosida respondentlar bilan muloqotni tashkil etishga asoslanadi. Anketa savollariga javoblar, ko’p hollarda, yozma ravishda olinadi. O’rganilayotgan jarayon mohiyatidan kelib chiqqan holda anketa savollari quyidagicha bo’ladi:

1) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);
2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo’q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniharli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

Anketa metodini qo’llashda ham bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir:

1) anketa savollari tadqiq etilayotgan muammoning mohiyatini yoritishga xizmat qilishi lozim;
2) anketa savollari yirik hajmli va noaniq bo’lmasligi kerak;
3) anketa savollari o’quvchilarning dunyoharshi, yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish asosida tuzilishi zarur;
4) anketa savollari respondentlar tomonidan to’la javoblar berilishini ta’minlovchi vaqtni kafolatlay olishi zarur;
5) anketa o’quvchilarning pedagogik va psixologik tavsifnomalarini tuzish manbaiga aylantirib yuborilmasligi zarur;
6) anketa javoblari muayyan mezonlar asosida puxta tahlil etilishi shart.

Intervyu metodi respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirilishini ta’minlaydi. Intervyu respondent e’tiboriga turkum savollarni havola etish asosida o’tkaziladi. Intervyu jarayonida olingan savollarga nisbatan tadqiqotchi tomonidan munosabat bildirilishi uning samarasini oshiradi.

Ta’lim muassasasi hujjatlarni tahlil qilish metodi. Pedagogik hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta’lim muassasalari faoliyati mazmunini yorituvchi ma’lumotlarni tekshirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur metod O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarining ta’lim muassasalari amaliyotidagi bajarilish holatini o’rganish, bu boradagi faolllik darajasi, erishilgan yutuq hamda yo’l qo’yilgan kamchiliklarni aniqlash, ilg’or tajribalarni ommalashtirish va ta’lim muassasasi pedagogik tajribasini oshirish maqsadida qo’llaniladi.

Ta’lim muassasasi faoliyati mohiyatini yorituvchi hujjatlar quyidagilardan iborat: o’quv mashg’ulotlarining jadvali, o’quv dasturi, guruh (yoki sinf) jurnallari, o’quvchilarning shaxsiy varaqalari, buyruqlar, Pedagogik Kengash yig’ilishi bayonnomalari yozilgan daftar, Pedagogik Kengash harorlari, ta’lim muassasasi smetasi hamda pasporti, tarbiyaviy ishlar rejasi, o’quv-tarbiya ishlarini tashkil etish borasidagi hisobotlar, ta’lim muassasasi jihozlari (o’quv partalari, stol stullar, yumshoq mebellar va hokazolar) qayd etilgan daftar va hokazolar.

Mazkur metod muayyan yo’nalishlarda o’quv-tarbiya ishlari samaradorligi darajasi, o’quvchilarda hosil bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalar hajmi, ilg’or pedagogik tajribalar mazmunini o’rganishda muhim ahamiyatga ega.

Test metodi. Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki faoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo’yicha o’zlashtirilgan nazariy bilim va amaliy ko’nikma, malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Test o’z mohiyatiga ko’ra quyidagi savollardan iborat:

2) ochiq turdagi savollar (respondentlarning erkin, bafsil javob berishlari uchun imkon beruvchi savollar);
2) yopiq turdagi savollar (respondentlar «ha», «yo’q», «qisman» yoki «ijobiy», «qoniharli», «salbiy» va hokazo tarzdagi javob variantlarini tanlash orqali savollarga javob beradilar).

3) to'g'ri javob variantlari qayd etilgan savollar (respondentlar o'z yondashuvlariga ko'ra to'g'ri deb topgan javob variantini belgilaydilar).

Test metodini qo'llashda aniqlanishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni turkum asosida berilishiga e'tibor berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodning afzalligi respondentlar javoblarini aniq mezonlar bo'yicha tahlil etish imkoniyati mavjudligi hamda vaqtning tejalishi bilan tavsiflanadi. Biroq, metod ayrim kamchilikdan ham holi emas. Chunonchi, aksariyat holatlarda javoblar yozma ravishda olinadi, shuningdek, respondent taklif etilayotgan javob variantlardan birini tanlashi zarur. Shu bois respondent o'z fikrini batafsil ifoda etish imkoniyaga ega emas.

Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo'nalishlarda o'rganilganlik darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning nazariy jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

Bolalar ijodini o'rganish metodi. Mazkur metod o'quvchilarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma'lum fan sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Uni qo'llashda o'quvchilarning ijodiy ishlari – kundaliklari, insholari, yozma ishlari, referatlari, hisobotlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Metodning afzalligi shundaki, u ma'lum o'quvchiga xos bo'lgan individual imkoniyatni ko'ra olish, baholash va uni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Bolalar ijodini o'rganishning quyidagi shakllari mavjud:

1) fan olimpiadalari;
2) turli mavzulardagi tanlovlar;
3) maktab ko'rgazmalari;
4) festivallar;
5) musobaqalar.

Pedagogik tajriba (eksperiment – lotincha «sinab ko'rish», «tajriba qilib ko'rish») metodi. Pedagogik tajriba metodidan muammo echimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olishi, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z in'ikosiga ega bo'la olishi hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Muayyan muammo echimini topishga yo'naltirilgan pedagogik tajriba ma'lum doirada, soni aniq belgilangan respondentlar ishtirokida amalga oshiriladi. Mazkur metoddan foydalanish tadqiqotchi tomonidan ilgari surilayotgan maxsus metodikaning samaradorligini aniqlay hamda unga baho bera olishi zarur.

Pedagogik tajriba ham bir qator shartlarga amal qilgan holda tashkil etiladi. Xususan:

1) tajribaning maqbul loyiha (dastur) asosida uyushtirilishi;
2) tadqiqot ilmiy farazining puxta asoslanishi;
3) tadqiqot ob'ektlari vv usullarining to'g'ri tanlanishi;
4) tajriba o'tkazilish vaqti hamda davomiyligini aniqlanishi;
5) zarur pedagogik shart-sharoitlar (asbob-uskuna, jihozlar, vositalar)ning yaratilganligi;
6) tajriba ma'lumotlarini umumlashtirish, tahlil qilish va natijalarni qayta ishlash.

Pedagogik tajriba yakunida olingan natijalarga asoslanib umumiy xulosaga kelinadi va ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Matematik-statistik metod tajriba-sinov ishlari, shuningdek, umumiy holda tadqiqotning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida qo'llaniladi, muammo holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar maxsus matematik formulalar yordamida qayta tahlil etiladi. Yakuniy qiymat tadqiqot samarasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Ayni vaqtda pedagogik yo'nalishda tadqiqotlar olib borishda Styudent, Ko'virlyag, Rokich, V.P.Bespalko hamda V.V.Grechixin metodlaridan keng foydalanilmoqda.

Nazorat savollar:

1. Metod tushunchasining mohiyatini ochib bering.
2. Ilmiy-tadqiqot metodlarining fan taraqqiyotidagi ahamiyatini tahlil qiling.
3. Pedagogik ilmiy-tadqiqot metodlarining ta'lim va tarbiya metodlaridan farqini ajratib bering.
4. Pedagogik ilmiy-tadqiqotlarning maqsad-vazifalaridan kelib chiqqan holda qo'llaniladigan metodlar tizimini so'zlab bering.

5. O'quvchi shaxsini o'rganish uchun so'rovnoma (anketa) tayyorlang va uni o'z maktabingizda to'ldirib natijalarini umumlashtiring.

Asosiy adabiyotlar

1. Pedagogika. G'G' M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Ibragimov X.I.., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
3. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. – T.: TDPU, 2012.
4. Yuzlikaeva E., Madyarova S., Yanbarisova E., I.Morxova. Teoriya i praktika obhey pedagogiki. – T.: TGPU, 2014.
Principles of Learning and Teaching. Effective pedagogy. P – 12.
1. Leadership guide.Senior leaders, subject leaders and teachers in secondary schools.
2. Pedagogy and Practice:Teaching and Learning in Secondary chools . Status: Recommended Date of issue: 09-2004. Ref: DfES 0444-2004 GGuidance.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta`minlash taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. "O`zbekiston". 2017
2. Xasanboev J, To'rakulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2008 .
Elektron ta'lim resurslari
1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. Uz

3-MAVZU: SHAXSNING RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA IJTIMOIYLASHUVI

Asosiy savollar:

"Individ" va "shaxs" tushunchasi.
Shaxs rivohlanishining ijtimoiylashuv bilan aloqadorligi.
Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit va tarbiyaning tutgan o'rni.
Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari.

Darsning maqsadi: Shaxsning kamol topishi haqidagi ilmiy ta'limotlarni talabalarga tushuntirib beradi. Shaxs sifatida kamol topishning xususiyatlarini farqlashga o'rgatadi. Har bir talabada o'zining kamolot xususiyatlarini tahlil qilishga o'rgatadi.

1-savol bayoni.

Shaxs tushunchasi insonga taalluqli bo'lib, psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyatning a'zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo'lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o'zini yaxlit inson sifatida his etishi, o'z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog'i kerak.
"Individ" nima? Bola ma'lum yoshga qadar "individ" sanaladi. Individ (lotincha "individium" so'zidan olingan bo'lib, «bo'linmas», «alohida shaxs», «yagona» ma'nolarini anglatadi) xatti-harakatlarini shartli refleks yordamidagina tashkil eta oluvchi biologik mavjudotdir.
Individuallik esa shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, uning namoyon bo'lishi tarbiya jarayonini amalga oshirishda bola shaxsini puxta o'rganish, uning yashash sharoitlaridan etarli darajada xabardor bo'lish va ularning hisobga olinishini taqozo etadi.
Individual yondashuv o'quvchilarning aqliy qobiliyatlari, bilishga bo'lgan qiziqish hamda iste'dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega.
Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarining iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta'riflanadi.
Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axlohiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo'lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuharoning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo'nalishi bo'yicha mehnat qilish huquqni kafolatlaydi.
Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.
Rivojlanishning o'zi nima?
Rivojlanish shaxsning fiziologik va intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayondir. Rivojlanish mohiyatan oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o'tish, yangilanish, yangining paydo bo'lishi, eskining yo'qolib borishi, miqdor o'zgarishining sifat o'zgarishiga o'tishini ifodalaydi. Rivojlanishining manbai qarama-qarashliklarni o'rtasidagi kurashdan iboratdir.
Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi.
Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi.
Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga etadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Chunki rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi.
Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.
Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.
Tarbiya bolaga samarali ta'sir etishi uchun o'sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. Shunday qilib, rivojlanish va tarbiya o'rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

NAZORAT SAVOLLAR:

1. «Individ», «shaxs», «individuallik» tushunchalarini sharhlang.
2. Rivojlanish va shaxs rivojlanishini ta'riflang.

2-savol bayoni.

Shaxs ijtimoiy munosabatlar jarayonida shakllanadi. Chunki ta'lim jarayonida bolalarga jamiyatda birga yashash bilan bog'liq bo'lgan holat va hodisalar o'rgatiladi. Bu jarayonda o'quvchi jamiyatga «kirishadi» va u bilan o'zaro munosabatda bo'ladi. Ular ma'lum ijtimoiy tajriba (bilim, qadriyat, axloqiy qoida, ko'rsatma) orttiradilar, ya'ni, ijtimoiylashadilar.
Ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan murakkab jarayon. Chunki har qanday jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallr, axloqiy me'yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola yuqoridagi qoidalarni qabul qilib, o'rganib mazkur jamiyatda yashash, uning a'zosi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning uchun jamiyat u yoki bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq ta'sir etadi. Bu ta'sir ta'lim vositasida amalga oshadi. Ikkinchi tomondan, shaxsning shakllanishiga turli g'oyalar, ijtimoiy muhit ta'sir ko'rsatadi.
Odamlar ijtimiy me'yorlar va axloqiy qoidalar bilan munosabatga kirishadilar va uni o'rganadilar.
Ijtimoiylashuv jarayoni ichki qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiylashgan inson jamiyat talablariga mos kelishi, unga «kirishib» ketishi, jamiyat rivojlanishidagi salbiy jihatlarga, shaxsning individual rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi hayotiy holatlarga qarshi turishi kerak. Lekin hayotda ba'zan aksi ham bo'ladi: to'liq ijtimoiylashgan, jamiyatga kirishib ketadigan, ammo muhitda ba'zi salbiy holatlarga qarshi kurashishda faollik ko'rsatmaydigan odamlar ham mavjud.

Bu holat ko'p jihatdan butun jamiyat, tarbiya muassasalari, o'qituvchilar hamda ota-onalarga ham taalluqli. Tarbiyada qarama-qarshilik insonparvarlik g'oyasi yordamidagina bartaraf etilishi mumkin.

Zero, O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ham ta'kidlab o'tilganidek, uzluksiz ta'limni tashkil etish, rivojlantirish hamda ta'limning ijtimoiylashuviga erishish dolzarb masaladir. Ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni shakllantirish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabilar muhim ijtimoiy talablar hisoblanadi.

Nazarot savollar:

1. Insonning shaxs sifatida kamol topish xususiyatlarini so'zlab bering
2. Shaxs kamolotining yo'nalishlarini aniqlang.

a) mehnatga loyoqatli bo'lish.
v) aqliy ulg'ayish.
s) vatan himoyasiga shay turish.
D) KASB-HUNAR EGALLASH.

3. Bilimdon, o'qimishli, keng dunyoqarashga ega bo'lishlik.

a) ruhiy kamolotga erishganlik
v) axloqiy komillik
s) aqliy ulg'ayganlik
d) ruhiy etuklik

4. Shaxs-ta'lim tizimining asosiy ob'ekti va sub'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi ekanligini izohlab bering.
5. Turli omillar tomondan shaxs kamolotiga yondoshuvlarini yozma tarzda ifodalab bering.

3-savol bayoni.

Fanda odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta'siri o'rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko'pdan buyon davom etmoqda.

Insonning shaxs sifatida rivojlanishida ijtimoiy hodisalarning ta'siri kuchli bo'ladimi? Yoki tabiiy omillar etakchi o'rin tutadimi? Balki tarbiyaning ta'siri yuqoridir? Ular o'rtasidagi o'zaro munosabati qanday?

Fanda biologik yo'nalish deb nomlangan nuqtai nazar etakchi o'rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo'yadi. Ular tug'ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o'rnini belgilab bergan, deydilar.

XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi.

Xorij psixologiyasidagi yana bir ohim – bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir.

Progmatizm oqimi va uning vakillari D.D'yul, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni fahat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar.

Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar.

Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishi ijtimoiy omil omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar.

Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. Shu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Ular ijtiomiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga etishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga suyaniladi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydilar.
Haqiqatdan ham, shaxs mehnat faoliyati zaminida rivojlanadi, kamolga etadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa o'z navbatida inson faolligini namoyon etadi. Zero, shaxs ma'lum ijtimoiy tuzum mahsulidir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin.
Faylasuflar shaxsni tabiatning bir bo'lagi deb baholaydilar. Bu insondagi layoqat kurtaklari bo'lib, uning rivojlanishi uchun tarbiya kerak, degan g'oyani ifodalaydi.
Jamiyat taraqqiyoti shaxs rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarni yaratadi. Demak, shaxs bilan jamiyat o'rtasida ham uzviy aloqa mavjud.
Shunday qilib, odam shaxsining jamiyatdagi rivojlanishi tabiat, muhit, inson o'rtasidagi murakkab aloqa ta'siri ostida ro'y beradi, inson ularga faol ta'sir etadi va shu yo'l bilan hayoti va o'z tabiatini o'zgartiradi.
Shaxsga ijtimoiy muhitning ta'siri ham muhim. Bu tarbiya tizimi orqali amalga oshiriladi. Ya'ni,
Birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.
Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga etadi.
Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin.
To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.
Demak, tarbiya bilan rivojlanish bir-biriga ta'sir etadi, bu tarbiya doimiy va uzluksizdir.
Shunday qilib, bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham etakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.
Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu degani inson qanchalik mehnat qilsa, uning rivojlanishi shunchalik yuqori bo'ladi.
Faoliyat o'zi nima? Faoliyat shaxs tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq tashkil etiluvchi kundalik, ijtimoiy yoki kasbiy harakatlarning muayyan shakli, ko'rinishi. Insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko'ra belgilanadi.
Faoliyat jarayonida inson shaxsi, har tomonlama va bir butun, yaxlit holda rivojlanadi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishi uchun uni to'g'ri tashkil etish lozim. Lekin ko'p holatlarda shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilmaydi, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatlari cheklangan bo'ladi.
O'smir va o'spirinlar faoliyatining asosiy turlariga o'yin, o'qish va mehnat kiradi. Ular yo'nalishiga ko'ra bilishga doir, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik hamda shaxsiy qiziqishga ko'ra tanlangan sohalardan iborat. Faoliyatning asosiy turi – muloqotdir.
Faoliyat faol va passiv bo'lishi mumkin. O'smir faoliyati muhit va tarbiya ta'sirida faollashishi yoki susayishi mumkin. Inson shaxsining rivojlanishida uning butun vujudi bilan sevib, o'z imkoniyatlarini namoyon etib, mehnat qilish, o'zini shaxs sifatida ko'rsata olishi unda o'z faoliyatidan qoniqish hosil qiladi. Uning ijtimoiy mehnatdagi ishtirokida faollik ko'zga tashlanadi.
Ta'lim jarayonida faollik o'quvchiga bilimlarni chuqur va mustahkam egallashga, o'z qobiliyatini namoyon etishga yo'llaydi. Bilishga bo'lgan faollik o'quvchining intellektual rivojlanishini ta'minlaydi.
Faollik ko'rsatishning asosini esa hamma vaqt ehtiyoj tashkil etadi. Ehtiyojlarning xilma-xilligi faoliyatining ham turlarini kengaytiradi. Shunga ko'ra, o'quvchining turli yosh davrlarida ularning faoliyati turlicha bo'ladi. Ta'lim muassasasida hamma vaqt bir xil talab shaxs rivojlanishida ijobiy natija beravermaydi. Turli yosh davrlarida faoliyatning turlari va mohiyati o'zgarib turishi kerak.
Insonning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir. Chunki har bir inson o'z mehnati, g'ayrati, intilishi bilangina faollashadi. O'qituvchi qanchalik yaxshi o'qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o'zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli kechmaydi. Zero, barcha ma'naviy-axlohiy kamchiliklarning asosiy sababi ham insonning o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'ymaganligidadir.
Shuning uchun ham inson faoliyati uning rivojlanishi natijasi hamdir. Demak, shaxs faolligi asosida ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik xislatlarini shakllantirish – uning shaxslik imkoniyatlarini namoyon etishi orqali faoliyatini rivojlantirish muhim sanaladi.

Nazorat savollar:

- 1. Shaxs kamolotining omili
- a) shaxs kamolotini tezlashtiruvchi vositalar;
- v) kamolotga ta’sir etuvchi usullar;
- s) shaxs kamolotini ta’minlovchi.
- d) irsiyat
- 2.Ta’lim va tarbiyani shaxs kamolotining omili sifatida izohlab bering. 3.Shaxs kamolotining asosiy omillariga nimalar kiradi?
- a) ota-onaning farzandlariga qiladigan yaxshi munosabatlari.
- v) o’qituvchining pedagogik mahorati.
- s) ta’lim va tarbiya ijtimoiy muhit irsiyat faollik.
- d) bolaning barcha ehtiyojlarining qondirilishi.
- 4.Tashqi qiyofa qon aylanishi oliy nerv faoliyati qaysi omil ta’sirida shakllanadi?
- a) shaxs faolligi.
- v) irsiyat.
- s) ta’lim va tarbiya.
- d) ijtimoiy muhit.
-
- 5.Til o’rganishda urf-odatlarni egallashda qaysi omilning ta’siri kuchli bo’ladi?
- a)ijtimoiy muhit.
- v) ta’lim va tarbiya.
- s) irsiyat.
- d) milliy mansubdorlik.

4-savol bayoni.

Muayyan bir yosh davriga xos bo’lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlar yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta’lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. Shunda bola rivojlanishiga tarbiya ta’siri kuchli bo’ladi.

Bolalarning tarbiyasiga to’g’ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o’qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. Chunki bola orginizmining o’sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo’ladi. Abu Ali Ibn Sino, Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniylar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o’tganlar.

Bolaning o’ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. Chunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo’lishi mumkin.

Masalan, ko’rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg’ayrat yoki g’ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig’inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi, qobiliyati kabilar nerv faoliyati tizimining ta’siri bo’lib, o’qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual – o’ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o’ziga xos xususiyatini o’rganish metodikasini bilish muhim. Temperament (lot. «temperamentum» «qismlarning bir-biriga munosabati» ma’nosini anglatib, shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmuidir.

Shuningdek, turli yosh davrlarining o’ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Masalan, 5-sinf o’quvchilari bilan 10-sinf o’quvchisini tenglashtirib bo’lmaydi. Shuning uchun bolaning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo’linadi:

1. Go’daklik davri – chaqaloqlik (1 oy) davri tugagandan to bir yoshgacha bo’lgan davr.
2. Bog’chagacha bo’lgan yosh davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha.
3. Maktabgacha ta’lim yoshi – 3 yoshdan 7 yoshgacha.
4. Kichik maktab yoshidagi o’quvchilar –7-11-12 yoshgacha.
5. O’rta maktab yoshidagi o’quvchilar (o’smirlar) 14-15 yosh.
6. Katta yoshdagi maktab o’quvchilari (o’spirinlar) – 16-18 yosh.

Kichik maktab yoshida o'yin faoliyatining o'rnini endi o'qish faoliyati egallaydi. Bu juda qiyin o'tish davri bo'lib, bolaning bo'yi, og'irligi jihatdan uning tashqi ko'rinishi kam farq qiladi. Suyaklari qotmagani tufayli tez shikastlanadi. Muskullari tez o'sishi tufayli serharakat bo'ladi. Bosh miyasi tez rivojlanadi.

Jismoniy o'sishiga xos bu xususiyatlar tarbiyachidan ehtiyotkorlikni talab etadi. Bu yoshda bola bilim olish va o'rganishga qiziquvchan bo'ladi.

Bolalar qiziqishini qanoatlantiruvchi qiziqarli uchrashuv, sayr va tomosha va ekskursiyalarni tashkil etish zarur. Mazkur yosh davri o'quvchilariga emotsionallik xos, ularning fikrlashi obrazli bo'ladi, his-tuyg'ulari mazmuni o'zgaradi. Ular odamlar bilan aloqa qilishga qiziqadilar.

O'rta maktab yoshi (o'smirlik 12-15 yosh). O'smirlikning murakkabligi anotomik-fiziologik va psixologik xususiyatdagi kuchli o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Bolaning o'sishi tezlashadi. Bu davrni o'tish davri ham deyiladi. Bu davrda jinsiy etilish davri boshlanadi. Bu bolaning fe'l-atvoriga ta'sir etadi. O'smir hayotida mehnat, o'yin, sport va jamoat ishlari katta rol o'ynaydi. Ba'zilarining o'zlashtirishi pasayadi, intizomi bo'shashadi.

Hozirgi davr o'smirlarining ruhiyatida quyidagi holatlar ko'zga tashlanadi:

1. Intellektual rivojlanish – tafakkur qobiliyati, aqliy faoliyatni yuqori saviyada tashkil etishni talab etadi, bilishga qiziqishi ortadi. Bu davrda to'garaklar, studiya, sektsiya, turli tadbirlar o'tkazish katta ahamiyatga ega. Ularning kitob o'qishga qiziqishi ortadi.
2. O'z-o'zini anglash, baholash, tarbiyalash shakllanadi. U o'zini boshqalar bilan solishtira boshlaydi.

Ammo yuqoridagilar bilan bir qatorda o'smir xarakterida murakkab qarama-qarshiliklar ham mavjud bo'ladi. Bu o'smir faoliyati, xulqida yangi xislatlar – yosh xususiyatning yangidan boshlanishi sanaladi.

Lekin o'smirlarnig hammasida ham bilishga qiziqish darajasi yuqori emas. 38 foiz o'smir hech qaysi o'quv fanlarini o'qishga qiziqmaydi. Boshqalarining uchta yoki ikkita o'quv fani, aksariyat holatlarda esa bitta o'quv faniga qiziqishi aniqlangan. Kichik yoshdagi o'smirlar qiziqishi o'qituviga bog'liq. Lekin ularning qiziqishlari, shuningdek, kitob o'qishlari ham barqaror emas.

Turli to'garaklarga 21 foiz o'smir qatnashadi, qolganlari sport yoki musiqa bilan shug'ullanadi. 40 foiz o'quvchida sinfdan tashqari ishlarda qatnashishda ham barqarorlik yo'q.

Eng muhim qiziqish – teleeshittirishlarga qaratilgan. TVni har kuni 88 foiz o'smir tomosha qiladi.

Ular oddiy kunni o'z ixtiyorlari bilan qanday o'tkazadilar, degan savolga javob topish uchun o'tkazilgan tadqiqot natijalari quyidagilarni qayd etdi: 85 foiz o'smir vaqtini o'z holicha o'tkazadi, 70 foizi kino yoki televizor ko'radi, 50 foizi sport bilan shug'ullanadi, 45 foizi uxlab yoki yotib dam oladi. Shuningdek, yomon baho olmaslik uchun maktabga bordigan o'smirlarning soni 15 foizni tashkil etadi.

O'smirlarda biror narsaga erishishga nisbatan talab rivojlanadi. Ular tomonidan ijtimoiy talablarning bajarilishi asab tizimining rivojlanishiga ta'sir etadi. Shuning uchun maktab hayoti "qiyin" vazifalarga to'liq bo'ladi.

Bu yoshda o'smirlar kattalar oldida o'zining erkinligini namoyish etishga harakat qiladi. O'z-o'zini tarbiyalashga bo'lgan talab o'sadi. "Dangasa", "qo'pol", "bee'tibor", "qobiliyatsiz" degan kattalarning baholarini ular og'rinib qabul qiladilar.

O'smir yoshida o'g'il va qiz bolalar o'rtasida farq kuchayadi. VII sinfdan intellektual malakalar pasayadi. Shuning uchun bu davrda bolalar rivojlanishiga katta e'tibor berish lozim.

O'z-o'zini tarbiyalash natijasida o'g'il bolalar kuchli, erkin, e'tiborli, jasur; qizlar esa – o'ta ko'nikuvchan, kamtar va jiddiy bo'la boshlaydilar.

Shuning uchun o'smirga o'z vaqtini rejalashtirishda yordam berish zarur. 13-14 yoshgacha o'smirda burch hissi, mas'uliyatni his etish, vazminlik paydo bo'la boshlaydi. Muhimi, o'smir shaxsini hurmat hilish, kamsitmaslik, katta bo'lib qolganligini tan olish zarur.

Katta maktab yoshi – kollej, litsey o'quvchilari (o'spirinlik davri 15-18 yosh). Bu davr o'spirinlarning ilk balog'atga etgan davridir. Mazkur davrda jinsiy etilish tugaydi. Ularda mustaqillik sezila boshlaydi. O'spirin yoshlar hayotga kelajak nuqtai nazaridan qaray boshlaydilar. Madaniy darajasini orttirishga intilish kuchaya boradi. his-tuyg'ularida ham o'zgarish yuz beradi. O'z-o'zlarini tarbiyalashga kirishadilar. Ideal tanlash va unga ergashish kuchayadi. Bu davrda ular o'rtasida munozaralar o'tkazish yaxshi natija beradi. O'spirinlar o'z guruhiga intiladi. Shuning

uchun ham o’spirinning barcha intilishlari ma’lum maqsadga yo’naltirilgan bo’lishi zarur. Ularda o’quv fanlarini tanlashga nisbatan ehtiyoj kuchaya boradi.

O’spirinlik bu ahliy faoliyatning ham rivojlanish davri sanaladi. Ular o’z fikrlarini mustaqil ifodalashga harakat qilib, shaxslik xislatlarini namoyish eta boshlaydilar. Shunda o’qituvchilar va katta yoshlilar ularning hali g’o’r fikrlari va dunyoqarashlarini to’g’ri yo’naltirishlari muhim. Zero, bu davrda o’z-o’zini anglash, ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy xislatlari tez shakllanadi.

Bunga uning faoliyati, jamoada va jamoat joylarida o’zini tutishi, odamlar bilan tez muloqotga kirishishi ham turtki bo’ladi. O’zini kattalardek his etish, o’ziga xosligini namoyon etish, boshqalarning diqqatini o’ziga qaratishga harakat qiladi. Axloqiy muammolarni o’z qarashlari nuqtai nazaridan hal eta boshlaydi. Hayot mohiyati, baxt, burch, shaxs erkinligini o’z qiziqishlari bilan o’lchaydilar. Shu bois ularga katta yoshlilarning beg’araz, to’g’ri yo’nalish berishlari o’ta muhim.

Mazkur davrda yoshlar xulqi ham tarkib topa boshlaydi. Bunda shaxsning jamoadagi mavqei, jamoa shaxslari bilan muomala-muloqoti muhimdir.

Albatta, bu borada ta’lim muassasasida faoliyat ko’rsatayotgan yoshlar ijtimoiy harakati ta’siri katta ahamiyatga ega. Chunki o’spirin-yoshlar mustahil hayot ostonasida bo’lib, ularning bu hayotga to’g’ri qadam qo’yishi uning jamiyatning faol fuqarosi bo’lishining muhim shartidir.

NAZORAT SAVOLLAR:

- 6.Bola yoshini davrlashtirishning tartibi va har bir davrga xos bo’lgan xususiyatlarni yozma izohlab bering.
- 7.Maktabgacha davr yoshi qanday bo’laklardan iborat.
- a) bog’cha davri.
- v) yasli davri.
- s) go’daklik davri.
- d) bolalik davri.
- 8.O’spirinlik davriga necha yoshdagi bolalar kiradi?
- a) 14-15 yosh
- v) 15-17 yosh
- s) 11-14 yosh
- d) 7-12 yosh

9.Turli yoshdagi o’quvchilarning o’sish xususiyatlarini o’rganib kamolotlarining qanday darajada ekanligini yozma tahlil qiling.

-

Asosiy adabiyotlar

1. Pedagogika. G’G’ M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O’zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.

2. Ibragimov X.I.., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.

3. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. – T.: TDPU, 2012.

4. Yuzlikaeva E., Madyarova S., Yanbarisova E., I.Morxova. Teoriya i praktika obhey pedagogiki. – T.: TGPU, 2014.

Principles of Learning and Teaching. Effective pedagogy. P – 12.

Leadership guide.Senior leaders, subject leaders and teachers in secondary schools.

Pedagogy and Practice:Teaching and Learning in Secondary chools . Status: Recommended Date of issue: 09-2004. Ref: DfES 0444-2004 GGuidance.

Qo’shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta`minlash taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. “O`zbekiston”. 2017

2. Xasanboev J, To’rakulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug’at. – T.: Fan va texnologiya, 2008 .

Elektron ta’lim resurslari

1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. Uz

3-MAVUZ: TARBIYA NAZARIYASI. TARBIYA JARAYONI.

Asosiy savollar:

Tarbiya tushunchasi, tarbiyaning maqsadi va umumiy vazifalari.
Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: maqsad, tarbiya maqsadi, tarixiy xarakter, mafkura, tarbiya vazifalari, tarbiyaning tarkibiy qismlari, aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, ekologik, iqtisodiy, mehnat, huquqiy tarbiya.

1-asosiy bayoni:

Bundan o'n yil oldingi davrda yoshlarni tarbiyalash maqsadi bilan bugungi kundagi bu masalaga tegishli munosabat o'rtasida katta farq borligi hech kimga sir emas.

Shuning uchun ham tarbiyaning aniq maqsadini belgilab olish pedagogikaning birinchi masalalaridan hisoblanadi. Yosh avlodni qanday ruhda tarbiyalash, bunga erishish uchun qaysi yo'lni tanlash tarbiya maqsadi muammosini hal qilish bilan belgilanadi.

Tarbiya ijtimoiy hayotning hayotiy va uzluksiz tushunchasi bo'lib, u tarixiy xarakterga ega bo'lib kelgan.

Qadimgi Gretsiyada tarbiyaning maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlodda yaxshi fazilatga ega fuqaroni, vatanparvarlikni, jasurlikni, sadoqatni, do'stlikni rivojlantirish bo'lgan.

O'rta asrlarga kelib, ya'ni feodalizm davrlarida yosh avlod diniy e'tiqod, iymon, axloqqa ega bo'lishi kerak bo'lgan, Markaziy Osiyo xalqlari bu yo'nalishda katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Bu davr buyuk mutafakkirlarni dunyoga keltirgan.

Siyosiy-ijtimoiy tuzum o'zgarishi bilan tarbiya maqsadi muammosi ham yangilanib bordi.

Bizning hayotimizga qizil imperiya kirib kelishi bilan kommunistik mafkura yoshlarimizning tarbiyasida bosh maqsad bo'lib xizmat qildi. Bugungi kunga qadar uning ruhiy asoratlaridan to'liq qutildik deb bo'lmaydi. Chunki u 70 yildan ortiq hukmronlik qildi. Bu davrda bir qancha yutuqlarga erishgan bo'lsak-da, lekin juda ko'p narsadan ham judo bo'ldik. Jumladan, milliy qadriyatlarimiz, ma'naviy-ma'rifiy boyliklarimiz, diniy e'tiqod va iymonimiz kabi ko'plab tarbiyaviy ozuqa vositalarimizdan uzoqlashib ketdik.

Mustaqillik sharofati bilan erkinlikka erishdik, boy ma'naviy qadriyat va an'analarimiz qayta tiklandi. Hammamiz azaldan orzu qilgan kunlarga erishdik. O'zbekistonning ertangi kuni, ravnaqi, rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan joy olishi albatta bugungi kun yoshlariga bog'liq. Buning uchun yosh avlodga dunyo standartlari darajasida zamonaviy bilimlar berish, ularni har tomonlama etuk, ma'naviyatli etib tarbiyalash lozim.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning bir qancha asarlarida, «Ta'lim to'g'risida» gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va boshqa manbalarda Respublikamiz yoshlarini qanday insonlar etib tarbiyalash lozimligi aniq belgilab berilgan. Pedagogika bugungi kun hayotimiz talablaridan kelib chiqqan holda o'z tarbiya maqsadi va vazifalarini belgilab olgan.

Tarbiyaning asosiy maqsadi – yosh avlodni har tomonlama etuk, barkamol insonlar etib shakllantirishdir. Barkamol inson o'zida ma'naviy va jismoniy etuklikni mujassam etadi.

Yoshlarimizni tarbiyalash uchun birinchi galda Sharq mutafakkirlarining meroslari dasturamal bo'lib xizmat qiladi. Al- Forobiy, A.Yassaviy, B.Naqshbandiy, Al-Buxoriy, Beruniy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Firdavsiy, A.Temur, A.Navoiy, Bobur singari jahonga taniqli bir necha aql egalarining ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlariga tayanib ish ko'rilsa tarbiya ta'sirchanligi yanada mukammallik kasb etadi.

Yosh avlodni tarbiyalab voyaga etkazish – bizning muqaddas burchimiz, or-nomusimiz.

Lekin, barkamol insonni tarbiyalab etishtirish oddiy, oson emas. U ko'plab, oylab, yillab, sabr-toqat, chidam va qat'iyatlilik, iroda talab etadi.
Hozirgi paytda juda ko'plab iqtidorli yoshlarimiz oliy maqsadlarni ko'zlab chet ellardagi nufuzli o'qishlarda tahsil olmoqdalar.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta'lim tizimini tubdan isloh etib, Respublikamiz istiqbolini belgilovchi yoshlarni har tomonlama etuk, barkamol shaxs, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida raqobatbardosh kadrlar etib tayyorlashni oliy maqsad qilib qo'ydi. Bunday inson, kasb-hunar egasi oilada, maktabda va boshqa ta'lim tizimi jabhalarida ta'lim-tarbiya oladi.

Tarbiyada oliy maqsadga erishish uchun, ma'lum vazifalarni bajarishimiz lozim bo'ladi. Bu vazifalarni esa tarbiyaning tarkibiy qismlari deb atash ham mumkin.
Aqliy tarbiya - bu barkamol inson tarbiyasining etakchi tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchi yoshlarni tabiat va jamiyat, kishi tafakkuri haqidagi bilimlar tizimini ilg'ab olishi, ularda ilmiy dunyoqarash, yuqori onglilik hislatlarini parvarishlash, fan asoslaridan xabardor qilish, tafakkur va nutq qobiliyatlarini o'stirish uchun maqsad qilib qo'yadi.

Ayniqsa, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish dolzarb muammolardan sanaladi. Inson kamolotida ilm egallash ulkan fazilatlardan biri hisoblanadi.

Hadis kitoblarida, mutafakkirlarimiz ijodlarida ilmning har bir mo'min musulmon uchun naqadar zarurligi bayon etilgan. Bunga ko'plab Hadislarni misol etish mumkin: «Beshikdan to qabrgacha ilm izla», «Ilmga ilm olmoq yo'li bilan erishilgaydir. Ilmu hunarni Xitoyga borib bo'lsa ham o'rganinglar...», «Ilm olmoqqa intilish ham har bir muslim-muslima uchun qarzu farz» deyiladi. Yusuf Xos Hojib, A.Navoiylar ham o'z asarlarida ilmni inson uchun o'ta qadrlaydilar. Demak, o'quvchilarni ilm olishga da'vat etishimiz lozim. Aqliy tarbiya o'quv rejasi asosidagi fanlarni o'qitish orqali ilmiy dunyoqarash negizida amalga oshiriladi.

O'quvchilarga aqliy tarbiya berishda birinchi navbatda uning fikrlash, his qilish, tasavvur, idrok, xayol, xotira qobiliyatlarini o'stirish, ichki dunyosini ma'naviy jihatdan boyitish haqida o'ylamoq lozim.
Axloqiy tarbiya – bu o'quvchilarda jamiyatga, Ona-yurtiga, mehnatga, boshqalarga va o'z-o'ziga nisbatan axloqiy munosabatlarni shakllantirish jarayonidir.

Axloq - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, insonlarning jamiyatga, boshqalarga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi hulq-odob me'yorlari, qonun-qoidalari majmuasidir. Ana shu hulq-odob qonun-qoidalarini o'quvchilar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish uchun ko'rsatilayotgan ta'sir axloqiy tarbiya deyiladi.

Musulmon axloqining asoslari mazmunan boy va rang-barang ko'rinishlarda o'zligini namoyon etadi. Markaziy Osiyo xalqlari axloqshunoslik sohasida eng boy tajribaga egadirlar. Qur'oni karimda va Hadisu shariflardagi axloqqa oid ibratli maslahatlar, ota-bobolarimiz yaratgan ma'naviy meroslar, mutafakkirlarimizning axloq haqidagi fikrlari bugunga qadar ham o'z qadr-qimmatini yo'qotgani yo'q. Axloqiy tarbiya eng muhim insoniy fazilatlarni shakllantirish vositasidir.
Mehnat tarbiyasi – bu tarbiyaning oldida turgan asosiy vazifa o'quvchilarga mehnat ta'limiga oid ilmiy bilimlar berish, mehnat qurollari bilan muomala qilishga o'rgatib borish, hayotga, ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlashdir.

Mehnat va mehnat tarbiyasi inson kamolotining asosi, hayot manbai, umr mazmuni hisoblanadi. Mehnat tarbiyasidan ko'zlangan maqsad avvalo mehnatning mohiyatiga, mazmuniga, teran nigoh tashlamoq, muayyan xulosa chiqarmoqdan iborat. Mehnat qilayotgan kishi o'zi bajarayotgan ishning natijalarini ko'rsa, his qilsa, o'sha natijalardan ayniqsa, rohatlansagina mehnat tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.
Mehnat jarayonida kishilarda do'stlik, birodarlik, jamoa bo'lib ishlash madaniyati, barcha tarbiyaviy sifatlar shakllanadi. Eng muhimi, mehnat muhtojlikdan, bekorchilikdan, yurak siqilishidan, axloqiy buzilishidan saqlaydi. Mehnat orqali inson o'zini, o'z qadrini biladi, uni el-yurt ulug'laydi.
Kadrlar tayyorlash milliy dasturining bosh vazifalaridan biri ham yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash, ularni aniq bir kasb-hunar egasi qilib tarbiyalashdir.
Estetik tarbiya – o'quvchilarda san'atga, tabiatga, hayotga nisbatan estetik munosabatlarini shakllantirishdan iboratdir. Estetika lotincha «Esteticos» – his etaman degan ma'noni bildiradi.

Aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy va boshqa tarbiyalarni estetik his-tuyg'usiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Estetik tarbiyaning maqsadi o'quvchilarni tabiat, jamiyat va san'atdagi go'zalliklarini idrok etish, uni to'g'ri tushunib etish, qadriga etishga, hayotga qayta go'zallik olib kira olishga o'rgatishdan iboratdir. Maktabda tasviriy san'at, musiqa, adabiyot, tabiatshunoslik darslari estetik tarbiyaning asosiy vositalari hisoblanadi.

Biz nafaqat narsa va hodisalar, balki insonning hulq-atvori, fazilatlarini ham estetik jihatdan baholashimiz mumkin. U insoniy go'zallik, aql, burch, iymon, insof, kamtarlik, latofat, lafz, mehmondo'stlik, mehr, muloyimlik, poklik, yaxshilik va hokazo sifatlarni o'zida namoyon qiladi.

Estetik tarbiya go'zallikdan zavqlalanishga, xunuklikdan nafratlanishiga, kulgilikdan kulishga, fojealikdan istirobga tushishga o'rgatadi. Bu holatlarni kishi hayot va san'at voqeliklarda uchratish mumkin.

Huquqiy tarbiya – bu o'quvchilarni rivojlangan demokratik davlat qonun-qoidalari asosida shaxs haq-huquqlari me'yorlari bilan qurollantirishga qaratilgan jarayondir.

Biz demokratik davlat barpo etmoqdamiz. «demokratiya- bu adolat degani». Demak adolatli davlat qurmoqdamiz. Bunday mamlakatda har tomonlama etuk, o'z xaq-huquqlarini biladigan, ularni himoya qila oladigan kishilar yashaydilar. Bugungi kundagi yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan siyosat va inson huquqini chuqur biladigan, konstitutsiya qonunlariga amal qilayotgan, o'z fuqarolik burchlarini yaxshi his etadigan qilib tarbiyalashiyalashimiz lozim.

Ekologik tarbiya – bu o'quvchilarda atrof-muhitga, tabiatga nisbatan ekologik munosabatlarni shakllantirish jarayonidir. «Ekologiya» - yunoncha so'z bo'lib, tirik mavjudotlarning yashash sharoiti va tevarak atrofdagi muhit bilan o'zaro munosabatlari hamda shu asosda yuzaga keladigan qonuniyatlarni o'rganadigan fandir.

Barkamol insonning muhim fazilatlaridan biri uning ekologiya madaniyatidir. Ekologik madaniyatga ega shaxs barcha tirik mavjudotlarning yashash sharoiti, muhiti, qonun-qoidalarini puxta biladi, tabiat muvozanatini saqlashga hissa qo'shadi. U atrof-muhitga nisbatan beparvo bo'lmaydi, aksincha uni yaxshilashga, sog'lomlashtirishga hissa qo'shadi.

Iqtisodiy tarbiya – bu o'quvchilarda iqtisodiy tafakkur va madaniyatni shakllantirishga qaratilgan jarayondir. Bozor iqtisodiga o'tayotgan bir paytda yoshlarda iqtisodiy tafakkurni tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir. O'quvchilarda iqtisodiy tarbiya tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob va ayni shu kabilar haqida fikrlay olish kabi qobiliyatlarni kamol toptirishdir.

Iqtisodiy tarbiya–maktabda asosan tabiiy-matematik fanlar asosida beriladi. Unda o'quvchilar ishlab chiqarishning turli sohalari, bozor, oila byudjeti, iqtisodiy geografiya, marketing kabi ko'plab zamonaviy tushunchalar bilan qurollanadilar.

Jismoniy tarbiya – o'quvchilar tanasidagi barcha a'zolarini sog'lom o'sishini ta'minlash barobarida ularni aqliy va jismoniy mehnatga, Vatan mudofasiga tayyorlashdir. Jismoniy tarbiya mazmuniga ko'ra bola organizmi ichki a'zolari funktsiyasi faoliyatini boshqarish, o'quvchilarning sog'ligini mustahkamlash, gigiena qoidalariga ko'nikashini tarkib toptirish, mohirliklarini o'stirish, mehnat qilish qobiliyatlarini oshirish, ularda iroda, chidamlilik qat'iyan intizom, do'stlik his-tuyg'ularini kamol toptirish, jismoniy qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat.

Barkamol inson nafaqat ma'naviy jihatdan, balki jismoniy jihatdan ham etuk bo'lmog'i lozim. Shuning uchun ham jismoniy tarbiya barkamol inson tarbiyasining yana bir tarkibiy qismidir.

Jismoniy tarbiya yosh avlodni jismoniy jihatdan sog'lom o'sishlarini, baquvvat bo'lishlarini va vatanimiz himoyasi uchun qo'rqmas, jasur, harbiy ilmlar, qurol aslohatlardan foydalanishni biladigan qilib tarbiyalashni o'zining oliy maqsadi deb biladi.

O'quvchilarga jismoniy tarbiya maktabda harakatli o'yinlar, gimnastika, sport, turizm hamda sinfdan va maktabdan tashqari sport mashg'ulotlari turlari vositasida amalga oshiriladi.

Nazorat topshiriqlari

1. Tarbiyaning asosiy maqsadi yosh avlodni qanday shaxs etib shakllantirishdan iborat?
a) har tomonlama etuk
v) barkamol
s) axloqiy etuk
d) ma'naviy barkamol
2. Yosh avlodni tarbiyalashda eng avvalo nimalarga suyanish lozim?
a) tarbiya nazariyasiga
v) qadriyatlarga
s) mutafakkirlarimiz ta'limotlariga
3. Tarbiya maqsadiga erishish qancha vaqtni talab etadi?
a) kunlarni
v) oylarni
s) yillarni
d) bir umrni
4. Ta'lim tizimini tudan isloh qilishning oliy maqsadi
a) raqobatbardosh kadrlar tayyorlash
v) etuk shaxsni tarbiyalash
5. Barkamollik so'ziga izoh bering.
6. Tarbiyaning asosiy maqsadiga erishish uchun nimalarni bajarish lozim?
a) uslubiy ko'rsatmalarni
v) tarbiya vazifalarini
s) davlat qonunlarni
7. Tarbiya maqsadini tarkibiy qismlariga ajratish mumkinmi?
a) ha
v) yo'q
8. Tarbiyani takibiy qismlarga ajrating.

2-savol bayoni.

Tarbiya jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega. Uning muhim xususiyati aniq maqsadga yo'naltirilganligidir.

Zamonaviy talqinda tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi)lar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan samarali hamkorlik jarayoni demakdir. Zero, tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyalari tashkil etiladi, boshqariladi va nazorat qilinadi.

Tarbiya jarayoni ko'p qirrali jarayon bo'lib, ular tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi ichki va tashqi (sub'ektiv va ob'ektiv) omillar asosida tashkil etiladi. Sub'ektiv omillar shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari, hayotiy munosabatlarini anglatish, ob'ektiv omillar esa shaxsning hayot kechirishi, shakllanishi, hayotiy muammolarini ijobiy hal etishi uchun sharoit yaratadi. Tarbiya maqsadi pedagogik faoliyat mazmuni, yo'nalishi, shakli hamda ob'ektiv sharoitlar bilan qanchalik mutanosib kelsa, shaxsni shakllantirish borasida shunchalik muvaffaqiyatga erishiladi. Tarbiya jarayonining tashkil etilishi va boshqarilishida nafaqat o'qituvchi faoliyati, balki o'quvchining yosh va psixologik xususiyatlari, o'y-fikrlari, hayotiy qarashlari ham muhim o'rin tutadi.

Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning uzoq muddat davom etishidir. Tarbiya natijalari tez sur'atda yaqqol ko'zga tashlanmaydi. O'zida insoniyat sifatlarini namoyon eta olgan shaxsni tarbiyalab voyaga etkazishda uzoq muddatli davr talab etiladi. Maktab tarbiyasi shaxs ongi, dunyoqarashini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Chunki yoshlik yillarida insonda odob tizimi yuqori darajada ta'sirchan hamda beqaror bo'ladi. Shu bois tarbiya muvaffaqiyati ayni o'quvchilik yillarida shaxsga to'g'ri tarbiya berish lozimligini taqozo etadi. Tarbiya jarayonining yana bir muhim xususiyati uning uzluksizligi sanaladi. Tarbiya jarayoni o'quvchilar va o'qituvchining birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayonidir. O'quvchilarda ijobiy sifatlarni qaror toptirishda yagona maqsad sari yo'naltirilgan, bir-birini to'ldiruvchi, boyitib boruvchi, takomillashtiruvchi tarbiyani tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, oila, ta'lim

muassasalari va jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarni uzluksiz o'tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir.
Maktab yoshidagi bolani tarbiyalashda maktab etakchi o'rin egallasa ham, bolalarga uzluksiz ta'sir o'tkaza olmaydi. Chunki bolalar ma'lum muddatgina maktab, o'qituvchining tarbiyaviy ta'siri ostida bo'lib, qolgan vaqtning asosiy hismini oilada, ko'chada, jamoat orasida o'tkazadilar. Kuzgi, qishki, bahorgi va ayniqsa, yozgi ta'til davrlarida o'quvchilar maktab, o'qituvchi ta'siridan chetda qoladilar. Demak, maktabda bolalarni tarbiyalash vaqt jihatidan chegaralangan bo'lib, sinfdan va maktabdan tashqari amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlardan holi vaqtda ular o'qituvchi yoki tarbiyachining tarbiyaviy ta'siri va nazoratidan uzoqlashadilar.
O'quvchilarga nisbatan maktab (ta'lim muassasasi)ning ta'sirini susaytirmaslik maqsadida, sinfdan va maktabdan tashqari hamda ta'til davrlarida tarbiyaviy ishlarga alohida e'tibor beriladi.
Ayni vaqtda, respublikada o'quvchilarning ta'lim-tarbiya muassasalaridan uzoqlashtirmaslik maqsadida qo'shimcha ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda. Qo'shimcha ta'lim muassasalarida o'quvchilar xususiy fanlar va xorijiy tillarni mukammal o'rganishlari, texnika va badiiy yo'nalishlar bo'yicha bilim olishlari, amaliy faoliyat ko'nikmalariga ega bo'lishlari mumkin. Qo'shimcha ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan turli yo'nalish va mavzulardagi uchrashuv, ko'rgazma, ko'rik va suhbatlar o'quvchilarning tafakkur dunyosini boyitishda, ularda mustahkam xarakter va irodani tarkib toptirishda muhim o'rin tutadi.
Tarbiya jarayonining yana bir xususiyati uning yaxlit tarzda tizimli tashkil etilishidir. Yaxlitlik shundan iboratki, tarbiya jarayonining maqsadi, mazmuni, vazifalari va metodlarining birligi shaxsni shakllantirish g'oyasi amalga oshirish uchun xizmat qiladi. Bizga ma'lumki, shaxs sifatlari navbatma-navbat emas, balki yaxlit tarzda o'zlashtiriladi. Shu bois pedagogik ta'sir ham yaxlitdir, tizimlilik xarakteriga ega bo'lishi mumkin.
Tarbiya jarayonining yaxlitlik, tizimlilik xususiyati bir qator muhim pedagogik talablarga amal qilishi o'qituvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni ehtiyotkorlik bilan qaror toptirishi talab qiladi.
Ikki tomonlama aloqa ikki yo'nalishda, ya'ni, o'qituvchining o'quvchiga nisbatan ko'rsatadigan ta'siri (to'g'ri aloqa) hamda o'quvchining o'qituvchiga nisbatan munosabati (teskari aloqa) tarzda tishkil etiladi.
Tarbiyaning pedagogik texnologiyasi nazariyasi g'oyasiga muvofiq endilikda o'quvchi tarbiya jarayonining ob'ektigina bo'lib qolmasdan, sub'ektiv sifatida ham faoliyat ko'rsatadi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchining ichki imkoniyatlari, unga nisbatan bo'layotgan tashqi ta'sirlar, axborot manbalarini inobatga olishi zarur. Agarda, mazkur talab unutilsa, shaxsni tarbiyalash qiyinlashadi yoki barcha urinishlar samarasiz yakunlanadi.
Mana shundan tarbiya jarayonining yana bir muhim xususiyati – tarbiyada qarama-qarshiliklarning mavjudligi kelib chiqadi. Ushbu qarama-qarshiliklar o'quvchilarda o'z tushunchalariga muvofiq paydo bo'lgan dastlabki sifatlar o'rtasida yoki o'quvchilarga qo'yiladigan talablar bilan ularni bajarish imkoniyatlari o'rtasida ziddiyatlarning kelib chiqishi uchun zamin yaratadi.
Bundan tashqari, bu qarama-qarshiliklar ko'pincha bolaning ongi bilan xulqi bir-biriga muvofiq bo'lmasligidan, o'qituvchi va tarbiyachilarning o'quvchilar yosh va shaxsiy psixologik xususiyatlari (fe'l-atvori, xarakteri, qiziqishlari, jismoniy, ruhiy va fiziologik sog'lomligi)ni yaxshi bilmasligi oqibatida kelib chiqadi.
Demak, tarbiya jarayoni o'zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etidi:
1) aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayon;
2) ko'p qirrali jarayon;
3) uzoq muddatli jarayon;
4) yaxlit tizimlilik jarayon;
5) ikki tomonlama aloqa jarayoni;
6) qarama-qarshiliklardan iborat jarayon.

Nazorat uchun savollar:

1. Tarbiyaning maqsadi nimadan iborat?

2. Shaxsan Siz tarbiyaning vazifalarini qanday tushunasiz?
3. Tarbiyaning turlarini tasvirlab bering.
4. Tarbiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

Asosiy adabiyotlar

1. Pedagogika. G'G' M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Ibragimov X.I.., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
3. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. – T.: TDPU, 2012.
4. Yuzlikaeva E., Madyarova S., Yanbarisova E., I.Morxova. Teoriya i praktika obhey pedagogiki. – T.: TGPU, 2014.
Principles of Learning and Teaching. Effective pedagogy. P – 12.
5. Leadership guide.Senior leaders, subject leaders and teachers in secondary schools.
6. Pedagogy and Practice:Teaching and Learning in Secondary chools . Status: Recommended Date of issue: 09-2004. Ref: DfES 0444-2004 GGuidance.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta`minlash taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. "O`zbekiston". 2017

2. Xasanboev J, To'rakulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2008 .
Elektron ta'lim resurslari
1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. Uz

mavzu: Tarbiya turlari

<u>Asosiy savollar:</u>

Mustaqil fikrlash, ilmiy dunyoqarash va milliy g'oyani shakllantirish o'quvtarbiya jarayonining tarkibiy qismlari.
O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismlari.
Aqliy tarbiyaning maqsadi va vazifalari. Aqliy tarbiya vositalari.
Iqtisodiy tarbiya – o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi sifatida.
O'quvchilarning ekologik tarbiyasi.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Dunyoqarash, ijtimoiy jamiyat, tafakkur, aqliy tarbiya, ilmiy qarash, e`tiqod, axloqiy ong, axloqiy tarbiya, iqtisodiy tarbiya, ekologik ta`lim, ekologik madaniyat, ekologik faoliyat, fuqarolik tarbiyasi, vatanparvarlik, baynalminallik.

1- <u>savol bayoni..</u>

Shaxs dunyoqarashining shakllanishida ma'naviy-axloqiy tarbiya ham muhim o'ringa ega bo'lib, uni samarali tashkil etish o'quvchida ma'naviy-axloqiy ongni shakllantirishga yordam beradi. <u>Axloqiy tarbiya</u> muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o'quvchilar ongiga singdirish ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi.

Axloqiy tarbiyaning asosi axloq va axloqiy me'yorlardir. Axloq (lotincha «moralis» xulq-atvor ma'nosini bildiradi) ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig'indisi. Axloqiy me'yorlar to'g'risidagi bilimlar o'quvchilar ongiga ta'lim va tarbiya jarayonida singdirilib boriladi. Axloqiy tarbiyaning natijasi o'quvchilarda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari va axloqiy madaniyatning shakllanishida ko'rinadi.

Axloqiy ong - ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo'lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari, shuningdek, milliy istiqlol g'oyasining o'quvchilar ongida aks etishidir.

Axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko'nikmalari hamda axloqiy madaniyat ta'lim-tarbiya jarayonida yo'lga qo'yilayotgan axloqiy, ijtimoiy-g'oyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzulardagi suhbat, bahs-munozara, debatlar xalq xo'jaligining turli sohalarida fidokorona mehnat qilayotgan, ilm-fan, madaniyat, ishlab chiqarish hamda sport sohalarida yuksak darajadagi muvaffaqiyatlarni qo'lga kirish bilan O'zbekiston Respublikasi nomini jahonga mashhur qilayotgan, uning obro'-e'tiborining oshishiga o'zining munosib hissasini qo'shayotgan shaxslar hayoti va faoliyat to'g'risidagi ma'lumotlardan samarali foydalanish, vatanparvarlik namunalarini ko'rsatgan, xalq qahramonlari namunasida shakllantiriladi.

Axloqiy tarbiya o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, uni samarali tashkil etishda ong, his-tuyg'u hamda xulq-atvor birligiga erishish maqsadga muvofiqdir. Zero, ular birligida ma'lum kamchiliklarning yuzaga kelishi ham o'quvchilarning komil shaxs bo'lib kamol topishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Dunyoqarash tabiat, jamiyat, inson tafakkuri hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimidir.

Yuksak ma'naviy komillik, yurt ozodligi, obodligi va xalq farovonli yo'lida fidokorona mehnat qilish, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan talabchan bo'lish, o'zida irodaviy sifatlarni tarbiyalay olish, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, tashkilotchilik, ijodkorlik hamda mustaqil fikrlash layoqatiga ega bo'lish kabi xislatlarni mustaqil O'zbekiston Respublikasi hayotida ustuvor bo'lgan tamoyillar sifatida e'tirof etish mumkin.

O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi asoslari tayanch omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida axloqiy mazmundagi suhbat, ma'ruza, bahs-munozara, konferentsiya, seminar hamda debatlardan foydalanish o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Ilmiy qarash (yunoncha «idea»- g'oya, tasavvur, tushunchalar yig'indisi) - muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g'oya bo'lib, u shaxs tomonidan mavjud ilmiy bilimlar tizimi puxta o'zlashtirilganda, bilimlarni bir-biri bilan taqqoslash, solishtirish, predmet, hodisa yoki jarayon mohiyatini tahlil qilish natijasida yuzaga keladi. O'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish, ixtirochilik ko'nikmalarini shakllantirish ular tomonidan ilmiy izlanishlarni olib borish va ma'lum ilmiy qarashlarni ilgari surilishiga zamin yaratadi.

Ikkinchi bosqichda ma'naviy-axloqiy qarashlarning barqaror tamoyillariga aylanadi. Mavjud talab, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy qoidalardan chetga chiqish qiyin, ziddiyatli vaziyatlarda ongli harakatni tashkil etish, irodaviy sifatlarga tayangan holda ish ko'rish taqozo etiladi. Uchinchi bosqichda e'tiqod barcha vaziyatlarda ham ustuvor ma'naviy-axloqiy tamoyil bo'lib qoladi. O'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlar hayotiy munosabatlar jarayonida keng qo'llanilganda, ularning asl mohiyati chuqur his qilingan va anglangandagina e'tiqodga aylanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida yoshlarning bilimli, yuksak tafakkur egasi bo'lish borasidagi qarashlar muhim o'rin egallagan bo'lib, ularning intellektual salohiyatini jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi omil ekanligiga alohida urg'u beriladi. Chunonchi, «... ilmu ma'rifat insonni yuksaklikka ko'taradi. XXI asrda, men ishonaman, madaniyat uchun, ilmu ma'rifat uchun jonini beradigan va buni hayotining asosiy maqsadi qilib qo'yadigan yangi avlod paydo bo'ladi. Biz ana shu avlod uchun yashayapmiz. Biz ana shu olijanob maqsadlarni odamlar ongiga singdirish uchun harakat qilayapmiz. Biz kutayotgan avlod mana shu boylikni dunyodagi eng katta boylik deb bilsa, hayotini shunga baxshida etsa, bilingki, odamzod yorug' kunlarga erishishi muqarrar».

Sharq mutafakkirlari o’z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o’rin bergan. Xususan, Abu Nasr Forbiy inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug’ilganda mavjud bo’lgan bo’lsa, aqliy bilimi, ma’naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urf-odatlari, ma’lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta’sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi.
Abu Nasr Forobiyning e’tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o’zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo’lgan ma’lumotlarni o’zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi.
Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: «Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda xususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri-bilan solishtirib ko’radi, o’z bilimlarining chinligini aniqlaydi». Mutafakkir, shuningdek, odamlar tomonidan bilimlarni o’zlashtirilib borishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: «Ilmlar ko’pdir. Ular zamoni iqbolli bo’lib, turli fikr va xotiralar ularga qo’shilib borsa, ko’payadi. Odamlarning ilmlarga rag’bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o’sha iqbolning belgisidir. (Ayniqsa) hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko’payishiga sabab bo’ladi».
Abu Ali ibn Sino o’z asarlarida bilim tushunchasiga sharh berish bilan birga bilimning chuqur o’zlashtirilishi donishmandlik ekanligini alohida qayd etadi: «Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o’rganilishidir. Bilim deb esa, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato va yo’ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo’ladigan narsadir. Bordiyu, bu dalillar ochiq-oydin bo’lsayu, isbotlar chinakamiga bo’lsa, u holda bunga hikmat – donishmanlik deyildi»
Yusuf Xos Hojibning «Qutadg’u bilig» («Saodatga boshlovchi bilim») asari ta’bir joiz bo’lsa, bilimning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, inson kamolotini ta’minlashdagi roli, yozuvliklarni bartaraf etuvchi vosita ekanligi to’g’risidagi qomus sanaladi. Allomaning fikricha, bilimli bo’lish ezgu ishlar tantanasini ta’minlovchi garov bo’lib, uning yordamida hatto osmon sari yo’l ochiladi:
Hamma ezguliklar bilim nafi tufaylidur,
Bilim tufayli, go’yo ko’kka yo’l topiladi.
Ushbu fikrlarni ifoda etganda alloma naqadar haq edi. Zero, oradan to’qqiz-o’n asr vaqt o’tgach, inson nafaqat osmonga ucha oldi, balki koinotni ham zabt etishga muvaffaq bo’ldi.
Bahovuddin Naqshbandiy tariqatida avliyolik kuch-quvvatini ezgulikka, ilm-ma’rifatni rivojlantirishga yo’naltirish etakchi o’rin tutadi. Binobarin, ilm-ma’rifat zulm va bid’atdan forig’ bo’lish yo’lidir. Alloma tomonidan ilgari surilgan «Xilvat dar anjuman», «Safar dar vatan» g’oyalari mavjud bilimlarni suhbat hamda amaliyot yordamida o’zlashtirish maqsadga muvofiqligiga ishoradir. Zero, bahs-munozaralarda, doimiy izlanishlarda hosil bo’lgan ilm puxta va mustahkam bo’ladi.
Alisher Navoiy bilimlarni izchil, uzluksiz o’zlashtirish zarurligini uqtiradi. Shuningdek, ilm o’rganish mashaqqatli yumush bo’lib, uni o’rganishda ayrim qiyinchiliklarni engib o’tishga to’g’ri kelishi, bu yo’lda chidamli, qanoatli, bardoshli bo’lish orqaligina mukammal bilimga ega bo’lish mumkinligini ta’kidlaydi.
Abdulla Avloniy esa inson aqliy kamoloti xususida to’xtalar ekan, quyidagilarni bayon etadi: «Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g’oyat muqaddas bir fazilatdur, zeroki, ilm bizga o’z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko’rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o’tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidur». Alloma bilim insonni jaholatdan qutqarishning eng samarali vositasi ekanligiga ham urg’u beradi: «Ilm bizni jaholat qorong’usidan qutqarur, madaniyat, ma’rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe’llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi xulq, odob sohibi qilur. Bugun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g’ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bog’liqdur».
O’quvchi dunyoqarashini shakllantirishning bir necha maqbul shakl, metod va vositalari bo’lib, ular sirasida ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-g’oyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzularda tashkil etiluvchi suhbatlar, bahs-munozaralar, ma’ruzalar, muammoli vaziyatlarni yaratish asosida o’quvchilarni fikrlashga undovchi amaliy treninglar, debatlar, mustaqil ishlar, shuningdek, ishchanlik o’yinlari yanada samarali sanaladi.

Mustaqil ishlarni tashkil etish, xususan, muayyan mavzu asosida o'quvchilarni kichik ilmiy izlanishlarni olib borishga yo'llash ularning dunyoqarashlarini yanada boyib borishida poydevor bo'lib xizmat qiladi. O'smir hamda o'spirinlarni ma'lum nazariya yoki ta'limotlarning g'oyalariga nisbatan tanqidiy munosabat bildirish, metodologik mohiyatini ochib berish, shaxsiy fikrlarini bayon etishda asosli dalillarga tayangan holda ish ko'rishga undash ham o'zining ijobiy natijalarini beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonining izchil, uzluksiz, tizimli hamda aniq ijtimoiy maqsad asosida tashkil etilishi, mazkur jarayonda fanlararo aloqadorlik, shuningdek, dunyoqarashni shakllantirishda samarali sanaluvchi barcha mavjud omillarning birligiga tayangan holda ish ko'rish ko'zlangan maqsadga erishishning kafolatidir. Mazkur holat ma'lum ijtimoiy voqea-hodisalar mohiyatini turli nuqtai nazardan baholash, ularning rivojini ko'ra bilish, bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini kuzatish, ularning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi, bir-birini taqozo etishini tushuna olish imkonini beradi.

Ta'lim-tarbiyani tashkil etish jarayonida fanlararo aloqadorlik, ijtimoiy va tabiiy omillarning o'zaro muvofiq kelishiga erishish omillari, atrof-muhit hamda ijtimoiy munosabatlar ta'sirida shaxs kamolotini ta'minlashga erishish imkoniyatlaridan unumli foydalanishga intilish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim muassasalarida o'quv predmetlari sifatida tavsiya etilgan fanlar asoslarining o'quvchilar tomonidan chuqur o'zlashtirilishi ularda keng dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradi. O'qituvchilar o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllanishi xususida g'amxo'rlik qila borib, doimiy ravishda ular tomonidan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni amaliyotda qo'llay olinishiga e'tibor berishlari zarur. Fan o'qituvchilari u yoki bu qonuniyatlar va ularning mohiyati bilan o'quvchilarni tanishtirib borar ekanlar, o'quvchilarga turli hayotiy vaziyatlarda ulardan foydalanish yoki ularga tayanib ish ko'rish lozimligini tushuntirib borishlari kerak.

Dunyoqarashning shakllanishida jamiyatda ustuvor o'rin tutgan mafkuraviy g'oyalar va ularning mohiyatidan to'laqonli xabardor bo'lish o'ziga xos ahamiyatga ega. Shu bois ta'lim muassasalarida yo'lga qo'yilayotgan ta'lim-tarbiya, xususan, ijtimoiy-gumanitar va tabiiy fanlar asoslari mohiyati bilan o'quvchilarni tanishtirish jarayonida O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy hayotida bosh mezon sifatida e'tirof etilgan milliy istiqlol g'oyasi va mafkura mazmunida ilgari surilgan qarashlar xususida batafsil ma'lumotlar berib borish, ularga nisbatan o'quvchilarda muayyan munosabatni shakllantirish pedagogik jihatdan samarali yo'l hisoblanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Dunyoqarash nima?
2. Ilmiy dunyoqarash tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
3. Sharq mutafakkirlarining shaxs dunyoqarashini shakllantirish borasida qarashlardan namunalar keltiring.

2- savol bayoni.

Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g'oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma'naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e'tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo'ladi.

Muayyan dunyoqarashga ega bo'lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, sub'ektlarga nisbatan ma'lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to'laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas'uliyat tuyg'usiga ega bo'lishi uchun zamin yaratadi.

Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi. Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o'zlashtirilishi muhim o'rin tutadi.

Shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondoshuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo'lgan dunyoqarash mazmunini

ifodalaydi. O'z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta'minlaydi. O'z mazmunida ezgu g'oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo'layotgan ijobiy fazilatlarning boyib borishiga yordam beradi.
Dunyoqarash o'z mohiyatiga ko'ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo'lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi. Ilmiy dunyoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o'zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g'oyalar yotadi.
Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi.

Nazorat savollar:

1. Aqliy tarbiya mohiyati nimalardan iborat?
2. Iqtisodiy tarbiya o'quvchi dunyoqarashini shakllantirishda qanday o'rin tutadi?
3. O'quvchi dunyoqarashining shakllanishiga ekologik tarbiya qanday ta'sir ko'ratadi?

3-savol bayoni.
Aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari va mohiyati. Shaxs dunyoqarashining shakllanishida aqliy tarbiya muhim o'rin tutadi. Aqliy tarbiya shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi bilimlarnii berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat bo'lib, uni samarali yo'lga qo'yish asosida dunyoqarash shakllanadi.
Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga aqliy tarbiyani berishga alohida e'tibor qaratilmolqda. 1997 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mazmunida ham yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrni tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligiga urg'u beriladi. Yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadr bo'lib etishish mavjud ilmiy, shuningdek, kasbiy bilimlarni puxta egallash demakdir. Binobarin, chuqur bilimlarga ega bo'lish tabiiy hamda ijtimoiy jarayonlarning mohiyatini anglash, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini ko'ra va baholay olishga imkon beradi.
Aqliy tarbiya o'quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi.
Aqliy tarbiya jarayonida quyidgi vazifalar hal etiladi:
1. Tarbiyalanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish.
2. Ularda ilmiy bilimlarni o'zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish.
3. Mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.
4. Bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg'usini shakllantirish.
5. Bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakur yuritish, o'z fikrini asoslash, mavjud ma'lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirish.
Aqliy ta'lim va tarbiya birligi asosida shaxsda tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to'laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli) rivojlanadi. Manbalarning ko'rsatishicha, aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qadar murakkab bo'lib, quyidagi belgilarga ko'ra aniqlanishi mumkin:
1. Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi.
2. Mavjud ilmiy bilimlarni o'zlashtirib olish jarayoni.
3. Fikrlash ko'nikmasiga egalik.
4. Bilimlarni egallashga bo'lgan qziqish hamda ehtiyojning yuzaga kelganligi.
Aqliy tafakkur uzoq muddat hamda tinimsiz izlanish natijasida yuzaga keladi. Uning shakllanishida ilmiy qarash va e'tiqod o'ziga xos o'rin tutadi.

Aqliy tarbiyani samarali tashkil etish shaxsda ilmiy tafakkurning yuzaga kelishini ta'minlaydi. Ilmiy tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuvni anglatadi.
E'tiqod dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy- falsafiy, tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy, estetik hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko'rinishi; muayyan g'oyaga cheksiz ishonch bo'lib, uning shakllanishi bir necha bosqichda kechadi. Birinchi bosqichda ular beqaror va vaziyat taqozosiga ko'ra o'zgaruvchanlik xususiyatini kasb etadi. Ikkinchi bosqichda ma'naviy-axloqiy qarashlarning barqaror tamoyillariga aylanadi. Mavjud talab, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy qoidalardan chetga chiqish qiyin, ziddiyatli vaziyatlarda ongli harakatni tashkil etish, irodaviy sifatlarga tayangan holda ish ko'rish taqozo etiladi. Uchinchi bosqichda e'tiqod barcha vaziyatlarda ham ustuvor ma'naviy-axloqiy tamoyil bo'lib qoladi. O'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlar hayotiy munosabatlar jarayonida keng qo'llanilganda, ularning asl mohiyati chuqur his qilingan va anglangandagina e'tiqodga aylanadi.

Nazorat savollar:

4. Iqtisodiy tarbiya o'quvchi dunyoqarashini shakllantirishda qanday o'rin tutadi?
5. O'quvchi dunyoqarashining shakllanishiga ekologik tarbiya qanday ta'sir ko'ratadi?

4-savol savol
Ekologik tarbiya o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi. «Ekologiya» tushunchasi ilk bor nemis zoologi E.Gekkel tomonidan qo'llanilgan. Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ekologik tarbiya (grekcha «oikos» -turar joy, makon, «logos» -fan) o'quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.
O'zbekiston Respublikasida tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu yo'lda amalga oshiriluvchi ijtimoiy-ekologik harakat mazmuni «O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish Milliy harakat rejasi»da o'z ifodasini topgan.
Tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish, shuningdek, ekologik muammolarning ijtimoiy xavfi xususida to'xtalib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrni qayd etadi: «Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachon milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosidagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, tsivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir».
O'quvlarda tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatni qaror toptirish, mehr-muhabbatni uyg'otish, atrof-muhit musaffoligiga erishish ekologik muammolarni hal etish yo'lida muhim bosqich sanaladi.
Ekologik ta'lim o'quvchiga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo'naltirilgan ta'limiy jarayonidir.
Nazariy ekologik bilimlar (ekologik ong) hamda atrof-muhit va tabiat muhofazasi yo'lida olib borilayotgan faoliyat birligi ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Ekologik ong tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ongdagi ifodasi bo'lib, u murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Ekologik faoliyat esa ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui demakdir.
Ekologik madaniyat o'quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati.
Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi bo'lib, uni tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etilishi zarur:
1. O'quvchilarning ta'lim jarayonida o'zlashtirgan ekologik bilimlarini yanada oshirish.
2. Ularning tabiat va atrof-muhit ekologiyasi to'g'risidagi tasavvurini boyitish.

3. O'quvchilarda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash ijtimoiy zaruriyat ekanligi to'g'risidagi e'tiqodni shakllantirish.
4. O'quvchilarda ekologik faoliyat ko'nikma va malakalarni tarbiyalash hamda ularning tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash jarayonida faol ishtirok etishlariga erishish.
Oila va jamiyatda tashkil etilayotgan ekologik tarbiyaning suhbat, davra suhbati, ekskursiya, bahs-munozara, ijodiy tanlovlar, uchrashuv, ijtimoiy-foydali mehnat (shanbalik, hashar, ko'kalamzorlashtirish) kabi shakl hamda suhbat, kuzatish, amaliy faoliyatni tashkil etish, rag'batlantirish va jazolash kabi metodlar yordamida tashkil etish o'quvchilarda ekologik madaniyatni qaror topishini ta'minlaydi.
O'quvchi tarbiyasida ishtirok etayotgan sub'ektlarning shaxsiy namunalari, o'quv manbalari, badiiy adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari (shu jumladan, Internet) materiallari va ularning g'oyalari o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning muhim vositalari sanaladi.

Nazorat savollar:

6. Aqliy tarbiya mohiyati nimalardan iborat?
7. Iqtisodiy tarbiya o'quvchi dunyoqarashini shakllantirishda qanday o'rin tutadi?
8. O'quvchi dunyoqarashining shakllanishiga ekologik tarbiya qanday ta'sir ko'ratadi?

4-savol savol
Ekologik tarbiya o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishning tarkibiy qismi. «Ekologiya» tushunchasi ilk bor nemis zoologi E.Gekkel tomonidan qo'llanilgan. Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ekologik tarbiya (grekcha «oikos» -turar joy, makon, «logos» -fan) o'quvchilarga dastlabki ekologik bilimlarni berish, mavjud ekologik bilimlarini boyitish, ularda tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.
O'zbekiston Respublikasida tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu yo'lda amalga oshiriluvchi ijtimoiy-ekologik harakat mazmuni «O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish Milliy harakat rejasi»da o'z ifodasini topgan.
Tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish, shuningdek, ekologik muammolarning ijtimoiy xavfi xususida to'xtalib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrni qayd etadi: «Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachon milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosidagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, tsivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir».
O'quvlarda tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatni qaror toptirish, mehr-muhabbatni uyg'otish, atrof-muhit musaffoligiga erishish ekologik muammolarni hal etish yo'lida muhim bosqich sanaladi.
Ekologik ta'lim o'quvchiga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo'naltirilgan ta'limiy jarayonidir.
Nazariy ekologik bilimlar (ekologik ong) hamda atrof-muhit va tabiat muhofazasi yo'lida olib borilayotgan faoliyat birligi ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Ekologik ong tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ongdagi ifodasi bo'lib, u murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Ekologik faoliyat esa ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui demakdir.
Ekologik madaniyat o'quvchining ijtimoiy talablarga muvofiq tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etish qobiliyati.
Ekologik tarbiya ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi bo'lib, uni tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etilishi zarur:
5. O'quvchilarning ta'lim jarayonida o'zlashtirgan ekologik bilimlarini yanada oshirish.
6. Ularning tabiat va atrof-muhit ekologiyasi to'g'risidagi tasavvurini boyitish.

7. O'quvchilarda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash ijtimoiy zaruriyat ekanligi to'g'risidagi e'tiqodni shakllantirish.
8. O'quvchilarda ekologik faoliyat ko'nikma va malakalarni tarbiyalash hamda ularning tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash jarayonida faol ishtirok etishlariga erishish.
Oila va jamiyatda tashkil etilayotgan ekologik tarbiyaning suhbat, davra suhbati, ekskursiya, bahs-munozara, ijodiy tanlovlar, uchrashuv, ijtimoiy-foydali mehnat (shanbalik, hashar, ko'kalamzorlashtirish) kabi shakl hamda suhbat, kuzatish, amaliy faoliyatni tashkil etish, rag'batlantirish va jazolash kabi metodlar yordamida tashkil etish o'quvchilarda ekologik madaniyatni qaror topishini ta'minlaydi.
O'quvchi tarbiyasida ishtirok etayotgan sub'ektlarning shaxsiy namunalari, o'quv manbalari, badiiy adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari (shu jumladan, Internet) materiallari va ularning g'oyalari o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning muhim vositalari sanaladi.

Nazorat savollar:

1. Sharq mutafakkirlarining shaxs dunyoqarashini shakllantirish borasida qarashlardan namunalar keltiring.
2. Aqliy tarbiya mohiyati nimalardan iborat?
3. Iqtisodiy tarbiya o'quvchi dunyoqarashini shakllantirishda qanday o'rin tutadi?
4. O'quvchi dunyoqarashining shakllanishiga ekologik tarbiya qanday ta'sir ko'ratadi?

Asosiy adabiyotlar
1. Pedagogika. G'G' M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Ibragimov X.I.., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
3. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. – T.: TDPU, 2012.
4. Yuzlikaeva E., Madyarova S., Yanbarisova E., I.Morxova. Teoriya i praktika obhey pedagogiki. – T.: TGPU, 2014.
Principles of Learning and Teaching. Effective pedagogy. P – 12.
5. Leadership guide.Senior leaders, subject leaders and teachers in secondary schools.
6. Pedagogy and Practice:Teaching and Learning in Secondary chools . Status: Recommended Date of issue: 09-2004. Ref: DfES 0444-2004 GGuidance.

Qo'shimcha adabiyotlar
1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta`minlash taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. "O`zbekiston". 2017

2. Xasanboev J, To'rakulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2008 .
Elektron ta'lim resurslari
1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. Uz

-mavzu: Tarbiya metodlari.
Asosiy savollar:

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari.
Ma'naviy-axloqiy tarbiya shakl va metodlari.
Oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mazmuni.
O'quvchilarda ongli intizomlilikni tarbiyalash.

Tayanch tushuncha va iboralar: Ma`naviy tarbiya, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, estetik did, estetik tuyg`u, estetik idrok, estetik bilim, estetik mulohaza, estetik madaniyat, “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, “Universiada”, oilaviy munosabat.

1-savol bayoni..

Ma’naviy-axloqiy tarbiya mazmuni. Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy islohotlarning samaradorligi uning fuqarolari ega bo’lgan ma’naviyatga bog’liq. Ijtimoiy tarbiyaning boshqa turlari kabi **ma’naviy-axloqiy tarbiya asosi**ni ham ilg’or milliy, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, xalq pedagogikasi g’oyalari tashkil etadi.

Ma’naviyat shaxs, davlat va jamiyatning kuch-qudrati, taraqqiyoti, imkoniyatlari va istiqbollarini belgilaydigan ichki ruhiy omildir.

Ma’naviyat (arabcha “ma’nolar majmui”) mohiyatiga ko’ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta’sir o’tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g’oyalar majmui hisoblanadi

Ma’naviyatli inson bilimli, ma’lum kasb-hunar sohibi, o’z Vatanining sodiq fuqarosidir. O’z davlati qonunlarini biladigan va ularga amal qiladigan, yurti bilan g’ururlana oladigan inson. O’z Vatani boyliklarini saqlaydigan, uni yanada boyitadigan, go’zalliklaridan bahramand bo’ladigan shaxs. U har qanday zararli illatlarga qarashi kurashadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni avaylab asraydigan insondir.

Axloq esa shaxsning xatti-harakatlari, yurish-turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. U ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ma’naviy-ruhiy hayotida o’ziga xos o’rin tutadi.

Axloq (lotincha “xulq-atvor”) ijtimoiy ong shakllaridan biri bo’lib, ijtimoiy munosabatlar va shaxs xatti-harakatini tartibga soladigan qonun-qoidalar majmui

Axloq ma’naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs kamolotining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloq, axloqiy me’yorlarsiz shaxsning ruhiy va jismonan etukligining mezoni bo’lgan ma’naviy kamolotga erishib bo’lmaydi. Shuning uchun ham ma’naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik, aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo’lib, shaxsning ma’naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya va unga qo’yiladigan talablar bu jamiyatda ma’lum ijtimoiy-axloqiy talablarga mos axloqiy xislatlarni shakllantirish maqsadida o’quvchilar ongi, hissiyotlari hamda xulqiga muvofiq va tizimli ta’sir etishdir.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko’ra inson ongining jamiyat bilan aloqadorligi, jamiyat oldida burchli ekanligi, o’z xulq-atvorini jamiyat taraqqiyoti darajasiga bog’liqligini tushunishi, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy me’yor, ideal hamda talablarni bajarishda mas’uliyatni his etishi, ma’naviy-axloqiy bilimlarning e’tiqodga aylanishi va bu e’tiqodlarning tizimliligi, mustahkam ma’naviy-axloqiy his-tuyg’u va xislatlarni shakllantirish, o’quvchilar tomonidan ma’naviy-axloqiy xulq-atvor jamiyat a’zolariga bo’lgan hurmat-e’tiborni namoyon etuvchi mezonlardan ekanligining anglab etilishi, ma’naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi va boshqalardan iborat.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma’naviy-axloqiy his-tuyg’ular inson tomonidan, uning hovea-hodisalar, kishilar hamda o’z xulqiga nisbatan his-tuyg’ularni uyg’otishga rag’bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi. Mazkur tizimda xulq-atvorni shakllantirishga oid tarbiyaviy ishlar aks etadi. Shunga ko’ra ma’naviy-axloqiy xulq-odobga doir xislatlarni shakllantirishga undovchi rag’bat bilan hosil bo’ladigan faoliyat eng asosiy bo’lib hisoblanadi.

O’quvchida ma’naviy-axloqiy xislatlarni shakllantirishga nisbatan ehtiyoj bo’lishi shart. Shu bois ma’naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyushtiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-

harakatlar zanjiridan iborat bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlar o'quvchi tomonidan axloqiy me'yor va tamoyillar mohiyatini o'rganish, ularni anglash negizida tashkil etiladi.
Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda o'quvchilar xatti-harakatlarida ko'zga tashlanadigan salbiy odatlar – jamoa joylarida qattiq gapirish, qo'pol so'zlarni ishlatish, hissiyotga berilish, o'ylamay gapirish, ishonli bo'lmagan hamda dalillar bilan tasdiqlanmagan voqea-hodisalar haqida fikr yuritish, boshqalarning suhbatini bo'lish, qo'lini silkitib gapirish kabilarni bartaraf etishga e'tibor qaratish zarur.

Nazorat savollar:
1. Ma'naviyat», «axloq» tushunchalarining mohiyatini tushuntiring.
2. Ma'naviy-axloqiy tarbiya nima?
3. Uning mohiyati haqida so'zlab bering.
4. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning vazifalari nimalardan iborat ekanligini ayting.
5. Ma'naviy-axloqiy tarbiya mazmuni nimalarni o'z ichiga oladi? Uning asosiy talablari nimalardan iborat?
6. Ma'naviy-axloqiy tarbiya metodlarini sanab bering

2-savol bayoni.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning tarkibiy qismlari, shakl va metodlari. Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yohud axloq" asarida axloq "insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur", - deydi. Aynan axloq, uning ijtimoiy ahamiyati haqida ma'lumot beruvchi mazkur manbada alloma yaxshi va yomon xulqlarga to'xtalib o'tadi*. Allomaning nuqati nazaricha, yaxshi xulqlar quyidagilardan iborat: fatonat (aql), diyonat (e'tiqod), nazofat (poklik va tozalik), g'ayrat, riyozat (savob ishlar), qanoat, shifoat, ilm, sabr, hilm (yumshoq tabiat) intizom, nafs me'yori, vijdon, vatanni suymak, haqqoniyat, nazari ibrat, iffat, hayo, idrok va zako, hifzi lison (til va adabiyot), iqtisod, viqor (g'urur), muhabbat, avf (kechirimli bo'lish). Bu xislatlar ma'naviy-axloqlilikning asosiy sifatlari sanaladi. Ular asosida Vatanga muhabbat va sadoqat, mehnatga axloqiy munosabat, o'z atrofdagilarga axloqiy yondashuv, shuningdek, har bir o'quvchining o'zi va shaxsiy xulq-atvoriga munosabatni qaror toptiriladi.
Abdulla Avlniy yomon xulqlar sirasiga quyidagilarni kiritadi: g'azab, aysh-ishrat, jaholat, safohat (umri va molini bekorchi narsalarga sarf etish), hamoqat (o'zbilarmonlik, manmanlik), adolat (dangasa, yalqov), hasosat (ta'ma, hirs), rahovat (g'ayratsizlik), anoniyyat (xudbin, mutakabbir, manman), adovat (kek saqlash), namimat (chaqimchilik), g'iybat, haqorat, jibonat (qo'rqoqlik), hasad, kizb (yolg'on), nifoq, ta'ma, zulm va boshqalar.
O'quvchilarda ijobiy sifatlarni tarbiyalash ularning salbiy xislatlardan holi bo'lishlariga yordam beradi. Bu esa dastlab o'quvchilarga xulq-odob me'yorlari va qoidalarini anglash va shaxs ongini shakllantirishga doir metodlar asosida amalga oshiriladi.
Bunga badiiy va ilmiy-ommaviy adabiyotlarni o'qish, kinofilm va spektakllarni tomasha qilish, maxsus tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifat kunlarida turli mavzularda suhbatlar tashkil etish natijasida axloqiy tushunchalar va xulq-odatlar paydo bo'la boshlaydi. O'quvchilar o'zlari va boshqalarning xatti-harakatlarini baholay boshlaydilar. Buning uchun turli ma'naviy-axloqiy mavzularda o'tkaziladigan suhbat va munozaralarda o'quvchini fikr yuritish, o'ylashga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Masalan, "O'rtog'imiz Kamol qanday qilib giyohvandlar orasiga tushib qoldi?", "Siz erkinlik deganda nimani tushunasiz?", "Zamonaviylik – bu nima?" kabi mavzulardagi suhbat, bahs va munozaralar o'quvchilarni o'ylash, fikr yuritishga yo'llaydi, ularda salbiy xislatlardan saqlanish, yaxshi odatlarni o'rganishga bo'lgan intilish va qiziqishlari tarkib topa boshlaydi. Ularning, ayniqsa, o'z xatti-harakatlarini baholashga bo'lgan intilishlari va ishonch, e'tiqodlari shakllanadi.

* Авлоний, Абдулла. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992

Debat, munozara va suhbatlar ma'naviy-axloqiy tarbiyaning eng dolzarb muammolariga bag'ishlanishi zarur.
Hozirgi davrda yoshlar o'rtasida tobora ommaviylashib borayotgan "Zakovat", "Intellektual ring", "Qizlar davrasi", "O'yla, izla, top!" kabi o'yinlar ham mazmun, ham mohiyati, ham metodik jihatdan o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etmoqda.
O'quvchi faoliyatini tashkil etish va xulq-odobni shakllantirish metodlaridan mashqlantirish, o'rgatish, pedagogik talab qo'yish jamoa fikrini hisobga olish, topshiriqlar berish, tarbiyaviy vaziyatlar hosil qilish va boshqa metodlardan foydalanish samarali natijalar beradi.
Rag'batlantirish metodlariga mukofotlash va ma'qullash kiritiladi.
O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllantirishda samarali shakl, metod va vositalardan foydalanish boy milliy madaniy, tarixiy va pedagogik an'analar, urf-odatlar va umumbashariy qadriyatlarga asoslanadi.

Nazorat savollar:

1. Axloq tushunchalarini yozma ravishda izohlab bering.
2. Axloqiy yunalishlarni sharhlab bering.
3. Axloq va uning asosiy tushunchalarini taqqoslang.
4. Axloq va uning asosiy tushunchalarini asoslang.
5. O'zingiz biladigan, tanigan biron-bir kishining axloqiy sifatlarini yozma ravishda ifodalab bering.

Asosiy adabiyotlar

1. Pedagogika. G'G' M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Ibragimov X.I.., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
3. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. – T.: TDPU, 2012.
4. Yuzlikaeva E., Madyarova S., Yanbarisova E., I.Morxova. Teoriya i praktika obhey pedagogiki. – T.: TGPU, 2014.
Principles of Learning and Teaching. Effective pedagogy. P – 12.
5. Leadership guide.Senior leaders, subject leaders and teachers in secondary schools.
6. Pedagogy and Practice:Teaching and Learning in Secondary chools . Status: Recommended Date of issue: 09-2004. Ref: DfES 0444-2004 GGuidance.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta`minlash taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. "O`zbekiston". 2017

2. Xasanboev J, To'rakulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2008 .
Elektron ta'lim resurslari
1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. Uz

16-mavzu: Tarbiya turlari.
Asosiy savollar:

Mehnat tarbiyasi maqsad va vazifalari.
Mehnat tarbiyasining mazmuni va metodlari.
Estetik tarbiyaning maqsad va vazifalari.

Estetik tarbiya vositalari.
Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari.
Jismoniy tarbiya vositalari.

Tayanch so'z va iboralar: atrof-muhit, tabiat, nafosat, did, fahm-farosvt, tabiat, shaxs, barkamol shaxs, aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, ekologik, iqtisodiy, mehnat, huquqiy tarbiya.

1-saval bayoni.

Mehnat tarbiyasi o'quvchilarga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Mehnat tarbiyasini shunday tashkil etish kerakki, inson mehnat jarayoni va uning natijasidan qanoatlanishini tarkib toptirishga ko'maklashsin. Mehnat tarbiyasining provard maqsadi shaxs xarakterining asosiy xislati sifatida uning mehnatga bo'lgan ehtiyojini shakllantirishdir.
O'quvchilarning ijtimoiy rivojlanishini ta'minlashda mehnat tarbiyasi muhim shartlardan biri bo'lib hisoblanadi. Uning amalga oshirilishi davlat tomonidan olib borilayotgan ijtimoiy va iqtisodiy siyosat mazmuni bilan belgilanadi.
O'zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlarini shakllantirishning asosiy tamoyillari jamiyatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarning asosi sanaladi.
Hozirgi davrda texnika va texnologiyalar rivojlanishini yuksak bosqichga ko'tarish uchun ishlab chiqarishni keng ko'lamda kompyuterlashtirish, iste'mol mahsulotlarini jahon standartlari darajasida ishlab chiqishni yo'lga qo'yish talab etilmoqda.
Bularning barchasi yuksak intellektual va jismoniy kamolotga ega bo'lish, ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy-texnikaviy va iqtisodiy asoslaridan to'laqonli xabardor bo'lish, mehnatga ongli, ijodiy munosabatda bo'ladigan yoshlarni tarbiyalashni taqozo etadi. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim muassasalarida mehnat ta'limi va tarbiyasini tashkil etishga nisbatan ulkan talablarni qo'yadi.
Mehnat tarbiyasining maqsadi o'quvchilarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirishdir. Mazkur maqsadga erishish yo'lida quyidagi vazifalarni ijobiy hal etish maqsadga muvofiq:
- yosh avlodda mehnat qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli sohalarida faoliyat yuritishga tayyorlash;
- o'quvchilarda umumjamiyat manfaati yo'lida mehnat qilish ehtiyojini hosil qilish;
- ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- o'quvchilarning mavjud bilimlarini uzluksiz ravishda takomillashtirib borishlari uchun zarur shart-sharoitni yaratish;
- ularda mehnat ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish;
- o'quvchilar faoliyatida yuqori madaniyat, maqsadga intilish, tashkilotchilik, mehnat intizomi, tadbirkorlik, tejamkorlik, ishni sifatli bajarish, moddiy boyliklarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, hayotiy faoliyat yo'nalishini belgilash malakalarini shakllantirish;
- o'quvchilarda davlat iqtisodiy siyosati mazmuniga tayangan holda ular yashab turgan hududlar ishlab chiqarish xususiyatlariga muvofiq kasblarni egallashga bo'lgan qiziqishni oshirish;
- o'quvchilarni kasbga yo'llash, ularni mehnat faoliyatining barcha turlari, shuningdek, ular yashayotgan hududda ehtiyoj mavjud bo'lgan mutaxassisliklar bilan tanishtirish.
Mazkur vazifalar tizimida o'quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlash ularning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash orqali amalga oshiriladi.
Mehnat tarbiyasi o'quvchilarning aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyasi bilan o'zaro bog'liq holda yaxlit tizimda amalga oshiriladi. Chunonchi:
1. Aqliy tarbiya o'quvchilar mehnat tarbiyasi, ularni kasbga tayyorlashning asosi sanaladi. Zero, mehnat – nazariy va amaliy bilimlarni egallashga yordam beradi, bilim esa o'z navbatida shaxsni mehnatga tayyorlashni takomillashtiradi. Mehnat tarbiyasining samaradorligi o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlash jarayonida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash vazifasi bilan belgilanadi.

2. Mehnat tarbiyasi axloqiy tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Chunki mehnat faoliyati yordamida o'quvchida mehnatsevarlik, intizomlilik, irodalilik, tashabbuskorlik, mustaqil harakat qilish kabi axloqiy xislatlar ham shakllanadi.
3. Mehnat tarbiyasi estetik tarbiya bilan mustahkam aloqada olib boriladi. Mehnat tarbiyasi mazmuniga estetik elementlarni singdirish asosida uni amalga oshirish o'quvchilar mehnat tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi. Mehnatda go'zallik va o'z mehnatidan zavqlanish uning yanada samarali kechishiga yordam beradi.
4. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» rivolasida milliy istiqlol mafkurasining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari haqida fikr yuritilar ekan: «Milliy istiqlol mafkurasi o'z mohiyatiga ko'ra, har bir fuqaroning munosib turmush darajasini ta'minlaydigan farovon hayot kechirishga chorlaydi. Har bir insonni, u qaysi shakldagi mulkchilik asosida mehnat faoliyati bilan shug'ullanmasin, shaxsiy manfaatlarini xalq va vatan manfaati bilan o'zaro uyg'unlashtirib yashashga undaydi. ... Har bir fuqaroning farovonligi – butun jamiyatning farovonligidir, g'oyasini ilgari suradi», - deb ta'kidlanishi ham bejiz ems.

Yuqoridagilarga asoslanib, o'quvchilar mehnat tarbiyasida quyidagi mezonlarni asos qilib olish maqsadga muvoifq. Bular:

- o'quvchilar tomonidan mehnatning ijtimoiy ahamiyatini tushunilishi;
- ularning ixtiyoriy ravishda mehnat qilishlari;
- ularda mehnat qilmay hayot kechiruvchilarga nisbatan nafrat uyg'otish;
- o'quvchilarda mehnat va mehnat ahliga hurmat tuyg'ularini qaror toptirish;
- ularda mehnatda javobgarlikni his etish tuyg'usini tarbiyalash;
- ularning mehnatga ongli munosabatda bo'lishlariga erishish;
- mehnatda ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash;
- o'quvchilarda jamiyat va umumxalq mulkini ko'z qorachig'iday asrash tuyg'ularini shakllantirish;
- mehnatda do'stlik, o'rtoqlik va hamkorlikka erishish;
- o'quvchilarning mehnatni go'zallik manbai sifatida tushunishlariga erishish va boshqalar.

Yuqoridagi mezonlar asosida o'quvchilarni bo'lg'usi kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini barcha ta'lim-tarbiya ishlarini mustahkam aloqada, hozirgi zamon talablariga mos holda olib borish taqozo etiladi.

1. Mehnat tarbiyasining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Mehnat tarbiyasining mazmuni haqida gapirib bering.
3. Sharq mutafakkirlari yosh avlodning mehnat tarbiyasi, kasb-hunar egallashi haqida qanday qarashlarni ilgari surganlar?
4. O'quvchilarning mehnat tarbiyasini tashkil etishda qanday shakl va metodlar samarali sanaladi?

2-savol bayoni.

Mehnat tarbiyasining mazmuni, shakl va metodlari. Mehnat tarbiyasini tashkil etish jarayonida o'quvchilar dastlab ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy asoslari bilan tanishadilar.

Mehnat tarbiyasi maqsadga muvofiq, tizimli, izchil tashkil etiladi. Mehnat ta'limi sinf xonalari, o'quv-tajriba maydoni, mashina-traktor saroyi, o'quv-tarbiyaviy tadbirlar jarayoni, ishlab chiqarish korxonalari va xo'jaliklarning dalalarda olib boriladi.

Natijada ma'lum qiymatga ega bo'lgan ijtimoiy-foydali mahsulotlar yaratiladi hamda ilg'or kasb sohiblariga xos bo'lgan shaxslik fazilatlari shakllanadi.

Shu jihatdan olib qaraganda bugungi kunda mehnat ta'limining mazmuni, maqsad va vazifalari o'zgardi, texnologik ta'lim ustuvorlik kasb etdi, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish tizimi yangilandi. Mehnatni ilmiy tashkil etishning birinchi darsini ham o'quvchi ta'lim jarayonida oladi.

Mehnat tarbiyasi bilan mehnat ta'limi bir-biri bilan o'zaro bog'langan. Mehnat faoliyati ma'lum bilimga ega bo'lishni talab etadi. Zero, bilim va ko'nikmalar o'quvchini mehnat faoliyatiga tayyorlaydi.

Ta’lim jarayonida olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko’radilar, Umumiy mehnat jarayonida o’quvchilarning kombinatlar, jamoa hamda fermer xo’jaliklari, korxona, zavod va fabrikalarda texnik va texnologik bilimlari mustahkamlanadi, shuningdek, ular tashkilotchilik malakalariga ham ega bo’ladilar.
Sinfdan tashqari ishlar jarayonida mehnat tarbiyasi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.
Sinfdan tashqari mashg’ulotlarning turli shakllari o’quvchining texnik ijodkorligini rivojlantiradi, u yoki bu bilim sohasida bilimga bo’lgan qiziqishini shakllantiradi. To’garaklarda o’quvchining qiziqish va qobiliyatlari namoyon bo’ladi.
O’quvchilarning to’garklardagi faoliyati ma’lum pedagogik talablarga rioya qilganda samarali bo’ladi. Chunonchi:
- to’garak faoliyati ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lishi lozim, ya’ni, o’quvchilar tayyorlagan buyumlar kishilar uchun amaliy qiymatga ega bo’lishi zarur;
- texnik ijodkorlik o’quv muassasasidagi o’quv-mehnat jarayoni bilan uzviy alohada bo’lishi kerak (maktab, kollej, oliy ta’lim va boshqalar);
- ijtimoiy-foydali, unumli mehnat jarayonida o’quvchining texnik ijodkorligini tashkil etishda faoliyatni ijtimoiy buyurtmadan ijodkorlikka aylantirish kerak bo’ladi.
To’garak faoliyati jarayonida o’quvchilar o’z kollejlari uchun o’quv-ko’rsatmali qurollar: jadvallar, rasmlar, diagrammalar, kollektsiyalar, oddiy modellar, yuqori sinflarda – stendlar, harakatdagi modellarni yaratish mumkin.
Tabiatshunoslik, botanika, zoologiyadan amaliy mashg’ulotlarda o’quvchilar o’quv-tajriba uchastkalarida ishlaydilar, jonli burchaklar tashkil etadilar, o’quv maskanini ko’kalamzorlashtiradilar.
Mehnat tarbiyasi oilada tabaqalashtirilgan holda olib boriladi: bolalar o’z-o’ziga xizmat qiladilar, uy hayvonlarini parvarishlaydilar, ro’zg’or texnikalarini ta’mirlash bilan shug’ullanadilar. Oila byudjeti va uni yuritish bilan bog’liq topshiriqlarni bajaradilar, Oilada bolalar va kattalar mehnatini hamkorlikda tashkil etishning imkoniyatlari cheksiz.
So’nggi yillarda o’quvchilar mehnat tarbiyasiga jamoatchilik katta e’tibor bermoqda. Yirik fermer xo’jaliklari, qo’shma korxonalarning jamoalari maktablarni otaliqqa olmoqda, ularning moddiy bazasini yaratish, o’quvchilarning bilim olishlari, ijtimoiy-foydali mehnatni tashkil etishda yordam bermoqdalar.
O’quv mehnati o’quvchilarning ilmiy bilimlar hamda turli fanlar asoslarini o’zlashtirishga yo’naltirilgan faoliyati turidir.
Ijtimoiy-foydali mehnat shaxsni har tomonlama kamol toptirish hamda uning muayyan ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yo’naltirilgan hamda ijtimoiy mehnat xarakteridagi faoliyati turidir.
Hozirgi davrda ta’lim muassasalarida o’z-o’ziga xizmat keng yo’lga qo’yilmoqda. O’z-o’ziga xizmat o’quvchilarning ijtimoiy va o’quv ehtiyojlarini qondirish maqsadida ularning o’zlari tomonidan amalga oshiriluvchi mehnat faoliyati turidir. O’quvchilarning navbatchiligi o’z-o’ziga xizmat qilishni tarkib toptirishning muhim shaklidir.
Unumli mehnat turlari xilma-xildir. Masalan, o’quvchilarning mehnat haftaligi, chorvaga em-xashak tayyorlash va shirkat xo’jaliklarida faoliyat yuritish va boshqalar. Unumli mehnat – o’quvchilar mehnatining eng ommaviy shakli sanaladi.
O’quvchilar hozirgi davrda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati faoliyatida ishtirok etadilar, Dorivor o’simliklar, urug’larni yig’ish, maktab binolarini ta’minlashda qatnashmoqdalar, fermer, shirkat va jamoa xo’jaliklarida ishlab chiqarishni tashkil etishda ishtirok etmoqdalar.
Ayni vaqtda juda ko’plab maktablarda yordamchi xo’jalik mavjud. Korxona va xo’jaliklar ta’lim muassasasiga majmuaviy yondashuv asosida mehnat tarbiyasini tashkil etishga ko’maklashmoqdalar. O’quvchilar ishlab chiqarish sub’ektlarining iqtisodiy rivojlanishi bilan tanishadilar, Bu jarayon ularni turli kasblarni egallash shartlari va sharoitlari bilan tanishtirishga yordam beradi.
Mehnat tarbiyasi o’quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlashni nazarda tutadi. Zero, mavjud sharoitda ro’y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o’zgarishlar shaxs kamolotiga nisbatan juda katta talablarni qo’ymoqda. Xususan, mehnatga muhim ijtimoiy burch sifatida qarash, ma’lum faoliyatni bajarishda mas’uliyatni his etish, mehnatga va uning natijasi, shuningdek, mehnat jamoasiga hurmat, mehnat faoliyatini tashkil etishda tashabbuskorlik, faollik ko’rsatish, o’z aqliy va

jismoniy qobiliyatini to'liq namoyon etishga bo'lgan ichki ehtiyoj, mehnatni ilmiy tashkil etish yo'lida amaliy harakatni olib borish shular jumlasidandir.
Mehnatga psixologik jihatdan tayyor bo'lish esa tarbiyaviy ishlar tizimida amalga oshirilib, ularning har biri quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi:
- o'quvchilar tomonidan mehnatning ijtimoiy ahamiyati, mehnatni tashkil etish hayotiy zaruriyat ekanligining anglab etilishiga erishish;
- ularda mehnat faoliyatini amalga oshirishga nisbatan rag'bat uyg'otish;
- o'quvchilarda mehnat ko'nikma va malakalarini shakllantirish va hokazolar.

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, mulkka egalik, xususiy mulkni yaratish yo'lida qonun doirasida olib borilayotgan amaliy faoliyatni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan ijtimoiy harakatlar mehnat tarbiyasiga yangicha yondashuvni talab etmoqda.
Mehnat tarbiyasining yangi texnologiyalar asosida o'quv dasturlari, ta'lim metodlarining variativligi tamoyili yotadi. Dasturlar kasb-hunar kollejlari ixtisoslashgan turli kasblar bo'yicha yaratiladi. Ularda kasbiy ta'limni o'zlashtirishga nisbatan qo'yilgan davlat talablari o'z ifodasini topadi.
Ta'lim jarayonida egallangan bilim, ko'nikma va malakalar mehnat tarbiyasida pedagogik faoliyatning yakuniy natijasi emas, balki inson qobiliyatining rivojlanishi, ya'ni, mehnatga bo'lgan layoqatini rivojlantirishning samarali vositasidir. Bu esa mehnat tarbiyasida an'anaviy metodlarni emas, balki bilim olishning faol metodlaridan foydalanib, o'quvchilarda tadqiqotchilik hamda ixtirochilik malakalarini rivojlantirish metodlarini qo'llashni nazarda tutadi.
Bundan tashqari muammoli, izlanuvchan tadqiqot metodlari, konstruktorlash, loyihalash, texnik modellashtirish, mehnatni tashkil etish jarayonida uning eng yaxshi variantlarini izlab topish, ijodiy topshiriqlarni to'g'ri tanlay olish, shuningdek, tanlovlar, yoshlarning ijodiy ko'rgazmalarni tashkil etish ham eng samarali metodlardan sanaladi.
Mehnat ta'limi va tarbiyasining tashkiliy-metodik shakllari o'qituvchi tomonidan tanlanadi. Bu shunday shakl va metodlar bo'lishi kerakki, u o'quvchiga mehnati muvaffaqiyatidan quvonch baxsh etsin, o'z mehnatidan o'zi faxrlansin.
Mehnat tarbiyasining texnologiyalari o'quvchining nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratishi zarur. Bu esa, o'z navbatida, mehnat ta'limi mazmunini ham takomillashtiradi. U kompleks xarakter kasb etib, o'quvchilarda o'quv texnika va texnologiyalari haqida tasavvur hosil qilishi, amaliy masalalarni hal etish malakasini shakllantirishi, sifat natijalarini ta'minlashi lozim. Ayniqsa, o'quv topshiriqlarini hal etishga ijodiy yondashish, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy, ijtimoiy ko'rsatkichlarini yuqoriga ko'tarishga intilish hosil qilishi maqsadga muvofiqdir.
Mehnat tarbiyasida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar rejasida mehnat tarbiyasi yo'nalishidagi tadbirlarning o'rin olishini ta'minlash muhim pedagogik vazifalardan biridir. Mehnat tarbiyasi turli an'anaviy va noan'anaviy shakllarda tashkil etiladi (30 - chizma).

- Demak, o'quvchilarning mehnat faoliyatini tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

O'quvchilarning mehnat ta'limi jarayonida ularning mehnatga qiziqishlarini oshirish, kasbiy yoki mehnat faoliyatiga tayyor bo'lishni ta'minlash.
O'quvchilar kuchini to'g'ri taqsimlash, faoliyat turlari va uni ijro etishda o'rin almashtirish vositasida ularda rahbarlik va ijrochilik malakalarini hosil qilish.

- Mehnat faoliyatining turidan qat'iy nazar mehnat madaniyatini shakllantirish, kasbiy faoliyatni rejalashtirish, vaqtdan oqilona foydalanish, o'z joyini tartibli saqlash hamda mehnat qurollariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish.

Nazorat uchun savollar:

1. Mehnat tarbiyasida ta'lim va tarbiya birligining ahamiyatini qanday baholaysiz?
2. Mehnat tarbiyasi va ijtimoiy tarbiyaning boshqa yo'nalishlari o'rtasidagi aloqadorlik haqida so'zlab bering.
3. Mehnat tarbiyasining iqtisodiy tarbiya bilan aloqadorligi nimalarda ko'rinadi?

-

3-savol bayoni.

Estetik tarbiyaning mazmuni. **Estetik tarbiya** “badiiy tarbiya” sifatida ham qo’llaniladi. Estetik tarbiya keng ma’noga ega bo’lib, faqat san’at vositasidagina emas, balki, hayot, mehnat, ijtimoiy munosabatlar, tabiat vositasida go’zallikni his qilishga yo’naltirilgan pedagogik faoliyatni o’z ichiga oladi. Badiiy tarbiya esa san’at (adabiyot, musiqa, qo’shiq, tasviriy va san’atning boshqa yo’nalishlari) vositasida shaxsda estetik his-tuyg’ularni shakllantirishni nazarda tutadi.

Estetik tarbiya (lotincha “estezio” “go’zallikni his qilaman”) o’quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmush go’zalliklarini anglash, idrok etish va to’g’ri tushunishga o’rgatish, go’zallikka muhabbat uyg’otish, ularning badiiy didini o’stirish, go’zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo’naltirilgan pedagogik jarayon

Asosiy vazifalar

1. O’quvchilarga estetik bilimlarni berish.
2. Ularda estetik tushunchalarni hosil qilish.
3. O’quvchilarda estetik his-tuyg’u, estetik ong, estetik did va estetik madaniyatni shakllantirish

Estetik tarbiyaning asosiy vazifalari

darg’azab bo’lish, quvonish, zavqlanish kabi his-tuyg’ularni boshdan kechiradilar. Bundan tashqari kishi yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan obrazni yoki tabiat, hayotdagi go’zal hodisani idrok qilganidan zavq-shavqqa to’ladi.

Nafosat haqidagi tushunchalarni o’zlashtirib olish, ajaoyib san’at asarini sayoz, past saviyada yozilgan asardan farqlash, o’z fikr-mulohazalarini to’g’ri ekanligini qattiq turib, himoya qilishga yordam beradi.

Estetik did o’z tabiatiga ko’ra shaxsga xos bo’lgan psixologik hodisadir. Ammo shaxs ijtimoiy munosabatlarning faol ishtirokchisi bo’lganligi uchun u go’zallikni baholash mezonlarini puxta o’zlashtira oladi. Estetik did shaxsning buyum yoki hodisaga nisbatan munosabat bildirish turi, ob’ektiv nafosat o’lchovi bo’lib, go’zallik, xunuklik va tubanlikka baho berishda sub’ektiv yondashuvni ifodalaydi. Did sanaladi. Xullas, maktab o’quvchilari o’rtasida nafosat tarbiyasini tashkil etishda samarali shakl, metod va vositalardan oqilona foydalanish ijobiy natijalar beradi.

Estetik tarbiya shaxsda go’zallikni his qilish tuyg’usini shakllanishiga yordam beradi. Inson doimo o’z hayotini go’zallik asosida qurishga intiladi. Estetik tarbiya axloqiy, aqliy, huquqiy, ekologik, jismoniy va mehnat tarbiyasi bilan chambarchas bog’liqdir. Tabiat, adabiyot, teatr, musiqa, she’riyat, tasviriy san’at va boshqalarga bo’lgan muhabbat shaxsning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Estetik tarbiya axloqiy tarbiyani samarali tashkil etishda katta ahamiyatga ega. Estetikadan rohatlanishda faqat san’at asarlarigina emas, balki ezgu ishlar, jamoaga hurmat, sadoqat, vijdonan mehnat qilish muhim o’rin tutadi.

Estetik bilimlar tanlovi, viktorina, bayram, ko’rgazma va hokazolarni tashkil etish asosida hosil qilinadi. O’quvchilar o’z qobiliyatlarini turli xil badiiy-ijodiy faoliyatlarda namoyon etadilar.

Estetik tarbiya shaxsning estetik ongi, munosabatlari hamda nafosat faoliyatining vujudga kelishi va takomillashuvidan iborat uzoq davom etadigan jarayon bo’lib, bu jarayon yosh va ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan turli bosqich hamda darajalarga ega. Estetik tarbiyasi shaxsning estetik madaniyatini egallashiga yo’naltirilgan bo’lib, turli shakl va metodlar yordamida amalga oshiriladi.

Jamiyat va ayrim shaxsning estetik madaniyati tushunchalari mavjud. Jamiyatning estetik madaniyati deganda insoniyat butun rivojlanish tarixi jarayonida to'plangan moddiy va ma'naviy qadriyatlari mazmuni tushuniladi. O'quvchi shaxsining estetik madaniyati uning jamiyat madaniy merosini faol, ijodiy o'zlashtirishi natijasida hosil bo'ladi. Shaxsning go'zallik bilan o'zaro munosabati, shuningdek, shaxsning ayrim sifatlarini o'zaro ta'siri natijasida estetik madaniyati doimo o'zgarib turadi.

Nazorat uchun savollar:

1. Nafosat tarbiyasining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat ekanligi haqida so'zlab bering.
2. Nafosat tarbiyasining vositalarini ko'rsating.
3. Go'zallik va xunuklik tushunchalarining mohiyatini izohlang.

4-savol bayoni.

Estetik tarbiya vositalari. Nafosat tarbiyasining vositalari o'quvchilarning go'zallikni sevish ruhida tarbiyalash maqsadida tevarak-atrofdan tanlab olingan turmush, tabiat, san'at go'zalligi va bolalarning badiiy faoliyatini tashkil etishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonda qo'llaniluvchi omillar sanaladi.

Estetik vositalar xilma xildir. Tabiat mehnat, insoniy munosabatlar, san'at estetik tarbiya vositasidir. Tabiat estetik tarbiyaning muhim manbaidir. K.D.Ushinskiy tabiatni yosh avlod estetik tuyg'ularining rivojlanishiga chuqur ta'sir ko'rsatadigan ajoyib tarbiyachidir, degan edi. Sayohat, sayr, yurish, tabiatga bag'ishlangan san'at asarlarini o'rganish mazkur yo'nalishdagi an'anaviy ishdir. Biroq tabiat ichida bo'lishning o'zi etarli emas. Tabiatdagi go'zallikni ko'ra bilish, his etish lozim. Bunday qobiliyat asta-sekin rivojlanib boradi. Sayr, ekskursiya hamda maktab uchastkasida ishlash paytida tarbiyachilar e'tiborini tabiat boyliklariga, uning shaklidagi mukammalliklarga qaratishi, bolalarga nafosat, tabiatni sevish ehtiyojigina bo'lmay, shuningdek, uni ehtiyotlashdan ham iboratligini tushuntirib borishi lozim.

Oila go'zallikning birinchi maktabidir. Oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, uy-jihozlari, ularning yagona birligi, uyg'unligi, tartibli joylashtirilishi, saranjom-sarishtalik, maktabning bezatilishi, maktabdagi yodgorlik va a'lochilar burchagi kabilarning barchasi bevosita bolalarda go'zallikni tarbiyalashda katta ta'sir ko'rsatadi.

Turmush go'zalligining asosini tozalik va tartiblilik tashkil etadi. Sinfxonalarida tozalik saqlanishi, tabiat burchagining tashkil etilishi, o'quvchilar ijodiy ishlari ko'rgazmasi, a'lochilar taxtasi tizimining yangilatib turish ham muhim ahamiyatga ega.

Badiiy adabiyot nafosat tarbiyasida cheksiz imkoniyatlarga ega. U o'quvchilarga hayotni chuqurroq anglashni o'rgatadi. O'quvchilarga o'zbek va chet el adabiyoti haqida ko'proq ma'lumot beriladi. O'quvchilar she'rlar, hikoyalar, xalq og'zaki ijodi namunalari – maqol, matal, ertak, doston, qo'shiq, qissa va romanlarni qanchalik ko'p o'qisa ularda go'zallikka bo'lgan intilish shunchalik kuchli bo'ladi. Shoir va yozuvchilarning hayoti va ijodiy faoliyati, asarlari bilan tanishish tahlil qilish o'quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi, his-tuyg'ulari va til boyligin takomillashtiradi.

Adabiyot darslari o'quvchilarda go'zallikni idrok etishni ta'minlaydi. O'quvchilar nasriy asarlar, she'rlardan parchalar yod oladilar, buning natijasida o'quvchilarning badiiy nutq madaniyati ham shakllanadi. O'quvchilarni mumtoz adabiyotimiz vakillari – Alisher Navoiy, Lutfiy, Sakkokiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Muqimiy, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat, Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek, Abdulla Qahhor, G'ofur G'ulom, Zulfiya, Maqsud Shayxzoda, zamondosh adiblar – Primqul Qodirov, Odil Yoqubov, Xudoyberdi To'xtaboev, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Shavkat Rahmon, Mahmud Toir asarlari, shuningdek, jahon adabiyotining noyob namunalari bilan tanishishlari ularning har tomonlama etuk bo'lib o'sishlariga yordam beradi.

Bundan tashqari o'quvchilar bastakor – Yunus Rajabiy, Muhammadjon Mirzaev, Doni Zokirov, Dilorom Omonullaeva, rassomlar – Kamoliddin Behzod, O'rol Tansiqboev, Rahim Ahmedov, Chingiz Axmarov, Malik Nabiev, Ortiqali Qozoqovlar tomonidan san'at assarlari bilan tanishib borsalar ularning nafosat ongi yanada boyiydi.

Olam va inson go’zalligi, mardlik, jasorat, yuksak insoniy g’oyalarni o’zida aks ettirgan san’at asarlari insonlarni go’zallikni his qilish, ularga intilib yashashga undab kelgan. G’oyaviy saviyasiz asarlar o’quvchilar ongini sayozlashtiradi, ularni chinakam go’zallikdan chalg’itadi, go’zallikni sevishga bo’lgan intilishlarini susaytiradi, didini pastaytiradi.
O’quvchilarning go’zallik bilan bevosita muloqotda bo’lishlari ularga ko’proq hissiy ta’sir ko’rsatadi. Shuning uchun ham o’qituvchi, tarbiyachilar tarbiyaviy ishlarni tashkil etish jarayonida o’quvchilarni badiiy jihatdan yuksak bo’lgan asarlar va tabiat manzaralari bilan tanishtirishga alohida e’tibor qaratishlari zarur. Tasviriy san’at, haykaltaraoshlik va me’moriy asarlar namunalari bilan o’quvchilarni tanishtirish ularda simmetriya, mutanosiblik, chiziqlar, rang va kolorit uyg’unligini idrok etish tuyg’ulariga ega bo’lishlarini ta’minlashga xizmat qiladi. O’quvchilar e’tiboriga ezgu g’oyalarni tarannum etuvchi musiqiy asarlarning havola etilishi, ulardan olinayotgan taassurotlar bilan o’rtoqlashish ularda musiqiy ohang, ritya, tovushlarning ifodaviyligi va sur’atini his etish ko’nikma va malakalariga ega bo’lishlarini ta’minlaydi. Adabiy asarlar esa o’quvchilarning nutq boyligi oshirish, fikrlash qobiliyatini o’stirish, shaxsiy qarashlarini erkin bayon etishga imkon beradi.

Nazorat savollar:

1. Go’zallik va xunuklik tushunchalarining mohiyatini izohlang.
2. Badiiy jihatdan saviyasi past asarlarni qanday aniqlash mumkin?
3. Sizga manzur bo’lgan she’rlardan namunalar aytib bering.
4. O’zbek rassomlaridan kimlarni bilasiz?

5-savol bayoni.
Jismoniy tarbiya mazmuni. Yoshlarni sog’lom bo’lib voyaga etishlarini ta’minlash masalasi xalq pedagogikasi, og’zaki ijodi hamda mutafakkirlar asarlarining bosh g’oyalaridan biri bo’lib kelgan.

Jismoniy tarbiya o’quvchilarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat va Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo’naltirilgan pedagogik jarayon bo’lib; ijtimoiy tarbiya tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi

Ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiyani tashkil etishda muayyan vazifalar hal qilinadi. Ya’ni:

Vazifalar

1. Inson a’zolarining funktsional kamoloti (ichki a’zolar, asab va harakat, suyak-muskul tizimi, tana uyg’unligi va ularning funktsional faoliyatini boshqarish layoqati)ga egalikni ta’minlash. 2. O’quvchilarning sog’ligini mustahkamlash. 3. Ularni gigiena qoidalariga amal qilishga ko’niktirish.
4. O’quvchilar mohirligini har tomonlama o’stirish. 5. O’quvchilarning jinsiy jihatdan to’g’ri kamolga etishlari uchun sharoit yaratish.
6. O’quvchilarda mustahkam iroda, qat’iy xarakter, intizomga so’zsiz amal qilish ko’nikmalarini shakllantirish

Jismoniy tarbiya vazifalari

“Alpo[illegible]o’ynida voyaga etgan[illegible]’n to’rt botmon birinc[illegible]n to’rt botmon yoyni qo’lga ushlab ko’tarib tortdi, tortib qo’yib yubordi. Yoyning o’qi yashinday bo’lib ketdi. Asqar tog’ining katta cho’qqilarini yulib ketdi, ovozasi olamga yoyildi. Shunda barcha xaloyiq

yig'ilib kelib aytdi: "Dunyoda bir kam to'qson alp o'tdi, alplarning boshlig'i Rustami doston, oxiri bu Alpomish alp bo'lsin".
Abu Ali ibn Sino ham insonga xos bo'lgan ijobiy fazilatlaridan sanab o'tar ekan, quyidagilarga alohida urg'u beradi: 1. Jasurlik – biror ishni bajarishda kishining jasurligi, chidamliligi, inson boshiga tushgan yomonlikni to'xtatib turuvchi quvvat. 2. Aqllilik – biror ishni bajarishda shoshma-shosharlik qilishdan saqlovchi quvvat. 3. Ziyraklik – sezgi bergan narsalarning haqiqiy ma'nosini tezlik bilan tushuntirishga yordam beruvchi quvvat.
Alisher Naoiy "Farhod va Shirin" dostonida Farhodning jismoniy qobiliyatlarini alohida ko'rsatib o'tadi. Dostonda ta'riflanishicha, Farhod aqliy kamolotga erishish bilangina cheklanib qolmay, jismoniy va harbiy mashqlar yordamida chiniqadi. Suvda suzish, chavandozlik, qilichbozlik va boshqalar uning kundalik mashg'ulotiga aylangan. Mutafakkirning fikriga ko'ra, Farhod 10 nafar 20 yoshli yigitning quvvatiga ega bo'lgan.
Abdulla Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq va ilm-ma'rifatga ega bo'lmoq uchun badantarbiya bilan shug'ullanishi zarur: "Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadir. Chunku o'qimoq, o'qitmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz vujud lozim. Sog' badanga ega bo'lmagan insonlar amallarida, ishlarida kamchilikka yo'l qo'yurlar. ... Badan tarbiyasini fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkisi bir choponning o'ng ila tersi kabidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ustini qo'yib asatrini yuvib ovora bo'lmak kabidirki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun mehnat va sog'lom bir vujud kerakdur".
Jismoniy tarbiya kishilarga kuchli ta'sir ko'rsatib, salomatligini mustahkamlaydi, ishlash qobiliyatini oshiradi, uzoq umr ko'rishga yordam beradi. Sport har qanday yoshda ham qaddi-qomatni tarbiya qilish kuch-quvvatini saqlab turishning ajoyib vositasidir. Sport dam olish bilan mehnatni almashtirib turish manbai bo'lib xizmat qiladi.
Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida sport, shu jumladan, bolalar sportini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur yo'nalish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib, ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Chunonchi, yoshlarni jismoniy tarbiyalashning kopleks dasturi ishlab chiqildi. "Sog'lom avlod dasturi" yoshlarning salomatligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.
Mazkur dastur talablariga muvofiq respublika miqyosida quyidagi uch bosqichli sport musobaqalarining o'tkazilishi yo'lga qo'yildi:
1. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilar o'rtasidagi **"Umid nihollari"** bellashuvi.
2. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari o'rtasidagi **"Barkamol avlod"** bellashuvi.
3. Oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar o'rtasidagi **"Universiada"** bellashuvi.
Shuningdek, sportning turli yo'nalishlari bo'yicha joylarda ommaviy sport bayramlari, musobaqalarning tashkil etilishi ommaviy tus oldi.
Yangi turdagi o'quv muassasalarda ham o'quvchilar o'rtasida jismoniy tarbiyani samarali tashkil etilishiga e'tibor qaratilmoqda. Jismoniy tarbiya mazmuni o'quvchilarning harbiy chaqiriqqacha tayyorgarligiga erishish bilan uzviy bog'liqdir.
Bugungi kunda yoshlar o'rtasida sportning futbol, shaxmat, suvda suzish, tennis, boks, karate, ushu va takvando kabi turlari tobora ommalashib bormoqda. Respublikada sportning ommalashuvi turli yo'nalishlarda xalqaro maydonlarda mamlakat sharafini himoya qiluvchi sportchilar sonining o'sishiga imkon berdi. Bugungi kunda sportchilarimiz orasida olimpiada chempionlari etishib chiqmoqda. O'quvchilarga olimpiada sovrindorlari hamda xalqaro musobaqalarning g'oliblari bo'lgan M.Abdullaev, L.Cheryazova, A.Grigoryan, R.Chagaev, B.Sultonov, O'.Haydarov, A.Doktorashvili, A.Taymazovlar haqida hikoya qilib berish, ularning ishlarini davom ettirishga rag'batlantirish samarali natijalarni beradi.
O'quvchilarning jismoniy madaniyatga ega bo'lishlari jismoniy tarbiya samaradorligini belgilovchi muhim omil sanaladi. Shuningdek, jismoniy madaniyat inson va jamiyat umumiy madaniyatining ham ajralmas qismidir.

Nazorat uchun savollar:

1. Jismoniy tarbiya deganda nimani tushunasiz?
2. Jismoniy tarbiyaning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
3. Mamlakatda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishiga berilayotgan e'tibor nimalarda ko'zga tashlanadi?

6-savol bayoni.

Jismoniy tarbiyani tashkil etish jarayonida o'quvchilarni gigiena qoidalari bilan tanishtirish, ularga so'zsiz amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lishlariga erishish muhimdir.
Buyuk pedagog Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida bu borada quyidagilarni ta'kidlagan edi: "Nazofat (gigiena) deb a'zolarimizni, kiyimlarimizni, asboblarimizni pok va toza tutmoqni aytilur. Poklik zehn va idrokingni keng va o'tkir qilur. Xalq orasida e'tibor va shuhratga sabab bo'lur. Poklik ila har xil kasalliklardan qutulib, jonimizning qadrin bilan bo'lurmiz. Pok bo'lmak salomatimiz, saodatimiz uchun eng kerakli narsadur. Yirtiq eski kiyimlar kiymoq ayb emas, yangi kiyimlarni kir qilib, yog'ini chiqarib yurmak zo'r ayb va gunohdur. ... Ifloslik balosidan poklik davosi ila qutulmoq kerak". Demak, inson jismonan baquvvat va aqlan ziyrak bo'lishni istasa, u birinchi navbatda poklikka katta ahamiyat berishi lozim. Ayni paytda poklik tarbiyasi ustuvor bo'lgan insonlarda kishiga yaxshi yashash uchun zarur bo'lgan barcha fazilatlarda tarkib topadi hamda axloqqa zid bo'lgan nuqsonlar yo'qoladi.
Jismoniy tarbiya bolalarga faqat oilada yoki ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etish jarayonidagina emas, balki sinfdan hamda maktabdan tashqari o'tkaziladigan mashg'ulotlar, turli musobaqalar, tadbirlar chog'ida ham samarali tashkil etib borilishi maqsadga muvofiq. "Sog'lom tanda – sog' aql" degan maqolda jismoniy tarbiyaga oid ma'no lo'nda qilib ifoda etilgan. Jismoniy tarbiyani bugungi kun talablariga muvofiq yuqori darajaga ko'tarish o'quvchilar o'rtasida salbiy holatlar – kashandalik va ichkilikbozlikning keng tarqalishi oldini oladi.

Nazorat uchun savollar:

1. Mamlakatda jismoniy tarbiya va sportning rivojlanishiga berilayotgan e'tibor nimalarda ko'zga tashlanadi?
2. O'quvchilar gigienasi nima? Bu haqida buyuk pedagog Abdulla Avloniy qanday fikrlarni bildirgan?
3. «Jismoniy tarbiya – kashandalik va alkogolizmning dushmani» iborasining mazmunini izohlab bering.

Asosiy adabiyotlar

1. Pedagogika. G'G' M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Ibragimov X.I.., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
3. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. – T.: TDPU, 2012.
4. Yuzlikaeva E., Madyarova S., Yanbarisova E., I.Morxova. Teoriya i praktika obhey pedagogiki. – T.: TGPU, 2014.
Principles of Learning and Teaching. Effective pedagogy. P – 12.
5. Leadership guide.Senior leaders, subject leaders and teachers in secondary schools.
6. Pedagogy and Practice:Teaching and Learning in Secondary chools . Status: Recommended Date of issue: 09-2004. Ref: DfES 0444-2004 GGuidance.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta`minlash taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. "O`zbekiston". 2017

2. Xasanboev J, To’rakulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug’at. – T.: Fan va texnologiya, 2008 .
Elektron ta’lim resurslari
1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. Uz

Mavzu: Oila tarbiya
Asosiy savollari:
Oila tarbiyasining mohiyati
Oila tarbiyasini tashkil etish shakl, metod va vositalari
Oila muammolari
1-savol bayoni.

Oila tarbiyasining mohiyati. Oila tarbiyasi, yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, ota-onalar yoki shaxs kamoloti uchun mas’ul shaxslar tomonidan tashkil etiluvchi hamda farzandlarni har tomonlama etuk, sog’lom etib tarbiyalashga yo’naltirilgan pedagogik jarayon. Ota-onalar o’zlarining ijtimoiy burchlarini bajarar ekanlar, farzandlarida mehnatga, uni tashkil etuvchilarga nisbatan mehr-muhabbat, hurmat tuyg’usini shakllantirish, ularni ijtimoiy-foydali mehnatga tayyorlash, turli ko’rinishdagi munosabatlarni uyushtirish vaqtida tartib-intizomga amal qilish, ijtimoiy me’yorlarga og’ishmay rioya etish, sog’lom turmush tarzini yaratish, o’z shaxsiy hayotlari mazmunini belgilashda maqsad, so’z va faoliyat birligini ta’minlash borasida har tomonlama ijobiy ibrat namunasini ko’rsatadi.
Shaxs shakllanishiga ta’sir etishning ijtimoiy-ruhiy asosiga ega oila jamiyatning ajralmas bo’lagi sifatida ijtimoiy vazifalarni bajarish bilan birga o’ziga xos xususiyatlarni ham akslantiradiki, bunday xislat psixologik qarama-qarshilik hamda xarakterlar to’qnashuvidan iborat ijtimoiy munosabatlardan toliqqan inson organizmi ning ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash uchun zarur bo’lgan mo’’tadil iqlimni hosil qila oladi. Bu tuyg’u xalqimiz ruhiyatidagi o’ziga xos xususiyatlardan biridir.
Oila tarbiyasida ob’ektiv va sub’ektiv omillarning roli katta. Oilaning moddiy ta’minoti va farovonlik (maishiy turmush) darajasi, oila byudjetining mavjud holati, undan oqilona foydalanish borasidagi tajriba, sog’lom ruhiy muhitning barqarorligi va hokazolar ob’ektiv omillar sanalsa, oiladagi shaxslararo munosabatlar mazmuni, oila a’zolarining fiziologik, psixologik, madaniy jihatdan komillik hamda ma’lumot darajasi, ularning qiziqish va ehtiyojlari o’rtasidagi mutanosiblik, oilaviy hayotni tartibga solish borasidagi o’zaro yordam, hamkorlik, birlik tamoyillariga tayanish kabilar sub’ektiv omillar sirasiga kiradi.
Bolalarda ijtimoiy-dunyoviy bilimlarni egallashga bo’lgan intilish, ijtimoiy faoliyatning shakllanishida ota-onalarning samarali ishtirok etishlari hal qiluvchi omil bo’lib, bu oia tarbiyasini muvafiqiyatli amalga oshirishning zarur shartlaridan biri.
Oila tarbiyasida bolalar hayotini to’g’ri yuritish ularni vaqtdan to’g’ri va unumli foydalanishlarining asosiy garovidir. Bolalarning oiladagi vaqtini o’yin, mehnat va o’qish faoliyatlari bo’yicha to’g’ri taqsimlash nihoyatda muhimdir.
Oila jismoniy va psixologik jihatdan sog’lom, ma’naviy barkamol, mehnat, ijtimoiy hamda oilaviy hayotga tayyor shaxsni shakllantirib berishi lozim. Oila tarbiyasining mazmuni bolalarga ijtimoiy tarbiyaning mazkur yo’nalishlari – jismoniy, axloqiy, aqliy, estetik, mehnat, ekologik, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy-g’oyaviy hamda jinsiy ta’lim berish, ularda faoliyat ko’nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Oila muhitida tashkil etiladigan jinsiy tarbiya o'zida bolani jinsiy jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodalikka o'rgatish, o'z sog'ligi uchun g'amxo'rlik qilish va mas'uliyatli bo'lishni ta'minlashga qaratilgan harakatlarning mazmunini ifoda etadi. Bolalarning sog'lom bo'lishlarida ularning kundalik hayotiy rejimga amal qilishlari nihoyatda muhimdir. Ota-onalar yoki oilaning katta vakil avlodlari bolalarning mehnat qilishlari va dam olishlarini tartibga solishga ahamiyat berishlari kerak.

Organizmning bir maromda ishlashi bola salomatligini saqlash va mustahkmlashgagina yordam berib qolmay, shu bilan birga uning barcha yumushlarni tartibli va sifatli bajarishi uchun imkon yaratadi.

Markaziy asab tizimining mustahkamlanishi uchun yaxshi dam olish talab etiladi. Tiniqib uxlash bosh miya asab hujayralarini to'la orom olishini ta'minlaydi. Bu esa butun organizmning mo''tadil o'sishiga, uning ish qobiliyatini saqlash va qayta tiklashga yordam beradi.

Inson salomatligini saqlashda ertalabki badan tarbiyaning ahamiyatini bolalarga tushuntirish hamda ularning ertalabki badan tarbiya bilan shug'ullanishga ko'niktirib borish ota-ona nazoratini talab etadi. Badan tarbiya bolani saranjomlik, intizomga ham o'rgatib boradi.

Ovqatlanishning to'g'ri tashkil etilishi ham bolaning sog'lom bo'lib o'sishining asosiy omillaridan biridir. Ota-onalar tomonidan bolaning belgilangan muayyan soatlarda ovqatlanish, ovqatlanishdan avval qo'lni yuvish, ovqatdan keyin og'izni chayish, shuningdek, kuniga ikki marta (ertalab va kechqurun) tish tozalash, haftada bir marta vanna (yoki dush, hammom)da cho'milish, qo'l va oyoq tirnoqlarini olishga odatlantirib borishlari zarur. Ushbu holatlar bolalarda jismoniy madaniyat unsurlarini shakllantiradi.

Oila tarbiyasida bolalarni aqliy jihatdan tarbiyalash ham muhim o'rin tutadi. Bu boradagi dastlabki va muhim vazifa ota-ona tomonidan bolaning qiziqish va ehtiyojlarini ko'ra bilish asosida tasavvur, idrok, tafakkur, xotira hamda diqqatni takomillashtirishga yordam beruvchi mashg'ulotlarga jalb etishdan iborat. Shuningdek, ma'lum yo'nalishlar bo'yicha bolada qg'iziqishni uyg'ota olish, uni rivojlantirib borish ham talab etiladi. Bu borada ota-ona yoki oilaning boshqa a'zolarining dunyoqarashi, ehtiyoj va qiziqishlari doirasi hamda ular tomonidan ko'rsatilayotgan namuna muhim tarbiyaviy omil bo'lib xizmat qiladi. Oila muhitida bolaning aqliy jihatidan tarbiyalab borishda konstruktorlik o'yinlari (kubiklar yordamida uylar qurish, kesmalar asosida fano (tasvir)lar hosil qilish va boshqalar), fikr doirasini kengaytirishga yordam beruvchi sport o'yinlari (shaxmat, shashka)ni tashkil etish, turli mavzulardagi krossvord, chaynvord va rebus topishmoqlarini hal qilish, teatr, muzey va ko'rgazmalarga tashrif buyurish hamda ilm-fan, texnika va texnologiya taraqqiyoti yuzasidan suhbatlarning uyushtirilishi bu borada o'zining ijobiy samarasini beradi.

Axloqiy tarbiya oila tarbiyasining o'zagini tashkil etadi. Oilada uyushtirilajak axloqiy tarbiyaning maqsadi bolalarda eng oliy axloqiy sifatlar ota-ona hamda oilaning boshqa a'zolari, shuningdek, atrofdagilarga nisbatan mehr-muhabbat, kattalarga hurmat, kichiklarga muruvvat, kamtarlik, to'g'riso'zlik, mehnatsevarlik, sahovat, insonparvarlik, adolat, vijdon, or-nomus, g'urur, intizom, ijtimoiy burchni anglash va hokazolarni shakllantirishdan iboratdir. Shaxsda mazkur sifatlarning qaror topishida oiladagi sog'lom muhit, oila a'zolarining psixologik jihatdan o'zaro yaqinliklari, ehtiyoj, qiziqish va hayotiy yondoshuvilaridagi umumiylik, bir-birlarini har qanday vaziyatda qo'llab-quvvatlay olishlari, ota-onalar tomonidan barcha farzandlariga nisbatan qo'yilayotgan talablar, shuningdek, ularga ko'rsatilayotgan e'tiborning bir xil bo'lishi oila tarbiyasida ijobiy natijalarga erishishning omillari sanaladi. Oilada muayyan an'ananing qaror topganligi, unga oila a'zolari tomonidan bildirilayotgan hurmat, shuningdek, keksa avlod vakillarining shaxsi, ularning ijobiy sifatlari, mehnatda erishgan (garchi u oddiy bo'lsa ham) yutuqlari, atrofdagilar bilan munosabati borasidagi suhbat yoki xotiralarning tashkil etilishi bolalarda hayotiy e'tiqodning shakllanishini ta'minlaydi.

Oilada tashkil etiladigan estetik tarbiya bolalarda go'zallikni his qilish, undan zavqlanish, tabiat go'zalliklaridan bahra olish asosida his-tuyg'u, idrok, tasavvur hamda qarashlarni yuzaga keltirish, ularni hayotni sevishga o'rgatishdek vazifalarning ijobiy hal etilishini nazarda tutadi. Axloqiy va estetik qarashlar mazmuni o'zgargan bir sharoitda oilada axloqiy va estetik tarbiyani to'g'ri va samarali tashkil etilishi ayniqsa muhimdir. Bolalar juda yoshligidanoq soxta go'zalliklar (yarim yalang'och yoki yalang'och badan, me'yoridan ortiq qo'llanilgan pardoz, urfga kirib borayotgan kosmetik operatsiyalar «mahsuli», o'ta darajadagi yaltiroq mato yoki taqinchoqlar) go'zallikning

timsoli emasligini anglab etishlari lozim. Bola tasavvurida haqiqiy, tabiiy go'zallik (yam-yashil tabiat, nafis qor uchquni, nozik gullar, beg'ubor osmon, viqorli tog'lar, tiniq zilol suv, toza, musaffao havo, bepoyon dalalar, qushlarning yoqimli ovozi, sharqiroq suv, «chuchvara»lar hosil qilayotgan yomg'ir tomchilari, kamalak jilosi, shuningdek, ochiq, xushsurat, chiroyli tabassum, shirali ovoz, ta'sirchan badiiy va san'at asarlari, yuksak mahorat bilan yaratilgan o'yinchoqlar (bolaning asabini junbushga keltiradigan elektron o'yinchoqlar emas), yarashiqli liboslar va boshqalar)ning namoyon bo'lishi uchun shart-sharoit yaratib berish maqsadga muvofiqdir. Bolalarda haqiqiy go'zallikni his etish tuyg'usi tabiat bag'rida, muzey, ko'rgazma, kino va teatrlarda bo'lish tufayli shakllanadi. Shu bois maktabgacha ta'lim muassasalari hamda boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan tabiat bag'riga, muzey, ko'rgazma, kino va teatrlarga uyushtiriladigan ekskursiya va tashriflar katta tarbiyaviy kuchga egadir.

Mehnat tarbiyasi ham oila tarbiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri sanaladi. Shaxsning mustahkam xarakter va qat'iy iroda egasi bo'lib voyaga etishida mehnatning roli kattadir. Bolalarni oilada to'g'ri tarbiyalashda oila xo'jaligining odilona tashkil etilishi, bolalarni oila xo'jaligini yuritish ishiga jalb qilish katta ahamiyatga ega. Bolalar tomonidan bajariladigan oilaviy yumushlar ularning jismoniy va aqliy kamoloti darajasidan ortiq bo'lmasligi, ularning tezda toliqishlari yoki mayib bo'lishlariga sabab bo'lmasligi lozim. Bolalar zimmasiga ularning yoshi, rivojlanish darajasi, jismoniy quvvatiga muvofiq yumushlarning taqsimlab berilishi, berilgan topshiriqlarning bajarilishi va ularning sifatini kattalar tomonidan nazorat qilib turish, bajarilgan topshiriqlarning haqqoniy bahosiga ega bo'lgan havasini oshiradi, unda o'z kuchiga bo'lgan ishonchni yuzaga keltiradi.

Oilada mustaqil ravishda, ayrim yumushlarning hamjihatlikka asoslangan holda bajrilishiga erishish katta ahamiyatga ega.

Mehnatni tashkil etishda ota-onalarning shaxsiy namunasi, aka-opalarning ibrati, shuningdek, ota-onaning bola bilan birga ishlashlari katta tarbiyaviy kuchga egadir.

Oilada tashkil etilgan mehnat bolalarni farosatli bo'lish, ishni rejali olib borish, vaqtdan unumli foydalanish, tejamkor bo'lish, shuningdek, o'zgalar mehnati, inson mehnatining mahsuli bo'lgan ne'matlarni asrab-avaylashga o'rgatadi.

Oilada, shuningdek, atrof-muhit muhofazasi (ekologiyasi)ga oid tarbiyaviy ishlar ham tashkil etiladiki, bu jarayonda bolalarda «inson-tabiat-jamiyat» tushunchalari o'rtasida yuzaga keluvchi o'zaro muvofiqlik borasidagi g'oyalarning qaror topishiga zamin hozirlaydi. Oila muhitida tashkil etilayotgan hovli sahnini supirib-sidirish, gulzorlarni tashkil etish, ko'chatlarni o'tkazish va ularni parvarish qilish, maishiy chiqindilarni bartaraf etishga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish kabi harakatlar bolalarda tabiatni asrashga nisbatan mas'ullik tuyg'usini shakllantiradi.

Oilaviy hayotning me'yorida bo'lishi ko'p jihatdan oila byudjetining holatiga ham bog'liq. Shu bois oila a'zolari mehnati evaziga yaratilayotgan moddiy mablag'larni tejab-tergab, ulardan o'rinli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu bois bolalarni ham yoshlikdan pul bilan muomala qilishga o'rgatish, o'zining shaxsiy hamda oila a'zolarining buyumlari, shuningdek, oila mulkiga nisbatan mas'uliyatli yondashishga ko'niktirib borish muhim ahamiyatga egadir. Bolalarga pulning inson mehnatiga to'nadigan qiymat ekanligini tushuntirib berish, uni oilaning eng muhim ehtiyojlari uchun ishlatish lozimligini uqtirish, ular tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lar edi. Oilada tashkil etiladigan iqtisodiy tarbiya bolalarda iqtisodiy savodxonlik hamda tafakkurning shakllanishida muhim o'rin tutadi. Bolalarda iqtisodiy tafakkurni hosil qilishda ota-ona, oilaning katta yoshli a'zolarining namunasi katta tarbiyaviy ta'sir kuchiga egadir (iqtisodiy tarbiya).

Nazorat savollar:

1. Oila nima? Uni o'z fikringiz bilan izohlab bering.
2. Oila tarbiyasining mohiyati nimadan iborat?
3. Oila tarbiyasi qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etiladi?
4. Oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik mazmunidan nimalar aks etadi?

2-savol bayoni.

Oila tarbiyasini tashkil etish shakl, metod va vositalari. Oila sharoitida uyushtirilayotgan suhbatlar alohida diqqatga sazovordir. Ommaviy axborot vositalari orqali aholi e'tiboriga havola etilayotgan huquqiy mavzulardagi maqolalar, ko'rsatuv, eshittirish, shuningdek, ommaviy-huquqiy

adabiyotlar hamda ularda ilgari surilgan g'oyalar yuzasidan o'tkaziladigan suhbatlar bolalarda huquqiy tasavvur, idrok, savodxonlik, tafakkur, faollik, mas'ullik, e'tiqod va salohiyatni qaror topishiga olib keladi.
Oila muhitida bolalarga ularning burchlari to'g'risidagi ma'lumotlarni berib borish, o'z navbatida huquqlaridan foydalanish yo'llarini ko'rsatib berish bu borada yaxshi samara bera oladi.
Oila bolalarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ularini hosil qiluvchi o'ziga xos maskan sanaladi. Bolalar «Vatan», «xalq» tushunchalarining mohiyatini dastlabana shu maskanda o'zlashtiradilar. Binobarin, oilaning o'zi Vatanning bir bo'lagidir. Oila sha'nini himoya qilish, uni saqlash to'g'risida qayg'urishning Vatanning sha'ni,el-yurt manfaati uchun kurashish tuyg'ulari bilan uzviy bog'liq bo'lishiga erishish oilada tashkil etilayotgan ijtimoiy-siyosiy tarbiyaning asosi bo'lishi lozim.
Yuqorida qayd etilgan tarzda oila tarbiyasini tashkil etish komil insonni tarbiyalab voyaga etkazish muvaffaqiyati uchun poydevor bo'ladi. Farzandlarning har tomonlama etuk bo'lib voyaga etishlarida ota-ona, oilaning boshqa a'zolarining dunyoqarashlari, hayotiy yondoshuvlari va ma'naviy dunyosi o'ziga xos o'rin tutadi.
Shuningdek, ota-onalarning muayyan darajada pedagogik bilimlarga ega bo'lishlari ham ahamiyatlidir. Oila va ta'lim muassasalari o'rtasida tashkil etilgan hamkorlikning bosh g'oyasi ota-onalar uchun pedagogik yordam ko'rsatishdan iboratdir.
Farzand dastlabki ma'lumot va ijtimoiy me'yorlarga amal qilish borasidagi ko'nikmalarga oilada ega bo'ladi. Chunki oilaviy ijtimoiy munosabatlar, xususan, madaniy-maishiy, iqtisodiy-moliyaviy, mulkiy muosabatlar hamda mehnat faoliyatini tashkil etishda farzandlar o'zlari sezmagan, mohiyatini tushunib etmagan holda mazkur munosabatlar jarayonida ishtirok etadilar, demakki, ijtimoiy masalalar bilan to'qnash keladilar, natijada bu tarzidagi muloqotlarning doimiy, qisqa muddatlarda takrorlanib turishi ular uchun ota-onalar, farzandlarning huquq, burch, majburiyat va mas'uliyatlarini tushunib etishga yordam beruvchi ijtimoiy ob'ektiv shart-sharoitlarni yaratadi.
Shu jihatdan pedagogika fani oldiga milliy va hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda tarixan tarkib topgan oila - ta'lim muassasasi – jamoatchilik tarzidagi uchlikning ijtimoiy-ma'rifiy roli ular o'rtasidagi o'zaro birlik, aloqadorligini asoslash, bolalarda idrok va tafakkurni shakllantirishda oila va jamoatchilik imkoniyatlarini aniqlash hamda ulardan unumli foydalanish talabi o'rtaga qo'yilmoqda.
Oila tarbiyasining farzandlarga tarbiya berish, ularda ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirish imkoniyatlarini aniqlash yuzasidan bir qator tadbirlar amalga oshiriladi. Shu borada ota-onalar bilan olib borilgan ishlar hamda o'tkaziladigan tadbirlardan ayrimlarini namuna sifatida keltiramiz:
Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlar:
I. Ota-onalar bilan o'tkaziladigan suhbatlar.
Suhbatlar yakka va umumiy tarzda olib boriladi. Ilk suhbat chog'ida o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, ularda ma'naviy-axloqiy madaniyat unsurlarini qaror toptirish muvaffaqiyatini ta'minlash kafolati bo'lgan ota-onalar va farzandlarning ijtimoiy onglilik hamda faollik darajasini aniqlashga yordam beruvchi anketa so'rovlarini o'tkazish mumkin. So'rovnomalar ikki turda bo'lib, ulardan birinchisi har bir o'quvchining umumiy portretini tasvirlovchi, diagnostik tavsifga ega, ikkinchi turdagi so'rovnoma esa ota-onalarning ijtimoiy tarbiyani yo'lga qo'yish, farzandlar ma'naviy madaniyatini shakllantirishga nisbatan ularning shaxsiy munosabatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi so'rovnomalardir. Quyida birinchi turdagi so'rovnomaning umumiy mazmunini keltiramiz:
«Siz o'z farzandingizni qay darajada bilasiz?» nomli so'rovnoma mazmuni quyidagicha:
1. Farzandingiz ushbu o'quv maskanida nechanchi yil tahsil olmoqda?
2. Farzandingizni so'nggi o'quv yilidagi o'zlashtirish darajasi Sizni qoniqtiradimi?
3. Farzandingizning fanlarga bo'lgan munosabati qanday?
4. Uning fanlarga bo'lgan qiziqishini baholay olasizmi?
5. Ijtimoiy munosabatlar (oila, jamoa hamda keng jamoatchilik o'rtasida tashkil etiladigan munosabatlar) jarayonidagi ishtiroki qanday?
6. Farzandingiz mansub bo'lgan mikro hamda makro muhitning ma'naviy-axloqiy iqlimi kanday? U kimlar bidan do'stlashgan, ularning ma'naviy qiyofasi Sizning talablaringizga javob bera oladimi?

7. Siz farzandingizga nisbatan salbiy aloqa yoki ta’sir ko’rsatganliklarining guvohi bo’lganmisiz?
8. Uning oilada tutgan o’rni qanday?
9. O’quv yurti yoki oila o’rtasida vujudga kelgan shaxsiy ziddiyatlari bormi?

Dastlabki suhbat hamda ota-onalar tomonidan to’ldirilgan so’rovnomalar natijalarini tahlil etish ular bilan tashkil etiladigan tadbirlar yo’nalishi va mazmunini belgilab beradi.

II. Maktabning o’quv yili davomida ota-onalar bilan olib boradigan ishlari:

1. Sinf ota-onalar majlisi. Majlis o’quv yili davomida besh marta o’tkaziladi, ya’ni, o’quv yili boshlanishi oldidan, I, II, III va IV choraklar yakunida. Majlislarda o’quv yurti ichki-tartib qoidalari, umumjamoa ijtimoiy me’yorlariga rioya etish holatlari, yuzaga kelgan ziddiyatlar tahlil etiladi, navbatdagi davr uchun belgilangan ishlarni rejalashtirish, ularni hal etish yo’llari, chora-tadbirlari belgilanadi. Maktabda ta’lim olayotgan, jamoa hayoti, shuningdek, tarbiyaviy tadbirlar faollik ko’rsatayotgan, o’qishda, mehnatda alohida o’rnak bo’layotgan o’quvchilarning ota-onalariga minnatdorchilik izhor etiladi.

Ayrim o’quv yurtida tashkil etilayotgan tadbirlarda faol ishtirok etmasliklari aytib o’tiladi va buning sabablari aniqlanadi, bunday holatlarga barham berish borasida fikrlashib olinadi.

2. Umummaktab ota-onalar majlisi. Ota-onalarning umumiy yig’ilishida o’quv yili davomida o’quvchilar, ota-onalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning borishi va yakuni muhokama qilinadi. Ota-onalar maktab hayoti va o’quvchilarning intizomi, xulq-atvori, ijtimoiy me’yorlarga amal qilishlari, o’quvchilarni ma’naviy jihatdan tarbiyalash borasida erishayotgan natijalar bilan tanishtiriladi.

O’quv yili yakunida bo’lib o’tgan umummaktab ota-onalar majlisida ijtimoiy hayotda faol ishtirok etgan, turli fanlar bo’yicha uyushtirilgan tadbirlarda alohida ibrat ko’rsatgan, shuningdek, muayyan fanlar bo’yicha olimpiadalarda muvaffaqiyatli qatnashgan o’quvchilar va ularning ota-onalarini rahmatnomalar bilan taqdirlash maqsadga muvofiqdir. Quyidagi bunday rahmatnomalarning namunasini keltiramiz:

Namuna

3savol bayoni

Oila muammolari. Mustaqillik yillarida barcha sohalarda bo’lgani kabi ta’lim-tarbiya va oila tarbiyasini tashkil etishda ham muhim o’zgarishlar yuz berdi. Mavjud sharoitda oilada bolalar tarbiyasini tashkil etishda muayyan qiyinchiliklar ko’zga tashlanmoqda. Bular quyidagilardan iborat:

- ota-onalarning pedagogik bilimlardan etarli darajada xabardor emasliklari;
- o’tish davri sharoitida yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklar natijasida maktab yoshi bolalarning muayyan qismining bozor bilan bog’lanib qolib, o’qishga bo’lgan qiziqishlarining susayganligi;
- zamonaviy axborot vositalari, shu jumladan, kopyuterning ijtimoiy hayotga tobora chuqur kirib borayotganligi, natijada uning ijobiy ta’siri bilan birga bolalarda badiiy adabiyotlarni o’qishga bo’lgan qiziqishlarining sezilarli pasayishi;
- axborot vositalari sahifalarida jangari kayfiyatdagi tomoshalar sonining ortib borayotganligi va buning oqibatida bolalarda berahmlilik kayfiyatining paydo bo’layotganligi;
- o’quvchilarning o’quv adabiyotlari bilan to’la qurollantirilmaganligi;
- noto’liq oilalarning mavjudligi hamda ular sonining ortib borayotganligi va hokazolar.

Oilaning farzandlar o’quv faoliyatiga g’amxo’rlik qilishi tarbiyadagi bosh masalalardan biridir. Ota-onalar farzandlarining ta’lim jarayonida bilimlarni muvaffaqiyatli o’zlashtirishlari yo’lida mas’uliyatni chuqur his etishlari zarur.

Ota-onalarning bu borada quyidagilarga rioya etishlari maqsadga muvofiqdir:

- bolalarning mashg’ulotlarga kechikishlari va uyga o’z vaqtida qaytmasliklariga yo’l qo’ymasliklari;
- ularning dars tayyorlashlari uchun uyda qulay sharoitni yaratib berishlari;
- bolalarda uy vazifalarini bajarishga nisbatan mas’uliyatli yondashuvni qaror toptirishlari;
- bolalarga o’quv topshiriqlarini bajarish hayotiy zaruriyat ekanligini uqtirishlari, vazifalarni mustaqil, vijdonan bajarish ko’nikmalariga ega bo’lishlariga ko’maklashishlari;

- bolalarning kun tartibiga amal qilish ko'nikmalariga ega bo'lishlariga e'tibor qaratishlari;
- bo'sh vaqtdan unumli foydalanishlarini nazorat qilib borishlari.

Oilada bola tarbiyasiga ijodiy yondashish, bolalarda ijobiy sifatlarni shakllantirishga erishish ularning shaxs sifatida to'laqonli shakllanishlarida muhim ahamiyatga ega.

Nazorat savollar:

1. Oila nima? Uni o'z fikringiz bilan izohlab bering.
2. Oila tarbiyasining mohiyati nimadan iborat?
3. Oila tarbiyasi qanday shakl, metod va vositalar yordamida tashkil etiladi?
4. Oila va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik mazmunidan nimalar aks etadi?

Asosiy adabiyotlar

1. Pedagogika. G'G' M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Ibragimov X.I.., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
3. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. – T.: TDPU, 2012.
4. Yuzlikaeva E., Madyarova S., Yanbarisova E., I.Morxova. Teoriya i praktika obhey pedagogiki. – T.: TGPU, 2014.
Principles of Learning and Teaching. Effective pedagogy. P – 12.
5. Leadership guide.Senior leaders, subject leaders and teachers in secondary schools.
6. Pedagogy and Practice:Teaching and Learning in Secondary chools . Status: Recommended Date of issue: 09-2004. Ref: DfES 0444-2004 GGuidance.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta`minlash taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. "O`zbekiston". 2017

2. Xasanboev J, To'rakulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2008 .

Elektron ta'lim resurslari

1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. Uz

TARBIYA TAMOYILLARI

<u>Asosiy savollar:</u>

Tarbiya qonuniyatlari Tarbiya tamoyillari

<u>Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:</u> maqsad, tarbiya maqsadi, tarixiy xarakter, mafkura, tarbiya vazifalari, tarbiyaning tarkibiy qismlari, aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, ekologik, iqtisodiy, mehnat, huquqiy tarbiya.

1-savol bayoni

Davlatimizning mustaqillikka erishuvi ta'lim va tarbiyaning milliy shakllarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar ochib berdi. Tarbiya - ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari,

ehtiyojlarini nazarda tutgan holda. o'qituvchilarning o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqotidir.
Tarbiya nazariyasi Markaziy Osiyo faylasuflarining va xalq pedagogikasining tarbiya borasidagi boy tajribalariga tayanadi.

Tarbiya nazariyasi pedagogikaning boshqa bo'limlari: pedagogikaning umumiy asoslari, ta'lim nazariyasi, maktabshunoslik bilan uzviy bog'langandir. Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatni sekin asta ko'nikmaga aylantirib borishni takazo etadi. Shu tarzda inson asta-sekin takomillashib, komillikka erishib boradi.

Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya tarbiyachining tarbiyalanuvchiga oddiy ta'sir ko'rsatishi emas, balki tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning aniq bir maqsadga qaratilgan, bir- biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o'zaro ta'sir ko'rsatishi ekanligi alohida ta'kidlanadi.
Tarbiya jarayonida kishining turli qobiliyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik hislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch quvvatlari mustahkamlanadi.

Ijtimoiy ehtiyojlar tarbiya jarayonining xarakteri, uning vazifalari, mazmuni, usullari va vositalarini qonuniy ravishda aniqlab beradi. Pedagogika fanidagi qonun va qonuniyatlar ijtimoiy qonuniyatlarga to'la mos bo'ladi. Chunki, ijtimoiy qonuniyatlar jamiyatning taraqqiyotini, unda insonning tutgan o'rnini, qanday faoliyat bilan shug'ullanishini, yashashdan aniq maqsad bo'lish kerakligini belgilaydi.

Tarbiya jarayonining mohiyati shu jarayon uchun xarakterli bo'lgan va muayyan qonuniyatlarda namoyon bo'ladigan ichki hodisa va munosabatlarni aks ettiradi.

Qonuniyat - barqaror, zaruriy, u yoki bu hodisalar va jarayonlar o'rtasidagi mutanosiblik va muhim aloqa. Tarbiyaning asosiy qonuniyatlaridan quyidagilarni olishimiz mumkin:
-Tarbiyaning ijtimoiy ehtiyojlariga bo'linishi natijalarga olib keladi.
Tarbiyaning mazmuni, tashkil etilishi, usullari va ularga qo'yiladigan tadablar shu qoidalarda o'z ifodasini topadi.

Tarbiya qonuniyatlari birinchi navbatda jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'ladi. O'zbekiston milliy istiqlolga erishgandan keyin tarbiyaning jamiyat oldidagi mohiyati o'zgardi. Eski jamiyatning kommunistik mafkuraga asoslangan tarbiya yo'nalishi o'zgarib, yangi barpo bo'layotgan tuzumga mos mutaxassis kadrlar tayyorlash zarurati paydo bo'ldi. Jamiyatimizda tarbiyaning butun yo'nalishi shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda o'zgardi. Ijtimoiy ehtiyoj ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishni taqoza etdi. Shunga asosan «Ta'lim to'g'risida» qonun va Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi ishlab chiqildi. Ularda ijtimoiy ehtiyoj hisobga olingan holda, tarbiya qonuniyatlariga amal qilish hal etilgan.

Tarbiyaning yana bir qonuniyati uning maqsadi, mazmuni, usullari va shakllarinig uzviy bog'liqligidir. Yoshlarga beriladigan tarbiya avvalo aniq maqsadga yo'naltirilgan, shu maqsadni ro'yobga chiqarishda tarbiyaning mazmuni, usullari va shakllari bir-birini to'ldirishi, takomillashtirishi kerak.
Pedagog olimlar tarbiyaning hayot bilan bog'liqligi, bolaning yoshi, o'ziga xos xususiyatlari, hatto jinsiy tafovvutini hisobga olish ham qonun hisoblanadi deb sanaydilar. Ko'pchilik manbaalarda bu xususiyatlar tarbiyaning printsipi sifatida qaraladi. Tarbiya printsiplari qonunlar bilan bog'langan, ularning mantiqiy davomi shaklida e'tiborga olinib, tarbiya berish jarayonida amal qilinadi.

- Yuqorida ta'kidlanganidek tarbiya printsiplari tarbiya qonuniyatlarining amalda tadbiq etilishi, mantiqiy davomi, aksi sifatida namoyon bo'lishi deb hisoblash mumkin, chunki tarbiya qonuniyatlariga ham, printsiplariga ham tarbiya jarayonida amal qilinadi . Tarbiya qonuniyatlari va printsinlariga alohida e'tibor bergan holda ish ko'rilganda tarbiyalanuvchilar barkamol shaxsga aylanadi. Shuning uchun ham tarbiya printsiplarini chuqur ilmiy asoslash bilan birga ularni hayotga tadbiq etish o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar va jamoatchilikning doimiy e'tiborida bo'lishi kerak. Pedagogika fanida turli olimlar tomonidan tarbiya printsiplari har xil izohlanib kelingan. Hozirgi paytda tarbiyaning quyidagi printsiplariga amal qilish tavsiya etiladi:
-

1. tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi,
2. tarbiyaning insonparvarlik va demokratik printsipi,

3. tarbiyaning hayot bilan, amaliyot bilan bog'liqligi printsipi
4. tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi printsipi.
5. tarbiyada o'quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish printsipi,
6. izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning birligi va uzluksizligi printsipi,
7. bola shaxsini hurmat qilish va talabchanlik printsipi,
8. mustaqillik, havaskorlik va tashabbuskorlikni o'stirish printsipi,

Tarbiyaning ma'lum maksadga qaratilganligi printsipi: tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi printsipi bolalar jamoasining rivojlanish istiqbollarini ko'ra bilishga yordam beradi.

Tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad ma'naviy etuk, aqliy va axloqiy barkamol shaxsni, komil insonni shakllantirishdan iboratdir. Shunga ko'ra tarbiya mazmuni, shakli, usullari shu maqsadga qaratilgandir. Har bir tarbiyaviy tadbir oldindan puxta o'ylangan, muayyan maqsadni amalga oshirishga mo'ljallanadi, g'oyaviy-siyosiy darajasini ko'taradi, tanlangan usul va vositalar maqsadga muvofiq keladi.

Tarbiyada insonparvarlik va demokratiklik printsipi; tarbiyaviy faoliyatni demokratiyalashtirish va insonparvarlashtirish uning mohiyatini va mazmunini qayta tafakkur etishni ko'zda tutadi, shaxsning rivojlanish va o'zligini anglash huquqini ta'minlaydi.

Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish har bir bolaning o'ziga xosligini hurmat qilish uning ijtimoiy huquqi va erkinligini hisobga olish lozim. Tarbiyani demokratiyalash bu tarbiyani ma'muriy ehtiyoj va qiziqishlardan yuqori qo'yish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro ishonch, hamkorlik asosida pedagogik munosabatlar mohiyatini o'zgartirish demakdir.

Tarbiyada milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustunligi printsipi; Ma'naviy qadriyatlar va g'oyalar har xil millat o'quvchilarini birlashtiradi, o'quv va mehnat faoliyatlarini uyushtirishga yordam beradi. O'zbek xalqining madaniy merosini o'rganishda va rivojlantirishda milliy o'ziga xosligi, ma'naviy xususiyatlari hisobga olinib, xalq pedagogikasi an'analariga suyangan holda ish ko'riladi.

Tarbiyada izchillik, tizimlilik-tarbiyaviy ta'sirlarning uyg'unligi va uzluksizligi printsipi; Tarbiyada izchillik muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarga birdaniga juda ko'p qoidalarni taqdim qilish mumkin emas. Bu borada izchillikka amal qilish lozim. Tarbiyaga yaxlit tizimli yondashish tarbiyaning, pedagogik harakatning pirovard natijasiga yo'naltirilganlik darajisini belgilab beradi. Bunda pedagogik maqsad va vazifalar uning mazmuni tarbiyaviy jarayonning barcha qatnashchilari tomonidan tan olinishi maqsadga muvofiqdir.

Tarbiyaviy ta'sirdagi tizimlilik faqat yoshlarni emas, balki aholinining barcha qatlamlarini qamrab olishi kerak. Tarbiyaviy ta'sirda izchillik va davomiylik bo'lishiga rioya etish, o'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasini tarbiya usullari va shakllarini o'z vaqtida aniqlab olish juda muhimdir. Bu qoida tarbiyaviy ishlar, hamda tarbiyani amalga oshiradigan barcha bo'g'inlarining hamjihat va bamaslahat ish ko'rishini ko'zda tutish kerak.

Tarbiyada o'quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish printsipi: Tarbiya murakkab jarayon bo'lib, pedagog bu jarayonda har bir o'quvchining nafaqat yoshi, balki uning shaxsiy xususiyatlariga ham e'tibor qaratish joiz. Bu borada pedagog o'quvchini tarbiya jarayonining faol ishtirokchisi ekanligini unutmasligi kerak. Pedagogdan o'quvchi bilan muloqatga kirishishdan oldin uning biologik, fiziologik, psixik rivojlanish xususiyatlarini o'rganishni talab qiladi.

Bola shaxsini hurmat qilish va talabchanlik printsipi: Bola shaxsi hurmat qilinsagina u pedagogik ta'sir o'tkazishga ochiq va moyil bo'ladi. O'qituvchini o'ziga qabul qiladi. O'qituvchiga nisbatan mehr uyg'onadi. Undagi bor yaxshi fazilatlarni o'zlashtiradi va bilim olish samarasi oshadi. Natijada komil inson bo'lib tarbiyalanadi. Bu borada pedagog o'quvchini hurmat qilibgina qolmay talabchan bo'lishi ham lozim. Talabchanlik o'quvchilarda tartiblilik, o'z ishini rejalashtira olish, umumiy vazifa ichidan o'ziga tegishlisini ajratib olish, mas'uliyatlilik, har ishning me'yorini bilish, ko'zlagan maqsadga erishish uchun kurasha olish kabi xususiyatlarni shakllantiradi.

Mustaqillik, havaskorlik va tashabbuskorlikni o'stirish printsipi: O'quvchilarda yoshlikdan mustaqil fikrlash, mustaqil faoliyat ko'rsata olishni shakllantirish lozim. Shunga ko'ra har bir o'quvchining qiziqishi va intilishini qo'llab- quvvatlash lozim, ularni o'zlari qiziqqan kasb- hunarni

egallashlariga to'g'ri yo'naltirish lozim. «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da bu xaqda batafsil bayon qilingan. Jumladan, «Kamolot», «Umid» singari jamg'armalar yoshlarda tashabbus-korlik, havaskorlik mustaqillik kabi hislatlarni rag'batlantirishda, qo'llab-quvvatlashda, o'z hissasini qo'shmoqda.

Nazorat savollar:

1. Tarbiya mazmuni, maqsadi, usullari va shakllarining bog'liqligi qonuniyatini og'zaki sharhlab bering.
2. Turli sinf o'quvchilaridan bir qancha yoshlarning shaxsiy xususiyatlarini tarbiya qonuniyatlariga qanday darajada amal qilinganligini tahlil qiling.
3. Tarbiya qonuniyatlari bilan printsiplari orasidagi bog'lanishni izohlang.
4. Tarbiya qonuniyatlariga amal qilmasdan yashagan kishilarni bilasizmi? Ularning turmush tarzi, jamoatchilik orasidagi o'rni haqida misollar keltiring.

Asosiy adabiyotlar

1. Pedagogika. G'G' M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Ibragimov X.I.., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
3. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. – T.: TDPU, 2012.
4. Yuzlikaeva E., Madyarova S., Yanbarisova E., I.Morxova. Teoriya i praktika obhey pedagogiki. – T.: TGPU, 2014.
Principles of Learning and Teaching. Effective pedagogy. P – 12.
5. Leadership guide.Senior leaders, subject leaders and teachers in secondary schools.
6. Pedagogy and Practice:Teaching and Learning in Secondary chools . Status: Recommended Date of issue: 09-2004. Ref: DfES 0444-2004 GGuidance.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta`minlash taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. "O`zbekiston". 2017

2. Xasanboev J, To'rakulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2008 .
Elektron ta'lim resurslari
1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. Uz

12-mavzu: Tarbiyaning umumiy metodlari

<u>Asosiy savollar:</u>

Tarbiya metodlari haqida tushuncha.
Tarbiya metodlari tasnifi. Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari.
Faoliyatni tashkil etish va ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini shakllantirish.
Pedagogik rag'batlantirish va xulq-atvorni tuzatish metodlari.
Tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari.

Tayanch tushuncha va iboralar:

Tarbiya metodlari, tushuntirish, mashqlantirish, namuna, nasihat qilish, qoralash, o`z-o`zini tahlil qilish, o`z-o`zini boshqarish, o`z-o`zini baholash, izohlash, munozara, topshiriq, pedagogik talab, rag`batlantirish.

Dars maqsadi: talabalarga tarbiya metodlari haqida tushuncha berish, inson faoliyatida metodlarning ahamiyatini uqtirish, shaxs kamolotida tarbiya metodlarining ta'sirini sezishga o'rgatish.

1- savol bayoni:

Tarbiya inson hayotida muntazam amalga oshib boradigan jarayondir. Tarbiyaning samarali bo'lishi tarbiyachi va tarbiyalanuvchining faoliyatiga hohish –irodasiga, qanday sharoit va vositalarning ta'sirida ruyobga chiqishga bog'liqdir. Ayniqsa tarbiya qanday usullar bilan amalga oshirilganligi, uni berishda qanday yo'l tutilganligi nihoyatda muhimdir.

Pedagogikada tarbiya berishning yo'li va usullari «metod» deb hisoblanadi. Qadimgi yunon tilida «metxos» so'zi bizning tilimizda «usul», «yo'l» degan ma'noni anglatadi.

Inson har qanday faoliyat to'rini o'ziga xos metodlar orqali bajaradi. Tarbiya ham inson faoliyatining ko'p qirrali va murakkab turlaridan biridir. Shuning uchun pedagogika fanida xilma –xil tarbiya metodlari jamlangan va ilmiy asoslangan.

Tarbiya metodlarini ta'riflashda har –xil yondashuvlar mavjud.

«**Tarbiya metodlari** –tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning hamkorlikda aniq maqsadga erishish uchun ma'lum tartibda bajaradigan faoliyatning yo'l va usullari yig'indisidir». Uning samarali ta'sir etishi uchun tarbiyachining yuksak mahoratidan tashqari, tarbiyalanuvchining yoshi, o'ziga xos xususiyatlari, tarbiyaviy ta'sirning muhimligi e'tiborga olinadi.

Ayrim hollarda tarbiyalanuvchining o'zi u yoki bu metodlardan foydalangan holda xulq –atvorini o'zgartiradi, yoki tarbiyaga soladi. Demak, tarbiya metodlari nafaqat tarbiyachi tomonidan, tarbiyalanuvchilarning o'zlari tomonidan ham mustaqil qo'llanishi mumkin ekan.

Tarbiya metodlari alohida, yoki bir necha metod bilan birgalikda qo'llanishi kuzatiladi. Bunda bir metod asosiy ta'sir usuli bo'lsa, boshqalari yordamchi usul vazifasini o'taydi. Yosh bolalar bilan ishlashda bu hol yaxshi natija berish isbotlangan. Tarbiya jarayonida metodlar almashtirib turilsa tarbiyalanuvchi uchun odatdagi holga aylanmasa uning natijasi samarali bo'ladi.

Tarbiya metodlaridan muvaffaqiyatli foydalanish uchun ularning ta'sirini orttiruvchi vositalar va shakllaridan ham ustalik bilan qo'llaniladi. Tarbiya vositasi sifatida xalq og'zaki ijodi namunalari, badiiy ijod, tasviriy san'at, me'morchilik, ma'naviy qadriyatlar va an'analar xizmat qiladi. Tarbiyaviy ta'sir shakli sifatida uchrashuvlar, munozaralar va muhokama, mehnat tarbiyalari, o'yinlar, marosimlar va boshqalarni hisoblash mumkin. Ayrim manbalarda bu vosita shakllarini tarbiya usuli deb ham sanashadilar.

Tarbiya metodlari juda ko'p xilma –xil bo'lib, yoshlarni tarbiyalashda ularni to'g'ri tanlash, mohirlik bilan foydalanish hamda almashtirib turish maqsadga muvofiqdir.

Tarbiya metodining kim tomonidan qo'llanishi ham ahamiyatlidir. Aynan bir metod ota –ona, aka –uka, o'qituvchi, sinf rahbari, maktab direktorlari tomonidan qo'llansa turlicha natija berish mumkin. Shuning uchun ham metodlar toifalashtirilishi, tasnif etilishi, ulardan foydalanishni qo'lay bo'lishini ta'minlaydi.

Nazorat topshiriqlari:

1. Metod bu nima?
   a) inson faoliyatining shakllaridan biri.
   v) tarbiyaviy ta'sir etishning vositasi.
   s) aniq maqsadga erishishning yo'l va usullari.
   d) bajariladigan vazifalarning mazmuni.
   e) tarbiyalanuvchini tartibli bo'lishga o'rgatuvchi tushuncha.
2. Metodlardan qachon foydalaniladi?
   a) maktabgacha tarbiya davrida.
   v) maktabda o'qitish chog'ida.
   s) kattalar nazoratidan chetda qolganda.
   d) doimiy.
   e) kezi kelganda.
3. Metodning ta'rifi va mohiyatini so'zlab bering.
4. Tarbiya metodlarini ta'lim metodlari va ilmiy tadqiqot metodlariga taqqoslab farqini aniqlang.

5. Bir vaqtda bir necha metodlardan foydalanishga mos tarbiyaviy lavha tayyorlang va tahlil qiling.
6. Metod, vosita va shakl tushunchalarining farqini ajratib izohlang.

2 – savol bayoni:

Pedagogika fani o'zining uzoq tarixiy taraqqiyoti davomida juda ko'p tarbiya metodlarini ilmiy asoslari va amaliy faoliyatida qo'llashni ma'qul yo'llarini ishlab chiqadi.

Bunday tarbiya metodlarining tasnif etilishi. Tarbiya amaliyoti bilan shug'ullanuvchi kishilarning faoliyatini engillashtiribgina qolmasdan samaradorligini oshirishga barakali hissa qo'shib kelgan. Tarbiya metodlarining tasnifi deganda har bir metodning qanday maqsadda qaratilganligi qanday vazifalarni bajarishi, qanday natija berishi, ta'sir kuchi va mohiyatiga ko'ra toifalarga ajratish tushuniladi. Bir toifaga kirgan metodlar tarbiyalanuvchi shaxsda ma'lum bir yo'nalishdagi tarbiyaviy ta'sirni amalga oshiradi. Masalan, tarbiyalanuvchini ongida, tushuncha, ishonch, e'tiqod tarkib toptirish, yoki xulq – atvorini xatti- harakatini, odatlarini shakllantirish, yoki ijobiy fazilatlarini bajarishga yo'naltirish, sabab bo'lish va hakozo.

Pedagogika fanida har xil tasniflar mavjud bo'lib olimlar barcha metodlarni ichki toifaga, ya'ni ijtimoiy ongni tarkib toptirish va faoliyatni shakllantirish guruhlariga ajratgan yana bir guruh olimlar tarbiya metodlarini 3 toifaga bo'lgan. Ular yuqoridagi ikki guruhga uchinchi qilib, ijobiy fazilatlarga yo'naltiruvchi metodlarni qo'shganlar. Bu tasnif keng tarqalgan tarbiya metodlarini nazariy hamda amaliy tadqiq etishda tegishli natijalarni ko'rsata olgandir. Ammo tarbiya metodlarini tugal qamrab olish uchun o'z - o'zini tarbiyalash metodlari etishmaydi. Bizningcha, mana shu metodlarni to'rtinchi guruhi qilib ko'rsatgan olimlarning ta'limotiga qo'shilish o'rinlidir.

Shunday qilib, tarbiya metodlarini tasnif qilganda quyidagi to'rt toifaga ajratish ma'qul ko'rinadi, ijtimoiy ongni shakllantirish tarbiyalanuvchi faoliyatini tarkib toptirish, ijobiy fazilatlarga yo'naltiruvchi (sabab bo'luvchi) metodlar, o'z- o'zini tarbiyalash metodlari.

Nazorat topshiriqlari:

1. Tasniflash nima?

a) tartibga olish
v) toifalashtirish

s) ilmiy asoslash
d) guruhlashtirish
e) soddalashtirish
2. Tarbiya metodlari tasnifi nechta toifaga bo'linadi ?
a) ikki toifaga
v) to'rt toifaga
s) uch toifaga
d) besh toifaga
e) o'n toifaga
3.Bir toifaga kiruvchi metodlar
a) bir xil tarbiyaviy ta'sir etadi;
v) bir maqsadni bajarishga qaratilgan;
s) foydalanishga qulay;
d) mantiqiy bog'langan;
e) tarbiyalanuvchiga moslashtirilgan.
4. Metodlar tasnifi bo'yicha chizma amaliy ish bajaring.
5.Tarbiya metodlaridan amalda foydalaning va natijalarini yozma ifodalab bering.

3– savol bayoni:

Tarbiyalanuvchining ongida ijobiy fazilatlar haqida tushunchalar hosil qilish, imon, e'tiqod, dunyoqarashni tarkib toptirish, yaxshi – yomonnig farqini ajratishga o'rgatish , ijobiy va salbiyni fahmlash kabi xususiyatlar ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar hisoblanadi.

Bu toifaga quyidagi metodlar kiradi: tushuntirish, uqtirish, suhbat, hikoya, va'z, ma'ruza, munozara, muhokama, o'git–nasihat, maslahat berish, namuna.

Tushuntirish–tarbiyaga oid tartib – qoidalarni, axloq – odob normalarini, muloqatga kiritish, vatan va xalq oldidagi burchni insonparvarlik va baynalmilalchilik mohiyatlarini oddiy, tushunarli qilib bayon etishdir.

Uqtirish–tarbiyalanuvchi uchun hayotiy sanaladigan tushunchalarni uning ongiga singdirish, bir umr o'qitilmaydigan bo'lishi bilan birga beixtiyor bajarishi amaliyotga tadbiq etishni ham anglatadi. (O'qigan boshqa, o'qigan boshqa) Suhbat–tarbiyalanuvchi bilan fikr almashish orqali uning ongida mulohazalar uyg'otish, uni bayon etish, o'zgalar fikrini tinglash, o'z dunyoqarashini boyitib borish kabi holatlarni aks ettiradi.

Hikoya–tarbiyalanuvchiga etkazilish mo'ljallangan tushunchalarning obrazli badiiy to'qimalar asosida his – xayajonli tarzda bayon etilshidir. Hikoyada bo'rttirib ko'rsatish alohida berish, o'tilish va kelajak voqealarini aynan hozir sodir bo'layotgandek qilib ifodalash mumkin bo'ladi.

Va'z, ma'ruza – tarbiyalanuvchilarning yoshi qiziqishi va ehtiyojlariga mos mavzu tanlagan holda, belgilangan vaqtda maxsus tayyorgarlik ko'rgan kishilar tomonidan beriladigan axborotlardir.

Munozara va muhokama–tarbiyalanuvchilarni qiziqtiradigan mavzuda barcha ishtirokchilarning o'zaro fikr almashinuvidir. Munozarada mavzu bo'yicha hamma o'z fikrini bayon etishi, uni isbot va dalillash mumkin. Munozarada fikr erkinligi alohida ahamiyatga ega bo'ladi.

Muhokama ma'lum o'lchov tartib - qoidalarga amal qilgan holda munosabat bildirishga asoslanadi.

O'git – nasihat – kattalar tomonidan o'zining hayotiy tajribalariga suyangan holda tarbiyalanuvchiga yo'l ko'rsatishdir.

Maslahat-tarbiyalanuvchi biror ehtiyoj asosida zarurat uchun bilmaganlarini o'zgalardan so'rab o'rganishdir. Maslahat so'ralgan narsani boshidan kechirgan foydali tajribaga ega bo'lgan obro'li kishilar bo'lishi kerak.

Namuna–tarbiyalanuvchiga bevosita amalda bajarib ko'rsatish, yoki butun hayotiy tajribasi bilan ibrat bo'lish, o'z xatti-harakati va xulq – atvori bilan ta'sir etishi hisoblanadi. Yoshlarga eng avvalo ota–onalarga va tug'ishganlari namuna bo'ladilar, keyincha–ulug' siymolarning hayoti va faoliyati, fan, adabiyot, san'at namoyondalari, davlat arboblari va boshqa mashhur kishilar namuna qilib ko'rsatiladi. Yosh bolada taqlidchanlik kuchli bo'lib, ba'zan noto'g'ri axloqiy ko'rinishlarni ham

o’zlashtirib olishi mumkin. Shuning uchun yoshlar kuzatishi mumkin bo’lgan har qanday holatda ijobiy ibrat bo’lishga harakat qilish zarur «Yuz marta eshitgandan bir marta ko’rgan afzal».

Nazorat topshiriqlari:

1. Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar
a) bolani «a’lo» o’qiydigan va namunali xulqini shakllantirish uchun xizmat qiladi;
v) xatti – harakatni, xulq – atvorni tartibga soladi;
s) ota – onani va kattalarni hurmat qilishga o’rgatadi;
d) tarbiyalanuvchini ongli intizomga odatlantiradi;
e) bola ongida tarbiya haqida tushunchalarni hosil qiladi.
2. Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlarni aniqlang
a) tartibga chaqirish;
v) o’z aqli va kuchiga ishonch hosil qildirish;
s) nasihat qilish;
d) ko’nglini ko’tarish;
e) mukofotlash.
3. Shu toifaga kirmaydigan metodni toping
a) tushuntirish, suhbat, hikoya;
v) va’z, ma’ruza, maslahat;
s) o’git – nasihat, namuna, munozara;
d) ishonch bildirish, ma’qullash, ogohlantrish;
e) suhbat, muhokama, uqtirish.
4. Bolalar yozuvchilari hikoyalaridan namunalar tanlang va qaysi metodlardan qo’llanilganligini so’zlab bering.
5. Oilada va maktabda shu toifaga kiradigan metodlardan qo’llab ko’rib natijalarini yozma tahlil qiling.
6. O’zingizda metodlar orqali tarbiya berilganligini tasavvur qiling. Qaysi metod sizga ma’qul bo’lgan, qaysi biri yoqmaydi ? Taqqoslab ko’ring va xulosalar chiqaring. Fikringizni tarbiyachilarga uslubiy ishlanma sifatida yozma ifodalang.

4 – savol bayoni:

Insonning kim va qanday ekanligi, nimalarga qodirligi tarbiyasining qay holatda ekanligi uning faoliyatiga bog’liqdir. Shuning uchun ham faoliyatni shakllantiruvchi tartibga solib turuvchi metodlar alohida toifani tashkil etadi. Bu metodlar orqali hayotiy ehtiyoj bo’lgan, kundalik yurish turish normalari, eng zarur fazilatlar hosil qiladi. Bu toifaga o’rgatish va odatlantirish, mashq qildirish, topshiriq, talabchanlik, jamoatchilik fikri, tarbiyalovchi holatlar yaratish kabi metodlarni kiritish mumkin.

O’rgatish va odatlantirish metodi tarbiyalanuvchilarni doimiy rejali tarzda ma’lum harakatlarni bajarib borish orqali tushuniladi.

Bu odatlar tarbiyalanuvchiga muntazam ta’sir etish orqali, shoshmasdan, bosqichma – bosqich hosil qilinadi. Olimlarning ta’kidlashicha fikr, g’oya ish harakatiga aylanadi.

O’rgatish va odatlantirish bolaning yoshiga, turmush tarziga, sharoitiga qarab qo’llaniladi. Bu metodning yaxshi natija berishi uchun tarbiyachi bola oldiga aniq vazifalar qo’yish, ayrim insoniy fazilatlarni namoyon etishga da’vat qilishi, kundalik rejimga amal qildirishi ahamiyatlidir.

Tarbiyalanuvchida salbiy odatlarning hosil bo’lib qolmasligiga e’tibor berib turish zarur.

Mashq qildirish xulq-atvor normalarini ko’p marotaba takrorlash jarayoni hisoblanadi. Bunda mashq ko’r-ko’rona bajaralidigan harakatlardan iborat bo’lib qolmasdan, shakllantiriladigan ma’naviy xususiyatlarni mohiyatini to’g’ri tushungan uning ahamiyatini his etgan holda amalga oshirish zarur. Shundagina yoshlar milliy va umuminsoniy axloq normalarini his etadigan hamda nafosat bilan amalga oshiradigan bo’ladi. Ma’naviy va xulqiy go’zallikning uyg’unlashuvida mashq qildirish samarali ta’sir etadi. Mashq qildirish mahoratning oshishiga katta hissa qo’shadi.

Tarbiyalanuvchilarga beriladigan topshiriqlar ularning ijtimoiy faoliyatini tarkib toptirishda foydali usullardan biri hisoblanadi.
Topshiriq bola bajarishi mumkin va zarur bo'lgan vazifalar yig'indisi bo'lib ota-ona, o'qituvchi, tarbiyasi va boshqalar tomonidan qo'yiladigan buyruq-talablarni amalga oshirishdir. Topshiriq bolaning imkoniyatiga shaxsiy xususiyatlariga qiziqishga mos bo'lganda mukammal bajariladi va tarbiyalanuvchi faoliyatiga ijobiy ta'sir etadi.
Noto'g'ri berilagan topshiriqlar bolani qiynashi bilan birga tarbiyasiga yomon ta'sir etishi mumkin.
Talabchanlik topshiriq usuli bilan uzviy bog'liq bo'lib, yoshlarda mehnatsevarlik, bajaruvchanlik, mas'ulyatni his etish kabi xususiyatlarni shakllantiradi. Talabchanlik bola shaxsini hurmat qilish, ishonch bildirish, ma'lum me'yorga amal qilishni taqozo etadi.
Tarbiyalanuvchiga qo'yiladigan talablar o'z vaqtida sifatli qilib bajarilish zarur, uni nazorat qilish ahamiyatltdir.
Jamoatchilik fikri tarbiyalanuvchining ijtimoiy faoliyatiga boshqalar tomonidan bildirilgan munosabatda namoyon bo'ladi. Maktabda sinf jamoasi ayrim o'quvchilarga kuchli tarbiyaviy ta'sirga ega. Tarbiyachi o'z fikrini jamoa talabi darajasiga etkaza olsa, bola faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishi va yunaltirishi mumkin bo'ladi. Jamoa orasida muhokama qilish, xaqqoniy baholash ochiq oydin yutuq va kamchiliklarni ko'rsatish har bir a'zoni to'g'ri ulg'aytirishni ta'minlaydi.
Tarbiyalovchi holatlar yaratish tarbiyachining maxsus, tashkil etgan, o'quvchilar tomonidan to'g'ri yo'l tutish va bu holatdan muvaffaqiyatli chiqib ketishini ta'minlovchi pedagogik jarayondir. Kundalik ta'lim-tarbiya paytida kuzatilish va uzoq kutishni taqozo etadigan holatlar maxsus tashkil etilib, o'quvchilarning mana shu sharoitda qanday faoliyat yuritishga o'rgatiladi.
Nazorat topshiriqlari:
1.Faoliyatni tartibga soluvchi metodlar toifasiga qaysi metod kirmaydi?
a) o'rgatish va odatlantirish;
v) ishonch bildirish;
s) mashq kildirish;
d) topshiriqlar;
e) jamoatchilik fikri;
2. Faoliyatni tartibga soluvchi metodlar
a) tarbiyalanuvchi ongida tushunchalar hosil qiladi;
v) xulq-atvorni shakllantiradi;
3. Qaysi xususiyatlar mazkur metodlar orqali hosil qilingan ?
a) o'zgalar yo'l-yuriq ko'rsatish;
v) foydali maslahatlar berish;
s) ibratli-namuna bo'lish;
d) amalda bajarib ko'rsatish;
e) o'z-o'zini tankidiy baholash.
4.Komil insonning qanday xususiyatlari shu metodlar orqali shakllantiriladi?
a) ijtimoiy faol, g'ayratli, serharakat, kelajakka ishonadigan, intiluvchan, murakkab holatlardan chikib keta oladigan;
v) o'z-o'ziga hisob beradigan bilimdon, sermulohaza, boshqalardan ortda qolishni hohlamaydigan, barchaning e'tiborida bo'ladigan.
5. Bir qancha kursdoshlaringizni yaxshi odatlarini aniqlang va izohlab bering.
6. Komil insonning fazilatlarini bayon eting. Ularning qaysilari faoliyatni shakllantiruvchi metodlar orqali tarbiyalanganligini asoslab bering.
7. Bir yigit chekish, ichish va bezorilik yo'liga kirib qoldi. O'rtog'i bu yo'ldan qaytishni so'radi, u o'zgarmadi. Akasining gapiga kirmadi, ukasining fikriga e'tibor qilmadi. Onasiga va'da berdi, bajarmadi. Otasidan bekinib odatlarini davom ettirdi. Sizningcha, uni bu yo'ldan qaytarish uchun qanday yo'l tutish kerak?

5 – savol bayoni:

Tarbiyalanuvchini ijobiy fazilatlarga yo'naltirish, da'vat etish, sabab bo'lish, ishtiyoq va havas uyg'otuvchi metodlar bu toifaga jamlangan, tarbiya tajribasida ko'p qo'llaniladigan va yaxshi natijalar beradigan metod hisoblanadi. Bu guruhga musobaqalar uyushtirish, rag'batlantirish va jazolash kiradi.

Insonning ongli hayoti davomida boshqalardan ustun bo'lishiga, raqobatga unda muvafaqqiyat qozonishga, birinchilar safidan o'rin olishga intilib yashaydi. Bu his yosh bolalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Musobaqa metodi shu holatga asoslanadi. Yoshlar tarbiyasining hamma yunalishida sog'lom musobaqa uyushtirish va ularning hayotiga qiziqarli va sermazmun hamda zavqli qiladi. Faqat musobaqa hosil bo'lishi, natijalarning oshkora va taqqoslanish, aniq qoidalarga itoati zarur.

Ta'limiy ishlarda musobaqa o'ta hushyorlik bilan barcha tomonlarni chuqur o'ylagan holda tashkil qilishi darkor. Aks holda o'quvchilarni murakkab holatlarga tushirib qo'yiladi.

Musobaqa yakka tartibda yoki jamoa darajasida uyushtiriladi. Uning natijalari tez va to'g'ri baholanganda yoshlardagi ijobiy fazilatlarni kuchaytiradi.

Rag'batlantirish-tarbiyalanuvchi xulq-atvoriga beriladigan ijobiy baho bo'lib ezgulikka, komillika undovchi va etaklovchi usuldir.

Rag'batlantirish xaqkoniy, meyoriy va aniq o'z vaqtlarida oshkoro amalga oshirilganda samarali bo'ladi. Rag'batlantirishning bir qancha turlari bor. Ularga ma'qullash, maqtash, ishonch bildirish, namuna qilib ko'rsatish, minnatdorchilik, raxmatnoma e'lon qilish, mukofotlashlar kiradi. Mukofotlash o'z navbatida faxriy yorliq, maqtov qog'ozi, diplom, ko'krak nishonlari, o'quv jixozlari, sovg'a va yodgorliklar, pul, chet ellarga yuborish va hakozo tarzda bo'ladi. Mukofotlashda aniq me'yorga rioya qilish zarur. Me'yorga etmaganda o'quvchining xafsalasi pasaytirilsa ortiq bo'lganda ta'magirlikka o'rgatib qo'yish xavfi tug'iladi.

Jazolash-tarbiyalanuvchidagi salbiy xususiyatlarga berilgan baho va uni to'zatish yo'llarini aniq ko'rsatib beruvchi usullar yig'indisidir. Jazolash ham o'z vaqtida ma'lum me'yor doirasida bo'lishi zarur. Pedagogika fanida jazolashni quyidagi turlaridan foydalanish lozimligi ta'qi-qlanadi. Tartibga chaqirish, e'tiroz bildirish, uyaltirish, ogohlantirish, do'q-pupisa, xayfsan, jamoa orasida muhokama qilish, jamoadan chetlashtirish, axloq tuzatish muassasalariga o'tkazish. Tan jazosi berish, ma'naviy taxqirlash, kamsitish pedagogik jarayonda qo'llanilmasligi zarur. Lekin amaliyotda ba'zan jazoning bu turlari berilganligi uchrab turadi. Pedagogik mahorati past bo'lgan tarbiyachilargina bu holatga tushadi.

Nazorat topshiriqlari:

1. Ezgulikka yunaltiruvchi metodlar
a) ibrat namuna bo'lish;
v) o'git-nasixat va maslahatlar berish;
s) rag'batlantirish;
d) munozara-muhokama;
e) intervyu olish;
2. Ezgulikka yunaltiruvchi metodlar toifasiga kirmaydi
a) musobaqalar;
v) mukofotlash;
s) tanbex berish;
d) tashakkurnoma e'lon qilish;
e) jamoatchilik fikrini hosil qilish.
3. Tarbiyalanuvchining ijobiy xususiyatlarini ta'kidlash va shakllantirish uchun metodi qo'llaniladi.
4.Qaysi guruhda rag'batlantirish va jazolash metodlari to'g'ri ko'rsatilgan?
a) tartibga chaqirish, ogoxlantirish, ma'qullash

v) ishonch bildirish, maqtash, minnatdorchilik, mukofotlash;
s) sovg'a berish, tashakkurnoma, uyaltirish;
d) norozi bo'lish, tartibga chaqirish, muhokama qilish, tasdiqlash, xayfsan;
e) axloq tuzatish maktabiga o'tkazish, munozara, muhokama, faxriy yorliq berish.

5.Shanbalik o'tkazish uchun ayrim o'quvchilar va guruh jamoalariga mos keladigan musobaqa shartlarini ishlab chiking (7 – sinf uchun).

6. Darsda gaplashib o'tirgan o'quvchilarga qanday munosabatda bo'lasiz ?
a) befarq qarayman;
v) norozichilik bildiraman;
s) sinfdan chiqarib yuboraman;
d) xulqiga koniqarsiz baho qo'yaman;
e) sinf rahbarini chaqirib uyaltiraman.

7. Jazoni qanday turlarini qo'llamaslik kerak deb hisoblaysiz ?
a) jamoa orasida uyaltirish;
v) ota-onasi ishtirokida muhokama qilish;
s) maxsus axloq tuzatish maktablariga o'tkazish;
d) jismoniy kuch ishlatish va ma'naviy taxqirlash;
e) xayfsan e'lon qilish.

8. Rag'batlantirish va jazolashda adolatsizlik deb nimani tushunasiz?
a) shaxsiy yaqinlik va g'arazni;
v) xaddan oshirib yuborishni;
s) o'z vaqtida bo'lmasligini;
d) ota-ona va boshqalarni aralashtirishini;
e) ayrim olingan o'quvchilarga qaratilganlikni.

9.Badiiy ijod namunalaridan misollar keltirib ularni og'zaki sharhlab bering.

Nazorat savollar:

1. Tarbiya metodlarini o'rganib, amaliy tajribangizda sinab ko'ring.
2. Tarbiya metodlarining shaxs kamolotidagi o'rnini izohlang.
3. Tarbiya metodlarining turlarini ilmiy asoslagan olimlarning ilmiy ishlarini o'rganing.
4. Har bir tarbiya metodini amalda tatbiq etib ko'rishni o'rganing.
5. Har bir tarbiya metodini boshqa metodlar bilan amalda taqqoslang.
6. Tarbiya metodlarini o'quvchi shaxsini shakllantirishdagi o'rnini amalda aniqlang.

Asosiy adabiyotlar

1. Pedagogika. G'G' M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Ibragimov X.I.., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
3. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. – T.: TDPU, 2012.
4. Yuzlikaeva E., Madyarova S., Yanbarisova E., I.Morxova. Teoriya i praktika obhey pedagogiki. – T.: TGPU, 2014.
Principles of Learning and Teaching. Effective pedagogy. P – 12.
5. Leadership guide.Senior leaders, subject leaders and teachers in secondary schools.
6. Pedagogy and Practice:Teaching and Learning in Secondary chools . Status: Recommended Date of issue: 09-2004. Ref: DfES 0444-2004 GGuidance.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta`minlash taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. "O`zbekiston". 2017

2. Xasanboev J, To'rakulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2008 .
Elektron ta'lim resurslari
1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. Uz

-MAVZU:TA'LIM TAZARIYASI.

Asosiy savollar:

Ta'lim nazariyasi (didaktika) pedagogikaning tarkibiy qismi sifatida.
Didaktikaning maqsad va vazifalari.
Ta'lim jarayonining mohiyati.
O'quvchilarning bilish faoliyati va uning tuzilishi.
Ta'lim tamoyillari va qonuniyatlari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:
O'qitish, o'qish, ta'lim ikki tomonlama jarayon, bilish faoliyati turlari, ta'lim jarayonining falsafiy asosi, bilish nazariyasi, bilishning uch bosqichi, ta'lim jarayonining funksiyalari, ta'limda qarama-qarshiliklar, bilimlarni o'zlashtirish bosqichlari, o'quv motivlari. Didaktika, bilim, ta'lim, bilish, faoliyat, o'qituvchi, o'quvchi, «buyuk didaktika»

Dars maqsadi: Didaktikaning mohiyatini talabalarga tushuntirish. Ularga ditaktika tushunchasini chuqur egallashiga yordam berib, o'qituvchilik kasbiga qiziqish uyg'otish.
Identiv o'quv maqsadlari:
1. Ditaktikaning mohiyatini tushuntiradi.
2. Didaktikaning mazmunini sharhlab beradi.
3. Didaktikaning mohiyatini asoslab beradi.

1-savol bayoni..

"Didaktika " termini yunoncha " didaktikos " degan so'zdan kelib chiqqan bo'lib, ta'lim beruvchi degan ma'noda tarjima qilinadi.
Ya. A. Komenskiy yashagan davrdan e'tiboran didaktika zamirida maktab o'quvchilarini nimaga va qanday qilib o'qitish haqidagi bilimlarning ilmiy tuzumi tushuniladi. Hozirgi vaqtda " didaktika" termini bilan birgalikda keng ma'noda o'qitish nazariyasi ta'lim berish nazariyasi ishlatiladi.
Didaktika quyidagi kategoriyalarni o'z ichiga oladi. O'qitish jarayoni tushunchasi va mohiyati, o'qitish prinsiplari, o'qitish metodlari, o'qitishning tashkil etilish shakllari
Didaktika sistemasini izchil tarzda o'zlashtirish o'quv-tarbiya jarayonining barcha jihatlarini tushunishga, ijodiy yondashishni va mahoratni ta'minlashga yordam beradi. Didaktika o'ziga xos tushunchalari va terminlariga ega. Ular asosan pedagogika fanining shu bo'limida qo'llaniladi. O'qitish, ta'lim olish, o'rganish mustaqil ravishda o'qish ilmiylik, sistemalik, ko'rgazmalilik, ta'lim olish, o'quvchilarning ongliligi va faolligi, ta'lim olishning individuallashtirish va differentsiyalashtirish, dars, sinf, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari,o'quv ekskursiyalari, o'zlashtirish va shu kabilar ancha ko'p qo'llanadigan terminlardir.
Demak, didaktika pedagogikaning «nimaga o'qitish», «nimani o'qitish», va «qanday o'qitish» kabi savollariga javob izlaydi. Umumiy didaktika esa o'z navbatida ayrim o'quv fanlariga oid usullar bilan juda mustahkam bog'lanadi. Shu usullar ma'lumotiga tayanib, o'qitishning umumiy qonuniyatlarini yechib boradi. Ayni vaqtda har bir o'quv fanining o'qitish usullari uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi.
Sharqu-G'arb ma'naviy merosi asosida pedagogik jarayondan markaziy o'rin olgan didaktika doimo rivojlanib bordi. Buyuk allomalarimiz Al-Xorazmiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabilar tibbiyot, mantiq, musiqa, adabiyot, geografiya, riyoziyot kabi ilmlarni

o’qitish vositasida avlodlarni tarbiyalash g’oyasini olg’a surdilar. Ular dunyoviy ta’limni keng rivojlantirishga katta hissa qo’shdilar.
O’zbekistonda didaktik ta’limning tashkil topishi va rivojlanishi A.Avloniy, X.X.Niyoziy, M.Rasuliy, K. Niyoziy, O.Sharafiddinov kabi pedagog va olimlarning nomlari bilan bog’liq. Pedagogik faoliyatdagi formalizmning qat’iyan oldini olish, o’qitishdagi muqobil usul, shakl va vositalarini tanlash, pedagogika fani yutuqlarini amalga joriy qilish vaqti yetdi. Usuliy ishlarni jonlantirish, o’qituvchilarning tashabbuslarini, ijodiy izlanishlarini har tomonlama rivojlantirish, ilg’or pedagogik tajribani chuqur o’rganish lozim.
Lekin bu dasturni amalga oshirishda hech bir holda avvallari pedagogika hamda didaktikada yaratilgan asarlarni, xalq pedagogkasining nodir meroslarini chekkaga surib qo’yish mumkin emas. Pedagoglar bir qancha avlodlarning mehnati bilan qo’lga kiritilgan, pedagogika fani erishgan barcha qimmatli yutuqlar, zamon sinovidan o’tgan jamiki ilg’or qarashlarni avaylab asrashi va o’sha merosdan faol ravishda foydalanishlari kerak.

Nazorat savollari:

1.Didaktika pedagogikaning boshqa tarkibiy qismidan alohida rivojlanish mumkinmi?
2.Nima uchun aynan XVII asrda didaktika ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan?

2-savol bayoni..

O’qitish to’g’risidagi fikrlarni o’tmishdagi faylasuflar va olimlar qadim-qadimlardayoq bildirishgan.O’qitish nazariyasini ilmiy bilimlar sistemasi sifatida pedagogika fani pedagogik tafakkur tarixini birinchi bo’lib Ya.A. Komenskiy XVII-asrda yaratdi, falsafiy fikrlarga, o’sha davrdagi maktablar ish tajribasini nazariy tahliliga tayanib u o’zining mashhur "Buyuk didaktika" (1658 y) degan asarini yozdi.

Kishilik jamiyati taraqqiyotining dastlabki davrlarida o’qitish ishi tarbiya bilan bir butun holda,uzviy bog’langan edi. Ta’limning mazmuni u qadar murakkab bo’lmay ko’pincha bolaning katta yoshdagilarga taqlid qilishi, ular bilan birga ishlashi tarzida amalga oshirilar edi. Bola kattaga taqlid qilib, uning ishlaridan na’muna olib, tajribasini o’rganar va o’zlashtirar edi. Jamiyatning tarixiy taraqqiyotida o’qitish ishi ma’lum darajada tus oldi. Bilimlar murakkablashdi va bilim faoliyatini maxsus ravishda tashkil etishni talab qildi. Ikkinchidan, ijtimoiy ishlab chiqarishdagi muloqot va taqsimot ayrim kasblarning mutaxassislarini tayyorlash vazifasini o’rtaga qo’ydi. O’qitish ishi ta’limning o’ziga xos maqsadlarining mazmunini va tashkil etilishini aks ettiruvchi mustaqil xarakterga ega bo’ldi.
Bilish jarayoni kabi ta’lim jarayonida ham o’quvchi bilmaslikdan bilishga, noto’g’ri va noaniq bilishdan to’liqroq va aniqroq, chuqurroq bilishgacha bo’lgan yo’lni bosib o’tadi. Bu jarayonda hissiy idrok etish ham, abstrakt tafakkur ham, amalda sinab ko’rish ham bo’ladi. Bilish ikki pallaga- nazariya va amaliyotga bo’linadi. Nazariya yangi bilimni, yangicha bilishni ifodalovchi tizimli fikrdir. Nazariyada g’oya shakllanadi. Amaliy bilimlarning haqiqiyligini ko’rsatuvchi mezondir. Kuzatish tajriba, o’zgartirish, yaratish – bular amaliyot shakliga kiradi. Ta’lim bilish faoliyatining turi sifatida pedagogika fanida bir necha asosiy ma’noni anglatadi. Bu o’quvchilarda bilim, malaka va ko’nikmalarni hosil qilish, ularda dunyoqarash, fikr va e’tiqodlarni shakllantirish, o’quvchilarning muayyan darajada o’qimishli, fikrli, madaniyatli, tarbiyali, chin inson bo’lishiga erishish, ularning qobiliyatlarini o’stirishdan iboratdir.
Ta’lim insoniyat tajribasining ma’lum tomonlarini, ya’ni o’quvchilar ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo’lishlarini ta’minlaydigan faoliyatdir. Ta’lim jarayonining mazmunini bilim, ko’nikma va malakalar tashkil qiladi.
Ta’lim jarayoni o’qituvchi bilan o’quvchilarning birlikdagi faoliyati bo’lib, ikki tomonlama xarakterga ega.
O’qituvchining faoliyati ta’lim jarayonining tashqi tomonini tashkil qiladi. Chunki u o’qitadi, ta’lim beradi.
O’quvchi faoliyati ichki jarayonni tashkil etadi. Chunki u o’qituvchi bergan bilimni o’qib tushunib oladi.
O’qitish jarayonining ichki tomoni o’quvchining faoliyati bo’lib, u o’quv fani materiallarini o’zlashtirishdan iborat. O’qitish bilishdan farqli o’laroq muallim rahbarligida amalga oshiriladi. Ta’limning asosiy maqsadi, vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko’nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iboratdir.

O’quvchilarning bilish faoliyati uchta bosqichda olib boriladi.
Bilimlarni o’zlashtirish, voqe’likdagi narsa va hodisalarni sezish va idrok qilish bilish faoliyatining birinchi bosqichidir.
O’quvchilarning bilish faoliyatidagi ikkinchi bosqichi- bilimlarni tushunish va umumlashtirish.
Uchinchi bosqich mustahkamlash va qo’llashdir**.**
Bilim, ko’nikma va malakalarni muvaffaqiyatli egallab olish vositalaridan biri avval o’zlashtirib olingan bilimlarni amalda qo’llashdir. Amaliyot jarayonida bilimlar to’ldirib boriladi. Ularni amalda qo’llanish ko’nikmasi hosil qilinadi. Amaliy vazifalarni hal qilish vaqtida bilimlarga ehtiyoj paydo bo’ladi, bu esa yangi bilimlarni egallash uchun turtki beradi.

- O’quvchilarni rivojlantirish va tarbiyalashning, o’quv tarbiya jarayonini takomillashtirishning katta imkoniyatlari mavjuddir. Umumiy o’rta ta’lim va o’rta maxsus kasb-hunar ta’limi ixlos qilishini asosiy yo’nalishlarida diqqat e’tibor hozirgi zamon ijtimoiy ishlab chiqarish va fan texnika taraqqiyoti sharoitlarida yoshlarni kasb tanlashga yo’llash,yuqori malakali kadrlar tayyorlashni ta’minlashdan iboratdir. 1997- yil 29-avgustda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasining "Ta’lim to’g’risida" gi qonuni va kadrlar tayyorlash "Milliy dasturi"dan kelib chiqqan holda hozirgi yashab turgan jamiyatimizga yuqori malakali kadrlar tayyorlash hozirgi demokratik jamiyatda yoshlarni erkin fikrga o’rgatish ,yoshlarni o’z qobiliyati, havasi, kiyinishiga mos, hayotda o’ziga munosib o’rnini topishini ta’minlash oldimizga qo’yilgan vazifamizdan biri hisoblanadi.

Bu borada yetuk mutaxassislar o’z tajribalariga tayangan holda nazariy jihatdan asoslangan bu bilimlarni amalga tatbiq etishmoqdalar .

Nazorat savollari:

1.Ya.A.Komenskiy didaktikani ilmiy-nazariy jihatdan qanday asoslagan deb bilasiz?
2.Hozirgi davrda didaktik muammolar o’z yechimiga egami? Agar ega bo’lmasa sizningcha bular nimalarda deb bilasiz?

3-savol bayoni..

Ta’lim bilish faoliyatining turi sifatida pedagogika fanida bir necha asosiy ma’noni anglatadi. Ya’ni bu: o’quvchilarda bilim, ko’nikmalar va malakalari hosil qilish; ularda dunyoqarash, fikr va e’tiqodlarni shakllantirish; o’quvchilarning muayyan darajada o’qimishli, madaniyatli, tarbiyali chin inson bo’lishiga erishish; ularning qobiliyatlarini o’stirishdan iborat.

Ta’lim—insoniyat tajribasining ma’lum tomonlarini, ya’ni o’quvchilar ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi talablariga muvofiq darajada bilim va tarbiyaga ega bo’lishlarini ta’minlaydigan faoliyatdir.
Ta’lim jarayonining mazmunini bilim, ko’nikma va malakalar tashkil qiladi.
Demak, o’quvchilar o’qish orqali bilim bilan qurollanadilar.
Bunda bilimning o’zi kifoya qilmaydi. Uni hayotda ko’p unum beradigan qilib qo’llay bilish lozim. Buning uchun esa o’qituvchida ko’nikma va malaka hosil qilish lozim.
Ko’nikma mashq qilish natijasida beriladigan harakatlar yig’indisidir. Iqtidor va ko’nikma mashq qilish va takrorlash orqali malakaga aylanadi.
Bilim asosida ko’nikma, malaka hosil bo’ladi. Bilim bahsda kerak bo’lsa, ko’nikma mehnatda, dunyoni o’zlashtirishda zarur. Shu jihatdan o’quv yurtlarida, maktablarda o’quvchilar o’rtasida bahslar, bellashuvlar, o’tkir zehnlilar mushoirasi, quvnoqlar va zukkolar bellashuvini tashkil etish foydalidir.
Ta’lim jarayoni o’qituvchi bilan o’quvchilarning birgalikdagi faoliyati bo’lib, ikki tomonlama xarakterga egadir. O’qituvchining faoliyati tufayli ta’lim puxta o’ylab chiqilgan maqsad, mazmun va dasturlar asosida. olib boriladigan jarayonga aylanib, kutilgan natijalarni beradi.
Bola maktabgacha tarbiya yoshidayoq o’quv ishi bilan shug’ullana boshlaydi. U sonlar, harflar bilan, matnli o’qish jarayoni bilan tanishadi, sodir bo’layotgan tabiiy hodisalarning muhim xususiyatlarini ota-onasi va tarbiyachilari yordamida bilib oladi, hikoya va ertaklar tinglaydi hamda ularni boshqalarga aytib berishni o’rganadi.
Ammo maktabgacha tarbiya yoshidagi bolaning asosiy faoliyati hamon o’yin bo’lib qoladi, shuning uchun ham uning fikrlash faoliyatida his qilib bilish ko’proq ahamiyatga egadir.

Ta’limning boshlang’ich davrida o’qituvchi analiz-sintezdan ko’proq foydalanadi. Analiz narsa va hodisalarni tarkibiy qismlarga ajratishdir. Sintez jarayonida o’quvchilar o’rganilgan narsalar va hodisalarning ayrim qismlarini, elementlarini bir butun qilib birlashtiradilar. Sintez, analiz, taqqoslash, induktsiya kabi usullar orqali o’quvchilar o’zlarida tushuncha hosil qilish imkoniga ega bo’lishadi.

Nazorat savollari:

1.Ta’lim jarayoni deganda nimani tushunasiz?
2.Qanday holatda ta’lim jarayoni sodir bo’ladi?
3.Moddiy dunyoni bilish ta’lim jarayonining harakatlantiruvchi kuchi sifatida ekanligini tushuntiring.

4-savol bayoni..

O’qitish jarayoni ikki faoliyat — o’qituvchi va o’quvchi faoliyatini o’z ichiga oladi. O’qituvchinnng faoliyati o’quv materiallarini bayon qilishdan, o’quvchilarda fanga qiziqishni tarkib toptirishdan, o’quvchilarning mustaqil mashg’ulotlariga rahbarlik qilishdan, ularning bilim, ko’nikmalarini tekshirish, o’quv ishlariga moyilligini uyg’otish, rag’batlantirish, bilim darajalarini xolis baholashdan iboratdir.

O’qituvchnning faoliyati ta’lim jarayonining tashqi tomonini tashkil qiladi, chunki u o’qitadi, ta’lim beradi. O’quvchi faoliyati ichki jarayonini tashkil etadi, chunki u o’qituvchi bergan bilimni o’qib, tushunib oladi.

O’qitish jarayonining ikkinchi tomoni o’quvchining faoliyati bo’lib, u o’quv fani materiallarini o’zlashtirishdan iborat. O’qitish bilishdan farqli o’laroq muallim rahbarligida amalga oshiriladi. Ta’limning asosiy maqsadi, vazifasi yosh avlodni ilmiy bilimlar,ko’nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iboratdir. Ilmiy bilimlarni egallash — muayyan fanlar o’rtasidagi bog’lanishlarni idrok qilish, ularni izohlay bilish, mustaqil ravishda umumlashtirish, xulosalar chiqarish demakdir. Bular asosida o’quvchilarda kuzatuvchanlik, tafakkur, xotira kabi bilish qobiliyatlari o’sib boradi, ularda e’tiqod tarbiyalanadi.

Bunday o’qish jarayonida insoniyat erishgan barcha bilimlarni o’rganish kerak, degan xulosa aslo kelib chiqmaydi. Ta’lim jarayonida fanning eng zaruriy, eng muhimlari — asosi o’rganiladi. Buning uchun o’qituvchi o’quvchiga bilim berar ekan, uni soddadan murakkabga, umumiydan xususiyga yetaklaydi, xulosalar chiqarishga, hayotda, ishlab chiqarishda qo’llay bilishga o’rgatadi. O’qituvchi o’z fanini qanchalik sodda usulda bayon qilmasin, u chuqur ilmiy bo’lishi lozim.

Muallim bilimlarni o’rgatar ekan, o’sha jarayonda bolalarning imkoniyatlarini o’rganadi, qiyinchiliklarini ko’radi, ularni bartaraf etish choralarini izlaydi. Ijodiy ishlovchi o’qituvchi materialni o’zida ham, uni o’qitish usullarida ham yangi jihatlarini ochadi. Xuddi ana shunday ish jarayonida pedagogning o’ziga xos usuli shakllanadi.

O’qituvchi maktab o’quvchilarini yangi bilimlarni faol idrok qilishga, uni hayotda qo’llay olishga tayyorlaydi. Bu tasodifiy hodisa bo’lmay, o’quv jarayonining mantiqi shuni taqozo etadi. O’quvchilarning o’qituvchi sabog’ini o’zlashtirish jarayoni bilimlarni idrok qilish, tushunish, mustahkamlash hamda ularni amalda qo’llash bosqichlaridan iborat bo’ladi.

Bilimlarni o’zlashtirish voqe’likdagi narsa va hodisalarni yozish va idrok qilishdan boshlanadi. Bilimlarni o’zlashtirishda bu bosqichlarning ahamiyati nihoyatda kattadir.

Idrok — borliqni odam ongida aks etishidir (biz daraxtni, odamni, hayvon va boshqalarni idrok qilamiz).

Idrok o’quvchilarning bilimlari, amaliy tajribasi darajasiga qarab muayyan maqsadni ko’zlovchi jarayon bo’lmog’i kerak. O’qituvchi idrokni yoki bevosita kuzatishni yo’lga qo’yayotganida kuzatish manbalarini sinchiklab tanlaydi.

O’quvchilarning bilish faoliyatidagi ikkinchi bosqich — bilimlarni tushunish va umumlashtirish. Tushunchalarning hosil bo’lish jarayonida induktsiya va deduktsiya kabi fikrlash masalalari katta o’rin tutadi. Induktsiya — xususiy hollardan umumiy qoidaga boradigan, deduktsiya esa — umumiydan xususiyga boradigan fikr yuritish yo’lidir.

O’quvchilarning bilish faoliyatidagi uchinchi bosqich — bilimlarni mustahkamlash va qo’llash.

Mustahkamlashning mohiyati yangi materialni idrok qilish vaqtida hosil bo’lgan muvaqqat bog’lanishlarni puxtalashdir. Mazkur jarayonda bo’sh va beqaror bog’lanishlar mustaxkamlanib boradi.

O'quvchilar faolligini oshirish uchun materialni dastlabki mustahkamlash vaqtida materialga oid savollar qo'yish bilangina kifoyalanmaslik kerak. Buning uchun o'quvchining kitob va darsliklar bilan mustaqil ishlashdan, turli xil mashqlar, amaliy mashg'ulotlarni bajarish, ko'rsatmali qurollar, kompyuterlar ustida ishlashlaridan ham foydalanish mumkin. Materialning keyingi mustahkamlanishi uy vazifalarini bajarish jarayonida davom etadi. Materialning har bir keyingi darsda takrorlanib borishi, mavzu yoki bo'limning oxirida umumlashtiruvchi takrorlash o'tkazilishi hamda o'quv yilining oxiridagi takrorlash mustahkamlashning zaruriy elementidir.
Bilim, ko'nikma va malakalarni muvaffaqiyatli egallab olish vositalaridan biri avval o'zlashtirib olingan bilimlarni amalda qo'llashdir. Amaliyot jarayonida bilimlar to'ldirib boriladi, ularni amalda qo'llanish ko'nikmasi hosil qilinadi. Amaliy vazifalarni hal qilish vaqtida bilimlarga ehtiyoj paydo bo'ladi, bu esa yangi bilimlarni egallash uchun turtki beradi.
Nazorat savollari:
1.Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlariga nimalar kiradi?
2.Ta'lim jarayonining vazifalarini izohlang.
3.Ta'lim jarayoni qanday ziddiyatlarga ega ekanligini tushuntirib bering.
4.Bilimlarni o'zlashtirish nimadan boshlanadi?
5.Bilim olishga ruhiy tayyorgarlik deganda nimani tushunasiz

5-savol bayoni.

O'quv jarayonida amal qiluvchi barcha qonuniyatlar umumiy va xususiy tarziga ikki guruhga ajratiladi. Amal qilinishiga ko'ra yaxlit didaktik tizimni qamrab oladigan qonuniyatlar umumiy, amal qilinishiga ko'ra faqat alohida tarkibiy qismlariga taalluqli bo'lgan qonuniyatlar esa xususiy (aniq) deb ataladi.
I.P.Podlaso'y ta'lim jarayonining quyidagi umumiy qonuniyatlarini ajratib ko'rsatadi:
1. Ta'lim maqsadi quyidagilarga bog'liq: jamiyatning rivojlanish sur'ati va darajasi, jamiyatning talablari va imkoniyatlari hamda pedagogika fani va amaliyotining rivojlanganligi va imkoniyatlari darajasi.
2. Ta'lim mazmuni quyidagilarga bog'liq: ta'limning ijtimoiy ehtiyojlari va maqsadlari, ijtimoiy va ilmiy-texnik taraqqiyot sur'ati, o'quvchilarning yoshi imkoniyatlari, ta'lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanish darajasi, shuningdek, o'quv yurtining moddiy-texnik va iqtisodiy imkoniyatlari.
3. Ta'lim sifati (samaradorligi) quyidagilarga bog'liq: avvalgi bosqich mahsuldorligi va mazkur bosqichda erishilgan natijalar, o'rganilayotgan material xususiyati va hajmi, o'quvchilarga tashkiliy-pedagogik ta'sir ko'rsatish hamda o'quvchilarning bilim olishga qobiliyatlari va ta'lim vaqti.
- 4. Ta'lim metodlari samaradorligi quyidagilarga bog'liq: metodlarni qo'llashda bilimlari va ko'nikmalari, ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, o'quvchilarning yoshi, ta'lim olish imkoniyatlari, moddiy-texnik ta'minot hamda o'quv jarayonini tashkil etish.

5. Ta'limni boshqarish mahsuldorligi quyidagilarga bog'liq: ta'lim tizimida qayta aloqalarning intensivligi va tuzatish, ta'sir ko'rsatishlarning asoslanganliligi.
6. Ta'limni rag'batlantirish samaradorligi quyidagilarga bog'liq: ta'limning ichki rag'batlari (sabablari) hamda tashqi (ijtimoiy, iqtisodiy, pedagogik) rag'batlari.
Zamonaviy fanga aniq qonuniyatlar ko'plab soni ma'lumdir. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:
1. Didaktik qonuniyatlar.
2. Gnoseologik qonuniyatlar.
3. Psixologik qonuniyatlar.
4. Kibernetik qonuniyatlar.
5. Sotsiologik qonuniyatlar.
6. Tashkiliy qonuniyatlar.

Didaktik tamoyillar (didaktika tamoyillari) o'quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuniyatlariga binoan uning mazmuni, tashkiliy shakl va metodlarini belgilovchi boshlang'ich qoidalardir.
Tamoyil (yunoncha «principium») – biror-bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang'ich qoidasi; boshqaruvchi g'oya, faoliyatning asosiy qoidasi; umumlashtirilgan talab.

Ta'lim qonuniyatlari va tamoyillarining shakllanish tarixi. Ibtidoiy jamiyatda insoniyat o'sib kelayotgan avlodga mavjud bilimlarni uzatish asosida amaliy bilimlari asta-sekin shakllangan. O'sha davrdayoq ta'lim amaliy qoidalari ishlab chiqilgan va avloddan-avlodga uzatib kelingan.
Antik davrda asosan ajdodlar tajribasi an'analar tarzida umumlashtirilib, amaliy ta'lim masalalari hal etilgan. Platon va Aristotellar tavsiya hamda qoidalar to'plami ko'rinishida amaliyotiy ta'lim mohiyatini umumlashtirishga uringanlar.
Sharqdagi Uyg'onish davrida (IX-XI asrlar) arab, musulmon madaniyatining Yaqin va Markaziy Osiyo xalqlarining moddiy va ma'naviy madaniyati bilan birlashishi asosida alohida sinkretik (yunoncha synkretismos – birlashish, yaxlitlik, qo'shilish) madaniyat birlashgan turi yuzaga kelgan. Allomalar Muhammad al-Xorazmiy (787-850 yillar), Abu Nasr Forobiy (870-950 yillar), Al-Kindiy (800-870 yillar), Abu Rayhon Beruniy (973-1050 yillar), Abu Ali ibn Sino (980-1037 yillar) va boshqalar uning asoschilari sifatida mashhur bo'ldilar. Bu madaniyatning asosiy markazlari Suriya, Eron, Markaziy Osiyo hududlarida joylashgan. Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida ta'lim usullari, qoidalari, tamoyillari, metodlari va shakllari asosida ta'lim amaliyotining mohiyatini ifoda etadilar. Biroq ta'lim masalalari bilan ular maxsus va izchil shug'ullanmaganliklari bois maxsus didaktik nazariya yaratilmadi. Ta'limni ular fan sifatida emas, boshqa fanlarga o'rgatish san'ati, hunarmandchilik sifatida tushundilar. Sharq allomalari tomonidan ilgari surilgan qoida, usul va tamoyillarning aksariyati zamonaviy maktablarda ham qo'llanilmoqda.
Quyidagi jadvaldan Sharq allomalari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Al-Kindiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muslihiddin Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylar ham ta'limning ilmiyligi, ongliligi, ko'rgazmaliligi, tushunarliligi, ketma-ketligi, muntazamligi, moslashuvchanligi va mustaqilligi, shuningdek, bolaning individual xususiyatlari, layoqati va qobiliyatlarini hisobga olish, ta'limni insonparvarlashtirish kabi qoida va tamoyillarini ifoda etib berganlari anglanadi (93-betga qarang).
XVII asrda pedagogika amaliy tabiatshunoslik sifatida biologiya qonuniyatlariga bo'ysunishi e'tirof etilgan. Pedagogikani tubdan to'la qayta qurishni chex olimi Ya.A.Komenskiy va ingliz pedagogi Djon Lokk amalga oshirdilar.
Ular pedagogik qonunlarining quyidagi uch jihatiga ko'ra guruhlaganlar:
1. Ijtimoiy-tarixiy.
2. Tabiiy-tarixiy.
3. Psixologik.
Keyinchalik bir guruh ilg'or pedagoglar umumiy tamoyillar bilan qanoatlanmay, didaktik qonuniyatlarini ifoda etishga uringanlar. Xususan, Ya.A.Komenskiy didaktikaning tematik belgilariga ko'ra guruhlangan quyidagi qoidalar tizimini ilgari surdi:
1. "Ta'lim va oson o'qishning asosiy qoidalari" ("Buyuk didaktika" - XVII bob);
2. "Tabiiy o'qish va ta'limning asosiy qoidalari";
3. "Fanlarga o'qitish san'atining to'qqiz qoidasi" (XX bob) va boshqalar.
Disterveg tomonidan asoslangan qoidalar soni 33 ta bo'lib, ular muayyan loyihalarga taalluqli ekanligiga ko'ra guruhlarga ajratadi (birinchi guruh – o'qituvchiga nisbatan, ikkinchisi – dars tashkil etilayotgan fanga nisbatan, uchinchisi – o'quvchiga nisbatan va hokazolar tarzida). Shu bilan birga Disterveg mazkur qoidalarning ayrimlarini qonunlar ham deb ataydi.
Ta'lim tamoyillari. Didaktik tamoyillar (didaktika tamoyillari) o'quv jarayonining umumiy maqsadlari va qonuni
yatlariga ko'ra tashkil etiluvchi ta'lim jarayonining tashkiliy shakl va metodlari, asosiy qoidalari mohiyatini belgilovchi mazmundir. Ta'lim tamoyillarida ta'limning aniq, tarixiy tajribaga asoslanuvchi me'yoriy asoslari (qoidalari) o'z ifodasini topgan. Ta'lim tamoyillarini bilish o'quv jarayonini uning qonuniyatlari asosida tashkil etish, uning maqsadlarini asosli ravishda belgilash va o'quv materialini mazmunini tanlab olish, maqsadga muvofiq ta'lim shakli va metodlarini tanlash
Ta'lim tamoyillari o'zida tarixiylik xususiyatini namoyon etadi. Ta'lim nazariyasi va amaliyoti rivojlanib borgani, ta'lim jarayonining yangi qonuniyatlari kashf etilishi bilan ta'limning yangi tamoyillari ham shakllanadi, eski ko'rinishlari o'zgardi. Bu ishlar bugungi kunda ham davom etadi. O'qitish va tarbiyalash qonuniyatlarini aks ettiradigan yaxlit pedagogik jarayonning umumiy tamoyillarini keltirib chiqarishga urinishlar ko'zga tashlanmoqda.
Tamoyillar ta'lim jarayonining mohiyati, qoidalar esa uning alohida tomonlarini aks ettiradi.

Ta’limni mazmunli va tashkiliy-metodik tamoyillaridan tashkil topgan tizim sifatida e’tirof etish mumkin:

I. Ta’limning mazmunli tamoyillari. Ular ta’lim mazmunini tanlash bilan bog’liq bo’lgan qonuniyatlarni aks ettiradi va quyidagi g’oyalarni ifodalaydi:

- fuqarolik;
- ilmiyligi;
- tarbiyalovchi ta’lim;
- fundamentalligi va amaliy yo’nalganligi (ta’limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog’liqligi);
- tabiat bilan uyg’unligi;
- madaniyat bilan uyg’unligi;
- insonparvarligi.

Fuqarolik tamoyili. Unga ko’ra ta’lim mazmunini shaxsning sub’ektivligini rivojlantirish, uning ma’naviyligi va ijtimoiy etukligiga yo’naltirishda namoyon bo’lishi kerak. U ta’lim mazmunini insonparvarlashtirishni nazarda tutadi va fuqarolikni anglash, O’zbekiston Respublikasining ijtimoiy va siyosiy tuzilishi haqidagi tasavvurlar tizimi, o’zbek xalqi madaniyati psixologik xususiyatlari, uning mentalitet xususiyatlari, milliy siyosati va madaniyati kabi dolzarb masalalar haqidagi tasavvurlarining shakllanishi bilan bog’liq.

Ta’limning ilmiyligi tamoyili ta’lim mazmunini zamonaviy fan va texnika rivojlanish darajasi, jahon tsivilizatsiyasi to’plagan tajribaga mos kelishini ifodalaydi. Bu tamoyil ta’lim vaqtida va o’qishdan tashqari vaqtda amalga oshiriladigan ta’lim mazmuni o’quvchilarni ob’ektiv ilmiy dalillar, hodisalar, qonunlar, zamonaviy yutuqlar va rivojlanish istiqbollarini ochib berishga yaqinlashtirib, u yoki bu sohaning asosiy nazariya yoki kontseptsiyalari bilan tanishtirishga yo’naltirilgan bo’lishini talab etadi.

Ta’limning tarbiyalovchilik tamoyili yaxlit pedagogik jarayonda ta’lim va tarbiyaning birligi qonuniyatlariga tayanadi. Bu tamoyil ta’lim jarayonida barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishni ko’zda tutadi. Ta’lim jarayonida tarbiyalashning samarali kechishi shaxsning intellektual rivojlanishi, birinchi navbatda, o’quvchilarning qiziqishlari, idrok etish hamda individual qobiliyatlarining hisobga olinishi bilan bog’liq.

Ta’limning fundamentalligi va amaliy yo’nalganligi tamoyili umuiy o’rta ta’lim maktablaridayoq o’quvchilar chuqur nazariy va amaliy tayyorlikdan o’tadilar. Mazkur holat an’anaviy didaktikada ta’limning hayot bilan, nazariyaning amaliyot bilan bog’liqligi kabi ifoda etiladi.

O’qishda fundamentallik bilimlarning ilmiyligi, to’la va chuqur bo’lishini ko’zda tutadi. U odamdan yuksak intellektual salohiyat, fikrlash layoqatining tadqiqotchilik ko’rinishda bo’lishi, bilimlarini doimiy ravishda to’ldirib borish istagi va malakalarini talab etuvchi zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyotga asoslangan. Fundamental bilimlar aniq bilimlariga qaraganda sekin eskiradi, shuningdek, inson va xotirasiga emas, ko’proq uning fikrlash layoqatiga bog’liq bo’ladi. Ta’limning fundamentalligi bilimlar mazmunining muntazamligi, nazariy va amaliy jihatdan o’zaro nisbatda bo’lishni talab etadi.

Ta’limning tabiat bilan uyg’unligi tamoyili. Ya.A.Komenskiy o’zining tabiatga uyg’un bo’lishi g’oyasini ifoda etib, tabiatda hayot bahordan boshlangani kabi ta’lim olish jarayoni uchun eng qulay davr bolalik ekanligini ta’kidlaydi. Ertalabki soatlar mashg’ulotlarni bajarish uchun juda qulay hisoblanadi. O’quvchilarga ularning yosh davrlarini inobatga olgan holda bilimlarning berilishi ushbu bilimlarning ular uchun tushunarli bo’lishini ta’minlaydi. Demak, tabiat bilan uyg’unlik g’oyasi asta-sekinlik, ketma-ketlik va mustaqil faoliyat kabi ta’lim tamoyilining asosi hisoblanadi.

O’zbek pedagogi Abdulla Avloniy ham (1878-1934 yillar) ta’lim va tarbiyani yo’lga qo’yishda tabiatga uyg’un bo’lishi g’oyasining davomchisi bo’lgan. O’zining “Turkiy guliston yohud axloq” nomli asarida bola shaxsining tabiiy mukammalligiga ishonch bildiradi. A.Avloniy bola tabiatan go’zallik va mehribonlik bilan uyg’unlikda tug’iladi deb yozadi. Allomaning fikricha, ta’lim va tarbiyaning vazifasi bola shaxsining rivojlanishi uchun yordam beruvchi sharoitlarni yaratishdan iborat.

Abdulla Avloniy bolani milliy madaniyat, vatanga muhabbat asosida tarbiyalash g’oyasining tarafdori bo’lgan, bu xususida allomaning asarlarida quyidagi fikrlar o’z ifodasini topgan: “.... odam

tug'ilgan va o'sib ulg'aygan shaharni va shu shahar joylashgan mamlakatni bu odamning Vatani deb aytadilar. Biz turkistonliklar o'zimizning quyoshli diyorimizni jonimizdan ham ortiq yaxshi ko'rishimiz kabi arablar o'z Arabistonini, ... eskimoslar esa o'zlarining Shimolini yaxshi ko'radilar" deb yozadi. A.Avloniyning fikricha, xalqparvarlikka asoslangan ta'lim va tarbiya yoshlarga vatanparvarlik namunalarini ko'rsatishga undashi kerak.

Ta'limda insonparvarlik tamoyilini bolaning shaxs sifatidagi qadr-qimmati, uning erkinligi hamda baxtli hayot kechirishini ta'minlash, uni rivojlantirishi, ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, unga hayotda o'z o'rnini topishda yordam ko'rsatishi va hokazolarni nazarda tutadi.

"Insonparvarlik" va "odamiylik" so'zlari yunoncha humanus "odamiylik" bir so'zdan kelib chiqqan. Insonparvarlik, odamiylik ma'naviy-axloqiy tushunchalardir. Insonparvarlik g'oyasi antik davr faylasuflari (Suqrot, Aflotun, Arastu va boshqalar) qarashlarida ilk bor ko'zga tashlanadi. Markaziy Osiyoda insonparvarlik g'oyalari Sharq Uyg'onish davrida keng rivojlandi. Abu Nasr Forobiyning fikricha, bolani eng avval o'qimishli, saxovatli inson qilib tarbiyalash kerak, zero, salbiy nuqsonlar bolalikdan paydo bo'ladi. Shu bois oilada tarbiyani yo'lga qo'yishda xato qilmaslik zarur.

O'zbekiston Respublikasida huquqiy, demokratik jamiyat barpo etilayotgan mavjud sharoitda uzluksiz ta'lim tizimi oldida barkamol, har tomonlama rivojlangan, erkin, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalash vazifasi turibdi. Mazkur vazifa ta'lim va tarbiya jarayonida bolalarga nisbatan insonparvarlik munosabatida bo'lish orqali ijobiy hal etiladi. Bolalarga nisbatan insonparvarlik munosabatida bo'lish ularning taqdiri haqida qayg'urish, uning qobiliyatini ko'ra olish, unga ishonish, shuningdek, bolaning xatoga yo'l qo'yish, shaxsiy nuqtai nazarga ega bo'lish huquqini qadrlashni nazarda tutadi.

TA'LIMNING TASHKILIY–METODIK TAMOYILLARI. ***TA'LIMNI TASHKIL ETISH METODIKASI TA'LIM MAZMUNINI SHAKLLANTIRISH KABI ERKIN TANLANISHI MUMKIN EMAS. BU BORADA MUAYYAN IJTIMOIY, PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK TALABLARNI INOBATGA OLISH ZARUR. BUNDAY TALABLAR TA'LIMNING TASHKILIY-METODIK TAMOYILLARI DEB YURITILUVCHI TAMOYILLAR MAZMUNIDA O'Z IFODASINI TOPGAN:***

- ta'limning izchilligi, tizimliligi, ketma-ketligi;
- ta'limda onglilik va ijodiy faollik;
- ta'limda ko'rgazmalilik;
- ta'limning samaradorligi va ishonchliligi (mustahkamligi);
- ta'limning tushunarliligi;
- guruhli va individual ta'lim birligi;
- ta'limning o'quvchilar yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi;
- oqilona talabchanlik bilan bola shaxsini hurmat qilishning muvofiqliligi;
- pedagogik hamkorlik.

Ta'limning izchilligi, tizimliligi, ketma-ketligi tamoyili bilish bosqichlarining ob'ektivligini anglatadi.

Izchillik ta'lim mazmuni, uning shakli va usullari, o'quv jarayoni ishtirokchilari bo'lgan sub'ektlarning o'zaro munosabatlariga taalluqli. U alohida partsial (yunoncha partialis - qisman) va xususiy o'quv vaziyatlari, predmet va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik, aloqadorlik qonuniyatlarini asta-sekin o'zlashtirish asosida ularni yagona yaxlit o'quv jarayoniga birlashtirishga imkon beradi.

Izchillik ta'lim jarayonining ma'lum tizim va ketma-ketlik asosida bo'lishini nazarda tutadi, zero, murakkab masalalarni oddiy masalalarni o'rganmay turib hal etib bo'lmaydi.

Muntazamlik va ketma-ketlik u yoki bu o'quv materialini o'zlashtirish sur'ati, uning elementlari o'rtasidagi o'zaro mosligini tahlil qilishga imkon beradi. Ta'limning muntazamliligi va ketma-ketligi ma'lum fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish, borliqni yaxlit idrok etish o'rtasidagi qarama-qarshilikni hal etishga imkon beradi. Ushbu holatlar birinchi navbatda dastur va darsliklarni muayyan tizimda yaratish, fanlararo hamda fanlar ichidagi bog'liqlikni ta'minlash evaziga namoyon bo'ladi.

Onglilik va ijodiy faollik tamoyili**.** Uning asosini fanni o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'luvchi qoidalar majmuini shakllantirish tashkil etadi. Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish quyidagi omil va shartlarga bog'liq: ta'lim motivlari, o'quvchilarning faollik darajasi, o'quv-

tarbiyaviy jarayonning samarali tashkil etilishi, o'qituvchi tomonidan qo'llanuvchi ta'lim metodlari va vositalarining samaradorligi va boshqalar. O'quvchilarning faolliklari reproduktiv va ijodiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Mazkur tamoyil o'quvchilarning tashabbuskorliklari va mustaqil faoliyatlarini nazarda tutadi.

Ko'rgazmalilik tamoyili ta'lim jarayonini tashkil etish asosida yotuvchi muhim qoidalardan biri hisoblanadi. Ya.A.Komenskiy uni didaktikaning "oltin qoidasi" deb atagan. Unga binoan ta'limda inson sezgi organlaridan foydalanish kerak. "Agarda biz o'quvchilarda haqiqiy va aniq bilimlar paydo qilishni istasak, unda biz umuman hamma narsaga shaxsiy kuzatish va sezib ko'rish bilan Ta'limga intilishimiz kerak – deb ta'kidlaydi u – agarda qandaydir predmetni baravariga bir necha sezgi organlari bilan qabul qilish mumkin bo'lsa, mayli ular baravariga bir necha sezgilari bilan o'rganilsin"[1].

Tajribalar asosida o'rganilayotgan narsani namoyish etish va jarayon mohiyatini hikoya qilib berish o'zlashtirish darajasini birmuncha oshiradi. Xususan, axborotlarni eshitib qabul qilish samarasi 15 foiz, ko'rib qabul qilish esa – 25 foizni tashkil etadi. Ta'lim jarayonida ularni bir vaqtda ishtirok etishi natijasida ma'lumotlarni qabul qilish samaradorligi 65 foizgacha ortadi.

Ko'rgazmalilikdan o'quv jarayoni barcha bosqichlarida foydalanish mumkin: yangi materialni o'zlashtirish, uni mustahkamlash, mashqlarni tashkil qilish hamda o'quvchilarning dastur materiallarini o'zlashtirishlarini tekshirish va baholashda.

Ta'limning samaradorligi va ishonchliligi tamoyili. An'anaviy didaktikada u mustahkamlik tamoyili kabi ifoda etiladi. Agarda o'qitish jarayoni ta'lim maqsadlariga erishishni ta'minlamasa, u holda ushbu jarayonni tashkil etish zaruriyati yuzaga kelmaydi. Shu bois ta'lim samarali, shuningdek, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi xususiyatga ega bo'lishi kerak.

Ta'limning ishonchliligi va mustahkamliligini ta'minlash uchun o'quvchilar o'qish jarayonida o'quv-o'rganish harakatlarining quyidagi to'la tsiklini o'zlashtira olishlari zarur: o'rganilayotgan materiallarni dastlabki qabul qilish, uni chuqurroq anglab etish, eslab qolish, o'zlashtirilgan bilimlarini qo'llash bo'yicha ma'lum faoliyatni amalga oshirish, ularni takrorlash va tizimlashtirish.

Ta'limning chuqurligi va mustahkamligi talabi didaktikada an'anaviy hisoblanadi va u yuzakilikka qarama-qarshi qo'yiladi. Chuqur, mustahkam bilimning asosiy belgisi eng fundamental g'oyalar, qoidalar, tushuncha, kategoriyalarni tushunish, chuqur o'zlashtirish, o'rganilayotgan materiallar mazmunini puxta anglashdan iborat.

Ta'limning tushunarliligi tamoyili o'quvchilarning mavjud imkoniyatlarini hisobga olish, jismoniy va psixik sog'lig'iga yomon ta'sir etuvchi intellektual va emotsional qiyinchiliklardan voz kechishni talab etadi. Ta'limning tushunarli bo'lishi o'quvchilarning yoshi, bilish imkoniyatlarini hisobga olib o'qishning mazmunini to'g'ri aniqlash demakdir, ya'ni, har bir o'quv fani bo'yicha o'quvchilar egallab olishi zarur bo'lgan bilim, amaliy ko'nikma va malakalari hajmini to'g'ri aniqlashdir. Bu tamoyil o'quv jarayonini o'quvchilarda qiyinchiliklarni engish istagini hosil qiluvchi va shaxsiy muvaffaqiyatlarining natijalaridan quvonish tuyg'usini yuzaga keltirishga yo'naltirilganligini ifodalaydi. Bu bolalarda ko'zga tashlanuvchi qattiq hayajonlanish, shuningdek, o'quv masalalarini echishdagi ishonchsizlikni yo'qotishga yordam beradi.

Guruhli va individual ta'limning birligi tamoyili shaxsning, bir tomondan atrofdagilar bilan munosabatda bo'lish, ijtimoiy aloqalarni yo'lga qo'yishga intilishi, ikkinchi tomondan esa, yakka holda ta'lim olishga bo'lgan xohishini aks ettirishga xizmat qiladi. Muomala faoliyatning alohida turi bo'lib, uni tashkil etish jarayonida boshqalar haqidagi tasavvur va tushuncha yuzaga keladi. Atrofdagilar bilan munosabatni yo'lga qo'yish o'zaro aloqalarning hosil bo'lishi va rivojlanishini, alohida bo'lish esa shaxsning ijtimoiylashuvi hamda rivojlanishini ta'minlaydi.

An'anaviy ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra guruhli hisoblanadi, zero, u 30-40 nafar o'quvchilardan iborat o'quv guruh (yoki sinf)larida tashkil etiladi. 100-200 nafar talabalardan iborat kurslarda esa ta'limga sarflanadigan harakatlarni kamaytirish maqsadida ma'ruzalar o'qish tashkil etiladi. Guruhli ta'lim munozara, muzokara tashkil etish uchun qulay sharoitga ega bo'lib, o'quv masalalarini echishning eng samarali yo'llarini birgalikda izlashni ta'minlaydi, o'zaro yordam ko'rsatish uchun sharoit yaratadi, o'quvchilarning mas'uliyat hissini oshiradi. O'quv muvssasalarida guruhli ta'limni tashkil etish jamoani shakllantirishning asosiy shakli sanaladi.

---

[1] Коменский Я.А. Буюк дидактика. Изб. пед. соч. В 2 том. М. 1982. Т.1. – с. 384.

Ta’limning o’quvchilarning yoshi va individual xususiyatlariga mos kelishi tamoyili o’quvchilarning yoshiga ko’ra va individual yondashuvni anglatadi.
Yoshiga muvofiq yondashish o’quvchilarning psixik xususiyatlari, shaxsiy rivojlanganlik darajasi, ma’naviy-axloqiy sifatlari, ijtimoiy etukligini baholay olishni nazarda tutadi. Agarda qo’yilayotgan talablar yoki ta’limning tashkiliy tuzilishi o’quvchilarning yoshi imkoniyatlaridan ortda qolsa yoki ilgarilab ketsa, o’quv faoliyatining samarasi pasayadi. Individual yondoshish o’quvchilarning murakkab ichki dunyosini o’rganish, yuzaga kelgan munosabatlar tizimini tahlil qilish va shaxs shakllanishi sodir bo’ladigan ko’p turdagi sharoitlarni aniqlashni talab etadi.
Oqilona talabchanlik bilan bola shaxsini hurmat qilishning birgaligi tamoyili pedagog tarbiyalanuvchini shaxs sifatida hurmat qilishi zarur. Oqilona talabchanlik maqsadga muvofiq bo’lsa, ta’lim-tarbiya jarayoni, shaxsning to’liq va barkamol rivojlanishini ta’minlay olsa samarasi ancha yuqori bo’ladi. O’quvchilarga nisbatan talabchanlik ularni tartibli, intizomli bo’lish, burchlarni o’z vaqtida bajarish ko’nikmalariga ega bo’lishlarini ta’minlashi lozim. Shaxsga hurmat insondagi ijobiy xislatlariga tayanishni ko’zda tutadi.
Hamkorlik tamoyili ta’lim jarayonida shaxsning ustuvor mavqeini ta’minlash, uning o’z-o’zini anglashini anglatadi. Bu tamoyil o’zaro munosabatlar jarayonida sub’ektlar o’rtasidagi aloqalarning dialog shakli, shaxslararo munosabatlar mazmunida esa empatiya (yunoncha «empathlia» – birgalikda tashvishlanish, ya’ni, boshqa odamning tashvishlarini tushunish)ning ustunligiga erishishni talab etadi.

Nazorat savollar:

1. Ta’limning asosiy didaktik qonuniyatlarini ifoda etib bering (I.P.Podlaso’y bo’yicha).
2. Ta’lim tamoyili nimani anglatadi? Misollar keltiring.
3. Sharq Uyg’onish davri allomalari – Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino) ilgari surgan ta’limiy qoida va tamoyillarini ta’riflab bering.

Asosiy adabiyotlar

1. Pedagogika. G’G’ M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O’zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Ibragimov X.I.., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.
3. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. – T.: TDPU, 2012.
4. Yuzlikaeva E., Madyarova S., Yanbarisova E., I.Morxova. Teoriya i praktika obhey pedagogiki. – T.: TGPU, 2014.
Principles of Learning and Teaching. Effective pedagogy. P – 12.
3. Leadership guide.Senior leaders, subject leaders and teachers in secondary schools.
4. Pedagogy and Practice:Teaching and Learning in Secondary chools . Status: Recommended Date of issue: 09-2004. Ref: DfES 0444-2004 GGuidance.

Qo’shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta`minlash taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. “O`zbekiston”. 2017
2. Xasanboev J, To’rakulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug’at. – T.: Fan va texnologiya, 2008 .
Elektron ta’lim resurslari
1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. Uz

- MAVZU: TA’LIMI MAZMUNI.

Asosiy savollar:

Ilmiy-texnik jarayon va ta'lim mazmuni.
Hozirgi vaqtda ta'lim mazmunini belgilashga doir asosiy g'oyalar.
Ta'lim mazmunini belgilab beruvchi me'yoriy hujjatlar.
Davlat ta'lim standarti.

Tayanch tushuncha va iboralar:
Insoniylashtirish, standartlashtirish, amaliylashtirish, axborotlashtirish, uzluksiz ta`lim, ta`lim mazmuni, o`quv rejasi, tayanch o`quv rejasi, namunaviy o`quv rejasi, ishchi o`quv rejasi, motivatsion vazifa, muvofiqlashtirish, davlat ta`lim standarti, kollej, akademik litsey.

1-savol bayoni.

Ta'lim o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish, ularning amaliy ko'nikma, malakalari va dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, ushbu tushuncha negizida shaxsning tanqidiy fikrlashi, yaratishi, borliqda sodir bo'layotgan hodisalarni o'zaro aloqadorlik nuqtai nazaridan baholay olishi ham aks etadi.
Ta'lim tushunchasi, shuningdek, ajdodlar tomonidan to'plangan ijtimoiy ahamiyatli tajribalarining avlodlarga doimiy uzatilishini ta'minlovchi tizimli jarayoni ham sanaladi..
Shaxsni ijtimoiylashtirish uni jamiyat tomonidan tan olingan xulq-atvor me'yorlari, bilim hamda qadriyatlar tizimini o'zlashtirishdan iborat ijtimoiy hayotga jalb etish jarayonidir.
Ta'lim mazmuni tizimlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar, qarashlar, ishonchlar to'plami, o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etish natijasida erishilgan amaliy tayyorgarlikning ma'lum darajasi bilan belgilanadi.
Ta'lim mazmunining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan bilimlar muhim ijtimoiy qadriyat ham sanaladi. U individning ijtimoiylashishi, odamning sotsium (ijtimoiy muhit)ga kirishiga yordam beradi. O'tgan asrda ta'lim mazmunini siyosiylashtirishga urinishga qaratilgan harakatlarning yuzaga kelganligi uning mazmunini belgilashda ekstensiv yondashish (miqdoriy – sonini ko'paytirish) etakchi o'rin egalladi. Natijada ta'lim mazmuni o'quv fanlari sonining doimiy ortib borish hisobiga kengaytirildi, ta'lim jarayonida tayyor bilimlarni berish asosida o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishga e'tibor qaratilib, o'quvchi shaxsini rivojlantirish masalasi o'z echimini topmadi.
So'nggi yillarda ta'limni insonparvarlashtirish yo'lida ta'lim mazmunini aniqlashda shaxsga-yo'naltirilgan yondashuv asosiy o'rinni egallay boshladi. Bunday yondoshish V.V.Kraevskiy, I.Ya.Lerner, M.N.Skatkin (Rossiya); M.Ochilova, N.N.Azizxo'jaeva, N.Sayidahmedov, F.R.Yuzlikaev (O'zbekiston)larning ishlarida o'z aksini topdi.
Masalan, V.V.Kraevskiy, I.Ya.Lernerlar ta'lim mazmuni deganda shaxsni har tomonlama rivojlantirishni ta'minlovchi pedagogik bilim, ko'nikma va malakalar to'plami, ijodiy faoliyat tajribasi hamda emotsional-irodaviy munosabat tajribasini tushunadilar.
Demak, shaxsga yo'naltirilgan yondoshishga muvofiq ta'lim mazmuni mohiyatini aniqlashda asosiy qadriyat bilim emas, balki odamning o'zi hisoblanadi. Bunday yondoshuv shaxsning ta'lim olish, ma'naviy, madaniy va hayotiy talab-ehtiyojlarini qondirish, rivojlanayotgan shaxsga nisbatan samimiy munosabatida bo'lishi ta'lim mazmunini erkin tanlash imkonini beradi.
An'anaviy pedagogika deyarli faqat odamning ijtimoiy mohiyatini tan olganligi bois, ta'limning maqsadi insonning jamiyat a'zosi sifatida rivojlanishi, unda ijtimoiy ahamiyatli sifatlarining shakllanishi hisoblanadi.
Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida ta'lim jamiyat va davlatning ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy rivojlanishi asosi deb e'lon qilindi. Ta'limning maqsadi mustaqil fikrlaydigan, ma'naviy-axloqiy jihatdan etuk, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat.
O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limning umumiy vazifalari quyidagilardan iborat:
- aholi milliy-madaniy ehtiyojlarini qoniqtirish, jismoniy va ma'naviy sog'lom avlodni tarbiyalash;
- o'quvchilar tomonidan ijtimoiy va ishlab chiqarish talablari bilan belgilanadigan bilimlar tizimini o'zlashtirilishini ta'minlash;
- ularda ilmiy dunyoqarash, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy madaniyat, ijodiy, erkin fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning mustaqil bilimlarini oshirib borishi;

- yoshlarda Vatanga muhabbat, vatanparvarlik, fuqarolik dunyoqarashi, insoniy qadr-qimmat, demokratik o'zini boshqarishda ishtirok etish, shuningdek, o'z harakatlari uchun javobgarligini yuzaga keltirish.

Ana shu umumiy vazifalar bir qator alohida masalalardan iborat bo'ladi. Ular o'quv fanlari mazmunida uyg'unlashtiriladi.

Evropa va Sharq, Osiyo va Amerika mamlakatlarida ta'lim turlari tarixiy taraqqiyot natijasida yuzaga kelgan. Birinchi turi mifologik ta'lim bo'lib, unda dunyoning mohiyati ertak, afsona, doston, qissa hamda qo'shiqlar shaklida o'rganilgan.

Keyingi tarixiy turi sxolastik ta'lim bo'lgan. Uning mohiyatiga ko'ra ta'limda matn madaniyati va er, osmon haqidagi bilimlar so'z bilan ifodalanib, xotira va irodani mashq qildirish asosida yosh avlodga inson mavjudligi va u tomonidan tashkil etiladigan faoliyat mazmuni haqida bilimlar berilgan, savodxonlik va nutq madaniyatiga o'rgatilgan.

Ta'limning uchinchi tarixiy turi - ma'rifatparvarlik bo'lib, u dunyoviy bilimlar yaratilgan davrda yuzaga kelgan. XX asrdan boshlab esa turli ta'lim paradigma (model)lari, turlari va ko'rinishlarining rivojlanish jarayoni kuzatildi.

Bugungi kunda asoslariga ko'ra ta'limning quyidagi turlari, ko'rinishlari mavjud:

- ilmiy bilimlarni o'zlashtirishi turi va sifatiga ko'ra (biologik, matematik, fizik, iqtisodiy, filologik ta'lim va shu kabi);
- ustuvor mazmunga ko'ra **(**nazariy va amaliy, gumanitar va boshqalar);
- ijtimoiy faoliyatlarni egallashi turi va mahoratiga ko'ra (musiqiy, badiiy, texnik, texnologik, pedagogik-tibbiy ta'lim va shu kabilar);
- madaniy qadriyatlarni o'zlashtirishiga ko'ra (an'naviy ta'lim, badiiy-estetik, diniy ta'lim va boshqalar);
- kishilik jamiyatining madaniy qadriyatlarni o'zlashtirish ko'lamiga ko'ra (milliy, evropa, xalqaro, global ta'lim va boshqalar);
- ta'lim tizimi turiga ko'ra (universitet, akademik, gimnaziya, litsey ta'limi va boshqalar);
- ta'lim mazmuni yo'nalishining ustuvorligiga ko'ra (formal va moddiy, ilmiy va elementar, gumanitar va tabiiy fanlar, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy va boshqalar);
- ta'lim darajasiga ko'ra (boshlang'ich, to'liqsiz o'rta, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim.

Nazorat savollar:

1. Ta'lim mazmunining mohiyati nimadan iborat?
2. Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmunini tanlab olish tamoyillarini ta'riflab bering.

2-savol bayoni.

Ta'lim mazmuni – bu jamiyatning shaxsni ma'naviy rivojlanishi darajasiga qo'yilgan talablar, jamiyatning ijtimoiy tajriba va madaniyatini aks ettirgan ijtimoiy buyurtmasi modelidir.

Ijtimoiy tajriba quyidagi to'rt element bilan tavsiflanadi:

- inson tabiat, jamiyat haqidagi bilimlari
- faoliyatning ko'nikma, malaka va usullari;
- yangi vazifalarni hal etish bo'yicha ijodiy faoliyat tajribasi;
- atrofdagilar bilan o'zaro emotsional (hissiy) – qadriyatli munosabatlar tajribasi.

Shularga muvofiq zamonaviy didaktika g'oyalariga ko'ra ta'lim mazmunining tarkibida quyidagilar o'z aksini topadi: 1) olam haqidagi bilimlar; 2) faoliyatni amalga oshirish usullari tajribasi; 3) ijodiy faoliyat tajribasi; 4) atrof-muhitga emotsional (hissiy) qadriyatli munosabat tajribasi.

Bilim va ko'nikmalar ijodiy faoliyat asosi bo'lib qolishi mumkin, lekin unga tayyorlikka kafolat bo'la olmaydi. Ijodga, ta'limning o'ziga xos turi sifatida maxsus o'qitish kerak bo'ladi. Atrof-muhitga emotsional-umumiy munosabatda bo'lish u haqida bilish, lekin ularga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmaslikni nazarda tutadi. Uni rivojlantirish uchun o'qitish jarayonida maxsus ishlash olib berish zarur.

Ilmiy asoslangan ta'lim mazmunini qanday aniqlash mumkin? Ta'lim mazmuniga nima ta'sir ko'rsatadi? U nimaga bog'liq bo'ladi?

Ta’lim mazmunini aniqlovchi asosiy omillar quyidagilardan iborat bo’ladi:

- fan, texnika, madaniyatning jamiyatda rivojlanganligi darajasi;
- ta’limning maqsad va vazifalari;
- o’quvchilarning yoshi xususiyatlari;
- o’quvchi shaxsining ehtiyojlari.

Umumiy o’rta va o’rta maxsus ta’lim mazmuni o’quvchilarda atrof-muhit haqida umumiy tasavvurlarni hosil qilishi, ularni o’zlarining amaliy faoliyatlari uchun zarur bo’lgan bilimlarni izlashg va bu bilimlarni hayotiy muammolarni hal etishda qo’llashga o’rgatishi kerak. Ta’lim mazmuni o’quv rejalari, o’quv dasturlarida, darsliklarda aks ettiriladi,

XX asr 80-yillarida amaliy qo’llanilgan o’rta umumta’lim maktabi namunaviy o’quv rejalari maktabni yangilash vazifalariga, o’quv-tarbiyaviy jarayonni hozirgi zamon talablari asosida tashkil qilishga mos kelmas edi. Bu o’quv rejasining eng asosiy kamchiligi – uni shakllantirishning haddan tashqari markazlashtirilishidir, bu esa maktablarning hammasi bir xil bo’lishi, taklif etilayotgan ta’lim idealining bir xilligiga olib keladi, unda shaxs, jamiyat va davlatning turli ta’limiy talablari hisobga olinmaydi; ko’p predmetlilik, o’quvchilarga vazifalar ortiqchalik, og’irlik qiladi va ta’lim mazmunining sun’iy qisqaligi, aralashligi yuzaga keladi; bu ta’limning texnokratik yo’nalishi uning insonparvarlik va madaniy, badiiy-yaratuvchilik rolini yo’qotishiga olib keladi. O’quv rejasining ana shu va boshqa ko’plab kamchiliklari didakt olimlar va amaliyotchilar tomonidan keskin va haqli ravishda tanqid qilindi.

1991 yilda O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtishrishga kirishildi. Bunday sharoitlarda ta’lim, yangi demokratik davlat barpo etish, madaniy va ma’naviy tiklanish, demokratik jamiyat va bozor munosbaatlari shakllanishi, milliy fan va texnikaning rivojlanishini dunyo standartlari talablari darajasiga ko’tarishning asosi bo’lib qolishi kerak.

Umumiy o’rta ta’lim, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi mazmuniga talablar ta’limni rivojlantirish davlat strategiyasi bilan belgilanadi. Bu strategiya respublikaning «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da belgilangan (1997 yil), ta’limni tubdan isloh qilish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo’yicha milliy tizimni yaratish hisoblanadi. Ta’lim mazmunida quyidagi ikki jihat ko’zga tashlanadi: milliylik va umuminsoniylik.

Hozirgi sharoitda o’rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun ta’lim mazmuni (o’quv rejalari)ni ishlab chiqishda ta’lim mazmunida quyidagi g’oyalar etakchi o’rin tutadi:

1) insonparvarlashtirish;
2) integratsiya;
3) standartlashtirish;
4) ko’p bosqichlilik;
5) axborotlashtirish;
6) individuallashtirish;
7) ketma-ketlik.

Ta’lim mazmunini insonparvarlashtirish ta’lim muassasasining o’quvchiga e’tibor qaratishi, uning shaxsi, xohish-istak va qiziqishlarini hurmat qilishi, birinchi navbatda o’quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning mustaqil hayotda o’z yo’llarini topib olishlari uchun sharoit yaratishni ko’zda tutadi. Insonparvarlashtirish gumanitar va tabiiy fanlarni optimal nisbatlarda bo’lishi, matematik, biologik, texnik kurslar mazmunini insoniylik haqidagi bilimlar bilan boyitishni ko’zda tutadi. Ta’lim mazmunida insonparvarlik g’oyalarining aks etishi o’quvchilarda fikrlash layoqatining shakllanishiga yordam beradi.

Ta’limni insonparvarlashtirish bu ta’lim tizimi va butun ta’lim jarayonini har bir inson huquqlarini hurmat qilish, pedagoglar o’rtasida o’zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni rivojlantirish, ularning sog’liqlarini saqlash va mustahkamlash, shaxsiy qadr-qimmatlarining his etishlarini ta’minlash va shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ta’limni insonparvar (gumanitar)lashtirish yangi tayanch o’quv rejasining ikkinchi muhim g’oyasidir. Ta’limni gumanitarlashtirish birinchi navbatda tayanch o’quv rejasida gumanitar fanlar hajmini oshirishda o’z ifodasini topadi (50 % dan ko’proq). Bu xususan estetik tarbiyani tashkil etishga o’quv vaqtini ikki barobar ko’paytirishga imkon beradi. Gumanitarlashtirish – bu ta’limning

bosqichi va turidan qat'iy nazar asosiy ijtimoiy muammo - inson farovonligi muammosini hal etishga imkon beruvchi ta'lim mazmunini o'zlashtirishga yo'naltirishdir.
Ta'lim yangi mazmunini ishlab chiqishning uchinchi g'oyasi – ta'limni differentsiyalashtirish. Bu yo'nalish majburiy kurslar bilan birga katta sinflarda chuqurlashtirilgan va ixtisoslashtirilgan o'qitish, fanlarni tanlash asosida olib borishni ko'zda tutadi. Sinfda, sinflar o'rtasida hamda turli yoshdagi o'quv guruhlarida fakultativ kurslarni individual, guruhli mashg'ulotlar hamda qiziqishlariga ko'ra to'garaklarni rivojlantirish ham ko'zda tutiladi. Differentsatsiyalash – bu zamonaviy sharoitda ta'limni rivojlantirish umumiy yo'nalishi hisoblanadi. Respublikada o'tgan asrning 90-yillarida ta'limni differentsatsiyalash maqsadida ixtisoslashtirilgan maktablar va sinflar (fizika, ximiya, matematika, chet tillarini chuqur o'rganish bilan) litseylar, gimnaziyalar ochildi.
1997 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi XI sessiyasida O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi ta'lim tizimini rivojlantirishda yangi bosqich bo'ldi. Davlat ta'lim standartlari talablaridan kelib chiqib ta'lim dasturlarining yangi avlodi ishlab chiqildi.
Kurslarni integratsiyalashtirish ta'limning yangi mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan yana bir g'oya o'quvchilarda dunyoni yaxlit tasavvur qilish layoqatini rivojlantirishda umumlashtiruvchi, dunyoqarashni shakllantirish imkonini beruvchi integrativ fanlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.
Yangi yagona (tayanch) o'quv rejasida integratsiyalash hisobiga o'quv fanlari soni kamaytirildi, soatlarning umumiy hajmi ixchamlashtirildi. Xususan, "Tarix" fani umumiy tarix va O'zbekiston xalqlari tarixiga asoslanadi.
Standartlashtirish – bu majburiy o'quv fanlari to'plamini soatlari aniq belgilangan hajmini belgilash. Ta'lim standartlari yordamida ta'lim muassasalarida o'quv ishlarining normativlari moslashtiriladi, o'quvchilar bilimlarini baholashning yagona mezonlari ishlab chiqiladi.
Ko'p bosqichlilik – bu ta'limning har bir bosqichida o'quvchining imkoniyat va qiziqishlari darajasiga javob bera oladigan bilim darajasiga erishish imkonini beruvchi ko'p bosqichli ta'lim jarayonini tashkil etishdan iborat. Turli bosqichlarning har birida o'qitishning yakuniy holati ta'limning sifatli yakunlanganligi hisoblanadi.
Fundamentallashtirish – shaxs (o'quvchi)ni ijtimoiy faoliyatiga nazariy va amaliy jihatdan tayyorlashni kuchaytirish. Bu erda maktab bo'lsa ham, litsey, kollej yoki oliy o'quv yurtining ta'lim tizimi, o'quv rejasi, barcha fanlar bo'yicha ilmiy-nazariy bilimlarni chuqur va tizimli o'zlashtirishga alohida ahamiyat beriladi.
Ta'limni axborotlashtirish o'quvchilarni o'qitish jarayonida hisoblash texnikasi va axborot texnologiyalaridan ommaviy va keng foydalanish bilan bog'liq bo'ladi. Ta'limni axborotlashtirish oxirgi o'n yillikda keng tarqaldi, buning boisi shuki, zamonaviy video-radiotexnika va kompyuterlarning ta'lim tizimida qo'llanilishi mumkin bo'lganligi hamda foydalanish nisbatan oddiyligidir.
Individuallashtirish ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchi va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning hamma turlaridan foydalangan holda ularning individual xususiyatlarini hisobga olish va rivojlantirish demakdir.
Uzluksizlik jamiyat hayotining tez o'zgarib borishi odamni doimiy ravishda ta'lim olish (mustaqil ta'lim olish)ga undovchi jarayon mohiyatini anglatadi.

Nazorat savollar:

1. Hozirgi bosqichda ta'lim mazmunini belgilash asosiy g'oyalarini (asoslarini) aytib bering.
2. Mutaxassislik fani bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'limi davlat ta'lim standartini tahlil qilib bering.

3-savol bayoni.

Ilmiy pedagogik adabiyotlarda ta'lim mazmunini shakllantirishning quyidagi uch bosqichi ko'rsatiladi:

1) umumiy nazariy bosqich;
2) o'quv bosqichi;
3) o'quv materialini o'zlashtirish bosqichi, ya'ni, ta'lim mazmunining o'quv rejasi, o'quv dasturi va darsliklar kabi me'yoriy hujjatlarda o'z ifodasini topishi.

Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmuni davlat ta'lim standarti, o'quv rejalari mazmunida namoyon bo'ladi. O'quv rejalari quyidagilardan iborat: tayanch, namunaviy va maktab o'quv rejasi.

Umumiy o'rta hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari (akademik litsey va kasb-hunar kollejlari) uchun tayanch o'quv rejasi davlat ta'lim standartining tashkiliy qismi hisoblangan asosiy me'yoriy hujjat bo'lib, u namunaviy va amaliy o'quv rejalarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tayanch o'quv rejasi davlat ta'lim standarti tarkibiy qismi sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining namunaviy o'quv rejalari tayanch o'quv rejasi asosida tuziladi va O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirliklari tomonidan tasdiqlanadi. Bu reja uzoq muddatga mo'ljallab tuziladi va uning asosida mavjud sharoitlarni hisobga olib ishchi o'quv rejalari ishlab chiqiladi.

O'quv rejasi – me'yoriy hujjat hisoblanib (ta'lim muassasasi sertifikati) quyidagilarni belgilaydi:

- o'quv yili, chorak (semestr)lar va ta'tillarning davomiyligi;
- ushbu ta'lim muassasasida o'rganiladigan o'quv fanlari tartibi;
- o'qish yillari bo'yicha fanlarni taqsimlash;
- har bir fan bo'yicha yaxlit ta'lim davri va har bir sinf (kurs)da fanlarni o'rganishga ajratilgan soatlar hajmi;
- har bir fanni o'rganishga ajratilgan haftalik soatlar hajmi;
- praktikumlar, ishlab chiqarish va pedagogik amaliyotlar hamda shu kabilarning davomiyligi.

O'quv rejasida, yana shuningdek**,** aniq bir o'quv muassasi xususiyatlarini aks ettiruvchi, o'quvchilarning erkin tanlovi bo'yicha fakultativ va majburiy mashg'ulotlar aks ettiriladi.

O'quv dasturi – muayyan o'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar mazmuni, umumiy vaqtni muhim bilimlarni o'rganilishi bo'yicha taqsimlash, mavzularning ketma-ketligini belgilash hamda ularning o'rganilish darajasini yorituvchi me'yoriy hujjat.

Dasturda o'quv materialining ta'limning har bir yili va har bir sinf, kurs bo'yicha taqsimlanishi tuzilishi asoslab berilgan. Dasturda ko'rsatilgan bilim, malaka va ko'nikmalarni o'quvchilar tomonidan to'la o'zlashtirilishi o'qitish jarayoni muvaffaqiyatliligi va samaraliligi mezonlaridan biri hisoblanadi.

O'quv dasturlari namunaviy, ishchi va mualliflik bo'lishi mumkin.

Namunaviy o'quv dasturi u yoki bu ta'lim sohasiga nisbatan davlat ta'lim standartlari talablari asosida ishlab chiqiladi. O'quv dasturlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- ushbu fanni o'rganish maqsadlari, o'quvchilarning bilim va malakalariga asosiy talablar, o'qitish tavsiya etiladigan shakl va metodlari haqidagi tushuntirish xati;
- o'rganilayotgan materialning tematik mazmuni;
- kursning alohida savollarini o'rganishga o'qituvchi sarflaydigan taxminiy soatlari hajmi;
- dunyoqarashni shakllantiruvchi asosiy savollari ro'yxati;
- fanlararo va kurslararo bog'liqlikni amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar;
- o'quv uskunalari va ko'rgazmali qo'llanmalar ro'yxati;
- tavsiya etiladigan adabiyotlar.

Namunaviy o'quv dasturlari Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirliklari tomonidan tasdiqlanadi, tavsiyanoma xususiyatiga ega bo'ladi. Namunaviy dastur asosida maktab, akademik litsey pedagogik kengashi tomnidan ishchi o'quv dasturlari ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi. Namunaviy dasturdan farqli ravishda ishchi dasturda regional komponenti ta'riflanadi, o'quv jarayonini metodik, informatsion, texnik ta'minlash imkoniyati, o'quvchilarning tayyorgarligi darajasi hisobga olinadi.

Mualliflik o'quv dasturlari davlat standarti talablarini hisobga olgan holda o'quv fanini qurilishi boshqacha mantiqidan iborat bo'lishi, u yoki bu nazariyalarni o'rganishga mualliflik yondashuvi, o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarga nisbatan mualliflik nuqtai nazarini aks ettirishi lozim. Bunday dasturlar ushbu fan sohasida pedagog, psixolog, metodistlarning tashqi retsenziyalariga ega bo'lishi kerak va ular mavjud bo'lganida maktab, akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlarining Pedagogik Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Mualliflik o'quv dasturlari o'quvchilarning erkin tanlovi bo'yicha (majburiy va fakultativ) kurslar tashkil etishda keng foydalaniladi.

O'quv fani ta'lim muassasalarida o'quvchilarning yosh, idrok etish imkoniyatlariga muvofiq ularga muayyan fan sohasi bo'yicha umumiy yoki mutaxassislik bilimlarini berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni ta'minlovchi manbadir.
O'quv fanining mazmuni har bir pedagog tomonidan ixtiyoriy belgilanmaydi, balki ijtimoiy hodisa sifatida ta'limning tarixiy rivojlanishi davomida ishlab chiqiladi. O'rta maktab, akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'quv fanlarini ilmiy bilimning umumiy tuzilishiga mos ravishda shakllantirish kerak deb hisoblovchi nuqtai nazar eng keng tarqalgan va tan olingan hisoblanadi.
Ta'lim mazmuni va o'quv dasturlari o'quv adabiyotlarida loyihalashtiriladi. Bunday adabiyotlar sirasiga darsliklar va o'quv qo'llanmalari kiradi.
O'quv adabiyotlari orasida darslik alohida o'rin tutadi. Darslik muayyan o'quv fani bo'yicha ta'lim maqsadi, o'quv dasturi va didaktik talablarga muvofiq belgilangan ilmiy bilimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni beruvchi manba bo'lib, u mazmuni va tuzilishiga ko'ra fan bo'yicha yaratilgan o'quv dasturiga mos keladi. Namunaviy o'quv dasturlari asosida yaratilgan darsliklar maqsadga muvofiq holda Respublika Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirliklari tomonidan barcha maktablar, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari uchun tavsiya etiladi. G'oyaviy va metodik jihatdan mukammal bo'lgan darslik ta'lim mazmuniga qo'yiladigan barcha talablarga javob bera olishi, o'quvchilar uchun qiziqarli, iloji boricha qisqa, tushunarli, ko'rgazmalilik nuqati nazaridan estetik xususiyatga ega bo'lishi kerak.
Darslik bir vaqtning o'zida ham barqaror, ham qulay tarkibiy tuzilmaga ega bo'lishi kerak. Darslik barqarorligiga ko'ra mustahkam asosga ega, mobilligiga ko'ra ega asosiy tuzilmaga dahl etmagan holda yangi bilimlarni tezlikda kiritish imkoniyatini namoyon etadi. Ularga qo'yiladigan talablar turli-tuman va qarama-qarshi bo'lib, mukammal darsliklarning etishmovchiligi doimo his etiladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda muqobil, parallel darsliklar nashr etiladi, shu sababli o'qituvchilar va o'quvchilar ular orasidan eng yaxshilarini tanlab olish imkoniyatiga egalar.
Darslik o'quvchilarning ta'lim jarayonida ongli ravishda va faol ishtirok etishlari, o'quv materialini to'la o'zlashtirishlarini ta'minlashi kerak. Ana shu masalalarni hal etish yo'lida darsliklar quyidagi vazifalarni bajaradi:
1) motivatsion vazifa - bu vazifa o'quvchilarni ushbu fanni o'rganishga yo'naltiradigan, ularda ishga pozitiv munosabati va qiziqishini shakllantiruvchi rag'bat (sabab)larni hosil qilishdan iborat;
2) axborot vazifasi o'quvchilarga axborotlarni etkazish, samarali usullar yordamida ularning bilimlari hajmini kengaytirishga imkon beradi;
3) nazorat-tuzatish (mashq qilish) vazifasi – ta'lim jarayoni, uning natijalarini tekshirish, o'quvchilarda o'zini baholash va tuzatish layoqati hamda zarur bo'lgan ko'nikma, malakalarni shakllantirish uchun o'rganish mashqlarini tavsiya etishni nazarda tutadi.
4) muvofiqlashtirish vazifasi material ustida ishlash jarayonida ta'limning boshqa vositalari (xaritalar, ko'rgazmali materiallar, diapozitiv va boshqalar)ni jalb etishni ifodalaydi;
5) rivojlantiruvchi –tarbiyalovchi vazifasi darslik mazmunining o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy ta'sir ko'rsatishi, kitoblar bilan ishlash jarayonida ulardan mehnatsevarlik, faol fikrlash, ijodiy qobiliyat kabi sifatlarni shakllantirishdan iborat;
6) o'qitish vazifasi darslik bilan ishlashda mustaqil bilim olish uchun zarur bo'lgan konpekt yozish, umumlashtirish, asosiysini ajratib ko'rsatish, mantiqiy eslab qolish kabi malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berishida ko'zga tashlanadi.
Ta'lim mazmuni o'quv materiali darajasida darsliklar bilan bir qatorda turli xil o'quv qo'llanmalari: adabiyot va tarix xrestomatiyalari, spravochniklar, matematika, fizika, ximiya bo'yicha masalalar to'plamlari, georafiya, biologiya bo'yicha atlaslar, til bo'yicha mashqlar to'plamlari va boshqalarda ochib beriladi. O'quv qo'llanmalari darslikning ba'zi tomonlarini kengaytiradi va aniq masalalarni hal etish maqsadiga ega bo'ladi (axborot, mashq qilish, tekshirish).

Nazorat savollar:

1. O'quv rejalarining turlarini ayting, akademik litsey o'quv rejasini ta'riflab bering.
2. O'quv dasturlarining qanday turlari mavjud?
3. Mutaxassislik fani bo'yicha darsliklar bilan tanishib chiqing. Quyidagi savollar bo'yicha uni ta'riflab bering: a) darslikda kitobning mazmuni, maqsad va vazifalari; b) kirish so'zining mavjudligi; v) kitob bilan ishlash davomida o'quvchilarni faollashtirish yo'lida foydalanilgan

usullar; g) kitobning ko'rgazmali materiallari, ularning darslik matni bilan bog'langanligi; d) paragraf yoki bo'lim oxirida rezyume yoki xulosalarning mavjudligi; j) kitobning tashqi ko'rinishi (qog'ozi, shrifti, asmlari, muqovasi).

4-savol bayoni.

Davlat ta'lim standarti. Ta'lim mazmunining rivojlanishida ko'zga tashlanayotgan zamonaviy tendentsiyalaridan biri uni standartlashtirish (davlat miqyosida yagona qoidalar va talablar o'rnatilishi) hisoblanadi. Standartlashtirishda quyidagi ikki omil muhim ahamiyatga ega:

1) turli ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlarning umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar bilimlar hajmining bir xillik darajasini ta'minlovchi mamlakatda yagona pedagogik muhitni yaratish zarurligi;

2) O'zbekistonning jahon hamjamiyati tizimiga kirishi natijasida xalqaro ta'lim amaliyotida umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi mazmunini rivojlanishi tendentsiyalarining hisobga olinishi.

Davlat ta'lim standarti:

1) ta'lim olish shaklidan qat'iy nazar bitiruvchilar erishishlari kerak bo'lgan ta'lim darajasini belgilovchi asosiy hujjat;

2) o'quv fani bo'yicha yakuniy ta'limning yakuniy natijalarini belgilovchi asosiy hujjat;

3) ta'lim dasturlari mazmunining minimumi, o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'quv ishlarining maksimal hajmi, shuningdek, bitiruvchilarning tayyorgarlik darajalariga qo'yiluvchi talablarni belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni bilan bir qatorda ta'lim standarti asosiy me'yoriy hujjat hisoblanadi. «Standart» ingliz tilidan tarjima qilinganda «me'yor», «namuna», «andoza», «model» ma'nolarini anglatadi. Standart yordamida respublika miqyosidagi turli ta'lim muassasalarida ta'limning barqarorlik darajasini ta'minlashga erishiladi, o'quv ishlari normativlari moslashtiriladi, o'quvchilarning bilimlarini baholash mezonlari ishlab chiqiladi. O'quvchi davlat tomonidan belgilangan ta'lim standarti bilan cheklanishlari mumkin, yoki bilimlarni yanada chuqurroq egallab olish maqsadida mustaqil shug'ullanish imkoniyatiga ega. Uning uchun qiyin bo'lgan yoki qiziqarli bo'lmagan fanni o'rganishda o'quvchiga standartga kiritilgan normativ minimum bilan cheklanish imkoniyati beriladi.

Ushbu holatda o'quvchi o'ziga mos keladigan ta'lim yo'lini anglagan holda va mustaqil tanlab, o'z qiziqishlari, istagi, qobiliyatlari va intilishlarini amalga oshirishga imkoniyatga ega bo'ladi. Shakli va mazmuni bo'yicha tushunarli ifoda etilgan standart talablari oldindan o'quvchilarga va ularning ota-onalariga etkaziladi.

Ta'limni standartlashtirish dunyoning rivojlangan mamlakatlarida allaqachon o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqish, ta'lim ma'lum darajasini belgilab bilan amalga oshiriladi. Ammo "standart" termini o'zi ta'limga nisbatan yaqin davrlardan qo'llanila boshlangan. Davlat ta'lim standartlari ta'lim sifatini oshirishga imkon beradi. Ular ta'lim mazmuni minimal hajmini qayd etish va ta'lim darajasining quyi chegarasini belgilab beradi.

Ta'lim standartini kiritishdan avval bunday majburiy qoidalar mavjud emas edi. O'zlashtirishning aniq belgilangan chegaralari yo'qligi XX asrning 80-yillarida ko'pchilik bitiruvchilarining haqiqiy bilim darajalari juda past bo'lishiga olib keldi.

Davlat ta'lim standartlarini yaratish bo'yicha ishlar O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunini (1992 yil) qabul qilingandan keyin boshlandi. Mazkur hujjatning 6-bandida jahon ta'limi amaliyoti me'yorlariga mos keluvchi davlat ta'lim standartlarini yaratish zarurligi ta'kidlab o'tiladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning IX sessiyasida (1997 yil) O'zbekiston Respublikasining yangi tahriridagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni qabul qilingandan so'ng ta'lim dasturlari yangi avlodi yaratildi. Jahon amaliyoti tajribasi asosida yaratilgan ta'lim standartlari har bir fan bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilimlarning minimal darajasini belgilashga imkon berdi.

Davlat ta'lim standartlari tarkibiy tuzilishiga ko'ra quyidagilardan iboratdir:

1. Ta'limning yangi yoki aniqlashtirilgan maqsadlari, fanning o'rganish ob'ektlari va asosiy mazmunli yo'nalishlari ko'zda tutiladigan o'quv fanining umumiy ta'rifi.

2. O'quv fanining mazmuni, tayanch (invariant) darajasini tasvirlash.

3. Ta’limning majburiy natijalarini ifodalash, ya’ni o’quvchilarning o’quv tayyorgarliklari zarur bo’lgan minimal darajasiga talablar.
4. Bilim, ko’nikma va malakalarga qo’yiluvchi talablar, bu ularning majburiy tayyorgarliklari darajasining “o’lchamidir”, ya’ni, tekshirish ishlari, testlar va alohida topshiriqlarni bajarishlariga qarab o’quvchilar tomonidan talablarning majburiy darajasiga erishilganligi haqida fikr yuritish mumkin bo’ladi.

Nazorat savollar:

1. Ta’lim mazmunining mohiyati nimadan iborat?
2. Umumiy o’rta, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi mazmunini tanlab olish tamoyillarini ta’riflab bering.
3. Hozirgi bosqichda ta’lim mazmunini belgilash asosiy g’oyalarini (asoslarini) aytib bering.
4. Mutaxassislik fani bo’yicha umumiy o’rta, o’rta maxsus ta’limi davlat ta’lim standartini tahlil qilib bering.
5. O’quv rejalarining turlarini ayting, akademik litsey o’quv rejasini ta’riflab bering.
6. O’quv dasturlarining qanday turlari mavjud?
7. Mutaxassislik fani bo’yicha darsliklar bilan tanishib chiqing. Quyidagi savollar bo’yicha uni ta’riflab bering: a) darslikda kitobning mazmuni, maqsad va vazifalari; b) kirish so’zining mavjudligi; v) kitob bilan ishlash davomida o’quvchilarni faollashtirish yo’lida foydalanilgan usullar; g) kitobning ko’rgazmali materiallari, ularning darslik matni bilan bog’langanligi; d) paragraf yoki bo’lim oxirida rezyume yoki xulosalarning mavjudligi; j) kitobning tashqi ko’rinishi (qog’ozi, shrifti, asmlari, muqovasi).

Asosiy adabiyotlar

1. Pedagogika. G’G’ M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O’zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Ibragimov X.I.., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.
3. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. – T.: TDPU, 2012.
4. Yuzlikaeva E., Madyarova S., Yanbarisova E., I.Morxova. Teoriya i praktika obhey pedagogiki. – T.: TGPU, 2014.
Principles of Learning and Teaching. Effective pedagogy. P – 12.
Leadership guide.Senior leaders, subject leaders and teachers in secondary schools.
Pedagogy and Practice:Teaching and Learning in Secondary chools . Status: Recommended Date of issue: 09-2004. Ref: DfES 0444-2004 GGuidance.

Qo’shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta`minlash taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. “O`zbekiston”. 2017
2. Xasanboev J, To’rakulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug’at. – T.: Fan va texnologiya, 2008 .
Elektron ta’lim resurslari
1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. Uz

MAVZU: TA’LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI VA TURLARI

Asosiy savollar:

Ta’limni tashkil etish shakllari tu-shunchasi va ta’lim turlari.
Darsning turlari va tuzilishi. Nostandart darslar.
Ta’limni tashkil etishning yordamchi shakllari.
O’qituvchining darsga tayyorlanishi.

Tayanch tushuncha va iboralar: Dars, dogmatik o`qitish, muammoli ta`lim, mujasssamlashtirish, rivojlantiruvchi ta`lim, mustaqil ta`lim, hamkorlik ta`limi, individual ta`lim, faol o`qitish, kompyuter ta`limi, dasturiy ta`lim, modul ta`limi, faol o`qitish.

1-savol bayoni.

Didaktik g'oyalar (tizimlar) tarixiy taraqqiyot jarayonida yangi g'oyalar bilan boyib davr talabiga mos keluvchi tizimlarga aylanadi. Didaktik tizimlarning ketma-ketligi o'qitish nazariyasi va amaliyotining umumiy qonuniyatidir.

Ta'lim turlari (yunoncha «species» alohida, o'ziga xos xususiyatga ega) o'quv jarayonini tashkil etish va amalga oshirishga nisbatan turlicha yondashuvdir. Pedagogik tizimlarning asosiy turlari quyidagilardir:

- arxaik (ibtidoiy);
- qadimgi (Shumer, Misr, Xitoyda eramizdan avvalgi uchinchi ming yillik);
- avestiy (Baqtriya, Sug'diyona, Xorazmda – eramizdan avv. VII-VI asrlar);
- yunon (Ellins, rim-yunon, rim – eramizdan avv. V-I asrlar);
- o'rta asr (dogmatik, sxolastik V-XVI asrlar);
- yangi (tushuntirish, tushuntirish-ko'rgazmali, dasturlashtirilgan, masofali o'qitish muammoli-dasturlashtirilgan, kompyuterlashtirilgan innovatsion);
- xorijiy (tushuntirish, tushuntirish-ko'rgazmali, dasturlashtirilgan, muammoli-dasturlashtirilgan, kompyuterli o'qitish, masofali, Internet yordamida o'qitish va shu kabilar).

Avesto g'oyalariga ko'ra shakllangan pedagogik tizim eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda Markaziy Osiyo xududida zardushtiylik dini yuzaga kela boshlaganda tashkil topdi. "Avesto" zardushtiylik muqaddas manbai bo'lib, u o'z davrining entsiklopediyasi hisoblagan. "Avesto" g'oyalariga binoan bolalar va yoshlarni o'qitish hamda tarbiyalash quyidagilardan iboratdir:

1) diniy va ma'naviy tarbiyalash;
2) jismoniy tarbiya;
3) o'qish va yozishga o'rgatish.

Yoshlarni tarbiyalashda ona erga, atrof-muhit, tabiatga muhabbat hissini uyg'otish muhim yo'nalish hisoblangan. "Avesto"da barkamol shaxs obrazi haqida aniq tasavvurlar ifoda etilgan.

Muntazam o'qitishning ilk turi qadimgi yunon faylasufi Sukrot (eramizdan avvalgi 469-399 er. avv. yillar) va uning o'quvchilari tomonidan keng qo'llagan yordamchi savollarga javob topish metodi hisoblanadi. Bu metod suqrotcha suhbat metodi nomini olgan. O'qituvchi (faylasuf) o'quvchida qiziqish, bilishga intilishni uyg'otadigan savoldan foydalanadi, mulohaza yuritish asosida o'quvchini voqea-hodisalarning mohiyatini idrok etishga undaydi. O'qituvchining mulohazasi ko'pincha ritorik savollarni muhokama qilish bilan to'ldirilib turiladi. Suqrotcha suhbatlar bir yoki bir necha o'quvchilar ishtirokida tashkil etiladi.

Dogmatik o'qitish – jamoa asosida idrok etish faoliyatining ilk turi bo'lib, o'rta asrlarda keng tarqalgan. O'rta asrlarda G'arbiy Evropada dogmatik o'qitishda lotin tili, Markaziy Osiyo mamlakatlarida esa arab tili etakchi o'rin tutgan. Musulmon pedagogik kontseptsiyasi sezilarli intellektuallik xususiyatiga ega bo'lgan. Komillikka bilimlaridan faol foydalana oladigan odamgina erishishi mumkin deb hisoblangan. "Haqiqiy g'oyalar" (Abu Ali Ibn Sino. «Donishnoma» G'«Bilimlar kitobi»), haqiqiy bilimlarni o'zlashtirishga ikki to'siq xalaqit qiladi: so'zlarining aniq va fikrlarining tushunarli emasligi. Mazkur kamchilikni bartaraf etishda logika alohida o'rin egallaydi. Musulmon mamlakatlarida bolani o'qitish va tarbiyalashda u tomonidan Qur'onning arab tilida yod olinishi bilim eshallashning asosiy shart hisoblangan. Bundan tashqari XV-VII asrlarda bir qator maktablarda fors tili ham o'rgatilgan. Asosiy ta'limni bolalar maktablar – boshlang'ich maktabda olganlar (muqaddas kitobni o'qish va talqin qilish mashg'ulotlari, o'qish, yozish va hisobga o'rganganlar). Dogmatik o'qitishda o'quvchilarning asosiy faoliyatlari tinglash, o'qish, yod olish, eslab qolish va matnni so'zma-so'z takrorlashdan iborat bo'lgan.

Oliy ta'lim madrasalarda berilgan. Movarounnahrdagi eng yirik o'quv maskanlari sirasiga Samarqand, Buxoro, Urganch va G'ijduvondagi madrasalarni kiritish mumkin. Bu ma'rifiy markazlarining rivojlanishi XV-VII asrlarga to'g'ri kelgan. Madrasalarda o'qitish fors tillarida olib borilgan. Talabalar majburiy tarzda arab tilini ham o'rganganlar. O'quv rejasiga grammatika, Qur'on, Hadis, ritorika, logika, metafizika, geologiya, adabiyot, huquqshunoslik kabi fanlar kirgan.

O'qitish asosan og'zaki shaklda olib borilgan. Biroq talabalar foydalangan o'quv adabiyotlari asta-sekin ancha ko'p qirrali, turli-tuman bo'lib boradi. Maktab ta'limi erkaklar uchun mo'ljallangan. Ammo har bir badavlat oila qiz bolani o'qitish uchun uyga o'qituvchini taklif etgan.
Dogmatik o'qitish o'rniga asta-sekin o'quv jarayonida ko'rgazmalilikni keng jalb etish natijasida tushuntirish, tushuntirish-namoyish etish kabi ta'lim shakllari qo'llanila boshlandi.
Ayni vaqtda respublika hududida faoliyat yuritayotgan zamonaviy ta'lim muassasalarida ta'limning eng muhim quyidagi uch turidan foydalanilmoqda:
- tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta'lim (u an'anaviy yoki axborot beruvchi ta'lim ham deb ataladi);
- muammoli o'qitish;
- dasturlashtirilgan ta'lim yoki kompyuterli o'qitish.

Bugungi kunda o'rta asrda keng qo'llanilgan ta'lim turlari – dogmatik va sxolastik o'qitish elementlari ham saqlanib kelinmoqda.
Tushuntiruvchi-namoyil etuvchi ta'lim nomidan mohiyati anglanib turibdi. Ko'rgazmalilik asosida tushuntirishning asosiy metodlari tinglash va eslab qolish sanaladi.
Tushuntiruvchi-namoyish etuvchi ta'lim turi vaqtni tejash, o'qituvchi va o'quvchilarning kuchlarini asrash, qiyin bilimlarni tushunishni osonlashtirish, ta'lim jarayonini ancha samarali boshqarishni ta'minlaydi. Biroq muayyan kamchilikka ham ega, ya'ni, "tayyor" bilimlarni berish va o'quvchilarni bilimlarni o'zlashtirishda mustaqil hamda mahsuldor fikrlashdan ozod etish, o'quv jarayonini individuallashtirish, differentsatsiyalashtirish imkoniyatlarining kamligi..
Muammoli o'qitishda o'quv muammolarini hal etish jarayonida bilimlarni mustaqil egallash, o'quvchilarning ijodiy fikrlashlari va idrok etish faoliyatlarini rivojlantirish yo'li bilan ta'lim tashkil etiladi. Uning texnologiyasi turli-tumanligi bilan ajralib turmaydi, chunki o'quvchilarni faol idrok etish faoliyatiga jalb etish bir necha bosqichlardan iborat bo'ladi. Ular ketma-ket tartibda va kompleks amalga oshirilishi kerak.
Bunday o'qitishda muammoli vaziyatni yaratish muhim bosqich hisoblanadi. Bunday vaziyatda fikrlash jarayonida qiyinchilik his etiladi. O'quv muammosi bir qadar qiyin, lekin o'quvchilarning kuchi etadigan bo'lishi kerak. Muammoni ilgari surish bilan birinchi bosqich yakunlanadi. Muammoni hal etishning keyingi bosqichida o'quvchilar savol bo'yicha mavjud muammoni ko'rib chiqadilar, tahlil qiladilar, javob topish uchun ularning etarli emasligini aniqlaydilar va etishmayotgan axborotni topishga intiladilar. Uchinchi bosqich muammoni echish uchun zarur bo'lgan bilimlarni turli usullar bilan egallashga qaratilgan. U hayoliga birdan fikr kelishi bilan yakunlanadi ("Men nima qilishni bilaman!"). Shundan keyin muammoni hal etish, olingan natijalarni tekshirish, dastlabki gipoteza bilan solishtirish, olingan bilimlar, malakalarni tizimlashtirish va umumlashtirish bosqichlari keladi.
Muammoli topshiriqlar savollar, o'quv masalalari, amaliy vaziyatlardan iborat bo'lishi mumkin. Muammoli savolda izlash va javoblar turli variantlari ko'zda tutiladi, ya'ni, oldindan tayyor javob bu erda mumkin emas. Muammoli savolga misool: "Nima uchun temirdan yasalgan mix suvda cho'kadi, temirdan yasalgan kema esa cho'kadi?".
Muammoli masala uni echish yo'llarini mustaqil izlashga intilishni yuzaga keltiruvchi o'quv-o'rganish topshirig'idir. Muammoli masala asosini mavjud bilimlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklar tashkil etadi. Muammoli masalaga misol: "2Q5*3q21 tengligi to'g'ri bo'lishi uchun qanday amallarni bajarish kerak?".
O'qish jarayonida muammoli vaziyat sub'ekt (o'quvchi) o'zi uchun qiyin bo'lgan masalani echishni istashi, lekin unga ma'lumotlar etishmasligi va u o'zi ularni izlashi zarurligini ko'zda tutadi. Muammoli vaziyatga misol: "6 ta gugurt qutisidan tomonlari bir gugurt qutisi kattaligiga teng 4 ta bir xil tomonli uchburchaklar yasang".
Muammoli o'qitishning afzalliklari: shaxsiy ijodiy faoliyatini tashkil etish asosida bilimlarni mustaqil egallash, o'qishga qiziqishni uyg'otish, mahsuldor fikrlashini rivojlantirish, o'qitishning mustahkam va amaliy natijalari. Kamchiliklari o'quvchilar idrok etish faoliyatlarini boshqarishning qiyinligi, muammoni qo'yish va hal etish uchun ko'p vaqt sarflanishi, muammoli vaziyatni yaratish va mustaqil echish imkoniyatini har bir o'quvchiga taqdim etishning qiyinligi bilan belgilanadi.
Dasturiy ta'lim (dasturlashtirilgan o'qitish) harakat (operatsiya)lar ketma-ketligi tizimini ifodalovchi, ularni bajarish ilgaridan rejalashtirilgan natijaga olib keluvchi "dastur" terminidan

kelib chiqadi. Ushbu turning asosiy maqsadi o'quv jarayonini boshqarishni yaxshilashdan iborat. Bunday o'qitish asosini kibernetik yondoshish tashkil etadi. Unga binoan o'qitish murakkab dinamik tizim sifatida qaraladi. Dasturiy ta'lim yangi didaktik, psixologik va kibernetik g'oyalar asosida XX asrning 60-yillari boshlarida yuzaga keldi. U o'quvchining bilim egallashi yo'lida har bir qadamni nazorat qilishga imkon beradigan va shuning asosida o'z vaqtida yordam ko'rsatish, qiyinchiliklarini oldini olish, qiziqishini yo'qotmaslik va salbiy oqibatlarning oldini olishga imkon beruvchi o'quv jarayonining texnologiyasini yaratishga yo'naltiradi.

Dasturiy ta'limning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- o'quv materialining alohida qismlarga ajratilishi;
- o'quv jarayonining bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha bilimlar portsiyalari va fikrlash amallaridan iborat bo'lgan ketma-ket qadamlardan iborat bo'lishi;
- har bir qadamning nazorat bilan yakunlanishi (savol, topshiriq va shu kabilar);
- nazorat topshiriqlarini to'g'ri bajarganida o'quvchining yangi materiallarni olishi va navbatdagi qadamni bajarishi;
- to'g'ri javob topganda o'quvchining yordamchi va qo'shimcha tushuntirishlarni olishi;
- har bir o'quvchining mustaqil ishlashi, kuchi etadigan mavzu bo'yicha o'quv materialini egallaishi;
- barcha nazorat topshiriqlari bajarilish natijalarining qayd etilishi (ular o'quvchilarning o'zlariga (ichki qayta aloqa) va pedagogga (tashqi qayta aloqa) ma'lum qilinadi);
- o'qituvchining ta'lim tashkilotchisi va qiyinchilik yuzaga kelganda yordamchi (maslahatchi) sifatida ishtirok etishi, individual yondoshuvning amalga oshirilishi;
- ta'lim jarayonida o'qitishning o'ziga xos vositalarining keng qo'llanilishi (dasturlashtirilgan o'quv qo'llanmalari, trenajerlar, nazorat qilish qurilmalari, o'qitish mashinalari).

Kompyuterli ta'lim. O'qitish sohasida jahon didaktikasining muhim tajribasi - shaxsiy elektron-hisoblash mashinalari (ShEHM) rivojlanishi kompyuterli (kompyuterlashtirilgan) ta'limning shakllanishiga imkon berdi. Maxsus ta'lim dasturlari bilan ta'minlangan kompyuterlarni deyarli barcha didaktik masalalar: axborotni berish, o'qitish jarayonini boshqarish, natijalarini nazorat qilish va tuzatib borish, mashqlarni bajarish, o'quv jarayoni rivojlanishi haqida ma'lumotlarni to'plash va boshqalarni hal etishga moslashtirish mumkin.

Rivojlangan mamalakatlarda kompyuterlardan ta'limdan foydalanishning keng rivojlanishi bu boradagi quyidagi asosiy yo'nalishlarni aniqlashga imkon berdi:

- alohida o'quv fanlari (matematika, tabiiy fanlar, ona tili, chet tili, georafiya va boshqalar) bo'yicha o'zlashtirish darajasini oshirishni ta'minlash;
- umumiy kognitiv (idrok etish) qobiliyatlari – qo'yilgan masalani hal etish, mustaqil fikrlash, kommunikativ malakalarni egallash (axborotni to'plash, analiz, sintez qilish)ni rivojlantirish, u yoki bu ko'nikmani shakllantirishga imkon beruvchi jarayonlarga e'tiborni kuchaytirish.

Bundan tashqari kompyuterlardan avtomatlashtirilgan test sinovlari o'tkazish, baholash va boshqarishda keng foydalaniladi, bu o'qituvchi vaqtini tejashga imkon beradi, natijada pedagogik jarayonning samaradorligi oshadi.

Dasturiy va kompyuterli ta'limlar o'qitish algoritmlarini ajratishga asoslanadi. Algortm to'g'ri natijaga olib keluvchi ketma-ket amallar tizimi sifatida bilim, ko'nikma va malakalarni to'la o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan o'quv faoliyati tartibi va ketma-ketligini o'quvchiga ko'rsatadi. O'quv dasturlari va kompyuterli ta'limning samaradorligi fikrlash faoliyatini boshqarish algoritmlarining sifatiga bog'liq. Yomon tuzilgan algortmlar kompyuterli o'qitishning sifatini keskin pasaytiradi.

Kompyuterli ta'limning sifati quyidagi ikki asosiy omil bilan aniqlanadi:

1) o'qitish dasturlarining sifati;
2) hisoblash texnikasining sifati.

Bu sohada ham muayyan muammolar mavjud, ya'ni, o'quvchilarning idrok etish faoliyatini tashkil etish qonuniyatlarini hisobga olgan holda yaratilgan ta'lim dasturlari hozircha juda kam, ularni tuzib ishlab chiqish ko'p vaqt va kuch talab etiladi, shu bois ularning narxi ham qimmat. Respublika ta'lim muassasalarida EHMlar soni va ulardan foydalanish ko'lami ortib va takomillashib bormoqda, biroq, bu sohada hali jahon tajribasidan ortda qolish holati bartaraf etilgani yo'q.

Ta’limni tashkil etish shakllari turli davrlarda turlicha bo’lgan. XVI-asrning oxiri va XVII-asrning boshlarida buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiy tarixda birinchi bo’lib maktab ta’limida sinf-dars tizimini yaratdi.
Sinf-dars tizimi sharq mamlakatlariga, jumladan Markaziy Osiyodagi eski musulmon maktablariga tatbiq bo’lmadi. Ularda oktyabr to’ntarishiga qadar o’rta asr maktablariga xos ta’lim tizimi davom etib keldi.

Sinf yoshi va bilimi jihatidan bir xil bo’lgan ma’lum miqdordagi o’quvchilar guruhidir. Dars deb bevosita o’qituvchining rahbarligida muayyan o’quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim mashg’ulotlariga aytiladi.

Dars- o’quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli.

Dars- o’quv ishlarining markaziy qismi.

Hozir maktablarimizda qo’llanilayotgan sinf- dars tizimi quyidagi tashkiliy shakllarda olib boriladi:

1. Har qaysi sinf yoshi va bilimiga ko’ra bir xil darajadagi bolalarning doimiy guruhiga ega bo’ladi.

2. Dars mashg’uloti asosan 45 daqiqaga mo’ljallangan bo’lib, qat’iy jadval asosida olib boriladi.

3. Dars bevosita o’qituvchining rahbarligida jamoa va yakka shaklda olib boriladi.

4. Dars o’tilayotgan materialning mazmuniga qarab xilma-xil usul bilan olib boriladi, ta’lim tizimining bir qismi sifatida albatta tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni o’zlashtirish uchun zamin yaratadigan qilib uyushtiriladi.

Ayni paytda, maktablarimizda ta’limni tashkil qilish shakllari ikki turda olib borilmoqda:

1. Sinf-dars shaklidagi olib boriladigan mashg’ulotlar.

2. Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashg’ulotlar.

Sinf-dars shaklida olib boriladigan mashg’ulotlar o’qituvchining kundalik o’quv materialini tizimli bayon qilib berishni, xilma-xil usullardan foydalanishni, o’quvchilarning bilim, ko’nikma va malakalarini izchillik bilan hisobga olib borishni o’quvchilarni mustaqil ishlarga o’rgatishni o’z ichiga oladi.
Amaliy va tajriba ishlari shaklida olib boriladigan mashg’ulotlar sinf sharoitidan tashqarida, o’quv ustaxonasi, tajriba uchastkalari va maydonlarida ishlash, ekskursiyalar o’tkazish yo’li bilan olib boriladi.

Nazorat savollari:

Turli davrlardagi olimlarning ta’limni tashkil etish yuzasidan qarashlarini o’rganib chiqing.
Sinf-dars tizimi ta’limni tashkil etishning asosiy shakli sifatida ekanligini izohlang.
Ta’limni tashkil etishning qo’shimcha shakllari va ularning ahamiyatini aytib bering.

2- savol bayoni.

Sinf-dars shaklidagi dars turlari va ularning tuzilishini quyidagicha izohlashimiz mumkin:
1 soatlik darsga mo’ljallangan dastur materiallarining mazmunini bayon qilish uchun didaktik maqsad va talabalarga muvofiq ravishda tashkil qilingan mashg’ulot turi **dars turlari** deb yuritiladi.
Ta’lim tizimida eng ko’p qo’llaniladigan dars turlari quyidagilardir:

1. Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.
2. O’tilgan materiallarni mustahkamlash darsi.
3. O’quvchilarning bilim, malaka va ko’nikmalarini tekshirish va baholash darsi.
4. Takroriy-umumlashtiruvchi va kirish darslari.
5. Aralash dars (yuqoridagi dars turlarining bir nechtasi birga qo’llanilishi)

Ma’lum bir dars turi bilan olib boriladigan mashg’ulotlarda ikkinchi, hatto uchinchi bir dars turining unsurlari bo’lishi mumkin.
Masalan, maktablarimizda eng ko’p qo’llaniladigan dars turlaridan biri yangi bilimlarni bayon qilish darsidir. Bu dars turi quyidagicha tuziladi:

a) Yangi bilimlarni bayon qilish.
b) Yangi bilimlarni mustahkamlash.
v) Yangi bilimlar ustidan mashq qilish.

g) Yangi bilimlarga bog'liq holda uy vazifalarini topshirish.

Demak, dars boshdan-oyoq bir dars turi bilan olib borilmaydi, balki shu darsda yangi bilimlarni bayon qilish bilan birga uni mustahkamlash, yangi bilimlar ustidan mashq o'tkazish uyga vazifa kabi boshqa unsurlarning bo'lishi ham mumkin. Shunga qaramay, darsdan ko'zlangan maqsad o'quvchilarga yangi bilim berishga qaratilgan bo'lsa, butun didaktik usullar shunga bo'ysundiriladi. Shuning uchun ham bunday dars yangi bilim berish darsi deb ataladi.

Ma'lum dars turi bilan ish olib borilayotganda boshqa bir unsurlari asosiy dars turidan o'rin olishi va ayni paytda asosiy dars turining tuzilishini tashkil qilishi mumkin. Demak, dars tuzilishi u yoki bu dars turining tuzilishini, uning qismlarini anglatadi.

Nostandart darslar**.** XX asr 70-yillari o'rtalarida milliy maktablarda o'quvchilarning mashg'ulotlarga qiziqishlarining pasayish xavfi aniqlandi. Muammoni bartaraf etish maqsadida nostandart darslarning tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratildi. Nostandart dars an'anaviy tuzilishdagi improvizatsion o'quv mashg'ulotidir.

Pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish nostandart darslarning o'nlab turlari mavjudligini ko'rsatdi. Ular orasida "berilish" darsi, amaliy o'yinlar, matbuot konferentsiyalari, ijodiy hisobotlar, musobaqalar, KVN turidagi o'yinlar, tanlov, teatrlashtirilgan darslar, binar, kompyuterli darslar, fantaziyalar, "sudlar", haqiqatni izlash, "paradokslar", auktsionlar, dialoglar

Nazorat savollari:

1. Dars turlarini tahlil qiling.
2. Har bir darsning tarkibiy qismlarini o'rganib chiqing. Ular o'rtasidagi bog'liqlikni bayon qiling.
3. Dars bosqichlarini izohlang.
4. Har bir bosqich keyingisidan nimasi bilan farq qilishini ifodalab bering.

3-savol bayoni.

Ta'limning yordamchi shakllari. Ta'limning yordamchi shakllari: to'garak, praktikum, seminar, konferentsiya, maslahat (konsultatsiya), fakultativ mashg'ulot, o'quv ekskursiyalari, o'quvchilarning mustaqil uy ishlari va boshqalar sanaladi.

Maktabdan tashqari mashg'ulotlarning asosiy va barqaror turlariga o'qish jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaraladigan, o'quvchilarning mustaqil uy ishlari kiradi. Uning asosiy maqsadi – darsda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarini kengaytirish, chuqurlashtirish, ularni esdan chiqarishning oldini olish, o'quvchilarning individual layoqati, iste'dod va qobiliyatini rivojlantirishdan iborat. Bu ishlar o'quv dasturi talablari, o'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlari hamda ularning rivojlanish darajalarini hisobga olib quriladi. O'quvchilarning mustaqil uy ishlari ma'lum didaktik vazifalarni bajaradi. Chunonchi, darsda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, sinfda ishlab chiqilgan o'quv materialini kengaytirish va chuqurlashtirish, mashqlarni mustaqil bajarish ko'nikmalarini shakllantirish, dasturli material doirasiga kiruvchi hajmda individual topshiriqlarni bajarish asosida mustaqil fikrlashini rivojlantirish, individual kuzatishlar, tajribalar, gerbariy, tabiiy namunalar, otkritkalar, rasmlar, gazeta va jurnal lavhalari statistik ma'lumotlar kabi o'quv qo'llanmalarini to'plash va tayyorlash va boshqalar.

Darslarda pedagogning o'quvchilar tomonidan uy vazifalarining halol bajarishlariga kam e'tibor berayotganliklari, ularni sinfda tekshirishga uninmasliklari, yaxshi o'zlashtirayotgan o'quvchilarni rag'batlantirib bormasliklari ta'lim amaliyotda keng tarqalgan kamchilik hisoblanadi. Uy vazifalarini tushuntirib berishga ko'pincha vaqt etmaydi, ular shoshilinch beriladi. Pedagoglar kamdan-kam hollarda o'quvchilar uy vazifasini bajarayotganda duch keladigan qiyinchiliklarini ko'rsatib beradilar, ularni bartaraf etish yo'lini esa ko'rsatmaydilar. Natijasida mustaqil uy vazifalarining bajarilishi samarasiz bo'lib qoldi.

Fan to'garaklari yo'nalishi, mazmuni, ish metodi, o'qish vaqti va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Ular o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish, o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.. To'garaklar o'qishni hayot bilan aloqasini kuchaytiradi, fanlararo bog'liqlikni rivojlantiradi. Fan to'garaklarida o'quvchilarning ishlari o'quv jarayonini faollashtiradi, o'qish sifatini oshirishga yordam beradi.

Ta'limning yordamchi shakllariga ekskursiyalar ham kiradi. Ular ommaviy, guruhli va kichik guruhli bo'lishi mumkin. O'quv ekskursiyalari alohida fanlar hamda bir qancha fanlar bo'yicha ham rejalashtiriladi. Ekskursiyani muvaffaqiyatli o'tkazish uchun o'qituvchi unga puxta tayyorlanishi: ob'ekt va mashrut bilan oldindan tanishib chiqishi, to'la rejani ishlab chiqishi, o'quvchilarni bo'lajak topshiriqlarni bajarishga jalb eta olishi kerak. Ekskursiya rejasida mavzu va maqsad, ob'ekt, u bilan tanishish tartibi, o'quvchilar idrok etish faoliyatlarini tashkil etish, topshiriqni bajarish uchun zarur bo'lgan vositalar va uskunalar, yakun yasash ko'rsatiladi. Ekskursiyani o'tkazish metodikasi mavzu, didaktik maqsad, o'quvchilarning yoshi, ularning rivojlanishi hamda ekskursiya ob'ektiga bog'liq bo'ladi.

Maktab o'quv rejasi turli fakultativ va tanlovi bo'yicha kurslarni tashkil etishni ko'zda tutadi. Ular o'quvchilar, ularning ota-onalari istak va qiziqishlarini hisobga olish bilan ishlab chiqiladi. Amaliyotda fermerlik, iqtisod, elektro va radiotexnika, elektronika, polimerlar ximiyasi, astrofizika, psixologiya, etika, antik tarix, botanika ba'zi sohalari, ikkinchi chet tili, etnografiya, stenografiya, kutubxona ishi, rassomchilik, musiqa kabi kurslarni fakultativ sifatida o'rganiladi. Fakultativ va fanlarni ro'yxatini aniqlashda faqat o'quvchilar istaklari emas, balki ijtimoiy talablar va maktab imkoniyatidan kelib chiqiladi. Fakultativ va tanlovi bo'yicha mashg'ulotlar majburiy va umumiy o'rta ta'lim fanlari bilan uzviy bog'liqlikda o'tkazilishi kerak.

Maslahat (konsultatsiya - o'quv suhbati)ga talablar ko'pincha o'quvchilarning ma'lum o'quv materiali yoki topshirig'i ustida mustaqil ishlashi sababli yuzaga keladi. Bunda ko'proq o'quvchi savol beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultatsiya o'quvchilarga o'quv materialini egallashda qiyinchiliklarni engishga yordam beradi. Konsultatsiya davomida o'qituvchi o'quvchilar faoliyatini u yoki bu masalani to'g'ri tushunishga mustaqil keladigan, ular uchun qiyin topshiriqni tushunib oladigan qilib, o'rganilayotgan materialni mohiyatini ochishga o'rganadigan qilib yo'naltiradi. Konsultatsiya o'qituvchiga o'quvchilar bilimlaridagi kamchiliklarni aniqlash, alohida e'tibor berishni talab etuvchi vaziyatlarga ularning diqqatini jalb etishga imkon beradi. To'g'ri tashkil etilgan konsultatsiya o'quvchilarda o'zini nazorat qilish, bilimlarga tanqidiy ko'z bilan qarashni tarbiyalaydi. O'qimishlilik darajasini to'g'ri aniqlashga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadralar tayyorlash milliy dasturi"da ko'zda tutilgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari mustaqil hayotga kirib kelayotgan yoshlarga muayyan soha yo'nalishi bo'yicha chuqur, differentsatsiyalashgan kasbiy bilimlar berish imkoniyatini yaratadi.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida ta'limning ma'ruza-amaliy tizimidan foydalaniladi. Mashg'ulotlar ikkita birlashtirilgan darslar ko'rinishida 90 minut davom etadi. Ularning o'ziga xosliklari quyidagilardan iborat:

- ma'ruza o'quvchilarning mustaqil ishlari uchun taxminiy asos sifatida katta hajmdagi tizimlashtirilgan axborotlarni berishning asosiy shakli (90 minut tashkil etiladi);
- amaliy mashg'ulot akademik **l**itsey, kasb-hunar kolleji o'qituvchisi rahbarligi ostida olgan o'quv axborotlari (lektsiya va mustaqil ishlari)ni chuqurlashtirish, tahlil qilish, kengaytirish, qo'llash va o'zlashtirilishini nazoratni tashkil etish shakli;
- akademik **l**itsey, kasb-hunar kollejida o'qish asosiy shakli sifatida o'quvchilarning mustaqil faoliyatlari amalga oshiriladi;
- o'quv guruhi o'quvchilarni uyushtirishning asosiy shakli (uning doimiy tartibi odatda butun ta'lim davomida saqlanib qoladi);
- o'quv guruhlari to'plami akademik **l**itsey, kasb-hunar kollejida kurslardan iborat bo'ladi;
- kurslarda o'quv mashg'ulotlari jadvalga binoan yagona o'quv rejasi va dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi;
- o'quv yili ikki semestr, attestatsiya davri va ta'tillarga bo'linadi;
- har bir semestr hamma o'quv fanlari bo'yicha yakuniy attestatsiya (imtihon topshirish) bilan yakunlanadi;
- akademik **l**itsey, kasb-hunar kollejida o'qish muhim fanlar bo'yicha attestatsiya (bitiruv imtihonlarini topshirish) va mutaxassisligi bo'yicha bitiruv malakaviy ishni himoya qilish bilan yakunlanadi.

Akademik **l**itsey, kasb-hunar kollejlarda ta'lim ma'ruza, seminar, laboratoriya ishi, o'quvchilarning ilmiy tadqiqotchilik ishlari (O'ITI), o'quvchilarning mustaqil o'quv ishlari, ishlab chiqarish

amaliyoti, chet elda ish tajribasini oshirish kabi shakllarda tashkil etiladi. Ta'lim natijalarini nazorat qilish va baholash shakli sifatida kundalik, oraliq va yakuniy nazorat, baholash reytingi tizimidan, referativ va kurs, bitiruv ishlaridan foydalaniladi.

Nazorat savollari:

1. Turli davrlardagi olimlarning ta'limni tashkil etish yuzasidan qarashlarini o'rganib chiqing.
2. Sinf-dars tizimi ta'limni tashkil etishning asosiy shakli sifatida ekanligini izohlang.
3. Ta'limni tashkil etishning qo'shimcha shakllari va ularning ahamiyatini aytib bering.

4-savol bayoni.

O'qituvchining darsga tayyorgarligi. Darsning samaradorligi uning puxta tayyorlanganligi va samarali tashkil etilganligi bilan bog'liq. Yaxshi rejalashtirilmagan, etarlicha o'ylab chiqilmagan, shoshilinch tuzilgan va o'quvchilar imkoniyatlariga moslashtirilmagan dars sifatli bo'la olmaydi. Darsga tayyorgarlik aniq sharoitlarda eng yuqori yakuniy natijaga erishishni ta'minlovchi o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashkil etilishini ta'minlash, komleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishdir.

O'qituvchining darsga tayyorgarligida quyidagi uchta bosqich ko'zga tashlanadi: tashhislash, bashoratlash, loyihalashtirish (rejalashtirish). Shu bilan birga o'qituvchi amaliy materiallarni yaxshi bilishi, o'z fanini erkin olib borishga erishishi lozim. Darsga tayyorgarlik asosini bo'lajak mashg'ultning algoritmlari, samaradorligi bog'liq bo'lgan omillar va holatlarni hisobga olishni ta'minlovchi qadamlarni ketma-ket tartib bilan bajarish tashkil etadi.

Algoritmni amalga oshirish aniq sharoitlarni diagnostika qilish bilan boshlanadi. Tashhis didaktik jarayon kechadigan barcha sharoitlarni oydinlashtirish, uning natijalarini belgilashdir. Unda o'quvchilarning imkoniyatlari, ularning faoliyatlari va xulqlari, motivlari, talab va layoqatlari, qiziqish va qobiliyatlari, bilimdonlik darajasi, o'quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, dars tuzilishi, yangi axborotni o'zlashtirish, mustahkamlash va tizimlashtirish, bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish hamda tuzatish kabi holatlar namoyon bo'ladi.

Bashoratlash bo'lajak darsni tashkil etilishining turli varianlarini baholash va ulardan qabul qilingan mezonlarga muvofiq eng ma'qulini tanlab olish.

Loyihalashtirish (rejalashtirish) o'quvchilarning o'quv faoliyatini boshqarish dasturini yaratish bo'lib, u darsga tayyorlanishning yakuniy bosqichi hisoblanadi. Loyiha (boshqarish dasturi) qisqa va aniq, erkin tuzilgan, pedagog o'zi uchun boshqarish jarayoni muhim vaziyatlari (kimdan va qachon so'rash, qaerda mavzuni kiritish, mashg'ulot keyingi bosqichiga qanday o'tish, oldindan ko'zda tutilmagan qiyinchiliklar yuzaga kelganida jarayonni qaysi sxema bo'yicha qayta o'zgartirish)ni belgilab olishga imkon beruvchi hujjatdir. Boshqarish dasturi darsning an'anaviy rejasidan boshqarish ta'sir ko'rsatishlarini aniq va tushunarli belgilab olish bilan farq qiladi.

Nazorat savollari:

1. Zamonaviy ta 'limning asosiy turlarini ta 'riflab bering.
2. «Ta 'limning tashkiliy tizimi» tushunchasi mohiyatini tushuntirib bering.
3. Ta'limning individual shakli afzalliklari nimadan iborat?
4. Sinf-dars tizimining afzalliklari nimalardan iborat?
5. Zamonaviy darsga qanday talablar qo'yiladi?
6. O'quvchilar bilish faoliyatining individual, guruhli, frontal shakllaridan foydalanlb mutaxassislik fani bo yicha dars rejasi va konspektini ishlab chiqing.
7. Har bir darsda o'quvchiliar bir darsda o 'quvchilar faoliyatini nazorat qilishni amalga oshirish va baholash kerakmi? Agarda zarur deb hisoblasangiz mumkin bo'lgan metodik variantlarini ko'rsatib bering.

Asosiy adabiyotlar

1. Pedagogika. G'G' M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Ibragimov X.I.., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
3. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. – T.: TDPU, 2012.

4. Yuzlikaeva E., Madyarova S., Yanbarisova E., I.Morxova. Teoriya i praktika obhey pedagogiki. – T.: TGPU, 2014.
Principles of Learning and Teaching. Effective pedagogy. P – 12.
5. Leadership guide.Senior leaders, subject leaders and teachers in secondary schools.
6. Pedagogy and Practice:Teaching and Learning in Secondary chools . Status: Recommended Date of issue: 09-2004. Ref: DfES 0444-2004 GGuidance.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta`minlash taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. "O`zbekiston". 2017

2. Xasanboev J, To'rakulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2008 .
Elektron ta'lim resurslari
1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. Uz

MAVUZSI: ZAMONAVIY PEDAGOGIK MODELI.PEDAGOGIK MAHORAT.

Asosiy savollar:

1. Pedagogik mahorat haqida tushuncha.
2. Pedagogik faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari.
3. Pedagogik mahoratni tarkib toptirish va shakllantirish yo'llari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Kasb mahorati, pedagogik mahorat, optimizm, insonparvar-gumanist. shaxsiy xususiyatlar, gumanistik yo'nalish, kasbiy bilimdonlik, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika, metodologiya, nazariy, uslubiy texnologik bilimlar, faoliyat elementlari, o'z-o'zini kasbiy tarbiyalash.

1.1. PEDAGOGIK MAHORAT HAQIDA TUSHUNCHA. UNING MOHIYATI

1. Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov Oliy majlisning birinchi chaqiriq to'qqizinchi sessiyadagi ma'ruzasida "Tarbiyachilarning o'ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma'lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo'lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha, ta'lim – tarbiya tizimini o'zgartirishdagi asosiy muammo ham mana shu erda. O'quvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun, avvalo, murabbiyning o'zi ana shunday bilimlarga ega bo'lishi kerak"[1] deb ta'kidlagan edi. Shuning uchun ham bugungi kunda o'qituvchilarning saviyasini va bilimini uzluksiz oshirib borish uchun shart–sharoit yaratilishi kerak. Oliy pedagogik ta'lim muassasalarida ushbu muammolarning echimini topishda "Pedagogik mahorat" fanini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.
Pedagogik mahorat nima? Uning mohiyati nimalardan iborat? Ularni egallash uchun nimalarni bilish kerak? Hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasi «pedagogik mahorat» tushunchasiga turlicha izoh beradi. Jumladan, "Pedagogik entsiklopediya"da ta'rif quyidagicha izohlangan: "O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondash fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis». Ushbu ta'rifning mohiyatidan kelib chiqib o'qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:
1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql zakovatning yuksak ko'rsatkichi;
2. O'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi;
3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi;
4. O'quv – tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

[1] Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент, 1997, 7 – бет.

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan asosiy komponentlardan iborat:

1. Pedagogik insonparvarlik yo'nalishi;
2. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish;
3. Pedagogik qobiliyatga ega bo'lish;
4. Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash.

Barcha kasblar orasida o'qituvchilik kasbi o'zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o'qituvchi yosh avlod qalbi kamolotining me'mori, yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u yoshlarni g'oyaviy – siyosiy jihatdan chiniqtirib, tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rgatadi, yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb–hunar sirlarini puxta egallashlarida ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy–iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi. Ana shu ma'suliyat o'qituvchidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishni talab etadi. Buning uchun doimo o'qituvchining kasbiy mahoratini, ko'nikma va malakalarini oshirib borish, g'amxo'rlik qilish, unga zarur shart – sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ilmiy –metodik hamda texnik yordam ko'rsatish, o'qituvchining ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borishga ko'maklashish lozim.

Shunga asosan, «Pedagogik mahorat» fani, mahoratli o'qituvchini tayyorlashga xizmat qiladi, o'qituvchilar va tarbiyachilarning kasbiy faoliyati sirlarini, mohirligini o'rgatuvchi va uni takomillashtirish to'g'risida ma'lumotlar berib boruvchi fan bo'lib, o'qituvchida pedagogik mahoratning mohiyat mazmunini, hozirgi zamon talablari doirasida kasbiy faoliyatini rivojlantirishning yo'llarini, vositalarini, shakllarini o'rganadi.

Pedagogik mahorat o'qituvchi – tarbiyachiga pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika, ta'lim – tarbiya jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi, muloqot olib borish taktikasi, nutq madaniyati, tafakkuri, tarbiyachining ma'naviy – ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, bu jarayonda xulq–atvorni va hissiyotni jilovlay olish xususiyatlarini o'rgatadi va o'z kasbini rivojlantirib boruvchi **pedagogik faoliyatlar** tizimi to'g'risida ma'lumotlar beradi. Pedagogik mahorat o'qituvchining pedagogik faoliyati zamirida takomillashib boradi.

Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun jamiyat oldida, davlat oldida javob beradigan, ta'lim-tarbiya berishda maxsus tayyorlangan o'qituvchilar mehnati faoliyatidir. Bo'lajak o'qituvchi o'z pedagogik faoliyati jarayonida faoliyatning quyidagi tarkibiy qismlarini bilishi lozim:

- Pedagogik faoliyatning maqsadi.
- Pedagogik faoliyatning ob'ekti va sub'ekti.
- Pedagogik faoliyatning vositasi.

Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan o'qituvchi ta'lim-tarbiya samaradorligi va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmaydi. Pedagogik jarayonning vazifasi bilim berish, tarbiyalash, rivojlantirish bo'lib, o'qituvchining faoliyat mezonini begilab beradi. O'qituvchining faoliyati **pedagogik jarayonning harakat vositasidir.** Pedagogik jarayonning ob'ektlari bo'lmish tarbiyalanuvchi insonga, o'quvchi va o'quvchilar guruhiga hamda alohida o'quvchiga, pedagogik jarayonning sub'ektlari ─ ota-onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilar, sinf jamoasi, pedagogik jamoa mas'uldirlar va ular jamiyat talablari asosida ta'lim va tarbiya berish faoliyatini bajaradilar. O'qituvchi pedagogik faoliyati ijobiy natijalari mehnat malakasini, ya'ni egallagan bilimlarini o'zining hayotiy va amaliy faoliyatida nechog'lik qo'llay bilishi bilan belgilanadi.

O'qituvchining pedagogik faoliyati samarali bo'lishi uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar tizimini: bilim, bolani tushuna olish, kuzatuvchanlik, nutq malakasi, tashkilotchilik, kelajakni ko'ra bilish, diqqatni taqsimlab olish, vaziyatni to'g'ri baholash, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan har xil ziddiyatlarni o'z vaqtida bartaraf etish, o'quvchilarni bilim olishga qiziqtirish kabilar tashkil etadi.

Mazkur fanning mazmunidan kasbga doir topshiriq va vazifalarni echish uchun o'quv – tarbiya jarayonini boshqarish, unga rahbarlik qilishda pedagogik–psixologik ta'limot nuqtai – nazaridan yondashish, ta'lim – tarbiyani milliy an'analarimiz ruhida zamonaviy metodlar asosida modellashtirish, o'quv – tarbiyaviy jarayonda ilg'or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish uchun

o’qituvchi mahoratining zarurligi haqidagi ma’lumotlar va ularni takomillashtirish tizimlari o’rin olgan.

Shunga ko’ra, «Pedagogik mahorat» fani kasbga oid bilim va qobiliyatlarni o’qituvchilarda shakllantirish, ijodkorlikni tarbiyalash, mahorat, ko’nikma va malakalarni egallashlari uchun, pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik, pedagogik nazokat, nutq madaniyati to’g’risida ma’lumotlar berib boradi.

Bu maqsad bo’lajak o’qituvchida quyidagi vazifalarni muntazam bajarib borish orqali amalga oshiriladi:

1. Bo’lajak o’qituvchilar pedagogik mahoratning nazariy va metodologik asoslari bilan qurollantiriladilar.
2. Pedagogik mahorat fanining pedagogik texnika, pedagogik hamkorlik (muloqot), pedagogik nazokat, pedagogik qobiliyat, tarbiyachi mahorati, o’quv–tarbiya jarayonini boshqarish, nutq madaniyati, pedagogik ijodkorlik kabi tarkibiy qismlari to’g’risidagi bilimlar tizimini egallaydilar.
3. Bo’lajak o’qituvchilar milliy urf–odat va an’analarimizda va O’rta Osiyo mutafakkirlarining boy ijodiy meroslarida aks etgan pedagogik mahorat sirlarini mustaqil egallashga nisbatan o’zlarida ehtiyoj va havasni rivojlantirib boradilar.
4. Egallangan pedagogik–psixologik va metodik bilimlar, ko’nikma va malakalar to’g’risidagi ma’lumotlar asosida har bir bo’lajak o’qituvchi o’zining shaxsiy pedagogik mahoratini shakllantiradi.
5. O’quv–tarbiyaviy jarayonni jahon andozalariga xos so’nggi zamonaviy metod va shakllar asosida tashkil etish va boshqarishni amalga oshirishning nazariy va amaliy asoslarini muntazam o’zlashtiradilar.
6. O’qituvchilar o’z kasbiy mahoratlarini takomillashtirish uchun shaxsiy–ijodiy malaka oshirishning shakl, usul va vositalarini egallaydilar.
7. Tarbiyachi mahoratining mohiyati, funktsiyasi, tuzilishi to’g’risida o’qituvchilar uzluksiz ma’lumotlarni o’rganib boradilar.
8. Yuksak zamonaviy axborot texnologiyalari va portal tizimidan foydalanish asosida o’z kasbiy mahoratlarini shakllantiradilar.

Bu maqsad va vazifalarning hal etilishi o’qituvchi – tarbiyachini zamon bilan hamnafas bo’lishga, yoshlarni tarbiyalash dardi bilan yashash va kelajakni aniq ko’ra olishga o’rgatadi. Har bir o’qituvchi shaxsida mamlakatimizning dolzarb muammolarini, maqsad va vazifalarini vijdonan tasavvur qilib, aniq bajarib borishi uchun shijoat bilan o’z imkoniyati, bilimi, tajribalarini ishga solishga o’rgatadi, hamda pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish malakalariga ega bo’lishni tarbiyalaydi.

Xo’sh pedagogik mahoratning o’zi nima? Unga hozirgi zamon fani nuqtai nazaridan quyidagicha ta’rif beriladi: Pedagogik mahorat – o’qituvchining shaxsiy (bolajonligi, xayrixohligi, insonparvarligi, mehribonligi va h.k.) va kasbiy (bilimdonligi, zukkoligi, fidoyiligi, ijodkorligi, qobiliyati va hokazo.) fazilatlarini belgilovchi xususiyat bo’lib, o’qituvchining ta’lim-tarbiyaviy faoliyatida yuqori darajaga erishishini, kasbiy mahoratini doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini ta’minlovchi faoliyatdir. U o’z fanini mukammal bilgan, pedagogik–psixologik va metodik tayyorgarlikka ega bo’lgan, o’quvchilarni o’qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning optimal yo’llarini izlab topish uchun, amaliy faoliyat olib boradigan har bir o’qituvchining kasbiy faoliyatida namoyon bo’ladi.

Shunday qilib, pedagogik mahorat egasi bo’lish uchun o’qituvchi o’z o’quv predmetini davr talablari asosida bilishi, pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo’lishi, hamda insoniylik, izlanuvchanlik va fidoyilikni o’zida tarkib toptirishi lozim. I.P. Rachenko pedagogik mahoratni pedagogik san’atning bir qismi sifatida ta’riflab, shunday yozadi: “pedagogik mahorat deganda o’qituvchining pedagogik–psixologik bilimlarni, kasbiy malaka va ko’nikmalarni mukammal egallashi, o’z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyaci, hayotga axloqiy–estetik munosabatda bo’lishi, o’z fikr mulohazasiga ishonchi va qat’iy irodasi tushuniladi”. Tadqiqotchilarning fikriga ko’ra, quyidagi to’rtta komponent pedagogik mahoratning **asosiy tashkil** etuvchilari hisoblanadi:

- o’qituvchilik kasbiga sadoqat;
- o’z fanini o’qitish metodikasini mukammal bilishi;

- pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olishi;
- pedagogik texnikani o’z o’rnida qo’llay bilishi.

Shuni alohida qayd etib o’tish zarurki, o’qituvchilik kasbi murakkab va mas’uliyatli jarayondan iborat. Ushbu kasbning sharafliligi va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, u doimo ongning yagona sohibi bo’lmish insonning ta’lim–tarbiyasi bilan shug’ullanib, u bilan muloqot olib boradi. Ongli va tirik jonzot esa aqliy, ruhiy, hamda jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo’ladi. Shu sababli, bo’lajak o’qituvchi tarbiyalanuvchi bilan doimiy muloqotda bo’lishi, unga ta’sir ko’rsatish uchun muntazam ravishda psixologiya va tarbiya nazariyasini mukammal o’rganib, o’z kasbiy faoliyatini muttasil rivojlantirib borishi kerak.

O’qituvchining shaxsiy fazilatlari sirasiga iymon–e’tiqodi, dunyoqarashining kengligi, faolligi, odob–axloqi, fuqarolik burchini his qilishi, ma’naviyati, dilkashligi, talabchanligi, qat’iyligi va o’z maqsadlariga intilishi, insonparvarligi, huquqiy bilimdonligi mamlakatimizning ijtimoiy–siyosiy talablariga o’z fikr mulohazasi bilan faol ishtirok etishi kiradi.

O’qituvchining kasbiy xususiyatlariga: o’z kasbini, bolalarni sevishi, ziyrakligi, hozirjavobligi, vazminligi, pedagogik nazokati, tasavvuri, qobiliyati, tashkilotchiligi, notiqlik madaniyati, chuqur va keng ilmiy saviyasi, kasbiy layoqatliligi, ma’naviy ehtiyoji va qiziqishi, intellekti, yangilikni anglay va qo’llay olishi, kasbiy ma’lumotni muntazam oshirishga nisbatan intilishi va boshqa fazilatlari kiradi.

O’qituvchining kasbiy pedagogik tayyorgarligi shartli ravishda quyidagi yo’nalishlarda olib boriladi:

1) O’qituvchining shaxsiy fazilatlar bo’yicha tayyorgarligi.
2) O’qituvchining ruhiy – psixologik tayyorgarligi.
3) O’qituvchining ijtimoiy – pedagogik va ilmiy – nazariy jihatdan tayyorgarligi.
4) O’qituvchining maxsus va ixtisoslikka oid uslubiy bilimlarni egallab borishi.

Yana ta’kidlash joizki, pedagogik mahorat o’qituvchi – tarbiyachi shaxsiy va kasbiy sifatlarining yig’indisi bo’lib, o’qituvchi mahoratini shakllantirishni ta’minlovchi omillarni, pedagogik–psixologik, metodik bilimlarni doimiy egallab borishi lozim. Yuksak pedagogik mahoratni shakllantirishni ta’minlovchi **omillar** quyidagilar:

a) ixtisoslik bo’yicha o’quv predmetini, zamon, ilm–fan, texnika taraqqiyoti darajasida mukammal bilishi, uning boshqa o’quv fanlari bilan o’zaro aloqadorligini ta’minlash malakasiga ega bo’lishi;

b) ta’lim oluvchilarning yosh, fiziologik, psixologik hamda shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishi, ularning faoliyatini ob’ektiv nazorat qilishi va baholashi;

v) ta’lim jarayonini demokratlashtirish va insonparvarlashtirish asosida o’z faoliyatini tashkil etishi;

g) o’quv – tarbiyaviy jarayonni zamon talablari darajasida tashkil qilish uchun asosiy pedagogik–psixologik, metodik ma’lumotga ega bo’lishi;

d) fanlarni o’qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanishni bilishi;

e) jamoani «ko’ra bilish», o’quvchilarning qiziqishlari, intilishlari, ular uchraydigan qiyinchiliklarni tushunish va hamdard bo’la olish, o’z vaqtida ular fikrini anglay bilish, zukkolik bilan har bir bolaning xarakter xususiyati, qobiliyati, irodasini tushunish hamda ularga muvaffaqiyatli ta’sir ko’rsatishning shakl, usul, vositalaridan xabardor bo’lishi;

j) o’z shaxsiy sifatlari (nutqining ravonligi, tashkilotchilik qobiliyati, badiiy ehtiyoji, didi va hokazo) ni takomillashtirish malakasiga ega bo’lishi.

O’qituvchining pedagogik mahorati pedagogika oliy ta’lim muassasalarida shakllanib boradi. Yuksak saviyali pedagogik kadrlar tayyorlashga nisbatan talablar, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, o’z kasbi bilan uzluksiz taraqqiyotga moslasha oladigan o’qituvchining shakllanishi, bo’lajak o’qituvchi umummilliy mavqeining o’sib borishini ta’minlaydi.

1.2. PEDAGOGIK MAHORAT FANINING VAZIFALARI VA ASOSIY TARKIBIY QISMLARI

Mamlakatimizning istiqlol yo’lidagi ilk qadamlaridanoq, buyuk ma’naviyatimizni tiklash va yanada yuksaltirish, milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uning milliy zaminini mustahkamlash , zamon talablari bilan uyg’unlashtirish asosida jahon andozalari va ko’nikmalari darajasiga chiqarish

maqsadida ta’lim tizimida ulkan bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Xususan, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining IX sessiyasida qabul qilingan “Ta’lim to’g’risida”gi hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” to’g’risidagi Qonunda ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlarda o’qituvchi-tarbiyachilarning mehnati naqadar yuksakligi, ular oldida barkamol avlodni tarbiyalashdek sharafli va mas’uliyatli vazifa turganligi ta’kidlanadi. “Ta’lim to’g’risida”gi Qonunning 3-moddasida ta’lim O’zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyotida ustuvor deb e’lon qilgan hamda ta’lim sohasidagi davlat siyosatining quyidagi asosiy printsiplari belgilab berilgan:

– ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
– ta’limning uzluksizligi va izchilligi;
– umumiy o’rta, shuningdek o’rta maxsus, kasb–hunar ta’limining majburiyligi;
– o’rta maxsus, kasb–hunar ta’limining yo’nalishini: akademik litseyda yoki kasb–hunar kollejida o’qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
– ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
– davlat ta’lim standartlari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi;
– ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
– bilimli bo’lishni va iste’dodni rag’batlantirish;
– ta’lim tizimida davlat va jamiyat boshqaruvini uyg’unlashtirish.

Ushbu printsiplar zamirida o’qituvchi pedagogik faoliyatining asosiy mohiyati mujassamlangan bo’lib, uni hayotga tatbiq etish o’qituvchilar zimmasiga yuklatilgan. O’qituvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini ta’minlovchi asosiy javobgar shaxs ekan, uning pedagogik mahorati ham hozirgi zamon talablari darajasida, jahon andozalariga mos ravishda shakllanishi kerak. Shu jihatdan, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ham o’qituvchining kasbiy mahoratini oshirishga jiddiy e’tibor qaratilgan. Jumladan, Dasturning 4.2. bandida pedagogik kadrlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashning zamon talablariga moslashuvchan, ta’limning yuqori sifatli va barqaror rivojlanishini ko’zlovchi tizimini vujudga keltirish ta’kidlanadi. Pedagog kadrlarni ildam qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, raqobatbardosh darajada ularning kasbiy sifatlarini takomillashtirishni qo’llab–quvvatlash ta’minlanadi. Ushbu talablar zamirida ham o’qituvchining pedagogik mahoratini uzluksiz takomillashtirib borish naqadar muhim va davr talabi ekanligi ta’kidlanmoqda. Shunday ekan, “Pedagogik mahorat” fanining vazifalarini “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” talablari belgilab beradi. Uning **vazifalari** quyidagilardan iborat:

- ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan yangilanish va islohotlarni insonparvarlik va demokratik tamoyillarga moslab olib borish;
- ta’lim mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda boyitib borishni ta’minlash;
- bo’lajak o’qituvchilarning ma’naviy-axloqiy jihatdan dunyoqarashini rivojlantirishda milliy urf–odat va an’analarimizdan, boy adabiy merosimizdan samarali foydalanishning tezkor metod va usullarini ishlab chiqish va joriy etish;
- ta’lim va tarbiya jarayonini kelgusida o’qituvchilardan talab qiladigan darajada sifatini va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta’minlash uchun normativ hujjatlar, o’quv–uslubiy adabiyotlar, moddiy–texnika va axborot bazasi bilan boyitib borish;
- bo’lajak o’qituvchilarning yuksak kasbiy tayyorgarlik darajasi, malakasi, bilimi, madaniy va ma’naviy–axloqiy saviyasining sifatini zamon talablariga javob beradigan darajada oshirib borish;
- bo’lajak o’qituvchilarni yuqori malakali kadrlar tayyorlash bilan pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko’tarishga o’rgatish.

Pedagogik mahoratni egallashda nazariy va amaliy kasbga oid bilimlarni egallash, pedagogik jamoa bilan doimiy muloqotda bo’lish ijobiy natijalar beradi. Binobarin, bunday muhitda o’zaro fikr almashish, shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirilayotgan qarashlar bilan taqqoslab, ularning to’g’riligi, haqqoniyligiga ishonch hosil qilish, mavjud bilimlarni yanada boyitish, xato yoki kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo’llarini topish imkoniyati mavjud.

Buyuk nemis pedagogi Adolf Disterverg o’qituvchining muntazam ravishda fan bilan shug’ullanishi haqida gapirib, shunday degan edi: “O’qituvchi muntazam ravishda fan bilan

shug'ullanmog'i lozim. Aks holda u qurigan daraxt va toshga o'xshab qoladi. Qurigan daraxt va tosh meva bera olmaganidek, kelajakda bunday o'qituvchidan hech qanday natija kutib bo'lmaydi".
Hozirgi zamon fan va texnikasi jadal ravishda rivojlanayotgan, zamonaviy axborot texnologiyalarining salmog'i keskin oshayotgan bir davrda o'qituvchi pedagogik mahoratini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar, ilgari fanning biror sohasida ro'y berayotgan yirik kashfiyot qariyb o'n besh yillik samarali va kishi zo'rg'a ishonadigan voqea hisoblangan bo'lsa, hozir har yili, hatto har oyda fan, texnika sohasida yangi kashfiyotlar yaratilmoqda, bilimlarning ilgari noma'lum bo'lgan yangi yo'nalishlari maydonga kelmoqda. Kishilarda bilimga bo'lgan intilish beqiyos darajada o'sib borayotir. Shuning uchun hozir kunda o'qituvchi faqat o'z fani bo'yicha emas, balki o'z faniga yaqin bo'lgan sohalardagi yangiliklarni bilishi talab etiladi.
Bizga ma'lumki, ilg'or jamiyat fuqarosining, xususan o'qituvchining ma'naviy boyligi uning keng dunyoqarashi, teran fikrlash layoqati, savodxonligi, yuksak insoniy fazilatlarga boyligi bilan baholanadi. «Barcha illatlarning kelib chiqishi ilmsizlikdandir» degan edi yunon faylasufi Suqrot. Shunday ekan, yosh avlodning yuksak bilim va tafakkur sohibi bo'lishi uchun barchamiz javobgarmiz. Bu javobgarlik ko'proq o'qituvchilar zimmasida.
Darhaqiqat, o'qituvchining obro'-e'tiborini ta'minlaydigan ilk vosita uning **tarbiyalanganlik darajasidir**. Birinchidan, o'qituvchi ma'naviy jihatdan sog'lom va keng fikrlay oladigan bo'lishi, o'z milliy qadriyatlari, urf-odatlari va millatimizning buyuk siymolari ijodiy merosini teran bilishlari kerak. Ayniqsa, o'zi tanlagan mutaxassislik va fan sohasida izlanishlar olib borgan allomalarning hayoti va ijodini yaxshi bilishi hamda mantiqiy tafakkurga ega bo'lishi lozim. Bu o'qituvchi pedagogik mahoratining shakllanib borishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, milliy an'analarimiz, urf–odatlarimiz, qadriyatlarimiz asosida davlatimizning buyuk kelajagi bo'lmish yosh avlodga chuqur bilim berish o'qituvchidan yuksak qobiliyatni va ishchanlikni talab qiladi.
O'qituvchilik kasbining shakllanishi davomida pedagogik mahorati takomillashib boradi. U turli psixologik xususiyatlarga ega bo'lgan o'quvchilar bilan ta'lim-tarbiyaviy faoliyat olib boradi. Turli ziddiyatlarga duch keladi. Bu o'z navbatida uni tinimsiz ijod qilishga, tarbiyaning har xil vosita va usullarini topib, mohirona qo'llashga majbur etadi. Tarbiya natijasida belgilangan maqsadga erishish uchun o'qituvchi yillar davomida yig'ilgan tajriba va malakalariga tayanib ishlaydi. O'quvchining nazariy hamda amaliy faoliyatida erishadigan barcha yutuqlari va ijobiy natijalari o'qituvchi pedagogik mahoratini namoyon etuvchi asosiy vositalar hisoblanadi. O'qituvchi pedagogik mahoratning tarkibiy qismlarini bilishi, uning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanishi lozim. Quyida keltirilayotgan pedagogik mahorat fanining asosiy **tarkibiy qismlari** milliy an'ana va urf-odatlarimizdan kelib chiqib, hozirgi global rivojlanish davrida yanada to'ldirib borilishi mumkin.
1. Nutq malakasi va texnikasini o'zlashtirish.
2. Tushunarli, ta'sirchan fikr va his-tuyg'ularni so'zda aniq ifodalash.
3. Mimik va pantomimik harakatlardan o'z o'rnida foydalanish.
4. Ma'noli va ochiq chehrali nigoh bilan qarash.
5. Hissiy psixik va tasodifiy holatlarda o'z his-tuyg'ularini jilovlay olish.
6. Turli vaziyatlarda tarbiyachiga xos bo'lgan ijodiy kayfiyatni boshqarish.
7. Kulgi va tabassumda samimiylikni e'tirof etish.
8. O'quvchilar bilan doimo yaxshi kayfiyat va rag'batlantiruvchi munosabatda bo'lish.
9. Savodli va sof adabiy tilda so'zlash.
10. Aniq imo-ishoralarni o'z o'rnida ishlata olish.
11. Ijodiy pedagogik qobiliyatini qo'llay bilish.
12. Muosharat odobiga doimo rioya qilish.

1.3. PEDAGOGIK MAHORATNI EGALLASH VOSITALARI

O'qituvchi barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida ishtirok etar ekan, nafaqat ma'naviy-axloqiy madaniyati bilan atrofdagilarga o'rnak bo'lishi, shu bilan birga, pedagogik mahorat qirralarini namoyon eta olishi, etuk o'qituvchi sifatida komil insonni tarbiyalashga, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash ishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi zarur.

Pedagogik mahorat – yuksak pedagogik tafakkur, ta'lim-tarbiya jarayoniga ongli, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati bo'lib, u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, o'tmish qadriyatlari, O'rta Osiyo mutafakkirlari ijodiy merosida yoritilgan murabbiylarni tayyorlash to'g'risidagi ma'lumotlar hamda zamonaviy axborot texnologiyalari, portal yangiliklaridan xabardor bo'lish, ilg'or xorijiy davlatlarning o'qituvchilar tayyorlash texnologiyalarini nazariy jihatdan o'rganish jarayonida tarkib topadi. Yosh o'qituvchilarning, shuningdek, ta'lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo'lgan o'qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo'lishlari o'zlarini kasbiy jihatdan takomillashtirib borish yo'lida bir qator shartlarga amal qilishi hisobiga rivojlanib boradi. Ularni quyidagi **vositalar** asosida rivojlantirish mumkin:

1. Mustaqil o'qib-o'rganish (pedagogika fanida ro'y berayotgan eng so'nggi yangiliklar haqida ma'lumotlarni beruvchi yangi adabiyotlar, Internet materiallari, portal, vaqtli matbuot sahifalarida chop etilayotgan ma'lumotlar, shuningdek, ilg'or texnologiyalar bilan tanishib borish, ularda ilgari surilayotgan g'oyalarni umumlashtirish, xulosalash asosida mustaqil loyihalarni tayyorlash).
2. Tajribali ustoz o'qituvchilar faoliyatini o'rganish (ta'lim muassasasidan chetga chiqmagan holda tashkil etilib, vaqt va iqtisodiy nuqtai nazardan samarali sanaladi. Tajribali o'qituvchilar faoliyatini o'rganish, ular tomonidan tashkil etilayotgan mashg'ulotlarni kuzatish, tahlil qilish asosida amalga oshiriladi. Bu borada olingan taassurotlarni umumlashtirish asosida xulosa chiqarish maqsadga muvofiqdir).
3. O'qituvchi xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari va institutlarida kasbiy malaka va ko'nikmalarini oshirish.
4. Doimiy ravishda ilmiy anjumanlar (nazariy va amaliy konferentsiya hamda seminarlar, pedagogik o'qish hamda treninglar) da faol ishtirok etish.
5. Respublika hamda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning etakchi ta'lim muassasalarida o'z tajribalarini oshirish, kasbi bo'yicha eng so'nggi ma'lumotlarni o'rganish.

Pedagogik mahoratni egallashda guruhli va ommaviy tadbirlarda ishtirok etish ijobiy natijalar beradi. Binobarin, bunday muhitda o'zaro fikr almashish, shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirilayotgan qarashlar bilan taqqoslab, ularning to'g'riligi, haqqoniyligiga ishonch hosil qilish, mavjud bilimlarni yanada boyitish, xato yoki kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash hamda ularni bartaraf etish yo'llarini topish imkoniyati mavjud.

Pedagogik mahoratga ega bo'lish ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlash garovi bo'libgina qolmay, ayni vaqtda o'qituvchining jamoada, ijtimoiy muhitda obro'-e'tiborini oshiradi, o'quvchilar orasida unga nisbatan hurmat yuzaga keladi.

Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda yo'l qo'yilgan yoki qo'yilayotgan xatolardan holi bo'lish, o'quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar bilan munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini yaratadi.

Hozirgi paytda O'zbekiston Respublikasida yosh o'qituvchilarning kasbiy mahorati, bilim va ko'nikmalarini muntazam oshirib borish maqsadida qizg'in faoliyat olib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi hamda Osiyo taraqqiyot banki bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan "Ta'lim sektorini rivojlantirish dasturi" loyihasi doirasida respublika hududlarida masofadan o'qitishning "Ta'lim-resurs" Markazlari tashkil etilgan. Ushbu faoliyat natijasida yosh o'qituvchilarning xorijiy mamlakatlarda kasbiy malakalarini oshirish imkoniyati tug'ildi.

Maktablarga yosh o'qituvchilarni jalb etish va ularga har tomonlama amaliy yordam berish, ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga ko'maklashish maqsadida 2009 yildan boshlab "Respublika yosh o'qituvchilar assotsiatsiyasi" o'z faoliyatini boshladi.

Mamlakatimizda an'anaviy ravishda «Yil o'qituvchisi» Respublika ko'rik-tanlovi o'tkazilib kelinmoqda. Umumta'lim maktablarida faoliyat ko'rsatayotgan pedagog xodimlar orasidan ilg'or va tashabbuskor o'qituvchilar aniqlanib rag'batlantirilishi, yosh o'qituvchilarda o'z kasbiga nisbatan hurmat va ehtirom uyg'otadi. 2006 yildan boshlab esa, "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi" ko'rik tanlovi o'tkazilib kelinmoqda. «Yil maktabi» Respublika ko'rik-tanlovi o'qituvchilarga jamoa asosida ta'lim muassasasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlarni ommaga targ'ib etish uchun sharoit yaratmoqda.

Shuningdek, mustaqillik yillarida respublika xalq ta'limi tizimidagi 3324 nafar o'qituvchi va murabbiylar pedagogik faoliyatda ulkan yutuqlarni qo'lga kiritganlari va fidokorona mehnatlari

uchun turli davlat mukofotlari va unvonlari bilan taqdirlandilar. Ustozlardan olti nafari "O'zbekiston Qahramoni" unvoni bilan, 301 nafari "O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi" va 315 nafari "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi" faxriy unvonlariga sazovor bo'lganlar, 101 nafari "El-yurt hurmati", 18 nafari "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan, 1177 nafari "Shuhrat" ordeni bilan taqdirlanganlar.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da alohida ta'kidlangan milliy model O'zbekiston Respublikasining milliy-hududiy xususiyatlarini inobatga olish hamda ilg'or fan, texnika va texnologiya yutuqlari asosida tayyorlangan kadr (mutaxassis) – barkamol inson va etuk mutaxassis qiyofasini o'zida to'laqonli aks ettiruvchi namunadir.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g'oyalarini amalga oshirish jarayonida asosan o'qituvchi kadrlarning roli nihoyatda beqiyos. XXI asr bolasini o'qitish va tarbiyalash, ularni barkamol inson va etuk malakali mutaxassis kadrlar darajasiga etkazish vazifasini faqat yuksak tajribaga ega XXI asr o'qituvchisigina uddalay oladi.

1.4. O'QITUVCHI KASBINING TARIXIY TARAQQIYOTI VA UNING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI

XV asrda yashab, ijod etgan mutafakkir Alisher Navoiyning yaqin do'sti Kamoliddin Husayn Voiz Koshifiy bola tarbiyasida maktab va muallimning alohida o'rni borligi haqida gapirib, muallimlar dono, bilimli, shirinsuxan, adolatli bo'lishi zarur, deb hisoblaydi. Alloma murabbiylar to'g'risida "Axloqi Muhsiniy" asarida shunday yozadi: "Murabbiy (bolaga) nasihat va ta'lim berishda lutf va odob qoidalariga rioya qilishi darkor. Jamoatchilik joylarida o'quvchiga pand berish yaramaydi, balki xilvat joyda bolaga nasihat qilish zarur. Agar (murabbiy) nasihat berishning fursati kelganini bilsa, unga muloyimlik bilan murojaat qilishi lozim, chunki bizning zamonamizda muloyim va xushfe'l bo'lish maqsadga muvofiqdir".

Buyuk allomalardan Abdurahmon Jomiy tarbiyachi-muallim foaliyatiga quyidagicha ta'rif beradi: "muallim bilimli, aqlli, adolatli, o'zida butun yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. O'zini nomunosib tutgan odam hech vaqt bolalarga bilim va odob bera olmaydi".

Hozirgi zamon o'qituvchisi qanday ijobiy sifatlarga ega bo'lishi lozim. Avvalo zamonaviy bilimlar, ilg'or tajribalar hamda pedagogik mahoratni yuqori darajada egallaganligi, pedagogik izlanish vazifasiga mos tadqiqotlar metodlari majmuasini shakllantira olishi, nazariy tadqiqot va amaliy tajriba-sinov ishlarini o'tkazish malakasiga ega bo'lishi, o'qitadigan o'quv fanidan o'quv dasturi, DTS, darsliklar va o'quv-metodik qo'llanmalar, elektron darsliklarni yarata olishi va amalda qo'llay bilishi, o'zining pedagogik faoliyatini doimiy takomillashtirib borishi, kasbiy sifatlarini rivojlantirishi, o'z-o'zini nazorat qilish va baholash malakasiga egallashi, yangi pedagogik g'oyalarni ishlab chiqa olish, zamonaviy axborot texnologiyalarini dars jarayonida qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi, o'qitishning istiqbolli yo'nalishlari talablari asosida metod, shakl va vositalarni yaratish va ularni ta'lim jarayonida uzviy qo'llash malakalarini bilishi kerak.

O'qituvchi — odobli, adolatli hamda «bola kalbining injeneri»dir. Bolaning ijobiy va salbiy xususiyatlari ba'zan murabbiydan o'tishini psixolog olimlar ta'kidlab o'tishgan. Chunki o'quvchi o'qituvchining yurish-turishi, kiyinishiga, gapirishiga taqlid qiladilar. Bola garchi yosh bo'lsa-da, uning inson ekanligini yoddan chiqarmaslik kerak, uni ko'pchilik oldida obro'sizlantirmaslik, g'ururini toptamaslik kerak.

Pedagog olim Komil Zaripov o'qituvchining kasbiy mahorati mazmun va mohiyatini "Ilg'or o'qituvchi", "Ijodkor o'qituvchi", "Novator o'qituvchi" timsolida asoslaydi va shunday ta'riflaydi:

"Ilg'or o'qituvchi" avvalo boshqa o'qituvchilarga qaraganda o'z ishiga mas'uliyat bilan qaraydi. Shu sohadagi ijobiy tajribalarni o'rganib, o'z darslarida, ta'lim muassasasidan va guruhdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarda qo'llaydi. Shu orqali u ta'lim va tarbiya sohasida muayyan yutuqlarni qo'lga kiritadi.

"Ijodkor o'qituvchi"da ham "Ilg'or o'qituvchi"dagi xususiyatlar bo'lishi mumkin. Ularning jiddiy farqi shundaki, ilg'or o'qituvchi mavjud manbalarni o'rganib, shular asosida ta'lim - tarbiya

bo'yicha muayyan ishlarni amalga oshirsa, ijodkor o'qituvchi bor manbalarga tanqidiy ko'z bilan qaraydi. Ko'p hollarda mavjud metodik yo'l – yo'riqlarga o'z munosabatini bildirib, sharoit va vaziyat taqozosiga, o'zining imkoniyatlariga qarab mavjud tartiblardan farqli zamonaviy metodik usullardan foydalanadi"[2].

"Novator o'qituvchi", o'zining yaxlit pedagogik vosita va usullari mavjudligi bilan farqlanib turadi. Shu bilan birga novator o'qituvchilarda ilmiy tahlil, o'ziga tanqidiy ko'z bilan qaray bilish xususiyatlari ham ega bo'ladi. Ularning ko'pchiligida g'oyat murakkab, boshqalar o'ziga ishonmaydigan sharoitlarda ham o'z ishlarining to'g'ri ekanligiga ishonch bo'ladi.

Demak, pedagogik mahorat egasi bo'lish uchun o'qituvchi o'zida ham ilg'orlikni, ham novatorlikni (yangilikka intilish), ham ijodkorlikni tarbiyalashi lozim. O'qituvchi pedagogik mahoratini "O'qituvchining axloqiy shakllanishi" yo'nalishida o'rgangan professor Malla Ochilov pedagogik mahoratni egallashning muhim manbasi axloq deb ta'kidlab, kasbga oid axloq normalarini shunday ta'riflaydi *"Faoliyatning ma'lum bir sohasi bilan shug'ullanuvchi kishilarga taalluqli axloqiy normalar, talablar ham bor. Bunday axloq kasb (professional) axloqi deyiladi. Har bir jamiyatda hukmron bo'lgan axloq bilan kasb axloqi o'rtasida ma'lum bir munosabat mavjud. Bu umumiylik bilan xususiylik o'rtasidagi munosabatdir. Kasb axloqi umuminsoniy axloq nazariyasining qoidalari va kamchiliklarini o'zida mujassamlashtiradi, oydinlashtiradi va rivojlantiradi".*[3]

Pedagogik mahoratning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri, uning o'qituvchi shaxsi va kasbi to'g'risida mukammal ma'lumot va tushunchalarga ega ekanligidadir. O'qituvchi inson sifatida shaxsiy fazilatlarga ega bo'lishi bilan birga, kasbiy, ya'ni ixtisoslik fazilatlariga ham ega bo'lishi lozimligini tajriba ko'rsatmoqda. Buni yuqorida kasb axloqi to'g'risida bildirilgan fikrlar misolida ham ko'rdik.

Shaxsiy sifatlar tizimida: milliy mafkuraviy onglilik, milliy odoblilik, farosat, nozik didlik, o'z kasbiga sadoqat va vijdoniylik, tashabbuskorlik, bolajonlik, talabchanlik, adolatparvarlik, pedagogik odob, tadbirkorlik, qat'iylik, har qanday vaziyatda o'zini idora qila olish, millatlararo muloqot madaniyati, kuzatuvchanlik, samimiylik, topqirlik, kelajakka ishonch, xushmuomalalilik kabi fazilatlarga ega bo'lishi kerak.

Kasbiy sifatlar tizimida: pedagogik ziyraklik, O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li mohiyati, beshta tamoyil rivojlanishining ma'naviy – axloqiy negizlarini bilishi, milliy tarbiya mohiyati va mazmunini chuqur anglash, chuqur ilmiy nazariy salohiyati, pedagogik ijod, o'z fanining tarbiyaviy imkoniyatlarini mukammal bilish, pedagogik bilimlarni takomillashtirishga intilish, mamlakatimiz Prezidentining ichki va tashqi siyosatidan xabardorlik, o'zbek xalqining an'analari, qadriyatlari, urf – odatlarini yaxshi anglashi, siyosat, tarix, madaniyat, ma'naviyat, adabiyot va san'at, axloqshunoslik, dinshunoslik, huquqshunoslik, o'lkashunoslik, texnikaga oid ma'lumotlardan xabardorlik, etnopedagogika, etnopsixologiyaga oid bilimlarga ega bo'lish va hokazo.

Bo'lajak o'qituvchilarda yuqorida qayd qilingan milliy pedagogikaning faoliyatga tayyorlovchi shaxsiy va kasbiy sifatlariga ega qilish lozim. Bu hol kasbiy mahorat egasi bo'lish va kadrlar tayyorlashning milliy dastur talablarini bajarishga yordam beradi.

«Muallimning yuksak sifati uning aqli, ilmi, fikri, so'zi, axloqu-odobidadir, — degan edi taniqli murabbiy, maktabshunos olim Hikmatulla Abdullaev o'zining «Yashil daftar hikmati» asarida. —O'qituvchining yuz qarashlari ham, gapirishlari ham, qalbi ham, ko'rinishi ham, yurish-turishi ham, kiyinishi ham chiroyli va ibrat namunasi bo'lsin. Ayniqsa, uning nutqi tushunarli, ravon, ta'sirli bo'lishi darkor. U muloqotda bamisoli so'z zargari ekanligini ko'rsata olishi muhimdir. Shunga erishish kerakki, odamlar, ayniqsa, ota-onalar va o'qituvchilar uni rostgo'y, halol, pokiza, sog'lom fikrli, shafqatli va muruvvatli, insonparvar kishi sifatida e'tirof etsinlar».

O'qituvchi «Sog'lom avlod uchun» kurashchi, bor bilimi va tajribasini ta'lim-tarbiya ishiga bag'ishlagan, o'z qadrini, o'z hurmati, o'z obro'sini saqlaydigan inson. Shuning uchun vaqt oltindan, duru-gavhardan qimmatlidir. U har bir daqiqa vaqtni to'g'ri taqsimlaydigan, bajariladigan vazifalarni hisobga oluvchi, darsga tayyorlanishi, dars o'tkazishni

---

[2] Зарипов К. Ўқитувчилар малакасини оширишда мактаб раҳбарининг роли. – Т.: "Ўқитувчи", 1993, 97 – бет.

[3] Очилов М. , Очилова Н. "Ўқитувчи одоби". – Т.: "Ўқитувчи", 1997, 6-бет.

rejalashtiradigan, ta’lim muassasasining umumiy qo’shimcha topshiriqlarini tez va sifatli bajaradigan hamda vaqtida ovqatlanish, vaqtida dam olishni biladigan intizomli shaxsdir.
Ta’lim va tarbiya jarayoni har bir o’qituvchidan ulkan aql-zakovat, sabr-matonat, o’quvchilarga va o’z kasbiga yuksak mehr-muxabbatli bo’lishni talab etadi. O’qituvchining doimo izlanuvchan, bilim va tajribasini orttirib borishi, o’quvchilarni chuqur tushunish, ularning ichki dunyosini payqay olishi, o’sish va rivojlanish darajalarini nazorat qilib borishi na zarur paytda so’z, ish yoki amaliy harakat bilan yordam bera olish qobiliyati ta’lim va tarbiya jarayonining muvaffaqiyatini ta’minlovchi omillardir.
Pedagogik kasb — bu komil inson sifatida xarakterlanuvchi ijtimoiy ahamiyatga molik fazilatlarning barqaror tizimidir. O’qituvchi o’z kasbiga ixlos qo’yishi va uning ijtimoiy ahamiyatini tushunib etishi, bolalarga ta’sir o’tkazishi va ular bilan hamdardligini namoyon qila olishi shunday fazilatlar majmuasidirki, ular o’qituvchi faoliyati va muloqoti bilan uyg’unlashganda o’qituvchi mehnatining bir butunligiga erishiladi.
O’qitish va tarbiyalash — bular bir-biridan ancha farqli tushunchalardir. O’qituvchi o’z kasbining to’la ma’nodagi egasi bo’lishi uchun uni atrofidagi odamlar hurmat qilishlari kerak. O’qituvchi hamma joyda madaniyatli murabbiy, ezgu fazilatlar egasi sifatida namuna bo’lishi zarur.
O’qituvchining mahorati pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o’qish davridayoq, shakllanib boradi. Pedagogik kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi kasbga moslashishi, tanlangan kasb ichidagi uzluksiz taraqqiyotga moslasha oladigan, keng ma’nodagi o’qituvchining shakllanishiga bo’lgan talabga muvofiq, holda bilimlarning pedagogik-psixologik va umummilliy mavqeining o’sib borishida aks etmog’i lozim.
O’qituvchining qobiliyati va nutqi qanchalik kuchli va ta’sirchan bo’lsa, o’quvchilar uning so’zini zo’r ishtiyoq bilan tinglaydi. O’qituvchi o’z kasbiga ixlos qo’yib, o’zining o’qituvchilik iste’dodini, samimiy munosabatini o’quvchilar orasida namoyon etsa, o’qituvchi bilan o’quvchilar orasidagi aloqa yuksak darajada mustahkamlanib boradi.....
O’qituvchilik faoliyati shu kasbni tanlagan kishilardagi qobiliyat va iste’dodning barcha qirralarini ishga solishga majbur qiladi. A.S.Makarenkoning fikricha, «jamoada 40 ta qobiliyatli o’qituvchi o’rniga 4 ta qobiliyatli tarbiyachi-o’qituvchi bo’lgani ma’qul»ligi haqida gapirgan edi. Bu bilan u qobiliyatsiz kishilar ta’lim-tarbiya ishiga katta zarar etkazishi mumkinligini alohida uqtiradi.
Avvalo, o’qituvchi — maktabdagi ta’lim-tarbiya jarayonining asosiy tashkilotchisidir. Yigit va qizlarning ma’lumot jihatidan umumiy tayyorgarlik darajasi hamda mustaqil ijodiy tafakkur taraqqiyoti, tarbiyalangan darajasi dastur va darsliklargagina emas, balki o’qituvchiga, uning mahorati hamda fuqarolik hislatlariga ham taalluqli bo’ladi. Shu boisdan ham pedagogika oliy ta’lim muassasalariga o’qituvchilik kasbini sevgan, unga chin ko’ngildan qiziqqan va moyilligi bo’lgan iqtidorli yoshlargina qabul qilinishi lozim.

MAVZU: TA’LIM METODLARI VA VOSITALARI

Asosiy savollar:

Ta’lim metodlari va usullari tushunchalari.
Zamonaviy didaktikada ta’lim metodlari tasnifiga turlicha yondashuvlar.
Ta’lim metodlarining mohiyati.
Ta’lim metodlarini tanlab olish shartlari.
Ta’lim vositalari va ularning funktsiyalari.

Tayanch tushuncha va iboralar: Ta`lim metodi, tadqiqot, usul, tarbiyaviy metod, hikoya, suhbat, tushuntirish, ma`ruza, ekskursiya, mashq, grafikaviy ishlar, laboratoriya ishlari, didaktik o`yinlar, tashxislash, nazorat, baholash, dinamika, baho, holislik, tizimlilik.

1-savol bayoni.

«Metod» so’zining yunoncha tarjimasi «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo’li» kabi ma’nolarni anglatadi. Filofosiya lug’atida ushbu tushuncha umumiy tarzda «maqsadga erishish usullari» deya sharhlangan.

Ayni vaqtda pedagogik manbalarda «ta’lim metodi» tushunchasiga berilgan ta’riflarning xilma-xil ekanligiga guvoh bo’lish mumkin.

Shuningdek, ta’lim metodlarining o’qituvchi va o’quvchilarning o’zaro hamkorlikdagi tartibli faoliyatlari usullari ekanligi to’g’risidagi fikrlar ham mavjud.

«Ta’lim metodlari dastlab pedagog ongida muayyan yo’nalishdagi faoliyatning umumlashma loyihasi tarzida namoyon bo’ladi. Mazkur loyiha amaliyotga o’qituvchi va o’quvchilar faoliyatining o’zaro tutashuvi, o’qitish va o’qishga qaratilgan aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metod boshqa shakllarda namoyon bo’lmaydi, buning boisi ta’lim metodi o’zida umumiy holda faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi».

1. Qayd etilayotgan tushuncha mohiyatini to’laqonli yorituvchi ta’rifni aniqlashga bo’lgan urinish bugun ham davom etyapti, yangi-yangi ta’riflar ilgari surilmoqda. Biroq, «ta’lim metodi» tushunchasi mohiyatini yoritishga nisbatan turlicha qarashlarning mavjudligiga qaramay, ularni o’zaro yaqinlashtiruvchi umumiylik mavjud. Aksariyat mualliflar «ta’lim metodlari o’quvchilarning o’quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari» degan qarashga yon bosadilar. Demak, ta’lim metodlari ta’lim jarayonida qo’llanilib, uning samarasini ta’minlovchi usullar majmuidir.

Ta’lim metodlari ta’lim maqsadini yoritishga xizmat qiladi, u yordamida ta’lim mazmunini o’zlashtirish yo’llari ifoda etiladi, o’qituvchi va o’quvchilarning o’zaro harakati, xususiyati aks ettiriladi.

Metod, bir tomondan, ta’lim maqsadiga erishish vositasi sifatida namoyon bo’lsa, boshqa tomondan, boshqariluvchan o’qish faoliyatini amalga oshirish sharti hisoblanadi.

Ta’lim metodlari doimo u yoki bu o’qish vositalari yordamida joriy etiladi, shu bois ularning o’zaro shartlanganligini ta’kidlash joiz.

Chizmadan anglanib turibdiki, ta’lim metodi tuzilmasida quyidagilar ajralib turadi: maqsadli tarkib; faoliyatli tarkib; ta’lim vositalari.

Tabiiyki, umumiy holda erishilgan natija har doim ham o’qituvchining dars boshida belgilagan maqsadiga mos kelavermaydi. Ta’lim maqsadi o’qituvchi va o’quvchilar faoliyati asosida, shuningdek, ta’lim vositalari yordamida natijalanadi, ushbu jarayonda aniq maqsadga yo’naltirilgan mexanizm ishga tushadi. Ta’lim tizimlari maqsadga erishish jarayonida bosh xalqa aynan qanday va qaysi mexanizm asosida hamda mavjud tarkibiy unsurlarni qanday ishga solish mumkinligini ifodalashga xizmat qiladi.

Bu funktsiyalar ta’lim metodini qo’llash jarayonida bir-biridan ajratilgan holda yoki ketma-ket joriy etilmaydi, aksincha bir-biriga o’zaro singib ketadi. Misol uchun, tashhisli funktsiya o’qituvchining bir qator metodlardan yaxlit foydalanishi evaziga bajariladi.

«Ta’lim metodi» atamasi bilan birga ko’p hollarda «metodik usul» (sinonimlari – pedagogik usul, didaktik usul) tushunchasi ham qo’llaniladi. U ta’lim metodining tarkibiy qismi, uning muhim unsuri, metodni joriy qilishdagi alohida qadam sifatida ta’riflanadi. Har bir ta’lim metodi muayyan ta’lim usullarini chog’ishtirish orqali joriy etiladi. Metodik usullarni xilma-xilligi ularni tasniflashga imkon bermaydi, biroq o’qituvchi faoliyatida tez-tez qo’llaniladigan usullarni ajratib ko’rsatish mumkin:

Har bir metod ma’lum ta’limiy vazifani muvaffaqiyatli hal etish, qolganlari esa birmuncha samarasiz bo’lishi mumkin. Universal ta’lim metodlari mavjud emas, shu bois darsda turli ta’lim metodlaridan yoki ularning majmuasidan foydalanish mumkin.

Nazoat savollar:

1. Ta’lim metodi nima?
2. Ta’lim jarayonida suhbat metodini qo’llashda nimalarga e’tibor qaratish zarur?

2-savol bayoni.

Didaktik jarayon tuzilmasiga ko’ra ta’lim metodlari quyidagi uch guruhga ajratiladi:



Yuqorida ko’rsatilgan
1. O’quv-bilish
2. O’quv-bilish faoliyatini rag’batlantirish va motivlash metodlari.
3. Nazorat va o’z-o’zini nazorat metodlari.

Таълим методлари гуруҳлари

O’quvchiga bilimlarni etkazish shakliga ko’ra ta’lim metodlari:

1. Og’zaki bayon qilish metodlari.
2. Ko’rgazmali metodlar.
3. Amaliy metodlar kabi turlarga ham ajratiladi.

Ta’lim metodlari tizimida muhim o’rin tutadigan **og’zaki bayon qilish metodlari**ning o’zi ham quyidagi turlarga ajratiladi:



оғзаки баён қилиш методларининг турлари

Og’zaki bayon qilish metodlari o’quvchilarning umumiy madaniyati, mantiqiy fikrlashi hamda bilish qobiliyatini rivojlantirish bilan bog’liqdir. Ugbu metodlar o’quvchining nutq boyligini oshirish va xorijiy tillarni o’rganishdagi ahamiyati beqiyos.

Hikoya o’qituvchi tomonidan mavzuga oid dalil, hodisa va voqealarning yaxlit yoki qismlarga bo’lib, tasviriy vositalar yordamida obrazli tasvirlash yo’li bilan ixcham, qisqa va izchil bayon qilinishi

Metodning samarasi ko’p jihatdan o’qituvchining nuqt mahorati, so’zlarni o’z o’rnida, ifodali bayon qilishi, shuningdek, o’quvchilarning yoshi, rivojlanish darajasini inobatga olgan holda

yondashuviga bog'liq. Shu bois hikoya mazmuni o'quvchilarning mavjud bilimlariga tayanishi, ularni kengaytirishga xizmat qilishi zarur. Hikoyaning axborotlar bilan boyitilishi maqsadga muvofiqdir.
Hikoya qilinayotgan materialni samaralash maxsus reja asosida amalga oshiriladi. O'qituvchi har bir darsda uning maqsadini aniq belgilab oladi, undagi asosiy tushunchalarga alohida urg'u berishga e'tiborni qaratadi. Hikoya qisqa bo'lishi hamda o'quvchilarda his-hayajon va mavzuga nisbatan qiziqishni uyg'otishi kerak.

Suhbat savol va javob shaklidagi dialogik ta'lim metodi

Suhbat metodi fanga qadimdan ma'lum, xatto undan o'z faoliyatida Suqrot ham mohirona foydalangan. Suhbat ta'lim jarayonida ko'p funktsiyalar (aqliy fikrlash, hozirjavoblik, muloqot madaniyati va boshqa sifatlarni shakllantiradi) bajaradi, ammo asosiysi o'quvchida faollikni yuzaga keltiradi. Suhbat o'qituvchi fikriga mos harakat qilish, natijada yangi bilimlarni bosqichma-bosqich egallashga imkon beradi.
Suhbat – faoliyatini endigina boshlagan o'qituvchi uchun murakkab ta'lim metodi hisoblanadi, binobarin, savollarni tayyorlash, ularning ketma-ketligini ta'minlash ko'p vaqt talab etadi, uni tashkil etishda esa barcha o'quvchilarning diqqatini jalb etish talab qilinadi. O'qituvchi oddiy savollar berishi, o'quvchilarga ular yuzasidan batafsil o'ylash uchun vaqt ajratishi, o'quvchilarning javoblarini esa diqqat bilan tinglashi, zarur o'rinlarda ularni sharhlashi lozim. Shu bois suhbatda bilish deduktiv yoki induktiv yo'l bilan amalga oshadi. Deduktiv suhbat o'quvchilarga oldindan ma'lum bo'lgan qoidalar, tushunchalar, hodisalar, jarayonlar asosida tashkil etilib, o'quvchilar tahlil yordamida xususiy xulosalarga keladilar. Suhbatning induktiv shaklida alohida dalillar, tushunchalarning tahlil asosida umumiy xulosaga kelinadi.
Suhbat ko'proq o'quvchilarni yangi bilimlar bilan tanishtirish, bilimlarni tizimlashtirish va mustahkamlash, nazoratni tashkil etish hamda o'zlashtirilgan bilimlarni tashxislashda ijobiy natijalarni beradi. Suhbat turli ko'rinishlarda, ya'ni, **kirish, yakuniy, individual va guruhli suhbat** tarzida tashkil etiladi.
Kirish suhbati o'quv ishlarining boshida tashkil etiladi. Uni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad hal etilishi zarur bo'lgan ishlar mohiyatining o'quvchilar tomonidan anglab etilganligini tekshirib ko'rishdan iborat.
Yakuniy suhbat o'quvchilar tomonidan egallangan bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish maqsadida amalga oshiriladi.
Katexizism (qisqa bayonli) suhbat – o'quvchilarning boshlang'ich bilim darajasi va ularning yangi mavzuni o'zlashtirishga tayyorgarligini aniqlash uchun dars avvalida yoki so'nggida qo'llaniladi.
Evristik suhbat yangi bilimlarni muammoli tarzda egallashga yo'naltiriladi. Savollar shunday ketma-ketlikda berilishi zarurki, ular o'quvchilarni mustaqil fikrlash, ularda faollikning yuzaga kelishini ta'minlash, ularni tahlil qilishga undash, dalillarni ilgari surishga rag'batlantirsin.
Tushuntirish o'quv materiali mazmunini isbot, tahlil, umumlashma, taqqoslash asosida bayon qilishdir. Bu metod hikoyaga nisbatan birmuncha keng qo'llaniladi. Undan odatda nazariy materiallar hamda murakkab masalalarni o'rganishda foydalaniladi. Tushuntirish jarayonida o'quv materialining bir qadar qiyin o'rinlariga alohida urg'u berilib, mazmuni ochib beriladi. Tushuntirish samarasi ko'p hollarda o'qituvchining ko'rgazmali vositalardan oqilona foydalanishiga bog'liq bo'ladi.

Ma'ruza yirik hajmdagi o'quv materialini og'zaki bayon qilish metodi sanalib, u qat'iy mantiqiy ketma-ketlik, uzatilayotgan axborotlarning ko'pligi, bilimlar bayonining tizimliligi kabi o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etadi

Ma'ruza mazmuni murakab tizimlar, hodisalar, ob'ektlar, jarayonlar, ularning sababli-oqibatli bog'lanishlari, qonun va qoidalardan tashkil topadi va u butun dars jarayonini qamrab olishi

mumkin. Ma’ruza metodi tushuntirish va suhbatning asta-sekin kengayib borishidan vujudga keladi, bir vaqida o’quvchilarni qisqacha yozib olish (konspektlash)ga o’rgata boradi.
Maktab ma’ruzasining samaradorligini ta’minlash **shartlari** quyidagilardan iborat**:** ma’ruza rejasini tuzish; o’quvchilarni ma’ruza mavzusi, rejasi bilan tanishtirish; ma’ruza bandlarini mantiqiylik va ketma-ketlikda bayon etish; har bir bandini qisqacha xulosalash; ma’ruzaning bir qismidan ikkinchisiga o’tishda mantiqiy aloqadorlikni ta’minlash; ma’ruzani muammoli va hissiy tarzda bayon qilish; bunja nutq imkoniyati, misollar, aniq dalillar va qiyoslashlardan foydalanish; o’quvchilarning bilish faoliyatini mahorat bilan boshqarish; ma’ruzaning muhim jihatlarini ochib berish; o’quvchilar ma’ruzaning asosiy o’rinlarini yozib borishlariga imkon yaratish; muhim o’rinlarni ta’kidlab ko’rsatish; ma’ruza mazmunini ko’rgazmali tarzda (namoyish, illyustratsiya, videofilm va boshqalardan foydalangan holda) yoritish.
Ta’lim sifatini oshirishda **ko’rgazmali metodlar** ham alohida ahamiyatga ega. Ko’rgazmali metodning quyidagi turlari mavjud:



ko’rgazmali metodning turlari

Ushbu metodlardan foydalanish zaruriyati ko’rsatmalilik tamoyiliga amal qilish maqsadga muvofiq ekanligida ko’rinadi. Inson miyasining 30 foiz hajmini ko’rishni, faqat 3 foizigina eshitishni ta’minlovchi neyronlar tashkil etadi. Pedagogik-psixologik yo’nalishda olib borilgan tadqiqotlar natijalaridan ma’lum bo’ladiki, shaxs tomonidan o’zlashtirilayotgan bilimlarning 85 foizi ko’rish retseptorlari yordamida o’zlashtiriladi. Demak, o’zbek xalqi tomonidan ko’p bora qo’llaniladigan “Yuz marta eshitgandan bir marta ko’rgan yaxshi” maqoli ilmiy asosga ega ekan.

Namoyish metodi o’rganilayotgan ob’ekt harakat dinamikasini ochib berishda qo’l keladi va ayni chog’da predmetning tashqi ko’rinishi va ichki tuzilishi haqida to’laqonli ma’lumot berishda keng qo’llaniladi

miqdori, rangi, qismlari, ularning o’zaro munosabatlari)ga e’tibor qaratiladi, so’ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o’rganishga o’tiladi. Ko’rsatish ko’p holatlarda o’rganilayotgan ob’ektlarning sub’ekti yoki chizmasi yordamida kuzatiladi. Tajribalar namoyishi esa sinf taxtasiga chizish yoki o’qituvchining maxsus jihozlar yordamida ko’rsatib berishi hisobiga amalga oshadi.
Predmetlar, hodisa yoki jarayonlarni tabiiy holatda namoyish qilish yanada ko’proq didaktik samara beradi, biroq, bunday namoyishni amalga oshirish har doim ham mumkin bo’lavermaydi. Shu bois o’qituvchilar tabiiy predmetlarni namoyish qilishda sun’iy muhitga murojaat qilishadi (masalan, hayvonlar bilan hayvonot bog’ida, turli o’simliklar bilan esa issiqxonalarda tanishish) yoki sun’iy ravishda yaratilgan ob’ektlar (maket, model, mulyaj, skelet va boshqalar)dan foydalaniladi.
Metod yordamida o’qituvchi o’quvchilarni mustaqil ravishda ob’ektlarni o’rganish, zaruriy o’lchov ishlarini olib borish, aloqadorlikni o’rnatish, shuningdek, hodisalarning mohiyatini anglab etishga bir so’z bilan aytganda faol bilish jarayoniga yo’naltirishi lozim. Namoyish samarasi ko’p jihatdan o’qituvchining bilish jarayoni mohiyatan o’quvchilarning yoshiga mos holda to’g’ri tanlanishi hamda mumkin qadar ularning diqqatini namoyish etilayotgan predmetning muhim jihatlariga yo’naltirishiga bog’liqdir.

Tasvirlash (illyustratsiya) metodi namoyish metodiga chambarchas bog'liq bo'lsada, didaktikada alohida o'rganiladi.

Tasvirlash narsa, hodisalar va jarayonlarni ularning ramziy ko'rinishlari – chizma, port, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko'rsatishni taqozo etadi

Namoyish va tasvir metodlari o'zaro bog'liqlikda bir-birini to'ldirgan holda qo'llaniladi. Agar hodisa va jarayonni o'quvchi yaxlit holda qabul qilishi zarur bo'lsa namoyishdan foydalanish, agar hodisa mohiyati hamda uning unsurlari o'rtasidagi bog'lanishlarni anglash talab etilsa illyustratsiyaga murojaat qilinadi.
Tasvirning samarasi ko'pincha o'qituvchi tomonidan ko'rsatuv texnologiyasi qay darajada o'zlashtirilganligiga bog'liq bo'ladi. Ko'rsatmalardan foydalanishning bilish jarayonidagi didaktik ahamiyati o'rganilayotgan ob'ekt mohiyatini to'laqonli yorita olishi bilan belgilanadi. Aslida illyustratsiyalar oldindan tayyorlanib, dars jarayonida zarur o'rinlarda kerakli hajmda ko'rsatiladi, aks holda ular sonining oshib ketishi o'quvchilarni hodisa mohiyatini anglashda chalg'itadi. Ayrim hollarda tarqatma materiallar (fotosurat, jadval, tabiiy ob'ektlar va boshqalar) yoki texnik vositalar xizmatidan foydalanishga to'g'ri keladi.
O'rganilayotgan mavzuning mazmuniga bog'liq bo'lgan narsa, hodisa va voqealarni hamma vaqt sinf sharoitida namoyish qilish mumkin bo'lmaydi. Shuning uchun ham o'tilayotgan mavzuning xarakteriga qarab, **ekskursiya** metodidan ham foydalaniladi. Mazkur metod sinf sharoitida – dars jarayonida qo'llaniladigan ta'lim metodlaridan iubdan farq qiladi.

Ekskursiya narsa va hodisalar mohiyatini tabiiy sharoitlar (ishlab chiqarish muassasalari, fermer va jamoa xo'jaliklari, tabiat) yoki maxsus muassasalar (muzey, ko'rgazma zallari va hokazolar)da bevosita o'rganilishining tashkil etilishi

Ekskursiya bir vaqtning o'zida mustaqil ta'lim turi ham sanaladi.
Ko'rgazmali metodlardan foydalanishda quyidagi shartlarga amal qilish maqsadga muvofiqdir: **ko'rgazmalilikning o'quvchilar yoshi va rivojlanish darajasiga mos kelishi; namoyish etilayotgan ob'ektlar barcha o'quvchilarga yaxshi ko'rinib turishi; namoyishda uning boshlang'ich bosqichi va asosiy jarayon (holat)larning ajralib turishi; tajribalar namoyishi maket, jihoz, qurollar yoki tajriba sxemasini chizib ko'rsatish asosida tashkil etilishi; namoyish va illyustratsiya o'quv materialining mazmuni bilan uyg'un bo'la olishi lozim.**

Amaliy ishlar metodi o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalar echimini topishga yo'naltirilgan jarayonda qo'llashni taqozo etadi, bunda nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmasi hosil qilinadi

Amaliy ishlar sinfda yoki tabiiy sharoitlar – maktab er maydoni, issiqxona, geografik maydonlarda amalga oshiriladi. Ularni amalga oshirishda sodir etiladigan harakatlar o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadi va zarur hollarda yo'riqnoma yoki maxsus ko'rsatmani o'quvchilar e'tiboriga havola etadi.
Amaliy ishlar metodi o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy bilimlar yordamida ularda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilishda alohida ahamiyat kasb etadi:



Amaliy ishlar metodlarining turlari

Qayd etilganidek, ushbu metodlar o'quvchilarda amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yordam beradi. Aynan amaliy faoliyat jarayonida nazariy bilimlar harakatdagi shaklga ega bo'ladi.
Mashq – aqliy yoki amaliy (jismoniy) harakatlarni bajarish ko'nikmalarini egallash yo'lidagi ko'p marta takrorlanishlar bo'lib, mashqsiz ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish mumkin emas. Mashqlar og'zaki, yozma, gradikaviy (texnik jarayonlar mohiyatini ifodalash), ijtimoiy-foydali, jismoniy va boshqa turlarga bo'linadi.
Yozma mashqlar – ta'limning tarkibiy qismi sifatida zaruriy ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash maqsadida qo'llaniladi. Diktant, insho, masala, misol, shuningdek, referat yozish va tajriba mohiyatini yoritish ham yozma mashqlar sirasiga kiradi.
Grafikaviy ishlar jihatlariga ko'ra yozma ishlarga o'xshash bo'lib, ulardan asosan texnik jarayonlar (ya'ni geografiya, fizika, matematika, chizmachilik, rasm hamda texnologik ta'lim)da keng ko'lamda foydalaniladi.
Mashqlarning bajarilish samarasi quyidagi shartlar hisobga olinganda birmuncha yuqori bo'ladi: **mashqlarni bajrishga nisbatan ongli yondashish; bajarish qoidasini bilish; vaqt bo'yicha takrorlanishning to'g'ri taqsimlanishi.**
Mashqni bajarishni tashkil etish quyidagi bosqichlardan iborat: **o'qituvchining faoliyat maqsadi va mazmunini tushuntirishi; topshiriqni bajarish ketma-ketligini ko'rsatishi; o'qituvchi nazorati ostida o'quvchilar tomonidan o'quv harakatining dastlabki bajarilishi; zarur ko'nikma va malakalar shakllangunicha o'quv harakatlarning ko'p bora takrorlanishi.**
Ayrim holatlarda o'quvchilar ovoz chiqarib o'quv harakatlarini takrorlashlari va bajarishlari lozim bo'ladi. Ular izohli mashqlar deb nomlanadi va bajariladigan harakatlarning mohiyatini anglagan holda ko'nikma va malakalarni egallashga imkon beradi.
Laboratoriya ishlari o'quvchilarning jihoz, maxsus uskuna, qurol hamda turli texnikaviy qoliplardan foydalangan holda tajribalarni o'tkazish metodlari bo'lib, ular ko'proq tabiiy fanlar asoslarini o'rganishda qo'llaniladi. Bu metod o'quvchilarning asbob-uskunalar bilan ish ko'rish, o'lchash ishlarini amalga oshirish va ularning natijalariga ishlov berish kabi ko'nikmalarini tezkor shakllantirishga imkon beradi. Laboratoriya ishlarini bajarish maxsus qurilma va jihozlar, shuningdek, materiallar hamda vaqtni sarflash, ularni ishga tayyor holatga keltirishni talab etadi. Biroq bu harakatlar o'quvchilarning yuqori darajadagi faolligi asosida mustaqil ravishda tajriba va o'lchash ishlarini tashkil etish bilan takomillashtirilib boriladi.
Laboratoriyadan amaliy ishlarning farqi shundaki, bu metod o'quvchilarning mavjud nazariy bilimlarni amaliy masalalar echimini topishga yo'naltirilgan faoliyatini tashkil etishga xizmat qiladi. U o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, bilish faoliyatini nazorat qilish hamda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish borasidagi ko'nikmalarini shakllantirish kabi funktsiyalarni bajaradi.
Amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarning bilish faoliyati quyidagi besh **bosqich**da tashkil etiladi:

Nazorat savollar:

1. Ta'lim jarayonida suhbat metodini qo'llashda nimalarga e'tibor qaratish zarur?
2. Og'zaki bayon metodlarining afzalliklari nimalar ko'rinadi?
3. Ko'rgazmali metodlar turkumini nimalar tashkil etadi?

3-savol bayoni.
Ta'lim metodlarini tanlash. Pedagogika fanida o'qituvchilarning amaliy tajribasini o'rganish va umumlashtirish asoida ta'lim metodlarini tanlashga o'quv-tarbiya jarayoni kechayotgan shart-sharoitlar va aniq holatlarga bog'liq muayyan yondashuvlar vujudga keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda quyidagi holatlar inobatga olinishi lozim:
- zamonaviy didaktikaning etakchi g'oyalari, ta'lim, tarbiya va rivojlantirishning umumiy maqsadlari;

- o’rganilayotgan fan mazmuni va metodlari, mavzularining o’ziga xosligi;
- xususiy fanlar metodikasining o’ziga xosligi va umumdidaktik metodlarni saralashga qo’yiluvchi talablarning o’zaro aloqadorligi;
- muayyan dars materialining maqsadi, vazifalari va mazmuni;
- u yoki bu mavzuni o’rganishga ajratilgan vaqt;
- o’quvchilarning yosh xususiyati, bilish imkoniyatlari, darajasi;
- o’quvchilarning darsga tayyorgarlik darajasi;
- o’quv muassasalari, auditoriyalarning moddiy ta’minlanganlik darajasi, jihozlar, ko’rsatmali qurollar, texnik vositalarning mavjudligi;
- o’qituvchining imkoniyatlari, nazariy va amaliy jihatdan kasbiy tayyorgarlik darjasi, pedagogik mahorati, shaxsiy sifatlari;
- o’quv muassasalarida fanlararo hamkorlikning o’rnatilganligi.

O’qituvchi bu holatlarni inobatga olib, u yoki bu ketma-ketlikda og’zaki, ko’rgazmali yoki amaliy metodlarni, reproduktiv yoki mustaqil ishlarni boshqarish metodlarini nazorat va o’z-o’zini nazorat metodlarini tanlash borasida aniq echimlar qabul qiladi.

O’qituvchi bu holatlarni inobatga olib, u yoki bu ketma-ketlikda og’zaki, ko’rgazmali yoki amaliy metodlarni, reproduktiv yoki mustaqil ishlarni boshqarish metodlarini nazorat va o’z-o’zini nazorat metodlarini tanlash borasida aniq echimlar

Ta’lim metodlarini tanlash quyidagi mezonlari asosida aniqlanadi:
- didaktik maqsad asosida;
- ta’lim mazmuni asosida;
- o’quvchilarning o’quv ko’nikmalarini egallash va rivojlanish darajasi asosida;
- o’qituvchining tajribasi va kasbiy tayyorgarlik darajasi asosida.

O’qituvchi tomonidan qo’llanilayotgan ta’lim metodlari majmuasi boshlang’ich sinflardan yuqori sinflarga o’tish asosida o’zgarib hamda murakkab xususiyat kasb eta boradi. Ushbu jarayonda ayrim metodlarni qo’llash chastotasi oshsa, ayrim metodlarni qo’llashga bo’lgan ehtiyoj kamayadi. Ta’lim metodlaridan foydalanish ko’lami, holati o’qituvchining kasbiy tayyorgarligi va mahorati darajasiga bog’liq holda o’zgaradi.

Didaktikada munozaralarga sabab bo’layotgan yana bir muhim ob’ekt ta’lim metodlarining tasnifidir. «Ta’lim metodlari tasnifi ularning ma’lum belgilari bo’yicha tartibini ifodalovchi tizimdir. Hozirgi vaqtda o’nlab ta’lim metodlari ma’lum», - ekanligini ta’kidlagan holda I.P.Podlaso’y fikrini quyidagicha davom ettiradi, - «Biroq bugungi kunda etakchi sanaluvchi didaktik g’oya yagona va o’zgarmas metodlar majmuini yaratishga intilish samarasiz ekanligini tushunishga yordam beradi. O’qitish – favqulodda harakatchan, dialektik jarayon. Metodlar tizimi ham bu harakatlanishni aks ettiradigan darajada jo’shqin bo’lishi, metodlarni qo’llash amaliyotidagi doimiy o’zgarishlarni hisobga olishi kerak».

Ta’lim metodlarini tanlash muammosi uzoq davrdan buyon tadqiq qilib kelinmoqda. Biroq tadqiqotlar soni ko’p bo’lsada, bu borada yagona to’xtamgan kelinmagan. Ushbu o’rinda ta’lim amaliyotida qo’llanilib kelayotgan metodlar tizimi (tasnifi)ga to’xtalib o’tamiz.

Bilimlar manbai va materiali sifatida avval egallangan ijodiy ishlar tajribasi, mavjud bilimlar, kuzatuvlar, shaxsiy tajriba, o’qilgan hikoya, ijtimoiy-foydali ishlarni boshqarish kabilar qayd etiladi.

O’qituvchining rahbarligi: nazariy materiallarni o’zlashtirilishini ta’minlash, mavzuni ifodalash, ijodiy ishlar xarakterini belgilash, ularning bajarilishini nazorat va tahlil qilish, sintezlash, xatoni ko’rsatish hamda to’g’rilashdan kabi holatlarda namoyon bo’ladi[1].

Keltirilgan tasnif «bilimlar manbai» bo’yicha tizimlashtirilgan metodlar – og’zaki, ko’rgazmali va amaliy metodlarni u yoki bu darajada o’zida mujassamlashtiradi. Biroq, M.A.Danilov va B.P.Esipovlar asosiy e’tiborni «ta’lim metodini to’g’ri tanlash»ga qaratishadi. Gap shundaki, sobiq Sho’ro umumta’lim maktablarining o’quv jarayonida metodlarning cheksiz ko’pligi, xatto ularni bir necha tasnif bilan ham qamrab olish mumkin emasligi, shu boisdan ham o’quv-tarbiyaviy ishlar muvaffaqiyatining bosh omili va eng muhimi to’g’ri, asoslangan metodni tanlash hisoblangan, Ana shu «g’oya» mohiyat jihatidan noto’g’ri bo’lishiga qaramay, o’n yillar davomida didaktika «rivoji»da muhim o’rin tutib keldi. Nihoyat, har ikki tasnif bilimlar manbai bo’yicha ham, didaktik

[1] Данилов М.А., Есипов Б.П. Дидактика. – Москва, Изд-во АПН РСФСР, 1957.

maqsadlar bo'yicha aniqlangan ta'lim metodlari tizimi maktab amaliyotining asosiy muammosini hal eta olmasligiga tanqidiy yondashildi, ularni qo'llash ta'lim sifatining yuqori darajasini ta'minlaganligi anglab etildi va bu boradagi izlanishlar davom ettirildi.
Ushbu metodlar, mualliflarning ta'kidlashlaricha, bir-biridan o'quvchilarning ta'lim mazmuni turlarini o'zlashtirishda amalga oshadigan bilish faoliyatlari xarakteri va o'quvchilarning xilma-xil faoliyatlarini tashkil etuvchi o'qituvchi holati ... bo'yicha farqlanadi[1].
Izohli-tasvirli ta'lim metodlari (boshqa nomlanishi axborotli-reptseptsiya)ning mohiyati: odatda nazariy bilimlar tayyor holda uzatiladi, o'quvchilar esa ularni qabul qiladilar (reptseptsiya). Bu yo'lda turli ta'lim vositalari (shu jumladan, ko'rgazmali vositalar)dan foydalaniladi. O'qituvchi faoliyati bunda nafaqat axborotlarni uzatish, balki ularning o'quvchilar tomonidan qabul qilinishini ham tashkil etishdan iborat bo'ladi.
Izohli-tasvirli metoddan ta'lim jarayorida foydalanishda quyidagi holatlar yuzaga keladi:
Reproduktiv ta'lim metodlari yuqorida keltirilgan metodlardan quyidagi unsurlarning mavjudligi bilan farqlanadi: o'qituvchining bilimlarni tushuntirishi, ularni o'quvchilarning yodida saqlanishini ta'minlashi va qayta ishlab chiqishi (reproduktsiya). O'zlashtirilgan bilimlarning mustahkam bo'lishiga ularni ko'a marta takrorlash evaziga erishiladi. Mazkur metod ta'limning barcha bosqichlari, asosan, boshlang'ich sinflarda o'qish va yozish, arifmetik harakatlarni amalga oshirish ko'nikmalarini o'zlashtirishda muhim o'rin tutadi.
Reproduktiv metoddan foydalanishda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
- avval o'zlashtirilgan mavzu, paragraf yoki bob bo'yicha so'rov; - o'quvchilar uchun turli mashqlarni saralash va taklif qilish; - masalalarni echishdagi o'quv harakatlarining namunasi va algoritmini namoyish qilish; -o'quv harakatlari ko'nikmasi va malakasini shakllantirish	- turli konteksda bilimlarni qayta ishlash; - namuna bo'yicha topshiriqlarni bajarish; - mashqlarni bajarish; - namunaviy masalalarni echish usullarini egallash; - namunaviy masalalarni echish algortmini egallash

Evristik ta'lim metodini qo'llashda o'qituvchi tomonidan turli vositalar yordamida yangi bilimlarni izlab topish talab etiladi. O'qituvchi bilimlarning bir qismini o'quvchilarga ma'lum qiladi, qolganini esa o'quvchilar bilish topshiriqlarini echish jarayonida savollarga javoblar topish asosida o'zlashtiradi, o'zlari bilimlarni mustaqil egallashadi. O'qituvchi tomonidan qo'yilgan masalani bir necha qarashlarga ajratilishi, ularni bajarishda o'quvchilarning ketma-ketlikka rioya etishlari muhim metodik jihat sanaladi. Shu bois mazkur metod qisman izlanuvchan metod ham deb ataladi.
Evristik metodni qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
- o'quvchilarni masalaning mohiyatini o'rganishga jalb etish; - echim rejasini aniqlashda mulohaza yuritish namunasini ko'rsatish; - masalani bosqichlarga ajratish; -evristik suhbat	- evristik suhbatda qatnashish; - masalani echish rejasini olg'a surish; - izlanuvchan harakat usullarini egallash; - masalalar echish yo'llarini izlab topish

[1] Дидактика средней школы //Под ред. М.Н.Скаткина. – Москва, Просвещение, 1982. – с. 207.

Muammoli metodning mohiyati mashg'ulotlar jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va echishdan iborat bo'lib, uning asosida didaktik ziddiyatlar yotadi. Ziddiyatlarni bartaraf etish nafaqat ilmiy bilish yo'li shu bilan birga o'quv yo'li hamdir. Bu metodni quyidagi chizma yordamida ifodalash mumkin:

Muammoli ta'lim kontseptsiyasining asosiy tushunchalari «muammoli vaziyat», «muammo», «muammoni topish» kabilar hisoblanadi. Chizmadan anglanadiki, muammoli vaziyat bu metodning dastlabki ko'rinishi hisoblanib, o'zida sub'ektning aniq yoki qisman tushunib etilgan muammoni ifodalaydi, uni bartaraf etish yangi bilimlar, usullar va harakat ko'nikmalarini o'zlashtirishni taqozo etadi. Agar o'quvchida qiyinchiliklarni yo'qotish yo'llarini izlab topish uchun boshlang'ich ma'lumotlar bo'lmasa, shubhasiz, muammoli vaziyat echimini u qabul qilmaydi, ya'ni, muammoning echimi uning ongida aks etmaydi. Fikrlash muamo mohiyatini tushunib etilishi, ifodalanishi, mavjud bilim va ko'nikmalar majmuasi va izlanish tajribasi asosida muammoli vaziyatni qabul qilish bilanoq boshlanadi. Bu holda muammoli vaziyat muammoga aylanadi. Har bir muammo muammoli vaziyatni o'zida namoyon etadi, biroq, barcha muammoli vaziyat muammoga aylanavermaydi.

Mazkur metoddan foydalanish jarayonida muammo echimini topishga yordam beruvchi yo'nalishlar ko'rsatilmaydi va chegaralanmaydi. Bu xususiyat muammoli masalaga xosdir. Muammoda echimning qandaydir parametrlari ko'rsatilsa, u muammoli masala hisoblanadi. Har qanday muammoli topshiriq ma'lum muammoni, demak, muammoli vaziyatni ham qamrab oladi. Biroq, yuqorida ta'kidlanganidek, barcha muammoli vaziyat muammo bo'la olmaydi. Inson har doim muammoli masalalarni hal etadi. Agar uning oldida muammo paydo bo'lsa, uni muammoli masalaga aylantiradi, ya'ni, uning echimi uchun o'zidagi bilimlar tizimiga tayanadi va ma'lum ko'rsatishlarni belgilab oladi. Muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda u boshqa ko'rsatkichlarni qidiradi va shu muammo bo'yicha yangi variantlardagi masalalarni loyihalaydi.

Ta'lim jarayonida muammoli metodni qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
- o'quv materialiga oid tafovutlarni taklif etilishi; - muammoli vaziyatlarni tuzish; - muammoning mavjudligini aniqlab berish; - muammoli topshiriqlarni loyihalash	- o'quv materiali mohiyatining anglab etilishi; - muammoli vaziyat yuzasidan fikrlash; - mavjud bilimlar va tajribani qayta tiklash; - muammoli masalaga o'tkazish; - topshiriqni bajarish

Tadqiqotchilik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda hal etilishi zarur bo'lgan masalani aniqlab oladi, o'quvchilar esa mustaqil ravishda taklif etilgan masalani tadqiq etish jarayonida zaruriy bilimlarni o'zlashtirib oladilar va uning echimi bo'yicha boshqa vaziyatlar bilan taqqoslaydi. O'rnatilgan masalani echish davomida o'quvchilar ilmiy bilish metodlarini o'zlashtirib tadqiqotchilik faoliyatini olib borish ko'nikmasi, tajribasini egallaydilar.

Ta'lim jarayonida tadqiqotchilik o'qitish metodini qo'llashda o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

O'qituvchi faoliyatining tuzilmasi	O'quvchi faoliyatining tuzilmasi
- o'quvchilarga o'quv muammosini taklif etish; - o'quvchilar bilan hamkorlikda tadqiqot masalasini o'rnatish; - o'quvchilarning ilmiy faoliyatini tashkil etish	- o'quv muammolari mohiyatini anglab olish; - tadqiqot muammosini o'qituvchi va o'quvchilar bilan birgalikda o'rnatishda faollik ko'rsatish; - ularni echish usullarini topish; - tadqiqiy masalalarni echish usullarini o'zlashtirish

Evristik va tadqiqotchilik metodlari o'quvchilardan ijodiy xususiyat kasb etuvchi yuqori darajadagi bilish faoliyatini tashkil eta olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishni taqozo etadi. Buning natijasida o'quvchilar mustaqil ravishda yangi bilimlarni o'zlashtira oladilar. Ular odatda yuqori

sinf o'quvchilarining o'zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda ma'lum holatlarda qo'llaniladi. Ushbu metodlardan boshlang'ich sinflarda foydalanish amaliyotchi-o'qituvchilarning fikrlariga ko'ra bir muncha murakkab hisoblanadi. Biroq uzluksiz ta'lim tizimiga shaxsga yo'naltirilgan ta'limni faol joriy etishga yo'naltirilgan ijtimoiy harakat amalga oshirilayotgan mavjud sharoitda ushbu yo'nalishdagi loyihalarni tayyorlash o'ziga xos dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Shunga qaramasdan bu tasnif maktab amaliyotida birmuncha keng tarqalgan va pedagogik hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan. Shuningdek, buyuk didakt I.Ya.Lerner asarlari asosida ilmiy tadqiqot[1] ham amalga oshirilgan.

Didaktikada ta'lim metodlarining binar (ikki)li va ko'pbinarli omil asosida tizimlashtirishga bo'lgan urinishlarni ham kuzatish mumkin. Chunonchi, M.I.Maxmutov tomonidan ta'lim metodlari va o'qish metodlari ajratiladi:

Shuningdek, V.F.Palamarchuk va V.I.Palamarchuklar ta'lim metodlarining uch o'lchovli modelini taklif qilishgan. Unda bilimlar manbai, o'quvchilarning bilish faolligi va mustaqillik darajasi hamda o'quv-bilishning mantiqiy yo'li yaxlit tarzda chog'ishtiriladi.

S.G.Shopavalenko ta'lim metodlari tasnifini to'rt belgi asosida asoslovchi quyidagi tetroeddik yondashuvni taklif etadi:

1) mantiqiy-mazmunli;
2) manbali;
3) mazmunli;
4) tashkiliy boshqaruvchi.

I.P.Podlaso'y birmuncha keng tarqalgan ta'lim metodlari tasnifiga yaqinlashar ekan, quyidagi fikrni ta'kidlaydi: «Boshqa bir qator ta'lim metodlari tasnifi ham mavjud. Masalan, nemis didakti L.Klinberg ta'lim jarayonida metodlarni hamkorlik shakllari bilan uyg'unlashtirishga alohida urg'u beradi»[1] va quyidagi metodlarni ko'rsatadi:

Monologik metodlar	Hamkorlik shakllari	Diologik metodlar
Ma'ruza	Individual	Suhbatlar
Hikoya	Guruhli	Intervyu
Namoyish	Frontal	-
-	Jamoaviy	-

Nazoat savollari:

1. Og'zaki bayon metodlarining afzalliklari nimalar ko'rinadi?
2. Ko'rgazmali metodlar turkumini nimalar tashkil etadi?
3. Amaliy metodlar mohiyati nimadan iborat?
4. Didaktik o'yinlar qanday maqsadda qo'llaniladi?

4-savol bayoni.

Ta'lim metodlari turli shakllar hamda xilma-xil ta'lim vositalari yordamida joriy etiladi.

Ta'lim shakllari ta'lim jarayonining tashkiliy-tuzilmaviy ko'rinishidir. Bugungi kunda ta'lim muassasalarida quyidagi ta'lim shakllaridan samarali foydalanib kelinmoqda: ma'ruza, seminar, amaliy mushg'ulot, uchrashuv, taqdimot, sayohat, o'quv konferentsiyasi va boshqalar.

Ta'lim jarayonida ta'limning samaradorligini ta'minlovchi muhim elementlardan biri sifatida ta'lim vositalari e'tirof etiladi. Ta'lim vositalari sirasiga quyidagilar kiradi: texnik hamda axborot qurilmalari (dioproektor, kinedoskop, uskunalar, radio, televidenie, kompyuter, audio hamda video magnitafonlar), laboratoriya jihozlari (kolbalar, probirkalar, kimyoviy reaktivlar, mikroskop), xarita, maketalar, diagrammalar, plakatlar, rasmlar, chizmalar va hokazolardan foydalaniladi.

[1] Меретукова В.Р. Инновационные идеи в дидактических трудах И.Я.Лернера. Дисс. … канд.пед.наук (13.00.01). – Москва, 2003.

[1] Подласый И.П. Педагогика. Новый курс. Кн. 1. – Москва, ВЛАДОС, 1999.

N.S.Sayidahmedov tomonidan asoslangan ta'lim metodlari tasnifi asosida didaktik jarayon nazariyasi yotadi[2]. Ma'lumki, didaktik jarayon har qanday pedagogik texnologiyaning asosi sifatida o'zida quyidagi uchta komponentni mujassamlashtiradi:

1) motivatsion bosqich;
2) o'quv faoliyati;
3) boshqaruv.

Demak, didaktik jarayon tuzilmasiga mos holda ta'lim metodlarini quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

I. O'qish va mehnatga rag'batlantiruvchi hamda motivlashtirish metodlari.
II. O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari.
III. O'quv-bilish faoliyatini boshqarish metodlari.

O'z navbatida har bir guruh ilmiy asosda kichik guruhlarga ajratiladi:

I. O'qish va mehnatga rag'batlantiruvchi hamda motivlashtirish metodlari		
I kichik guruh	II kichik guruh	III kichik guruh
O'qishga qiziqishni rag'batlantiruvchi metodlar	O'qish va mehnatda burch hamda javobgarlikni rag'batlantiruvchi metodlar	Mehnatga va muayyan kasbga qiziqishni rag'batlantiruvchi metodlar
- biluv o'yinlari; - o'quv bahsi; - hissiy-axloqiy kechinmali vaziyatlar yaratish; - appertseptsiyali (idrokning tajribaga bog'liqligi) vaziyatlarni yaratish; - biluv yangiliklari vaziyatlarini yaratish	- o'qish va mehnatning muhimligiga ishontirish; - talablarni ifodalash; - talablarni bajarish uchun mashq; - o'qishdagi rag'bat; - o'qishdagi kamchilik uchun tanbeh	- g'oliblarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish; - o'quvchilarning ishlab chiqarish vositalarini mustaqil boshqarishga intilishlarini rag'batlantirish; - ish joyidagi xulqini rag'batlantirish

II. O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari		
I kichik guruh	II kichik guruh	III kichik guruh
O'quv-bilish faoliyatining mo'ljal asoslarini vujudga keltirish metodlari	O'quv-bilish faoliyatini bajarish metodlari	Mehnatda va mehnatda nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlari
Og'zaki: - hikoya; - suhbat; - tushuntirish; - ma'ruza; - yo'riqnoma	Amaliy: - mashq; - o'quv-ishlab chiqarish tajribasi; - o'quv-unumli mehnat; - kitob bilan ishlash; - yozma ish	Og'zaki: - individual so'rov; - yalpi so'rov; - dasturli og'zaki so'rov
Ko'rsatmali: - illyustratsiya; - namoyish	Izlanuvchi: - qisman-izlanuvchi - tadqiqotchilik; - algoritmlik; - tashhisli	Yozma: - nazorat-yozma ish; - yozma sinov (test); - yozma imtihon; - dasturli yozma sinov (test); - laborotoriya-amaliy;

[2] Сайидахмедов Н.С. Методы обучения и коллектив механизированному труду в хлопководстве. – Тошкент, Ы=итувчи, 1991. – с. 112.

		- nazorat laborotoriya ishi; - mashinali nazorat; - unumli mehnatni son va sifat jihatdan baholash

III. O'quv-bilish faoliyatini boshqarish metodlari
Bilish faoliyatini kuzatish metodlari: - bevosita; - bilvosita yo'riqnoma yordamida; - o'z-o'zini nazorat Nazorat metodlari: - o'qituvchi topshiradi; - dasturli qo'llanmadan foydalaniladi; - ta'limning texnik vositalari yordamida O'quv faoliyatini tuzatish (korrektsiya) metodlari: - tezkor; - yakuniy natija bo'yicha; - foiz ko'rsatkichi bo'yicha

Shunday qilib, taqdim etilayotgan ta'lim metodlari tizimi nazariy-amaliy jihatdan asoslangan va mazkur tizim yaxlit o'quv-tarbiya jarayonini qamrab oladi. Ushbu tizim bir qarashda akademik Yu.K.Babanskiy tomonidan asoslangan ta'lim metodlari tizimiga o'xshash. Biroq, Yu.K.Babanskiy tasnifi[1]ga ko'ra ta'lim jarayoniga nisbatan kibernetik yondashuv maqsadga muvofiq, unga ko'ra har qanday murakkab faoliyat, shu jumladan, ta'limiy faoliyat ham quyidagi uchta tarkibiy qismdan iboratdir:

1) tashkiliy;
2) rag'batlantiruvchi;
3) nazorat.

Ana shu asosida ta'lim metodlari quyidagicha guruhlanadi:

4. O'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va bajarish metodlari.
5. O'quv-bilish faoliyatini rag'batlantirish va motivlash metodlari.
6. Nazorat va o'z-o'zini nazorat metodlari.

Didaktik jarayon nazariyasi asosida ko'rilgan o'qish metodlarining tasnifi kichik guruhlar tarkibi, soni va unga kiritilgan metodlar nomenklaturasi hamda funktsiyalari bilan kibernetik yondashuvli tizimdan tubdan farqlanadi va o'quv-tarbiya jarayonining metodik jihatdan birmuncha yuqori darajasini ta'minlaydi[1].

Nazorat savollar:

1. Ta'lim metodi nima?
2. Ta'lim vositalariga nimalar kiradi?
3. Ta'lim metodlarining tasnifi nima?
4. Ta'lim jarayonida suhbat metodini qo'llashda nimalarga e'tibor qaratish zarur?
5. Og'zaki bayon metodlarining afzalliklari nimalar ko'rinadi?
6. Ko'rgazmali metodlar turkumini nimalar tashkil etadi?
7. Amaliy metodlar mohiyati nimadan iborat?
8. Didaktik o'yinlar qanday maqsadda qo'llaniladi?

Asosiy adabiyotlar

1. Pedagogika. G'G' M.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.

[1] Педагогика /Под ред. Ю.К.Бабанского. – Москва, Просвещение, 1989.

[1] Сайидахмедов Н.С. Система методов обучения учащихся механизированному труду в хлопководстве. Автореф. дисс. … канд.пед.наук. – Москва, 1983, - с. 18.

2. Ibragimov X.I.., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.
3. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. – T.: TDPU, 2012.
4. Yuzlikaeva E., Madyarova S., Yanbarisova E., I.Morxova. Teoriya i praktika obhey pedagogiki. – T.: TGPU, 2014.
Principles of Learning and Teaching. Effective pedagogy. P – 12.
5. Leadership guide.Senior leaders, subject leaders and teachers in secondary schools.
6. Pedagogy and Practice:Teaching and Learning in Secondary chools . Status: Recommended Date of issue: 09-2004. Ref: DfES 0444-2004 GGuidance.

Qo’shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi – inson manfaatlarini ta`minlash taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. “O`zbekiston”. 2017
2. Xasanboev J, To’rakulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug’at. – T.: Fan va texnologiya, 2008 .
Elektron ta’lim resurslari
1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. Uz

-MAVZU PEDAGOGIK QOBILIYAT

Asosiy savollar

1. QOBILIYATNING PEDAGOGIK – PSIXOLOGIK TASNIFI.

2. O’qituvchi pedagogik qobiliyatini rivojlantirish funksiyalari.

3. PEDAGOGIK QOBILIYATNING ASOSIY SIFATLARI VA XUSUSIYATLARI.

Qobiliyat – shaxsning individual-psixologik xususiyati bo’lib, muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish sub’ektiv shart–sharoitini ifodalovchi individual psixik sifatlar yig’indisiga aytiladi, zarur bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarni egallash dinamikasidagi farqlarni aniqlaydi. Qobiliyatlar individual-psixologik xususiyat bo’lgani sababli, shaxsning boshqa sifatlari va xususiyatlariga, ya’ni aql sifatlariga, xotira va xarakter xususiyatlariga, his-tuyg’ulariga qarama-qarshi qo’yilmaydi, balki ular bilan bir qatorga qo’yilishi kerak.

Qobiliyatni inson tug’ma, tabiat in’omi sifatida tayyor holida olmaydi, balki hayotiy faoliyati davomida shakllantiradi.

Govard Gardner qobiliyatlarni intellektlar to’plami deb atadi va uning ettita jihatini ajratib ko’rsatdi. Biz intellektning ushbu jihatlaridan oltitasini o’qituvchi pedagogik mahoratini takomillashtirish nuqtai nazaridan tahlil qilishimiz mumkin. Psixolog olim Olga Matveeva ushbu jihatlarni psixologik texnologiya bilan kuchaytirib modifikatsiyalaydi va o’qituvchining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlab, quyidagi qobiliyatlarni ko’rsatib o’tadi:

1. Muloqot qilish (kommunikativ) qobiliyati: *O’qituvchining o’quvchilar bilan dars va darsdan tashqari jarayonlarda sinfda ijobiy ruhiy iqlim yarata olishi.*
2. Voqealarni oldindan ko’ra olish qobiliyati: *ushbu qobiliyat turi har bir o’qituvchining sergakligida, o’quvchilarning ruhiyatini, ichki dunyosini ko’ra olishida namoyon bo’ladi. Shunda o’qituvchi kim nimaga qodir ekanligini oldindan bashorat qila oladi.*
3. Eshitish va his qilish qobiliyati: *Bunday qobiliyatga ega bo’lgan insonlar musiqani sevishadi, ohangni yaxshi his qilishadi, deklamatsiya asosida yaxshi o’qishadi, eshitgan narsasini xotirada saqlaydi, ayniqsa she’r va qo’shiqlarni sevib tinglaydi.*
4. Kinestetik (teri-muskul) qobiliyat: *o’qituvchining o’z hatti harakatlarini muvofiqlashtirish qobiliyati, harakat ohangini his qilib yo’naltiradi, vaqtni, harakat sur’atini his qilish, maishiy qulayliklarni yarata olish,, hayot marhamatlaridan rohatlanish.*
5. Mantiqiy qobiliyat: *mulohaza yuritishni, raqamlarni, matematikani, murakkab masalalarni sevish, sababiyat va natijalarni tushunish malakasi, voqelikda asosiyni ikkinchi darajalisidan ajrata olish.*

6. Shaxsning ichki qobiliyati: o'z-*o'zini bilish, tushunish va his qilish qobiliyati. Erkin shaxsda qo'rquv yoki noerkinlik tuyg'usi kamdan-kam holda bo'ladi.*

Qobiliyat o'qituvchining individual imkoniyatlarini xarakterlaydi. Bir xil sharoitda qobiliyatli o'qituvchilar o'z faoliyatlarida ham qobiliyati past kishilarga qaraganda ko'proq yutuqlarga erishadilar.

Qobiliyat shaxsning ham umumiy, ham maxsus rivojlanishida tezroq siljib borishini, uning ijrochilik va ijodkorlik faoliyatlarida eng yuqori natijalarga erishishini ta'minlaydi. Qobiliyatli kishi mutaxassislikni tez egallay oladi va yuqori mahoratga erishadi hamda ishlab chiqarish, fan yoki madaniyatga yangilik kirita oladi.

Qobiliyat bilimdan farq qiladi. Bilim – bu ilmiy mutolaa natijasidir, qobiliyat esa kishi psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyatidir. Qobiliyat bilim olish uchun zaruriy shart-sharoit bo'lib, shu bilan birga, u ma'lum darajada bilim olish mahsulidir. Umumiy va maxsus bilimlarni o'zlashtirish, shuningdek, kasbiy mahoratni egallash jarayonida qobiliyat mukammallashib va rivojlanib boradi.

Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko'nikma va malakalardir. Ko'nikmalar – o'qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida hosil qilingan tajriba va bilimlar asosida bajariladigan ishning mukammal usulidir. Malakalar – o'qituvchining ongli faoliyatni bajarishi jarayonida hosil qilingan kasbiy intellektual faoliyatning avtomatlashgan komponentlari yig'indisidir.

Ular o'qituvchining kasbiy faoliyati mexanizmining asosini tashkil qiluvchi jarayonlardir, ular qobiliyat bilan birgalikda pedagogik mahoratga erishishni ta'minlaydilarki, buning natijasida o'qituvchi kasbiy faoliyatida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritadi. Qobiliyatli, ammo noshud o'qituvchi ko'p narsaga erisha olmaydi. Qobiliyat ko'nikma va malakalarda ro'yobga chiqadi.

Darhaqiqat, qobiliyatli kishining ko'nikma va malakalari ko'p qirrali va mukammallashgan bo'ladi. Ko'nikma va malakalar etarli bo'lmagan qobiliyatni birmuncha to'ldirishi yoki qobiliyatning kamchiligini tuzatishi mumkin. Ko'nikmalarni umumlashtirib mohirlik ham deb ataydilar. Mohirlik ham qobiliyatning o'zginasidir. Demak, qobiliyat ko'nikma va malakalarning paydo bo'lish jarayonida shakllanadi.

Pedagogikada o'qituvchi qobiliyati – bu imkoniyatdir, uning mohirligi zaruriy darajasi faqatgina o'qitish va tarbiyalash jarayonida takomillashib boradi va yutuqlarga erishishida zamin yaratadi. Tug'ma qobiliyatlar zehn deyiladi. Iqtidor, iste'dod, daholik – insonning ijodiy faoliyati jarayonida erishiladigan qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari hisoblanadi. Qobiliyatlar, xarakter kabi shaxsning faqatgina ma'lum faoliyatidagina mavjud bo'lgan sifatlaridir.

Psixologiyada qobiliyat – insonning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni qiyinchiliksiz, osonlik bilan mukammal egallashi va biror faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanishi tushuniladi. U o'qituvchining kasbiy faoliyatida ham yorqin namoyon bo'ladi.

Kasbiy faoliyatning ta'lim mazmunini belgilovchi sifatlari o'qituvchining ijodkorligida namoyon bo'ladi. Ijodkorlik – bu sifat jihatidan yangi, original va takrorlanmas biror yangilikni paydo qiluvchi faoliyatdir.

Mahsuldor ijodkorlikda belgilangan har qanday muammo muvaffaqiyatli hal qilinadi; ijod qilishga layoqatli bo'lgan o'qituvchilarning asosiy qismida bu jihatlar namoyon bo'ladi.

Evristik ijodkorlik, jamiyatda ro'y berayotgan kasbiy faoliyatga oid yangiliklarni dadil o'zlashtirish va targ'ib qilishni anglatadi, ya'ni uning asosida g'oyalar (farazlar) hosil qilish jarayonini intensifikatsiya qilish va ularning haqiqatga yaqinligini (ehtimolligini, ishonchliligini) izchil amalga oshirish va bunda yangi holatda dadil harakat qilish qobiliyati, fikrlash jarayoni asosida tafakkurni rivojlantirish kuzatiladi.

Kreativ ijodkorlikda o'qituvchi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yangi nazariyalarni yaratadi, o'z firklari va takliflari bilan chiqadi, mohir va tajribali, layoqatli o'qituvchilargina bunga erishishi mumkin.

Tabiiy anatomik-fiziologik layoqat nishonalari qobiliyatlarning fiziologik asosini tashkil etadi. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalarining majmui insonning iste'dodi deyiladi.

Insondagi bilish va layoqat nishonalari jarayonlarining yig'indisi, iste'dodining yuksak cho'qqisi – uning intellektini belgilaydi. "Intellekt – bu aqlan ish ko'rish, ratsional fikrlash va hayotiy muammolarni mohirona hal qilishning global qobiliyati" (Veksler), ya'ni intellekt insonning atrof muhitga to'liq moslasha olish qobiliyati deb qaraladi.

Intellektning tarkibiy tuzilishi olimlar tomonidan quyidagicha ta'riflanadi:

1- chizma. Intellektning asosiy sifatlari.



2- chizma. O'qituvchi intellektiga tavsifnoma.

Biroq, kishidagi tabiiy layoqat nishonalari mukammal kasbiy faoliyatning muvaffaqiyatli olib borilishini ta'minlamaydi. Kishi o'zidagi layoqat nishonalarini doimiy ravishda rivojlantirib borishi kerak, bu esa faqat shijoatli kasbiy faoliyat jarayonida amalga oshirilishi mumkin.

3.2. O'QITUVCHI PEDAGOGIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH FUNKTSIYALARI

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da barkamol, erkin fikrlovchi shaxsni tarbiyalash hamda komil inson g'oyasi – milliy va umumbashariy mohiyatga ega bo'lgan, odamzodga xos eng yuksak ma'naviy ezgulikka undaydigan olijanob g'oya sifatida ulug'langan. Mazkur g'oyani yosh avlod ongiga singdirishda o'qituvchi kadrlarning roli beqiyos. Bu esa ulardan avvalo mukammal kasb qobiliyatiga ega bo'lishni, bilimi, mahorati, ilmiy-nazariy va amaliy salohiyatidan oqilona

foydalanishni taqozo etadi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: *«Biz iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni ma'naviy o'nglash, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un bo'lishni»*[4] - istayotgan bir davrda yashayapmiz. Bu istak esa yoshlar ta'lim – tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan kasb egalarini yuksak kasbiy tayyorgarlikka, g'oyaviy – siyosiy e'tiqodga, tashkilotchilik va boshqaruvchilik malakalariga ega bo'lish lozimligini taqozo qilmoqda. Chunonchi, bu hol ta'lim tizimi va kasb-hunar ta'limi muassasalari yangilanayotgan, ta'lim - tarbiyaning mazmuni, shakli, usullari, vositalari majmuiga, o'quv – tarbiya jarayoniga o'zbekona urf – odatlar faol kirib borayotgan bir sharoitda yuz bermoqda. Bu o'zgarishlar har bir o'qituvchini yangicha fikrlashga, sharqona ish yuritishga, tadbirkorlikka, ishbilarmonlikka, ma'naviy – ma'rifiy ishlarning faol ishtirokchisi bo'lishga undaydi. Shuning uchun ham bugungi kunda o'tgan davrdagidan ko'proq pedagogika fani oldida yangicha fikr yuritadigan o'qituvchi - tarbiyachini tayyorlash, uning kasbiy mahorati va malakasini takomillashtirish uchun o'qitish va tarbiyalashning zamonaviy shakl, usul, vositalarini ishlab chiqish juda muhimdir. Biz yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'qituvchilik kasbini tanlagan har bir yigit va qiz o'ziga shu kasbni sevishi yoki sevmasligi to'g'risida savol beradi. Zero masalaning yana bir muhim tomoni borki, bu bo'lajak o'qituvchi pedagogik qobiliyatga egami yoki yo'qmi, degan muammo paydo bo'ladi. Vaholanki har bir kasb, qobiliyat orqali egallanadi va mukammal o'rganiladi.

Pedagogik qobiliyatlar o'z funktsiyasiga ko'ra **umumiy va maxsus** turlarga bo'linadi. Umumiy qobiliyatlar mavjud bo'lganda o'qituvchi o'z pedagogik kasbiy faoliyatini mukammal egallab, mohirona olib borish bilan birga, boshqa turli xil faoliyatlar bilan ham muvaffaqiyatli shug'ullanadi. Umumiy qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchilar ta'lim-tarbiya jarayonida har qanday qiyinchilik va ziddiyatlarni qiynalmasdan bartaraf etadilar.

O'qituvchining pedagogik qobiliyatini tahlil qilgan N.V. Kuzmina shunday yozadi: *"Ta'lim – tarbiyada ro'y beradigan ko'pgina kamchiliklar o'qituvchi o'z pedagogik qobiliyatining amaliy yo'nalishlarini yaxshi bilmasligi, iste'dodning o'qituvchida yo'qligi natijasida ro'y beradi".*

Maxsus qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchilar faqat o'zlari egallagan kasbiy yo'nalishlari bo'yicha muayyan faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanadilar.

Biror faoliyatning muvaffaqiyatli, mustaqil va mukammal bajarilishini ta'minlaydigan noyob qobiliyatlar birikmasi *talant* deyiladi.

[4] Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий – ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. – Т.:"Ўзбекистон", 1995, 47-бет



3–chizma. Shaxs qobiliyatlari, tabiiy iste'dodlar va ularning farqi.

Barcha mutaxassisliklarda bo'lgani kabi o'qituvchilik kasbida ham pedagogik qobiliyat – uning shaxsiy iste'dod xususiyatlarini belgilab, kasbiy faoliyat turini muvaffaqiyatli amalga oshirishda sub'ektiv shart - sharoitlar yaratadi.

Har qanday qobiliyat – shaxsga tegishli bo'lgan murakkab tushunchadir, u faoliyatning talablariga mos xususiyatlar tizimini o'z ichiga qamrab oladi.

Har qanday faoliyat ham murakkab bo'lib, u kishiga turli-tuman talablar qo'yadi. Agar shaxs xususiyatlari tizimi shu talablarga javob bera olsa, kishi faoliyatni muvaffaqiyat bilan amalga oshirishda o'z qobiliyatini ko'rsata oladi, agar xususiyatlaridan qaysi biri rivojlanmagan bo'lsa, shaxs mehnatining muayyan turiga nisbatan kam qobiliyatli, deb xarakterlanadi.

Mana shuning uchun ham qobiliyat deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki inson shaxsining faoliyat talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlay oladigan xususiyatlar ansambli yoki sintezini tushunish lozim.

O'qituvchi qobiliyatini o'rganishda xususiyatlar «ansambli» iborasi shuning uchun ham ishlatiladi, bunda xususiyatlarning oddiygina birgalikda mavjud bo'lishini emas, balki ularning uzviy bog'langan bo'lishini, muayyan tizimda o'zaro ta'sir qilishini ko'zda tutiladi. Bu tizimda xususiyatlardan biri oldingi o'ringa chiqib, etakchi xususiyatga ega bo'lsa, ayni vaqtda boshqalar uchun yordamchi xususiyatlar rolini o'ynaydi.

Kishining kobiliyati juda katta ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega. Qobiliyat yuqori mehnat unumdorligini ta'minlashga, binobarin, ijtimoy boylikning son va sifat jihatidan tez o'sishiga, jamiyat taraqqiyotiga yordam beradi. Shuning uchun ham bo'lajak o'qituvchilarning zakovati, qobiliyatini ochish hamda ulardan o'z o'rnida foydalanishini o'rganib olishi zarur ekanligi haqidagi masala qat'iy talab qilinadi. O'qituvchining pedagogik mahoratni takomillashtirishida qobiliyat bilim olish va malaka hosil qilishni ta'minlaydi. Qobiliyatli kishining yuqori unumli mehnati uni moddiy hayot darajasi bilan ta'minlaydi.

Ta'kidlash joizki, kobiliyatli o'qituvchiga pedagogik faoliyat va mehnat engilroq bo'ladi va u kamroq charchaydi, chunki sevimli mehnati unga huzur-halovat bag'ishlaydi.

Qobiliyat bilim, ko'nikma va malakalar mahsuli, shu bilan birga faoliyat usullarini egallash tezligi, teranligi va mustahkamligida namoyon bo'ladi.
O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti yuksak darajada muvaffaqiyatli bo'lishi uning pedagogik qobiliyatga qanchalik ega ekanligiga bog'liq. Maktab o'qituvchisining faoliyati yosh avlodni ma'naviy barkamol shaxs darajasida tarbiyalashda va kasbiy bilimlarni chuqur egallagan kadrlarni tayyorlashda namoyon bo'ladi. Buning muvaffaqiyati o'qituvchining pedagogik qobiliyatiga bog'liq. Qobiliyat kasbiy faoliyat jarayonida sayqallanib boradi. Buning uchun o'qituvchida layoqat, zehn, qiziqish bo'lishi kerak.

3.3. PEDAGOGIK QOBILIYATNING ASOSIY SIFATLARI VA XUSUSIYATLARI

Pedagogik–psixologiyada o'qituvchi qobiliyatining cheklangan turlari yo'q. Pedagogik qobiliyat turlari fanning, jamiyatning rivojlanishiga qarab ko'payib va o'zgarib turishi mumkin. Falsafada qobiliyat uzoq vaqtgacha "o'zgarmas irsiyat" nasldan – naslga o'tuvchi jarayon sifatida talqin etilgan. Olimlarning uzoq yillar olib borgan ilmiy-tadqiqotlari va kuzatishlari natijasida **pedagogik qobiliyatning quyidagi asosiy sifatlari** ajratib ko'rsatilgan:

1. O'z kasbiga muhabbat, o'quvchilarni seva olishi.
2. O'z mutaxassislik fanini yaxshi bilishi, unga qiziqishi.
3. Pedagogik taktga (odob va nazokat) ega bo'lish.
4. Bolalar jamoasiga singib keta olish.
5. O'z mehnatiga ijodiy yondashish.
6. Javobgarlikni his etish.
7. Tarbiyaviy bilimlarni egallaganligi.

O'qituvchi faoliyatidagi pedagogik qobiliyatning o'ziga xos tizimlari mavjud. Qobiliyatlar tizimi quyidagi xususiyatlari bilan farq qilinadi:

- asosiy xususiyatlar;
- tayanch xususiyatlar;
- etakchi xususiyatlar;
- yordamchi xususiyatlar.

Pedagogik qobiliyatlar faqat pedagogik faoliyatning samarali bo'lishini va shart-sharoitini ifodalamasdan, balki ko'p jihatdan muvaffaqiyatli ishlashning natijasi hamdir. Pedagogik qobiliyatda o'qituvchining o'zaro fikr almashuvi bilan bog'liq xususiyatlari asosiy rol o'ynaydi. Quyidagi pedagogik qobiliyatning **asosiy xususiyatlari** o'qituvchining yuksak pedagogik-psixologik bilimlari natijasida doimiy shakllanib boradi:

Kommunikativ qobiliyat: o'qituvchining pedagogik jamoa va ota-onalar, mahalla ahli bilan bo'ladigan o'zaro muloqotida ularning ruhiy holatlarini tushunish va ularga hamdard bo'lish, muloqotga kirishishida pok ko'ngillilik. O'qituvchi bunda psixologik bilimlarga ega bo'lishi, muomala madaniyatini muntazam o'zida shakllantirib borishi lozim.

Pertseptiv qobiliyat: tashqi olamni va muhitni sezish, idrok etish, ya'ni kuzatuvchanlik muhim rol o'ynaydi. O'qituvchining shijoati natijasida rivojlanadi, takomillashadi. O'qituvchi o'quvchining psixologiyasini, psixik holatini o'ziga singdirib idrok etadi, sinf jamoasining holatiga pedagogik vaziyatiga odilona baho beradi.

Empatik qobiliyat: bolalarga bo'lgan muxabbatdan kelib chiqadigan o'quvchilarning his-tuyg'usini, psixologik holatlarini qalbdan his etish, tushunish, idrok etish, ularga achinish xususiyatlaridir.

Ta'lim jarayonini muqobillashtirish qobiliyati: o'qituvchi o'z bilimini o'quvchi ongi va tafakkuriga kam kuch sarflash evaziga etkaza olishi, ta'lim va tarbiyada belgilangan muddatda maqsadga erishish qobiliyatidir.

Didaktik qobiliyat: o'quvchilar bilan muloqot qilishda, pedagogikaning ta'lim va tarbiyaviy qonuniyatlarini hamda metodlarini chuqur o'zlashtirgan holda samarali dars berish qobiliyatidir. Shuningdek, dars pedagogik texnologiyalar asosida jahon andozalariga, hozirgi zamon talablariga javob berishi kerak.

Tashkilotchilik qobiliyati: pedagogik qobiliyatning tarkibiy qismidir. U sinf o'quvchilarining o'qituvchi tomonidan turli jamoat ishlariga, to'garaklarga jalb qila olishida, sinf jamoasining har bir o'quvchiga faol vaziyatni ta'minlab berishida namoyon bo'ladi.

Konstruktiv qobiliyat: o'qituvchining ongli ravishda yuzaga keltirilgan kasbiy pedagogik vaziyat bosqichlarini oldindan rejalashtira olishi.
Bilish qobiliyati: o'qituvchining o'z fanini va boshqa fanlarni chuqur bilishida, o'zlashtirishida namoyon bo'ladi.
Anglash (tushunish) qobiliyati: o'qituvchining ziyrakligida, voqea va xodisalarga adolatli munosabatda bo'lishi.
Pedagogik qobiliyatlarning **tayanch xususiyatlari** kuzatuvchanlik – ko'ra bilish ko'nikmasidir. Bu – individual narsaning o'ziga xos tomonini, ijodiy faoliyat uchun boshlang'ich materialni ko'ra bilish demakdir. Rassomning kuzatuvchanligi, tabiatshunos olimning kuzatuvchanligidan farq qilishi o'z-o'zidan ravshan. Ularning kuzatuvchanligi turlicha yo'nalishda bo'lganligi sababli, ularning har biri o'z tafakkuri va dunyoqarashiga ega.
Qobiliyatning **etakchi xususiyati** ijodiy tasavvur qilishdir. Bu xususiyat faqat rassomga, matematika o'qituvchisiga, adabiyotshunosga xos bo'lmasdan, balki aynan barcha fan o'qituvchilariga ham tegishli.
Har qanday kasb sirlarini mukammal egallash uchun qobiliyat kerak. Pedagogik qobiliyat sog'lom o'qituvchidagina shakllanadi. Biroq u yuqori, o'rtacha va past darajada bo'lishi mumkin. Ushbu turli darajadagi qobiliyatlarda mujassamlashgan hislatlar va xususiyatlar orasida ba'zilari yordamchi rol o'ynaydi.
Pedagogik qobiliyatlar tizimiga kiradigan **yordamchi xususiyatlar** va hislatlar quyidagilardan iborat:
- aql–idrokning muayyan turlari, hozirjavoblik; kamchiliklarga tanqidiy e'tibor, sobitqadamlik;
- o'qituvchining nutqi: notiqlik san'ati, so'z boyligining teranligi;
- aktyorlik xususiyati: mimika va pantomimika, xayoliy fantaziya ishlata olish, ruhiy hissiyotni jilovlay olish.
- pedagogik takt va pedagogik nazokatga ega bo'lish.

Asosiy adabiyotlar:

- Barkamol avlod orzusi. T., «Sharq» nashriyoti, 1998. 12 b.
- Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq T., 1996. 19 b.
- Qudratov A. Nutq madaniyati asoslari. T., 1999. 26-32 b.
- Osnovo' pedagogicheskogo masterstva. M., 1989. 47-61 s.

Qo'shimcha adabiyotlar:
- G'oziev. E. Pedagogik-psixologiya asoslari. T., 1997. 28-30 b.

Fanni o'qitish texnologiyasi:

4-MAVZU. O'QITUVCHINING KOMMUNIKATIV QOBILIYATI

Asosiy savollar

1.O'QITUVCHI SHAXSINING FIKR ALMASHUV BILAN BOG'LIQ XUSUSIYATLARI
2. Pedagogik ta'sir ko'rsatish – kommunikativ qobiliyatning asosiy usuli sifatida
3.O'qituvchining kommunikativ qobiliyatida so'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazish

O'qituvchi faoliyatida tarbiyalanuvchilar bilan pedagogik aloqalarning uzluksizligi tarbiyaning asosiy qonuniyatlaridan biridir. O'quvchilar bilan ta'lim-tarbiyaviy jarayonda ijobiy aloqalar o'rnatish, ijobiy iqlim yarata olish, o'ziga ishontira olish va jalb qilish – o'qituvchi kommunikativ qobiliyatining asosiy mohiyati bo'lib, bunda bevosita o'qituvchi bilan bog'liq bo'lgan minglarcha ruhiy jarayonlar, ma'lum bir qolipdan chiqishi mumkin bo'lmagan muomala turlari va shartlari mavjud. Tarbiyaning samaradorligi, pirovard natijada o'quvchilar bilan aloqa o'rnatishning shakl va uslublariga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshirilishi bilan belgilanadi. Asosiy maqsad, o'qituvchi va o'quvchi munosabatida majburiy itoatkorlik o'rnini ongli intizom egallashi, o'quvchilarda

mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. O'qituvchi tarbiya usullari tizimini belgilab olgandan keyin bir qator aloqa o'rnatish vazifalarini rejalashtirishi kerak. Albatta bu nihoyatda qiyin jarayon, zero tarbiyaning har bir usuli, tarkibiy qismi va tashkil etuvchi usullari muomala orqali aloqa o'rnatishning samaradorligiga bog'liq. Ushbu jarayon bevosita o'qituvchining fikr almashuvi (refleksiya) bilan bog'liq xususiyatlariga, o'quvchi ruhiy holatini fikr tezligi bilan uqib olish san'atiga va pedagogik ta'sir ko'rsatishning turli usullarini bir biri bilan o'zaro aloqadorlikda qo'llay bilishiga taalluqli bo'lib, ular uzluksiz shakllanadi.

O'qituvchining fikr almashuvi bilan bog'liq kommunikativ qobiliyatini shakllantiruvchi asosiy xususiyatlari o'quvchi ongiga qaratilgan faoliyat bo'lib, nihoyatda murakkab jarayonda takomillashadi. O'zaro fikr almashish omillari bilan bevosita bog'liq bo'lgan kommunikativ qobiliyatning quyidagi yo'nalishlari mavjud:

- o'quvchini ishontirish;
- o'quvchi ongiga ta'sir etish;
- o'zgalarga taqlid qilish.

O'quvchini ishontirish *tarbiyalanuvchining ongiga qaratilgan bo'lib, o'qituvchi fikr-mulohazalarini ta'sirchan nutq orqali o'quvchining bilimlar tizimiga, dunyoqarashiga, xulq-atvoriga, hatti-harakatiga ta'sir etadi va uni qisman o'zgartiradi. Ishontirish o'qituvchining kasb faoliyatiga taalluqli bo'lgan murakkab faoliyatida asosiy ta'sir ko'rsatish vositasi bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonida ishlatiladigan usullardan biri hisoblanadi.* O'quvchi ongiga ta'sir ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan ishontirish usuli o'qituvchidan bahs, munozara asosida dalillar keltirishni, isbot va mantiqqa tayanishni talab qiladi. Ayniqsa o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida o'rganilayotgan mavzuga taalluqli muqobillik mavjud bo'lganda, tanqid va fikrlar kurashiga tayanilganda samarali bo'ladi.

Ishontirish tarbiyalanuvchining ongiga qaratilgan ekan, o'qituvchining his-tuyg'usi, nutqi va ishontira olish san'ati bunda muhim ahamiyatga ega. U pedagogik ta'sir ko'rsatish usuli sifatida darslarda yangi mavzuni tushuntirishda, o'quv-tarbiyaviy soatlarda, turli uchrashuvlar va ijodiy suhbatlarda munozaralar shaklida qo'llaniladi. Tarbiyaviy tadbirlarda ishontirish usuli sinf jamoasi bilan hamda alohida o'quvchi bilan individual suhbatlar o'tkazish, siyosiy mavzulardagi darslarda keng qo'llaniladi. Ishontirish usuli yordamida o'quvchilarning dunyoqarashi shakllantiradi. U o'quvchi ongini begona mafkuraviy g'oyalardan himoya qiladi, ishontirish asosida o'quvchiga ideal va mustaqil fikr qayta quriladi, ularni ba'zi psixik ta'sirlar tufayli sodir bo'ladigan tushkunlik holatidan asraydi, ularda erkinlikni hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini o'stiradi, o'ziga va kelajagiga ishonchni uyg'otadi, o'z-o'zini tarbiyalashga undaydi.

O'quvchi ongiga ta'sir *o'zaro fikr almashish jarayonida shakllanadigan murakkab psixologik xususiyat bo'lib, o'qituvchi kommunikativ qobiliyatining universal omili hisoblanadi. O'qituvchilarning o'zaro suhbati va faoliyati jarayonida tarbiyalanuvchi ongiga ta'sir etishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u o'quvchilarning psixikasi va xulq-atvoriga sezilarsiz ravishda ta'sir ko'rsatadi. Ta'sir o'quvchi ongiga, psixikasiga nazoratsiz kirib borishi bilan* alohida *ahamiyatga ega, o'quvchining ijodiy faoliyatida, hatti-harakatlarida, intilishlarida yo'l-yo'riqlar ko'rsatish tarzida amalga oshiriladi.*

Ongga ta'sir – shunday bir psixik jarayonki, o'quvchi o'qituvchining yoki biror shaxsning ta'siri ostida, o'z ongining etarli nazoratisiz voqelikni idrok etadi. Agar o'qituvchi bunda pedagogik mahoratga, psixologik tajriba va bilimlarga ega bo'lmasa, o'quvchi ongiga ta'sir qila olmaydi, natijada ta'lim-tarbiya jarayoni ijobiy natijalar bermaydi, o'qituvchi o'quvchilarning hurmat e'tiboriga sazovor bo'lolmaydi. O'qituvchi o'z tarbiyalanuvchilari ongini tashqi muhitning salbiy ta'sirlaridan, sinf jamoasi norasmiy etakchilarining turli yashirin buzg'unchi g'oyalaridan himoya qilishga mas'ul shaxsdir. O'quvchi ongiga ta'sir o'tkazishda o'qituvchi etakchilikni o'z qo'liga kiritishi uchun:

─ o'quvchilarning salbiy hatti-harakatlari tufayli sodir bo'ladigan emotsional his tuyg'ularga berilmasligi;

─ har bir o'quvchining psixologik va ruhiy holatini puxta o'rganmasdan uning ongiga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga harakat qilmasligi;

─ har bir o'quvchiga alohida shaxs sifatida hurmat e'tibor bilan munosabatda bo'lishi;

─ sinf jamoasining norasmiy etakchisini sezdirmasdan aniqlab olishi va uning hatti harakatidan doimo ogoh bo'lishi;
─ pedagogik mahoratning muhim jihatlarini uzluksiz o'zida takomillashtirib borishi;
─ o'ylanmay aytilgan har bir so'z, noo'rin fikr mulohazaning oqibatini hech qachon tuzatib bo'lmasligini o'qituvchi doimo his etishi lozim.
Shuni alohida ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda axborot texnologiyalari maydonining nihoyatda kengligi tufayli o'quvchilar ongi keraksiz g'oya va mafkuralar bilan band bo'lishi tabiiy hol. O'qituvchilar yosh avlodni tarbiyalashda ongga ta'sir qilishning keng imkoniyatlarini o'z o'rnida qo'llay olsalar, o'quvchilar ongini turli keraksiz g'oyalar va mafkuralardan himoya qila oladilar. Shuni unutmaslik kerakki, o'quvchilar o'zlarining yosh xususiyatlari va psixologik ta'sirga moyilligi tufayli har qanday ta'sirga nihoyatda beriluvchan bo'ladilar.
Taqlid qilish *shaxsning psixologik xususiyati bo'lib, o'zi sevgan biror namunaga, ibratga amal qilishidir. O'quvchi o'zi uchun ideal deb bilgan kishining xulq-atvor namunalariga beihtiyor taqlid qiladi.* O'quvchi o'zgalar xulq-atvoridan andoza olib, taqlid qilish yo'li bilan ulardan o'zining muhitida foydalanadi. Taqlid qilishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, o'quvchi o'z hatti-harakati va muomalasi jarayonida o'zi ko'rgan, kattalar bajargan harakatlarni takrorlashga intiladi. Taqlid qilishning yana bir xususiyati o'quvchi badiiy asarlarda o'qigan, kinofilmlarda ko'rgan sevimli idealidagi qahramon obraziga, xarakteriga, jasoratiga, imo-ishora, nutq, kiyinish uslublariga beixtiyor taqlid qiladi, o'z faoliyatida takrorlaydi.
Beixtiyor taqlid qilish o'quvchi shaxsi shakllanishining ilk bosqichlarida muhim ahamiyatga ega. O'quvchi taqlid qilish yo'li bilan nutqni, buyumlarni, turli harakatlarni o'rganadi, xulq-atvori shakllanadi, ruhiyatidagi ushbu jarayon asta-sekin va ko'r-ko'rona davom etadi.
O'qituvchi kommunikativ qobiliyati bilan pedagogik faoliyat olib borish jarayonida o'zaro fikr almashish yo'li bilan ta'sir ko'rsatishning ko'rib chiqilgan asosiy turlari – o'quvchini ishontirish, o'quvchi ongiga ta'sir etish, taqlid qilish – bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan psixologik xususiyatlardir va ayni vaqtda o'ziga xos farqlarga ega. Ishontirish va ongga ta'sirning o'zaro bog'liqligi shundan iboratki, biz ta'sir ko'rsatish usulining unisidan ham, bunisidan ham foydalanganda ko'pincha notiqlik san'atini namoyish etamiz. O'qituvchining so'z boyligi va notiqlik malakasi ishontirish va ongga ta'sirning muhim manbaidir.

2. PEDAGOGIK TA'SIR KO'RSATISH – KOMMUNIKATIV QOBILIYATNING ASOSIY USULI SIFATIDA

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-siyosiy mustaqillik qo'lga kiritilgach, hayotning barcha sohalarida, shu jumladan, ta'lim sohasida ham tub islohotlar olib borilib ulkan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Islohotlar respublikaning rivojlanish va taraqqiyot yo'li deb e'tirof etilgan demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatni barpo etish uchun xizmat qiladi. Demokratik, insonparvar, huquqiy jamiyatni barpo etish vazifasi o'sib kelayotgan yosh avlod zimmasiga yuklanadi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning nutqlari va qator asarlarida ta'lim va tarbiya O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilinib, maqsad va vazifalari belgilab berilgan.
Pedagogik ta'sir ko'rsatish o'qituvchining muhim kommunikativ qobiliyatlaridan biri bo'lib, avvalo o'qituvchining tashqi qiyofasini ifodalovchi madaniyati, munosabatga kirishishi va nutq madaniyati asosida o'quvchilar bilan muntazam tarbiyaviy faoliyat olib borish jarayonida namoyon bo'ladi.
Pedagogik ta'sir ko'rsatish – tarbiyalanuvchiga ongli intizom va mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish, tarbiyani ma'lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta'sir ko'rsatish, jamiyatning ijtimoiy-tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning xulq-atvori va dunyoqarashini takomillashtirish, yosh avlodni muayyan maqsad asosida tarbiyalash, ijtimoiy ong va xulq-atvorni xalqimizning boy mafkuralari asosida shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir. Pedagogik ta'sir ko'rsatish asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma'naviy boyligi va his-tuyg'ulari rivojlanadi, unda ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi.

Pedagogik ta’sir ko’rsatish bilan jamiyatning shaxsga qo’yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlari hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o’quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga ta’sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e’tibordan chetda qolsa, o’qituvchining ta’lim va tarbiyaviy maqsadlarga erishishi qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o’qituvchi rahbarlik qiladi. U o’quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularning pedagogik jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Pedagogik ta’sir ko’rsatish mazmunida tarbiya mohiyati ifodalangan bo’lib, uning mazmuni mamlakatning ijtimoiy maqsadlariga mos holda asoslanadi. Tarbiya mohiyati turli davrlarda har xil ifodalangan bo’lsa ham, ammo yo’naltiruvchanlik xususiyatiga ko’ra bir-biriga o’xshash g’oyalarni ifodalaydi. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo’lishi avlodlar tarbiyasiga ko’p jihatdan bog’liqligi qadimdan o’z isbotini topgan.

Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiyaning maqsadi jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo’nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O’zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi komil insonni tarbiyalab, kamolotga yetkazishdan iborat.

Pedagogik ta’sir ko’rsatishning asosiy tarbiyaviy usullari hayotdan, millatning yashash tarzidan, milliy an’ana va urf-odatlardan kelib chiqib tanlanadi. Ular o’quvchilar tarbiyasini pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish nuqtai nazaridan tanlab oladi.

Pedagogik ta’sir ko’rsatish o’quvchilarning ijtimoiy foydali mehnat faoliyatini pedagogik jihatdan ma’lum bir maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish uchun foydalaniladigan vositalar tizimidan iborat. Ushbu vositalar tarbiyalanuvchi shaxsiga qaratilgan bo’lib, o’quvchilarning xulq-atvorini shakllantiradi.

Ta’lim va tarbiya jarayonida o’qituvchi tomonidan pedagogik ta’sir ko’rsatishning asosiy usullari: talab, istiqbol, rag’batlantirish va jazolash, jamoatchilik fikri.

Talab – ta’lim va tarbiya jarayonida o’qituvchining tarbiyalanuvchiga nisbatan shaxsiy munosabatlarida namoyon bo’ladi. O’quvchining u yoki bu hatti-harakati o’qituvchi nazoratida bo’lib, ijobiy jihatlari rag’batlantirib boriladi yoki aksincha nojo’ya hatti-harakati to’xtatib qo’yiladi.

Istiqbol – ta’sirchan pedagogik usul bo’lib, o’quvchilarda mustaqil fikr yuritishni, ma’lum bir maqsadga, orzuga erkin intilish hissini takomillashtiradi. Bu maqsadlar ularning shaxsiy intilishlarida, qiziqish va muddaolarida namoyon bo’ladi. Ushbu usul maktab o’quvchilarini shaxs sifatida eng muhim insoniy fazilatlaridan biri bo’lgan maqsadga intiluvchanlikni rivojlantiradi.

Rag’batlantirish va jazolash – tarbiyaviy ta’sirning an’anaviy usuli bo’lib, o’quvchilar xulq-atvoriga ijobiy ta’sir etishdan iborat. Yaxshi xulq, foydali mehnat va hatti-harakat, axloqiy hislat, topshiriqlarning so’zsiz bajarilishi uchun o’quvchi rag’batlantiriladi. Nomaqbul hatti-harakat, tartibbuzarlik, o’z burchini bajarmaslik jazolash orqali bartaraf etiladi. Ushbu usul axloqiy ta’sir ko’rsatishni ta’minlaydi, uni qo’llash jaryonida o’qituvchidan nihoyatda ehtiyotkorlik, sezgirlik va hushyorlik talab etiladi.

Jamoatchilik fikri – tarbiyaviy ta’sir ko’rsatishning eng muhim usuli bo’lib, o’quvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatini bajarilish natijalariga qarab muntazam rag’batlantirib borishda namoyon bo’ladi. Jamoaning tarbiyaviy vazifalarini ma’lum bir yo’nalishda amalga oshirilishini ta’minlaydi, o’quvchilarning bir-birlariga do’stona munosabatini shakllantiradi.

Pedagogik ta’sir ko’rsatish usullaridan samarali foydalanishning eng muhim sharti o’qituvchining insonparvarlik nuqtai nazaridan yondashishini talab etadi. Ushbu usullar kasbiy mas’uliyatni his etadigan yagona intilishga qaratilgan real kishilarning jonli munosabatidir. Pedagogik ta’sir qilish o’quvchilar psixikasining anglanmaydigan sohasiga qaratilgan bo’lib, tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchining yaqindan aloqada bo’lishini, ularning o’zaro bir birlariga ishonishini, o’zaro tushunishini, ta’sir qilish mazmuni, shaxsning bir butun holatiga amaliy ta’sir qilishini nazarda tutadi. Shunday qilib, ta’sir qilish ta’lim-tarbiya samaradorligini hozirgi zamon talablari darajasida takomillashtirib borishda yo’l-yo’riq yaratib, o’quvchilarning faolligini rag’batlantiradi.

O’qituvchi tarbiyalanuvchilarning o’zaro tarbiyaviy ta’sirga ega ekanliklarini, ularning hamkorlikdagi kommunikativ munosabatlari hamda faoliyatlari o’rtasidagi bog’lanishning mavjudligi, uning samaradorligini belgilashini unutmasligi shart. O’qituvchi sinf jamoasiga va alohida tarbiyalanuvchiga pedagogik ta’sir ko’rsatishida muvaffaqiyatlarga erishishi uchun,

o'quvchilar orasida o'zaro pedagogik munosabatlar tizimini oqilona rejalashtirishi va psixologik muhitni ijobiy tomonga o'zgartirishi lozim. To'g'ri tashkil etilgan va har jihatdan mukammal bo'lgan, yosh avlodning qalbi va ongini asrashga, ularni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratilgan pedagogik munosabatlar tizimini tashkil etish uchun o'qituvchi har bir o'quvchi ruhiyatini chuqur bilib olishi, ularning ichki imkoniyatlaridan xabardor bo'lishi, axborot berishi, fikr almashishi, ular qayg'usini, tuyg'ularini tushunishi va hamdard bo'lishi zarur. Pedagogik munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish uchun o'qituvchi:

- o'quvchilar bilan bo'lajak munosabatni modellashtira olishi;
- munosabatda bo'ladigan sinf jamoasi xususiyatlarini oldindan bilishi;
- bevosita samimiy va hamjihatlikka asoslangan munosabat o'rnatish;
- munosabatda ustunlikka ega bo'lib, uni demokratik talablar asosida oqilona boshqarish;
- munosabatning ijobiy va salbiy jihatlarini uzluksiz tahlil etib borishi lozim.

O'qituvchi tarbiyachi sifatida tarbiyalanuvchi o'quvchini o'zi uchun hamisha tarbiya ob'ekti deb hisoblashi kerak. Biroq tarbiyalanuvchi o'qituvchi-tarbiyachi bilan erkin va ongli munosabatda bo'lishga erishsagina, tarbiyaviy munosabatlar samarali xarakter kasb etadi. Tarbiya jarayonining kommunikativ munosabatlar jarayonida o'ziga xos qator **qoidalari** ham mavjud bo'lib, o'qituvchi o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatishda ularni mukammal bilishi va amal qilishi lozim:

i. tarbiyaning aniq bir maqsadga qaratilganligi;
ii. tarbiyaning hayotiy faoliyat bilan bog'liq hodisa ekanligi;
iii. shaxsni jamoada tarbiyalanishida o'ziga xos xususiyatlari;
iv. tarbiyalanuvchi shaxsga nisbatan talabchan bo'lish va uning shaxsini hurmat qilish;
v. tarbiyalanuvchining yosh va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi;
vi. tarbiyaviy ishlarning izchilligi va muntazam olib borilishini ta'minlash.

3. O'QITUVCHINING KOMMUNIKATIV QOBILIYATIDA SO'Z BILAN OG'ZAKI TA'SIR O'TKAZISH

So'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazish o'qituvchining madaniy saviyasida va o'quvchi muloqotida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki insonning "aql-zakovati, fikr-tuyg'ulari, bilimi va madaniyat saviyasi, tafakkuri ma'lum darajada so'zda ifoda etiladi. Muomala madaniyatida so'z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi" *(Aziz Yunusov).* So'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazishni amalda o'z pedagogik faoliyatida qo'llovchi o'qituvchi o'z hissiyotlarini, ijodiy ta'sirlanishini boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi va o'z his-tuyg'ularini faqat ta'lim–tarbiyaviy maqsadni amalga oshirish uchun ifodalashi hamda o'quvchi qalbini noo'rin so'zlar bilan jarohatlab qo'ymasligi, so'zlarni aniq ifodalashda pedagogik takt normalaridan chiqib ketmasligi lozim. So'z qudrati haqida R.Dekartning quyidagi fikrlari o'qituvchilarga ham bevosita taalluqlidir: "So'zlarning ma'nolarini, qudratini odamlarga aniq ifodalab tushuntirib bering, shunda siz insoniyat olamini barcha anglashilmovchiliklarning yarmidan xalos qilgan bo'lasiz".

Bunda o'qituvchining shirinsuxanligi mujassamlashgan notiqlik san'ati hamda aktyorlik qobiliyatini namoyon qila olishini alohida e'tirof etish kerak. O'qituvchi aktyordek tayyor tekstni yod olmaydi, biroq u har gal takrorlanmas vaziyatda ijod qiladi. So'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazish o'qituvchidan fikrlarni, pedagogik qobiliyat texnikasini, ijodkorlikni talab qiladi.

O'qituvchining imo–ishoralari va yuz harakatlari so'z bilan og'zaki ta'sir qilishni kuchaytiradi. Yuz harakatlari va imo-ishoralar nutqda ovozning baland-pastligi bilan mos kelishi kerak. *Ogohlantiruvchi so'zlar, notiqlik san'ati asosida ta'sir etish, vazifani ijro etishga undovchi buyruqlar, ta'qiqlangan iboralarni ishlatmaslik, hazil orqali fikrini anglatish, o'quvchining erkin mulohazalarini ma'qullash yoki nojo'ya harakatlari uchun ayblash so'zning og'zaki ta'sir etuvchi komponentlaridir.* So'z bilan imo-ishoraning va yuz harakatlarining birligi ma'lum qilinayotgan axborot hajmdorligi va ta'sirchanligini kuchaytirishi lozim. Har qanday sharoitda o'qituvchi o'quvchilar bilan sinfda uchrashishga maxsus hozirlik ko'rishi foydalidir.

O’qituvchi deyarli har bir harakatda jiddiy fikr yuritishi oqibatini tasavvur qilishi kerak. Darhaqiqat, o’qituvchining har qanday hazili yoki bachkana qilig’i darhol teskari reaktsiya berishi mumkin. Hatto engil hazilga ham sinf o’quvchilari qizg’in javob beradi, ularning fikrini qaytadan “jamlab” diqqatini jalb etish va ish kayfiyatini yaratish keyin juda qiyin bo’lishi mumkin.

So’z bilan og’zaki ta’sir qilishda o’qituvchi nutqi nihoyatda muxtasar, ravon, va muloyim bo’lishi, intonatsiyalar o’z o’rnida ishlatilishi kerak. So’z bilan og’zaki ta’sir o’tkazish qudrati Sharq xalqlarida azaldan ma’lum bo’lgan. Chunki, o’qituvchining “Ma’noli va bejirim gapira bilishi, nutq daryosidagi maqbul va nomaqbul to’lqinlarni ilg’ay olishi, so’zning orqa o’ngini, munosib o’rnini farqlay bilishi, nutqiy fahmu farosat, tahrli so’z odobi kabi fazilatlar Turonda inson umumiy axloqining, ma’naviy rasoligining tayanch ustunlaridan sanalgan”, deb ta’kidlaydi olim N.Mahmudov.

Hozirgi davrda o’qituvchi faoliyatida uchraydigan kommunikativ munosabatlarda so’z bilan og’zaki ta’sir etish nihoyatda xilma xil bo’lib, bevosita pedagogik ta’sir ko’rsatishning nisbatan mustaqil ko’rinishini o’zida mujassamlashtiradi. Bilish, anglash, ekspressiv (his-tuyg’uga berilish holati), ijtimoiy an’anaviy muloqot, inson holatini so’zsiz tushunish, dilkashlik o’qituvchining pedagogik faoliyatida uchraydigan doimiy takrorlanib turadigan kommunikativ munosabatlarning turlaridir. Tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda ularni nazarda tutish lozim.

Ayniqsa pedagogik ta’sir ko’rsatishni tashkil etishda so’zning ahamiyati bilan bog’liq bo’lgan pedagogik muomala madaniyatiga va tarbiyachining o’zbekona shirin so’zligiga alohida talablar qo’yiladi. So’zlashganda odob va ehtirom o’qituvchining pedagogik mahoratida uchraydigan muhim insoniy fazilati sifatida namoyon bo’ladi. Xushmuomalalik – o’qituvchi-tarbiyachining sinfda individual ish olib borish jarayonida ota-onalar hamda o’quvchilar bilan muloqotni aniq bir tarbiyaviy maqsadni ko’zlagan holda tashkil eta olishi va ta’lim-tarbiyaviy faoliyatni to’g’ri boshqara bilishidir. O’qituvchining kasbiy faoliyatida xushmuomalalikning yosh o’qituvchi amal qiladigan quyidagi mezonlarini alohida ajratib ko’rsatish o’rinlidir:

- o’quvchilarga so’z bilan og’zaki ta’sir qilishda shirinsuxanlik va insoniylik tuyg’ularini namoyish etish;
- so’z bilan og’zaki ta’sir etishning barcha bosqichlarida hissiy osoyishtalikning namoyon bo’lishi;
- o’zaro fikr almashishga doir sifatlar, ko’nikmalar va malakalarning mavjudligi;
- o’quvchining ta’lim va bilim olishga bo’lgan ishtiyoqini kuchaytirish;
- mustaqil fikr yuritish, o’z fikrini erkin bayon eta olish, insoniy qadr-qimmat tuyg’usini shakllantirish.

O’qituvchi kasbiy mahoratida muhim ahamiyatga ega bo’lgan va insoniy fazilat xushmuomalalikni o’zida shakllantirish uchun muntazam ish olib borishi zarur. O’qituvchi pedagogik faoliyatiga oid shaxsiy o’z-o’zini tarbiyalashning o’zaro fikr almashish va aloqadorlikka doir quyidagilarni tavsiya etish mumkin.

1. Kasbiy faoliyat jihatidan o’z-o’zini anglashni (muomalada o’zaro fikr almashishga doir sifatlarni, ijobiy va zaif tomonlarini aniqlashni) amalga oshirish va shu asosda o’zaro fikr almashish asosida o’z-o’zini tarbiyalash dasturini ishlab chiqish.
2. O’z kasbiy faoliyatiga quyidagi yo’nalishlarda baho berish maqsadga muvofiq: kishilar bilan bo’lgan muomaladan so’ng olingan taassurotlarni tahlil qilish, o’quvchilar bilan muomalaning so’nggi holatini o’rganib, muomala haqida o’zining yutuq va kamchiliklarini tahlil qilish, muomaladagi imkoniyatlaringizni atrofdagilar (o’qituvchilar jamoasi, ota-onalar, o’quvchilar) qanday baholashi haqidagi tasavvurlarga ega bo’lish.
3. O’zida insonparvarlikning asosiy xususiyatlarini rivojlantirish yuzasidan ixtisoslashtirilgan o’z-o’ziga ta’sir o’tkazuvchi “autogen” mashqlar asosida ishlash.
4. O’quvchilar va ota-onalar bilan turli jamoat ishlarini olib borish, bundan o’zaro fikr almashish faoliyatida ko’nikma va malakalar hosil bo’ladi.
5. So’z bilan og’zaki ta’sir o’tkazishda salbiy kayfiyatlarni engish tajribasini shakllantiradigan va xushmuomalalikni rivojlantiradigan vaziyatlar tizimini yaratish.
6. Xushmuomalalikda milliy an’ana va urf-odatlarimiz, o’zbekona muomala madaniyati, milliy ma’naviyatimiz nuqtai nazaridan yondashish.

Taklif etilgan ushbu tizim asosida pedagogik faoliyat olib borish o'qituvchi kasbiga oid shaxsiy fazilatlardan biri bo'lgan insonparvarlik va xushmuomalalikni shakllantiradi. O'qituvchi kasbiy faoliyati davomida nutqidagi so'z qudratini takomillashtirib boradi. U o'zbek tilining boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali so'z boyligini go'zal, ravon, ifodali, ta'sirchan bo'lishiga intiladi. Zero, go'zal va ta'sirchan so'zlay bilish ham san'at. Bu san'atdan bebahra bo'lgan o'qituvchining kasbiy mahorati shakllanmaydi. Qaysi fanni o'qitishdan qat'iy nazar, o'qituvchining asosiy quroli so'z boyligidir, u so'z qudrati asosida kommunikativ qobiliyatini namoyish etadi. O'z ona tilida puxta, lo'nda va jarangdor gaplar tuza olish va uni nutqiy mahorat bilan ifodalash ta'lim muassasalarida o'rganilayotgan har bir fan o'qituvchisi uchun eng zarur kommunikativ qobiliyatlaridan biridir.

Asosiy adabiyotlar:

1. Verb. M.A. Kutsenko. V.G. Pedagogicheskaya texnika. M.1974. 32-34 b.
2. Osnovo' pedagogicheskogo masterstva. Pod redaktsiy I.A.Zyazyuna. M.,1989. 96-113

Qo'shimcha adabiyotlar:

3. Jo'raev. N. Agar ogoh sen… T. 1998.27 b.
4. Ochil.S. Mustaqillik mafkurasi va tarbiya asoslari. T. 1994. 32 **b.**

-mavzu: PEDAGOGIK TEXNIKA

Asosiy savollar:

1. Pedagogik texnika haqida tushuncha.
2. O'qituvchining tashqi qiyofasi va hissiyotini boshqarishi.
2. Gapirish texnikasi.
3. Pedagogik texnikani egallash yo'llari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar.

Pedagogik texnika, tashqi qiyofa, hissiyot, mimika, pantomimika, texnologiya, asab tizimi, gapirish texnikasi, talaffuz, nafas olish, tovush maromi.

Mavzuga oid muammolar:

1. Pedagogik texnikaning pedagogik mahoratga erishishdagi ahamiyatini tahlil qiling. O'qituvchi faoliyatida tana harakatining, yuz harakatining, gapirish texnikasining va o'qituvchining hissiyotini jilovlay olishning ahamiyatini ko'rsating. Shularning orasida eng ahamiyatlisini aniqlang va nima sababdan shunday xulosaga kelganingizni izohlang.
2. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlarini o'rganib chiqing. Siz pedagogning faoliyatida qay birini ustun deb hisoblaysiz?
3. Pedagogik texnika ikki asosiy guruhga ajratiladi. Har ikkala guruhga doir ko'nikmalarni bir-biri bilan taqqoslang. Ular o'rtasidagi bog'liqlikni va farqni ajratib ko'rsating.

1-savol bo'yicha darsning maqsadi:

1. Talabalarga pedagogik texnika haqida umumiy tushunchalarni va qoidalarni bayon etish.
2. Pedagogik texnikaning o'qituvchilik faoliyatidagi o'rnini ko'rsatib berish.
3. Pedagogik texnikani egallashga qiziqish uyg'otish.
4. Pedagogik texnika elementlarini muntazam mashq qilib borishga odatlantirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Pedagogik texnikaning mohiyati va o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyatini so'zlab beradi.
2. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlarini guruhlashtiradi.
3. Pedagogik texnikani tarkib toptirishda malakalar hosil qilishni dalillaydi.

1-savol bayoni:

Pedagogik texnika o'qituvchi faoliyatining ichki mohiyati bilan tashqi ko'rinishini birlashtiruvchi vositadir.

- Boshqacha qilib aytganda, o'quvchi bilan muloqotda bo'lishning usullari va vositalarining yig'indisidir. Bular o'qituvchiga murakkab va nozik pedagogik vazifalarni hal qilish imkonini beradi.

Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlarini 2 guruhga bo'lish mumkin:

1-guruhga pedagogning o'z xulqini boshqarishi kiradi. Unga tanani boshqarish (mimika va pantomimika), hissiyot va kayfiyatni boshqarish (asabiylashmaslik, yaxshi kayfiyat hosil qilish),

ijtimoiy-ruhiy qobiliyatlar (dikkat, kuzatuvchanlik, xayol), gapirish texnikasi (nafas olish, ovozni yoqimli qilish, talaffuz, tovush (tempi) tezligi) misol bo'ladi.
2-guruhga ayrim shaxs va jamoaga ta'sir etish uquvi kiradi. Ta'lim-tarbiya jarayonining texnologiyasi vazifasini bajaradi. Bunda didaktik va tarbiyaviy, tashkiliy va konstruktiv, talabchanlik va muloqotga kirishish madaniyati, jamoa ijodiy ishlarini tashkil qilish va boshqalarga e'tibor qaratiladi.
Pedagogik texnika shakllanishi shaxsning unchalik payqab bo'lmas sifatlariga ham rivojlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Chunonchi, nutqning ifodali, savodli, sof bo'lishi ustida ishlash fikrlashning ravon bo'lishiga ta'sir qiladi. Psixik faoliyatni mustaqil tartibga solish usullarini egallash fe'l-atvorda bo'lgan hissiy vazminlikning rivojlanishiga olib keladi.



Nazorat savollari:

1. Pedagogik texnika tushunchasining mohiyatini o'rganish.
2. Pedagogik texnikaning o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyatini aytib bering.
3. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlarini o'rganib, bir-biri bilan taqqoslang.

2-savol bo'yicha darsning maqsadi:

1.O'qituvchining tashqi qiyofasi, kiyinish estetikasi, madaniy xulq-atvori va hissiyotini(ichki dunyosini) boshqarish haqida tushuncha berish.
2.Talabalarni tana tuzilishi va gavdaning xususiyatlariga qarab qiyinish hamda yurish- turishga odatlantirish.
3.Pedagogik nafosatni his etishga o'rgatish.



Identiv o'quv maqsadlari:

1. Tashqi qiyofa va hissiyotni boshqarishni tushuntiradi.
2. Yuz harakati, gavdani tutish va boshqarish hamda tovush texnikasini izohlaydi.
3. O'qituvchi tashqi qiyofasi va hissiyotining o'quvchilar ta'lim-tarbiya olishlaridagi ahamiyatini baholaydi.

2-savol bayoni:

Murabbiyning tashqi qiyofasi, turli holatlarda o'zini tutishi, his-hayajonini boshqarishi yoshlarning ta'lim va tarbiya olishlarida ulkan ahamiyatga ega.

O'qituvchining tashqi qiyofasi deganda, uning tana tuzilishi, qaddi-qomati, bo'y-basti bilan bir qatorda, gavdasini tutishi, kiyinishi, shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilishi, harakatlari, yurish-turishi tushuniladi. Bunda yuz harakatlarning ta'sirchanligi, gavda va ayrim a'zolarning o'zaro muvofiq harakatlanishi, gapirganda so'z va harakatning uyg'unligi e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

O'qituvchining tashqi qiyofasida mavjud bo'lgan hamma narsa bir maqsadga qaratilishi, ya'ni yoshlarning komil inson bo'lib shakllanishiga yo'naltirilishi zarur.

O'qituvchining tashqi qiyofasi, ochiq chehrasi, g'ayrat-shijoati, ruhan tetikligi, so'z va harakatlarning chuqur o'ylab bajarilishi, hech qachon o'zini «yo'qotib» qo'ymasligi, har qanday sharoitda o'zini munosib tutishi bilan yanada ta'sirchanroq bo'ladi.

Hissiy holatni boshqarish.

Har bir inson o'ziga xos hissiy xususiyatlarga ega bo'lib, u sharoitga qarab ichki va tashqi omillarning ta'sirida o'zgarib turadi. Bu bir tomondan individual-ruhiy imkoniyatlarga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan o'z-o'ziga ta'sir etish va o'zini boshqarish qobiliyati asosida namoyon bo'ladi.

Tana harakati.

Tana harakati o'qituvchini o'quvchilar oldida xushbichim, ko'rkam, yoqimli qilish bilan birga, ta'lim-tarbiyaviy mazmunga ham ega bo'ladi. Qaddi-qomatni tik tutib, ishonchli qadam bosish, o'qituvchining o'ziga, bilim va mahoratiga ishonchni ifodalaydi. Bo'shangliq boshning egikligi, sudralib qadam tashlash, bukchayish o'ziga ishonchsizlik va befarqlikni anglatadi.

Yuz harakati.

O'quvchilarga ta'sir etishning kuchli vositalaridan biri, o'qituvchining yuz harakatlaridir. Yuz harakatlar ba'zan so'z bilan ifodalash qiyin bo'lgan hissiyotlarni o'quvchilarga etkazishi mumkin. Aksariyat hollarda yuz harakati so'zning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Nazorat savollari:

Murabbiylik faoliyatida tashqi qiyofaning ahamiyatini izohlang.

Hissiyotni jilovlay olishning qanday tarbiyaviy ahamiyati bor?

Sizningcha murabbiyning tana harakati, yuz qiyofasi qanday bo'lishi lozim?

O'zingiz bilgan biror o'qituvchining tana, yuz harakati va hissiyotini boshqarishini tahlil qiling.



3-savol bo'yicha darsning maqsadi:
1.Talabalarga gapirish texnikasi haqidagi ma'lumotlarni etkazib berish.
2.Tovushning boshqarilishi, tarbiyalanishini tushuntirish. Tovushning ta'sirchan va yoqimli bo'lish yo'llarini o'rgatish.
3.Har bir talabaning o'z tovushini yaxshilashga harakat qilishini ta'minlash



Identiv o'q

1. Gapirish texnikasining xususiyatlarini qayd qiladi.
2. Odamning gapirish a'zolari joylashishi va bajaradigan vazifalarini farqlaydi.
3. Gapirish texnikasining xususiyatlarini o'rganib chiqib, kamchiliklarini yo'qotadi va takomillashtiradi.

3-savol bayoni

Gapirish texnikasi insonga xos xususiyat bo'lib, bir necha omillarning ta'siri ostida shakllanadi. Irsiyat omilining ta'sirida gapirish a'zolari rivojlanib, tovush chiqarish, uni turlicha ifodalash imkoni paydo bo'ladi. Ijtimoiy muhit ma'lum bir tilda so'zlashishni o'rgatadi. Ta'lim va tarbiya orqali mazmunli, ta'sirchan, ifodali, maqsadli gapirish tarkib topadi.
Gapirish inson dunyoga kelganidan keyin, ma'lum muddat davomida hosil bo'ladi va shakllanib boradi.
Mashq qilish va o'z ustida ishlash orqali nutqni eng yuqori darajaga kutarish mumkin. Bunga misol sifatida qadimgi yunon olimi va davlat arbobi Demosfen va rus shoiri V. Mayakovskiylarning mashqlarini keltirish mumkin.
Chiroyli va ta'sirchan gapirishni istaganlar uchun eng zamonaviy usullar va jihozlar mavjudki, o'zini ortiqcha qiynamasdan notiqlik mahoratini egallab olishga imkon yaratadi.

Gapirish texnikasining zarur xususiyatlaridan biri nafasni rostlashdir.
Nafas inson uchun hayotiy ehtiyoj bo'lishi bilan birga, gapirishning energiya manbai vazifasini ham o'taydi. Shuning uchun nafas olish texnikasiga rioya qilish ahamiyatlidar.
Nafas olishning to'rt turi bo'lib:
a) yuqori nafas, b) ko'krak nafasi, v) diafragmalar nafasi va g) qobirg'a-diafragmalar nafasiga bo'linadi.
Gapirish uchun tez va chuqur nafas olinib, sekinlik bilan tovushga qo'shib chiqariladi. Aktyorlar, radio va televidenie diktorlari soatlab nafas olish, chiqarishni mashq qiladilar. Ularning gapirayotganlarida nafas olish va chiqarishlari sezilmaydi. Shu holatni professor A.Kattabekov va dotsent Q.Samadovlarning (Alloh joylarini jannatdan qilgan bo'lsin) nutqlarida ko'rish mumkin edi.Dotsent H. Mirhaydarovning nutqi ham bunga yoqqol misol bo'ladi.
Gapirish bilan bog'liq bo'lgan kasb egalari, ayniqsa, o'qituvchilar o'z tovushlarini ehtiyot qilishi, parvarishlashi talab qilinadi. Aks holda tovush apparati tez shikastlanishi mumkin.
O'qituvchining tovushi aniq, toza, jarangdor bo'lishi, ma'lum tezlikka amal qilishi zarur. Juda tez yoki o'ta sekin gapirish tinglovchidagi qiziqishni so'ndirishi, toliqtirishi, zeriktirib qo'yishga olib keladi.
Pedagog nutqining boshqa xususiyatlari «Nutq mahorati» mavzusida to'laroq o'rganilishini hisobga olgan holda ayrim tomnlariga tuxtalinmadi.



Nazorat savollari:

1. Gapirish a'zolarining joylashuvi va bajaradigan vazifalarini yozma ifodalang.
2. Ularning o'ziga xos xususiyatlaridagi farqini ko'rsating.
3. O'zingizning va yaqin kishingizning gapirish texnikasiga qanday amal qilinishini tahlil kiling.
4. Gapirish sifatini yaxshilash uchun qanday mashqlarni bajarish sizga foydali va ularni qanday tartibda amalga oshirasiz?
5. O'zingizning gapingizni tinglashga va tahlil qilishga harakat qiling. Mening gapim tinglovchiga etib borayaptimi, tushunarlimi, talaffuzim aniqmi, qanday yutuq-kamchiliklarim bor? Bu savollarga javob toping, muntazam nutqingizni takomillashtirib borishga harakat qiling.

4-savol bo'yicha darsning maqsadi:

Pedagogik texnikani egallash uchun guruh shaklida, yakka tartibda va mustaqil bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishning yo'llari tushuntiriladi.
Talabalarda o'zlarining pedagogik texnikaga doir xususiyatlarini shakllantirish uchun qiziqish uyg'otish.
Tashqi qiyofa, ichki dunyo va nutq texnikasini o'stirish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1.Pedagogik texnikaning pedagogik faoliyat yuritishdagi o'rnini izohlaydi.
2.Guruh shaklida va yakka tartibda pedagogik texnika egallash yo'llarini qo'llaydi.
3.Pedagogik texnikani o'zida shakllantirish yo'llarini ishlab chiqadi.

4-savolning bayoni:

Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari o'qituvchi rahbarligidagi mashg'ulotlar, pedagogik texnikani o'rganish va mustaqil mashq qilish kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalashdir. Pedagogik texnika malakalarining individual-shaxsiy tarzda ekanligini hisobga olib, uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash, ya'ni talabaning o'zida mohir o'qituvchi shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat etakchi rol o'ynaydi. Kasb sirlarini yuksak darajada egallash harakatida ham pedagogik texnika muhim o'rin tutmog'i lozim.

Psixologlarning fikricha pedagogik texnikani guruhga bo'lib o'rgatish qulaylik yaratadi. Ularning tajriba ishida bunday guruhlarning eng qulay miqdori 10-14 kishidan iborat bo'lishi kerakligi ko'rsatiladi. Qatnashchilarning xuddi shunday miqdori ulardan har biriga kishilar bilan birga ishlashning individual psixologik muammolarini juda to'liq ravishda aniqlab, hal etish, ko'nikma va moslashish darajasini jiddiy oshirish, pedagogik fahm-farosatni rivojlantirish, boshqalarga ta'sir etish vositalarini kengaytirish imkonini beradi.

Shu narsa muhimki, guruh qatnashchilari, bo'lajak pedagoglar kasbiy jihatdan birga ishlash malakalarini egallashga faol intilishlari, o'z-o'zini bilish va kasbiy jihatdan tarbiyalash bo'yicha muntazam ish olib borishiga psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak.

Barcha hollarda ham individual, ham guruhiy mashg'ulotlar boshlanishidan oldin pedagogik texnikani egallashning alohida dasturi tuzilib chiqilishi lozim. Bunday dasturni tuzish uchun avvalo pedagogik texnikani aniqlab olish zarur. Biroq tajribaning ko'rsatishicha, odatda, mazkur bosqichda gap faqat malakalar haqidagina emas, shu bilan birga dastlab avtomatlashtirilgan ta'limni boshlash vaqtiga kelib kunikamalar haqida ham borishi mumkin ekan. Bular masalan, nafas olish va ovozning tabiiy yo'lga quyilishi, to'g'ri talaffuz, bundan oldingi tarbiyaning natijasi bo'lgan savodli, ifodali nutq mimik va pantomimik aniqlik va boshqalar bo'lishi mumkin.

Oliy o'quv yurtidagi kasbiy tayyorgarlik jarayonida pedagogik texnikani egallash o'qituvchiga o'zining kasb yo'nalishining boshlanishidayoq ko'pgina xatolardan holi bo'lishda, o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning yuksak samaradorligiga erishishda yordam beradi.

Nazorat savollari:

1. Pedagogik texnika ko'nikma va malakalari qanday paydo bo'ladi?
2. Pedagogik texnikani egallashda guruh bo'lib shug'ullanishning afzallik tomonlarini so'zlab bering.
3. Pedagogik texnika sirlarini egallashda oliy o'quv yurtidagi ta'lim-tarbiyaning ahamiyatini izohlab bering. Mutaxassislik fanlari, pedagogik-psixologik fanlarning ahamiyatini ochib bering.
4. Pedagogik texnikani shakllantirishning shaxsiy rejasiga rioya qilasizmi? Uni qanday tartibda amalgam oshirasiz?
5. Siz uchun pedagogik texnikaning qaysi bir yo'nalishi ahamiyatli hisoblanadi?
6. Pedagogik texnikani hosil qilish va shakllantirish haqida o'z fikr-muloxazalaringizni yozma bayon eting.

Mavzu bo'yicha echimini kutayotgan ilmiy muammolar:

1. Pedagogik texnikaning pedagogik mahoratdagi o'rnini aniqlash.
2. Pedagogik texnikaning pedagogik texnologiyalarni qo'llashdagi ahamiyatini ilmiy asoslash.
3. Pedagogik texnika ko'nikmalarini shakllantirib, tarbiyalab borish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish.

Mustaqil ish topshiriqlari:

1. Pedagogik texnikani egallash bo'yicha tavsiyalar bering.
2. Pedagogik texnikani shakllantirish tizimini ishlab chiqing.
3. Pedagogik texnikani shakllantirish metodikasini yarating.

Mavzu bo'yicha asosiy xulosalar:

1. Pedagogik texnika o'qituvchi faoliyatining ichki mohiyati bilan tashqi ko'rinishini birlashtiruvchi vositadir. Boshqacha qilib aytganda, o'quvchi bilan muloqotda bo'lish usullari va vositalarining yig'indisidir.
2. O'qituvchining tashqi qiyofasi deganda, uning tana tuzilishi, qaddi-qomati, bo'y-basti bilan bir qatorda, gavdasini tutishi, kiyinishi, shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilishi, harakatlari, yurish-turishi tushuniladi.
3. Gapirish bilan bog'liq bo'lgan kasb egalari, ayniqsa, o'qituvchilar o'z tovushlarini ehtiyot qilishi, parvarishlashi talab qilinadi. Aks holda tovush apparati tez shikastlanishi mumkin.

Asosiy adabiyotlar:

5. Verb. M.A. Kutsenko. V.G. Pedagogicheskaya texnika. M.1974. 32-34 b.
6. Osnovo' pedagogicheskogo masterstva. Pod redaktsiy I.A.Zyazyuna. M.,1989. 96-113

Qo'shimcha adabiyotlar:

7. Jo'raev. N. Agar ogoh sen… T. 1998.27 b.
8. Ochil.S. Mustaqillik mafkurasi va tarbiya asoslari. T. 1994. 32 **b.**

Mavzu: Ta'lim texnologiyalari.

Asosiy savollar

2. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, umumlashtirish va ommalashtirishning mohiyati.
3. Ilg'or pedagogik tajribalarning asosiy funktsiyalari.
4. Ilg'or pedagogik tajribalarning tatbiqi.

Darsning maqsadi: O'quv materiali va ilmiy-nazariy materiallarni o'qituvchining kasbiy faoliyatiga asoslangan holda pedagogik tajriba ko'rinishida tizim holiga keltirish;ilg'or pedagogik tajribani o'quvchi-yoshlarda aqliy va ma'naviy fazilatlarni shakllantirishdagi o'rnini aniqlash; ilg'or pedagogik tajribani ilmiy-uslubiy asosda o'rganish, umumlashtirish va amalda tatbiq etishning shaxs kamolotidagi mavqeini ko'rsatish.

Mavzuga oid tayanch iboralar va tushunchalar: ilg'or pedagogik tajriba, o'rganish, to'plash, tizim holiga keltirish, nazariya, amaliyot, printsip.

Darsning yangiligi - ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, umulashtirish va ommalashtirishga qaratilgan nazariy va amaliy ma'lumotlar toifalashgan yondashuv asosida izohlab berilgan.

Pedagogik nazariya va amaliyotning birligini ta'min etish bugungi kunda tobora dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Bu jarayon didaktik printsip sifatida ta'lim-tarbiyaning barcha jabhalarini qamrab oladi. Avvalo nazariya va amaliyotning birligi printsipi DTS va o'quv dasturlarida qat'iy belgilanib, ta'lim mazmuni va xarakteriga bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Ilmiy bilimlarni puxta egallash va uni amalga tatbiq etishni o'z ichiga oladi.

Pedagogik nazariya va amaliyotning birligi printsipi "Kadrlar tayyorlashning milliy modeli" talablaridan kelib chiqib , nazariy jihatdan asoslangan ilg'or pedagogik (texnologik) tajribalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishga qaratiladi. Shunga ko'ra uzluksiz ta'lim tizimida nazariya bilan amaliyotning birligi printsipini izchil va uyg'un ravishda amalga oshirishni, o'quvchilarni o'quv materiallarining tub mohiyatini, tabiat va jamiyatning taraqqiyoti qonunlarini bugungi globallashuv davriga xos ekologik vaziyatlar bilan bog'lagan holda ilmiy yondashuvlar asosida atroflicha o'rganib, kelajak amaliy faoliyatlari uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallab boradilar.

Nazariya va amaliyotning birligi printsipi izchil ravishda "Ilg'or pedagogik tajribani to'plash va ommalashtirish printsipi bilan bog'lanib ketadi. Ushbu printsipning mohiyatidan kelib chiqib, "fan – amaliyotga" qoidasiga muvofiq ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Har qanday ilmiy muammoning hal etilishi amaliyotning yaxshilanishiga qaratiladi. Shunga ko'ra ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish o'z-o'zidan shunchaki shaxsiy tajribani o'rganish bo'lmay, bu jarayon o'qituvchidan alohida ijodiy tajriba va ilmiy-pedagogik tayyorgarlikni talab

etadi. Shu o'rinda "ilg'or tajriba" bilan "bunyodkorlik tajribasi"ni bir-biridan farqlash lozim. Ilg'or tajribada o'qituvchi yangi narsani yaratmaydi , innovatsion xarakterdagi materialni ya'ni qo'lga kiritilgan bor yangilikni samarali ravishda tatbiq etadi. Shu asosda ilg'or tajribani o'qituvchi izchil ravishda o'rganib qo'llay olishi, uni asta-sekin shu tajribaning sohibiga aylantiradi. Chunki bu jarayonda shaxsiy pedagogik tajriba bilan ijodiy yondashuv uyg'unlashib ketadi. Demak, shu tajribani qo'llamagan va bilmagan mutaxassislar uchun bu jarayon ilg'or pedagogik tajriba ko'rinishida e'tirof etiladi.

Bunyodkorlik (novatorlik) tajribasida muallif o'zining ilmiy asoslangan ijodiy mahsulotini o'zi amalda sinab ko'rib, pedagogik omma hukmiga taqdimnoma ko'rinishida tavsiya etadi. Uning innovatsion mohiyati atroflicha tahlil etiladi. Tajriba-sinov natijalaridagi ko'rsatgichlar, dinamik o'sishlar va undan kelib chiqqan kafolatli natija oddiy, kundalik jarayonda amalga oshirilayotgan tajribalar bilan qiyoslanadi. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalarning samaradorligiga asosiy e'tibor qaratiladi. Demak, har ikkala tajriba turi ham o'zining yo'nalishi va mazmun-mohiyatiga qarab innovatsion pedagogik tajribalar ko'rinishida e'tirof etiladi.

Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish talab etiladi:

- umumnazariy tadqiqotni pedagogik turkum fanlarning qaysi yo'nalishlariga taalluqli ekanligi: tarbiya nazariyasi, didaktika, ijtimoiy pedagogika va boshqalar;
- alohida mavzular yo'nalishi bo'yicha;
- tavsiyalar (yoki tavsiyalarni amalga tatbiqi bo'yicha).

Mazmun va mohiyatidan kelib chiqib, ilg'or pedagogik tajribalar quyidagi asosiy funktsiyalarni bajarishi mumkin.

1. Ilmiy bilimlarni amaliy tajribalardan oldinda bo'lishi, ya'ni fan yangilikni yaratadi, ammo hali ta'lim amaliyotiga to'liq etib bormagan bo'ladi. Pedagogik nazariya va amaliyot dialektikasi bir-birini to'ldirib, nazariya bilan amaliyotning birligi printsipiga asoslanishi lozim.
2. Ilmiy bilimlarni amaldagi tajribalardan o'zib ketishi, nazariy tadqiqotlar va nazariy muammolarni hal etishga qaratiladi.
3. Keltirilgan tavsiyalar asosida pedagogik kontseptsiyalar va ilg'or tajribalarni turli sharoitda sinovdan o'tkazish. "Ishonchli, ilmiy asoslangan", deb topilgan tajribalarni ommaviy ravishda ta'lim amaliyotiga tatbiq etish.

Ko'plab maktab rahbarlari, o'qituvchilar va o'zining metodik tajribalariga ega bo'lgan o'qituvchilarni ham ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va kasbiy pedagogik faoliyatlariga tatbiq etish masalasi bo'yicha etarlicha tayyor deb bo'lmaydi. Chunki aksariyat o'qituvchilar pedagogik tadqiqot natijalari bilan tanishib borish imkoniyatiga ega emaslar. To'g'ri, bugungi globallashuv davriga xos axborot texnologiyasi rivoji, jumladan internet imkoniyatlari hamda masofaviy ta'lim tobora ommaviy tus olmoqda. Ammo yuqorida ta'kidlanganidek, pedagogik tadqiqotlar natijalari, ilmiy-amaliy tavsiyalar cheklangan doirada qolib kelmoqda. Qolaversa, pedagogik tadqiqotlar maktab ta'limi amaliyotidagi muammolarni to'liq qamrab olish imkoniyatiga ega bo'lolgan emas.





Shunday bo'lsada, innovatsion texnologiyalar tatbiqiga bo'lgan qiziqish kun sayin ortib bormoqda. Ayniqsa ilg'or pedagogik tajribalar mazmunida interfaol metodlar tatbiqini keng qamrovda qo'llanilishi ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish omiliga aylanib bormoqda.

Bundan tashqari, ta'lim yo'nalishida chop etilayotgan ilmiy va metodik nashrlardan "Ta'lim muammolari", "Xalq ta'limi", "Uzluksiz ta'lim", "Maktab va hayot" jurnallari, Xorij nashrlaridan "Pedagogika", "Innovatsii v obrazovanii", "Mir obrazovanie v mire" kabi jurnallarda, televizion ko'rsatuvlarda ilg'or innovatsion tajribalar berib borilmoqda. Joylarda tashkil topgan axborot resurs markazlarining imkoniyatlari tobora kengayib borayotgani kuzatildi.

Ilg'or innovatsion pedagogik tajribalar ko'rinishida elektron darslik, elektron qo'llanma va boshqa elektron nashrlarga talabning kuchayib borayotganligi ilm-fan taraqqiyotini yana chuqur egallash uchun yaratilayotgan qulay imkoniyatlardir. Ilg'or pedagogik tajriba ko'rinishida ommalashib kelayotgan elektron adabiyotlar va ularning tatbiqi davr talabi hisoblanadi.

Ilg'or pedagogik tajribalarni aniqlash o'qituvchining darslarini kuzatish va tahlil etish jarayonida ma'lum bo'ladi. So'ngi yillarda ochiq darslarni rejalashtirish o'qituvchi uchun shart bo'lgan me'yorga aylanib bormoqda. Shunga ko'ra har bir o'qituvchi mutaxassis sifatida, o'z sohasining malakali va bilimdon fidoyisi sifatida ilmiy asoslangan dars tahlili va uning metodikasini bilmog'i lozim. Dars tahlillari jarayonida o'qituvchi tomonidan ko'tarib chiqilgan yangiliklar, yangicha yondashuvlar, innovatsion metodlar tatbiqi va uning samaradorligiga ko'ra ta'lim mazmunidagi ijobiy o'zgarishlarga qarab ilg'or pedagogik tajriba umumlashtiriladi va ommalashtiriladi.

Ochiq darslar mobaynida eng yuqori ball olib, yuqoridagi talablar bo'yicha o'qituvchining alohida ko'rsatgichlari tahlil etiladi. (Ochiq darslar kuzatuvi va tahlili metodikasi ilova etildi).

Ilg'or pedagogik tajribalarni aniqlash va ommalashtirish o'ziga xos mahorat maktabini yaratadi. Bunda "uztoz-shogird" tizimi shakllanadi. Endi tetapoya bo'lib, maktab ostonasini hatlab

o'tayotgan yosh mutaxassislarni mahorat maktabidan bahramand bo'lishi, ijtimoiy faol va malakali raqobatbardosh pedagog kadrlar tayyorlashning asosiy omili hisoblanadi.

Umumiy xulosa va tavsiyalar

1. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga erishishning asosiy omili ilg'or pedagogik tajribalarni aniqlab, uni ommalashtirishdan iborat. Buning uchun zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishda ilmiy-ijodiy yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.
2. O'quvchilarni faol o'zlashtirishga yo'llaydigan zamonaviy ko'rgazmali vositalardan unumli foydalanish: monitor, kodoskop asosida rebus, krassvord, rangli jadval va sxemalar, masala va mashqlar, maqol va matallar, she'r hamda topishmoqlar, geometrik figuralar, shartli belgilar, rivoyatlar, ilmiy pedagogik tavsiyalarni namoyish etish, qisqa vaqtda interfaol metodlar yordamida o'quvchini topqirlikga, fikrlashga, tadqiq etishga chorlaydigan va ilhomlantiradigan vaziyatlarni vujudga keltirish talab etiladi.
3. Nazorat topshiriqlarini bosqichli ravishda o'quvchilarni individual-ruhiy xususiyatlarini hisobga olgan holda berish, ularda qobiliyatlarini shakllantirishga mas'uliyat bilan qarash lozim.
4. Integrativ yondashuv asosida o'quvchining ilmiy dunyoqarashini boyitib borishga erishish, shu asosida yangi ma'lumotlar bankini hosil qilishga oid uzluksiz metodik xizmatni amalga oshirish bilan ta'lim samaradorligiga erishish talab etiladi.
5. Har bir ta'lim muassasasida o'qituvchining ijodiy qobiliyatini oshirib borishi, o'z ustida ishlash uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish bilan birga ilg'or pedagogik tajribalarni tizimli rag'batlantirishni amalga oshirish lozim.

Mavzu yuzasidan savollar

1. Shaxsiy pedagogik tajriba bilan ilg'or pedagogik tajribani qiyoslab tushuntiring.
2. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish va ommalashtirishning yo'l-yo'riqlarini izohlang.
3. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqing.

Mustaqil ta'limga oid savollar

1. "Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va tatbiq etish" mavzusida texnologik xarita tuzib chiqing.
2. "Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganishda interfaol metodlarning o'rni" mavzusida referat tayyorlang.
3. "Innovatsion texnologiyalar: muammo va echimlar" mavzusida seminar-trening o'tkazing.

Asosiy adabiyotlar

1. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. – 64 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
3. Ibragimov X.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika. o'quv qo'llanma, - T.: Fan, 2005.- 268 b.
4. Vnedrenie dostijeniy pedagogiki v praktiku shkolo' G' pod. red. V.E. Gmurmana. – M.: Pedagogika, 1981. – 144 s.

Qo'shimcha adabiyotlar

5. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: 2003. – 174 b.
6. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya. 2003. – 172 b.
7. G'afforova T. va boshqalar. Ta'limning ilg'or texnologiyalari. – Qarshi, Nasaf, 2003. -112 b.

Internet materiallari

8. www. ipkpro. aaa net. ru.
9. www. seientology. org. ru.

1- mavzu. Psixologiya fan sifatida

Asosiy savollar.

1. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fani xakida tushuncha
2. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining predmeti.
3. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining vujudga kelishi
4. Sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:

Psixika, telepatik,sub'ekt-ob'ekt, ong, rux, jon, psixik holat, psixosomatik, determinizm,epifenomenalizm, regulyator, aks ettirish, fiziologik,o'zini-o'zi anglash,sensor, birinchi signal sistemasi, ikkinchi signal sistemasi refleks,dualizm.

Mavzuga oid muammolar:

1 Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining rivojlanish bosqichlarida psixik hodisalarning o'rni bormi? Isbotlang?
2. Psixik rivojlanishning qonuniyat va mexanizmlarini nimalardan iborat deb bilasiz? Fikringizni bayon qiling ?
Psixik hodisalarning kechishini misollar bilan tushuntiring?
3. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining maqsad, vazifalari, va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.
4. Psixikaning qonuniyatlarini o'rganing.
5. Psixikaning mexanizmlarini bayon qiling?

Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fani xakida tushuncha

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining tarixini tushuntirib berish, uni har bir talabaning o'zlashtirib olishiga erishish. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining rivojlanish bosqichlarini aniqlash. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining mohiyatni yoritish. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining vazifalarini aniqlash. Talabalarda Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanini o'rganishga qiziqish uyg'otish.

Identiv o'quv maqsadlari.

Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining tarixini tushuntirib beradi.
Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining rivojlanish bosqichlarini aniqlaydi.
Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining mohiyatni yoritadi.
Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining vazifalarini sanaydi.
Talabalarda Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanini o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

1-savolning bayoni:

Umumiy psixologiya voqelikning alohida bir sohasi bo'lgan psixik (yoki ruhiy) hayot sohasini o'rganadi. Har kimga ma'lum hodisalar sezgilarimiz, idrok, tasavvurlarimiz, fikr, his, intilishlarimiz va shunga o'xshashlar psixik hodisalar jumlasiga kiradi. Shaxsning psixik yoki individual xususiyatlari: odamning temperamenti (mijozi), xarakteri (fe'l-atvori), qobiliyat, ehtiyoj, mayl va havaslari ham psixika sohasiga kiradi. Psixik (ruhiy) hodisalar barchasi **psixika** degan bir so'z bilan ataladi.

Psixika o'zga alohida bir olam emas: u organik hayotning yuksak shakllaridan bo'lib, faqat hayvonlar bilan odamlarga xosdir. Hayvonlar bilan odam, o'simliklardan farq qilib, yolg'iz organik hayotga ega bo'libgina qolmay, balki, shu bilan birga, psixik hayotga ham egadir. Lekin, ma'lumki, hayvonlarning psixik hayoti odamning psixik hayotiga qaraganda soddaroqdir. Odam psixikasi hayvonlar psixikasidan sifat jihatidan farq qiladi. Odamda psixik hayotning yuksak shakli - ong bor. Odam ongli zot hisoblanadi.

Psixik hayot hodisalari juda xilma-xil, ammo bir-biri bilan o'zaro bog'langan bo'ladi. Psixologiya ana shu bog'lanish va munosabatlarning qonuniyatlarini ochib beradi. Hozirgi kungacha psixik hodisalar rivojlanib kelgan va rivojlanmoqda. Shu sababli, psixologiya psixikaning taraqqiyot qonuniyatlarini ochib berishi kerak.

Har bir shaxs psixologiya fanining ma'lumotlaridan amaliy maqsadda, avvalo ta'lim-tarbiya ishida, shuningdek, ishlab chiqarishda, mehnatni tashkil etish va ixchamlashtirishda, tibbiyotda, san'at va shunga o'xshash sohalarda foydalanmoq uchun psixikaning taraqqiyot qonuniyatlarini bilishi kerak bo'ladi. Shunday qilib, psixologiya psixik hayot sohalari yoki, qisqacha qilib aytganda**, psixikadan**

bahs yuritadi. Psixik hayot turli-tuman hodisalarda namoyon bo'ladi. Psixik hayot hodisalari: psixik jarayonlar, psixik mahsullar va psixik holatlarga ajratiladi.
Psixik jarayon — psixik hodisaning ketma-ket o'zgarishidir.
Psixik mahsullar — psixik jarayonlarning natijasidir. Bularga sezgi va idroklarning obrazlari, tasavvurlar, muhokamalar, tushunchalar kiradi. Psixik holatlarga esa yoqimli va yoqimsiz tuyg'ular, tinchlik-farog'at, hayajonlanish va ma'yuslanish, uyg'oqlik va uyqu holatlari, dadillik va taraddudlanib qolish holatlari kiradi.

Xilma-xil psixik hodisalarni: bilish, emottsional soha (hissiyot sohasi) va iroda sohasi deb uchga bo'lish qadimdan bor. Odam ongi faoliyatida zohir bo'ladigan ana shu turlar psixik funktsiyalar deb ataladi.
Bilish hodisalari boshqacha qilib aytganda aqliy, intellektual jarayonlar deb ataladi. Sezgilar, idrok, xotira, xayol, tafakkur va nutq - bilish jarayonlari deb hisoblanadi. Odatda hayotimizda **psixik funktsiyalar** termini o'rniga **psixik jarayonlar** terminini ishlatamiz.
Ammo psixik funktsiyalar terminidan foydalangan ma'qulroq. Funktsiya tushunchasining mazmuni kengroq. Bu tushuncha psixik jarayonni ham, psixik holatni ham, faollikni ham, ish-harakatini ham o'z ichiga oladi. Funksiya qanday bo'lmasin yaxlit bir narsaning qismi emas, balki namoyon bo'lishi, amal qilishi demakdir. Shuning uchun sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur, nutq, diqqat, hislar, iroda psixika qismlari emas, balki bir butun ongning funktsiyalari, bir butun shaxsning funktsiyalaridir.
S e z g i l a r - muayyan paytda sezgi organlarimizga: ko'ruv, eshituv, tuyish, hid bilish va boshqa shu kabi organlarimizga ta'sir etib turgan narsalardagi ayrim xossalarning aks etishidir. Masalan, qizil, oqni, shirin, achchiqni, og'ir, engilni sezamiz.
I d r o k - tevarak-atrofimizdagi narsalarning yaxlit holda aks etishidir. Masalan, uy, gul, nutq, musiqa va boshqa shu kabilarni idrok etamiz. Narsalar sezgilar asosida idrok etiladi. Sezgi va idrok tevarak-atrofimizdagi narsa va hodisalar hamda ulardagi xilma-xil xossalarning miyamizdagi obrazlaridir.
X o t i r a - n arsa va hodisalar hamda ulardagi xossalarning sezgi va idrok orqali hosil bo'lgan obrazlari nom-nishonsiz yo'qolib ketmaydi ular miyamizda o'rnashib, saqlanib qoladi va qulay sharoitda yana esimizga tushadi. Ilgari idrok etilgan narsalarning esimizga tushirilgan obrazlari tasavvurlar deb ataladi. Sezgi va idrok kabi, ko'nglimizdan kechgan fikr, hislarimiz va qilgan ishlarimiz ham miyaga o'rnashib, saqlanib qoladi va yana esimizga tushadi. Idrok etilgan va ko'ngildan kechgan narsalarning miyamizga o'rnashib (esimizda qolib), saqlanishi va yana esimizga tushishidan iborat bo'lgan ana shu psixik faoliyat **xotira** deb ataladi.
X a yo l - narsa va hodisalarning idrok orqali miyamizda hosil bo'ladigan obrazlardan tashqari, o'zimiz bevosita idrok etmagan narsalar haqidagi tasavvurlar ham miyamizdan katta joy oladi. M: ibtidoiy odamlarning hayot sharoitlari haqidagi tasavvurlarimiz, Marsdagi hayot haqidagi tasavvurlarimiz va shunga o'xshashlar ana shundaydir. Bu tasavurlar xotiramizda bor tasavvurlar asosida xayolda (fantaziyada) hosil bo'ladi.
T a f a k k u r - Idrok va tasavurlarimizda aks etadigan narsa tafakkurda taqqoslanib, tahlil qilinadi va umumlashtiriladi. Tafakkur voqelikning umumiylashtirilgan bevosita va eng to'liq hamda eng aniq intihosidir. Tafakkur jarayonlaridagi fikrlar muhokama va tushunchalar tushuniladi va vujudga keladi. Odam fikrlash faoliyati tufayli voqelikni idrok va tasavvurlaridagiga qaraganda aniqroq, to'laroq va chuqurroq bilib oladi.
N u t q - Tafakkur nutqqa chambarchas bog'liq. Fikrlarimiz nutq yordami bilan shakllanadi va ifodalanadi. Kishilar nutq vositasida aloqa qiladilar, fikrlarini bir-birlari bilan o'rtoqlashadilar; odamning hissiyoti va intilishlari ham o'z nutqida ifodasini topadi. Nutq kishilarning bir-birlari bilan bilan aloqa qilish usulidir.
D i q q a t- Yuqorida ko'rsatilgan psixik jarayonlarning hammasi odamda diqqat mavjud bo'lgandagina yuzaga chiqadi. Diqqat ongimizning o'zimiz idrok etayotgan, tasavvur qilayotgan, fikr yuritilayotgan va aytayotgan narsamizga qaratish, bir nuqtaga to'plash demakdir. Diqqat o'ziga xos alohida bilish jarayoni emas, balki bilish jarayonlarning faol borishi va sifatli bo'lishi uchun zarurdir.

Birinchi savol bo'yicha nazorat topshiriqlari:

1. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining tarixini tushuntirib bering?
2. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining rivojlanish bosqichlarini aniqlang?
3. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining mohiyatini yoriting?
4. I.M. Sechenovning (1829-1905 rus olimi) reflektor nazariyasining o'ziga xos xususiyatlarini gapirib bering?
5.G'oyalar assotsiatsiyasi (bog'lanishi) qonuni, idrok va tafakkurning paydo bo'lishi, qobiliyatlar psixologiyasi haqida muhim ta'limotlarini yaratish bilan fanning rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan olimlarni aniqlang?
A. A. Beruniy, A. A. Ibn Sino.
B. Leybnits, Jon Lokk, Gartli, Didro.
V. A. A. Ibn Sino, Jon Lokk, Gartli.

2. Umumiy psixologiya fanining predmeti.

Ikkinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining predmetini tushuntirib berish, uni har bir talabaning o'zlashtirib olishiga erishish. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining vazifalarini aniqlash va belgilash. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining mohiyatni yoritish. Talabalarda Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanini o'rganishga qiziqish uyg'otish.

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining predmetini tushuntirib beradi.
2. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining mohiyatni yoritadi.
3. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining vazifalarini belgilaydi va sanaydi.
4. Talabalarda Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining fanini o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

2-savolning bayoni:

«Psixologiya» (yunoncha psychelogos) so'zini o'zbek tiliga tarjima qilsak, u «jon», «ruh» haqidagi «fan, ta'limot» degan ma'no anglatadi. Hozirgi davrda esa «jon» tushunchasi o'rniga «psixika» qo'llaniladi. «jon», «psixika» tushunchalari aynan bir xil ma'noni bildiradi. Lekin «psixika» tushunchasi bugungi kunda «jon»dan kengroq ko'lamga ega bo'lib, ko'zga ko'rinuvchi va ko'zga ko'rinmovchi tomonlarini o'zida aks ettiradi. Psixikada psixikaning tarkibiy qismlari: **faoliyat, xulq, muomala** yaqqol namoyon hisoblanadi. Bilish jarayonlari: psixik holatlar, ichki kechimalar, ijodiy rejalar, ilmiy farazlar esa miyada mujassamlashgani uchun ular ko'zga ko'rinmaydi. Psixika to'g'risida dastlabki tasavvurga ega bo'lish uchun dastavval psixik hodisalar mohiyati bilan tanishamiz. Psixika hayotning sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol kabi har biri alohida olingan yaqqol shakllaridan iboratdir. Insondagi quvonch yoki zerikish tuyg'ulari, uning nimalarnidir esga tushirishi, biron-bir xohish yoki intilish kechinmalari, xotirjamlik yoki hayajonlanish, hadiksirash hislarining barchasi shaxs ichki dunyosining tarkibiy qismlaridir.

Agar inson idrok qilsa, sezsa, fikrlasa, eslasa, xohish bildirsa, albatta ana shu hodisalarni bir davrning o'zida tushunib (kuzatib) ham turadi. Inson intilsa, ikkilansa, bir qarorga kelsa, biz ularning barchasini sodir bo'layotganligini anglab turamiz. Shuning uchun psixik hodisalar bizning ruhiyatimizda sodir bo'lishidan tashqari, ular bevosita ko'z o'ngimizda namoyon bo'lib turadi. Psixikaning turli shakllarda ko'rinishi, jumladan, psixik jarayonlar, anglashilmagan holatlar, xulq-atvor, psixosomatik (yunoncha psyche «jon», somo «tana» ma'nosini anglatadi) hodisalar, inson aql-zakovati va qo'lining mo''jizakorligi moddiy va ma'naviy madaniyat mahsulini yaratdi. Har qanday faktlarda (voqelikda), hodisalarda psixika namoyon bo'ladi, o'zining xususiyatlarini ajratadi, faqat ularni bilish orqaligina psixikani o'rganish mumkin.

Psixologiyaning predmeti quyidagilardan tashkil topgan:

1) psixologik bilish jarayonlari (sezgi, idrok, xotira va hokazo),
2) psixikaning shakllari (faoliyat, xulq, muomala),
3) psixikaning holatlari (kayfiyat, xayolparishonlik kabilar),
4) psixikaning hodisalari,
5) psixikaning xislatlari, fazilatlari, sifatlari, xossalari,
6) psixikaning qonuniyatlari,
7) psixikaning mexanizmlari,
8) psixik sharoit, muhit, vaziyat,

9) o’zaro sababiy bog’lanishlar,
tadqiqot metodlari, vositalari, materiallari va printsiplari.

Ikkinchi savol bo’yicha nazorat topshiriqlari:

1. Psixologik bilish jarayonlarini tavsiflang?
2. Psixikaning shakllarini sanab bering?
3. Psixikaning holatlarni tushuntiring?
4. Psixikaning hodisalarini ta’riflab bering?
5. Psixikaning xislatlari, fazilatlari, sifatlari, xossalarini bir-biridan ajrating?

Uchinchi savol bo’yicha darsning maqsadi: Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining vujudga kelishini tushuntirib berish, uni har bir talabaning o’zlashtirib olishiga erishish. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining vujudga kelishida hissa qo’shgan faylasuflarning talimotlarini o’rganish va qiyosiy solishtirish. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining mohiyatni yoritish. Talabalarda umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining vujudga kelishini o’rganishga qiziqish uyg’otish.

Identiv o’quv maqsadlari.

1.Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining vujudga kelishini tushuntirib beradi.
2.Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining vujudga kelishida hissa qo’shgan faylasuflarning talimotlarini o’rganadi va qiyosiy solishtiradi.
3.Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining mohiyatini yoritadi.
4. Talabalarda Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining vujudga kelishini o’rganishga qiziqish uyg’otadi.

3. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining vujudga kelishi.

Insoniyatning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davomida qadimgi odamlar tabiiy hamda ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ibtidoiy jamoa a’zolarining psixologik xususiyatlarini aniqlash, ulardan shaxslararo munosabatlarda oqilona foydalanish, o’zining xatti-harakati, shaxsiy faoliyati va muomalaga kirishishida ularni hisobga olishga intilib yashab kelganlar. Ko’p ming yillik ijtimoiy hayot tajribalariga asoslangan ravishda odamlar shaxsning individual (lotincha individuum alohida, yakkahol odam) xususiyatlarini jon bilan bog’lashga va uning ta’siri bilan izohlashga harakat qilishgan. Qadimgi odamlarning tasavvurlariga qaraganda, inson tanasida jon joylashgan bo’lib, u shaxsga oid xususiyatlar, xislatlarni vujudga keltirish imkoniyatiga ega emish. Qadimgi ajdodlarimizning «jon» to’g’risidagi tasavvurlari natijasida animizm (lotincha anima «jon» degan) ta’limot insoniyat tomonidan kashf qilinadi. Ibtidoiy xalqlarning tasavvurlarida ruh insonning tanasi bilan uzviy bog’liq holda hukm suradi, go’yoki yashaydi. Shuning uchun ijtimoiy hodisalar, hatto ong, shuningdek, real voqeliklar (o’lim, uyqu, bexush bo’lish, betoblik) kabilarni sodda tarzdagi moddiylik (mavjudlik) nuqtai nazaridan talqin qilishga uringanlar. Sodda tafakkur shakllari bilan qurollangan qadimgi odamlar atrof-muhit to’g’risidagi rang-barang holatlar, hodisalar mohiyatini ilmiy jihatdan dalillash imkoniyatiga ega bo’lmaganligi sababli idrok qilingan narsani uning haqiqiy mohiyati tarzida aks ettirishgan.

Qadimgi insonlar tabiatning qudrati (kuch-quvvati) oldidagi zaifligi tufayli yakka shaxs ham, jamoa ham ruhga itoatkor tarzida tasavvur etilishi natijasida din, ibodat tushunchalari paydo bo’ladi.

Aflotun psixologiyada dualizm (lotincha dualis ikki mustaqil ma’no bildiradi) ta’limotida ruhiy olamni, tana bilan psixikani ikkita mustaqil narsa deb izohlaydi.

Aflotunning shogirdi Arastu (eramizdan oldingi 384-322 yillar) o’zining ta’limotida psixologiyani tabiiy-ilmiy asosga qurib, uni biologiya va tibbiyot bilan bog’lab tushuntirishga erishgan. Arastuning «Jon» to’g’risidagi kitobi ma’lum bir davr uchun taraqqiyparvar manba vazifasini bajardi. Unda odamlarning va hayvonlarning kundalik hayotiy lahzalarini kuzatish orqali yaqqol voqelikni tasvirlash, tahlil qilish jarayonlari mujassamlashtirildi. Arastuning ta’kidlashicha, jon qismlarga bo’linmaydi, lekin u faoliyatning oziqlanish, his etish, harakatga keltirish, aql, idrok kabi turlarga oid qobiliyatlarda ro’yobga chiqadi. Uning fikricha, sezgi bilishning dastlabki qobiliyati, u tasavvur shaklida iz qoldirishi mumkin.

XVII asr biologiya va psixologiya fanlari uchun taraqqiyot davri bo’ldi. Xulq-atvorning reflektor (g’ayriixtiyoriy) tabiatga ega ekanligi frantsuz olimi Dekart (1596-1650) tomonidan kashf etildi.

Refleks (lotincha reflexus aks ettirish) organizmning tashqi ta'sirga qonuniy ravishdagi javob reaktsiyasi ekanligi isbotlandi.

Ingliz olimi Gobbs (1588-1679) ruhni mutlaqo rad etib, mexanik harakatni yagona voqelik deb atadi.

Niderlandiyalik olim Spinoza (1632-1677) ongni katta ko'lamga ega bo'lgan yaqqol narsa deb tushuntirdi. Uning fikricha ong materiyadan sira qolishmaydigan voqelik ekanligini ta'kidladi.

Rus olimi I.M. Sechenovning (1829-1905) reflektor nazariyasi ro'yobga chiqdi va ushbu nazariya psixologiya fanining fiziologik asoslari, mexanizmlari, bosh miya reflekslarining o'ziga xos xususiyatlari tabiatini ochib berish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Uchinchi savol bo'yicha nazorat topshiriqlari:

1.I.M. Sechenovning (1829-1905) reflektor nazariyasini tushuntiring.

2. Ingliz olimi Gobbs nima uchun mexanik harakatni yagona voqelik deb bilgan ? Fikringizni bayon qiling?

3. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining vujudga kelishini tushuntiring.

4. Psixikaning fiziologik mexanizmlarini yoriting

5. Psixologiya va uning moddiy asoslarini asoslang

Psixikaning predmeti to'g'risida psixologik qarashlarni o'rganing va qiyosiy 6. tahlil qiling.

7. Psixikaning moddiy asoslari to'g'risida mulohazalaringizni bayon qiling.

To'rtinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Inson va ijtimoiy jamiyatning ko'p qirrali, murakkab munosabatini tushuntirish.Shaxsning jamiyatdagi rolini ta'riflash. Shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillarni tekshirish.

Identiv o'quv maqsadlari.

1.Inson va ijtimoiy jamiyatning ko'p qirrali, murakkab munosabatini tushuntiradi.

2. Shaxsning jamiyatdagi rolini ta'riflaydi.

3. Shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillarni tekshiradi.

4. Sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlari.

4-savolning bayoni:

Sharqning mashhur mutafakkiri, qadimgi yunon falsafasining sharqdagi eng yirik targ'ibotchisi olim **Abu Nasr Forobiydir**. U o'z davrining faylasufi, musiqachisi, shoiri, qomusiy olimi bo'lib nom qozondi. U «Aql haqidagi risola», «Falsafa maktablari», kabi ko'plab risolalar yaratdi. U Sharqda qadimgi dunyoning qomusiy olimi, psixologiya fanining otasi Aristotelning asarlarini o'rganish, ularga sharhlar yozish, g'oyalarini targ'ib etish va yanada rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdi. Aristotel «birinchi muallim» deb nom olgan bo'lsa, Sharqda Forobiy «ikkinchi muallim» unvoniga sazovor bo'ldi. U insonning ruhiy jarayonlari haqida fikr yuritadi. Forobiyning fikricha, mavjudotning eng buyuk va etuk mahsuli — bu insondir, u o'zining ongi, aqli, sezish organlari orqali olamni har tomonlama o'rganish qobiliyatiga egadir. Aql yordamida inson uni o'rab olgan mavjudotning mohiyatini tushunadi. U mavjudotning yashash shakllari, olamni bilishning yo'l va vositalari, unda ilm-fanning o'rni va ahamiyati masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, inson tug'ilganda tanasi, miyasi, sezgi organlari mavjud bo'ladi, lekin aqliy bilimi, ma'naviyligi, ruhi, intellektual va aqliy xislatlari, xarakteri, dini, urf-odatlari bilan muloqotda vujudga keladi.

Forobiyning ruhiy jarayonlar haqidagi ta'limoti psixologiya ilmining rivojlanishi va ravnaqiga katta hissa qo'shdi. Uningcha, minerallar to'rt element olov, tuproq, havo, suv ya'ni sodda substansiyalarning o'zaro aralashuvi murakkab substansiyalarni vujudga keltirdi. Undan avvalo minerallar, ya'ni noorganik jismlar keyin esa o'simlik olami tashkil topdi. O'simliklar olami o'sish, rivojlanish qobiliyatiga egadir. O'simliklardan so'ng hayvonlar vujudga keldi, ular harakat qilish, bir joydan ikkinchi joyga ko'chish, ko'payish, sezish qobiliyatiga ega edilar. Forobiy olam jismlari rivojlanishining oliy bosqichi insonning vujudga kelishidir, deb ko'rsatadi.

Forobiy o'simlik, hayvon va insonga xos xususiyat va qobiliyatlarni quvvat deb atadi va uni o'sish quvvati, hayvoniy quvvat va insoniy quvvat deb uchga ajratadi. Uning quvvatlar haqidagi klassifikattsiyasi organizm-dagi jarayonlarni biologik, fiziologik-psixik va fikrlash jarayonlariga ajratish demakdir. Forobiy ruhiy jarayonlarni psixolog sifatida emas, balki faylasuf sifatida talqin qiladi, chunki u davrda psixologiya hozirgidek mustaqil fan hisoblanmay, balki umumiy falsafiy bilimlar tuzilishiga kirgan edi. Forobiyning yaratgan bilish jarayonining ikki bosqichi, hissiy va aqliy bilish ta'limoti, ayniqsa, muhimdir. U hissiy bilishni sezgilar orqali aniq va moddiy

narsalarning bevosita ta’siri natijasida hosil bo’ladi, degan bo’lsa, aql orqali bilish aniq moddiy jismlar orqali emas, ularning ta’sirisiz va ulardan tashqari faqat ruhiy obrazlar asosida vujudga keladi, deb uqtiradi. Forobiy «Aql ma’nolari haqidagi risola»sida aql-intellekt tushunchasini bir tomondan, psixik jarayon ekanligini va ikkinchi tomondan u tashqi ta’sirning, ta’lim-tarbiyaning natijasi deb anglaydi.

Forobiydan keyin jahon madaniyatiga ulkan hissa qo’shgan olimlardan biri buxorolik **Abu Ali ibn Sinodir**.

U tibbiyot, falsafa, psixologiya, matematika kabi fanlarning rivojlanishiga e’tibor berdi. U mavjudodni, ya’ni barcha mavjud narsalarning kelib chiqishi, o’zaro

munosabati, biridan ikkinchisiga o’tishini har tomonlama o’rganadi. Ibn Sinoning fikricha, olam yaxlit murakkab bog’liqdir. Bu bog’liqni har tomonlama tekshirish uchun u zaruriyat, imkoniyat, voqelik va sababiyat tamoyillarini asos qilib oldi. Uning fikricha, materiya to’rt shakldan havo, o’t, suv, tuproqdan iborat. Ularning o’zaro turli xil birikuvi natijasida murakkab moddiy narsalar tashkil topadi, deb yozadi. Bu moddiy narsalarning moddiy asosi bo’lgan havo, o’t, suv, tuproq o’zgarmaydi ham, yo’qolmaydi ham. Ibn Sino materiya harakat, vaqt, fazo bilan uzviy bog’liqdir, deb ta’kidlaydi. Ibn Sinoning ishlarida «jon» tushunchasi organizmni sezish, eshitish, ko’rish qobiliyati deb tahlil qilingan. U jon haqida ajoyib ta’limot yaratdi. Bu haqdagi fikrlar uning «Tib qonunlari» kitobida o’z aksini topgan.

Abu Ali ibn Sino Sharq tabobatida keng qo’llaniladigan «mijoz» tushunchasiga alohida e’tibor berdi. Uningcha, «mijoz» insonning xususiyati uning sifati, tana va ruhga tashqi muhit faktorlarining ta’sirini idrok qilishdir. «Mijoz» organizmning ruhiy va jismoniy barqarorligini ko’rsatgan jismoniy va psixik idrok hamda turli ta’sirlarga javob bo’lib, bu so’z qadimgi grek tabibi Gippokrat tomonidan ishlatilgan. Keyinchalik, u organizmda bo’ladigan 4 suyuqlik qon, safro, balg’am, qora o’t haqida ta’limotini ishlab chiqqan.

Ibn Sino tibbiyot muammolarini hal qilishda Gippokrat ta’limotiga suyanadi. «Tib qonunlari* asarida bir necha bor tibbiyot fanini otasi Gippokrat fikrlaridan foydalanadi.

To’rtinchi savol bo’yicha nazorat topshiriqlari:

1. Inson - madaniyat, ma’naviyat, qadriyat va ruhiyatni tushuntiring ?
2. Shaxsning jamiyatdagi rolini ta’riflang ?
3. Jamiyatning tarixiy taraqqiyotida insonning o’rnini belgilang ?
4. Shaxsga ijtimoiy ta’sir etuvchanlikni bayon qiling ?

Mavzu bo’yicha asosiy xulosalar:

Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining tarixi va rivojlanish bosqichlari ko’rib chiqildi. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining predmeti aniqlanib, vazifalari belgilandi. Psixik hodisalarni kuzatildi. Psixik rivojlanishning qonuniyatlari o’rganilib, qiyosiy solishtirildi. Shaxs va jamiyatning o’zaro aloqasi ko’rib chiqildi. Psixik hodisalarning kechishi tekshirildi.

2- mavzu. Psixologiyaning asosiy metodlari

Asosiy savollar.

Asosiy savollar:

1. Umumiy psixologiya fanining tarmoqlari
2..Umumiy psixologiya fanining metodlari.
3. Psixologiya fanining nazariy va amaliy vazifalari.

Identiv o’quv maqsadlari.

1. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining tarmoqlarini sanaydi.
2. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining metodlarini ajratadi va uning vazifalarini belgilaydi.
3. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining boshqa fanlar bilan aloqasini o’rganadi.
4.Hozirgi zamon psixologiyasi va uning boshqa fanlar tizimida tutgan o’rnini ajratadi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Eksperimental psixologiya, qonuniyatlar, mexanizmlar, murakkab ichki bog’lanishlar, printsiplar, ilmiy tadqiqot metodlar, filogenetik, ontogenetik, ilmiy tushunchalar, kategoriyalar, muhandislik psixologiyasi, kosmik psixologiya, tibbiyot psixologiyasi, yuridik psixologiya, harbiy psixologiya.

Mavzu bo'yicha asosiy muammolar:

1 Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining tarmoqlarini bir birlaridan farqini ajratib, ta'riflab bering? Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishini va boshqa fanlar o'rtasida tutgan o'rnini aniqlang.

2. Hozirgi zamon psixologiyasining asosiy tekshirish metodlari yordamchi metodlardan qanday xususiyatlari bilan farq qiladi? Misollar bilan tushuntiring?

3. Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi, tamoillari, maqsad, vazifalari, va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlang.

4. Metod va tamoillar tushunchalariga ta'rif bering

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining tarmoqlarini tushuntirib berish. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining tarmoqlarini mohiyatini yoritish. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining tarmoqlarining vazifalarini aniqlash. Talabalarda Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining tarmoqlarini o'rganishga qiziqish uyg'otish.

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining tarmoqlarini tushuntirib beradi.
2. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining tarmoqlarini mohiyatini yoritadi.
3. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining tarmoqlarini vazifalarini aniqlaydi.
4.Talabalarda Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining tarmoqlarini o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining tarmoqlari.

Psixologik bilimlar juda uzoq o'tmish tarixga ega bo'lsada, lekin u fan sifatida falsafadan XIX asrga kelib ajralib chiqdi. Psixologiyani alohida fan sifatida ajralib chiqishga o'sha davrda kishilik jamiyatida yuz berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar sabab bo'ldi, chunki bular ijtimoiy zaruriyatning taqozosi edi. Amerikada bixeviorizm, Venada Z.Freydning psixoanalizm kabi psixologiya maktablarining vujudga kelishi psixologiya fanining rivojlanishiga ijobiy hissa qo'shdi. Shu maktablarning hammasi o'zining nuqtai nazariga asoslanib, psixologiya fanining tarkibiy qismlarini o'rganishga harakat qildi.

Umumiy psixologiya - umumiy psixologik qonuniyatlar, mexanizmlar, murakkab ichki bog'lanishlar, nazariy va metodologik printsiplar, ilmiy tadqiqot metodlar, psixikaning filogenetik va ontogenetik o'zgarishlarini, ilmiy tushunchalar va kategoriyalar, bilish jarayonlarini amaliy va nazariy jihatdan tadqiqot qiladigan soha. Umumiy psixologiya fani asosiy kategoriyalar, tushunchalar, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, individual-tipologik xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

1. Psixik jarayonlar: sezgi, idrok, tasavvur, xotira, tafakkur, xayol va boshqalar.
2. Irodaviy jarayonlar: motiv, motivatsiya, ehtiyojlar, intilishlar, qaror qabul qilish kabilar.
3. Hissiy jarayonlar: his-tuyg'ular, emotsiya, kayfiyat, emotsional ton, stress, affekt singarilar.

Eksperimental psixologiya - bu soha eksperimental metodlar yordamida psixik hodisalarni tadqiq qiladi. Psixologiyaning fan sifatida falsafadan ajralib chiqishida eksperimental tadqiqotlar o'tkazish asosiy rol o'ynagan. XIX asrning o'rtalarida psixologik hodisalar ustidan ilk bor amaliy eksperimental-psixologik tadqiqotlar o'tkazilgan. Bu fiziologik laboratoriyalarda elementar funktsiyalarni o'rganish orqali, ya'ni ilk bor sezgi va idrokni o'rganish bilan boshlangan. Eksperimental psixologiya fan sifatida ajralib chiqishiga V.Vundt o'zining katta hissasini qo'shgan. Tadqiqotlarning ko'pchiligi T.L.Morgan, E.L.Torndayklar tomonidan olib borilgan..

Mehnat psixologiyasi – bu soha insonning mehnatga munosabatini, mehnat faoliyatining qonuniyatlari va rivojlanishini tadqiq qiladi. Mehnat psixologiyasining ob'ekti ishlab chiqarishda va mehnatda shaxsning faoliyati hisoblanadi. Mehnat psixologiyasi G.Myunsterbergning «Psixologiya va ishlab chiqarish unumdorligi» (1913) va «Psixotexnika asoslari» (1914) kitoblari chiqqan davrdan boshlab alohida soha sifatida vujudga kelgan. Mehnat psixologiyasining asosiy vazifasi ishlab chiqarish munosabatlarini ijobiylashtirish, mehnatkashlarga zarur shart-sharoit yaratib berish, kasbiy kasalliklarning, ishlab chiqarishda jismoniy falokatlarning, psixologik zo'riqishlarning oldini olishdir.

Aviatsiya psixologiyasi - aviasanoat va aviaxizmatchilarning mehnat faoliyatida kechuvchi psixologik qonuniyatlarni o'rganadi. Aviatsiya psixologiyasining predmeti murakkab aviatsiya

tizimini boshqarishdagi inson psixikasining rolini tekshirishdan iborat. Aviatsiya psixologiyasi ob'ekti shaxs faoliyati, jamoa tuzilishini tashkil qilishning shart-sharoitlari hisoblanadi. Aviatsiya psixologiyasi sub'ekti uchuvchilar, muhandis, texnik xizmat ko'rsatish tarkibini tashkil etuvchi styuardessalar va boshqalar.

Muhandislik psixologiyasi –bu soha inson va mashina o'rtasidagi munosabatni, insonga mashinaning psixologik ta'sirini va insonning mashina bilan munosabati jarayonining psixologik qonuniyatlarini tadqiqot metodlari yordami bilan o'rganadi. Muhandislik psixologiyasi fan-texnika revolyutsiyasi ta'sirida vujudga kelgan.

Kosmik psixologiya –bu soha vaznsizlik va bo'shliqda aniq mo'ljal ola bilmaslik sharoitida, organizmda juda ko'p ortiqcha taassurotlar yuklangan paytda ro'y beradigan nerv-psixologik zo'riqish bilan bog'liq bo'lgan alohida holatlar tug'ilganda kishi faoliyatining psixologik xususiyatlarini tadqiq qiladi.

Ekstremal psixologiya - insonning o'zgargan muhit shart-sharoitlarida psixik faoliyatining kechishi qonuniyatlarini o'rganadigan psixologiya sohasi. Ekstremal sharoitda insonga bir qancha faktorlar ta'sir qiladi: makon o'zgarishi, xavf omili, vaqt, shaxsiy ahamiyatga molik axborotning o'zgarishi, yolg'izlik, guruhiy izolyatsiya va hayotiy xavf.

Pedagogik psixologiya –bu soha tarbiya va ta'lim muammolarini tadqiq qiladi. Pedagogik psixologiya shaxsning maqsadga muvofiq rivojlanishini, bilish faoliyatining va shaxsda ijtimoiy ijobiy sifatlarni tarbiyalashning psixologik muammolarini o'rganadi.

Tibbiyot psixologiyasi - kasallarning davolanishi, gigiena, profilaktika, diagnostika jabhalarini tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi. Tibbiyot psixologiyasida tadqiqotlar tizimiga kasalliklarning kechishi, ularning shaxs psixologiyasiga ta'siri o'rganiladi. Tibbiyot psixologiyasi o'z ichiga qo'yidagilarni oladi:

1.neyropsixologiya- psixik hodisalar bilan miyaga fiziologik tuzilishlar o'rtasidagi nisbatni o'rganadigan soha.

2.psixofarmokologiya -dorivor moddalarning kishi psixik faoliyatiga ta'sirini tekshiradigan soha.

3.**psixoprofilaktika -** bemorlarni davolash uchun psixik jihatdan salomatligini ta'minlash chora-tadbirlari tizimini ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi soha.

Yuridik psixologiya huquq doirasidagi munosabatlar odamlarning psixik faoliyatini huquqiy boshqarish mexanizmlari va qonuniyatlarini o'rganuvchi psixologiya sohasi. Yuridik psixologiya jinoyatchilar shaxsini tadqiq qilish, guvohlik ko'rsatuvchilar ko'rsatmalarini tekshirish, sud psixologiyasi ekspertizasining nazariy va amaliy tomonlari ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

Harbiy psixologiya - harbiy faoliyatining inson psixikasiga ta'siri, harbiy faoliyatning xususiyatlarini psixologik qonuniyatlarini o'rganuvchi, tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi. Jangchi shaxsining psixologik faktorlarini tekshirish harbiy psixologiyasning asosiy muammolaridan biridir.

Sport psixologiyasi sport musobaqalari va mashqlanish faoliyatida inson psixikasining rivojlanishi, guruhiy munosabatlarning psixologik qonuniyatlarini tadqiq qiluvchi psixologiya sohasi. Sport psixologiyasining asosiy vazifasi sportchilarning psixik va jismoniy kamolotga ta'sir o'tkazuvchi muhim shart-sharoitlarni yaratib berishdir.

Savdo psixologiyasi. Savdo psixologiyasi savdo-tijorat reklamalari, modalar psixologiyasi va shu kabi masalalarni tadqiq qiladi. Ayniqsa, sotuvchi-xaridor munosabati, kishilarga ta'sir o'tkazish, ularda iliq his-tuyg'u, ishonch uyg'otish mexanizmlari, mantiqan ularni muomala jarayonida ishontirish, qiziqtirish, ijtimoiy ahamiyatini tushuntira bilish, nizoli holatlarning oldini olish, xizmatda muloqot madaniyati va uning treninglaridan unumli foydalanish, xaridorlarning psixologik xususiyatlarini anglagan holda munosabatda bo'lish qonuniyatlarini tadqiq etadi.

Ijodiyot psixologiyasi - badiiy qadriyatlarni o'zlashtirishda, ularning yangi ko'rinishlarini ijod qilishda va shu qadriyatlar inson tomonidan idrok qilishda kechadigan psixologik holatlarni hamda bu holatlarning shaxs hayoti, faoliyatiga ta'sirini o'rganuvchi psixologiya sohasi.

Yosh psixologiyasi - shaxsning psixik rivojlanish qonuniyatlarini inson tug'ilishidan to umrining oxirigacha bo'lgan davrni, ya'ni ontogenezni o'rganadigan psixologiya sohasi. Yosh psixologiyasi bolalar psixologiyasi sifatida XIX asrning oxirida vujudga kelgan Yosh psixologiyasi hozirgi zamonda bolalar psixologiyasi, o'smirlik va o'spirinlik psixologiyasi, etuklik psixologiyasi, gerontopsixologiyadan iboratdir. Yosh psixologiyasining asosiy vazifalaridan biri bolani psixik

rivojlanishining ijobiy shaklda tashkil etilishi, yosh davrlari inqirozi bosqichlari, jarayonlari va paytlarida psixologik yordam ko'rsatish chora-tadbirlarini ishlab chiqishdan iboratdir.

Maxsus psixologiya - normal psixik rivojlanmagan tug'ma yoki keyinchalik orttirilgan nuqsonlar, defektlar ta'siri ostidagi insonlarning psixologiyasini tadqiqot qilish sohasi. Uning bir necha bo'limlari hukm suradi: **patopsixologiya** - rivojlanish jarayonida psixikaning aynishi, miyadagi kasallikning turlicha kechishi, psixikaning tamoman izdan chiqishi hollarini o'rganuvchi soha; **oligofrenopsixologiya** - psixik rivojlanishning miyadagi tug'ma asoratlar bilan bog'liq patologiyasi to'g'risida tadqiqot ishlarini olib boruvchi soha; **surdopsixologiya** - quloq eshitishning butunlay kar bo'lib qolgunga qadar jiddiy kamchiliklari, nuqsonlari bilan shug'ullanuvchi, bolani voyaga etkazishning omilkor yo'l-yo'riqlarini topuvchi, korrektsion-tuzatish ishlarini olib boruvchi soha; **tiflopsixologiya** - chala ko'ruvchi va mutlaqo ko'zi ojiz odamlarning psixologik rivojlanishini tadqiq qiluvchi soha.

Qiyosiy psixologiya - psixologiyaning murakkab bo'limlaridan biri bo'lib, psixikaning filogenetik holatlari va ularning shakllarini tadqiq qiladigan sohasi. qiyosiy psixologiyada hayvonlar psixologiyasi odamlarniki bilan qiyoslanadi, ularning xulq-atvoridagi o'xshashliklar va tafovutlar sabablari tekshiriladi, harakatlantiruvchi kuchlar, ta'sir o'tkazuvchi vositalar, omillar aniqlanadi. **Zoopsixologiya** qiyosiy psixologiyaning bo'limidan iborat bo'lib, u turli guruhlarga, turlarga mansub hayvonlar, jonivorlar psixikasini, ularning xatti-harakatlarini o'rganadi. **Etologiya** - biologik va psixologik jabhalar qorishmasidan iborat bo'lib, hayvonlarning xatti-harakatidagi tug'ma alomatlar, mexanizmlar insonniki bilan umumiy negizga ega ekanligini o'rganuvchi soha.

Differentsial psixologiya - shaxslar o'rtasidagi tafovut va farqlarni hamda guruh a'zolari orasidagi nomutanosibliklarning psixologik tomonlarini, ya'ni psixologik farqlarini o'rganuvchi psixologiya sohasi. Differentsial psixologiyaga F.Galton asos solgan. Differentsial psixologiya terminini nemis psixologi V. Shtern o'zining «Individual farqlar psixologiyasi» (1900 yil) asarida ishlatgan. Differentsial psixologiyaning asosiy metodlaridan biri - **testdir**. Avval individual testlar, keyinchalik esa guruhiy testlar qo'llanila boshlangan, ular asosan aqliy rivojlanishdagi farqlarni o'rganishga qaratilgan bo'lib, muayyan vaqt o'tgandan so'ng proektiv testlar ishlab chiqilgan. Mazkur testlar qiziqishdagi, intilishdagi, hissiyotdagi tafovutlarni tekshirishga qaratilgandir.

Ijtimoiy (sotsial) psixologiya bu soha odamlarning ijtimoiy guruhlarga birlashishini va shu guruhlarning tavsifni, shaxsning guruhiy faoliyati va xulq-atvorini, ijtimoiy-psixologik qonuniyatlar, holatlar, hodisalar, ijtimoiy ustanovka kabilarni tadqiqot qiluvchi psixologiya sohasi. Sotsial psixologiya bir necha sohalarni o'z ichiga qamrab oladi: din psixologiyasi, oila psixologiyasi, muomala psixologiyasi, kichik guruh psixologiyasi, katta guruh psixologiyasi, modalar psixologiyasi, insonni inson tomonidan idrok qilish psixologiyasi, etnopsixologiya va boshqalar.

Din psixologiyasi - psixologik va ijtimoiy psixologik omillarning diniy ong bilan shartlanganligini, dinning insonga ta'sirini o'rganuvchi psixologiya sohasi. Din psixologiyasi XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida vujudga kelgan bo'lib, insonni ibodat qilishdagi, diniy an'analarni, rasm-rusumlarni bajarishdagi hissiyot holatlarini o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Siyosiy psixologiya - jamiyatning siyosiy hayotidagi psixologik xususiyatlar, holatlar, qonuniyatlar, ta'sirchanlik va ta'sir o'tkazish jarayonlari kabi jabhalarni tekshiruvchi psixologiya sohasi.

Oila psixologiyasi - oilaning psixologiyasini o'rganuvchi psixologiya sohasi sanaladi. Oila psixologiyasi oilaning psixologik muammolarini o'rganadi, u oilaga ta'sir qiluvchi omillarni, oiladagi rollar taqsimlanishi, er-xotin munosabati, shaxslararo munosabat, yosh xususiyatlariga asoslanib muloqotga kirishish kabilarni o'rganadi.

Boshqaruv psixologiyasi - jamiyatda faoliyat ko'rsatayotgan shaxslar, guruhlar va jamoalar o'rtasidagi ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan nazorat, baholash, munosabat qonuniyatlarini, rahbar faoliyati va xarakteri, qobiliyati xususiyatlarini tadqiq qiladigan ijtimoiy psixologiyaning sohasi.

Kompyuterlashtirish psixologiyasi - kompyuterning ishlab chiqarishdagi roli, psixik aks ettirishga ta'siri, shaxs tuzilishining o'zgarishini o'rganuvchi psixologiya sohasi. Mazkur soha kompyuter va inson o'rtasidagi dialogik munosabatni ham tadqiqot qiladi, natijada «texnika-inson-texnika» o'zaro ta'siri mexanizmini tekshiradi va zarur jabhalar o'zaro ta'sirini aniqlaydi.

Parapsixologiya - hozirgi zamon fanining chegarasidan tashqaridagi, tushuntirish qiyin bo'lgan psixik hodisalarni o'rganadi. Ekstrasensorika - o'ta sezuvchanlik, telepatiya - fikrni masofaga uzatish, kelajakni bashorat qilish va hokazo. Parapsixologiyaga nisbatan qiziqish qadimdan mavjud bo'lib, unga nisbatan ixlos to hozirgi kungacha kamaygani yo'q, goho uni **psixotronika** deb ham atashadi. **Xiromantiya**-qo'l kaftiga qarab fol ochish, inson kelajagi va uning taqdiri haqida oldindan bashorat qilishdan iborat noilmiy soha. **Spiritizm**-o'lgan odamlar arvohlari, ruhlari bilan aloqa o'rnatish mumkin, ular hamisha barhayot va biz bilan muloqotga muhtoj g'oyani ilgari suruvchi parapsixologiya sohasi.

1- savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining tarmoqlarini sanang va ularning jamiyatimizda tutgan o'rni nimalardan iborat?
2. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining zamonaviy ta'rifini aniqlang va gapirib bering?
3. Eksperimental psixologiya sohasini ta'riflang?
4.Mehnat psixologiyasi qachon paydo bo'lgan? Fikringizni bayon qiling?

Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining metodlari

2-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi: Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining metodlari va uning vazifalari haqida ma'lumot berish. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining metodlarini tushuntirib berish. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining metodlarini yangi mukammal tarifini aytib berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining metodlari va uning vazifalari haqida ma'lumot beradi.
2. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining metodlarini ajratib beradi.
3. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining metodlarini yangi mukammal tarifini aytib beradi

Ikkinchi savolning bayoni:

Psixologiyada tekshiriladigan psixik hayot hodisalari juda xilma-xil va murakkab hodisalar hisoblanadi. Bu hodisalar metodlar va usullar bilan tekshiriladi.

Har bir psixolog va pedagog kishilar psixikasini o'rganish va tekshirish uchun eng oddiy metod va usullarni bilishi kerak.

Odamning tevarak-atrofdagi voqelikni bilishi kuzatishdan, tajribadan boshlanadi. Shu sababli, ilmiy psixologiya ham o'z mavzuini o'rganishni tajribadan, psixik hayot faktlarini aniqlash, tasvir etish va tahlil qilishdan boshlaydi. So'ngra, aniqlangan va tahlil qilingan faktlar asosida, psixik hayot qonuniyatlarini ochib, tegishli nazariy va amaliy xulosalar chiqaradi.

Kuzatish metodi

Kuzatishning asosiy xususiyati shundaki, bu metod yordami bilan psixik hayotni sezgi organlarimiz bevosita seza oladigan, o'zimiz bevosita idrok qila oladigan faktlari aniqlanadi va tasvirlanadi. Kishining psixik hayotida: mimika, imo-ishora, nutq, turli harakatlar va umuman kishining butun xatti-harakati va faoliyatini bevosita kuzatish mumkin. Kuzatish metodining obe'ktiv (tashqi), sub'ektiv (o'z-o'zini) kuzatish turlari mavjud. Inson psixikasidagi o'zgarishlarni kuzatish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

1) kuzatishning maqsadi, vazifasi belgilanadi;
2) kuzatiladigan ob'ekt tanlanadi;
3) sinaluvchining yoshi, jinsi, kasbi aniqlanadi;
4) tadqiqot o'tkazish vaqti rejalashtiriladi;
5) kuzatish qancha davom etishi qat'iylashtiriladi;
6) kuzatish insonning qaysi faoliyatida (o'yin, o'qish, mehnat va sportda) amalga oshirilishi tavsiya qilinadi;
7) kuzatishning shakli (yakka, guruh, jamoa bilan o'tkazilishi) tayinlanadi;
8) kuzatilganlarni qayd qilib berish vositalari (kundalik, suhbat daftari, kuzatish varaqasi, magnitafon, videomagnitafon, videoapparat, fotoapparat va boshqalar) taxt qilinadi.

Tashqi kuzatish

Psixik hayot hodisalarini o'rganishda avvalo tashqi kuzatish metodi tatbiq etiladi. Psixik jarayonlar bilan bevosita bog'langan ba'zi bir fiziologik hodisalar: yuzning o'zgarishi, nafas olish, qon aylanish va shu kabilarning o'zgarishi ham tashqaridan kuzatilsa bo'ladi. Kuzatish ma'lumotlarini so'zlar bilan tasvir etish bilan kifoyalanib qolmay, balki ko'rsatma vositalari, suratga olish, kinoga olish, tovushni yozib olish va shu kabi yo'llar bilan ham qayd qilish mumkin.
Masalan, bolalar nutqini o'sib borishini kuzatish yo'li bilan tekshira olamiz. Bunda bolaning so'z boyligi qanday qilib sekin-asta orta borishini, nutqning fonetik tomonini, grammatik tuzilishini shu bola qanday bilib olayotganini qayd qilsa bo'ladi.

O'z-o'zini kuzatish

O'z-o'zini kuzatish metodi tadqiqotchi o'z-o'zini kuzatish bilan amalga oshiriladi. Bu holda tadqiqotchi psixik jarayonlar va holatlarning ichki tomoni, odamning subektiv kechinmalari qanday ro'y bersa, ularni shu holida tasvir etish va aniqlab olishga intiladi.
Psixologiya vujudga kela boshlagan 5 asrdan tortib to bizning eramizgacha va 19 asrning deyarli oxirigacha o'z-o'zini kuzatish metodi ruhiy hayot hodisalarini bilishning birdan-bir metodi bo'lib qoldi.
19 asrning ikkinchi yarmidan boshlab o'z-o'zini kuzatish metodiga tanqidiy ko'z bilan qaraladigan bo'lib qoldi. Bu metodning bir qancha kamchiliklari borligi ma'lum bo'ldi. O'z-o'zini kuzatishda tadqiqotchi ham, tekshiriladigan ham tekshiruvchi obektga bo'linib qolishi bu metodning eng muhim kamchiligi ekanligi ko'rsatildi. Holbuki, normal kishilar shaxsining amalda bunday «bo'linib ketishi» mumkin emas. O'z-**o'**zini kuzatishda psixik hodisalarni (masalan, shodlik yoki qayg'u hissini, tafakkur jarayonini) ham boshdan kechirish, ham shu hodisalarni o'rganish juda qiyin ekanligi, ba'zan esa butunlay mumkin bo'lmasligi ko'rsatib o'tildi. O'z-o'zini kuzatish metodining cheklanganligini ham uning kamchiligi hisoblanadi. O'z-o'zini kuzatish metodining yana bir katta kamchiligi shuki, bu yo'l bilan olingan ma'lumotlar psixik hayot hodisalarini turli yo'sinda bir tomonlama, subektiv talqin qilinishiga olib kelishi mumkin. M: odamning xarakterini tekshirayotgan psixologning o'zi egoist bo'lsa, o'z-**o'**zini kuzatish natijalaridan, egoizm har qanday xarakterning muhim belgisidir, deb xulosa chiqarishi mumkin. Dunyoda saxiy, oliyjanob xarakterli kishilar borligini bunday psixolog faqat o'z-o'zini kuzatish yo'li bilan bila olmaydi.
Psixologiyada kuzatish metodi odam hayoti va faoliyatining odatdagi sharoitidagina emas, balki shu bilan birga klinika sharoitida psixikaning kasallik oqibatida o'zgarganligini tekshirishda ham qo'llaniladi. Ayni vaqtda kasallikni tekshirish uchungina emas, shu bilan birga odamning normal ahvolidagi psixik hodisalarni yaxshiroq tushunib olish uchun ham klinik kuzatish ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Eksperiment metodi

Kuzatish metodining ijobiy tomoni shundaki, bu metod yordami bilan psixik hayot faktlari ularning tabiiy sur'atda ro'y berishida, borishida va o'zgarishida olib o'rganiladi, ya'ni haqiqatda, kishilarning kundalik turmushida qanday ro'y bersa, o'shanday holida tekshiriladi.
Ammo bu metoddan foydalanganda ba'zi bir o'ng'aysizlik va qiyin-chiliklarni uchratishga to'g'ri keladi, masalan, bu erda tadqiqotchi psi-xologning tekshirishi uchun qaysi psixik hodisalarning yuzaga chiqishi kerak bo'lsa, o'sha hodisalar yuzaga chiqqan kishilarni qidirishga yoki biron kishida, ba'zan psixologning o'zida shu hodisalarning yuzaga chiqishini kutib turishga to'g'ri keladi. Eksperiment metodidan foydalanganda bu o'ng'aysizlik va qiyinchiliklar barham topadi yoki kamayadi.
Eksperiment metodi ikki turiga bo'linadi: laboratoriya eksperimenti va tabiiy eksperiment.
Laboratoriya eksperimenti. Laboratoriya eksperimentida tekshiruvchi kishi tekshiriladigan psixik hodisani qachon kerak bo'lsa o'sha vaqtda ataylab vujudga keltiradi. Bunda tekshirilayotgan psixik hodisa tabiiy sharoitda birgalikda sodir bo'ladigan boshqa psixik hodisalar kompleksidan ajratib olinadi. Tekshiriladigan psixik hodisalar eksperiment davomida o'zgartirilishi, boshqa psixik hodisalar bilan muayyan bir sur'atda bog'lanishi, kuch, tezlik, hajm va boshqa shu kabi jihatlari o'lchab ko'riladi.
Eksperimental tadqiqotlar o'tkazishda maxsus metodik materiallar narsa, rasm va so'zlar, shuningdek, maxsus asboblar (masalan, xronoskop) qo'llaniladi. Tekshiriladigan hodisalar shu material va asboblar yordami bilan vujudga keltiriladi. Eksperimental tadqiqotlar asosan maxsus laboratoriya va institutlarda o'tkaziladi. Ayrim psixik hodisalarni mukammal va aniq o'rganish

maqsadida psixologiyaga doir ilmiy tekshirish muassasalarida maxsus binolar, masalan, tovushni va yorug'likni o'tkazmaydigan kabinetlar, yorug'lik ta'sirini o'zgartirishga moslangan kabinetlar va shunga o'xshash xonalar quriladi.

Eksperimental metodni birinchi marta fiziolog Veber (1795—1878) va fizik Fexner (1801—1887) mukammal ishlab chiqqan. Sezgilarni tekshirishda qo'llanilgan eksperimental tadqiqot usullarini Vilgelm Vundt (1832—1920) ishlab chiqqan. 1879-yilda V. Vundt Leypsig universiteti huzurida eksperimen**tal** psixologiya bo'yicha birinchi laboratoriyani ochgan. XIX asrning oxirida Rossiyada eksperimental psixologiya bo'yicha bir qancha laboratoriyalar vujudga keltirildi. Toshkentda birinchi laboratoriya P.I.Ivanov rahbarligida TDPU da tashkil etildi.

Ammo psixologiyadagi laboratoriya eksperimentining kamchiliklari bor. Shu kamchiliklardan eng muhimi shuki, bu metodda sun'iylik bor. Eksperiment o'tkaziladigan sharoitning o'zi tekshirilayotgan kishilarning psixik holatiga, demak, tekshirilayotgan hodisalarga va tekshirish natijalariga salbiy ta'sir etishi mumkin.

Tabiiy eksperiment. Tabiiy eksperiment metodi oddiy obektiv suratda kuzatish metodi bilan laboratoriya eksperimenti metodi o'rtasida turadi. Bu metodni professor A.F.Lazurskiy kuzatish va tajriba metodlarining kamchiliklaridan saqlanish va ikkala metodning foydali tomonlarini qo'shish maqsadida yaratgan.

Tabiiy eksperiment metodining mohiyati shundaki, bu erda tekshiruv-chi kishining o'zi tekshiriladigan kishida (yoki kishilarda) biron psixik jarayon (masalan, xotira, tafakkur, diqqat) ro'y berishi uchun yoki tekshiriladigan kishilarda individual xususiyatlarini (temperament, havas) ro'y berishi uchun maxsus sharoit tug'diradi. Masalan, tekshirish lozim bo'lgan biron psixik jarayon odatdagi dars vaqtida yoki o'yin paytida maxsus reja bilan tekshiriluvchining o'ziga sezdirmasdan tajriba qilib sinaladi. Albatta, bu sharoit va unda tekshiriladigan psixik faoliyat dastlab analiz qilinadi. M: bolalardagi muayyan bir psixik jarayonlarni, muayyan bir xarakter xususiyatlarini, muayyan bir qobiliyatlarni ularning biron-bir o'yindagi faoliyati sharoitida tekshiriladigan bo'lsa, bolalarning tekshirish nazarda tutilgan psixik jarayoni, xarakter xususiyatlari, qobiliyatlari qaysi o'yinda, ayniqsa, yaqqol ko'rinishi oldindan bilib olinadi. Tekshiriluvchi kishilar shundan keyin tekshiruvchi kishi tomonidan maxsus ravishda, lekin tekshiriluvchi kishilar uchun tabiiy bo'lgan sharoitga, darsga yoki bu o'rinda o'yinga jalb qilinadi. Tekshiruvchi kishi bolalarning faoliyatini kuzatib turadi va tekshiriluvchi bolalar uchun tabiiy sharoitda kelib chiqadigan psixik jarayonlarni va bolalarning individual xususiyatlarini qayd qiladi.

Suhbat metodi

Suhbat metodi psixik hodisalarning asosan ichki, subektiv tomonini tekshirish uchun qo'llaniladi. Tadqiqotchi psixik hayot hodisalarining birontasini, masalan, odamda shodlik hissi subektiv ravishda qanday kechishini, biron masalani echganda tafakkur jarayoni qanday borishini va shunga o'xshash hodisalarni tekshirishni oldindan vazifa qilib qo'yadi, tadqiqotchi suhbat vaqtida tekshiriluvchi kishiga beradigan savollarni oldindan belgilab oladi.

Suhbat metodi o'z-o'zini kuzatish metodi bilan tashqi kuzatish metodining qo'shilishidan iborat. Bu erda o'z-o'zini kuzatish shunda namoyon bo'ladiki, tadqiqotchi tekshiriluvchi kishiga savollar berib, uning o'z ichki ongini chuqurroq bilib olishga majbur etadi. Tekshiriluvchi kishi tadqiqotchining topshiriqlariga muvofiq va tadqiqotchining yordami bilan (savollar ustalik bilan berilganda) o'zining ichki holatlarini ochib tashlaydi va nutqida ifodalaydi, so'zlar bilan javob qaytaradi.

Suhbat samimiy, bemalol bo'lishi, tekshiriluvchi kishilarning psixik holatiga zo'r kelmasligi kerak. Suhbat odam psixik hayotining bevosita kuzatish va eksperimentda aniqlab bo'lmaydigan jarayon va hollari haqida ma'lumot olishga yordam beradigan birdan-bir metoddir, deyish mumkin. Masalan, kosmosga parvoz qilish vaqtida odamning psixik faoliyat xususiyatlari haqida bilim olmoq uchun tadqiqotchi kosmonavtlarning o'zi bilan suhbat qilishi kerak.

Faoliyat mahsullarini tahlil qilish metodi.

Inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va xayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida bu metod umumiy psixologiyada keng qo'llaniladi. Bolalar chizgan rasmlar, yasagan o'yinchoqlar, modellar, yozgan she'rlarni tahlil qilish orqali ularning mantiqiy xotirasi, tafakkuri, texnik, badiiy va adabiy qobiliyati, ijodiy xayoli yuzasidan materiallar to'plash mumkin. Ijodiy faoliyat mahsullariga kundalik, sxema, ixtiro, diagramma, kashfiyot, qurilma, asbob, texnik model, moslama, milliy

kashtachilik, hunarmandchilik, zargarlik buyumlari, referat, kurs va malakaviy bitiruv ishlari, magistrlik dissertatsiyasi, ilmiy ma'ruza, konspekt, taqriz, tezis, maqola, ko'rsatmali qurollar, loyiha, kontseptsiya, san'atkor, artist va baxshi ijodiyoti kabilar kiradi.

- Ijodiy faoliyat mahsullarini tahlil qilish orqali bolalar, o'quvchilar, talabalar, konstruktorlar, olimlar, hunarmandlar, ishchilar, dehqonlar psixik xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar to'plash mumkin.

Test metodi. Test - inglizcha so'z bo'lib, sinash, tekshirish, demakdir. Shaxsning aqliy o'sishini, mentalitetini, qobiliyatini, irodaviy sifatlari va boshqa psixik xususiyatlarini tekshirishda qo'llaniladigan qisqa masala, topshiriq, misol, jumboq, syujetli rasm yoki shakl test deb ataladi. Test ayniqsa odamning qanday kasbni egallashi mumkinligini, kasbga yaroqliligi yoki yaroqsizligi, iste'dodlilar, iqtidorlilar va aqli zaiflarni aniqlashda kishilarni saralashda keng qo'llaniladi.

- 1905 yildan, ya'ni frantsuz psixologi A. Bine va uning shogirdi A. Simon insonning aqliy o'sish va iste'dod darajalarini o'lchash imkoniyati borligi g'oyasini olg'a surganidan keyin psixologiyada test metodi qo'llana boshlandi.
- Psixologiyada testlar quyidagi turkumlarga, turlarga ajratilgan holda qo'llaniladi. Eng keng tarqalgan testlar qatoriga: pedagogik testlar, intellekt testlari, ijodiyot (kreativlik) testlari, mezonga mo'ljallangan (kriterial orientirlangan) testlar, shaxsga oid yoki shaxslilik testlari,proektiv testlar (lotincha Prochestio-oldinlab, ilgarilab namoyon etish ma'nosini bildiradi
- **Anketa metodi.** Umumiy psixologiya fanida keng qo'llaniladigan metodlardan biridir. Uning yordamida turli yoshdagi va kasbdagi odamlarning psixologik xususiyatlari, narsa va hodisalarga munosabatlari o'rganiladi. Anketa odatda uch xil tuziladi. Ularning birinchi xili anglashilgan motivlarni aniqlashga mo'ljallangan savollarni aniqlashga mo'ljallangan savollardan tuziladi. Ikkinchi xilida har bir savolning bir nechtadan tayyor javoblari beriladi. Uchinchi xil anketada sinaluvchiga yozilgan to'g'ri javoblarni ballar bilan baholash tavsiya etiladi va shkalali anketa deb ataladi. Anketadan turli yoshdagi va kasbdagi odamlarning layoqatlarini, muayyan sohaga qiziqishlari va qobiliyatlarini, o'ziga, tengdoshlariga, hamkasblariga, katta va kichiklarga munosabatlarini aniqlash maqsadida keng ko'lamda foydalaniladi
- **Sotsiometriya metodi.** Bu metod kichik guruh a'zolari o'rtasidagi bevosita emotsional munosabatlarni o'rganish va ularning darajasini o'lchashda qo'llaniladi. Unga amerikalik sotsiolog Djon Moreno asos solgan. Mazkur metod yordamida muayyan guruhdagi har bir a'zoning o'zaro munosabatlarini aniqlash uchun undan qaysi faoliyatda, kim bilan qatnashishi so'raladi. Olingan ma'lumotlar matritsa, grafik, sxema, jadval shaklida ifodalanadi.

Biografiya metodi. Odam psixikasini tekshirish uchun ayrim kishilarning hayoti va faoliyati haqidagi ma'lumotlar, ayniqsa, ularning o'zlari bergan ma'lumotlar (avtobiografiya, kundalik daftarlar, memuarlar, xatlar), shuningdek, boshqa kishilar yozib olgan biografiya ma'lumotlari.

- savol uchun nazorat topshiriqlari:

Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining metodlarini kuyidagi kurinishlarini ta'riflang.

1. Kuzatish metodi. 2. Test metodi. 3. Laboratoriya metodi.

4. Amerikalik sotsiolog Djon Moreno qaysi metodga asos solgan va bu metod qanday qo'llaniladi?

5. Inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va xayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida qo'llaniladigan metodni aniqlang, va uning afzalliklarini bayon qiling?

3- savol bo'yicha darsning maqsadi: Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining boshqa fanlar bilan aloqasini tushuntirish. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining boshqa fanlar o'rtasida tutgan o'rnini aniqlab, tushuntirib berish. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining boshqa fanlar bilan aloqasini mukammal bayon qilish.

Identiv o'quv maqsadi:

Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining boshqa fanlar bilan aloqasini tushuntiradi.

Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining boshqa fanlar o'rtasida tutgan o'rnini aniqlaydi.

Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining boshqa fanlar bilan aloqasini mukammal bayon qiladi.

3-savolning bayoni: Umumiy psixologiya fanining nazariy va amaliy vazifalari.

Odam tevarak-atrofdagi dunyoni qanday idrok etadi, u qanday esida qoldiradi, qanday esga tushiradi va fikr yuritadi, u qanday hislarni ko'nglidan kechiradi, odam tevarak-atrofdagi dunyoni

o’z ehtiyojlariga moslashtirib, yangi moddiy va ma’naviy boyliklarni vujudga keltirib, qanday ish ko’radi, psixologiyani o’rganish bilan ana shu masalalarni bilib olamiz.
Psixologiyani o’rganish odamni psixika haqidagi va psixik hayotning xilma-xil hodisalari haqidagi bilimlar bilan boyitibgina qolmay, shu bilan birga odam aqlini ham o’stirishga yordam beradi. Odam aqlini o’stirish, jumladan, yangi bilimlar va ko’nikmalarni tezroq egallash, yangi nazariy va amaliy vazifalarni to’**g’**ri hal qilish qobiliyatini takomillashtirishda, o’z fikrlarini nutqda to’**g’**ri ifodalay bilish va boshqalarning nutqini to’g’ri tushuna bilishda ham o’z ifodasini topadi. Odamni kamolga etkazishda psixologiya alohida o’rin tutadi. Odam psixologiyani o’rganar ekan, avvalo o’z aql-idrokini, uning jarayonlarini bilib oladi, unga diqqat-e’tibor beradi, aqlning faoliyatini kuchaytiradigan shart-sharoitni o’rganadi, va shu bilan o’z aql-idrokining ko’proq o’sishiga yordam beradi.
Psixologiyani bilish, psixikani chinakamiga ilmiy asosda tushunish kishilar ongidagi har xil diniy taassub va xurofotlarga qarshi kurashda juda kuchli qurol bo’lib xizmat qiladi.
Odam psixologiyani o’rganar ekan, o’zidagi psixik hayotni va boshqa kishilar psixikasini bila oladigan bo’lib qoladi. Bu bilim esa boshqa kishilarni va o’zini yaxshiroq tushunishga imkon beradi.
Psixologiyaning bilish, ma’lumot olishning ahamiyati yuqoridagilardan iboratdir. Shu bilan birga psixologiya (jumladan, psixologiya metodlari) kishilar amaliy faoliyatining har xil turlarida ta’lim-tarbiya, ishlab chiqarish, mehnat, tibbiyot, sud-huquqshunoslik, harbiy-mudofaa, san’at va boshqa sohalarda ham katta ahamiyatga egadir.
Pedagog o’quvchilarga biron materialni tushuntirar ekan, shu materialni bolalar qanday o’zlashtirayotganini, qanday idrok etayotganini, eslab qolayotganini, fikrlayotganini, ularda diqqat-e’tibor, hissiyot qanday namoyon bo’layotganini, bolalarning yosh xususiyatlariga qarab bu jarayonlar qanday ro’y berayotganini bilish lozim.
Hozirgi paytda ishlab chiqarish, ishlab chiqarish ta’limi va mehnatni tashkil etishning har xil turlarida psixologiyadan keng foydalanilmoqda. Ishning har bir turi, har bir kasb odamdan tegishli bilim va mahorat talab qilish bilan birga maxsus psixologik sifatlarni ham talab qiladi. Shu sababli, ixtisosga qarab murakkab va mas’uliyatli mehnat operattsiyalarini bajarishga to’g’ri keladigan kishilar maxsus psixologik tekshirishdan o’tkaziladi. M: dastlabki kosmonavtlarni tanlashda talabgorlar xotirasi juda yaxshi, fahmi o’tkir, diqqatini bir narsadan ikkinchi narsaga tez ko’chira oladigan, aniq uyg’un harakatlarni tez bajara oladigan kishilarni ajratib olish maqsadida tekshirib ko’rildi.
Psixologiya tibbiyot bilan qadimdan bog’lanib keladi. Kasalliklar orasida psixik kasalliklar bo’ladi. Bunday kasalliklarni ham asosan psixologik vositalar bilan davolashga to’g’ri keladi. Shifokor psixik kasalliklarni yaxshiroq ajrata bilmoq uchun odamning normal psixologiyasini ham bilishi kerak. Bundan tashqari boshqa kasalliklarda, ayniqsa, nerv kasalliklarida shifokor bemorning ruhiy holatini bila olishi lozim.
Psixologiya sud ishida ham muhim rol o’ynaydi. Sud xodimi ayb-lanuvchining ruhiy holatini, guvohlarning so’roqda aytgan gaplarini psixologik jihatidan tahlil qila bilishi kerak. Kishilar biron ayb, jinoyat qilganlarida nima niyat bilan shunday qilganliklarini sud xodimi fahmlay bilishi kerak.
Psixologiya san’atda ham ahamiyatga ega. Har bir san’atkor (artist, musiqachi, rassom va shunga o’xshashlar) kishilarga tomoshabinlarga, tinglovchilarga o’z ijodi bilan ta’sir ko’rsatishni maqsad qilib qo’yadi. Buning uchun esa odamning qanday idrok qilishini, qanday fikrlashini va qanday his qilishini bilmoq kerak.

Mavzu bo’yicha asosiy xulosalar:

Psixologiyani bilish kundalik turmush uchun ham foydali. Har birimizga boshqa kishilarning xarakter, havas, kayfiyatlarini bilib olishga, kishilarning bir-birini ajratishga va ularga ta’sir ko’rsatishga to’g’ri keladi.
Umumiy psixologiya fanining metodlari va uning vazifalarini talabalarga tushuntirib berildi.

3-mavzu: PSIXODIAGNOSTIKA VA PSIXOKORREKTsIYa

Mavzular:

1.1. Psixodiagnostika haqida umumiy tushuncha

1.2. Psixodiagnostika fanining predmeti, maqsadi

1.3. Psixodiagnostika fanining vazifalari

1.1. Psixodiagnostika haqida umumiy tushuncha

Hozirgi zamon psixologiyasi har xil usullar bilan odamning amaliy faoliyatiga ta'sir qilish imkoniga ega. Mana shunday usullardan biri, bu har xil toifadagi odamlarga psixologik yordam ko'rsatishdan iboratdir. Ammo, psixologiya yordam ko'rsatish uchun avvalo ulardagi psixik o'zgarishlar sabablarini va unga ta'sir kiluvchi omillarni aniqlash zarurati tug'iladi. Bunda biz psixodiagnostika faniga va uning metodlari hamda metodikalariga murojaat qilamiz. O'z-o'zidan savol tug'iladi: «Psixodiagnostika» atamasi nimani anglatadi va u nimalarni o'rganadi hamda uning nazariy va amaliy vazifalari nimalardan iborat?

"Psixodiagnostika" atamasi "**psixologik tashxis qo'yish"** degan ma'noni anglatib, shaxsning ruhiy holatida to'liq yoki biror bir alohida xususiyati haqida xulosa chiqarishdir, bunda "tashxic" shaxsning taraqqiyot ko'rsatkichi va tavsifnomalarni birgalikda tahlil qilish asosida sinaluvchining holat va xususiyatlari haqidagi xulosalardan iboratdir. «Psixodiagnostika» atamasi ilk bor **Rorshaxning «Psixodiagnostika»** asarining chop etilishidan so'ng psixiatriyada tarqalgan bo'lib, u tez orada tibbiyotdan tashqarida ham keng miqyosda ommalasha boshlandi. «Diagnoz», yani «tashxis» esa shaxs rivojlanishidagi har qanday og'ishlarni, hattoki uning holat va xususiyatlarini aniq taraqqiyot darajasini aniqlash, demakdir[5].

Psixodiagnostika — bu maxsus bilimlar sohasi bo'lib, individ yoki guruhni psixologik taraqqiyot ko'rsatkichlarini, holat va xususiyatlarini baholash uchun metodika va metodologiyalar nazariyasi ishlab chiqish bilan bog'liqdir. Psixodiagnostika baholash ob'ekti, psixologiya fani o'rganayotgan har qanday jarayon bo'lishi mumkin. Masalan, o'zaro hamkorlik qilayotgan shaxslarning bir-biri bilan kechayotgan xatti-harakati va muloqotida yuzaga keladigan, alohida bir odam sezgisidan boshlab, murakkab ijtimoiy- psixologik jarayon bilan tugatish mumkin.

Psixodiagnostika fani psixologiya tarmoqlaridan biri bo'lib, shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini, aqliy taraqqiyotini aniqlab o'lchash, ya'ni hisoblab chiqaruvchi metodlarini o'rgatuvchi fandir.

Psixodiagnostika — shaxsning individual-psixologik xususiyatlari farqlarini (aniqlab o'lchaganda) har xil metodlar bilan aniqlab o'lchasa-da, keyinchalik proektiv metodlar, so'rovnomalar paydo bo'lishi jarayoniga asos bo'lib qoldi. Shu bilan birga psixodiagnostikaning rivojlanishida nazariy jihatdan metodikalarning kamligi ko'rinib qoldi. Psixodiagnostikaga matematik-statistik metodlar va korrelyatsiya hamda tadqiq qilish, faktorli analiz paydo bo'lishi va takomillashuvi, psixometrik tadqik qilishning amaliy jihatdan juda ko'p turlari bor. Masalan, tibbiyot diagnostikasi kasalning kelib chiqishini o'rganadi va aniqlaydi; texnik diagnostika — har xil texnika tizimlari, elektron hisoblash mashinalari, kompyuterlarning salbiy xususiyatlarini aniqlab, ularni bartaraf qilishni o'rgatadi; sport diagnostikasi — jismoniy jarayonlarning o'zgarish holatlarini o'rganadi va aniqlaydi; psixologik diagnostika shaxs yoki guruhlarning psixik xususiyatlari, holatlari va taraqqiyot ko'rsatkichlarini aniqlab, sifatli va miqdoriy jihatdan o'lchab beradi.

1.2. Psixodiagnostika fanining predmeti, maqsadi

Pedagoglar, shu jumladan, muhandis-pedagoglarning kasbiy mahoratining asosiy komponentlaridan biri — o'quv-tarbiya jarayonini to'g'ri va samarali boshqara olishidir. Bu borada pedagogning texnik va uslubiy bilimlarni puxta egallanganligi etarli emas. Pedagog o'z ishi, faoliyati natijalarini tahlil qilishi, o'quvchilarda qiyinchilik tug'dirayotgan sabablarni o'z vaqtida aniqlashi, bu qiyinchiliklarni o'quvchiga individual yondashish jarayonida bartaraf qila olishi lozim. Shu sababli o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishni takomillashtirish vosita va yo'llaridan biri — ilmiy jihatdan asoslangan psixologik-pedagogik diagnostikadir. Bugungi kunda psixologik-pedagogik diagnostikaning o'rni, ahamiyati qanchalik katta ekanligini hech kim inkor qilmaydi. Individual yondashish, o'quvchi va talabalarning shaxsiy xususiyatlarini o'rganish shart ekanligini bir qancha davlat hujjatlarida aks ettirilgan.

Psixologik-pedagogik diagnostika pedagogika va psixologiya fanlarining oralig'idagi soha bo'lib, o'quvchi shaxsini, uning individual xususiyatlari, rivojlanish dinamikasi va ularga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganadi.

---

[5] Нишанова З., Қурбонова З., Абдиев С., Тўлаганова Ш. Психодиагностика. – Т.: 2008. – 314 б.

Kasb-hunar kollejlarida psixologik-pedagogik diagnostikaning mohiyati va yo'nalishi ta'lim-tarbiya jarayoni vazifalaridan kelib chiqqan holda amaliy xususiyat kasb etadi.
Maktab kolledj va oliygohlardagi o'kuv-tarbiya jarayoni o'quvchilarning qobiliyati va layoqatlarini har tomonlama rivojlantirishga, ular shaxsini shakllantirishga qaratilgan. Pedagogik jarayonning mahsuldorligi pedagogning o'z o'quvchilarini yaxshi bilishiga, ta'lim va tarbiyaning xilma-xil metodlarini qo'llashiga bog'liq.
Albatta, pedagogika fan sifatida pedagogga pedagogik psixologiya sohasidagi tayyor "retseptlar"ni bera olmaydi. Bunday ko'nikmalar o'quvchilar bilan bevosita muloqot jarayonida, ular xulq-atvorining motivlarini, hissiy-shaxsiy xususiyatlarini tahlil kilish jarayonida egallanadi. Bu haqda mashhur rus pedagogi K.D.Ushinskiy quyidagicha yozgan edi: "Biz o'qituvchilarga unday yoki bunday qiling, deb tushuncha bermaymiz. Biz ularga: Siz boshqarmokchi bo'lgan psixik hodisalarning qonuniyatlarini o'rganing va ularga mos ravishda harakat qiling", — deymiz.
O'qituvchi ta'lim va tarbiyadagi qiyinchiliklar nima uchun va qanday paydo bo'lishini tushunishi uchun, avvalo, shaxs psixik taraqqiyotining asosiy qonuniyatlarini bilishi va turli psixik holatlarini psixologik diagnostika metodlarini egallashi zarur. O'qituvchining psixodiagnostik tadqiqot yoki doimiy kuzatish jarayonida olingan natijalarni o'quvchilar bilan ishlashda qanchalik to'g'ri foydalana olishi ham muhim hisoblanadi.
Tajribaga asoslangan psixologik diagnostika fan sifatida XIX asr oxirida vujudga keldi. Xuddi shu davrda psixologiyada o'lchash g'oyasi keng tarqaldi. Psixodiagnostikaning mustaqil fan sohasiga aylanishi olimlarning insonlar psixikasidagi individual farqlarga qiziqishining ortishi bilan bog'langan.
Psixodiagnostika psixologik diagnoz qo'yish haqidagi fandir. Bunda diagnoz ko'rsatkich va tavsifnomalarni birgalikda tahlil qilish asosida sinaluvchining holati va xususiyatlari haqidagi xulosalardan iborat.
Psixologik diagnoz (diagnosis — aniqlash, bilish (grekcha) degan ma'nolarni anglatadi) shaxs individual-psixologik xususiyatlarining hozirgi holatiga baho berish, rivojlanishi, oldindan aytib berish (prognoz qilish) va psixodiagnostik tekshiruv vazifalardan kelib chiqib, tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan psixolog faoliyatining so'nggi natijasidir.
Psixodiagnostik tadqiqotlar amaliyotida psixologik diagnoz qo'yishning 3 bosqichi farqlanadi:
1) **Simptomatik diagnozda** mavjud har qanday EHM bajarishi mumkin bo'lgan tadqiqotda olingan natijalar qayta ishlanadi;
2) **Etiologik diagnozda** (kelib chiqish sabablari) biror xususiyatning mavjudligigina emas, balki uning vujudga kelish sabablari ham hisobga olinadi;
3) **Tipologik diagnozda** sinaluvchi shaxsning tushida olingan natijalarning ahamiyati va o'rni aniqlanadi.

1.3. Psixodiagnostika fanining vazifalari

O'quvchilarning psixodiagnostik tadqiq qilish yosh xususiyatlariga, u yoki bu yosh davri uchun etakchi faoliyat turining ta'siriga, individual tipologik tavsifnomalarning taraqqiyot darajasiga bog'liq ravishda ba'zi xususiyatlarga ega. Bola taraqqiyotining har bir yosh davri bolalar bilan ishlashning usullari va metodlarini, eksperimental tadqiqotning o'z maqsadlari va vazifalarini talab qiladi. Kichik yoshdagi bolalarni psixodiagnostik yosh va pedagogik psixologiyaning sohasi hisoblanadi. Olingan natija lar yordamchi xarakterga ega bo'lib, pedagog tomonidan bola psixik taraqqiyoti xususiyatlarini aniqlashda qo'llaniladi. Bunda ta'lim va tarbiya dasturi, turli hayotiy sharoitlarda (faoliyatda, muloqotda va boshqalarda) shaxs xulq-atvori xarakteristikalarini tuzishda hisobga olinadi. Eksperimental tadqiqotdan olingan natijalar oilada, maktabgacha ta'lim muassasasida, maktab va boshqa jamoat joylarida individual va guruhiy tarbiyaviy-pedagogik tadbirlar chizmasi tuzishda qo'llanilishi mumkin. O'qituvchi o'z ishida doimo bolalar pixofiziologik masalalari bilan to'qnashadi. Uni vaqtinchalik natijalar emas (masalan, chorakning oxiriga kelib o'quvchilarning o'zlashtirishi kabi), balki u yoki bu jismoniy va ruhiy sifatlarning rivojlanish istiqbollarini aytib beradigan natijalar qiziqtiradi.
Bolalar maktabgacha ta'lim muassasasilarida yoki boshlang'ich maktablarda psixodiagnostik tadqiqotlar quyidagi vazifalarni hal qiladi:

1. Diagnostika uchun zarur ma’lumotlarni olish. Bunda bola psixik hg’olati va shaxsi xususiyatlarining ba’zi belgilari ko’rinishini o’rganish maqsadida tadqiqot olib boriladi. Tadqiqotda olingan ma’lumotlar yordamchi xarakterga ega bo’lib, bola xulq-atvorining haqiqiy xususiyatlari, uning psixik funktsiyalari taraqqiyot darajasi bilan taqqoslashda foydalaniladi. Masalan: darsda bola diqqatining barqaror emasligi, diqqatini bir joyga to’plashga qiynalishi, aqliy ish qobiliyatining pastligi, tez chalg’ishi va boshqalar bilan ajralib turadi. Lekin xulq-atvorning ko’rsatilgan belgilari bola xulq-atvori ehtiyojlari va motivlari ierarxiyasining (bosqichma-bosqich) o’zgarishi natijasi bo’lishi mumkin. Bunda o’qituvchi shaxs normal holati ko’rinishlaridan biriga yoki miya etishmovchiligining funktsional belgilariga duch keladi. Ikkala holatda ham u yoki bu o’quvchi o’zlashtirishi va intizomini pasayishi tashqaridan sezilsa-da, psixodiagnostik tadqiqotlarda o’rganilayotgan o’zgarishlar manbalari, rivojlanishi va kelgusida qanday bo’lishi psixologik holat belgilari ham o’rganiladi. Psixodiagnostik tadqiqotlar bola psixik funktsiyalari rivojlanish darajasining, aqliy taraqqiyot darajasi, yosh va ma’lumot bilan o’zaro bog’liqliginn o’rganish uchun ham o’tkaziladi. Bu tadqiqotlar bolada ma’lum qiziqishlar, amaliy malakalar va kasb tanlash payti kelganda juda muhimdir.
2. Psixik taraqqiyot o’zgarishini o’rganish uchun zarur ma’lumotlarni to’plash. Agar «ko’ndalang “kesim” metodlari orqali psixodiagnostik tadqiqot ma’lum bosqichda bola psixik taraqqiyoti darajasini, ya’ni psixik funktsiyalar rivojlanishi dolzarb zonasi aniqlanadigan bo’lsa, “uzunasiga kesim” (longityud) psixodiagnostik tadqiqotlarida bola psixik taraqqiyoti xususiyatlari rivojlanishda, ya’ni ta’lim va tarbiya jarayonida o’rganiladi.
O’yin va o’qish faoliyatida juda ko’p martalab o’tkazilgan “eksperimental-psixologik tadqiqotlar bola shaxsining shakllanishi va rivojlanishiga ma’lum faoliyatning ta’sir ko’rsatkichi bo’lishi mumkin. Bolada o’tkazilgan psixodiagnostik tadqiqotlar muhim prognostik ahamiyatga egadir, chunki qo’llanilgan metodlarni o’quv-tarbiyaviy ta’sirini hisobga olgan holda shaxs rivojlanishi istiqbollarini aniqlash imkoni yaratiladi.
3. Aqliy zaiflik darajasini yoki boshdan kechirgan kasal-lik tufayli psixik kamchiliklarni aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik tadqiqotlar maxsus yoki yordamchi maktabda o’qishi haqida masala hal bo’layotganida tibbiy pedagogik hay’at (komissiya) yordamidan foydalanish mumkin.
4. Bolalarda paydo bo’lgan etarlicha o’rganilmagan yangi psixik holatlarni tahlil qilish uchun ilmiy maqsadda psixologik tadqiqot o’tkazish. Vazifa bunday qo’yilganda tadqiqotchini qiziqtirgan masala bo’yicha katta guruhlarda tadqiqotlar o’tkaziladi. Bu erda olingan natijalarning statistik ishonchliligi muhim ahamiyat kasb etadi.
5. Psixologik-pedagogik diagnostika kursining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko’rsatish mumkin:
a) talabalarni psixologik-pedagogik diagnostikaning nazariy asoslari, yo’nalishlari, bosqichlari va printsiplari bilan tanishtirish;
b) diagnostika qilishning turli metodikalarini amalda qo’llashga o’rgatish;
v) o’quvchilar psixologiyasida, xulq-atvorida yuz bergan salbiy o’zgarishlarni tuzatish, ularga yordam berish usullari bilan qurollantirish.
Uning maqsadi ta’lim va tarbiya jarayonida shakllantirilayotgan o’quvchining individual sifatlarini, rivojlantirishi yoki shakllantirishi lozim bo’lgan xususiyatlarning mavjudligi (boshlang’ich) darajasi va o’quv jarayonidagi o’zgarishlar dinamikasini o’rganishdir.
Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, psixologik-pedagogik diagnostika predmeti sifatida, avvalambor, o’quvchining ta’lim jarayonida (masalan, bilim darajasi) va tarbiya (xarakter xususiyatlari) shakllantiriladigan sifatlarini ko’rsatish mumkin.
Bundan tashqari, pedagog o’quv jarayonining samaradorligiga bevosita ta’sir qiluvchi ob’ektiv va sub’ektiv omillar (o’quvchining tafakkur xususiyatlari, xotirasi, diqqati), tarbiya jarayonida hisobga olinishi lozim bo’lgan xususiyatlari (hulq-atvor motivlari, o’quvchining ehtiyojlari va qiziqishlari)ni o’rganadi. Boshqacha qilib aytganda, pedagogning diagnostik faoliyati ham ko’p qirrali va o’zgaruvchan xususiyatga egadir.
Psixodiagnostika fanining nazariy vazifalari quyidagilardan iborat:
— psixik ko’rinishlar tabiati va ularni ilmiy jihatdan printsipial baholashning imkon darajasini aniqlashtirish;
— hozirgi paytda psixologik ko’rinishlarning miqdorini baholash va uning ilmiy asoslanganlik

holatini o’rganish;
— psixodiagnostik usul va uslublarning asosiy metodologik talablari nimalardan iboratligini aniqlash;
— psixodiagnostik tadqiqotning shart-sharoitlari, natijalarni qayta ishlash hamda ularni interpretatsiya usullarining ishonchliligi nimalarga asoslangan;
— test va psixodiagnostik metodlarning tuzilishi hamda ilmiyligini tekshirishning asosiy muolajalarini nimalar tashkil qiladi.
Psixodiagnostika fanining amaliy vazifalari psixolog faoliyatining maxsus sohasiga taalluqli bo’lib, amaliy psixologik tashxis qo’yish bilan bog’liqdir. Bunda muammo, nafaqat, nazariy jihatdan, balki psixodiagnostik tadqiqotni tashkil qilish va o’tkazishning amaliy jabhalarini qamrab oladi hamda quyidagi vazifalardan iboratdir:
1. Psixologiya psixodiagnostga mutaxassis sifatida qo’yiladigan kasbiy talablarni aniqlashtirish;
2. Psixolog haqikatdan ham u yoki bu psixodiagnostik metodlarni mutaxassis sifatida muvaffaqiyatli o’zlashtirib olgani haqida minimal amaliy shartlar, ya’ni kafolat sifatida;
3. Psixodiagnostika sohasida o’z ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun psixologning o’zida mujassamlashtirishi shart bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalar;
4. Psixologning psixodiagnostika sohasida malakali mutaxassis ekanligini hamda amaliy jihatdan tayyorgarligini baholash mezonlarini hamda dasturlarini ishlab chikish.
Bu vazifalar majmuasi, ya’ni psixodiagnostika fanining nazariy va amaliy vazifalari bir-biri bilan bog’liqdir.
Ushbu sohada etuk mutaxassis bo’lib etishish uchun psixolog nazariyani va amaliy psixodiagnostikaning asoslarini yuqori darajada o’zlashtirib olgan bo’lishi shart.
Amaliyot individ guruhning psixik taraqqiyot darajasini hamda quyidagi vazifalardan birini amalga oshiradi:
1. Biror bir xususiyatga ma’lum taraqqiyot holatini aniqlash;
2. Taraqqiyot dinamikasini va qandaydir davr mobaynida qayta tarbiyalash imkonini aniqlash;
3. Ta’lim-tarbiya tarixi natijasida, o’tkazilgan pedagogik eksperiment natijasida individ yoki guruh xulqida va ruhiyatidagi real o’zgarishlarni kuzatib borish.
4. Shaxs sifatlarining oldingi taraqqiyot dinamikasi va qonuniyatlarini tahlili asosida kelajakdagi taraqqiyotini aniqlab olish.
5. Sinaluvchi odamlar yoki guruhlarni taraqqiyot darajasi natijasiga asoslanib kelajakdagi ishlar uchun toifalarga ajratish.
6. U yoki bu topshiriqlarni bajara olishiga qarab individ yoki guruhlarning yaroqliligini aniqlash, masalan, o’z xizmat vazifasini bajara olishda kasbiy tayyorgarligini tekshirish.
7. Psixokorrektsion ishlar olib borish maqsadida individ yoki guruhni ijtimoiy me’yorga mos yoki mos emasligini aniqlash.
8. Individ yoki guruhning kelajak hayot yo’liga yordam berish maqsadida tavsiyalar ishlab chiqish.
Yuqorida sanab o’tilgan vazifalar psixodiagnostika fani uchun umumiy hisoblanadi. Bu vazifalardan ko’pchiliklari maktabgacha tarbiya muassasalarida va maktab-ta’lim jarayonlarida har xil yoshdagi bolalarga mos ravishda olib boriladigan ish jarayonlarida u yoki bu darajada hal qilinadi.
Psixodiagnostika xususiy jihatdan quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:
— bolani tug’ilgandan boshlab maktab-ta’lim jarayonidagi yosh davrlarini psixologik taraqqiyot dinamikasini o’rganadi (bilish jarayonlarini, intellektual qobiliyatlarini, shaxs sifatlarini hamda shaxslararo munosabatlarini). Bunda har bir bolaga maxsus psixodiagnostik tarqatma material to’ldiriladi va uning rivojlanish ko’rsatkichlari har oyda yoki yilda qayd qilinib boriladi.
— har bir bolani psixik va xulqiy rivojlanishidagi individual qobiliyatlarini tekshirish, uning o’rtacha standart me’yorlardan chetlashishlari, ya’ni ijobiy (rivojlanishda oldindami) yoki salbiy (rivojlanishdagi qoloqligi) tomonlarini aniqlash.
— bolani ta’lim va tarbiya jarayonidagi yutuqlarini aniqlash maqsadida psixologik xizmat ko’rsatish va uning natijasida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.
— o’z vaktida bolani yanada rivojlantirish maqsadida uning iqtidorini, layoqatini va individual qobiliyatlarini xamda qiziqishlarini tashxislash hamda ilmiy asoslangan psixologik maslahat va proforientatsiya ishlarini olib borish.
— ota-onalarga, o’qituvchilarga zarur bo’lgan bolaning mazkur psixologik holati haqida har tomonlama ma’lumotlar to’planib, bolaga mos ravishda ta’lim va tarbiya metodlarini tanlash.

Savol va topshiriqlar

1. Psixodiagnostika atamasi haqida nima bilasiz?
2. Psixodiagnostika fanining maqsadi vapredmeti haqida tushuncha bering.
3. Psixologik-pedagogik diagnostika kursining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
4. Psixodiagnostika fanining nazariy va amaliy vazifalari haqida ma’lumot bering.
5. Psixologik-pedagogik diagnostikaning nazariy va amaliy jihatlarini rivojlantirish uchun nima qilmoq kerak?
6. Talabalarni psixologik-pedagogik diagnostikasining nazariy asoslari yo’nalishlari, bosqichlari bilan tanishtiring.
7. Shaxs psixologiyasida, hulq-atvorida yuz beradigan salbiy o’zgarishlarni tuzatish, ularga yordam berish usullarini sharhlab bering.

3-mavzu Diqqat.

Asosiy savollar.

1. Diqqat. Diqqat turlari.
2.Diqqatning fiziologik mexanizmlari.
3.Diqqatning asosiy xususiyatlari.
4.Diqqatning taraqqiy etishi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: diqqatning fokusi, optimal qo'zg'alish nuqtasi, shartli reflekslar, dominanta, irodaviy diqqat, orientirovka, ko'chuvchanlik, diqqatning ko'lami, diqqatning kuchi, diqqatning barqarorligi.

Mavzu bo'yicha asosiy muammolar:

Psixika materiya evolyutsiyasi natijasi ekanligini qanday izohlaysiz? Misollar bilan tushuntiring. Seskanuvchanlik psixikaning sodda shakli ekanligi va uning paydo bo'lishini ta'riflang. Psixikaning taraqqiyot bosqichlaridagi asosiy farqlarni tushuntirib bera olasizmi ?

Hayvonlarning individual va intellektual xatti-harakatlari qachon paydo bo'lgan deb o'ylaysiz? tushuntirib bering.

Odam psixikasining paydo bo'lishi va uning taraqqiyotining asosiy ko'rinishlarini nimalardan iborat deb o'ylaysiz? gapirib bera olasizmi? Psixika va taraqqiyot tushunchalariga ta'rif bering.

1. Diqqat. Diqqat turlari.

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Diqqatni ta'riflash. Diqqat turlarini ajratish. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatni belgilashni talabalarga tushuntirib berish.

Identiv o'quv maqsadlari.

Diqqatni ta'riflaydi va tushuntirib beradi.
Ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatni ajratadi.
Talabalarda diqqat mavzusini o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

Birinchi savolning bayoni.

Diqqat deb, ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan bir obektga faol qaratilishiga aytiladi; **biz o'z faoliyatimiz jarayonida idrok va tasavur** qiladigan har bir narsa, har bir hodisa, o'zimizning qilgan ishlarimiz, o'y va fikrlarimiz diqqatning obekti bo'la oladi.

Diqqat paytida **ongning bir nuqtaga to'planishi ong doirasining torayishidan iborat bo'ladi;** bunda go'yoki ong doirasi anchagina tig'izlanadi. Ana shunday torayish va tormozlanish tufayli ong doirasi juda ham yorqinlashadi. Ongning eng tormozlangan va binobarin, eng yorqin nuqtasi diqqatning fokusi (ya'ni markazi) deb ataladi. Ana shu fokusga tushgan barcha narsalar (idrok qilinayotgan predmetlar, tasavurlar, fikrlar) juda to'la, yorqin hamda juda aniq aks ettiriladi.

Diqqat aqliy jarayonlarning sifatini ta'minlaydigan ichki faollikdir. Diqqat faolligi jihatidan ixtiyorsiz va ixtiyoriy deb farqlanadi. Diqqat asosan ikki turga, ixtiyorsiz va ixtiyoriy diqqat turiga ajratiladi. Biron tashqi sabab bilan va bizning xohishimizdan tashqari hosil bo'ladigan diqqatni *ixtiyorsiz* diqqat deyiladi.

Ixtiyorsiz diqqatni tug'diruvchi sabablar, avvalo, shaxsga ta'sir qiluvchi qo'zg'ovchilarning go'zalligi, yorqinligi, kuchi, kattaligi, harakatchanligi, uzoq davom etishi, to'satdan sodir bo'lishi, kontrastligi hisoblanadi. M: Qattiq tovush, momaqaldiroq, otilgan o'qning ovozi beixtiyor ravishda diqqatimizni o'ziga tortadi. Kutilmagan holda to'satdan sinfga uchib kirgan kapalak ixtiyorsiz ravishda talabalarning diqqatini o'ziga tortadi. Bundan tashqari, ixtiyorsiz diqqat bizning faoliyatimiz, turmush tajribamiz bilan bog'liq bo'lgan va ehtiyojlarimiz, qiziqishlarimizga javob bera oluvchi hamda bizda ma'lum bir hissiyot uyg'ota oluvchi narsalarning ta'siri bilan ham vujudga keladi.

Ixtiyorsiz diqqatning dastlabki fiziologik asosi **orientirovka** yoki tekshirish reflekslaridan iborat. Bu reflekslarni akademik I.P. Pavlov boshqacha nom bilan «bu nima ekan» refleksi deb ataydi.

Diqqatning qaratilishi lozim bo'lgan narsani oldindan belgilab olib, ongli ravishda qo'yilgan maqsad bilan ishga solingan diqqat **ixtiyoriy** diqqat deyiladi.

Bu diqqatning boshlanishi irodaning ishtirokini talab qiladi. Shuning uchun uni **irodaviy diqqat** deyiladi. Ixtiyorsiz diqqatning kuchi asosan qiyinchiliklarni engish bilan bog'liq bo'lgan irodaviy zo'r berish darajasi bilan xarakterlanadi.
Talabaning tushuntirilayotgan yangi darsni eshitib o'tirishi shu ixtiyoriy diqqat bilan ishlashning misoli bo'la oladi. Bunda talaba «eshitib o'tiraman» deb, o'z oldiga maqsad qo'yadi va o'z diqqatini faqatgina o'qituvchining so'ziga qaratish uchun kuch sarf qiladi. Shuning bilan birga, talaba beixtiyor ravishda paydo bo'lib, o'qituvchining so'zini eshitishga xalaqit beruvchi idrok, fikr, hissiyot, xayol kabi boshqa psixik jarayonlarni yo'qotish uchun ongli ravishda harakat qiladi. Ixtiyoriy diqqat, masalan, ninaga ip taqish kabi juda oddiy ishda, ayniqsa, ochiq ko'rinadi. Juda ko'p har xil ishlar borki, ular asosan, ixtiyoriy diqqatni talab qiladi, masalan: g'isht teruvchining ishi, ekskavatorda ishlash.
Ixtiyorsiz diqqat ham, ixtiyoriy diqqat ham o'zining yo'nalishiga ko'ra tashqi va ichki bo'lishi mumkin.
Kishilarning ongidan tashqarida bo'lgan diqqatga *tashqi diqqat* deb ataladi. Tashqi diqqat dastaval bizning idroklarimiz jarayonida namoyon bo'ladi. Tikuvchining ishida sodir bo'ladigan diqqat tashqi diqqatga misol bo'la oladi. O'quvchining kitob o'qishdagi, suratlarni ko'rishdagi va tabiat hodisalarini kuzatishdagi diqqati ham tashqi diqqatga misol bo'la oladi. Narsa va hodisalarni qaysi sezgi a'zolarimiz bilan idrok qilayotganimizga qarab, tashqi diqqatni ko'rish, eshitish va shuning bilan birga, tuyish, hid bilish va ta'm bilish turlariga ajratish mumkin.

Birinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. Diqqat deb nimaga aytiladi ?
2. Diqqatni faolligi jihatidan nechta turga bo'lish mumkin ? Tushuntirib bering ?
3. Diqqatning fokusini aniqlang ?
4. Irodaviy diqqat deb nimaga aytiladi ?
5. Ixtiyorsiz diqqatning fiziologik asosini ko'rsating ?
6. Tashqi diqqatni ta'riflang ?
7. Diqqatning paydo bo'lishida hissiyotning, fikrlarning, istaklarning ta'siri bormi ? Fikringizni bayon qiling ?

2. Diqqatning fiziologik mexanizmlari.

2-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi: Diqqatning fiziologik mexanizmlari haqida ma'lumot berish. Bosh miya po'sti qismidagi «optimal qo'zg'alish nuqtasi»ni tushuntirib berish. Yangi shartli reflekslar haqida tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Diqqatning fiziologik mexanizmlarini ta'riflaydi.
2. Bosh miya po'sti qismidagi «optimal qo'zg'alish nuqtasi»ni tushuntiradi.
3. Yangi shartli reflekslar haqida ma'lumot beradi.

Ikkinchi savolning bayoni:

Diqqatning fiziologik asosini bosh miya po'sti qismidagi «optimal qo'zg'alish nuqtasi» tashkil qiladi. Bunday joyni yaqqol qilib ko'rsatish uchun I.P. Pavlov shunday tasvirlaydi: «Agar bosh suyagiga qaraganda uning ichidagi miya ko'rinadigan bo'lsa, agar katta miya yarim sharlarida optimal qo'zg'alish uchun eng yaxshi sharoit tug'ilgan nuqtasi yiltillab ko'rinadigan bo'lsa edi, ongi sog'lom bo'lib, bir narsani o'ylab turgan odamning miyasiga qaraganimizda, uning miyasining katta yarim sharlarida juda g'alati jimjimador shakl bo'lib, surati va hajmi har lahzada bir o'zgarib, turlanib, jimir-jimir qilib turuvchi yorug' narsaning u yoqdan-bu yoqqa yugurib qimirlab turganini va miya yarim sharining bu yorug' narsa atrofidagi boshqa erlari birmuncha xira tortib turganini ko'rar edi» (Polnoe sobranie sochineniy, III torn, 1-kitob, 248-bet).
Optimal qo'zg'alish nuqtasi manfiy induksiya qonuniga ko'ra, bosh miya po'stining boshqa joylarida tormozlanishni vujudga keltiradi.
«Miya yarim sharlarining optimal qo'zg'alishga ega bo'lgan qismida, - deydi I. P. Pavlov, - yangi shartli reflekslar engillik bilan hosil bo'ladi va differensirovkalar muvaffaqiyatli ravishda paydo bo'ladi. Shunday qilib, optimal qo'zg'alishga ega bo'lgan joy ayni chog'da bosh miya yarim sharlarining ijodga layoqatli qismi desa bo'ladi. Miya yarim sharlarining sust qo'zg'algan boshqa qismlari bunday xususiyatga qobil emas. Ularning ayni chog'dagi funksiyasi, juda nari borganda, tegishli qo'zg'ovchilar asosida ilgari hosil qilingan reflekslarni bir tartibda qayta tiklashdan

iboratdir. Bunday qismlarning faoliyati biz ongsiz, avtomatlashgan faoliyat deb ataydigan subektiv faoliyatdan iboratdir

Dominonta printsipi.

Diqqatning fiziologik asosi bo'lmish optimal qo'zg'alish o'chog'i haqidagi I.P. Pavlov ta'limoti bilan akademik A.A. Uxtomskiyning olib borgan tekshirishlari bir-biriga to'g'ri keldi. Bu tekshirishlar natijasida quyidagilar ma'lum bo'ldi. Agar nerv sistemasiga bir qancha qo'zg'ovchilar bir vaqtda ta'sir etsa, bosh miya po'stida shu onning o'zida bir necha qo'zg'alish o'choqlari paydo bo'ladi. Shu bilan birga, har bir qo'zg'alish o'chog'i bosh miya po'stining hamma eriga tarqalishga, irradiatsiyalanishga moyildir. Shuning uchun ayrim qo'zg'alish o'choqlari o'rtasida to'qnashish va «kurash» sodir bo'ladi. Bu kurash natijasida qo'zg'alish o'choqlaridan biri hukmron (dominanta) bo'lib oladi. Mana shu hukmron bo'lib olgan qo'zg'alish o'chog'ini akademik Uxtomskiy «dominanta» deb ataydi. Uxtomskiyning bergan ta'rifiga ko'ra, dominanta - bu ayni chog'da markazda sodir bo'ladigan reaksiyalar xarakterini bir qadar belgilab beruvchi hukmron qo'zg'alish o'chog'idir.

Dominantalar mavjud bo'lgan paytda boshqa qo'zg'alish o'choqlari («sub-dominantalari nisbatan kuchsiz qo'zg'alish o'choqlari) ko'pincha yo'qolib ketmaydilar. Ular dominantaga qo'shilib, uni kuchaytiradilar yoki dominanta bilan kurasha boshlaydilar. Bu kurash jarayonida subdominanta dominanta bo'lib olishi mumkin, ilgarigi dominanta esa subdominanta bo'lib qolishi mumkin. Hukmron qo'zg'alish o'chog'i bo'lgan dominanta diqqatimizning ma'lum narsaga yo'naltirilishi va to'planishining fiziologik asosidir.

Ikkinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1.I. P. Pavlovning diqqat haqidagi fikrlarini bayon qiling.
2. Optimal qo'zg'alish nuqtasini misollar yordamida tushuntirib bering.
3. I.P. Pavlov ta'limoti bilan akademik A.A. Uxtomskiyning olib borgan tekshirishlarini o'rganing va qiyosiy solishtiring ? Fikringizni bildiring ?
4. «Dominanta» printsipini ta'riflang ?
5. Kuchsiz qo'zg'alish o'choqlari haqida nimalarni bilasiz ? Gapirib bering ?
6. Subdominantalarni ajrating va tushuntiring ?

3. Diqqatning asosiy xususiyatlari.

3-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi: Diqqatning asosiy xususiyatlarini tushuntirish. Diqqatning ko'lamini aniqlash. Diqqatning ko'chuvchanligini o'rganib, belgilash. Diqqatning bo'linishini misollar yordamida tushuntirish

Identiv o'quv maqsadi:

1. Diqqatning asosiy xususiyatlarini tushuntiradi.
2. Diqqatning ko'lamini aniqlaydi.
3. Diqqatning ko'chuvchanligini o'rganadi va belgilaydi.
4.Diqqatning bo'linishini tushuntiradi.
5. Diqqatning kuchi va barqarorligini asoslaydi.

Uchinchi savolning bayoni:

Diqqatning ko'chuvchanligi. Diqqatning ko'chishi deganda, biz uning bir narsadan ikkinchi boshqa bir narsaga, faoliyatning bir turidan boshqa turiga o'tishini tushunamiz. Masalan, odam o'z diqqatini kitob o'qishdan surat ko'rishga, surat ko'rishdan esa o'z fikrlarini bayon etishga ko'chirishi mumkin. O'quvchilar o'z diqqatlarini bir fanni o'qishdan boshqa fanga ko'chiradilar, matematikadan tarixga, tarixdan rus tiliga va shuning kabilar. Diqqatning ko'chishi ixtiyorsiz va ixtiyoriy tarzda sodir bo'lishi mumkin.

Diqqatni ko'chirishning nerv-fiziologik asosi, asosan, ikkinchi signallar sistemasining signallari orqali bosh miyaning po'stida paydo bo'lgan optimal qo'zg'alish o'chog'ining o'rin almashtirishidir.

Diqqatning ko'chirilishi ko'p hollarda qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, ba'zan diqqatni bundan oldingi obektdan aj'ratish qi-yin bo'lsa, boshqa hollarda oldingi ishining ketidan qilinadigan yangi ishga kirishib ketish qiyin bo'ladi. Eng yaxshi diqqat, albatta, bir narsadan ikkinchi narsaga tez ko'cha oladigan diqqatdir. Diqqatning mana shunday xususiyati tufayli, kishi atrofidagi muhitga tez moslasha oladi hamda o'zgaruvchan sharoitdagi turli elementlarning ahamiyatlarini tezlik bilan belgilay oladi.

Diqqatning bo'linishi. Ma'lum faoliyat jarayonida diqqat birgina narsaga emas, balki ikki va uch narsaga ham qaratilishi mumkin. Diqqatimiz ayni vaqtda ayrim faoliyat turlariga bo'lina oladi. Faqat birgina narsaga qaratilgan diqqatni **konsentratsiyalashgan** (yig'ilgan) yoki **to'plangan** diqqat deyiladi. Masalan, ninaga ip taqishdagi, qo'lda biror narsa tikishdagi, matematik masala echishdagi, ma'ruza eshitishdagi diqqatimiz shunday diqqatdir. Agarda diqqat faqat bir murakkab ish jarayonining o'zida ikki yoki uch narsaga qaratilgan va faoliyatning turli usullari bilan bog'liq bo'lsa, bunday diqqatni **bo'lingan** yoki **taqsim** qilingan diqqat deyiladi. Masalan, O'qituvchi darsni tushuntirish paytida o'z diqqatini o'quvchilar xulqiga, ko'rgazma qurollarni ko'rsatishga, sinf doskasiga va shu kabilarga taqsimlashi lozim.

Yuliy Sezar haqida shunday qissa saqlanib qolgan. U go'yoki bir vaqtning o'zida bir narsani yozib, boshqa narsa haqida o'ylash, uchinchi narsani eshitish va to'rtinchi narsa haqida gapirish kabi murakkab ishlarni bajara olgan emish. Psixologiya nuqtayi nazaridan, bunday hodisaning bo'lishi mutlaqo mumkin emas. Har holda Yuliy Sezar diqqatini bir narsadan ikkinchi narsaga tez ko'chirish qobiliyatiga ega bo'lgan bo'lsa kerak. Shu sababli, Yuliy Sezar o'z diqqatini bir vaqtning o'zida to'rt xil faoliyatga qarata oladi, deb o'ylaganlar.

doklad yoki ma'ruzani ham eshitib, ham yozib borishimiz mumkin. Bunda ma'ruzani deyarli avtomatik ravishda yozib boriladi; lekin vaqt-vaqti bilan ongimiz nazorat qilib turadi. Diqqatning bunday bo'linishida unchalik zo'r berishni talab qilmaydigan, ya'ni odat bo'lib qolgan ish, miya po'stining ma'lum darajada tormozlangan qismlari orqali «boshqarilishi» mumkin.

Diqqatning ko'lami. Diqqatning ko'lami — diqqatga eng qisqa vaqt ichida (go'yoki birdaniga) sig'ishi mumkin bo'lgan narsalar soni bilan belgilanadi. Diqqat ko'lami jihatidan tor yoki keng bo'lishi mumkin.

Tajriba qilib tekshirishda diqqatning ko'lami, odatda, tekshirilayotgan odamga ayni bir vaqtning o'zida bir qancha o'zaro bog'lanmagan harflarni, so'zlarni, narsalarni va turli shakllarni ko'rsatish yo'li bilan aniqlanadi.

Tekshirilayotgan kishi bu narsalardan ayni vaqtda qanchalik ko'pini birdaniga idrok eta olsa (diqqat doirasiga sig'dira olsa), uning diqqat doirasi shunchalik keng bo'ladi.

Diqqatning ko'lamini aniqlash uchun taxistoskop degan maxsus asbob qo'llaniladi. Bu asbob yordamida kishiga idrok ettiriladigan narsalar juda tez ko'rsatiladi. Bunda idrok qilinadigan narsalar taxistoskopning ekranidagi teshikdan ko'rsatiladi va bu teshik juda qisqa vaqt ichida bekilib qoladi. Taxistoskop vositasi bilan o'tkazilgan tajribalar ko'rsatishicha, katta yoshli odam ayni vaqtning o'zida diqqat doirasiga uchtadan to oltitagacha bir-biriga *bog'liq* bo'lmagan narsalarni, masalan, undosh harflarni, shakllarni sig'dira oladi. Diqqat ko'lamining fiziologik asosi miya po'stida optimal qo'zg'algan joyning kengayishi yoki torayishidan iborat.

Diqqatning kuchi va barqarorligi. Diqqatning kuchi va barqarorligi uning muhim xossalaridan hisoblanadi. Diqqatning kuchi turli darajada bo'lishi diqqat kuchli va kuchsiz bo'lishi mumkin. Diqqat qanchalik kuchli bo'lsa, u diqqat obektiga shunchalik ko'p to'planadi, boshqa, ayni vaqtda keraksiz bo'lgan narsalarga shunchalik kam chalg'iydi. O'quvchining diqqati har xil, hatto kuchsiz darajadagi chetki qo'zg'ovchilardan, chunonchi, qalamning tushib ketishiga, qo'shni partadagi o'rtoqlarining pichirlashganiga, koridorda bo'layotgan gaplarga chalg'ib ketaversa bu ayni vaqtda o'quvchining diqqati kuchsizligidan dalolat beradi. Agar o'quvchi bunday chetki qo'zg'ovchilar (ba'zan hatto kuchli qo'zg'ovchilar) ta'sirini ham go'yo «sezmay», balki muayyan bir ishga berilib qunt bilan ishlasa, bu ayni vaqtda o'quvchi diqqatining kuchliligidir.

Eng kuchsiz diqqat, odatda, tarqoq diqqat, parishon diqqat yoki to'g'ridan to'g'ri parishonlik deyiladi.

Diqqatning barqarorligi. Diqqat ma'lum darajada barqaror va beqaror bo'lishi mumkin.

Uzoq muddatgacha bir narsaning o'ziga qaratilib tura oladigan diqqat **barqaror** diqqat deyiladi. Agar diqqat biron-bir faoliyat jarayonida boshqa narsalarga, kcraksiz narsalarga chalg'iyversa yoki tez sustlashib va so'nib qolsa, bunday diqqat **beqaror** diqqat deyiladi.

Uchinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. Diqqatning asosiy xususiyatlarini ajrating va tushuntiring ?
2. Diqqatning ko'lami deganda nimalarni bilasiz ? Gapirib bering ?
3. Diqqatni ko'chirishning nerv-fiziologik asosini isbotlang ?
4. Konsentratsiyalashgan diqqat haqida fikringizni bayon qiling ?

5. Diqqatning kuchi va barqarorligini asoslang ?
6. Diqqatning ko'lamini aniqlash uchun ishlatiladigan maxsus asbobni ta'riflang ?

4. Diqqatning taraqqiy etishi.

4- **savol bo'yicha darsning maqsadi:** Diqqatning taraqqiy etishi haqida talabalarga tushuncha berish. Bolalarda diqqatning paydo bo'lish jarayonini bosqichma bosqich ta'riflab berish. Diqqatning taraqqiy etishini misollar yordamida tushuntirish

Identiv o'quv maqsadi:

1. Diqqatning asosiy xususiyatlarini tushuntiradi.
2. Diqqatning ko'lamini aniqlaydi. Diqqatning ko'chuvchanligini o'rganadi va belgilaydi.
3.Diqqatning bo'linishini misollar yordamida tushuntiradi.

To'rtinchi savolning bayoni:

Bolalar diqqati juda erta hayotlarining birinchi oylaridayoq ko'rina boshlaydi. Dastaval ixtiyorsiz diqqat namoyon bo'ladi. Bola o'z diqqatini biron jihati bilan rang-barangligi, ohangdorligi, harakatchanligi bilan ajralib turuvchi ma'lum bir narsalarga qaratadi. Bolalarning yoshlari ulg'aygan sari, o'yin faoliyatlari davomida, tarbiya ta'siri bilan ixtiyorsiz diqqatlari taraqqiy qila boradi. Ixtiyorsiz diqqatning taraqqiysi o'sib borayotgan hissiyot, ehtiyoj va qiziqishlar bilan bog'liqdir. Ixtiyorsiz diqqatning taraqqiysi shundan iboratki, bunda ixtiyorsiz diqqatni tug'diruvchi narsalar doirasi orta boradi. Bundan tashqari, ixtiyorsiz diqqat anchagina kuchli va barqaror bo'la boradi.

Bola diqqatining to'planishi va bir qadar barqarorligini saqlab turishi uchun yoshlik paytidan boshlab beixtiyor o'ziga jalb qiladigan qo'zg'atuvchilarning taassurotini engishga to'g'ri keladi. Katta kishilar bolani tozalikka, tartibli, yakka, intizomli bo'lishga va jamiyat ichida yashash qoidalariga o'rgatadilar. Bularning hammasi ixtiyoriy diqqatni taraqqiy qildiradi. Keyinchalik, 3-5 yoshlardan boshlab, ixtiyoriy diqqat bolaning o'z tashabbusi bilan ham o'sa boshlaydi.

Bolalardagi ixtiyoriy diqqat, maktab yoshidan boshlab, xususan tez o'sa boshlaydi. O'qish ishida darsni eshitish, kitob o'qish, masalalarni echishda, asosan, ixtiyoriy diqqat talab qilinadi. Shuning bilan birga, o'qish jarayonining o'zi ixtiyoriy diqqatning hamda uning turishi va barqarorligining o'sishiga yordam beradi.

To'rtinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. Bolalarda necha yoshdan boshlab diqqatning taraqqiy eta boshlaydi ? Tushuntirib bering ?
2. Bolalarning o'yin faoliyatlarida, mehnatda va asosan o'qish jarayonida diqqatning qaysi xususiyatlarini kuzatish mumkin ?
3. Bolalarda ixtiyoriy diqqatning taraqqiy qilishida katta kishilarning ta'siri bormi ? Fikringizni bayon qiling ?
4. Diqqatni ta'riflang?
5. Diqqat turlarini sanang?
6.Diqqatning fiziologik mexanizmlarini bayon qiling?
7.Diqqatning asosiy xususiyatlarini ajrating?
8.Diqqatning taraqqiy etishini asoslang?

Mavzu bo'yicha asosiy xulosalar:

Diqqat deb, ongni bir nuqtaga to'plab, muayyan bir obektga faol qaratilishiga aytiladi; **biz o'z faoliyatimiz jarayonida idrok va tasavur** qiladigan har bir narsa, har bir hodisa, o'zimizning qilgan ishlarimiz, o'y va fikrlarimiz diqqatning obekti bo'la oladi. Diqqat turlarini talabalarga tushuntirib berish. Diqqatning fiziologik mexanizmlarini o'rganish. Diqqatning asosiy xususiyatlarini aniqlab berish. Diqqatning taraqqiy etishini gapirib berish.

Diqqat aqliy jarayonlarning sifatini ta'minlaydigan ichki faollikdir. Diqqat faolligi jihatidan ixtiyorsiz va ixtiyoriy deb farqlanadi. Diqqat asosan ikki turga, ixtiyorsiz va ixtiyoriy diqqat turiga ajratiladi. Biron tashqi sabab bilan va bizning xohishimizdan tashqari hosil bo'ladigan diqqatni *ixtiyorsiz* diqqat deyiladi.

Diqqat bizning faoliyatimiz, turmush tajribamiz bilan bog'liq bo'lgan va ehtiyojlarimiz, qiziqishlarimizga javob bera oluvchi hamda bizda ma'lum bir hissiyot uyg'ota oluvchi narsalarning ta'siri bilan ham vujudga keladi.

4- mavzu: Sezgi.

Asosiy savollar.

1. Sezgilar va sezgi turlari haqida tushuncha.
2. Sezgilarning fiziologik asoslari.
3. Kishi hayotida va uning faoliyatida sezgilarning ahamiyati.
4. Sezgilardagi qonuniyatlar.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: qo'zg'ovchi ,qo'zg'alish, analizator, hissiy ton, emottsional ton, eksterorettseptor, propriorettseptor, interoretseptor, xromatik, axromatik, tomirli parda, rangdor parda, tayoqchalar, kolbachalar, tuyush, motor sezgi, kinestetik sezgi, adaptatsiya, sinesteziya.

Mavzu bo'yicha asosiy muammolar

Seskanishni sezgining dastlabki boshlanishi ekanligini qanday izohlaysiz? Misollar bilan tushuntiring. Seskanuvchanlik psixikaning sodda shakli ekanligi va uning paydo bo'lishini ta'riflang. Sezgi turlarini har birini alohida ta'riflab tushuntirib bera olasizmi ? 7 yoshdan 10 yoshgacha bolalarda ranglarning tuslarini sezish 45 foiz ortadi, 10 yoshdan 12 yoshgacha bolalarda esa 65 foizgacha ortishi aniqlangan. Sizningcha bundan ham yuqori bo'lishi mumkinmi? Bo'lsa qanday misollar bilan tushuntiring.

Sezgilar va sezgi turlari haqida tushuncha.

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Sezgilar haqida talabalarga tushuncha berish. Sezgi turlarini aniqlash. Eksteroretseptorlar, interoretseptorlar va proprioretseptorlarni ta'riflash**.**

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Sezgilar va sezgi turlari haqida talabalarga tushuncha beradi.
2. Sezgi turlarini aniqlaydi.
3. Eksteroretseptorlar, interoretseptorlar va proprioretseptorlar ta'riflaydi**.**

Birinchi savolning bayoni.

Tevarak-atrofimizda bo'lgan va bizga ta'sir etib turadigan narsa va hodisalarning xilma-xil xossalari bor. Bu xossalar ko'ruv, eshituv, tuyg'u organlari va shunga o'xshash sezgi organlari yordami bilan ongimizda bevosita aks etadi. Sezgi organlarimizga ta'sir etadigan narsalardagi ayrim xossalarning miyamizda shu tariqa bevosita aks etishi **sezgi** deb ataladi. Biz qizil, yashil ranglarni, shirin, achchiq ta'mlarni, og'ir-engilni, issiq-sovuqni va shu kabilarni sezamiz. Sezgi organiga ta'sir etib, sezgini vujudga keltiradigan har bir narsa (yoki hodisa) **qo'zg'ovchi** deb ataladi, uning ta'siri esa **qo'zg'alish** deb yuritiladi.

Sezish jarayoni quyidagicha ro'y beradi: 1) narsa yoki hodisalar sezgi organlariga (retseptorga) ta'sir etib, tegishli sezuvchi nervning chekka (periferi) uchlarini qo'zg'aydi; 2) shu erda kelib chiqqan qo'zg'alish o'sha nervning o'tkazuvchi yo'li orqali bosh miya po'stining tegishli markaziy hujayralar sistemasiga o'tadi; 3) bu erda nerv qo'zg'alishi psixik hodisaga, ya'ni sezgiga aylanadi.

sezish **jarayonining** ana shu 3 bosqichi I.P. Pavlov tomonidan **analizator** deb atalgan sezuvchi nerv apparatining tuzilishiga muvofiq ravishda o'tadi. Har bir analizator sezuvchi nervning chekka tarmoqlaridan, o'tkazuvchi yo'lidan va bosh miya po'stining markaziy hujayralaridan iborat. Analizatorning yuqorida ko'rsatilgan qismlaridan birortasi zararlansa, sezgi hosil bo'lolmaydi. Nomidan ham ko'rinib turibdiki, analizatorlar tevarak-atrofdagi olam ta'sirlarini analiz qilib **bera**di. Analizatorlar insonning ko'p asrlardan beri davom etib kelgan **tarixida** hayot uchun nihoyatda muhim bo'lib kelgan qo'zg'ovchilarni **boshqa** qo'zg'ovchilardan ajratadi, ularni bir-biridan ayirib beradi.

Sezgilar xilma-xil bo'ladi. Turli-tuman sezgini qaysi sezgi organlari yordami bilan hosil qilsak, ularni o'sha organlarga qarab, quyidagi turlarga, ya'ni ko'rish sezgilari, eshitish sezgilari, hid bilish sezgilari, ta'm (maza) bilish sezgilari, teri sezgilari, muskul-harakat sezgilari va organik sezgilarga ajratiladi. Sezgi organlari qaerda ekanligiga va qaerdan qo'zg'alishiga qarab, ularni uch guruhga ajratish mumkin: eksteroretseptorlar, proprioretseptorlar va interoretseptorlar.

Eksteroretseptorlar organizmning sirtida bo'ladi — ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm (maza) bilish, teri sezgisi, muskul harakat sezgisi va organik sezgi organlari shu jumladandir.

Bu a'zolar **tashqi sezgi a'zolari** deb ataladi. Organizmimizdan tashqaridagi narsa va hodisalarning xossalari ana shu a'zolar yordami bilan aks ettiriladi. Shu a'zolar orqali kelib chiqadigan sezgilar (ko'rish, eshitish sezgilari va hokazo) **eksterioretseptiv** sezgilar deb ataladi.

Proprioretseptorlar muskul, pay va boylamlarda bo'ladi. Organizmimizning ayrim a'zolarning turli harakatlarini va vaziyatini ana shu a'zolar yordami bilan sezamiz. Bu a'zolar **proprioretseptiv** sezgilar deb ataladi.Muskul harakat sezgilari (knestetik sezgilar) va muvozanat sezgilari (statik sezgilar) shular jumlasidandir. *

Interoretseptorlar gavdamiz ichidagi organlar teri, me'da, ichak, jigar, o'pkada bo'ladi. Ovqat hazm qilish, nafas olish, qon aylanish organlari va shunga o'xshash ichki organlardagi jarayonlar (qo'zg'alishlar) vujudga keltiradigan sezgilar shu retseptorlar yordami bilan belgilanadi. Bu sezgilar **interoretseptiv sezgilar** deb ataladi. Organik sezgilar degan sezgilar interoretseptiv sezgilar hisoblanadi

Ko'rish sezgilari .

Rang va yorug'likni sezish ko'rish sezgilariga kiradi. Biz sezadigan ranglar xromatik va axromatik ranglarga bo'linadi.

Yorug'lik nurlari uchburchak shisha prizma orqali o'tib, singanda hosil bo'ladigan ranglar **xromatik** ranglar deb ataladi. Xromatik ranglar kamalak ranglari bo'lib, bunga qizil, zarg'aldoq, **sariq,** yashil, havo rang, ko'k va binaf**sha** ranglar kiradi. Bu ranglarning turlari nihoyatda xilma-xil bo'lib, juda ko'pdir.Oq rang bilan qora rang, shuningdek, xilma-xil hamma kul-ranglar **axromatik ranglar** deb ataladi.

Ko'rish sezgilarining organi — ko'zdir. Bu organ ko'z **soqqasi** bilan undan chiqadigan ko'ruv nervidan iborat. Ko'z soqqasida uchta parda, ya'ni: tashqi, tomirli va to'r parda bor. Tashqi pardaning tiniqmas (oq) qismi sk-lera (qotgan yoki qattiq parda) deb ataladi. Tashqi pardaning oldingi birmun-cha qavariq qismi **tiniq** (muguz) **parda** deb ataladi.

Tashqi pardaning orqasida **tomirli parda bor.** Tomirli pardaning oldingi qismi **rangdor parda** deb ataladi rangdor pardaning rangiga qarab, kishilarning ko'k ko'z, qo'y ko'z, qora ko'z deb ataymiz va hokazo. Rangdor pardaning o'rtasida yumaloq teshik bor, qorachiq deb ataladigan ana shu teshikdan ko'zning ichiga yorug'lik nurlari o'tadi. Yorug'likning oz-ko'pligiga qarab, qorachiq kengayishi va torayishi mumkin. Ko'zning uchinchi pardasi to'r parda bo'lib, u ko'z soqqasining deyarli butun ichki yuzasini qoplaydi. Qorachiq bilan rangdor pardaning orqasida ikki tomoni qavariq, tiniq, jism ko'z **gavhari** turadi, yorug'lik nurlari ko'z gavharida turib sinadi va natijada to'r pardaga narsaning aksi (surati) tushadi. Halqa shaklidagi ko'priksimon muskulning uzayishi va qisqarishi tufayli gavhar goh yassilanadi, goh qavaradi: narsa ko'zdan uzoqlashtirilganda gavhar deyarli yassi bo'lib qoladi, narsa ko'zga yaqinlashtirilganda esa gavhar deyarli shar shakliga kiradi. Ko'z gavharida shunday xossa borligidan, yaqindagi narsalarning aksi ham, uzoqdagi narsalarning aksi ham gavhardan o'tib, xuddi to'r pardaga tushadi. To'r parda rangni va yorug'likni sezish uchun asosiy ahamiyatga ega. Ko'ruv nervining tarmoqlari to'r pardada joylashgandir. Bu tarmoqlarning chekka uchlarida maxsus nerv hujayralari — shaklan tayoqcha va kolbachaga o'xshagani uchun **tayoqchalar** va kol**bachalar** deb ataladigan hujayralar bo'ladi (13-rasm). Odam ko'**zining** to'r pardasida 130 millionga yaqin tayoqcha va 7 millionga **yaqin** kolbacha bor.

Ko'rish sezgisini hosil qiladigan fizik sabab — yorug'likdir, ya'ni elek-tromagnit to'lqinlaridir. Bu to'lqinlar turlicha uzunlikda bo'lib, vaqt birligi hisobi bilan (bir soniya ichida) tebranish tezligi (chastotasi) ham har xil yorug'lik to'lqinlarining uzunligini millimikron (millimetrning million-dan bir bo'lagi) hisobi bilan o'lchanadi. Odam ko'zi sezadigan ranglar taxminan 380 millimikrondan 780 millimikrongacha uzunlikdagi to'lqinlarning ta'siri bilan hosil bo'ladi. Yorug'lik to'lqinlarining tebranish tezligi darajasi (chastotasi) bu to'lqinlarning soniyasiga necha million marta tebranishiga qarab o'lchanadi. Eng uzun to'lqinlar (uzunligi 780 millimikron bo'lib, soniyasiga 450 billion marta tebranadigan to'lqinlar) qizil rang sezgisini hosil qiladi. Eng kalta to'lqinlar (uzunligi 380 millimikron bo'lib, soniyasiga 750 billion marta tebranadigan to'lqinlar) binaf-sha rang sezgisini hosil qiladi.

Ranglarning aralashib ketishi, ko'z to'r pardasining biron joyiga turli uzunlikdagi yorug'lik nurlari bir yo'la ta'sir etganda sodir bo'ladi. Shuning natijasida biz faqat bir rangni sezamiz, lekin bu rang aralashib ketgan ranglarning hech biriga o'xshamaydigan, alohida rang bo'ladi. Ikkita xromatik rangning aralashib ketishidan nim rang hosil bo'ladi. Masalan, qizil rang bilan sariq rangning aralashishidan zarg'aldoq rang hosil bo'ladi, qizil rang bilan ko'k rangning aralashishidan binafsha rang hosil bo'ladi va hokazo. Spektrdagi hamma ranglarning aralashishidan neytral oq rang hosil bo'ladi. Spektrdagi ba'zi ranglarning ikkitasini qo'shib, xuddi boyagidek oq rang yoki

och kulrang hosil qilish ham mumkin. Masalan, spektrdagi har bir rang o'ziga mos boshqa rang bilan qo'shilib, axromatik oq rang yoki kulrang hosil qiladi. Bunday ranglar qo'shimcha ranglar deb ataladi. Qizil rang bilan och havo rang, ko'k rang bilan sariq rang bir-biriga qo'shilib, qo'shimcha ranglar hosil qiladi. Ranglarning aralashib ketishidagi ana shu qonuniyatlarning hammasini rangdor doiralar deb ataluvchi doiralarni maxsus asbobga kiygizib tekshirib ko'rish mumkin. Bu asbob «ranglarni aralashtiradigan charx» deb ataladi. Charx tez aylanganda o'sha doiralardagi har xil ranglar aralashib, muayyan ranglar hosil qiladi. Ranglarning aralashib ketishi periferik jarayon emas, balki markaziy jarayon ekanligi hozirgi vaqtda aniqlandi.

«Rang ajratolmaslik* xromatik ranglarni seza olmaslik va farq qila olmaslikdan iborat. Ba'zi bir kishilar ranglarni sira ayira olmaydigan bo'ladi. Bunday kishilar hamma ranglarni axromatik kulrangdek ko'radilar (xuddi fotografiyadagi singari). Statistika ma'lumotlariga qaraganda, ranglarni ajrata olmaslik hodisasi erkaklar orasida taxminan 4 foiz va ayollar orasida 0,5 foiz uchraydi. Qizil va yashil rangni ayira olmaslik hodisasi ko'proq uchraydi. Binafsha rangni ajrata olmaslik hodisasi esa kamroq uchraydi. Ranglarni ajrata olmaslik sababi shuki, ko'zning to'r pardasidagi kolbachalar ishlamaydi yoki qisman ishlaydi.

Eshitish sezgilari

Eshitish sezgilari tovushlarni sezishdan iboratdir. Tovushlar musiqiy tovushlarga (ashula tovushi, cholg'u asboblarining tovushi) va shovqinli tovushlarga (taraq-turuq, tars-turs, sharaq-shuruq, taqir-tuqur va boshqa shu kabi tovushlarga) bo'linadi.

Eshi**tish sezgilari** organi quloq bo'lib, u uch qismdan: tashqi quloq, o'rta quloq va ichki quloqdan iboratdir.

Tashqi quloq — quloq suprasi bilan eshituv yo'lidan iborat. Tashqi quloq havo to'lqinlarini yig'uvchi karnay desa bo'ladi. Tashqi quloq bilan o'rta quloq o'rtasida bir parda bor, u **nog'ora parda** yoki o'rta quloq pardasi deb ataladi. **O'rta quloq** — nog'ora parda va unga yopishgan uchta suyakcha: bolg'acha sandon va uzangidan iborat. Nog'ora parda, shuningdek, unga yopishuvchi suyakchalar (bolg'acha, sandon va uzangi) havo tebranishlarini ichki quloqqa o'tkazadi. O'rta quloq maxsus kanal (Evstaxiy nayi) yordami bilan og'iz bo'shlig'iga va burun bo'shlig'iga tutashgan.

Ichki quloq yoki quloq labiranti o'zaro birlashgan uchta bo'lakdan iborat. Ichki quloqning yuqori qismi uchta yarim joyga kanaldan, o'rta qismi kameradan (u ichki **quloq dahlizi** deb ataladi) va pastki qismi chig'anoqdan iborat. Eshitish sezgilarining fizik sababi havo to'lqinlarining harakati bo'lib, bu havo to'lqinlari tovush chiqaruvchi jismlar tebranganda hosil bo'ladi.

Hid bilish va ta'm bilish (maza) sezgilari

Hid bilish sezgilariga hidlarni his qilish kiradi. Hidlar nihoyatda ko'p va xilma-xil bo'ladi. Hidlarni klassifikatsiya qilish uchun umumiy bir mezon yo'q. Hidlar odatda hidli narsalarning nomi bilan ataladi, masalan, rayhon hidi, non hidi, olma hidi va hokazo. Hidlar odatda, xush va noxush deb ikkiga bo'linadi, lekin bu taqsimot hidlarning mohiyatini ko'rsatib bermaydi, balki o'sha hidlarga qanday qarashimizni ko'rsatadi.

Hid bilish sezgilarining organi burun kovagining yuqori tomoni bo'lib, bu erda hid **bilish hujayralari** va sezuvchi nervning tarmoqlari bor, sezuvchi nervning tarmoqlari «hid bilish sohasining shilliq pardasiga botib turadi. Hidli moddalar sezuvchi nervni qo'zg'aydi, bu qo'zg'alish bosh miyaga o'tadi, natijada biz turli hidlarni sezamiz. Hid bilish markazi bosh miya yarim sharlari orqa yuzasining pastki qismida deb faraz qilinadi. Hidli moddalar hid bilish hujayralariga faqat gaz holatidagina ta'sir etadi va kimyoviy reaksiya yo'li bilan ularni qo'zg'aydi. Ma'lumki, hidli moddalarning hammasi bug'lanadi va eriydi. Gaz holatidagi moddalar nafasga olinadigan havo bilan burun kavagiga kiradi.Ta'm bilish sezgilariga shirin-achchiq, nordon-shirin his qilish kiradi. Shu asosiy ta'm bilish sezgilaridan tashqari, umumiy klassifikatsiyasi bo'lmagan juda ko'p va xilma-xil ta'm bilish sezgilari ham bor. Hid bilish sezgilari kabi ta'm bilish sezgilari ham, muayyan ta'mli narsa yoki moddalarning nomi bilan ataladi. Masalan, sutning mazasi, yog'ning mazasi, go'shtning mazasi, nonning mazasi va b. Ta'm bilish sezgilarining organi tilning yuzasi va tanglayning yumshoq qismidir Tilning shilliq pardasida maxsus ta'm bilish so'rg'ichlari bor.

Ularning ichida tayoqchasimon hujayralardan tuzilgan maxsus ta'm bilish «kurtaklari» yoki «sugonlari» bor. Har bir ta'm bilish sezgisining o'ziga xos tuzilgan «sugoni» bo'ladi. Spetsifik sifatlari bilan farq qiladigan bu ta'm bilish sugonlari til yuzasida bir tekisda taqsimlangan emas. Til-ning asosiy yoki orqa qismi achchiq mazani, ayniqsa, yaxshi sezadi, til uchi, asosan, shirin mazani,

ayniqsa, yaxshiroq sezadi, tilning chetlari esa nordon mazani yaxshiroq sezadi. Tilning o'rtasi ta'm sezmaydi. Ta'm bilish organlarining hujayrali qismlarida maxsus sezuvchi nervlarning chekka uchlari bor, bular maza (ta'm) bilish organidagi qo'zg'alishni bosh miyaga o'tkazadi.

Teri sezgilari va muskul-harakat sezgilari

Teri sezgilariga tuyush va harorat sezgilari kiradi, bu sezgilarning teri sezgilari deb atalishiga sabab shuki, bu sezgilarning chekka nerv apparatlari (retseptorlar) terida va organizmimizning tashqi shilliq pardalarida bo'ladi. Tuyush sezgilari — tegish, tarqalishni tuyush sezgilari yoki tuyush tanachalari. Taktil sezgilar, shuningdek, silliq yoki g'adir-budurni tuyush sezgilaridir. Biror narsaning tegishini sezish tashqi ta'sir (qo'zg'alish) kuchayganda siqiq sezishga aylanadi. Qo'zg'alish yanada kuchayganda siqiq og'riq sezgisiga aylanishi mumkin. Ammo terida seziladigan har qanday ortiq teriga ta'sir etadigan tashqi qo'zg'alishga bog'liq bo'lavermaydi, albatta.

Tuyush sezgilari organi — teridagi va tashqi shilliq pardalardagi tuyush tanachalari degan maxsus tanachalardir. O'sha tanachalarning ichida, qisman esa tashqarisida (bevosita epiteliyda) tuyush nervining chekka tarmoqlari bor. Ular terida va gavdamizning shilliq pardalarida bir tekisda taqsimlangan emas. Bu tanachalar barmoqlarning uchida, til uchida, labda zich joylashgandir. Shuning uchun ham gavdamizning ana shu qismlari tekkan narsani, silliq va g'adir-budurni boshqa qolganlaridan eng ko'p sezgiridir. Tuyush tanachalari orqa terisida juda siyrakdir. Tuyush tanachalari va sezuvchi nervning chekka tarmoqlari nechog'li zich taqsim langanligi esteziometr nomli maxsus asbob yordamida aniqlanadi.

Tuyush markazi bosh miya po'stining orqadagi markaziy pushtasida deb faraz qilinadi. Tuyush sezgilarining tashqi, fizik sababi biron-bir bu-yumlarning teriga bevosita tegishidir. Bunda biz narsaga tegish bilan birga uni paypaslasak, uning bilan biron ish qilsak, tuyush sezgisi ancha oshadi. Bunday hollarda tuyush organlari muskul-harakat organlari bilan bir-galikda ishlaydi. Harakat bilan bog'liq sezgilar taktil sezgilar ila birga qo'shilganda, narsalarning asosan, silliq yoki g'adir-budur ekanligi bilinadi. Tuyush sezgisida va paypaslashda qo'l, jumladan, qo'l barmoqlari, ayniqsa, katta rol o'ynaydi. Odamning faoliyatida, tevarak-atrofdagi olamni bilishida qo'l tuyush va paypaslashning maxsus organi bo'lib xizmat qiladi.

Harorat sezgilariga issiq va sovuqni sezish kiradi. Terida va shilliq pardalarda maxsus tanachalar bor, ularning ichida issiqni yoki sovuqni sezadigan maxsus nervlarning chekka tarmoqlari bo'ladi.

Harorat sezgilarining tashqi sababi biron haroratga ega bo'lgan qat-tiq, suyuq va gazsimon jismlarning organizmimizga tegib turishidir. Issiqni yoki sovuqni ayirish terimizga tegib turgan narsa (qo'zg'ovchi) harorati bilan badan harorati o'rtasidagi nisbat bilan belgilanadi. Muskul-harakat sezgilari **motor sezgilar** yoki **kinestetik sezgilar** deb ham ataladi. Bu xil sezgilarga tazyiq (og'irlik)ni bilish sezgilari, qarshilikni (qattiqlik, yumshoqlikni) bilish sezgilari va ayrim organlarning ha-rakatini bilish sezgilari kiradi. Bu sezgilarning organlari — gavdamizdagi hamma muskullar, paylar va bo'g'im yuzalaridir. Hamma muskullarda, paylarda va bo'g'imlarda maxsus sezuvchi nervlarning chekka tarmoqlari bor, muskul-harakat sezgilari va statik sezgilar ana shu nerv tarmoqlari yordami bilan hosil bo'ladi. Muskul-harakat sezgilarining tashqi, fizik sababi muskullarimizga ta'sir etuvchi narsalarning mexanik tazyiqi yoki qarshiligi, shuningdek, gavda-mizning harakatlaridir.

Statik sezgilar gavdamizning fazodagi holatini bilish va muvozanat saqlash sezgilari deb ataladi. Gavdaning fazodagi holatini bilish va muvozanat saqlash sezgisi uchun ichki quloqdagi vestibulyar apparat retseptor vazifasini o'taydi.

Organik sezgilar. Ochiqqanda, suvsaganda, ortiq to'yib ketganda, charchaganda, ko'ngil ayniganda, ichki organlarimiz og'riganda ichki sezgilar tug'iladi, bularni **organik sezgilar** deyiladi; kishining o'zini tetik, salomat, kasal his qilish-lari ham organik sezgilar jumlasidandir. Organik sezgilarning ko'pi differensiatsiyalanmagan va betayin bo'ladi. Bu sezgilarning retseptorlari ichki organlarda: qizilo'ngach, me'da, ichak, qon tomirlari, o'pka va shu kabilarda bo'ladi. Yuqorida aytganimizdek, ichki organlarda bo'lib turadigan jarayonlar **organik sezgilar retseptorlarining qo'zg'ovchilaridir.** Ammo ichki organlar salomat bo'lib, sog'lom ishlab turgan vaqtda biz ichki (organik) sezishlarni yo payqamaymiz yoki bu sezgilar o'zimizni umuman «yaxshi» his qilish tetiklik, sog'lomlik va boshqa shu kabi tuyg'ular tarzida ifo-dalanadi.

Birinchi savol bo'yicha nazorat topshiriqlari:

1. Sezgi va sezgi turlari haqida tushunchangizni gapirib bering ?

2. Sezgilarning qonuniyatlarini ko'rib chiqing va qiyosiy solishtiring?
3. Sezgilarning insonlar hayotida ahamiyati bormi ? Tushuntiring ?
4. Interoretseptiv sezgilarni ta'riflang ?
5. Proprioretseptiv sezgilarni ajrating ?
6. Eksterioretseptiv sezgilarni belgilang ?
7.Organik sezgilar haqida fikringizni bayon qiling ?

2. Sezgilarning fiziologik asoslari.

2- savol bo'yicha darsning maqsadi: Sezgilarning fiziologik asoslari haqida ma'lumot berish. Sezgilarning hosil bo'lishini tushuntirish. Sezgilarning chegarasini tushuntirish. Sezgining pastki yoki absolut chegarasini aniqlash.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Sezgilarning fiziologik asoslari haqida ma'lumot beradi.
2. Sezgilarning hosil bo'lishini tushuntirib beradi.
3.Sezgilarning chegarasini tushuntiradi.

Ikkinchi savolning bayoni:

Sezgilar biror-bir sezgi organining qo'zg'alishi natijasida hosil bo'ladi. Ammo qo'zg'ovchi retseptorga ta'sir eta boshlashi bilanoq, darrov sezgi tug'ilavermas ekan: qo'zg'ovchi ta'sir eta boshlagandan bir necha vaqt keyingina sezgi hosil bo'ladi. Turli sezgilarda bu vaqt 0,02 soniyadan 0,1 soniyagacha boradi. Shunday qisqa vaziyatni biz, odatda, payqamaymiz. Sezgi hosil bo'lgach, ma'lum muddat davom etadi. Sezgilar davom etish muddatiga qarab, qisqa va uzoq muddatli sezgilarga bo'linadi. Masalan, yalt etib chaqnagan bir uchqun yorug'ligini sezish yoki erga tushib ketgan qalam tovushini sezish qisqa muddatli sezgilardan hisoblanadi. Kunduzgi yorug'likni sezish, zavodning yangrayotgan gudok ovozini eshitish uzoq muddatli sezgilardandir. Sezgilarning qancha muddat davom etishi tashqaridagi narsalarning sezgi organlariga nechog'li uzoq ta'sir etishiga bog'liq. Narsa ta'sir etib turar ekan, tegishli sezgi ham bo'ladi. Sezgilarning kuchi turli darajada bo'lishi mumkin, boshqacha qilib aytganda kuchsiz va kuchli sezgilar bor. Yonib turgan bir gugurt cho'pi sochib turgan yorug'likni sezish kuchsiz sezgiga, havo ochiq kunda qu-yosh sochib turgan yorug'likni sezish esa kuchli sezgiga misol bo'la oladi. Sezgilarning kuchi avvalo qo'zg'alishning kuchiga bog'liq. Qo'zg'alish qancha kuchli bo'lsa, hosil bo'ladigan sezgi ham shuncha kuchli bo'ladi. Qo'zg'alishning **salgina sezila boshlagan darajasini sezgining pastki yoki absolut chegarasi deyiladi.** Agar shu qo'zg'alish kuchi salgina susaytirilsa ham sezgi yo'qoladi. Sezgi hosil qilmaydigan kuchsiz qo'zg'alishlar sezgi chegarasidan pastda turuvchi qo'zg'alishlar deb ataladi.

Sezgi hosil qiladigan qo'zg'alishning kuchi o'zgarishi, ya'ni ortishi yoki kamayishi mumkin. Qo'zg'alish o'zgarganda sezgi kuchi ham o'zgaradi (oshadi yoki kamayadi). Agar uyda bitta lampochka yonib turgan bo'lsa, muayyan darajada yorug'lik sezamiz. Agar yana bir shunday lampochka yoqib qo'yilsa, yorug'lik sezgisi kuchayadi. Ammo qo'zg'alish kuchining har bir o'zgarishi sezgining kuchini o'zgartira olmas ekan. Sezgilarning kuchi qo'zg'alish muayyan miqdorda oshganda yoki kamaygandagina o'zgarar ekan. Masalan, bir stakan suvda 6 g qand eritsak, muayyan darajada shirin maza sezamiz. Eritilgan shu qandga yana 1 g qand qo'shsak, shirin mazani bilish sezgisi o'zgarmaydi. Shirin mazani bilish sezgisi birmuncha ortishi uchun 6 g qandga yana 2 g qand qo'shish (ya'ni, butun qand miqdorining uchdan biricha qand qo'shish) kerak ekan.

Qo'zg'ovchilar ta'siri o'rtasidagi sezilar-sezilmas salgina farqni sezishni **farq qilish chegarasi** deyiladi.

Qo'zg'alish kuchi shunchalik orta borishi mumkinki, bunda tegishli sezgi o'zining spetsifik sifatini yo'qotadi va og'riq hissiga aylanadi. Chunonchi, haddan tashqari kuchli yorug'lik ko'zda og'riqni keltirib chiqaradi «ko'zni qamashtiradi. Kuchli tovush quloqni og'ritadi. Haddan tashqari og'ir narsa muskullarni og'ritadi.

Qo'zg'alish kuchining o'zgarishi bilan sezgi sifatidagi og'riq tomon (yoqimsiz) ro'y bergan sezilar-sezilmas o'zgarishga **sezgining yuqori chegarasi** deyiladi.

Ikkinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. Sezgilarni fiziologik asoslang ?
2. Sezgilar qanday hosil bo'ladi tushuntirib bering ?
3. Sezgilarning chegarasi nima? Asoslang ?

4. Sezgilarning absolut chegarasi deb nimaga aytiladi ? Ta'riflang ?
5. Sezgining quzg'alish bilan aloqasi nimada deb o'ylaysiz ?

3. Kishi hayotida va uning faoliyatida sezgilarning ahamiyati.

3- savol bo'yicha darsning maqsadi: Kishi hayotida va uning faoliyatida sezgilarning ahamiyatini misollar yordamida tushuntirish. Bolalarda sezgining rivojlanishi va mustahkamlanishini aniqlash.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Kishi hayotida va uning faoliyatida sezgilarning ahamiyatini aniqlaydi.
2.Bolalarda sezgining rivojlanishi va mustahkamlanishini tushuntiradi.

Uchinchi savolning bayoni:

Bola ona qornida 7-9 oylik bo'lgan chog'laridayoq uning barcha sezgi organlari ancha o'sib etilgan bo'ladi. Ammo bundan, bola dunyoga kelgan hamono tevarak-atrofdagi narsalarni katta yoshli kishilar bilan bab-baravar idrok qila olar ekan, degan ma'no kelib chiqmaydi. Bolalarning sezgi organlari tajribaga, tarbiyaga qarab o'sadi, mustahkamlanadi, sezish qobiliyati mukammallashadi. Go'dak bolaning sezgilarini biron qo'zg'ovchiga javoban ko'rsatadigan reaksiyalariga qarab bilib olamiz, xolos. Shu reaksiyalarga qarab, bola hayotining dastlabki kunlaridanoq unda issiq va sovuqni teri sezgisi bilan sezish qobiliyati bor deb aytish mumkin. Tegishga javoban bo'ladigan reaksiyalar ham ancha yaqqol ko'rinadi. Bolada ta'm bilish sezgilari ham bo'ladi: bolada shirin eritmaga (qandga) boshqa, achchiq eritmaga (xininga) boshqa reaksiya bo'ladi.

Bola dunyoga kelgan dastlabki kunlardanoq yorug'likning o'zgarishiga qarab, ko'z qorachig'i torayadi yoki kengayadi. Ammo bola ko'z harakatlarini hali muvofiqlashtira olmaydi (ko'zini tuta olmaydi): bir ko'zi bir tomonga, ikkinchi ko'zning ikkinchi tomonga qarab turishi, bir ko'zini ochib ikkinchi ko'zini yumib yotishi mumkin. Bola har narsaga tikilib tura olmaydi. Bola taxminan ikkinchi oy oxirida narsalarga tikilib qaraydigan bo'ladi; shu vaqtda bola tikilgan narsasi chetga surilsa, uni ko'zlari bilan birinchi marta qidira boshlaydi. Besh oylik bola yorqin ranglarni ancha ayiradigan bo'lib qoladi.

Bola tug'ilgan dastlabki kunlarda hech narsani eshitmaydi. Buning sababi shuki, yangi tug'ilgan bolaning o'rta qulog'iga maxsus modda to'lgan bo'ladi, bu modda tovushning o'tishiga to'sqinlik qiladi. Bu modda birinchi hafta davomida aksari shimilib ketadi, bola tovushga javoban reaksiya ko'rsata boshlaydi. Avvallari bola faqat tovushning kuchiga javob bersa, ikki-uch oyligida tovushning qay tomondan kelayotganligini bila boshlaydi va tovush kelgan tomonga boshini bura boshlaydi. Bolaning tovushlarga sezgirligi o'sa boshlaydi, yoqimli ashula yoki musiqa tovushini eshitganda talpinib suyunadi va aksincha, qattiq tovushlar eshitganda, buni yoqtirmaganligidan chinqiradi.

Bola hayotining dastlabki 3-4 oyida sezgi organlarining hammasi o'z vazifasini o'taydigan bo'lib qoladi; keyinchalik shu organlar o'sadi va farq qilishga doir ***sezgirlik kuchayishi bilan sezgilar bir-biridan*** ajratila boshlaydi. Masalan, bola to'rt yoshligida ko'pgina ranglarni bir-biridan ayiradi. Ikki-uch yashar bolalarda eshitish sezgisi shu qadar o'sadiki, ular ayrim kishilarning ovozlarini va ayrim narsalarning tovushlarini bemalol ayirish bilan birga, murakkab kuylarni ham ayira oladi va eng oddiy kuylarni ayta boshlaydi.

7 yoshdan 10 yoshgacha bolalarda ranglarning tuslarini sezish 45 foiz ortishi, 10 yoshdan 12 yoshgacha bolalarda 65 foizgacha ortishi olimlar-ning maxsus tekshirishlarida aniqlangan. Maktab o'quvchilarini rasmga o'rgatish ranglarni ayirish sezgirligining o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Sezgilarning o'sishi uchun jismoniy tarbiyaning muhim ahamiyati bor.

Uchinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. Sezgilarning o'sishida jismoniy tarbiyaning qanday muhim ahamiyati bor ? Gapirib bering ?
2. Sezgiga ta'rif bering ?

1. Sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib to'rgan narsa va hodisalarning aloxida xususiyatlarini aks ettirishdan iborat jarayonni ajrating.

A. Idrok
V. Sezgi
S. Xotira
D. Xayol

3. Tashki va ichki muhitdan keladigan ta'sirlarni qabul qilib, fiziologik protsess bo'lgan qo'zg'alish nima deyiladi?

nomaliya
V. Analogiya
S. Analizator
D. Animizm
E. Akkomodatsiya
4. Organizmning ichki muhitida sodir bo'layotgan protsesslarni aks ettiruvchi sezgilarni toping.
A. Ekstrotseptiv V. propriotseptiv S. interotseptiv
D. Teri sezgisiE. Muskul sezgisi

4. Sezgilardagi qonuniyatlar.

4- **savol bo'yicha darsning maqsadi:** Talabalarni sezgilardagi qonuniyatlar bilan misollar yordamida tanishtirish. Adaptatsiya va sinesteziyani ta'riflash. Sezgilarning qonuniyatlarini ko'rib chiqib, qiyosiy solishtirish. Sezgilarning insonlar hayotida ahamiyatini belgilash.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Talabalarni sezgilardagi qonuniyatlar bilan tanishtiradi.
2.Adaptatsiya va sinesteziyani ta'riflaydi.
3.Sezgilarning qonuniyatlarini ko'rib chiqadi, qiyosiy solishtiradi. Sezgilarning insonlar hayotida ahamiyatini belgilaydi.

To'rtinchi savolning bayoni:

Sezgi organlarining o'ziga ta'sir etadigan qo'zg'ovchilarga moslanishi, ko'nikishi **adaptatsiya** deb ataladi. Qo'zg'ovchining ta'siri o'zgarishi bilan sezgirlik ham o'zgaradi. Qo'zg'ovchilar sust ta'sir etganda sezgirlik oshadi, kuchli ta'sir etganda sezgirlik kamayadi. Shu sababli, musbat va manfiy adaptatsiya farq qilinadi. Adaptatsiya ko'rish sezgilarida, ayniqsa, yorug' joydan qorong'i joyga kirganda va aksincha qorong'i joydan yorug' joyga chiqqanda yaqqol ko'rinadi. Masalan, yorug' joydan balandroq binoga kirganimizda avvaliga hech narsani ko'rmaymiz. Ko'rish organimiz kuchsiz yorug'likka moslashguncha bir necha vaqt o'tadi. Bu **qorong'ilik adaptatsiyasidir.** Qorong'idan yorug'ga chiqqanda ham ko'rish organlari yorug'likka yana moslashuvi uchun bir necha vaqt (taxminan 4 **daqiqadan** 5 daqiqagacha fursat) kerak. Bu **yorug'lik adaptatsiyasidir.**
Adaptatsiya harorat sezgilarida ham bor. Biz cho'milish uchun suvga tushganimizda yoki dush tagida turganimizda dastlabki paytda suv sovuq-roq tuyuladi, bir necha daqiqadan keyin esa o'sha suv unchalik sovuq sezilmaydi va hatto iliqroq seziladi.
Hid bilish sezgilarida adaptatsiya tezroq boshlanadi. Masalan, biron hidi bor uyga kirganimizda avaliga shu hidni sezamiz, bir necha vaqtdan so'ng hidni sezmay qolamiz.
Adaptatsiya ko'rish, harorat, hid bilish sezgilarida kuchliroq, eshitish va og'riq sezgilarida kamroq bo'ladi. Boshqa sezgi organlari ishlab turganda ayrim sezgi organlarining adaptatsiya jarayoni tezlashuvi mumkin. Masalan, harorat (sovuq), ta'm bilish, muskul retseptorlari va ichki organlardagi retseptorlar ta'sirlanganda ko'rish va eshitish sezgirligi tezroq kuchayadi. Olimlar o'tkazgan bir qancha tajribalar shuni ko'rsatadiki, sovuq suvga latta xo'llab yuz va bo'yinni artganda (issiq faslda), jismoniy tarbiya mashqlariga o'xshash tipdagi engil ishda nafas olish tezlashganda va kuchayganda eshitish va ko'rish sezgirligi oshadi, musbat adaptatsiya tezlashadi. Shunday vositalardan foydalanib, qorong'ilik adaptatsiyasini odatdagidek 40—50 daqiqada emas, balki 5 6 daqiqada tezlatish mumkin.

Sinesteziya

Ba'zi kishilarning sezgilarida sinesteziya degan hodisa ko'riladi. Sinesteziya ikki sezgining yaxlit bir sezgi bo'lib qo'shilishi demakdir. Sinesteziyada sezgilardan birontasi muayyan paytda bevosita ta'sir etuvchi qo'zg'ovchiga ega bo'lmaydi, balki qaytariladi. Sinesteziyaning ko'proq uchraydigan shakli «rangdor eshitish» deb ataladigan hodisadir. Bunda tovush sezgisi (shovqin, ton, musiqali akkord) ko'rish obrazini, ya'ni yorug'lik yoki rang tasavvurini uyg'otadi. Sinesteziya kishilarning taxminan 12 foizida uchraydi, «rangdor eshitish* kishilarning 4 foizida ko'riladi. Sinesteziya hodisalarini ko'rsatadigan ayrim so'zlarni adabiy tildan topish mumkin. Masalan, «istarasi issiq, «basharasi sovuq», «yumshoq ko'ngil», «tosh yurak», «shirin so'z», deb gapiradilar

To'rtinchi savol bo'yicha nazorat topshiriqlari:

1. Sinesteziya hodisasini ta'riflang ?
2. Adaptatsiyani tushuntiring?
1. Sezgilarning umumiy xususiyatlarini sanab bering.

2. Taktil sezgisi va og'riq sezgisi uchun latent davrini ko'rsating va latent davri mohiyatini ochib bering.
A. 100-280 millisekund V. 90-160 millisekund S.130-210 millisekund
D 130-370 millisekund E. 370-210 millisekund
3.Sinesteziya hodisasi fiziologik nuqtai nazardan qanday tushuntiriladi?
4. Adaptatsiya deb nimaga aytiladi?
Adaptatsiya qanday turlarga ajraladi? Adaptatsiya turlarini takkoslang.
5.Absolyut sezgirlik chegarasini sekundomer va chizgichdan foydalanib, kursdoshlaringizdan birida aniqlab bering.

Mavzu bo'yicha asosiy xulosalar:

Sezgilar haqida tushuncha berish. Sezgi turlarini ajratish. Sezgilarning qonuniyatlarini ko'rib chiqib, qiyosiy solishtirish. Sezgilarning o'sishini tekshirish. Sezgilarning fiziologik asoslarini o'rgatish. Kishi hayotida va uning faoliyatida sezgilarning ahamiyatini belgilash. Sezgilardagi qonuniyatlarni o'qish.

5- mavzu: Idrok.

Asosiy savollar.
1.Idrok. Idrok – ish-harakat tariqasida.
2.Idrokning konstantligi.
3.Idrok turlari. Ranglarni idrok qilish. Fazoni va harakatni idrok qilish . Vaqtni idrok qilish. Predmetli yaqqol obrazlarni yaratish.
4.Illyuziya va gallyutsinatsiya.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va so'zlar: appersepsiya, konstantlik, illuziyalar, gallyutsinatsiya, predmetli, idrokning yaxlitligi, strukturalilik, idrokning predmetliligi, yaxlitligi, strukturaliligi, barqarorligi, anglanganligi, konstantligi, appertseptsiya, ko'rish, eshitish, paypaslab ko'rish, kinestezik, xidlash va ta'm bilish idroki. Binokulyar ko'rish.

Mavzuga oid muammolar:

Tashqi muhitni qay tarzda aks ettirish idrok jarayoniga misol bo'la oladi?
Nima uchun idrok hissiy bilish jarayoniga kiritiladi? Fikringizni asoslang.
Predmetlarning vaqt va makondagi o'rnini aks ettirish mumkinmi? Harakatni aks ettirish imkoniyati mavjudmi? Illuziyani qanday izohlaysiz? Misollar bilan tushuntiring. Idrok turlarini har birini alohida ta'riflab tushuntirib bera olasizmi? Illyuziya va gallyutsinatsiya hodisalarini bir-birlaridan farqini tushuntirib bering? Sizningcha yo'q narsalarni, tashqi ta'sirotsiz «idrok qilinishi qaysi hodisa hisoblanadi? Misollar bilan tushuntiring.

1. Idrok. Idrok – ish-harakat tariqasida.

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Idrok haqida talabalarga tushuncha berish. Idrok turlarini aniqlaydi. moddiy bog'liq shakli sifatida, barcha boshqa realliklar kabi idrok qilinishini ta'riflash.

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Idrok haqida talabalarga tushuncha beradi.
2. Idrok turlarini aniqlaydi.
3.Makon va zamon moddiy bog'liq shakli sifatida, barcha boshqa realliklar kabi idrok qilinishini ta'riflaydi**.**

Birinchi savolning bayoni.

Idrok sezgi a'zolarimizga ta'sir qilib turgan narsalarning ongda bevosita aks etishidir. Biz narsa va hodisalarni yaxlit holicha idrok qilamiz, narsalarning ayrim xossalarini esa sezamiz. Masalan, quyoshni biz idrok qilamiz, uning yorug'ini esa sezamiz, og'zimizdagi chaqmoq qandni idrok qilamiz, uning shirinligini esa sezamiz. Ammo xossa va narsa bir-biridan ajralmasdir, shu sababli narsalarni idrok qilish ham sezgilardan ajralgan holda voqe bo'lishi mumkin emas. Biz bir nar-sani idrok qilayotganimizda uning ayrim xossalarini ham sezamiz.
Biror narsaning o'zini idrok qilmasdan hosil bo'ladigan sezgilar yangi tug'ilgan chaqaloq hayotining dastlabki kunlaridagina mavjud bo'ladi. chaqaloq narsaning o'zini idrok qila bilmasa ham undan hosil bo'ladigan sezgilarni ajratadi, masalan, yorug' va qorong'ini, shirin va nordonni

sezadi. Sezgilar, odatda sodda, elementar psixik jarayonlar hisoblanadi, idrok esa murakkab psixik jarayondir. Biz idrok qilayotgan narsalar g'oyatda xilma-xildir. Bular jumlasiga, avvalo turli buyumlar, binolar, daraxtlar, jihozlar, texnika buyumlari va hokazolar kiradi. Biz musiqa, surat, rasm va boshqa san'at asarlarini idrok qilamiz. Odamning hayotida nutqni og'zaki va yozma nutqni idrok qilish eng katta va muhim o'rin tutadi.

Masalan, stolni idrok qilayotganimizda biz uning joyini, atrofini o'rab olgan stullarni, shu paytda radiodan eshitilayotgan musiqani ham idrok qilamiz, xona ichidagi radio-priyomnikni ham, kishilarni ham bir vaqtda ko'ramiz.

Biz narsa va hodisalarni makon va zamon sharoitida idrok qilamiz. **Ma**kon va zamon moddiy bog'liq shakli sifatida, barcha boshqa **realliklar kabi** idrok qilinadi. Buning ma'nosi shuki, biz narsalarni, ularga xos bo'**lgan fazodagi** shakllari (kub, uchburchak, doira va'hokazo shakllari)ga, **fazodagi** katta-kichikligi (katta, kichkina, mayda va hokazo)ga, fazodagi munosabatlari (bir-biriga va bizga nisbatan yaqin, uzoq, chap, o'ng tomonda, yuqori va past turishlari)ga qarab idrok qilamiz, ular tinch yoki harakat holatlarida idrok qilinadi. Biz idrok qilib turgan narsa va hodisalarni ma'lum vaqt (zamon) davomida paydo bo'lish va o'zgarib borishlarida idrok qilamiz.

Idrokda idrok jarayonini, ya'ni ongimizning bevosita aks ettiruvchi faoliyatini va narsalarni idrok qilish (aks ettirish)dan hosil bo'ladigan subektiv obrazni bir-biridan farq qilish lozim.

Birinchi savol bo'yicha nazorat topshiriqlari:

1. Narsa va hodisalarni oldindan belgilangan muayyan maqsadsiz idrok qilish

A) Ixtiyorsiz diqqat.

V)Ixtiyorsiz xayol.

S) Ixtiyorsiz idrok.

D) Ixtiyorsiz esda qoldirish.

E) Ixtiyorsiz tafakkur.

3. Idrok xususiyatlarini birma-bir nomlang va har birining o'ziga xos tomonlarini ochib bering.

4. Idrokning fiziologik asoslarini qaysi olimlar o'rganishgan va ularning ta'rifi bo'yicha idrokning nerv-fiziologik mexanizmi qanday amalga oshadi? Izohlang.

2. Idrokning konstantligi.

2- savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga idrokning konstantligi haqida ma'lumot berish. Konstantlik hodisasini ta'riflash. Idrokning konstantligi odamlarning tajribasi jarayonida, amaliy faoliyatida vujudga kelishini va mustahkamlanishini isbotlab berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1.Idrokning konstantligi haqida ma'lumot beradi.

2.Konstantlik hodisasini ta'riflaydi.

3. Idrokning konstantligi odamning tajribasi jarayonida, amaliy faoliyatida vujudga kelib, mustahkamlanishini isbotlaydi.

Ikkinchi savolning bayoni:

Idrokning konstantligi shundan iboratki, bironta narsani idrok qilishdan hosil bo'lgan obraz, idrokning fizik sharoiti o'zgarib tursa ham, doimo shu obraz holicha qolaveradi. Idrokning konstantligi ko'rish idroklarida, narsalarning katta-kichikligini ularning shakli va ranglarini idrok qilishda, ayniqsa, yaqqol ko'rinadi. Bizga ma'lumki, biror narsadan uzoqlashsak, uning ko'zimiz to'r pardasidagi surati (aksi) kichrayadi, ammo shu narsaning obrazi bu bilan o'zgarmaydi, o'zgarganda ham bilinar-bilinmas o'zgaradi. To'g'ri burchakli stol bizdan 1 ***m*** yoki 10 ***m*** uzoqrog'da tursa ham biz unga to'g'ridan yoki yondan qarasak ham, uning kattaligi va shaklining aksi ko'z to'r pardasida har safar o'zgarib turishiga qaramay, baribir hamisha o'z shakli va katta-kichikligini o'zgartirmagandek, boyagicha idrok qilinaveradi.

Konstantlik hodisasi shuni ko'rsatadiki, biz narsalarni ko'rib turgan paytimizda, ularning ko'z to'r pardasiga tushgan suratiga aynan muvofiq holda ko'rmay, balki shu narsalar haqiqatda qanday mayjud bo'lsa, shu holda ko'ramiz.

Idrokning konstantligi odamning tajribasi jarayonida, amaliy faoliyatida vujudga kelib, mustahkamlanadi.

Konstantlik hodisasi voqelikni bilishda, tevarak-atrofdagi muhitni fahmlab, kunda amaliy ish ko'rishda juda katta ahamiyatga egadir. Idrokimizda konstantlik bo'lmaganida edi, biz har bir qimirlashimizda, boshimizni salgina burganimizda, yorug'lik o'zgarib turganida, narsalar o'z

joylaridan andakkina siljiganida ham xuddi shu narsalarni har gal butunlay boshqa-boshqa, yangi notanish narsalardek idrok qilardik, biz hatto o'z narsalarimizni ham ulardan hatto yarim metr uzoqlashgan taqdirda, taniy olmasdik.

Ikkinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. Binokulyar ko'rishning predmetni idrok etishdagi o'rnini aniqlang ?
2. Predmetlarning fazodagi o'rnini to'la aniq idrok etish qanday omillarga bog'liq deb o'ylaysiz?
3. Idrokning konstantligi deganda nimani tushunasiz? Fikringizni asoslang.

Idrok turlari. Ranglarni idrok qilish. Fazoni va harakatni idrok qilish . Vaqtni idrok qilish. Predmetli yaqqol obrazlarni yaratish.

3- savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarni idrok turlari bilan tashishtirish. Idrok turlarini ta'riflash. Ranglarni idrok qilishni tushuntirish. Fazoni va harakatni idrok qilishni belgilash . Vaqtni idrok qilishni ajratish. Predmetli yaqqol obrazlarni yaratishni khrib chiqish.

Identiv o'quv maqsadi:

Idrok turlarini sanaydi. Ranglarni idrok qilishni o'rgatadi. Fazoni va harakatni idrok qilishni tekshiradi . Vaqtni idrok qilishni ko'rsatadi. Predmetli yaqqol obrazlarni yaratishni asoslaydi.

Uchinchi savolning bayoni:

Idrok ham ixtiyorsiz va ixtiyoriy bo'lishi mumkin.

Muayyan bir obektni oldindan maqsad qilib olmasdan va maxsus tanlanmasdan, kuch sarf etmasdan idrok qilish jarayoni **ixtiyorsiz idrok** deb ataladi. Bunday idrok jarayonlari diqqatimizni beixtiyor o'ziga jalb qilayotgan obektlarning ta'siri bilan qo'zg'aladi; masalan, biz uzoqdan kelayotgan poezd ovozini beixtiyor eshitamiz, tunda qirda yonayotgan alangani uzoqdan beixtiyor ko'ramiz. O'zining yorug'ligi, rang-barangligi, harakati, xushohangligi, bilan ajralib turadigan narsa yoki hodisalar, odatda, beixtiyor idrok qilinadi, shuningdek, ayni vaqtda bironta ehtiyoj va manfaatimizga javob beradigan, shaxsiy tajriba va bilimlarimizga eng ko'p darajada muvofiq keladigan va biz uchun g'oyat katta ahamiyati bo'lgan obektlar ham beixtiyor idrok qilinadi. Ixtiyorsiz idrok tetik, bardam vaqtimizda bizda to'xtovsiz bo'lib turadigan jarayondir.

Oldin belgilangan maqsadga qarab muayyan bir obektni idrok qilishni **ixtiyoriy idrok** deb ataladi. Badiiy bir rasmni ko'rish, dokladni e'tibor bilan eshitish, yozma ishlardagi imlo xatolarini chizib o'tish, ko'pchilik orasida o'zimiz qidirgan bir shaxsni topib ajratish ixtiyoriy idrokka misol bo'la oladi. Ixtiyoriy idrok ixtiyorsiz idrokdan ayrilgan holda bo'ladigan jarayon emas. Ixtiyorsiz idrok ixtiyoriy idrok uchun «fon» bo'lib xizmat qiladi.

Fazoni idrok qilish deganda narsalarning fazodagi shakllarini, ularning fazodagi katta-kichikligini va o'zaro munosabatlarini ko'zda tutiladi. Ma'lumki, fazodagi shakllariga qarab, uch burchakli, to'rt burchakli, kub, va shu kabi shakldagi narsalar ajratiladi.

Fazoni biz bir ko'zimiz bilan ham ko'rib, ya'ni monokulyar, ikki ko'zimiz bilan ham ko'rib, ya'ni binokulyar idrok qilamiz. Monokulyar idrok quyidagicha voqe bo'ladi. Biz ko'z bilan qaraganimizda, biz shu narsadan aks etgan nurlar ko'z gavharida sinib, ko'zning to'r pardasi (setchatka)da shu narsaning aks etgan surati fotoapparatdagiga o'xshab, to'nkarilib, teskari tushadi. Ammo bunga qaramasdan, biz narsani haqiqiy holatida, haqiqiy shakli va katta-kichikligida ko'ramiz, idrok qilamiz Narsaning chetlaridagi nuqtalaridan aks etgan nurlar ko'z gavharida bir-birini kesib o'tadi va ularning kesilish joyida ko'rish burchagi hosil bo'ladi. Bu burchakning katta-kichikligi idrok qilinayotgan narsaning katta-kichikligiga hamda uning ko'zdan qanchalik uzoq-yaqin turganiga bog'liq bo'ladi. Fazoni (monokulyar ko'rish yo'li bilan) bir ko'z bilan etarli darajada aniq va mukammal ko'rib bo'lmaydi. Obektiv dunyo hodisalarini aks ettiradigan idrok, tassavur, fikr va hokazolardan iborat bo'lgan bizdagi subektiv, psixik hodisalar vaqt davomida paydo bo'ladi, o'zgarib va almashib turadi. Harakatni idrok qilish ayni zamonda ham fazoni, ham vaqtni idrok qilish demakdir.Masalan, yurayotgan mashinani ko'rib turar ekanmiz, biz ayni vaqtda uning bizga nisbatan joyini ham va biror nuqtaga nisbatan masofasi o'zgargan (yaqinlashgan yoki uzoqlashgan) vaqtini ham idrok qilamiz. Idrok qilinayotgan harakatning tezligi shu narsa harakatining obektiv (haqiqiy) tezligiga hamisha teng baravar bo'lavermaydi. Ayni bir xildagi

harakat tezligi, vaziyatga qarab, har xil idrok qilinishi mumkin: goho ildamroq, goho

sekinlashgandek ko'rinadi. Tanamizga bevosita tegib turgan narsalarning harakatini biz teri sezgisi, muskul va ko'ruv organlari vositasi bilan idrok qilamiz.
Harakatni ko'z bilan ko'rib idrok etish ikki xil usul bilan: birinchidan, harakatda bo'lgan narsaga ko'zni uzmasdan qaraganda uning surati ko'z to'r pardasida hosil bo'ladi, ikkinchidan, ko'zimizni harakatda bo'lgan narsa tomon yuritish, harakatini kuzatib borish bilan voqe bo'ladi. Odatda, harakat ana shu ikkala usul bilan bir yo'la idrok qilinadi.

Uchinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. Nima uchun idrok harakat sifatida deyiladi? Fikrlaringizni asoslang.
2. Kuzatuvchanlik - ixtiyoriy idrok etishning sharti sifatida. Kuzatuvchanlikka psixologik ta'rif bering va shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini ko'rsating.
3. Fazo qanday idrok qilinadi? Bunda binokulyar ko'rishning ahamiyati nimada ?
4. Ko'zlarning turli olislikdagi narsalarni aniq-ravshan ko'rishga moslashuvi qanday nomlanadi?

A. Akkomodatsiya, konvergentsiya
V. akkomodatsiya, adaptatsiya
S.konvergentsiya, appertseptsiya
D, adaptatsiya, sinesteziya
E. Appertseptsiya, applikatsiya

5. Idrok turlarini sanang ?

Illyuziya va gallyutsinatsiya.

4- **savol bo'yicha darsning maqsadi:** Talabalarni illyuziya va gallyutsinatsiya bilan misollar yordamida tanishtirish. Illyuziya va gallyutsinatsiya hodisasini ta'riflash. Aristotel (Arastu) illuziyasini tushuntirish.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Talabalarni illyuziya va gallyutsinatsiya bilan tanishtiradi.
2. Illyuziya va gallyutsinatsiyani ta'riflaydi.
3. Aristotel (Arastu) illuziyasini tushuntiradi.

To'rtinchi savolning bayoni:

Ba'zi hollarda narsalar noto'g'ri, yanglish idrok qilinishi mumkin. Narsalarni bu tariqa noto'g'ri idrok qilishni **illuziya** deb ataladi. Masalan, agar biz ko'rsatkich va o'rta barmog'imizni chalishtirib, no'xat yoki bironta dumaloq narsani chalishtirilgan ikkala barmog'imizning uchi bilan bosib turib, ayni bir vaqtda aylantiraversak (biz no'xatni aylantiraylik), barmoqlarimiz tagida bitta emas, balki ikki no'xat bordek his qilamiz. Ana shu holda bir narsaning ikki bo'lib sezilishini Aristotel (Arastu) illuziyasi deyiladi. Og'irligi aynan teng, ammo kattaligi har xil bo'lgan ikki buyumni ketma-ketiga ushlab turilsa, kattasi engilroq, ikkinchisi og'irroqdek tuyuladi. Metalldan ishlangan 1 *kg* tarozi toshi, 1 *kg* paxtadan og'irroqdek his qilinadi. Bu hol geometrik illuziyalar deb nom berilgan illuziyalarda, ayniqsa, yaqqol ko'rinadi. **Masa**lan, uzunligi baravar bo'lgan ikki chiziqning chetlariga ikki xil **burchaklar** chizilsa, illuziya paydo bo'ladi, ya'ni burchaklari tashqariga **qaratilgan** chiziqqa nisbatan burchaklari ichkari tomonga qaratilgan chiziq kaltaroq bo'lib ko'rinadi.
Idrok qilib turgan shaxsning psixikasida ro'y beradigan o'zgarishlar bilan tug'iladigan tasodifiy illuziyalar ham bo'ladi. Masalan, cho'lda suvsagan kishi uzoqda yarqirab turgan sho'rxok erni ko'l deb o'ylashi (lekin bu illuziyani sahrodagi sarobdan farq qila bilish kerak) yoki o'rmondagi to'nka odamning ko'ziga bironta yirtqich hayvonga o'xshab ko'rinishi va hokazo shu kabi illuziyalar jumlasidandir.
Illuziyani gollutsinatsiyadan farq qilish lozim. **Illuziya** shu onda sezgi organlarimizga ta'sir qilib turgan bir narsani yanglish, noto'g'ri idrok qilish bo'lsa, **gollutsinatsiya** yo'q narsalarni, tashqi ta'sirotsiz «idrok qilinishidir»: o'rni tagida yo'q narsaning ko'zga bordek ko'rinishi, yo'q ovozlarning quloqqa eshitilishi, yo'q narsalarning isi dimoqqa urilishi va boshqa shu kabilar gollutsinatsiya mahsulidir. Gollutsinatsiya shaxsning go'yo biror narsani ko'rgandek, eshitgandek, ushlagandek, va boshqa shu kabi tasavuridir, xolos. Gollutsinatsiya ko'pincha kasallikdan darak beruvchi alomatdir, u nerv sistemasi bironta zaharli narsa (alkogol, kokain, nasha) bilan ta'sirlanganda, nerv sistemasini buzadigan kasalliklar oqibatida ro'y beradi.

To'rtinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. Idrok qilib turgan shaxsning psixikasida ro'y beradigan o'zgarishlar bilan tug'iladigan tasodifiy illuziyalar qanday illuzi deyiladi ? Tushuntiring ?
2. Illyuziya va gallyutsinatsiya hodisalarini o'rganib, qiyosiy solishtiring ?
3. Idrok ish-harakat doirasida ekanligini isbotlang ?
4. Idrokning individual xususiyatlarini ajrating ?.

Mavzu bo'yicha asosiy xulosalar:

Idrok. Idrok – ish-harakat tariqasida ekanligini tushuntirish. Idrokning konstantligini tekshirish. Idrok turlarini sanash. Ranglarni idrok qilishni, fazoni va harakatni idrok qilishni, vaqtni idrok qilishni predmetli yaqqol obrazlarni yaratishni ko'rib chiqish. Illyuziya va gallyutsinatsiyani aniqlash.

6- mavzu: Xotira

Asosiy savollar.

1.Xotira va xotira turlari.
2.Xotira jarayonlari.
3. Xotiraning inson hayotidagi o'rni.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Anterograd, retrograd, anteroretrograd, amneziya, miya izlari harakat yoki motor harakat xotirasi,
obrazli xotira, his-tuyg'u yoki hissiyot xotirasi, so'z-mantiq xotira, ixtiyorsiz, ixtiyoriy, mexanik, qisqa muddatli xotira, uzoq muddatli, operativ (tezkor) xotira, musiqiy, eshitish xotirasi, fenomenal, kasbiy.

Mavzu bo'yicha asosiy muammolar

Xotirani qanday izohlaysiz? Misollar bilan tushuntiring. Xotira turlarini har birini alohida ta'riflab tushuntirib bera olasizmi? Uzoq muddatli va qisqa muddatli xotirani bir-birlaridan farqini tushuntirib bering? Misollar bilan tushuntiring. Xotira nazariyalarini asoslang.

1. Xotira va xotira turlari.

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Xotira haqida tushuncha berish. Xotira turlarini aniqlash. Xotira jarayonlarini tekshirib, qiyosiy solishtirish. Xotiraning o'sishini tajribalarda kuzatish. Xotirani o'qish faoliyatida o'stirishning vazifalari va uning shart-sharoitlarini belgilash.

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Xotirani talabalarga tushuntiradi.
2. Xotira nazariyalarini ko'rib chiqadi.
3. Xotira turlarini ajratadi.
4. Xotira turlarini aniqlab, qiyosiy solishtiradi.

Birinchi savolning bayoni.

Ongimizda aks ettirgan narsalarni mustahkamlash, saqlab qolish va keyinchalik tiklash (esga tushirish) dan iborat bo'lgan aqliy faoliyat xotira deyiladi.
Umumiy psixologiyada xotira 5 ta muhim mezonga muvofiq ravishda turlarga, ko'rinishlarga ajratiladi:
Ruhiy faoliyatning faolligiga ko'ra xotira quyidagi turlarga bo'linadi:
a) harakat yoki motor harakat xotirasi;
b) obrazli xotira;
v) his-tuyg'u yoki hissiyot xotirasi;
g) so'z-mantiq xotira.

Ruhiy faoliyatning maqsadiga binoan;
a) ixtiyorsiz, b)ixtiyoriy, v) mexanik.
Ruhiy faoliyatning davomiyligiga ko'ra:
a) qisqa muddatli xotira;
b) uzoq muddatli;
v) operativ (tezkor) xotira.
Ruhiy faoliyat qo'zg'atuvchisining sifatiga ko'ra:

a) musiqiy, b) eshitish xotirasi.
Ruhiy faoliyatning inson yo'nalishiga qarab:
a) fenomenal, b) kasbiy.
Obraz xotirasi – yaqqol mazmunni, ya'ni narsa va hodisalarning aniq obrazlarini, ularning yorqin xususiyati va bog'lanishlarini esda qoldirish, mustahkamlash hamda esga tushirishdan iborat xotira turi. Obraz xotirasi analizatorlarning (tashqi va ichki muhitdan keladigan taassurotlarni qabul qilib, fiziologik jarayon hisoblangan qo'zg'alishni ruhiy jarayonga aylantiruvchi asab mexanizmlari tizimi) nomiga ko'ra ko'ruv, eshituv, teri sezgisi kabi turlarga bo'linadi.
Harakat xotirasi - turli harakatlarni, ularning bajarilish tartibi, tezligi, sur'ati, izchilligi va boshqa sifatlarini esda qoldirish, mustahkamlash hamda esga tushirishdan iborat turi. Harakatni esga tushirish shu harakatni bevosita bajarish yoki tasavvur qilish orqali sodir bo'ladi.
Mantiq xotirasi - ma'lum g'oyalar, fikrlar, hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni esda qoldirish, mustahkamlash va zarur paytlarda esga tushirishdan iborat bo'lgan xotira turi. Masalan, falsafiy mushohadalar, qonuniyatlar va shu kabilarning esda qoldirish, mustahkamlash va qayta tiklash jarayonlaridir. Mexanik (grek. ongga yo'naltirilmagan) xotira - muayyan materialni uning mazmuni, mohiyati, ichki mantiqiy bog'lanishlariga tushunmagan holda, faqat muhim bo'lmagan tashqi belgilariga asoslanib esda qoldirish, mustahkamlash va esga tushirishdan iborat xotira turi.
Musiqa xotirasi - avval idrok qilingan musiqa obrazlarini esda qoldirish, mustahkamlash va keyinchalik ularni qayta esga tushirishdan iborat xotira turi.
Kasbiy xotira - bevosita o'z kasbiga doir narsa va hodisalarni, fikr, mulohaza, hissiyot, harakatlarni esda qoldirish, mustahkamlash va esga tushirishdan iborat xotira turi. Masalan, o'qituvchi talaba hamda o'quvchilarning psixik xususiyatlarini, o'z faniga oid qoida va qonuniyatlarini; davlat avtomobil nazorati xodimlari ko'proq avtomashinalarning raqamlari va tuslarini; sportchi o'z sohasiga taalluqli xatti-harakatlar, musobaqalar ko'rigini, hamkasblarini esda qoldirish va esga tushirishga moyildirlar.
Fenomenal (gr. – noyob) xotira - idrok qilingan narsa va hodisalarni, ularning bog'lanishi munosabatlarini favqulodda tez hamda aniq esda qoldirish va esga tushirishga qaratilgan nodir qobiliyati.
E**shitish xotirasi** - tovush qo'zg'atuvchilarini sezish, idrok qilish natijasida hosil bo'lgan eshitish obrazlarini esda qoldirish, mustahkamlash va esga tushirishdan iborat xotira turi.
Esda qoldirish - idrok qilingan materiallarni, narsa va hodisalarni ongimizda qoldirishdan iborat xotira jarayoni.
Tezkor (operativ. lot. operativ-tezkor) xotira inson tomonidan bevosita amalga oshiriladigan ko'z harakatlari, aqliy harakatlar uchun xizmat qiluvchi xotira jarayonidan iboratdir. Masalan, matematik amalni bajarishga kirishar ekanmiz, biz uni bo'laklarga ajratib bajarishga kirishamiz;
qisqa muddatli xotira - bir marta, shuningdek, qisqa vaqt oralig'ida idrok qilish hamda shu kezdayoq qayta tiklashdan iborat bo'lib, qisqa muddatli esda olib qolish bilan tavsiflanadi. Axborotning saqlanishi 30 sekundgacha bo'lishi mumkin.
Uzoq muddatli xotira - ko'p martalab takrorlash va qayta tiklashlar orqali uzoq vaqt, muddat esda olib qolishga mo'ljallangan xotira turi.

Birinchi savol bo'yicha nazorat topshiriqlari:

1. Xotira haqida umumiy tushunchangizni bayon qiling ?
2. Xotiraning neyrofiziologik asoslarini tushuntiring ?
3. Xotira turlarini psixologik tavsiflang ?
4. Esda olib qolish turlari haqida mushohadalaringizni bildiring ?
5. Esga tushirishning psixologik mohiyatini yoriting ?
6. Xotira mahsuldorligini oshirish yo'l va vositalarini izohlang ?
7. Insonda xotiraning rivojlanishini tavsiflang ?

2. Xotira jarayonlari.

2-savol bo'yicha darsning maqsadi: Xotira jarayonlari haqida ma'lumot berish. .Asab tizimida izlarning saqlanishini tushuntish. Izlarning «konsolidatsiyalanish» jarayonini kuzatish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Xotira jarayonlari haqida ma'lumot beradi.
2.Asab tizimida izlarning saqlanishini tushuntiradi.

3.Izlarning «konsolidatsiyalanish» jarayonini kuzatadi.

Ikkinchi savolning bayoni:

Asab tizimida izlarning saqlanishi

qo'zg'atuvchi ta'siri ostida hosil qilingan izlarning uzoq muddat saqlanish hodisasining hayvonot olamini taraqqiyoti jarayonida namoyon bo'lish xususiyati tadqiqotchilar tomonidan tekshirilgan va muayyan darajada ma'lumotlar to'plash imkoniyatiga ega bo'lganlar.

Tajribada aniqlanishicha, poliplarning (meduzaga o'xshash jonivorlar) asab tizimiga bir marotaba elektr toki bilan ta'sir qilish orqali qo'zg'atishni vujudga keltirish bir necha soat davomida saqlanib qoluvchi ritmik elektr impulslarini hosil qiladi. Hayvonot olami yirik namoyandalarining markaziy asab tizimini tadqiqot qilish davomida xuddi shunga o'xshash hodisa qayd qilingan. Masalan, bir marotaba birdaniga elektr lampochkasini yoqish bilan qo'zg'atish orqali uy quyonning yuqori ikki do'ngligida uzoq muddat qayd etish mumkin bo'lgan ritmik elektr razryadlarini hosil qiladi.

1. Izlarning «konsolidatsiyalanish» jarayoni.

Insonning bosh miyasi jarohatlanganda, jarohatgacha bo'lgan qisqa vaqt ichida va jarohatdan keyin ma'lum vaqt oralig'ida ta'sir qilgan qo'zg'ovchilarning izi saqlanmaydi. Bosh suyagi og'ir jarohatlanib, odam xushidan ketganda, shikastlangangacha qanday hodisa ro'y berganligini va undan so'ng ro'y bergan hodisani sira eslay olmaydi. Bu hol anterograd, retrograd va anteroretrograd amneziyasi degan nom olgan. Bu holat shuni ko'rsatadiki, nerv tizimiga ro'y bergan kuchli shok (ruhiy og'ir favquloddagi xastalanish) miya ma'lum muddatga unga etib kelgan qo'zg'atuvchilarning izlarini saqlashga qobiliyatsiz qilib qo'yadi.

Anterograd, retrograd va anteroretrograd amneziya miya izlarini esda olib qolishga qobiliyatsiz bo'lib qolgan vaqt oralig'ini o'lchash imkonini berdi. Masalan, 78-km da halokatga (avriyaga) uchragan mototsiklchi 64-km dan boshlab ko'rgan barcha narsalarni esdan chiqaradi. U soatiga 60 km tezlik bilan ketayotganligi sababli halokatdan 10-15 minut oldin ro'y bergan taassurotlarning izlarini mustahkam saqlab qola olmagan. Demak, izlarning xotirada mustahkamlanishi yoki psixologiyada aytilganidek, «konsalidatsiya»lanish uchun 10-15 minut kifoya qilar ekan, xolos.

Shunga o'xshash omillar asosida maxsus tajribalar o'tkazilib, bunda sinaluvchilarga sun'iy kuchsiz shok beriladi va qanday muddat oralig'i xotiradan tushib qolishi kuzatiladi.

Psixolog Fedor Dmitrievich Gorbovning tajribalari bunga yaqqol misol bo'la oladi: unda sinaluvchilar belgilar (4, 1, -8, 5) o'tib turadi. Sinaluvchilar berilgan sonni ilgari natijaga qo'shib yoki undan ayirib, arifmetik operatsiyalarni bajarishlari zarur edi. Albatta, misollarni echish davomida sinaluvchi xotirasida ilgarigi natijalarni saqlash kerak edi. Favqulodda «birdaniga» sinaluvchiga keskin yorug'lik chaqnashi ko'rinishida «shok» beriladi.

Tajribalarning ko'rsatishicha, bunday hollarda tekshiriluvchilar hozirgina olingan natijani eslaridan chiqarib qo'yib, hisobni oxirgisidan emas, balki oldingisidan davom ettirdilar. Tajribalr shuni ko'rsatdiki, kuchsizgina shok ungacha bo'lgan izlarni o'chirar va izlarning «konsalidatsiya»lanishi uchun zarur bo'lgan sharoitga to'sqinlik qilar ekan.

Yuqoridagi kuzatishlar shunday fikrlar olib keldiki, izlarning mustahkamlanishi uchun muayyan vaqt talab qilinadi va ushbu faktni tekshirish uchun psixologiyada qator tadqiqotlar o'tkazila boshlandi.

Ikkinchi savol bo'yicha nazorat topshiriqlari:

1. Xotira to'g'risida umumiy tushuncha.
2. Xotiraning moddiy asoslari va mexanizmlari haqida mulohazalar.
3. Xotira turlari mohiyati va ularning rivojlanishi.
4. Xotira jarayonlarining psixologik tahlili va talqini.
5. Xotira sifatlari yuzasidan mushohadalar.
6. Xotira patologiyasi va korrektsiyasi.

3. Xotiraning inson hayotidagi o'rni.

3-savol bo'yicha darsning maqsadi: Xotiraning inson hayotidagi o'rnini va ahamiyatini tushuntirish, Ta'lim ishlarida xotiraning ahamiyatini aniqlash. Fan asoslarini o'qib o'rganishda xotiraning o'rnini belgilash.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Xotiraning inson hayotidagi o'rnini va ahamiyatini tushuntiradi.
2. Ta'lim ishlarida xotiraning ahamiyatini aniqlaydi.

Uchinchi savolning bayoni:

Xotira tufayli ongimizda faqat hozirgi paytdagi narsalar, hodisalar aks etib qolmay, balki o'tmishda idrok qilingan narsa va hodisalar, kechirgan tuyg'u, fikrlar ham aks etadi. Odam xotira tufayli malaka va ko'nikmalar hosil qiladi, bilimini boyitadi va saviyasini kengaytiradi. Xotira boshqa psixik jarayon-larning faoliyati va taraqqiysi uchun katta ahamiyatga egadir.

Xotira inson faoliyatining hamma xillarida ancha muhim rol o'ynaydi. Hatto yosh bolalar ham agar ularda ba'zi bir bilim, ko'nikma va malaka-lar bo'lsagina o'ynay oladilar, bo'lmasa o'ynay olmaydilar. Har qanday mehnat xoh jismoniy, xoh aqliy mehnat zarur bilim, malaka va ko'nikmalar mavjud bo'lganidagina amalga oshmog'i mumkin.

Xotiraning ahamiyati ta'lim ishlarida, ayniqsa, yaqqol ko'rinadi.

Maktabdagi ta'lim ishlarining eng birinchi va asosiy vazifasi o'quvchilarni fanlar asosi bilimi bilan qurollantirish, boyitishdir. Xotirada mukammal bilmay turib fan asoslarini o'qib olish mumkin emas. Maktablarda ta'lim ishlari shunday yo'lga qo'yilmog'i kerakki, o'quvchilarga o'qitilayotgan material ularning xotirasida mustahkam saqlanib qoladigan bo'lsin. Shu sababdan, o'qituvchi ta'lim jarayonida o'z o'quvchilarini o'rganib, har bir o'quvchisini yaxshi bilishi, jumladan, har bir o'quvchisining xotirasi qanday ekanligini, bu xotiraning qanday o'sib borayotganligini, xotira-ning o'sishiga nimalar sabab bo'layotganini va o'quvchilarning xotirasini maktab ta'limi ishlari jarayonida qanday yo'l va vositalar bilan o'stirish kerakligini bilmog'i lozim.

Uchinchi savol uchun nazorat savollari:

1.Xotira haqida umumiy tushunchangizni bayon qiling.
2.Xotiraning fiziologik asoslarini tushuntirib bering.
3.Xotira turlarining psixologik tavsiflang.
4.Esda olib qolish turlari haqida mushohadalaringizni bildiring.
5.Esga tushirishning psixologik mohiyatini yoriting.
6.Xotira mahsuldorligini oshirish yo'l va vositalarini so'zlab bering.
7.Insonda xotiraning rivojlanishini misollar yordamida tushuntiring.

Mavzu bo'yicha asosiy xulosalar:

Xotira va xotira nazariyalarini tushuntirish. Xotira jarayonlarini kuzatish.

3.Xotira turlarini sanash. Xotiraning individual psixologik farqlarini ajratish. Xotiraning faoliyat, diqqat, va tafakkur bilan o'zaro bog'liqligini aniqlash. P.P.Blonskiy ta'limotini o'qib-o'rganish.

7- mavzu: Xayol.

Asosiy savollar.

1.Xayol. Xayol to'g'risida tushuncha.
2.Xayol va muammoli vaziyat. Xayol turlari.
3.Xayol jarayonlarida analitik-sintetik faoliyat.
4.Bolalarning o'yin va kattalarning ijodiy faoliyatida xayol va fantaziyaning roli.
5.Orzu va shirin xayollar. Badiiy va ilmiy ijodiyotda fantaziya.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va so'zlar: Ijodiy xayol, xayol kengligi, xayol mazmundorligi, real obrazlar, xayol kuchi. analitik-sintetik, fantaziya, ikkinchi tendentsiya, biosfera, neosfera, tasavvurlar, ta'sirlanish, timsollar, ijtimoiy- tarixiy taraqqiyot

Mavzu bo'yicha asosiy muammolar

Xayol va muammoli vaziyatlar qanday farq qilinadi? Xayol jarayonida analitik-sintetik faoliyatni qanday ajratasiz? Bolalarning o'yin va kattalarning ijodiy faoliyatida fantaziyaning rolini ko'rsatadi. Badiiy va ilmiy ijodiyotda fantaziya bo'lishi kerakmi? Kerak bo'lsa nima uchun? ahamiyatini tushuntirib bering?

1.Xayol. Xayol to'g'risida tushuncha.

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Xayolni ta'riflash. Xayol to'g'risida talabalarga tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Xayolni ta'riflaydi.
2.Xayol to'g'risida talabalarga tushuncha beradi.

3. Talabalarda xayol mavzusini o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

Birinchi savolning bayoni.

Biz Antarktikada, Janubiy qutbda bo'lmagan, uzoq ulkalarda tadqiqotchilarning hayotini va ishini ko'rmagan bo'lsak ham, lekin ular haqida bizning tasavvurimiz bor. Biz kosmik kemalarning Oyga va boshqa planetalarga uchishini tasavvur qilishimiz mumkin. Bu tasavvurlarni xayolimiz yaratib beradi, xotira tasavurlaridan farq qilgan bu tasavvurlar xayol tasavvurlari yoki fantaziya tasavvurlari deb ataladi.

Xayol vujudga keltirayotgan obrazlar (tasavurlar) faqat ongning sub-ektiv mazmunigina bo'lib qolmaydi, shu bilan birga, bu obrazlar odam-larning hayoti va faoliyatida og'zaki va yozma nutqda ifodalanadilar; narsa-larda, bo'yoqlarda, tovushlarda, she'r va proza tariqasidagi adabiy asarlarda va san'atning boshqa turlarida gavdalanadi.

Xayol ong faoliyatidir, bu faoliyat ilgari biz idrok qilmagan, tajribamizda uchratilmagan narsa va hodisalaming obrazlarini mavjud tasavvurlarimiz asosida miyamizda yaratishda ifodalanadi.

Ongning boshqa funksiyalari kabi xayol ham, tarixan, avvalo odamning mehnat faoliyatida rivojlanib kelgan. Odamlar o'z ehtiyojlarini qondirmoq uchun odam aralashmasdanoq tabiat berayotgan mahsuldan ham ko'ra ko'proq mahsul olish niyatida tevarak-atrof olamni o'zgartirganlar va uni o'zlariga buysundirganlar. O'zgartirmoq va yaratmoq uchun esa istalgan narsani oldindan tasavvur qilish, shunday o'zgartirishga qanday yo'llar bilan erishishni va uning natijalarini tasavvur qilish lozim bo'lgan.

Bora-bora odamning xilma-xil ehtiyojlari ijtimoiy, bilish, estetik va shu kabi ehtiyojlari rivojlana borgan sari xayol ham rivojlana borgan.

Jamiyatdagi odamlarning ijodiy faoliyatida namoyon bo'layotgan xayol ham ijtimoiy hayot sharoitiga va umumiy madaniy rivojlanish darajasiga qarab, shu jamiyatdagi odamlarning asosiy intilishlariga qarab, alohida xarakter, alohida yo'nalish kasb qilaveradi.

Birinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. Xayol to'g'risida umumiy tushunchangizni bayon qiling ?
2. Xayol turlarini psixologik tavsiflang ?
3. Xayolning xususiyatlarini ajrating ?
4.Xayolning fiziologik asoslarini asoslang ?
5. Xayol shakllarini psixologik talqin qiling ?
6. Xayolning bolalarda rivojlanishini tekshiring ?

2.Xayol va muammoli vaziyat. Xayol turlari.

Ikkinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Xayol turlarini ta'riflash. Xayol turlari to'g'risida talabalarga tushuncha berish. Tasavvur xayoli va ijodiy xayolni ajratishni o'rgatish. Ixtiyorsiz va ixtiyoriy xayol haqida ma'lumot berish.

Identiv o'quv maqsadlari.

Xayol turlarini ta'riflaydi va tushuntirib beradi.

Talabalarda xayol mavzusini o'rganishga qiziqish uyg'otadi. Xayol turlari to'g'risida talabalarga tushuncha beradi. Tasavvur xayoli va ijodiy xayolni ajratishni o'rgatadi. Ixtiyorsiz va ixtiyoriy xayol haqida ma'lumot beradi.

Ikkinchi savolning bayoni.

Xayol har xil turlarda namoyon bo'ladi: Tasavvur xayoli, ijodiy xayol, ixtiyorsiz va ixtiyoriy xayol.

Tasavvur xayoli va ijodiy xayol. Tasavvur xayoli deb, hozir yoki o'tmishda aslida mavjud bo'lsa ham, lekin bizning tajribamizda hali uchramagan va biz idrok qilmagan narsa va hpdisalar to'g'risida tasavvur hamda obrazlar yaratishdan iborat bo'lgan xayol turini aytamiz Bu narsalarning obrazlari boshqa kishilarning aytib bergan so'zlari asosida, shuningdek, yozma va boshqa hujjatlar asosida yaratiladi.

Tasavur xayoli jarayonida odam o'zi ko'z oldiga keltirayotgan obrazning obekti haqiqatan ham muayyan joyda bo'lganligini yoki muayyan vaqtda bo'lganligini anglaydi.

Ijodiy xayol deb, bizning tajribamizda bo'lmagan va voqelikning o'zida ham uchramagan narsa va hodisalar haqida tasavur va obrazlar yaratishdan iborat bo'lgan xayol turiga aytiladi.

Odam o'zining ijodiy xayolida o'zi biror yangi, original narsa yaratadi. Masalan, yozuvchi o'z asari uchun personajlarning tipik obrazlarini yaratayotganida uning xayoli mana shunday ijodiy xayol

bo'ladi. Ixtirochining yangi mashina, yangi asbob loyihasini yaratayotganidagi xayoli mana shunday ijodiy xayoldir. Ijodiy xayolning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat bo'ladi. Avalo yaratilayotgan obrazning obekti haqiqatda yo'qligi, qandaydir biron yangi narsa yaratilayotganligi anglanadi.

Orzular va shirin xayol surishlar ijodiy xayolning alohida turlaridir. **Orzu** ijodiy xayolning tilakdagi kelajakka qaratilgan faoliyatidir. Orzu qilish ko'nglimizga yoqadigan istiqbol obrazlarini yaratish demakdir. Yoshlardan ayrimlari kelgusida pedagog, muhandis, tokar, vrach, trak-tor haydovchi, uchuvchi va hokazo bo'lishni orzu qiladi. **Shirin xayol surish** muayyan bir narsaga qaratilmagan muayyan bir sistemaga ega bo'lmagan xayol jarayonidir. Shirin xayolga botgan vaqtda turli obrazlar ko'z o'ngidan birin-ketin betartib o'ta beradi.

Ixtiyorsiz xayolda oldindan belgilangan maqsad bo'lmaydi, bunda iroda faol ishtirok etmaydi. Bu holda obrazlar o'z-o'zidan paydo bo'ladi. Ixtiyorsiz xayol avalo qondirilmagan shu topdagi ehtiyoj sababli tug'iladi, Masalan, odam suvsiz cho'l-biyobonda yurib, juda chanqab qolgan vaqtida uning xayolida buloq, daryo va suv kabilarning obrazlari beixtiyor paydo bo'la boshlaydi. Biror narsa yoki hodisani idrok qilish, tasavvur qilish, biror fikr, nutq, hislarning ta'siri bilan ham ixtiyorsiz xayol suriladi. Tarix, geografiyaga oid kitoblarni, texnikaga doir kitoblarni va, ayniqsa, badiiy asarlarni o'qigan vaqtda bizning ongimizda turli joylarning, voqealarning, shaxslarning va boshqa shu kabilarning obrazlari beixtiyor paydo bo'ladi.

Ikkinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. Ijodiy xayolni ta'riflang ?
2. Orzu va shirin xayolni ajrating ?
3.Tasavur xayoli qanday sodir bo'ladi ? Tushuntirib bering ?
4. Ixtiyorsiz va ixtiyoriy xayol haqida ma'lumot bering ?
5. San'at asarlarining yaratilishida xayolning ahamiyati bormi ? Bor bo'lsa fikringizni asoslang ?
6. Odamning uyqu holatida tush ko'rishida xayolning aloqasi bormi ? Isbotlang ?
7. Shirin xayol surish paydo bo'lishini tushuntiring ?

3. Xayol jarayonlarida analitik-sintetik faoliyat.

Uchinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Xayolning analitik-sintetik xususiyatini talabalarga ajratib ko'rsatish. Xayolning fenomenlari haqida ma'lumotlar berish.

Identiv o'quv maqsadlari.

Xayolning analitik-sintetik xususiyatini talabalarga ajratib ko'rsatadi. Xayolning fenomenlari haqida ma'lumotlar beradi.

Talabalarda xayol mavzusini o'rganishga qiziqish uyg'otadi

Uchinchi savolning bayoni.

Yangilik elementlari, ba'zi jabhalarining qo'shimcha alomatlar bilan boyitilishi, ijod qilinishi xayolning asosiy vazifasi ekanligi g'oyasini aks ettiruvchi tendentsiya psixologiya fanida aksariyat ilmiy maktablar tomonidan tan olingan va taraqqiyot harakatlantiruvchisi sifatida qat'iy ravishda himoya qilinib kelinmoqda. Ikkinchi tendentsiya biosfera va neosfera to'g'risidagi ma'lumotlar, tasavvurlar, ta'sirlanish, timsollar ijtimoiy- tarixiy taraqqiyot davomida qaytadan tiklanish orqali xayol mahsuli sifatida saqlanib keladi, degan g'oyaga asoslanadi. Bu tendentsiyada obrazlarning tiklanishi, saqlanishi, kuchayishi yoki o'chmas iz tariqasida uzluksiz ravishda inson xotirasida, ko'z o'ngida namoyon bo'lishi, gavdalanishi hayot va faoliyat uchun birlamchi ekanligi isbotlashga harakat qilinadi. Har ikkala tendentsiya ham xayol holatining analitik vazifasini bajarish imkoniyatiga ega bo'lib, o'zaro bir-birini in'kor etish darajasiga olib bormaslikni taqozo qiladi. Shuning uchung ijodiy xayol yangi obrazlarni vujudga keltirish bilan taraqqiyotga ulush qo'shadi, yaqqol voqelik va ularning timsollar haqidagi ma'lumotlar, chizg'ilar tasviri hamda tasavvurlarini qayta tiklash orqali insoniyat bilimi, tajribasini boyitadi.

Xayol analitik holatdan tashqari sintetik xususiyatga ham egadir. Xayolning sintetik holati ushbu fenomenlar orqali ifodalanadi: agglyutinatsiya (lot. Agglutinare yopishtirmoq, elimlamoq ma'nosini bildiradi) muayyan tasavvurlarni bir-biriga qo'shib yoki ulardan foydalanib, narsa va hodisalarning yangi obrazlarini yaratishdan iborat xayol fenomenidan biridir; giperbolizatsiya (yunon. Huperbole bo'rttirish, kuchaytirish ma'nosini anglatadi); sxematizatsiya (yunon. "schema" obraz, shakl vujudga keltirish demakdir); tipizatsiya (yunon. "tupos" iz, chiziq degan ma'noni bildiradi).

Agglyutinatsiya fenomeni obrazlar (tasvirlar, timsollar) sintezlashuv jarayonining soddaroq ko'rinishidan biri hisoblanib, insoniyatning kundalik hayoti va faoliyatida ro'y-rost yaxlitlashtirish imkoniyati yo'q xilma-xil xislatlar, fazilatlar, sifatlar va qismlarni «qorishiq» tarzida (birlashtirilgan) shaklda aks ettiradi. Odatda agglyutinatsiya yordami bilan donishmand xalq tomonidan yaratilgan ertak timsollari, afsona tasvirlari yaratiladi yoki xayoliy kompozitsiyasi to'qib chiqariladi (ettiboshli ilon ajdaho ot va qushdan iborat)

Hozirgi zamonda agglyutsinatsiyadan texnik, badiiy, san'at ijodiyoti keng ko'lamda foydalanilmoqda, chunonchi, samolet amfibiya (yunoncha amphibios ikkiyoqlama hayot kechirish ma'nosini bildiradi).

Giperbolizatsiya fenomeni xayol obrazlarini hamda tasavvur shakllarini o'zlashtirish jihatidan yaqin agglyutinatsiyaga yondosh, o'xshash psixik jarayondir. Giperbolizatsiya narsalar va jonivorlarni nafaqat haddan ziyod kattalashtirish yoki kichiklashtirish. **Sxematizatsiya fenomeni** xayolot (fantaziya) obrazlarini yaratish imkoniyati mavjud vositalardan biri hisoblanib, u borliqdagi narsa va hodisalarning u yoki bu alomatlari hamda sifatlarini ta'kidlashdan, shuningdek, ularga butun diqqat-e'tiborni markazlashtirishdan iborat psixik jarayondir.

Tipizatsiya fenomeni yordami bilan xayolda tasavvurlar sintezi ro'yobga chiqishi mumkin. Odatda badiiy adabiyotda tipizatsiya yoki tipiklashtirishdan keng ko'lamda foydalaniladi hamda uning yordamida ba'zi bir jabhalari bilan o'zaro o'xshash, hatto mutanosib narsa va hodisalarda aks etuvchi muhim belgilari ajratib olinadi hamda ular yaqqol obrazlarda mujassamlashtiriladi.

Xayolning individual farqlari: xayol faoliyati kengligi, mazmundorligi, kuchi va realligi jihatlaridan farq qiladi.

Xayol kengligi va mazmundorligi. Xayol kengligi voqelikning kishilar xayol faoliyati uchun obekt bo'ladigan sohalari doirasi bilan belgilanadi. Tabiatning hozirgi va kelajak holati, odamlarning o'tmishdagi va kelajakdagi tarixiy hayoti, er ostidagi narsalar, osmon va undagi yulduzlar, texnika va san'at xayol faoliyati uchun obekt bo'ladigan ana shunday sohalar jumlasidandir. Xayolning mazmundorligi biror obektga nisbatan xayolda tug'ilayotgan tasavvurlarning boyligi, xilma-xilligi va ma'nodorligi bilan belgilanadi. Xayol kengligi va mazmundorligi, odatda, bir-biri bilan chambarchas bog'langan bo'ladi. Kosmik kema vujudga keltirilganligi ham, ichiga odam tushgan shu kemaning uchishi ham inson fantaziyasi g'oyat yuksak darajaga ko'tarilganligining mahsulidir.

Xayol kuchi . Xayol kuchli va kuchsiz bo'lishi mumkin. Xayol kuchi avvalo odam ehtiyojining, qiziqishlarining va istaklarining kuchiga bog'liq bo'ladi. Faqat shu bugunnigina o'ylaydigan o'zi-o'ziga mag'rur kishilarda xayol juda kuchsiz bo'ladi.

Tasavvur xayolning kuchi, jumladan, nutqda, suratlarda, bo'yoqlarda, chizmalarda, ohanglarda va boshqa shu kabilarda obrazning naqadar mahorat bilan ifodalanganligiga va gavdalantirilganiga bog'liq bo'ladi. Masalan, biz Navoiy, Bobur, Muqimiy asarlarini o'qiyotganimizda, shu asarlarda tasvirlangan ayrim personajlar, voqealar, tabiat manzaralari ko'z oldimizda yorqin va yaqqol gavdalanadi.

Xayol kuchli hissiyotga bog'liq bo'ladi, bu hissiyotlar xayoliy obrazlar tufayli tug'iladi va shu bilan birgalikda xayol faoliyatini ham rag'batlantiradi. Bu hislar qanchalik kuchli bo'lsa, xayoliy obrazlar ham shunchalik kuchli, yorqin va jonli bo'ladi. Hissiyoti kuchli, ehtirosli odamlarning xayoli ham kuchli bo'ladi. Hissiyoti kuchsiz, sovuqqon odamlarning xayoliy obrazlari odatda nursiz va zaif bo'ladi. Xayol kuchi diqqatga va tevarak-atrofdagi voqelikning idrok qilinishiga bog'liq bo'ladi.

Nerv sistemasi kasallanishi natijasida, fantaziya obrazlari ko'pincha real idrok qilingan narsalardek kuchli va yorqin bo'ladi, **gollutsinatsiya**ga (alahsirashga) aylanadi. Gollutsinatsiyaning o'zi aslida xayolning kuchli namoyon bo'lishidir. Bunday holatda xayoliy obrazlar kishining nazarida xuddi idrok qilinayotgan obrazlardek gavdalanadi. Nerv sistemasi kasallanishi natijasida ko'pincha real narsalarni ham kishi noto'g'ri idrok qiladi **illuziya** hosil bo'ladi.

Xayolning realligi. Xayol jarayonlaridagi voqelik o'zgargan tarzda aks ettiriladi. Bunda xayol yaratayotgan obrazlar voqelikka mos kelishi, voqelikni to'g'ri aks ettirishi mumkin va bu voqelikka mos kelmasligi ham mumkin. Voqelikni to'g'ri aks ettirgan obrazlar *real obrazlar* deb aytiladi.

Xayol yaratgan obrazlar turmushda gavdalantirilgan va gavdalantiri-layotgan taqdirda, turmush shu obrazlarga muvofiq qayta ko'rilayotganida, yangi boyliklar yaratilayotganida bunday xayol ham **real xayol bo'ladi.**

Odamning kosmosga uchishi yaqin-yaqingacha ham ro'yobga chiq-maydigan orzu, deb hisoblanib kelgan edi, endilikda esa kosmonavtlari kosmosda bir necha o'n million kilometr masofani bosib o'tdilar. Endi biz Oy, Mars, Venera, Koinotning boshqa planetalariga uchishni orzu qilmoqdamiz. Bu orzu ham real orzudir. Bu orzu ham amalga oshiriladi.

Maktab o'quvchisining «kelgusida qahramon bo'laman» degan orzusi va shu or-zuning haqiqatan **amalga oshirilganligi mana shunday real orzudir.** Xayolning realligi odamning tajribasiga, uning bilimlariga, undagi tanqidiy tafakkurning qay darajada o'sganligiga va odamning turmush tajribasi bilan qay darajada aloqasi borligiga bog'liqdir.

Xayolda yaratilayolgan obrazlar amalda ro'yobga chiqarilmaydigan bo'lsa yoki bu obrazlarni amalga oshirish keraksiz, bema'ni bir narsa bo'lsa, bunday xayol real xayol bo'lmaydi. Xayoli mana shunday real bo'lmagan kishilarni «quruq xayolparast», «fantazyor» deb aytadilar.

Uchinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. Xayolning analitik xususiyatini tushuntiring ?
2. Xayolning sintetik holatini ta'riflang ?
3. Xayolning fenomenlarini sanab bering ?
4. Xayolning individual farqlarini ajrating ?

4. Bolalarning o'yin va kattalarning ijodiy faoliyatida xayol va fantaziyaning roli.

To'rtinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Bolalarning o'yin faoliyatida fantaziyaning rolini talabalarga misollar orqali tushuntirib berish. Kattalarning ijodiy faoliyatida xayolning ahamiyatini ajratib ko'rsatish.

Identiv o'quv maqsadlari.

Bolalarning o'yin faoliyatida fantaziyaning rolini talabalarga misollar orqali tushuntirib beradi.

2. Kattalarning ijodiy faoliyatida xayolning ahamiyatini ajratib ko'rsatadi.

Talabalarda xayol mavzusini o'rganishga qiziqish uyg'otadi

To'rtinchi savolning bayoni.

Inson faoliyatining hamma turlarida: o'yinda, o'qishda, mehnatda, fan va ijodiyotda xayolning katta ahamiyati bor.

Bolalikdagi o'yinlar asosan, bolalar fantaziyasining namoyon bo'lishidir. Bolalarning ijodiy o'yinlarida ularning organizmi kamol topadi va mustahkamlanadi, aqli, irodasi, ma'naviy va estetik hislari o'sadi.

Xayol bo'lmasa, o'qish ishlarining samarali bo'lishi mumkin emas. O'quvchilar o'zlari bevosita idrok qilolmaydigan narsalar to'g'risidagi bilim-larni xayol mavjud bo'lganidagina yaqqol tushunib, bilib olishlari mumkin. Mehnat qilish vaqtida hamisha shu mehnatdan kuzatilgan maqsad oldindan belgilab olinadi, shu mehnatning qanday natijalar berishi oldindan tasavur qilinadi. Shunday qilinmasa, ishlab bo'lmaydi. Ilmiy kashfiyotlarda va texnikaga doir ixtirolar qilishda juda katta ahamiyati bo'lgan ilmiy gipotezalar yaratishda xayolning roli, ayniqsa, katta. Gipoteza - haqiqiy sabablari noma'lum bo'lgan hodisalarning faktlarni izohlamoq uchun fanda qo'llaniladigan taxmindir. Odatda, gipotezalarning ko'pchiligi olimlarning xayolida ayrim faktlar yoki farazlar asosida vujudga keladi.

Odamda xayol ilk bolalik chog'idanoq o'sib boradi. Bolalardagi xayol ularning faoliyati jarayonida taraqqiy qilib boradi: dastlab o'yinlarda, so'ngra esa o'qishda va mehnatda o'sib boradi. Bolalarda tajriba to'plana borishi hamda xotira tasavurlarining boyligi hosil bo'la borishi bilan ularda xayol ham o'sib boradi va ulardagi ehtiyojning o'sishi uchun yo'l ochadi.

Psixikaning boshqa jihatlari kabi, bolalardagi xayol ham, asosan, tarbiya va o'qitishning ta'siri ostida o'sadi. Ikki yoshga kirgan bolada xayolning dastlabki kurtaklari o'yinchoqlar bilan har xil o'yinlar qilishda, qo'liga tushgan mayda-chuyda narsalar tayoqchalar, toshlar, qog'ozlar va boshqa shu kabilar bilan o'ynashda, egri-bugri chiziqlardan iborat rasm chizishda namoyon bo'ladi.

Yasli yoshidagi bolaning xayoli hali tor va mazmuni kambag'al bo'ladi. Uning xayoli tevarak-atrofida ko'rgan narsalar doirasidan chetga chiqmaydi va asosan, o'z tevaragida, o'zi yashab turgan uy sharoitidagi narsa va hodisalarga taqlid qilish tariqasida namoyon bo'ladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolada o'yin, mashg'ulot jarayonida, tarbiya ta'siri bilan tasavur boyligi ancha kengayadi, tafakkur o'sadi, yangi ehtiyojlar paydo bo'ladi, faollik ortadi, shular sababli, bu yoshdagi bolalarda xayol faoliyati ham kengroq va mazmunliroq bo'lib qoladi.

Bolalik yoshida, asosan, 5—7 yoshlarda, bolalar xayolda gavdalantiri-ladigan obrazlarni (xayolda ilgari vujudga kelgan va xotirada saqlanib qolgan obrazlarni) ko'pincha xotira tasavurlariga aynan o'xshatadilar.

To'rtinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1.Xayol to'g'risida umumiy tushunchangizni ayting?
2.Xayol turlarini tavsiflang.
3.Xayolning psixologik xususiyatlarini so'zlab bering ?
4.Xayolning fiziologik asoslarini tushuntiring ?
5.Xayolning rivojlanishini kuzating ?.
6.Xayol psixologik kategoriya sifatida zkanligini isbotlang ?
2.Xayol xususiyatlari va fenomenlarini ajrating ?
3.Xayol turlari va shakllari to'g'risida tushunchangizni bayon qiling ?
4.Xayolning inson aqliy holatidagi rolini belgilang ?.

Mavzu bo'yicha asosiy xulosalar:

Xayolni ta'riflash. Xayol to'g'risida umumiy tushuncha berish. .Xayol va muammoli vaziyatni ta'riflash. Xayol turlarini ajratishni o'rgatish. Xayol jarayonlarida analitik-sintetik faoliyatni ko'rsatib berish. Bolalarning o'yin va kattalarning ijodiy faoliyatida xayol va fantaziyaning rolini belgilash. Orzu va shirin xayollarni aniqlab, qiyosiy solishtirish.

8- mavzu: Tafakkur

. **Asosiy savollar.**

1.Tafakkur. Tafakkur va hissiy bilish.
2.Tafakkur jarayon sifatida. Tafakkurning zamonaviy nazariyalari. Fikrlash operatsiyalari.
4.Muammoli vaziyat va masala echish.
5. Tafakkur turlari.
6.Tafakkurning individual xususiyatlari.
7.Tafakkur va nutqning o'zaro bog'liqligi

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Taqqoslash, analiz va sintez, abstraksiya va umumiylashtirish, aniqlashtirish, klassifikatsiya va sistemaga solish, hukm- juz'iy, yakka, konkret, umumiy abstrakt, xususiy to'planma, ndektuv, deduktuv, analogik.

Mavzu bo'yicha asosiy muammolar

Tafakkur shakllarini psixologik asoslang ?
Tafakkur nazariyalarini ta'riflang ?
Tafakkur va aqliy taraqqiyotning bog'liqligini isbotlang ?.

1. Tafakkur. Tafakkur va hissiy bilish.

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Tafakkurni ta'riflash. Tafakkur va hissiy bilish to'g'risida talabalarga tushuncha berish. Tafakkur va predmetli amaliy faoliyatni ajratish.

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Tafakkurni ta'riflaydi.
2. Tafakkur va hissiy bilish to'g'risida talabalarga tushuncha beradi.
3. Tafakkur va predmetli amaliy faoliyatni ajratadi.
4. Talabalarda tafakkur mavzusini o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

Birinchi savolning bayoni.

Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur atrofdagi olamni bilish qurolidir va inson oqilona amaliy faoliyatining vujudga kelishi uchun shartdir. Tafakkur jarayonida fikr paydo bo'ladi, bu fikrlar insonning ongida muhim tushunchalar shaklini oladi. Tafakkur nutq til bilan chambarchas bog'langan. Insonda tafakkur va nutq bo'lganligi tufayli u hayvonlardan farq qiladi va shu sababli u ongli mavjudotdir. Inson o'z atrofidagi olamda bo'lgan buyumlar va hodisalarni ongli ravishda idrok qiladi, ongli ravishda eslab qoladi hamda esga tushiradi va ongli ravishda harakat qiladi.

Quyoshning har kun Sharqdan chiqib, G'arbga botayotganligini hammamiz ko'ramiz (idrok qilamiz). Biz Erning qimirlamay turganligini, quyosh esa er atrofida aylanayotganligini ko'ramiz.

Ko’p asrlar davomida juda ko’p kishilarning qilgan fikriy faoliyati natijasida-gina, uzoq davom etgan kuzatishlar va tadqiqotlar natijasidagina haqiqat-da quyosh er atrofida aylanmasdan, balki er o’z o’qi atrofida va quyosh atrofida aylanayotganligi aniqlandi. Demak, quyoshning harakati to’g’risidagi bizning bevosita idrokimiz voqelikka, haqiqatga to’g’ri kel-mas ekan, voqelikning to’g’ri aks etishi, ya’ni haqiqat — bunda tafakkur yordami bilan aniqlandi. Yuqoriroq bosqichlarda bunday fikrlash tafakkur jarayonlaridagi hosil bo’lgan hukmlar va tushunchalar ularning chinligini yoki chin emasligini aniqlashda ifodalanadi.

Tafakkur — voqelikning umumlashtirib aks ettirilishidir. Biz ayrim-ayrim narsalarni va hodisalarni, masalan, alohida stolni yoki stulni idrok qilamiz va tasavur qilamiz, ammo umuman stol va stul to’g’risida, umu-man mebel va umuman narsa to’g’risida esa fikrlashimiz mumkin. Umu-miylash natijasida bir hukmning o’zida ayni vaqtda yakka bir narsa to’g’risidagina fikr qilib qolmasdan, balki, shu bilan birga narsalarning butun bir turkumi to’g’risida ham fikr yuritish mumkin. Masalan, «0’zbekistonning fuqarolari teng huquqlidirlar» degan hukmda ayrim bir kishi haqida fikr yuritmasdan, balki O’zbekistonning hamma fuqarolari haqida fikr yuritiladi.
Narsa yoki hodisalar o’rtasidagi eng muhim bog’lanishlar va munosa-batlar tafakkur yordami bilan ochiladi. Bunday bir misolni olib ko’raylik. Siz qalamni barmoqlaringiz bilan stoldan 20 santimetr balandda ushlab turibsiz. Barmoqlaringizni ochib yuborsangiz qalam stol ustiga tushadi, uning taqillagani (tovushi) eshitiladi. Biz bu hodisalarni birin-ketin idrok qilamiz va ularni xuddi shu tartibda tasavur qilishimiz mumkin. Lekin biz bunda hodisalarning ma’lum vaqt ichida birin-ketin sodir bo’lishini idrok qilamiz, xolos, ammo ayni vaqtda tafakkur yordami bilan bu hodisalarning bir-biriga qonuniy bogianishidagi chuqurroq sabablar va bun-dan kelib chiqadigan natijalar ochiladi. Biz hodisalarning birin-ketin o’tayotganliginigina qayd qilib qolavermaymiz, balki birinchi hodisa bo’lgani uchun ikkinchi hodisa ro’y beradi, undan keyingi hodisalarning har qaysisi (masalan, tovush) oldingi hodisa ro’y berganligi uchun (qalam stolga urilganligi uchun) sodir bo’ldi, deb aniq aytamiz va oldingi hodisaning ro’y berganligi keyin shu hodisani muqarrar keltirib chiqargan-ligini anglaymiz. Bu hodisalarda ularning ma’lum bir vaqt ichida birin-ketin sodir bo’lganligini idrok qilganimizdan tashqari, ular o’rtasida sabab-natija bog’lanishi, ya’ni qonuniy bog’lanish bor, deb aniq qilib aytamiz. Biz bu sabab-natija tariqasidagi bog’lanishning o’zini bevosita idrok qila olmaymiz, uni sezgi organlarimiz vositasi bilan his qilolmaymiz (ko’rmaymiz, ushlab ko’rmaymiz, eshita olmaymiz), balki shu bog’lanish borligini idrokimizga asoslanib turib fikr qilish yo’li bilan topamiz.

Birinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1.Tafakkurning ta’rifini ayting?
2. Tafakkur va hissiy bilishni ajrating?
3. Tafakkur va predmetli amaliy faoliyatni ko’rsating?.
4.Tafakkur jarayon sifatida ekanligini isbotlang?

2.Tafakkur jarayon sifatida. Tafakkurning zamonaviy nazariyalari. Fikrlash operatsiyalari.

Ikkinchi savol bo’yicha darsning maqsadi: Tafakkur jarayon sifatida. Tafakkurning zamonaviy nazariyalari. Fikrlash operatsiyalari. Tafakkur motivatsiyasi.

Identiv o’quv maqsadlari.

1.Tafakkur jarayon sifatida ekanligini ko’rib chiqadi.
2.Tafakkurning zamonaviy nazariyalarini o’rganib qiyosiy solishtiradi. Fikrlash operatsiyalarini tekshiradi. Tafakkur motivatsiyasini belgilaydi.

Ikkinchi savolning bayoni.

S. L. Rubinshteyn nazariyasiga binoan, tafakkurni psixologik jihatdan o’rganishning asosiy predmeti- jarayon, faoliyat tariqasida namoyon bo’lishdir. Muallif tafakkur operatsiyalari, shakllarini shakllantirishda-jarayon, muammoli vaziyatni hal qilishda esa-fikr yuritish faoliyati sifatida vujudga kelishini chuqur tahlil qilib beradi. S. L. Rubinshteyn tafakkur to’g’risidagi g’oyani rivojlantirib, uni sub’ekt faolligining paydo bo’lishi deb ataladi.
A. N. Leontev tafakkur psixologiyasi predmeti yuzasidan mulohaza yuritib, tafakkurni turli ko’rinishlarga ajratadi, fikr yuritish faoliyati ekanligini tan oladi, lekin uni predmetli-amaliy faoliyat

deb nomlaydi. Shuning bilan birga tafakkurning strukturasi, fikr yuritish motivatsiyasi to'g'risida nazariy metodologik muammolarni o'rtaga tashlaydi.
P. Ya. Galperin fikriga ko'ra, tafakkur-bu orientirlash tadqiqot faoliyati, orientirovka jarayondir, ya'ni orientirovka-jarayon, orientirovka faoliyat. Muallif psixologiya fani intellektual masalalarni yachishda sub'ektning tafakkurga orientirovka qilish jarayonini o'rganishdan iborat deb tushuntiriladi. P. Ya. Galperin tafakkurning boshqa jahatlarini o'zining aqliy harakatlarni bosqichli shakllantirish nazariyasidan kelib chiqqan holda yoritishga intiladi.
A. V. Brushlinskiy tadqiqotlarida tafakkurning muhim yangilikni qidirish va ochish, gipoteza va nazariyalarni bashorat qilish, oldindan payqash xususiyatlari alohida ta'kidlab o'tiladi. Yuqoridagi mualliflardan o'laroq, A. V. Brushlinskiy tafakkurning umumlashtirib, bilvosita aks ettirishdan tashqari muhim yangilikni izlash va ochish, oldindan bashorat qilish xususiyatlari mavjudligini dalillab ko'rsatadi.
Tafakkur atrof-muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bavosita, umumlashgan holda aks ettiruvchi psixik jarayon, ijtimoiy-sababiy bog'lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va bashorat qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyatdir.
Tafakkur operatsiyalari. Tafakkur qilish operativ jarayondir.
Taqqoslash, analiz va sintez, abstraksiya va umumiylashtirish, aniqlashtirish, klassifikatsiya va sistemaga solish aqliy operattsiyalarning asosiy turlaridir.
Bizda yangi hukmlar ana shu operatsiyalar jarayonida hosil bo'ladi, real olamdagi narsalar va hodisalar to'g'risidagi tushunchalar vujudga keladi.
Taqqoslash — shunday bir aqliy operatsiyadirki, bu operatsiya ayrim narsalar o'rtasida o'xshashlikni yoki tafovutni, tenglik yoki tengsizlik bor-ligini, bir xillik yoki qarama-qarshilik borligini aniqlashda ifodalanadi.
Taqqoslash fikr qilish jarayoni bo'lib, bu jarayon idrok qilinayotgan narsalarning o'xshashligi yoki tafovutini aniqlash lozim bo'lganda, yoxud sezgilarda va idrokda bevosita o'xshashlik va tafovutni topish lozim bo'lgan hollarda paydo bo'ladi. Amaliy taqqoslash bir narsani ikkinchi narsaga solishtirib ko'rilayotganda, masalan bir qalamni ikkinchi qalamga, o'lchov chizig'ini taxtaga va shu kabilarga solishtirib ko'rilayotganda sodir bo'ladi. Biz masofani santimetrli lenta bilan o'lchayotganimizda, og'irlikni tortib ko'rayotganimizda va boshqa shu kabi hollarda taqqoslash jarayoni sodir bo'ladi.Taqqoslash tasavur qilinayotgan yoki o'ylanilgan narsalarni bir-biriga fikran solishtirib ko'rish yo'li bilan ham bo'ladi. Masalan, biz o'zimiz turgan binoni boshqa ko'chadagi binolar bilan taqqoslab ko'rib, ularning o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutni topishimiz mumkin.
Analiz — narsani (buyumlarni, hodisalarni, jarayonni) tarkibiy elementlarga, qismlarga yoki tarkibiy belgilarga bo'lish demakdir.
Analiz jarayonida butunning uning qismlariga uning elementlariga bo'lgan munosabati aniqlanadi. Biror moddiy narsani uning moddiy elementlariga ajratib bo'lish eng oddiy shakldagi analizdir. Stolni ayrim qismlarga bo'lish uning oyoqlarini, yashiklarini va boshqa shu kabilarni biridan ajratib olish mumkin. boshqa ko'chadagi binolar bilan taqqoslab ko'rib, ularning o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutni topishimiz mumkin.
Sintez — analizning aksi yoki teskarisi bo'lgan tafakkur jarayonidir. Bu jarayon obektning ayrim elementlarini, qismlarini, belgilarini bir
butun qilib qo'shishdan iboratdir. Sintez jarayonida murakkab bir butun narsa, yoki hodisa tarkibiga kirgan elementlar, yoki qismlar tariqasida olingan buyum yoki hodisalarning shu murakkab bir butun narsa yoki hodisaga bo'lgan munosabati aniqlanadi.
Sintez elementlarning, narsa va hodisalarning qismlarini bir butun qilib qo'shishdan iboratdir, amaliy analiz bo'lgani singari, sintez ham amaliy bo'lishi mumkin. Chunonchi, mashinaning ayrim detallari bir-biriga tegishli tarzda biriktirilganda, ya'ni ular sintez qilinganda, yaxlit, butun mashina, masalan, odimlovchi ekskavator hosil bo'ladi. Kislorod bilan vodorodning kimyoviy birikishi natijasida suv hosil bo'ladi. Mana shu va shunga o'xshash hollarning hammasida sintez fikr qilish jarayon-larida va ish-harakatlarda sodir bo'ladiki, bu ish-harakatlar natijasida bir butun, yaxlit moddiy narsa hosil bo'ladi.
Analiz singari, sintez ham, o'qish jarayonida katta o'rin tutadi. Masalan, o'qishga o'rgatish vaqtida tovushlar va harflardan bo'g'inlar, bo'g'inlardan so'zlar, so'zlardan gap tuziladi. Mana shuning o'zi sintezdir. Adabiy asarlardagi ayrim qahramonlarning yok tarixiy arboblarning qilgan ishlarini,

fikrlarini, hislarini tasvirlash va analiz qilish yo'li bilan hamda sintez qilish natijasida shu arboblarning, shu qahramonlarning xarakteristikasi hosil bo'ladi.

Ikkinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1.Tafakkurning zamonaviy nazariyalarini o'rganing?
2. Fikrlash operatsiyalarini sanab bering?
3.Bolalarda mustaqil va yoshlarda yangicha tafakkur yuritishni shakllantirishni tushuntirib bering?.
4.Muammoli vaziyat va masala echishni ko'rib chiqing?
5.Tafakkur turlarini ta'riflang?
6. Tafakkur operatsiyalari haqida tushunchangizni bayon qiling ?
7. Tafakkur shakllarini psixologik asoslang ?
8. Tafakkur sifatlarini psixologik tavsiflang ?
9. Tafakkur turlari haqida fikringizni bayon qiling ?
10.Tafakkurning individual xususiyatlarini ajrating?

Mavzu bo'yicha asosiy xulosalar:

Tafakkurni tushuntirish. Tafakkur va hissiy bilishni ta'riflash. Tafakkur va predmetli amaliy faoliyatni ajratish. Tafakkur jarayon sifatida ekanligini misollar yordamida talabalarga tushuntirish. Tafakkurning zamonaviy nazariyalarini o'rganib qiyosiy solishtirish. Fikrlash operatsiyalarini ko'rib chiqish. Bolalarda mustaqil va yoshlarda yangicha tafakkur yuritishni shakllantirishning ahamiyatini ishlab chiqish. Muammoli vaziyat va masala echishni ko'rib chiqish. Tafakkur turlarini sanash. Tafakkurning individual xususiyatlarini aniqlash. Tafakkur va nutqning o'zaro bog'liqligini belgilash

9- mavzu: Hissiyot.

Asosiy savollar.

1. Hissiyot to'g'risida umumiy tushuncha.
2. Hissiyotning fiziologik asoslari.
3. Hissiyotning ifodalanishi.
4. Emotsional holatlarning xilma-xilligi.
5. Yuksak hislar(aqliy, estetik,ahloqiy,praksik)

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: kayfiyat, stresslar, affekt, ehtiyoj, emotsiya, his-tuyg'u, emottsiya, kechinma, g'azab, stenik, astenik, kayfiyat, stress, affekt, ehtiros, yuksak hislar, praksik, axloqiy, aqliy, iroda psixologiyasi.

1. Hissiyot to'g'risida umumiy tushuncha.

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Talabalarga hissiyot haqida umumiy tushuncha beradi. **E**mottsiyalar bilan tanishtirish. Hissiyotning ifodalanish holatlarini ta'riflash va hissiy holatlarni qiyosiy solishtirish. Ijobiy va salbiy hissiyotlarni ajratishga o'rgatish.

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Hissiyot to'g'risida tushuncha beradi.
2.**E**mottsiyalar bilan tanishtiradi.
3. Hissiyotning ifodalanish holatlarini ta'riflaydi.
4.Hissiy holatlarni qiyosiy solishtiradi.
5. Ijobiy va salbiy hissiyotlarni ajratishga o'rgatadi.

Birinchi savolning bayoni.

Kishi biror narsani idrok va tasavur qilganida, Eslab qolganida va esga tushirganida, fikr qilganida va gapirganida hamda harakat qilganida biror yoqimli (xush) yoki yoqimsiz (noxush) holatni kechiradi, bu holat huzur qilish yoki ranjishdan, maza qilish yoki qiynalishdan iborat bo'ladi. Bu kechirmalarda odamning o'z tevarak-atrofidagi narsalarga (hodisalarga), odamlarga va o'ziga nisbatan subektiv munosabati ifodalanadi. Yoqimli yoki yoqimsiz kechinma hissiyotimizning **(emottsiyalarimizning)** birinchi belgisi va elementidir.

Yoqimli kechinmalarda odamning voqelikdagi ayrim narsalarga, hodisalarga va o'ziga nisbatan ijobiy munosabati ifodalanadi, yoqimsiz kechinmalarda esa bunga odamning salbiy munosabati ifodalanadi. Shuning uchun ham subektiv kechinmalardan iborat bo'lgan hissiyotlar **ijobiy va salbiy hissiyotlar** deb ajratiladi. Hissiyotlarga shaxsiy nuqtayi nazardan beriladigan baho bilan ijti-moiy nuqtayi nazardan beriladigan baho hamisha bir-biriga muvofiq bo'lavermaydi. Sub'ektiv ravishda noxush, kishini ranjitadigan kechinmalar tariqasidagi ko'pgina hissiyotlar, ijtimoiy nuqtayi

nazaridan qaraganda, ijobiy hissiyotlar hisoblanadi. Masalan, kishidagi uyalish vijdon azobi yoqimsiz va hatto qattiq azob hissi bilan kechiriladi. Lekin ijtimoiy nuqtayi nazardan qaraganda, bu hislar yuksak, ijobiy axloqiy hislardir.
«His» degan termin ko'pincha «sezgi» degan termin bilan bir ma'noda ishlatiladi. Masalan, ba'zan: «Men yorug'likni his qilyapman, men issiq-likni his qilyapman* deyish o'rniga: «Men yorug'likni sezyapman, men issiqlikni sezyapman* deb ham aytishadi. Shu vaqtgacha biz psixologiya-da ham sezgi organlari deyish o'rniga his qilish organlari deb aytishga odatlanib qolganmiz.
Sezgi bilan hisni bir-biridan farq qilish kerak. Sezgi odamdan mustaqil ravishda mavjud bo'ladi, u narsalar va hodisalarning in'ikosidir. Hissiyot esa odamning shu narsalarga va hodisalarga munosabatini ifodalovchi tuyg'ular, kechinmalardir.

Birinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1.Motivatsiya sohalarini ta'riflang.
2.Motiv - ehtiyojlarni belgilash natijasi ekanligini tushuntiring. 3.Motivlar va ustanovkalarni ajrating.
4.Ehtiyojlar va emotsiyalarni tushuntiring.
5.Motivatsiyani o'rganishga oid asosiy yondashishlarni tekshirib, qiyosiy solishtiring.
6.Emotsional jarayonlarni tavsiflang.
7.His-tuyg'ularni fiziologik asoslang.

2. Hissiyotning fiziologik asoslari.

Ikkinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Emottsional kechinmalar haqida tushuncha berish. Odamdagi hissiyotning fiziologik asosi bosh miya po'stida sodir bo'ladigan jarayonlar ekanligini isbotlash.

Identiv o'quv maqsadlari.

1.Emottsional kechinmalar haqida tushuncha beradi.
2. Odamdagi hissiyotning fiziologik asosi bosh miya po'stida sodir bo'ladigan jarayonlar ekanligini isbotlaydi.

Ikkinchi savolning bayoni.

Emottsional kechinmalar organizmdagi alohida fiziologik jarayonlar, hisoblanadi.Emottsional kechinmalar chog'ida qon aylanishi o'zgaradi, yurak urishi tezlashadi yoki susayadi, odam esa qizaradi, oqaradi yoki bo'zaradi, nafas olish ham o'zgaradi: nafas olish tezlashadi, yoki susayadi. Emottsional jarayonlarning yurak faoliyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq ekanligi shu qadar ayon sezilib turadiki, hatto oddiy tilda «his» bilan «yurak» degan so'z bir-biriga o'xshash ma'noda ishlatiladi.
Odamdagi hissiyotning fiziologik asosi, avalo, bosh miya po'stida sodir bo'ladigan jarayonlardir.
Bosh miya po'sti hissiyotlarning kuchini va barqarorligini idora qilib turadi. Buni shu bilan isbot qilish mumkinki, miya yarim sharlari olib tashlangan hayvonlar eng arzimas sabablar bilan muttasil va shu bilan birga kuchli ravishda hayajonga kelaveradi. Miya po'sti zaiflangani natijasida bet muskullari falaj bo'lgan kishilar har xil narsalarga, hatto juda arzimas narsaga ham hamisha va qattiq kula beradilar.
Hissiyotlar **bosh miya po'stining ostki qismlari faoliyati** bilan ham bog'langandir. Jumladan, ko'rish bo'rtig'i hislarni ifodalaydigan ixtiyorsiz harakatlarning markazlaridir. Buni shu bilan isbot qilish mumkinki, ko'rish bo'rtig'ining shikastlanishi natijasida, hissiyotni ifodalovchi yuz harakatlari ham izdan chiqadi. Bosh miya po'sti ostidagi markazlardan mahrum bo'lgan hayvonlarda hissiyotlarni ifodalovchi harakat belgilari bo'lmaydi.

3. Hissiyotning ifodalanishi.

Uchinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Emotsional jarayonlarning umumiy tavsifini talabalarga ajratib ko'rsatish. Kishining emottsional kechinmalari fiziologik jarayonlarda namoyon bo'lishini tushuntirish. Hissiyotning paydo bo'lish tezligi, hissiyotning kuchi, his-tuyg'ularning barqarorligini ta'riflash.

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Emotsional jarayonlarning umumiy tavsifini talabalarga ajratib ko'rsatadi. 2. Kishining emottsional kechinmalari fiziologik jarayonlarda namoyon bo'lishini tushuntiradi.
3. Hissiyotning paydo bo'lish tezligi, hissiyotning kuchi, his-tuyg'ularning barqarorligini ta'riflaydi.

Uchinchi savolning bayoni.

Psixik jarayonlarning hammasi organizmning tashqi o'zgarishlarida va harakatlarida ma'lum darajada ifodalanadi. Lekin odamning hissiyotlari ayniqsa, yaqqol ifodalanadi.
Bizning emottsional kechinmalarimiz mimikada, gavda harakatlarida va imo-ishoralarda ayniqsa yaqqol ifodalanadi. Kishining emottsional kechinmalari fiziologik jarayonlarda yig'i, kulgi va boshqa shu kabilarda ham namoyon bo'ladi.
Hissiyotlarning harakatlarda, mimikada, gavdada, imo-ishoralar va ma'noli ko'z qarashlarda, boshqa shu kabilarda mana shu tariqa tashqi ifodalanishlarining hammasi suratga va kinoga olish yo'li bilan qayd qilinishi mumkin.
Kishining emottsional kechinmalari uning nutqida ham ifodalanadi. Nutqning tezligi va intonatsiyasi o'zgaradi. G'amginlik va ma'yuslik hislarini ifodalovchi nutq vaqtida shu nutqni so'zlovchi kishining ovozi beixtiyor pasayib ketadi, nutqning o'zi susayib qoladi, so'zlayotgan kishining tovushi ham bo'linib-bo'linib chiqadi. Xursandlik holatida bir nima so'zlayotgan kishining nutqida bunga butunlay teskari holat namoyon bo'ladi. Hissiyotlarning mana shu tashqi ifodalari, odatda, ixtiyorimizdan tashqari namoyon bo'ladi.
Hissiyotlar paydo bo'lish tezligi, kuchi va davomiyligi (barqarorligi) jihatidan bir-biridan farq qiladi.
Hissiyotning paydo bo'lish tezligi. Emotsional kechinmalar turli hollarda turlicha tezlik bilan paydo bo'ladi. Ba'zan hissiyotlar juda tez to'satdan, darhol paydo bo'ladi.
Hissiyotning kuchi. Emottsional kechinmalarning kuchi turlicha bo'lishi mumkin. Hissiyotning kuchi, avvalo, yoqimli yoki yoqimsiz tuyg'ularning naqadar kuchli bo'lishidadir. Shuning uchun ham «juda xursand bo'ldim», «unchalik yoqmadi» va shu kabi iboralar ishlatiladi. Subektiv jihatdan olganda, hissiyotning kuchi shu hissiyotni shaxsning naqadar ehtiros ila kechirayotganligi bilan ham belgilanadi.
His-tuyg'ularning barqarorligi. Emottsional kechinmalar qanchalik uzoq davom etishi (barqarorligi) bilan ham bir-biridan farq qiladi. Paydo bo'lgan kechinmalar uzoq vaqt davom etilsa, bunday his-tuyg'ular barqaror kechinmalar deb ataladi. His-tuyg'ular paydo bo'lishi bilan darrov so'nib qolsa, yoki boshqa biror emotsional kechinmaga tez o'tib ketsa, bunday his-tuyg'ular beqaror his-tuyg'ular deb ataladi.
Hislarning ayni vaqtda naqadar tez, kuchli va barqaror bo'lishiga qarab, emottsional holatlarning turlari farq qilinadi. Emottsional holatlarning asosiy turlari kayfiyat, ehtiros, ruhlanish va affektlardir.
Stress. Stress inglizcha stress so'zidan olingan bo'lib, jiddiylik, keskinlik, zo'riqish degan ma'no anglatadi. Stress- og'ir jismoniy va murakkab aqliy yuklamalar, ishlar me'yoridan oshib ketib, xavfli vaziyatlar tug'ilganida zaruriy chora-tadbirlarni zudlik bilan topishga intilganda vujudga keladigan hissiy zo'riqishlar. Mana shunday sharoitlar va vaziyatlarning barchasini biron bir emotsiya turi ro'yobga chiqaradi. Stress emotsional holatining paydo bo'lishi hamda kechishining psixologik xususiyatlarini aniqlash nafaqat uchuvchilar, kosmonavtlar, dispetcherlar (inglizcha dispatcher ishlab chiqarishni muvofiqlashtiruvchi ma'nosini anglatadi) uchun, balki sudyalar, korxona rahbari, ta'lim tizimi xodimlari uchun alohida ijtimoiy psixologik ahamiyat kasb etadi.
Psixologiya faniga stress tushunchasini olib kirgan olim kanadalik fiziolog G. Sele (1936) sanaladi. Stress holatida shaxsning xatti-harakatlari o'ziga xos tarzda o'zgaradi, unda qo'zg'alishning umumiy reaktsiyasi paydo bo'ladi, uning harakatlari tartibsiz ravishda amalga oshiriladi. Stressning kuchayishi esa teskari reaktsiyaga olib keladi, natijada tormozlanish, sustlik, zaiflik, faoliyatsizlik ustuvorlik qila boshlaydi. Lekin stress holatida fiziologik o'zgarishlar tashqi tomonidan qariyb ko'zga tashlanmasligi mumkin. Biroq muammoni echishdagi qiyinchilik, diqqatni taqsimlashdagi sarosimalik stressning tashqi ifodasi deb taxmin qilinsa bo'ladi. Shaxs stress holatida telefon nomerini adashtiradi, vaqtni chamalashda yanglishadi, ong faoliyati engil tormozlanadi, idrok ko'lami torayadi va boshqalar.

Stress holatida shaxsning psixologik xususiyatlari, turmush tarbiyasi, shakllangan malakasi muhim rol o'ynaydi. Keskinlikning oldini olishda shaxsning oliy nerv faoliyati, nerv sistemasining xususiyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Undagi yuksak his-tuyg'ular (mas'uliyat, burch, javobgarlik, vatanparvarlik, sadoqat va hokazo) stress holatida xatti-harakat buzilishining oldini olishga xizmat qiladi.

Kayfiyat zaif yoki o'rtacha kuchga ega bo'lgan va, odatda, ancha barqaror emottsional holatdir. Odamdagi ba'zi bir kayfiyat bir necha kun, bir necha hafta, bir necha oy va undan ham ko'proq davom etishi mumkin. Quvnoq kayfiyat, ma'yus kayfiyat, g'amginlik kayfiyati, g'azab kayfiyati va shu kabi kayfiyatlar, yaxshi yoki yomon kayfiyatlar bo'lib turishi hammaga ma'lum. Biz biror kishidan, ahvollaringiz qalay, deb so'raganimizda, biz, asosan, uning kayfiyatini nazarda tutamiz.

Odamning barcha psixik jarayonlarida va faoliyatida kayfiyat katta rol o'ynaydi. Masalan, odamning kayfi chog' bo'lsa, u ancha faolroq bo'ladi, odam ma'yus bo'lsa, unchalik faol bo'lmaydi. Odamning kayfiyati uning tevarak-atrofdagi kishilarga va narsalarga munosabatiga ta'sir qiladi. Chunonchi, odam xursand bo'lib turganida uning ko'ziga hamma narsa yaxshi bo'lib ko'rinadi, odam xafa va ma'yus bo'lib turganida, uning ko'ziga hamma narsa yomon ko'rinadi. Ijobiy kayfiyat, xushchaqchaqlik va xursandlik kayfiyati ustun bo'lib turganida, odam vaqtincha muvaffaqiyatsizliklarni va xafagarchilikni ham osonlik bilan o'tkazib yuboradi.

Bardamlik, xushchaqchaqlik kayfiyati bizning kishilarimizning asosiy xususiyatidir. O'zbek xalqi mustaqillikka erishishini o'z maqsadi va maslagi deb biladi. U o'z mehnatining erkinligini anglab, Vatani uchun sidqidildan harakat qilish ularda mana shunday kayfiyatni vujudga keltirdi. Bizda har bir kishi nima uchun mehnat qilayotganini, kim uchun mehnat qilayotganini biladi. Mehnatning tagi rohat ekanligini his qiladi.

Ehtiros. Ehtiros ham uzoq davom qiladigan va barqaror bo'lgan emottsional holat dir. Lekin kayfiyatdan ehtirosning farqi shuki, ehtiros muayyan harakatga, muayyan obektga muttasil intilishda kuchli sur'atda ifodalangan kuchli emottsional holatdir. Ehtiros hamisha aniq bir narsaga qaratilgan bo'ladi. Masalan, odamlarda bilimga, ixtirochilikka, musiqaga bo'lgan ehtiros mana shunday aniq ehtirosdir. Bular ijobiy ehtiroslarga misol bo'la oladi. Bizning axloqimiz nuqtayi nazaridan qaraganda, salbiy ehtiroslar ham bor.

Masalan, ichkilikbozlikka, alkogolga, qimorga, kartabozlikka hirs qo'yish, pulparastlik mana shunday salbiy ehtiroslardir. Ijobiy ehtiroslar odamni ulkan ijodiy faoliyat yo'liga etaklovchi kuchdir.

K.E. Siolkovskiyda kosmosga uchish masalalarini ilmiy jihatdan ishlab chiqishga xuddi mana shunday katta ehtiros bor edi. U butun umr bo'yi mana shunday ehtiros bilan yashadi.

Affektlar. Tez paydo bo'ladigan, nihoyat darajada kuchli, g'oyat jo'shqinlik bilan o'tadigan qisqa muddatli emottsional holatlar affektlar deb aytiladi. Masalan, birdaniga achchiqlanish, g'azablanish, to'satdan qo'rqish va shu kabi holatlar affektlarning bir ko'rinishidir. Affektlar ko'pincha to'satdan paydo bo'ladi va ba'zan atigi bir necha daqiqa davom etadi. Affekt holatida kishining ongi, tasavur qilish va fikr qilish qobiliyati torayadi, susayib qoladi. Mana shunday kuchli emottsional qo'zg'alish shiddatli ha-rakatlarda, tartibsiz gaplarni gapirib yuborishda, ko'pincha, baqirib yu-borish tarzida namoyon bo'ladi. Affektlar vaqtida odamning harakatlari kutilmagan tarzda, «portlash» singari, birdaniga boshlanib ketadi.

Ba'zan affektlar tormozlanish holati tariqasida namoyon bo'ladi va bunday holatda organizm bo'shashib, harakatsiz bo'lib va shalvirab qoladi. Chunonchi, kutilmagan bir quvonchli holatni ko'rib suyunib ketgan kishi «o'zini yo'qotib qo'yadi» va «nima deyishni bilmay qoladi». Bunday holat ko'pincha odam birdaniga qo'rqqanida, to'satdan quvonganida, birdaniga g'azablanganida va shu kabi hollarda, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ladi.

Affektlar kishining irodasi bo'shashgan vaqtda paydo bo'ladi, affektlar odamning o'zini tiya olmasligini, o'zini tuta bilmasligini ko'rsatadigan alomatdir.

Lekin har bir kishi o'zi etarli daraja ongli bo'lganligi uchun, o'zida affekt paydo bo'lishiga yo'l qo'ymasligi yoki affekt paydo bo'lishi bilanoq o'zini darhol bosib olishi mumkin. Odam affekt juda zo'r kuch bilan paydo bo'lgan vaqtda ham «o'zini tutib qolishi» mumkin. Albatta, buning uchun kishida kuchli iroda bo'lishi, unda o'zini tuta bilish, o'zini tiya bilish singari iroda sifatlari mavjud bo'lishi kerak. Odamda bu sifatlar tarbiya va o'z-o'zini tarbiya qilish yo'li bilan paydo qilinadi.

Uchinchi savol bo'yicha nazorat savollari:

1.Emotsiyaning psixologik xususiyatlarini bayon qiling?
2.Emotsional holatlarni ta'riflang?

4. Emotsional holatlarning xilma-xilligi. Kayfiyat, stresslar, affektlar.

To'rtinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Emotsional holatlarning xilma-xilligini ko'rib chiqish. Kayfiyat, stresslar, affektlarni ta'riflash. Emotsiyalarning ifodalanishini izohlash.

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Emotsional holatlarning xilma-xilligini ko'rib chiqadi.
2. Kayfiyat, stresslar, affektlarni ta'riflaydi.
3. Emotsiyalarning ifodalanishini izohlaydi.
4. Talabalarda emotsional holatlarni o'rganishga qiziqish uyg'otadi

To'rtinchi savolning bayoni.

Emottsional kechinmalar organizmdagi alohida fiziologik jarayonlar, hisoblanadi.Emottsional kechinmalar chog'ida qon aylanishi o'zgaradi, yurak urishi tezlashadi yoki susayadi, odam esa qizaradi, oqaradi yoki bo'zaradi, nafas olish ham o'zgaradi: nafas olish tezlashadi, yoki susayadi. Emottsional jarayonlarning yurak faoliyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq ekanligi shu qadar ayon sezilib turadiki, hatto oddiy tilda «his» bilan «yurak» degan so'z bir-biriga o'xshash ma'noda ishlatiladi.

Odamdagi hissiyotning fiziologik asosi, avalo, bosh miya po'stida sodir bo'ladigan jarayonlardir.

Bosh miya po'sti hissiyotlarning kuchini va barqarorligini idora qilib turadi. Buni shu bilan isbot qilish mumkinki, miya yarim sharlari olib tashlangan hayvonlar eng arzimas sabablar bilan muttasil va shu bilan birga kuchli ravishda hayajonga kelaveradi. Miya po'sti zaiflangani natijasida bet muskullari falaj bo'lgan kishilar har xil narsalarga, hatto juda arzimas narsaga ham hamisha va qattiq kula beradilar. Bosh miya po'stining faoliyati buzilishi natijasida ba'zi kishilarda har xil taassurot, bu taassurotga butunlay muvofiq bo'lmagan teskari emottsional alomatlarni qo'zg'atadi kuldiradi yoki yig'latadi. Bunday hollarda bemor kishilar ko'pincha o'zlari kulib tursalar ham, aslida g'amgin bo'ladilar, ko'z yoshi to'ka turib esa xursandlik his qiladilar.

Hissiyotlar **bosh miya po'stining ostki qismlari faoliyati** bilan ham bog'langandir. Jumladan, ko'rish bo'rtig'i hislarni ifodalaydigan ixtiyorsiz harakatlarning markazlaridir. Buni shu bilan isbot qilish mumkinki, ko'rish bo'rtig'ining shikastlanishi natijasida, hissiyotni ifodalovchi yuz harakatlari ham izdan chiqadi. Bosh miya po'sti ostidagi markazlardan mahrum bo'lgan hayvonlarda hissiyotlarni ifodalovchi harakat belgilari bo'lmaydi.

Ba'zi hissiyotlar vegetativ nerv sistemasi faoliyatining hamda bu sistema boshqarayotgan organlar faoliyatining oshib ketganligi sababli tug'iladi. Shu sababli, ba'zi emottsional kechinmalar vaqtida qon aylanish organlarining faoliyati, ovqat hazm qiladigan organlar faoliyati kuchayganligini, nafas olish o'zgarganligini, ko'zning nurlanishini, rangning qizarganligini ko'ramiz va hokazo.

To'rtinchi savol bo'yicha nazorat savollari:

1.Emotsional holatlarning xilma-xilligini ko'rib chiqing.
2. Kayfiyat, stresslar, affektlarni ta'riflang.
3. Emotsiyalarni ifodalang.
4.Yuksak (axloqiy, aqliy, estetik, praksik) hislarni tavsiflang.

5. Insonning yuksak (axloqiy, aqliy, estetik, praksik) hislari.

Beshinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Insonning yuksak (axloqiy, aqliy, estetik, praksik) hislarini ajratish. .Axloqiy, aqliy, estetik, praksik hislarni ajratib, farqlarini o'rgatish

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Insonning yuksak (axloqiy, aqliy, estetik, praksik) hislarini ajratadi.
2.Axloqiy, aqliy, estetik, praksik hislarni ajratib, farqlarini aniqladi.

Beshinchi savolning bayoni:

Kishilik jamiyati bilan hayvonot olami o'rtasida psixologik tafovutlar yuksak hislarda o'z ifodasini topadi. Yuksak hislar ongli harakatlarni bajarishning ob'ektiv sharoitlari, yo'nalishlari, mazmuni bilan uyg'unlashgan shaxs emotsional holatining barqaror, murakkab tarkibida paydo bo'ladi va kechadi. Ko'plab kechirilayotgan emotsiyalarda, affektlarda, kayfiyatlarda yaqqollashgan umumlashma hislar **yuksak hislar** deb ataladi. Ular o'z tarkibiga sodda tuzilgan hislarni qamrab oladi, lekin oddiy hislar yig'indisidan iborat emas, chunki yuksak hislar mazmuni, sifati, shakli bilan alohidalikka ega.

Psixologiya fanida yuksak hislar quyidagi turlarga ajratiladi:
1) mehnat faoliyatini davomida kechiriladigan hislar-praksik hislar (yunoncha-praxis so'zidan olingan bo'lib, ish, faoliyat, yumush degan ma'noni anglatadi);
2) intellektual hislar (latincha intellectusgan so'zdan olingan bo'lib, tushunish, aql degan ma'noni bildiradi);
3) axloqiy hislar (latincha moratis so'zidan olingan bo'lib, axloqiylik degan ma'noni anglatadi);
4) estetik hislar (yunoncha aistesis degan so'zdan olingan bo'lib, hissiy idrok, hissiy degan ma'noni aks ettiradi).
Praksiz hislar. Shaxsning amaliy hayotining istalgan tarmog'i, maqsadga muvofiq ongli faoliyati shaxsning ularga nisbatan muayyan munosabatda bo'lishning muhim sohasiga aylanib qoladi.

Beshinchi savol bo'yicha nazorat savollari:

1. Hissiyot to'g'risida umumiy tushunchangizni bayon qiling?
2. Hissiyotning o'ziga xosligini ta'riflang?
3. Hissiyot va emotsiyaning fiziologik asoslarini tushuntirib bering?
4. Odam va hayvon emotsiyalarining farqini toping?
5. Hissiy kechinmalarning shakllarini ajrating?
6. Yuksak hislarni tavsiflang?

Mavzu bo'yicha asosiy xulosalar:

Motivatsiya sohalarining umumiy tuzilishini tushuntirish. Motivlar va ustanovkalar haqida ma'lumot berish. Ehtiyojlar va emotsiyalarni ajratish.
Motivatsiyani o'rganishga oid asosiy yondashishlarni o'rganib, qiyosiy solishtirish. Emotsional jarayonlarga tavsif berish. His-tuyg'ularning fiziologik asoslarini ko'rib chiqish. Emotsional holatlarning xilma-xilligini aniqlash. Kayfiyat, stresslar, affektlarni ta'riflash. Emotsiyalarning ifodalanishini misollar yordamida ko'rib chiqish. .Yuksak (axloqiy, aqliy, estetik, praksik) hislarni belgilash. Emotsiya haqidagi psixologik nazariyalarni o'rganib, qiyosiy solishtirish.

10- mavzu. Iroda

Asosiy savollar.

1. Iroda haqida tushuncha.
2.Iroda akti va uning tuzilishi. Shaxsning irodaviy xususiyatlari. Irodaviy sifatlarning tuzilishi.
3. Irodaviy harakatlar va irodani boshqarish.
4. Irodaning nerv-fiziologik asoslari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Iroda psixologiyasi, irodaviy harakat, irodaviy zo'riqish, faollik, irodaviy akt, qat'iyat, iroda akti, intilish, hissiyot, irodaviy harakat, irodani boshqarish, avtomatlashgan, reflekslar.

Iroda haqida tushuncha.

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Iroda psixologiyasini ta'riflash. Irodaviy harakatlar va irodani boshqarishni talabalarga tushuntirib berish.

Identiv o'quv maqsadlari.

1.Iroda psixologiyasini ta'riflaydi.
2.Irodaviy harakatlar va irodani boshqarishni talabalarga tushuntirib beradi.

Birinchi savolning bayoni.

Iroda tushunchasi uzoq tarixga ega bo'lib, inson ongining mohiyatini kashf qilish jarayonidan boshlab, muayyan bilimlar to'planishi tufayli ilmiy yondashuvlar asosida vujudga kelgan. XVII asrdayoq Gobbs va Spinozalar ta'kidlab o'tganlaridek, faollik manbai bemahsul sohaning paydo bo'lishi deb tushunish mumkin emas, chunki uni shaxsiy kuch-quvvatini hissiy intilish bilan uzviylikda qaramoqlik lozim. Spinozaning fikricha, iroda bilan aql aynan bir narsadir. Uning iroda haqida bunday fikri irodani ilmiy nuqtai nazardan tushunishni shakllantirgan. V. Vundtning mulohazasicha, irodaning negizida ichki faollik etish yotadi. Tadqiqotchi V. A. Ivannikov esa irodani motivatsiyaning ixtiyoriy shakli sifatida tushunadi. Psixologiyada irodani eksperimental o'rganishga oid qator ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lib, ularning ayrimlaridan namunalar keltirib o'tamiz. Ko'pchilik tadqiqotchilar E. I. Ignatev qo'llangan metodikasi va uning natijalarini qo'llab-

quvvatlaydilar. Ushbu metodikaning mohiyati shundan iboratki, muskulning kuchli qisqarishidan keyin o'zining tinch holatiga qaytishdagi qarshiliklarini engish xususiyatini tajribada tekshirishdir. Xuddi shu vaziyatda irodaviy zo'riqishni bartaraf etish namoyon bo'ladi. Muallifning ta'kidlashicha, zo'riqishdagi muskullarning qisqarishini bir lahza to'xtatib qolish irodaning shartli ko'rsatkichi tariqasida qabul qilish mumkin, chunki mazkur jarayonda inson o'z tana a'zolari muskulini ongli boshqarish uquvi aks etadi. E. I. Ignatev tadqiqotida maksimal qisilishdan keyin irodaviy zo'riqishni (zo'r berishni) 5kg ortiq bo'lmagan og'irlikda pasaytirishga yo'l beriladi, uning taxminicha, bu kattalik (og'irlik) zo'riqish kuchini kamaytirmaydi va zo'r berishni vaqtincha to'xtatib qolishga ta'sirini o'tkazmaydi. Tadqiqotchi materiallarini tahlil qilishning ko'rsatishicha, muskul zo'r berishi 9-17 yoshdagi sinaluvchilarda 14 kgdan 40 kggacha og'irlikni tashkil qiladi, zo'r berishning 5kg kamayish doirasi maksimal holatga nisbatan 35,7 protsentdan to 12, 5 protsent miqdorlarda mujassamlashadi.

Iroda- kishining shunday faolligidirki, bunday faollik oldindan biror maqsad qo'yib va shu maqsadga erishish vositalarini oldindan belgilab, ongli ravishda zo'r berish natijasida hosil bo'ladi.

Iroda, avvalo, kishining o'z-o'zini, o'z intilishlari, hissiyotlari va ehtiroslarini qo'lida tuta bilishi demakdir.

Iroda — kishining o'z-o'zini iroda qila bilishi, o'z xulqi va faoliyatini ongli ravishda tartibga solish hamda boshqara olish qobiliyatidir.

2.Iroda akti va uning tuzilishi. Shaxsning irodaviy xususiyatlari. Irodaviy sifatlarning tuzilishi.

Ikkinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Iroda akti va uning tuzilishini ta'riflash. Shaxsning irodaviy xususiyatlarini sanab berish. Irodaviy sifatlarning tuzilishini o'rganish.

Iroda aktining tuzilishini talabalarga tushuntirib berish.

Identiv o'quv maqsadlari.

Iroda akti va uning tuzilishini ta'riflaydi. Shaxsning irodaviy xususiyatlarini sanab beradi. Irodaviy sifatlarning tuzilishini o'rganadi. Iroda aktining tuzilishini talabalarga tushuntirib beradi.

Ikkinchi savolning bayoni.

Shaxsning irodaviy harakatlari murakkab psixologik mazmun, mohiyat, ma'no kasb etishi bilan tavsiflanadi.

Ixtiyoriy yoki irodaviy harakat oldindan qo'yilgan maqsad asosida, bizning xohishimiz bilan bo'ladigan faollikdir. Bu harakat bizning «o'zimiz» bilan bog'liqdir va u ongli ravishda zo'r berishimiz natijasida sodir bo'ladi. Psixikaning faolligi ish-harakatlarda juda yaqqol sodir bo'ladi. Ish-harakatlar ham ixtiyorsiz va ixtiyoriy (irodaviy) bo'ladi. Biz iroda haqida gapirar ekanmiz, faoliyatimizda sodir bo'ladigan ongli harakatni ko'zda tutamiz.

Irodaviy harakatlar deganda faqat jismoniy (ya'ni muskullar bilan bog'liq bo'lgan) harakatlarnigina emas, balki shuning bilan birga axloqiy harakatlarni ham tushunish lozim. Aqliy ishlar jarayonida odam ko'pincha qiyinchiliklarga duch kelib qoladi. Bunday hollarda irodaviy zo'r berishga to'g'ri keladi. Lekin shunga qaramay, iroda haqida gapirganimizda, asosan odamning tashqi harakatlarida namoyon bo'ladigan ongli faolligini nazarda tutamiz.

iroda aktining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, nafaqat xohish-istakdagi maqsadni tanlay olish, balki uni amalga oshirish imkoniyati aniqroq ekanligini tushunish hamda anglashdir. Xuddi shu tariqa irodaviy harakatning muhim tarkibi, binobarin, ajratib olingan maqsadga erishishning yo'l-yo'riqlari shakli va mohiyati to'g'risida mulohaza yuritish, uning ustida bosh qotirish davri boshlanadi. Mazkur jarayonda fikr yuritilayotgan vositalarning maqsadga erishish yo'liga muvofiqligi tahlil qilinadi, aqlan chamalab ko'riladi, uni ro'yobga chiqarishga mutlaqo mos yordamchi uslublar, harakatlar tanlanadi. Yuqorida mulohaza yuritilgan aqliy xatti-harakatlarning barchasi o'zining mohiyati bilan iroda aktining tarkibiga kiruvchi aqliy jarayonlar, aqliy lahzalar, aqliy vaziyatlar sifatida mujassamlashadi.

Irodaviy aktning boshlanishi maqsadga erishish yo'l-yo'riqlari haqiqatdan ham aniq istaklarning ushalishiga xizmat qilishi to'g'risida oqilona qarorga kelishda o'z ifodasini topadi. Psixologik ma'lumotlarning ko'rsatishicha, tanlangan harakatlar oqilona, omilkor, odilona ekanligi to'g'risida qarorga kelinganida, maqsadga muvofiqligi ishonchli dalillar ustiga qurilganida ushbu jarayon qiyinchiliklarsiz sodir bo'ladi. Biroq aksariyat hollarda qarorga kelish murakkab jarayonga

aylanadi, buning natijasida motivlar kurashi yuzaga keladi, binobarin, tanlash, yakdillikka kelish muddati birmuncha cho'ziladi. Masalan, shaxsda ish joyini almashtirish xohish-istagi tug'ildi deb aytaylik, biroq unda boshqa xususiyatga ega bo'lgan intilishlari hukm surishi mumkin, o'z navbatida ular ishxonani o'zgartirishga to'sqinlik ham qiladi. Jumladan, ish joyini o'zgartirish maoshning yangi ishxonada biroz yuqoriligi bilan bog'liq bo'lsa-da, lekin yangi muhitga va jamoaga, notanish shart-sharoitga, boshqacha talabga moslashish (ko'nikish) zarurligini taqozo etadi. Ana shu tarzdagi munosabatlar bilan motivlar kurashi yuzaga keladi, uning negizida: a) yangi ish joyidan, b)ichki qanoatlanish tuyg'usidan voz kechish kerakmi; yoki v) qimmatli imkoniyat tug'ilishi, g) uning istiqboli evaziga o'zining boshqa ehtiyojlaridan yuz o'girishi lozimmi degan motivlar kurashi boradi. Motivlar kurashida u yoki bu tarzda qarorga kelishni ma'qullash (e'tirof qilish) yoki ma'qullamaslik (e'tirof etmaslik)to'g'risidagi mulohazalarni tahlil qilish (ularni chamalash) bilan cheklanib qolmasdan, balki o'zaro ziddiyatli, bir-birini inkor etuvchi harakatlarni tatbiq etishga undovchi qabildagi motivlar kurashi ham tug'ilishi mumkin. O'zaro qarama-qarshi motivlarning salmog'i qamrovli bo'lsa, shaxsni faoliyatga undovchi ehtiyojlarning ob'ekti o'zining qiymati (ahamiyatliligi) bilan o'zaro baravarlashsa, u holda bunday motivlar kurashi ularga hamohang tarzda kuchli kechadi.

Ikkinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. Iroda psixologik kategoriya sifatida ekanligini tekshiring ?
2. Irodaviy akt tuzilishi haqida mulohazalaringizni bayon qiling ?
3. Irodani mustahkamlash va shakllantirish imkoniyatlarini belgilang ?
4. Shaxs kamolotida irodaning roli va ahamiyatini tushuntiring ?

3. Irodaviy harakatlar va irodani boshqarish.

Uchinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Irodaviy harakatlarni tushuntirish. Irodani boshqarish to'g'risida talabalarga tushuncha berish.

Identiv o'quv maqsadlari.

1.Irodaviy harakatlarni tushuntiradi.

2.Irodani boshqarish to'g'risida talabalarga tushuncha beradi.

Uchinchi savolning bayoni:

Irodaviy harakatlar deyarli hamma vaqt ixtiyorsiz faollik bilan bog'liq ravishda sodir bo'ladi.

Reflektor harakatlar, masalan, chuchkurish, ko'z pirpiratish, qo'lga bexosdan nina qadalganda yoki qo'l sinib qolganda qo'lni siltab tortib olish ixtiyorsiz harakatlar jumlasidandir. Bunday harakatlarning nerv-fiziologik asosi shartsiz reflekslardir.

Ixtiyorsiz harakatlarning maxsus turi *avtomatlashgan* harakatlar, ya'ni malaka va odatlardir. Bunday avtomatlashgan harakatlar odamning amaliy hayoti davomida hosil qiladi. Malaka va odatlarning nerv-fiziologik asosida shartli reflekslar yotadi.

Ixtiyorsiz harakatlar ongsiz ravishda voqe bo'ladi. Ammo ixtiyorsiz harakatlarning ko'pchiligini kishi ma'lum darajada o'sha ish-harakatlar voqe bo'lgan paytda va ayniqsa ular bo'lib o'tgandan keyin *bilib-anglab* oladi.

Harakat maqsadini belgilash: Irodaviy jarayon va irodaviy harakatning dastlabki momenti maqsad qo'yishdan iboratdir. Maqsad deganda odam nima qilishi kerakligini, nimaga erishishi kerakligi va qanday qiyinchiliklarni engishi lozimligini anglashi tushuniladi.

Irodaviy harakatlar - ilgaridan mo'ljallangan xohish bilan amalga oshiriladigan harakatlardir. Irodaviy harakatlar ixtiyorsiz harakatlardan dastaval shuning bilan farq qiladiki, ularda oldindan mo'ljallangan va to'la anglanilgan intilish bo'ladi.

Maqsad va vositalarni belgilash: Kishida ayni bir vaqtning o'zida bir necha tilak va istaklar tug'ilishi mumkin, chunki kishining ehtiyojlari juda ham xilma-xildir. Masalan, kishi kechqurun bo'sh bo'lgan paytida teatrga yoki biror do'stining oldiga borishni xohlashi mumkin. Bundan tashqari, ayni bir istak, ayni bir maqsadga erishish yo'li va erishish vositasi turlicha bo'la olishini tasavvur etish istak va maqsadga erishmoq uchun qilingan ish-harakatlardan chiqadigan turli xil natijalarni oldindan tasavvur etish mumkin.

Biron maqsad va uni amalga oshirish vositalarini tanlash jarayonida ularning ma'qul yoki noma'qul ekanliklari chamalab ko'riladi. Biron maqsad va bu maqsadni amalga oshirish yo'llarini belgilab beruvchi yoki belgilab bermovchi har qanday narsa harakatning motivi deb ataladi. Motiv deb — kishi nima uchun o'z oldiga boshqa bir maqsadni emas, balki ayni shu maqsadni qo'yishi kerak,

nima sababdan u o’z maqsadiga erishmoq uchun, boshqa bir yo’llar bilan emas, balki xuddi shu yo’l bilan harakat qilishi kerak, degan savollarga javobdir.
Irodaviy harakatlarning ixtiyorsiz harakatlardan farqi yana shundan iboratki, ular motivlar asosida amalga oshiriladi.
Ko’pincha motivlar kurashi tafakkur (aql) bilan hissiyotning o’rtasidagi kurashdan iborat bo’ladi; odam ba’zan go’yo ikkiga bo’linib ketadi; «Aql uni deydi, hissiyot (ko’ngil) buni deydi».
Biron maqsad yoki biron maqsadga olib boruvchi yo’llar aqlga muvofiq kelsa-yu, lekin kishida noxush hissiyotlar tug’dirsa va, aksincha, biron maqsad yoqimli hislar tug’dirsa-yu, lekin aqlga muvofiq kelmasa, ana shunday bo’ladi.
Qarorga kelish: Motivlar kurashi bilan bog’liq bo’lgan biron maqsadni amalga oshirish yo’llarini tanlash jarayoni qarorga kelish bilan tugaydi. Qarorga kelish ma’lum bir maqsad va bu maqsadni amalga oshirishning biron usuli yoki ma’lum yo’llari haqida to’xtash demakdir. Bu esa motivlardan biri hal qiluvchi rol o’ynaydi, demakdir. Masalan, kechqurun qaerga borish kerak: teatrgami yoki do’stimning oldigami degan fikrdagi motivlar kurashi natijasida kishi do’stining oldiga borishga qaror qiladi.
Ba’zi hollarda kishi qabul qilinadigan qarorning amalga oshirish im-koniyatlariga ishongan holda juda tez ma’lum bir qarorga keladi. Buni biz ***qat’iyat*** deb ataymiz.
Boshqa bir hollarda esa, motivlar kurashi uzoq, vaqtga «cho’zilib ketadi» va qaror bajarilishiga ishonchsizlik hamda ikkilanishlar bilan qabul qilinadi. Bu - ***qat’iyatsizlikdir.*** Masalan, o’rta maktabni tugatayotgan va tugatgan ba’zi bir yoshlar qaysi institutga kirish masalasini juda tez hal qiladilar, boshqa birlari bo’lsa juda uzoq vaqt ikkilanib o’ylab yuradilar.
Bir marta qabul qilishgan qarorni keyinchalik o’zgartirish yoki boshqa yangi qaror bilan almashtirish, yoki bo’lmasa, batamom bekor qilib yu-borish **subutsizlik** deyiladi. Qat’iy qaror qila olmaslik - kishi irodasi bo’shligining alomatidir.
Qarorni ijro etish: Biron qaror shu qarorga muvofiq keladigan choralar ko’rish va ish-harakatlar qilish uchun qabul qilinadi. Qarordan harakatga o’tishni ijro qilish, bajarish deyiladi. Irodaviy jarayonlarda eng muhim narsa qabul qilingan qarorni bajarishdir. Kishining irodasi xuddi mana shu qarorni bajarishda namoyon bo’ladi deyish mumkin.
Irodasi kuchsiz bo’lgan kishilar ko’pincha juda ko’p yaxshi qarorlarga kelishlariga qaramay, bu qarorlaming ijro etilishini sustlashtirib, cho’zib yuboradilar va boshqa muddatlarga qoldiradilar. Bajarilishi galdan-galga qoldiriladigan yoki batamom bajarilmaydigan qarorlarni *niyat* deb ataladi.
Ichki qarshiliklarni engish: Ichki qarshiliklar kishining o’ziga xos bo’lgan ma’lum holatidir. Kishi tinch, harakatsiz va hech qanday faoliyatsiz holatda bo’lishi mumkin. Masalan, bunday holat dam olayotganda, uxlayotganda, toliqqan paytda va kasal paytda bo’ladi.
Irodaviy zo’r berish vositasi bilan kishining aqliy faoliyati ham faol holatga keltiriladi. Masalan: ma’ruza boshlanishi bilanoq talaba iroda kuchini ishga solib, diqqatini bir erga to’playdi, irodaning barqarorligini saqlab turadi, tafakkur va esda olib qolish jarayonlarini kuchaytiradi.
Parashutchilar birinchi marta o’zlarini samolyotdan tashlaganlarida (irodaviy harakatlarida) tabiiy ravishda paydo bo’ladigan qo’rqish hissini engib borishlari lozim bo’ladi.
Odamning ichki to’lqinlarini enga olish, o’zini boshqarish va o’z usti-dan hukmronlik qila bilish qobiliyatini odatda ***ichki iroda*** deb yuritiladi.
Tashqi qarshiliklarni engish: Odamning tashqi to’sqinliklarni tashqi qiyinchiliklarni enga olish qobiliyatini *tashqi iroda* deb yuritiladi. Obektiv voqelikka ta’sir qilishda kishi iroda kuchining yordami bilan dastaval o’z organizmini harakatga solishi lozim va shu bilan birga, har qanday ixtiyorsiz harakatni doimo bosib va o’zgartirib turishi kerak. Shuning uchun kishining tashqi qarshiliklarni engishga qaratilgan irodaviy zo’r berishlari va irodaviy harakatlari ayni vaqtning o’zida kishining ichki holatini ham o’zgartiradi. Kishi tashqi muhitni o’zgartirishi bilan birga, u o’z-o’zini ham o’zgartiradi.

Uchinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

Iroda to’g’risida umumiy tushunchangizni bayon qiling ?
Iroda aktining tuzilishini ifodalang ?
Iroda nazariyalarini talqin qiling ?
Iroda xislatlarini shakllantirish xususiyatlarini ajrating ?

4. Irodaning nerv-fiziologik asoslari.

o'rtinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: I.P. Pavlov ta'limoti to'g'risida talabalarga tushuncha berish. Irodaning nerv-fiziologik asoslarini tushuntirish.

Identiv o'quv maqsadi:

I.P. Pavlov ta'limoti to'g'risida talabalarga tushuncha beradi. Irodaning nerv-fiziologik asoslarini tushuntiradi.

To'rtinchi savolning bayoni.

Irodaviy harakatlarning nerv-fiziologik asosida shartli reflekslar yotadi. I.P. Pavlov ta'limotiga ko'ra, irodaviy harakatlarning hamma mexanizmi yuksak nerv faoliyatining butun qonunlariga bo'ysunuvchi shartli bog'lanishlardan, ya'ni assotsiativ jarayonlardan iboratdir. Irodaviy harakatlar mexanizmlarida, asosiy rolni kinestezik qo'zg'atuvchilar tufayli, ya'ni muskullar harakati tufayli yuzaga keladigan maxsus shartli reflekslar o'ynaydi. Kinestezik hujayra va harakat analizatori turli-tuman qo'zg'atuvchilar bilan muvaqqat aloqa bog'lay olishligi I. P. Pavlov hamda uning hamkorlari tomonidan o'tkazilgan maxsus tajribalarda isbotlab berilgan.

Irodaviy harakatlar ongli harakatlar sifatida ikkinchi signal sistemasining faoliyati bilan bog'liqdirlar. Xususan, ichki nutqqa tegishli so'zlar kerakli harakatlarni yuzaga keltiruvchi va boshqaruvchi signal hisobla-nadilar. I.P. Pavlov fikricha, ikkinchi signal sistemasi odam xulqi va xatti-harakatlarining oliy regulatori, ya'ni boshqaruvchisidir.

Ikkinchi signal sistemasining mexanizmlari birinchi signal sistemasining signallariga va ixtiyorsiz harakatlarning miya po'sti ostki markazlariga bularning ishlarini tartibga solish yuzasidan ta'sir etib turadi. Agar ikkinchi signal sistemasi tormozlansa, bunday holatda «voqelik bilan deyarli hisoblashmaydigan va asosan miya po'stining ostki markaz-larining emotsional ta'siriga bo'ysunadigan» faoliyat haqida gapirish mumkin. Ana shunday paytda odam, masalan, affektiv holatda bo'ladi.

Nerv sistemasining tetik hamda sog'lom holati har qanday faoliyat va odamning unumli ishchanligi uchun asosiy sharoitdir.

Nerv sistemasining kuchsizlanishi irodaning zaiflanishi va inson faol faoliyatining susayishiga asos bo'ladi. Bunday sustlik holati xususan toliqish paytida yorqin namoyon bo'ladi.

Jismoniy toliqishning asosiy belgisi muskullar ishchanligining susayishidir. Masalan, jismoniy toliqish, jumladan, muskul kuchlarining zaiflanishi, harakatlarning sekinlashishi, harakatlar miqdorining kamayishi, ishdagi jadallikning sekinlashuvi, harakatlardagi aniqlikni, moslikni, tekislikni va bularni boshqarishning buzilishi bilan harakatlanadi. Jismoniy toliqish odam butun organizmining madorsizlanish holati bilan xarakterlanadi.

Nerv sistemasining kasalligi irodani haddan tashqari susaytirib yuboradi. Bunday holatni **abuliya** deb ataladi. Abuliya holatidagi kishi juda chanqab turgan bo'lsa ham, o'z oldida turgan stakandagi suvni olib ichishga o'zini majbur qilolmaydi.

To'rtinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. Irodaviy harakatlarning nerv-fiziologik asosini tushuntiring ?
2. I.P. Pavlov ta'limotiga ko'ra, irodaviy harakatlarning mexanizmlarini ta'riflang ?
3. Abuliyani ta'riflang ?
4. Nerv sistemasining iroda bilan bog'liq tomonlarini va ahamiyatini so'zla bering

Mavzu bo'yicha asosiy xulosalar:

Iroda haqida tushuncha. Iroda akti va uning tuzilishini tushuntirish. Shaxsning irodaviy xususiyatlarini ta'riflash. Irodaviy sifatlarning tuzilishini ko'rib chiqish. Irodaviy harakatlar va irodani boshqarishni talabalarga o'rgatish. Irodaning nerv-fiziologik asoslarini o'rganish. Iroda nazariyalarini tekshirib, qiyosiy solishtirish

11- mavzu: Shaxs

Asosiy savollar.

1.Individ, shaxs, individuallik.
2.Shaxs. Shaxsning tuzilishi. Shaxsning faoliyati va uning yo'nalishi.
3.Kishining o'z-o'ziga baho berishi.
4.Frustratsiya va shaxsning kelajak rejalari.
5. Shaxs taraqkiyotini davrlarga bo'lish.

Identiv o'quv maqsadlari.

Individ, shaxs, individuallikni tushuntiradi.
Shaxsning tuzilishini ko'rib chiqadi.
Shaxsning faoliyati va uning yo'nalishini belgilaydi.
Shaxsning ustanovkalari va muhim orientatsiyalarini tekshiradi.
Kishining o'z-o'ziga baho berishini ta'riflaydi.
Frustratsiya va shaxsning kelajak rejalarini bayon qiladi.
Shaxs taraqkiyotini davrlarga bo'ladi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Shaxs, individ, individuallik, ijtimoiylashuv, dunyoqarash, maqsad maqsad ko'zlash, odamning dunyoqarashi shaxsning ustanovkalari, shaxsning orientatsiyalari, o'z-o'ziga baho berish, frustratsiya.

Mavzuga oid muammolar:

Individ, shaxs, individuallikni tushuntirib berish. Sizningcha shaxsning tuzilishi haqida eng to'g'ri fikrni sharq mutafakkirlaridan kim bildirgan? Shaxsning ustanovkalari va muhim orientatsiyalarini shaxs hayoti uchun muhim deb o'ylaysizmi?
Kishining o'z-o'ziga baho berishini manmanlik alomatlari deb hisoblaysizmi? Misollar bilan tushuntiring. Frustratsiyaga ta'rif bering. Frustratsiya va shaxsning kelajak rejalarini nimalardan iborat deb o'ylaysiz? -Shaxs aktivligining manbai nimada, deb o'ylaysiz**?**
Shaxsning yo'nalganligi qiziqishlarini belgilab beradimi? Fikringizni asoslang.
Shaxs bajarayotgan amallarni e'tiqod deb atash mumkinmi?
Shaxsning jamiyatdagi o'rni dunyoqarashi bilan belgilanishi mumkinmi?

1. Individ, shaxs, individuallik.

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Individ, shaxs, individuallik haqida talabalarga tushuncha berish. Individni ta'riflash. Shaxsning individdan asosiy farqlarini ajratish, individuallikning shaxsga bog'liq tomonlarini ajratish. Shaxsning tuzilishini ko'rib chiqish. Shaxsning faoliyati va uning yo'nalishini belgilash. Shaxsning ustanovkalari va orientatsiallarini o'rganish. Frustratsiya va shaxsning kelajak rejalarini o'rgatish. Kishining o'z-o'ziga baho berishi va uning talabchanlik darajasi shaxs tuzilishining elementlari ekanligini aniqlash.

Identiv o'quv maqsadlari.

1. Individ, shaxs, individuallik haqida talabalarga tushuncha beradi. 2. Individni ta'riflaydi.
3.Shaxsning individdan asosiy farqlarini ajratadi. 4.Individuallikning shaxsga bog'liq tomonlarini belgilaydi.
5.Talabalarda shaxs psixologiyasi mavzusini o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

Birinchi savolning bayoni.

Psixologiya fanida inson zotiga xoslik masalasi individ (lotincha individ ajralmas, alohida zot degan ma'no anglatadi), shaxs, individuallik (yakkahollik) tushunchalari orqali aks ettiriladi. Katta yoshdagi ruhiy sog'lom (esi-hushi joyida) odamlar ham, chaqaloq ham, nutqi yo'q, oddiy malakalarni o'zlashtira olmaydigan aqli zaiflar ham **individlar** deb ataladi. Biroq bulardan birinchisinigina shaxs deb atash an'ana tusiga kirib qolgan, chunki o'sha zotgina ijtimoiy mavjudod, ijtimoiy munosabatlar mahsuli, ijtimoiy taraqqiyotning faol qatnashchisi bo'la oladi. Individ sifatida yorug' dunyoga kelgan odam ijtimoiy muhit ta'sirida keyinchalik shaxsga aylanadi, shuning uchun bu jarayon ijtimoiy-tarixiy xususiyatga egadir. Ilk bolalik chog'idanoq individ muayyan ijtimoiy munosabatlar tizimi doirasiga tortiladi, bunday shaxslararo munosabatlar tarzi tarixiy shakllangan bo'lib, u yoshligidanoq shu tayyor (ajdodlar yaratgan) ijtimoiy munosabat, muomala, muloqot tizimi bilan tanisha boradi.

1. Odam: sut emizuvchilar sinfiga dahldorlik, biologik jonzod ekanligi odamning o'ziga xos xususiyatidir. Tik yurishlik, qo'llarning mehnat faoliyatiga moslashganligi, yuksak taraqqiy etgan miyaga egaligi, sut emizuvchilar tasnifiga kirishi uning o'ziga xos tomonlarini aks ettiradi. Ijtimoiy jonzod sifatida odam ong bilan qurollanganligi tufayli borliqni ongli aks ettirish qobiliyatidan tashqari o'z qiziqishlari va ehtiyojlariga mutanosib tarzda uni o'zgartirish imkoniyatiga ham egadir.

2. Shaxs. Mehnat tufayli hayvonot olamidan ajralib chiqqan va jamiyatda rivojlanuvchi, til yordami bilan, boshqa kishilar bilan muloqot (muomala) ga kirishuvchi odam shaxsga aylanadi. Ijtimoiy mohiyati shaxsning asosiy tavsifi hisoblanadi.

3. Individuallik. Har qaysi inson betakror o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shaxsning o'ziga xos qirralarining mujassamlashuvi individuallikni vujudga keltiradi. Individual shaxsning intellektual, emotsional va irodaviy sohalarida namoyon bo'ladi

Birinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. Individ, shaxs, individuallikni ta'riflang?
2. Shaxs haqida tushuncha bering?
3.Shaxsning psixologik mohiyati haqidagi nazariyalarni tushuntiring?
4. Shaxsning psixologik tuzilishi haqidagi nazariyalar (Z.Freyd, K.Platonov, A.Petrovskiy va boshqalar nazariyalari)?
5.Shaxsning faolligi va uning mexanizmlari?
6.Shaxsning yo`nalganligi?
7.Shaxs taraqqiyotining harakatga keltiruvchi kuchlari?

2. Shaxs. Shaxsning tuzilishi. Shaxsning faoliyati va uning yo'nalishi.

2-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi: Shaxsga ta'rif berish. Shaxsning tuzilishini ishlab chiqish. Shaxsning faoliyatini aniqlab, uning yo'nalishini belgilash. Individ, shaxs, individuallikga qisqacha ta'rif ishlab chiqish.

Identiv o'quv maqsadlari:

Shaxsga ta'rif beradi. Shaxsning tuzilishini ishlab chiqadi. Shaxsning faoliyatini aniqlaydi. Shaxsning yo'nalishini belgilaydi. Individ, shaxs, individuallikga qisqacha ta'rif beradi. Talabalarda individ, shaxs, individuallikni o'rganishga qiziqish o'yg'otadi.

Ikkinchi savolning bayoni:

Shaxs deb aniq bir kishini aytamiz. Har bir kishi jamiyat a'zosi bo'lib, tarixan tarkib topgan muayyan ijtimoiy munosabatlar sharoitida yashaydi va ishlaydi. Shaxsni ta'riflaydigan muhim psixologik belgilarga to'xtab olaylik. Shaxsning eng muhim xususiyatli jihatlaridan biri - bu uning individualligidir, ya'ni yakkaholligidir. Individuallik deganda, insonning shaxsiy psixologik xususiyatlarining betakror birikmasi tushuniladi. Individuallik tarkibiga xarakter, temperament, psixik jarayonlar, holatlar, hodisalar, hukmron xususiyatlar yig'indisi, iroda, faoliyatlar motivlari, inson maslagi, dunyoqarashi, iqtidori, har xil shakldagi reaktsiyalar, qobiliyatlari va shu kabilar kiradi. Psixik xususiyatlarning birikmasini aynan o'xshash tarzda aks ettiruvchi inson mavjud emas. Masalan, yaqin odamdan ayrilganligi qayg'u-alam, uning bilan birga esa hayotda tiklab bo'lmovchi va boshqalarda takrorlanuvchi fazilatlar murakkab voqelikning mangulikka yo'nalishi bilan izohlash mumkin. Shaxs o'zining qadr-qimmati va nuqsonlari bilan ijtimoiy turmushda faol ishtirok qilishi, ta'lim va tarbiya yordamida yuzaga kelgan o'zining kuchli va kuchsiz jihatlari bilan yaqqol, betakror oliy zotdir.

Shaxsning individual xususiyatlari uning belgisi hisoblanadi. Har bir odamning o'ziga yarasha shaxsiy xususiyatlari bor. Bir-biriga o'xshaydigan, ammo tamomila bir xil bo'lmagan kishilar bor. Odamning individual xususiyatlari aqlida, hislarida, irodasida namoyon Jbo'ladi. Har bir odam o'ziga yarasha idrok etadi, eslab qoladi, o'ziga yarasha fikr yuritadi va so'zlaydi. Har kirn turli hislarni o'ziga yarasha ko'ngildan kechiradi va turli sharoitda o'ziga yarasha ish qiladi. Har bir odamning o'ziga xos temperamenti va xarakteri, o'ziga yarasha individual layoqat-qobiliyatlari va qiziqish-havaslari bor.

Shaxsning tarkibiy qismi odam organizmi — gavdasidir. Odamni shaxs deb aytganimizda umuman odamni — uning ongi va organizmini nazarda tutamiz. Sobiq sovet psixologiyasida eng ko'p tarqalgan shaxsning tuzilishiga oid materiallar bilan qisqacha tanishib o'tamiz.

S.L.Rubinshteyn bo'yicha shaxs quyidagi tuzilishga ega:

1. Yo'nalganlik - ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e'tiqodlar, faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarda ifodalanadi.
2. Bilimlar, ko'nikmalar, malakalar - hayot va faoliyat jarayonida egallanadi.
3. Individual tipologik xususiyatlar - temprament, xarakter, qobiliyatlarda aks etadi.

K.K.Platonov ta'limotiga ko'ra, shaxs tuzilishi quyidagi shaklga ega:

I. Yo'nalganlik osttuzilishi - shaxsning axloqiy qiyofasi va munosabatlarini birlashtiradi. Undan harakatchanlik, barqarorlik, jadallik, ko'lam (hajm) darajalarini farqlash lozim.

II. Ijtimoiy tajriba osttuzilishi - Ta'lim vositasida, shaxsiy tajribada egallangan bilimlar, ko'nikmalar va odatlarni qamrab oladi.

III. Psixologik aks ettirish shakllari osttuzilishi - Ijtimoiy turmush jarayonida shakllanuvchi bilish jarayonlarining individual xususiyatlari.

IV. Biologik shartlangan osttuzilish.

Miya morfologik va fiziologik xususiyatlariga muayyan darajada bog'liq bo'lgan patologik o'zgarishlarni, shaxsning yosh, jins xususiyatlarini va uning tipologik xosiyatlarini birlashtiradi.

A.G.Kovalev talqiniga binoan, shaxs mana bunday tuzilishga ega:

1. Yo'nalganlik - voqelikka nisbatan inson munosabatini aniqlaydi, unga o'zaro ta'sir etuvchi har xil xususiyatli g'oyaviy va amaliy ustanovkalar, qiziqishlar, ehtiyojlar kiradi.

Ustuvor yo'nalganlik shaxsning barcha psixik faoliyatini belgilaydi.

2. Imkoniyatlar - faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshishini ta'minlovchi tizim. O'zaro ta'sir etuvchi va o'zaro bog'liq bo'lgan turlicha qobiliyatlar.

3. Xarakter. Ijtimoiy muhitda shaxsning xulq-atvor uslubini aniqlaydi. Odamning ruhiy hayoti shakli va mazmuni unda namoyon bo'ladi. Xarakter tizimidan irodaviy va ma'naviy sifatlar ajratiladi.

4. Mashqlar tizimi. Hayot va faoliyat, harakat va xulq-atvorni tuzatish (korrektsiyalash), o'zini o'zi nazorat qilish, o'zini o'zi boshqarishni ta'minlaydi.

Ikkinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. Shaxsga ta'rif bering.
2. Shaxsning tuzilishini ishlab chiqing.
3. Shaxsning faoliyatini aniqlang.
4. Shaxsning yo'nalishini belgilang.
5. Individ, shaxs, individuallikga qisqacha ta'rif bering.

3. Kishining o'z-o'ziga baho berishi.

3-savol bo'yicha darsning maqsadi: Shaxsning ustanovkalarini ta'riflash. Shaxsning muhim orientatsiyalarini talabalarga tushuntirish. Shaxsning ustanovkalarini ishlab chiqish va o'rganish.

Identiv o'quv maqsadi:

Shaxsning ustanovkalarini ta'riflaydi. Shaxsning muhim orientatsiyalarini talabalarga tushuntiradi. Shaxsning ustanovkalarini ishlab chiqadi va o'rganadi.

Uchinchi savolning bayoni:

O'ziga-o'zi baho berish - shaxsning o'zi tomonidan o'ziga, o'z imkoniyatlariga, boshqa odamlar orasidagi fazilatlariga va o'rniga baho berilishidir.O'ziga-o'zi baho berish orqali shaxsning xulq-atvori to'g'rilanib, tartibga solib turiladi. kishi o'zi haqida ba'zi narsalarni allaqachon bilgani holda boshqa kishiga razm solib boradi, o'zini u bilan solishtirib ko'radi, u ham uning shaxsiy fazilatlariga, xatti-harakatlariga, faolligiga nisbatan befarq qola olmaydi, deb taxmin qiladi; ana shularning hammasi shaxsning o'ziga o'zi baho berishiga kiradi va uning psixologik kayfiyatini belgilaydi.

Psixologiyada kishining o'ziga o'zi beradigan bahoni, uning miqdoriy va sifatiy ta'rifini aniqlashning bir qator eksperimental metodlari mavjuddir. Shaxsga beriladigan baholar sistemasiga uchta ko'rsatkich - o'ziga o'zi baho berish, kutilgan baho, guruhning shaxs tomonidan baholanishi - shaxsning tuzilishiga kiradi va kishi buni xohlaydimi-yo'qmi, bundan qat'i nazar,u o'zining guruhdagi kayfiyatini,o'zi erishgan natijalarning muvaffa qiyatli yoki muvaffaqiyatsiz ekanligini, o'ziga va tevarak-atrofdagilarga nisbatan nuqtai nazarlarni belgilaydigan sub'ektiv vositalarni hisobga olishga ob'ektiv ravishda majburdir.

O'ziga-o'zi baho berish shaxsning intilishlari darajasi bilan chambarchas bog'liqdir. Intilishlarning darajasi shaxs o'ziga o'zi beradigan bahoning individ o'z oldiga qo'yadigan maqsadlarning qiyinchiliklari darajasida namoyon bo'ladigan kutilgan darajasi ("Men" siymolarining darajasi) dir. Kishi navbatdagi harakatning qiyinchilik darajasini bemalol tanlash imkoniyatiga ega bo'lgan paytda o'ziga-o'zi beradigan bahoni oshirib yuborishga intilish ikkita tendentsiya o'rtasida mojaro kelib chiqishiga sabab bo'ladi: bir tomondan eng ko'p yutuqqa erishish uchun intilishni kuchaytirib yuborishga harakat qilinsa, ikkinchidan muvaffaqiyatsizlikka uchramaslik uchun intilishlarni kamaytirishga harakat qilinadi.

Shaxsning psixologik muxofazasi. Shaxsning o'zini anglashi o'ziga o'zi baho berishi mexanizmini qo'llagan holda xususiy intilishlar va real yutuqlari o'rtasidagi o'zaro nisbatni aniq

qayd etadi. Amerikalik psixolog U.Djems o'zining psixologik nazariyasida XX asrning boshlaridayoq shaxs "Men"i siymosining eng muhim tarkibiy qismi-o'zini hurmat qilishi xaqiqatdan ham erishgan yutuqlarining kishi da'vogarlik qilgan, mo'ljallangan narsalarga munosabati bilan belgilanishi haqida umuman to'g'ri fikr bildirgan edi.

Kishi o'z faoliyatida qiyinchiliklar oldida bo'sh kelmasligi, aksincha o'zining irodaviy fazilatlari va matonatliligini namoyon qilgan hamda shu orqali muvaffaqiyat bilan real intilishlar o'rtasidagi o'zaro maqbul nisbatini saqlab qolgan holda ularni engishi kerak. Bu psixologik qulaylikning buzilishi. Psixologik muhofaza tushunchasiga yaqin "muhofaza mexanizmlari" to'g'risidagi tushunchani psixoanaliz maktabining etakchisi Freyd ishlatgan edi. U bu tushunchani shaxsni biologik mavjudot deb hisoblaydigan mexanistik falsafa nuqtai nazaridan talqin qilgan edi. Z.Freyd kishining ongsiz instinktlari (asosan, shahvoniy hirs) ongli "Men"ning "muhofaza mexanizmlari", shaxsning "ichki tsenzurasi" bilan to'qnashib qoladi va buning natijasida turli xildagi o'zgarishlarga uchraydi, deb taxmin qilgan.

Uchinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. "Men"ning siymosiga ta'rif bering, uning mohiyatini ochib bering.
2. "Men"ning siymosi uchta komponentni o'z ichiga oladi. Ular qaysilar? Sanab bering, farqlang.
3. O'z-o'ziga baho berish nima va u qanday paydo bo'ladi?

Shaxsning o'zini anglashi, «men» deb his qilishi hamisha muayyan mazmuni bilan yuzaga chiqadi. O'zining borligini anglashi, odamning o'zini kirn deb bilishi — o'quvchi, ishchi, o'qituvchi, muhandis va shunga o'xshash deb anglashi, o'zining o'tmishini va kelajagini anglashi, boshqa kishilar bilan o'zaro munosabatini anglashi, o'z huquq va burchlarini anglashi, o'zining fazilat va kamchiliklarini va shunga o'xshashlarni anglashi o'zini anglashga kiradi. Shaxs o'zini anglaganligidan o'zini-o'zi kuzata oladi va o'zini-o'zi bilib oladi, ko'nglidan o'tgan kechinmalarni tushuna oladi, o'zining xatti-harakatlariga o'zi tanqidiy ko'z bilan qaray oladi.

Individ va shaxsga ta'rif bering.

Ob'ektiv dunyoni biluvchi, uni o'zining ehtiyoji va qiziqishlariga moslab o'zgartiruvchi ongli mavjudotga ajrating.

A.Substrat. V.Ob'ekt. S.Shaxs. D.Sub'ekt. E. Individ

4. Frustratsiya va shaxsning kelajak rejalari.

4- savol bo'yicha darsning maqsadi: Shaxsning ustanovkalarini ta'riflash. Shaxsning muhim orientatsiyalarini talabalarga tushuntirish. Shaxsning ustanovkalarini ishlab chiqish va o'rganish.

Identiv o'quv maqsadi:

Shaxsning ustanovkalarini ta'riflaydi. Shaxsning muhim orientatsiyalarini talabalarga tushuntiradi. Shaxsning ustanovkalarini ishlab chiqadi va o'rganadi.

To'rtinchi savolning bayoni:

Shaxsning belgisi va o'zini anglashining mazmuni — uning biron maqsadni ko'zlashi, shunga intilishidan iborat.

Shaxsning muhim xossasi shuki, u biron maqsadni ko'zlaydi, shu maqsadga intiladi. Shaxs hamisha biron narsaga, biron maqsadga, biron obektga ko'z tikadi, unga intiladi.

XXI asrda ham odam individ, shaxs, sub'ekt, komil inson sifatida psixologik ilmiy tushunchalar negizida talqin qilinishda davom ettiriladi, lekin har bir tushuncha mohiyatida va ko'lamida sifat o'zgarishlari yuz berishi mumkin, chunki tashqi va ichki omillar, ta'sir etuvchilar, ta'sirlanuvchilar ustuvorligi yo'qola boradi.

XXI asrda individ, inson, shaxs, sub'ekt va komil insonni o'rganish turli yo'nalishlarda, vaziyatlarda, yosh xususiyatlari, alohida yondashish negizida, o'ziga xos talhlilga, metodologik asosga suyanib olib boriladi Mustaqillik, istiqlol sharofati bilan shaxsga oid qarashlar, mulohazalar mohiyati, uning mazmuni va shaklida o'zgarishlar yuz beradikim, buning natijasida erkin fikrlash, ochiq shakldagi ilmiy farazlarni ilgari surish imkoniyati tug'iladi.

Respublikamizda yuz berayotgan tub o'zgarishlar xalqimiz, millatimiz ruhiyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tardi, ona yurt madhi, ajdodlar merosidan g'ururlanish, ma'naviyat durdonalaridan faxrlanish hislari vujudga keladi. Vatan va vatanparvarlik tushunchalari o'zining haqiqiy, chinakam ma'nosini kasb etadi. Kishilardagi o'ta sabr-toqatlilik, itoatkorlik, tashabbuskorlikning etishmasligi o'rnini erkinlik, ijodiyot, mehnat, batamom istiqlolga erishish zaruriyati, oilaning butligi, to'kisligi va ularning istiqboli kabi sifatlar, fazilatlar, yuksak tuyg'ular,

xislatlar egallay boshlaydi. Shaxsning yo'naltirilganligida anglangan motivlar asosiy rol o'ynaydi. Kishi ehtiyoj ob'ektini maqsad deb anglagan holda o'zining shaxsiy maqsadlarini o'zi kirgan jamoaning maqsadlari bilan bog'laydi va o'z maqsadlarini tegishli ravishda o'zgartiradi, mazmunga tuzatishlar kiritadi. Kishi faoliyatining natijasini xayolan oldindan belgilab beradigan maqsadning o'zigina emas, balki ushbu maqsad ahamiyatiga molik ob'ektda ro'yobga chiqishining realligi ham anglanilgan bo'lsa, bu hol shaxsning istiqboli deb qaraladi. Istiqboli anglaydigan kishiga xos ta'bi xiralik, kechinmalarga qarama-qarshi o'laroq ruhsizlik holati **frustratsiya** deb ataladi.Bu kishi maqsadga erishish yo'lida real tarzda bartaraf etib bo'l maydi deb hisoblangan yoki shunday deb idrok etiladigan to'sqinliklarga, g'ovlarga duch kelgan hollarda yuz beradi. Frustratsiyaning yuz berishi shaxsning xulq-atvorida va uning o'zini anglashida turli xil o'zgarishlarga olib keladi

Qiziqish - biron bir sohada to'g'ri mo'ljal olishga, yangi faktlar bilan tanishishga, voqe'likni ancha to'la va chuqur aks ettirishga yordam beradigan motivdir.qiziqishning faoliyat jarayonidagi roli benihoyat kattadir. qiziqishlar shaxsni o'zida bilim olish,va anglab etish borasida hosil bo'lgan ishtiyoqni qondirish yo'llarini va usullarini faol tarzda izlashga majbur etadi. Shaxsning yo'naltirilganligini ifodalaydigan qiziqishning qondirilishi odamda uning so'nishiga olib kelmaydi, aksincha, uni qayta ko'rgan, boyitgan va chuqurlashtirgan holda bilish faoliyatining yanada yuksak darajasiga mos keladigan yangi qiziqishlarni keltirib chiqaradi. qiziqishlar bilishning doimiy qo'zg'atuvchi mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Shaxsning ko'ngildagidek rivojlanishi qiziqishlar miqyosining tor emas, keng bo'lishini taqozo etadi.

qiziqishlar barqarorligi darajasiga ko'ra ham har xil bo'lishi mumkin. Shaxsning asosiy ehtiyojlarini eng ko'proq namoyon qiladigan va shu boisdan ham uning psixologik tuzilishiga xos hislatlarga aylanib qoladigan qizi qishlari barqaror hisoblanadi.qiziqishlarning ba'zan barqaror bo'lmasligi katta yoshidagi o'quvchilarning yosh xususiyati hisoblanadi.

Xulk-atvorning muhim motivlaridan biri-e'tiqoddir. E'tiqod-shaxsni o'z qarashlariga, printsiplariga, dunyoqarashiga muvofiq tarzda ish ko'rishga da'vat etadigan motivlar sistemasidir. E'tiqod shaklida namoyon bo'ladigan ehtiyojlarning mazmuni - bu tabiat, tevarak-atrofdagi olam to'g'risidagi bilimlar va ularning muayyan tarzdagi tushunilishi demakdir. Bu bilimlar nuqtai nazarlar (falsafiy,estetik,ahloqiy, va h.k.) ning tartibga solingan va ichki uyushgan sistemasini tashkil etgan taqdirda kishining dunyoqarashi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Motivlar, avvalo, anglanilgani bilan xarakterlanadi. Boshqacha qilib aytganda, motiv (sabab) lar paydo bo'ladigan kishi uni faoliyatga nimalar da'vat etayotganini, uning ehtiyojlari qanday ma'no kasb etishini biladi. Lekin barcha motivlar ham bu kategoriyaga kiravermaydi. Inson ishlari va xatti-harakatlari sababiyatining anchagina ahamiyatga molik jabhasi anglanilmagan motivlardan tarkib topadi.

To'rtinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. Shaxs faolligi,umuman faollik deganda nimani tushunasiz? Faollikka psixologik ta'rif bering va faollikka undovchi motivlarni ko'rsating. Mohiyatini ochib bering. (tushunish)
2. Shaxsning yo'naltirilganligiga ta'rif bering va mohiyatini ochib bering. Anglangan va anglanilmagan motivlarga misollar keltiring. Frustratsiya nima ekanligini izohlang.
3. qiziqishlarga ta'rif bering va tasniflang.
4. Muayyan, konkret obrazda ifodalanadigan yo'nalish shakli, kishi unga o'xshashni istaydi. Bu nima? Ajrating, o'zingizga bog'lab tushuntiring.

A. Ideal. V. qiziqish. S. E'tiqod. D. Dunyoqarash. E. Yo'nalish.

12 – Mavzu: Temperament

Asosiy savollar.

1.Temperament - shaxsning individual psixologik xususiyatlari integratsiyasi (birlashish).
2. Temperament turlari to'g'risida Abu Ali ibn Sino qarashlari.
3.I.I.Pavlovning oliy nerv faoliyati tiplari haqidagi ta'limoti temperamentning fiziologik asosi ekanligi.
4.Temperament tiplari va ularning psixologik tavsifi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va so'zlar: individual xususiyatlar, psixologik xususiyatlar, mijoz, temperament, integratsiya, oliy nerv faoliyati, xolerik, sangvinik, melanxolik, flegmatik, tez, betoqat, serg'ayrat, jo'shqin, sustkash, lapashang.

1.Temperament - shaxsning individual psixologik xususiyatlari integratsiyasi (birlashish).

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Temperament - shaxsning individual psixologik xususiyatlari integratsiyasi ekanligini ko'rib chiqish. Temperament - shaxsning individual psixologik xususiyatlari integratsiyasi (birlashish) ekanligini tushuntirib berish.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Temperament - shaxsning individual psixologik xususiyatlari integratsiyasi ekanligini ko'rib chiqadi.
2.Temperament - shaxsning individual psixologik xususiyatlari integratsiyasi (birlashish) ekanligini talabalarga tushuntirib beradi.

Birinchi savolning bayoni:

Temperament deganda biz, odatda, kishining tabiiy tug'ma xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan individual xususiyatlarini tushunamiz. Temperament lotincha «temperamentum» degan so'zdan olingan bo'lib, uning ma'nosi «aralashma» demakdir.

I.P. Pavlov temperamentni quyidagicha ta'riflaydi: «Nag bir ayrim kishining va shuningdek, har bir ayrim hayvonning ham eng umumiy xarakteristikasidir, har bir individning butun faoliyatlariga muayyan qiyofa beradigan nerv sistemasining asosiy xarakteristikasidir"

Temperament, psixologik jihatdan olganda, kishidagi hissiyotning qo'zg'alishlarida va kishidagi umumiy individual xususiyatdir. harakatchanlikda ko'rinadigan

Har qaysi kishidagi hissiyotning qo'zg'alish tezligi, kuchi va barqarorligi har xil bo'ladi. Bir xil odamlarning hissiyoti tez, kuchli qo'zg'atadi va barqaror bo'ladi. Ba'zi kishilarda esa bunday qo'zg'alish sust, zaif bo'lib, uzoqqa bormaydi. Temperamentning bunday xususiyatlari kishidagi hissiyotning qo'zg'alishlari bilan birga, organizmning atrofdagi muhim ta'siriga javoban ko'rsaladigan ixtiyorsiz reaktsiyalarida, ayniqsa, yaqqol ko'rinadi. Bu xususiyatlar tashqi tomondan kishining mimikalarida, pantomimikalarida, har xil beixtiyor ish-harakat va imo-ishoralarida ko'rinib turadi.

Kishi hissiyotining bunday qo'zg'aluvchanlik xususiyatlari diqqatning kuchi va barqarorligida, iroda sifatlarida, aqliy jarayonlar, jumladan, nutq tezligida aks etadi. Mana shunday ixtiyorsiz faollikning qanday yuz berishiga qarab, bir xil odamlarni «tez», «betoqat», «serg'ayrat», «jo'shqin» deymiz. Ba'zilarini esa «sustkash», «lapashang» va hokazolar deb yuritamiz. Bu xildagi individual xususiyatlardan kishining temperamenti (mijozi) tarkib topadi. Ayrim temperamentlarning alomatlari kishining bolalik chog'larida yaqqol namoyon bo'ladi. Har bir kishining o'z temperamenti bo'ladi. Lekin har qaysi odamning temperamentlarida mana shunday individual tafovutlar bo'lishi bilan birga, bu temperamentlarning umumiy, o'xshash belgi va alomatlari ham bo'ladi. Hamma xilma-xil temperamentlarni mana shunday umumiy belgilariga qarab ajratish, ya'ni klassifikatsiya qilish mumkin.

Birinchi savol bo'yicha nazorat savollari:

1. Temperamentni ta'riflang ?
2. I.P. Pavlovning temperament haqidagi ta'rifini tushuntiring?
3. Temperament - shaxsning individual psixologik xususiyatlari integratsiyasi ekanligini tushuntiring?
4.Temperament - shaxsning individual psixologik xususiyatlari integratsiyasi (birlashish) ekanligini ta'riflang ?

2. Temperament turlari to'g'risida Abu Ali ibn Sino qarashlari

Ikkinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Temperament turlari to'g'risida Abu Ali ibn Sino qarashlarini tushuntirib berish. Abu Ali ibn Sino o'zining «Tib qonunlari» nomli asarida ta'riflagan ta'limotini tushuntirish.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Temperament turlari to'g'risida Abu Ali ibn Sino qarashlarini tushuntirib beradi.
2.Abu Ali ibn Sino o'zining «Tib qonunlari» nomli asarida ta'riflagan ta'limotini tushuntiradi.

Ikkinchi savolning bayoni:

Temperament turlari to'g'risida Abu Ali ibn Sino qarashlari. Forobiydan keyin jahon madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan olimlardan biri buxorolik **Abu Ali ibn Sinodir**. U tibbiyot, falsafa, psixologiya, matematika kabi fanlarning rivojlanishiga e'tibor berdi. U mavjudodni, ya'ni barcha

mavjud narsalarning kelib chiqishi, o'zaro munosabati, biridan ikkinchisiga o'tishini har tomonlama o'rganadi. Ibn Sinoning fikricha, olam yaxlit murakkab bog'liqdir. Bu bog'liqni har tomonlama tekshirish uchun u zaruriyat, imkoniyat, voqelik va sababiyat tamoyillarini asos qilib oldi. Uning fikricha, materiya to'rt shakldan havo, o't, suv, tuproqdan iborat. Ularning o'zaro turli xil birikuvi natijasida murakkab moddiy narsalar tashkil topadi, deb yozadi. Bu moddiy narsalarning moddiy asosi bo'lgan havo, o't, suv, tuproq o'zgarmaydi ham, yo'qolmaydi ham. Ibn Sino materiya harakat, vaqt, fazo bilan uzviy bog'liqdir, deb ta'kidlaydi. Ibn Sinoning ishlarida «jon» tushunchasi organizmni sezish, eshitish, ko'rish qobiliyati deb tahlil qilingan. U jon haqida ajoyib ta'limot yaratdi. Bu haqdagi fikrlar uning «Tib qonunlari» kitobida o'z aksini topgan.

Abu Ali ibn Sino Sharq tabobatida keng qo'llaniladigan «mijoz» tushunchasiga alohida e'tibor berdi. Uningcha, «mijoz» insonning xususiyati uning sifati, tana va ruhga tashqi muhit faktorlarining ta'sirini idrok qilishdir. «Mijoz» organizmning ruhiy va jismoniy barqarorligini ko'rsatgan jismoniy va psixik idrok hamda turli ta'sirlarga javob bo'lib, bu so'z qadimgi grek tabibi Gippokrat tomonidan ishlatilgan. Keyinchalik, u organizmda bo'ladigan 4 suyuqlik qon, safro, balg'am, qora o't haqida ta'limotini ishlab chiqqan.

Ibn Sino tibbiyot muammolarini hal qilishda Gippokrat ta'limotiga suyanadi. «Tib qonunlari* asarida bir necha bor tibbiyot fanini otasi Gippokrat fikrlaridan foydalanadi.

Ikkinchi savol bo'yicha nazorat savollari:

1. Abu Ali ibn Sinoning psixologiya faniga qo'shgan hissasini ta'riflang ?
2. «Mijoz» tushunchasiga ta'rif bering ?
3. Ibn Sino tibbiyot muammolarini hal qilishda Gippokrat ta'limotiga tayangan va qanday fikrlarini asos qilib olgan ?

I.I.Pavlovning oliy nerv faoliyati tiplari haqidagi ta'limoti temperamentning fiziologik asosi ekanligi.

Uchinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Gippokrat ta'limotini ta'riflash. I.I.Pavlovning oliy nerv faoliyati tiplari haqidagi ta'limoti temperamentning fiziologik asosi ekanligini tushuntirib berish.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Gippokrat ta'limotini ta'riflaydi.
2. I.I.Pavlovning oliy nerv faoliyati tiplari haqidagi ta'limotini tushuntiradi.
3. temperamentning fiziologik asosini ta'riflaydi.

Uchinchi savolning bayoni:

Temperament haqidagi ta'limot dastlab qadimgi (bizning eramizdan oldingi 460—356-yillarda yashagan) grek olimi Gippokrat tomonidan yaratilgan. Uning ta'limotiga muvofiq sur'atda, keyinchalik «temperament» termini ham ishlatiladigan bo'ldi, shuningdek, hamma to'rt tip temperament nomlari o'rnashib qoldi.

Gippokrat ta'limotiga muvofiq, odamlarning temperament jihatidan turlicha bo'lishi, ularning organizmidagi suyuqliklarning (xiltlarning) turlicha nisbatda bo'lishi bilan bog'liqdir. Gippokrat fikricha, odam tanasida to'rt xil suyuqlik (xilt) bordir. Chunonchi, o't yoki safro (grekcha - shole), qon (lotincha — sandus), (qora o't — grekcha melanhole) va balg'am (grekcha — rhlegma) bordir. Bu suyuqliklarning har biri o'z xususiyatiga ega bo'lib, ularning o'z vazifasi, ishi bordir. Chunonchi, o'tning xususiyati — quruqlikdir. Uning ishi — organizmdagi quruqlikni saqlab turish, ya'ni badanni quruq tutishdir. Qonning xususiyati — issiqlikdir. Uning ishi — organizmni isitib turishdir. Qora o'tning xususiyati - namlikdir. Uning ishi badan namligini saqlab turish, uning namligini tutib turishdir. Balg'am (shilimshiq modda)ning xususiyati sovuqlikdir. Uning ishi — badanni sovitib turishdir. Gippokrat fikriga muvofiq, har qaysi odamda shu to'rt xildagi suyuqlikdan biri ko'proq bo'lib, ustun turadi. Bu aralashma (lotincha — temperamentum) lardan qaysi biri ustun bo'lishiga qarab, odamlar temperament jihatdan har xil bo'ladilar. Xoleriklarda sariq o't ustun; sangviniklarda qon; melanxoliklarda qora o't; flegmatiklarda esa balg'am (shilimshiq modda) ustun bo'ladi, deb ko'rsatadi.

Gippokratning mana shu to'rt xil moddalar aralashmasi to'g'risidagi ta'limotidan kelib chiqqan *temperament* so'zi qadimgi zamonlardan beri hozirgacha saqlanib kelmoqda.

Temperament xususiyatlarining ilmiy sabablari I.P. Pavlovning yuksak nerv faoliyat tiplari haqidagi ta'limotida ochib berildi. I.P. Pavlov yuksak nerv faoliyat turlari deganda hayvon bilan

odam nerv sistemasining faoliyatidagi eng muhim xususiyatlarning chatishuvini tushunar edi. I.P. Pavlov itlar ustida ko'p tajribalar o'tkazib, reflekslarni tekshirishi natijasida, hayvonlar nerv sistemasining

a) qo'zg'alish va tormozlanishning kuchiga,

b) bu jarayonlarning muvozanatiga va

d) ularning ildamlik darajasiga qarab bir-biridan farq qilishini aniqladi.

I.P. Pavlov ajratishicha, nerv sistemasining kuchi hujayralardagi fiziologik moddalarning zapas miqdori bilan belgilanadi.

Kuchli tipdagi nerv sistemasida bunday zapas ko'p miqdorda bo'lib, kuchsiz tipda ozdir.Nerv sistemasining kuchi qo'zg'alish jarayoniga ham, shuningdek, tormozlanish jarayoniga ham tegishlidir. Nerv sistemasining kuchi, avalo, kuchli qo'zg'ovchilarga «bardosh» bera olish qobiliyatida ko'rinadi.

Nerv sistemasidagi muvozanat, I.P. Pavlov ta'limotiga muvofiq, nerv sistemasining qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining kuch darajasini teng baravar holda tutib tura bilish qobiliyatida ko'rinadi. Qo'zg'alish va tormozlanish baravar darajada kuchli yoki kuchsiz bo'lganda, nerv sistemasida muvozanat bo'ladi. Shu jarayonlardan biri kuchliroq yoki kuchsizroq bo'lsa, nerv sistemasida muvozanat bo'lmaydi.

Nerv sistemasining ildamligi miya po'stining biron qismidagi qo'zg'alishning tormozlanishi bilan yoki, aksincha, tormozlanishning qo'zg'alish bilan naqadar engil almashinishidan iborat. I. P. Pavlov nerv sistemasining bu xususiyatiga, ayniqsa, katta ahamiyat bergan edi.

Yuqorida ko'rsatilgan belgilariga qarab, nerv sistemasining quyidagi to'rt asosiy tiplarini ajratiladiki, bular I.P. Pavlov fikricha, Gippokratning to'rtta temperament tipiga to'g'ri keladi:

a) kuchli muvozanatli va epchil tip. Serharakat tip. Bu tip sangvinik temperament asosini tashkil etadi;

b) kuchli, muvozanatli inert (sustkash) tip og'ir vazmin tip. Flegmatik temperamentning asosini tashkil etadi;

d) kuchli, lekin muvozanatsiz, ya'ni qo'zg'alish tormozlanishdan us-tun chiqadigan, qizg'in, jo'shqin, tip. Bu - xolerik temperamentning asosini tashkil etadi;

e) kuchsiz tip. Melanxolik temperamentning asosini tashkil etadi.

I.P. Pavlov nerv faoliyatining bunday tiplari odamlarga ham xos deb hisoblaydi. «Hayvonlar nerv sistema tiplarini klassifikatsiyalashning elementar fiziologik asoslariga suyanib turib, - deydi I. P. Pavlov, - ana shu tiplarni ko'pchilik odamlarga nisbatan ham qabul qilish lozim».

Shunday qilib, temperament, I. P. Pavlov ta'limotiga muvofiq, yuksak nerv faoliyat tiplarining kishi xulqida namoyon bo'lishidan iboratdir.

Uchinchi savol bo'yicha nazorat savollari:

1. Gippokratning temperament haqidagi ta'limotini gapirib bering ?
2. Gippokrat va I.P. Pavlovning temperament haqidagi fikrlarini qiyosiy solishtiring ?
3. Sangvinik temperament asosini tashkil tushuntiring?
4. Flegmatik temperamentning asosini nimalar tashkil tashkil etadi?
5. Xolerik temperamentning asosini ta'riflang ?
6. Melanxolik temperamentning asosini yoriting?

4.Temperament tiplari va ularning psixologik tavsifi.

To'rtinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Temperament tiplarini ko'rib chiqish. Temperament tiplarini psixologik tavsiflash. Xolerik temperamentni ajratish. Sangvinik temperament va melanxolik temperamentni solishtirish. Flegmatik temperamentni ta'riflaydi.

Identiv o'quv maqsadi:

1.Temperament tiplarini ko'rib chiqadi.

2. Temperament tiplarini psixologik tavsiflaydi.

3.Xolerik temperamentni ajratadi.

4.Sangvinik temperament va melanxolik temperamentni solishtiradi.

5.Flegmatik temperamentni ta'riflaydi.

To'rtinchi savolning bayoni:

Barcha temperamentlarni qadimdan to’rt tipga: 1) xolerik, 2) sangvinik, 3) melanxolik va 4) flegmatik temperamentga ajratishgan.

Xolerik temperament — hissiyotning tez va kuchli qo’zg’aluvchanligi, barqaror bo’lishi bilan farq qiladi. Xolerik temperamentli kishilarning hissiyotlari ularning imo-ishoralarida, mimikalarida, harakatlari va nutqlarida yaqqol ko’rinib turadi. Xoleriklar qizg’inlik va tajanglikka moyil bo’ladilar. Bunday temperamentli kishilar chaqqon, umuman harakatchan, serg’ayrat va har doim urinuvchan bo’ladilar.

Bu xil temperamentli bolalar serg’ayrat bo’ladilar. Ular bir ishga tez kirishadigan va boshlagan ishini oxiriga etkazadigan bo’ladilar. Ular ko’pchilik bilan jamoa o’yinlar o’tkazishni sevadilar va bunday o’yinlarni ko’pincha o’zlari boshlab, oxirigacha faol qatnashadilar. Xolerik temperamentli bolalar arazchan, serjahl va tajang bo’ladilar. Bir narsadan xafa bo’lsalar, bu xafalik ularda uzoq saqlanadi. Ulardagi kayfiyat ancha barqaror va davomli bo’ladi.

Sangvinik temperament — hissiyotning tez, kuchli qo’zg’aluvchanligi, lekin beqaror bo’lishi bilan farq qiladi.

Sangvinik temperamentli kishilarning kayfiyati tez-tez o’zgarib, bir kayfiyat o’ziga teskari bo’lgan ikkinchi bir kayfiyat bilan tez almashib turmog’i mumkin. g’Sangvinik temperamentli kishilarda psixik jarayonlar, xoleriklardagi singari, tez o’tadi. Bu xil temperamentli kishilar ildam, chaqqon, serharakat va jo’shqin bo’ladilar. Sangvinik temperamentli kishilar tevarak-atrofdagi voqealardan tez ta’sirlanadilar va muvaffaqiyatsizliklar hamda ko’ngilsiz hodisalar uncha qattiq xafa qil-maydi. Ular ko’p ishga tez va g’ayrat bilan kirishadigan bo’ladilar, lekin ishdan tez soviydilar. Bir zayldagi ishlarni uzoq davomli sur’atda bajarishga moyil bo’lmaydilar.

Sangvinik temperamentli bolalar juda serharakat, ildam va chaqqon bo’ladilar. Ular har qanday ishga qatnashish uchun doim tayyor bo’ladilar.

Sangviniklar chin ko’ngildan va’dalar berishlari, lekin, ko’pincha, va’dani unutib, uni bajarmasliklari ham mumkin. Bu xil temperamentli bolalar o’yinlarga tez va zavq bilan kirishadilar, lekin o’yin davomida, o’z rollarini tez-tez o’zgartirib turishga moyil bo’ladilar. Ular darrov xafa bo’lishlari va yig’lashlari mumkin, lekin ular xafalikni tez unutadigan bo’ladilar. Ularning yig’isi kulgi bilan tez almashadi.

Melanxolik temperament hissiyotning sekin, lekin kuchli qo’zg’aluvchanligi va barqaror bo’lishi bilan farq qiladi. Melanxoliklar barqaror, davomli bir kayfiyatga moyil bo’ladilar, lekin hissiyotlarining tashqi ifodasi juda zaif bo’ladi. Melanxolik temperamentli odamlar sustkash bo’ladilar. Melanxolik temperamentli odam ishga birdan kirishmasligi mumkin, lekin bir kirishsa, boshlagan ishni oxiriga etkazmay qo’ymaydi.

Bunday temperamentli bolalar mo’min-qobil, yuvosh bo’ladilar, ko’pincha, birov savol bilan murojaat qilsa, uyalib, tortinib javob beradilar. Ularni darrov xafa yoki xursand qilish engil emas, lekin bir narsadan xafa bo’lsalar, bu xafalik uzoq davom etadi, barqaror bo’ladi. Ular bir ishga yoki o’yinga tez yopishib kirishmaydilar, lekin qandaydir ish yoki bir o’yin boshlasalar, bunda chidam va matonat ko’rsatadilar.

Flegmatik temperament hissiyotning juda sekin, kuchsiz qo’zg’alishi va uzoq davom etmasligi bilan farq qiladi Flegmatik temperamentli kishilar hissiyotlarining tashqi ifodasi kuchsiz bo’ladi. Bu xil temperamentli odamlarni xursand qilish, xafa qilish yoki g’azablantirish ancha qiyin.

Flegmatiklarning psixik jarayonlari sust bo’ladi. Bu xil temperamentli odamlar nihoyat og’ir, yuvosh, bosiq, harakatlari salmoqli bo’ladi. Agar bir faoliyatga kirishsalar, uni qat’iyat bilan davom ettiradilar.Flegmatik temperamentli bolalar yuvosh, mo’min qobil bo’ladi. Ular ko’pchilikka aralashmaydigan, tortinchoq va hech kimga tegmaydigan, birovni ranjitmaydigan bo’ladilar.Agar birov ular bilan urish chiqarmoqchi bo’lsa, o’zlarini chetga olishga harakat qiladilar. Ular shovqin-suronli, harakatli o’yinlarga moyil bo’lmaydilar. Bu xil temperamentli bolalar jizzaki bo’lmaydilar va odatda ular o’yin-kulgilarga moyil emaslar.

Har qaysi odam temmperamentida o’ziga xos individual xususiyatlari bo’ladi, bu xususiyatlarni batamom muayyan bir temperament tipiga kiritib bo’lmaydi. Bu xususiyatlar ayni individual xususiyatlardir, ya’ni shu shaxsning o’zigagina xos xususiyatdir. Ko’pchilik odamlarda bir tip temperament alomatlari ikkinchi bir tip temperament alomatlari bilan qo’shilgan bo’lishini ko’ramiz; chunonchi, xolerik temperamentli kishida melanxolik yoki flegmatik temperament

alomatlari bo'lishi, sangvinik temperamentli kishida xolerik va flegmatik temperament alomatlari bo'lishi mumkin va hokazo.
Odamlarni faqat ularda qaysi temperament belgilari ustun bo'lsa, shunga qarab, ma'lum bir temperament tipiga kiritish mumkin.

To'rtinchi savol bo'yicha nazorat savollari:

1.Temperamentni psixologik tavsiflang?
2.Nerv sistemasi tiplarining kelib chiqishini tushuntiring?
3.Temperament nazariyalarini o'rganing?
4.Temperament tiplarining psixologik xususiyatlarini ajratib bering?
5.Temperament to'g'risida tushunchangizni bayon qiling ?

13-mavzu: Xarakter.

Asosiy savollar.

1 Xarakterning tuzilishi.
2.Xarakter xislatlari. Ekstroversiya va introversiya to'g'risida tushuncha.
3.Xarakter va temperament.
4.Tarbiya va kishining o'z xarakterini o'zi tarbiyalashi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Ekstroversiya, introversiya individual yondashuv, ziddiyatli xarakter, vijdonlilik, shaxsning yo'nalganligi, xarakter aktsentuatsiyasi, introvert, ekstravert, boshqarib bo'lmaydigan, senzitiv, namoyishkorona tip.

Mavzuga oid muammolar:

Xarakterni tug'ma xususiyat deb o'ylaysizmi ? Xarakterni hayot davomida o'zgartirish mumkinmi? Mumkin bo'lsa misollar bilan isbotlang ?
Xarakterni tashkil etuvchi omillar nimalardan iborat? Fikringizni asoslang.
Xarakterning xususiyatlari o'rtasida bog'liqlikni isbotlang
Psixologiyada xarakter muammosini ishlab chiqing.
Xarakter tuzilishini bayon qiling .
"Xarakter aktsentuatsiyasi" ni isbotlang (Leongard bo'yicha).
Hulq-atvor va xarakterning shakllanishi bir birlariga bog'liqmi ? Fikringizni asoslang ?

1. Xarakterning tuzilishi.

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Xarakterning tuzilishi haqida talabalarga tushuncha berish. Xarakterni ta'riflash.

Identiv o'quv maqsadlari.

1.Xarakterning tuzilishi haqida talabalarga tushuncha beradi. 2.Xarakterni ta'riflaydi.
Talabalarda xarakter mavzusini o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

Birinchi savolning bayoni.

Shaxs xulqining tipik usullari bilan bog'liq, faoliyat, muomala va munosabatda namoyon bo'luvchi, mujassamlanuvchi, uning barqaror individual xususiyatlari majmuasiga xarakter deyiladi.
«Xarakter» yunoncha «xaraktir» degan so'zdan olingan bo'lib, «qalqiq chiziq» ma'nosini anglatadi. Bu erda tanga, chaqa yuziga tushirilgan bo'rtma tamg'a ko'zda tutiladi.
Xarakter deganda, shaxsda muhit va tarbiya ta'siri ostida tarkib topgan va uning irodaviy faolligida, tevarak-atrofdagi olamga (boshqa kishilarga, mehnatga, buyumlarga), o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan individual xususiyatlarini tushunamiz. Shaxs xulqining tipik usullari bilan bog'liq, faoliyat, muomala va munosabatda namoyon bo'luvchi, mujassamlanuvchi, uning barqaror individual xususiyatlari majmuasiga xarakter deyiladi. Har bir odam ayrim paytlarda mardlik, salobatlilik, rostgo'ylik, sof-dillik ko'rsatishi mumkin. Lekin kishining hayoti va faoliyatida ayrim paytlardagina yuz beradigan bunday xususiyatlar hali uning barqaror xarakter xususiyatlari bo'la olmaydi. Biz kishi xarakterini ta'riflamoqchi bo'lganimizda, bu odam mardlik qildi yoki rostgo'ylik, sofdillik ko'rsatdi demasdan, balki bu odam mard, rostgo'y, sofdil deb gapiramiz. Bu degan so'z, mardlik, to'g'rilik, sofdillik shu odamga xos fazilat, uning xarakter xislati degan so'zdirki, tegishli paytda mardlik, rostgo'ylik, sofdillik ko'rsatishni biz muqarrar

ravishda bu odamdan kuta olamiz. Agar biz bir kishining xarakter xususiyatini bilsak, bu odamning tegishli paytda qanday xatti-harakat ko'rsatishni oldindan to'g'ri taxmin qila yoki ayta olamiz.

2.Xarakter xislatlari. Ekstroversiya va introversiya to'g'risida tushuncha.

2- savol bo'yicha darsning maqsadi: Xarakter xislatlarini sanash. Ekstroversiya va introversiya to'g'risida tushuncha berish. Xarakterda aktsentuatsiya holatiga ta'rif berish.

Identiv o'quv maqsadlari:

1. Xarakter xislatlarini sanaydi.
2. Ekstroversiya va introversiya to'g'risida tushuncha beradi.
3. Xarakterda aktsentuatsiya holatini izohlaydi.
4. Talabalarda xarakter xislatlarini o'rganishga qiziqish o'yg'otadi.

Ikkinchi savolning bayoni:

Shaxsning xarakteriga tegishli bo'lgan xususiyatlarni **xarakter xislatlari** deyiladi. Xarakter xislatlari kishida tasodifiy uchraydigan xususiyat bo'lmay, balki kishining xulqidagi **doimiy, barqaror xususiyatlar** bo'lib, bu xususiyatlar shaxsning o'zigagina xos bo'ladi.

Har bir odam ayrim paytlarda mardlik, salobatlilik, rostgo'ylik, sof-dillik ko'rsatishi mumkin. Lekin kishining hayoti va faoliyatida ayrim paytlardagina yuz beradigan bunday xususiyatlar hali uning barqaror xarakter xususiyatlari bo'la olmaydi.

Kishi xarakteri tarkibiga kiradigan ayrim xislatlari ijtimoiy munosa-batlarning taraqqiyotiga bog'liq holda, tarixiy ravishda vujudga kelgan va o'zgargan. Sinfiy jamiyatda xarakterning ham sinfiy xislatlari tarkib topgan. Kishilar xarakteridagi ayni bir xislatning o'zi turlicha ijtimoiy muhit-da turlicha baholanadi: bir ijtimoiy sinf, bir tarixiy davr uchun ijobiy hisoblangan xarakter xususiyati ikkinchi bir sinf, ikkinchi bir ijtimoiy davr uchun salbiy bo'lib qoladi.

Xarakter va uning shakllanishi, namoyon bo'lishi uchun kishilarimiz-ni o'rab olgan muhiti, turli faoliyatlarga turlicha munosabatlar, yashab turgan jamiyatimizdagi munosabatlar sabab bo'ladi. Bu esa xalqimizda yangicha xarakter xislatlarining shakllanishiga, asrlar davomida avlod-dan-avlodga o'tib kelayotgan saxiylik, samimiylik, o'zaro hamkorlik, bir-biriga yordam, iffat, sharm-hayo, kamtarlik, mehmondo'stlik kabi sifatlar barqaror xususiyatlarga aylanib qolmoqda. Bu xususiyatlar yana avlod-dan-avlodga o'tadi va mazmun, sifat jihatidan o'zgaradi va u kishilarni o'z-o'ziga, jamiyatga, mehnatga, narsalar va hodisalarga bo'lgan muno-sabatlarda yangicha xarakter xislatlarni shakllantiradi.

1. Hozirgi kunda laganbardorlik, xushomadgo'ylik, takabburlik, egaizm, tamoyilsizlik kabi salbiy illatlar o'rnini o'zaro muruvvat, hamkorlik, kishilarni hurmat qilish, ularga qo'llaridan kelguncha yordamlashish, mehr-saxovat, adolat, savobli ishlar qilish, halol va haromni, vijdonni his qilish yaxshilik kabi ijobiy sifatlar egallab bormoqda.

Ekstravertirovanlik va introvertirovanlik. Shaxsning faoliyati va reaktsiya ko'p jihatdan nimalarga bog'liqligiga, chunonchi favquloddagi tashqi taassurotlarga (ekstravertirovanlik) yoki, aksincha, timsollarga, tasavvurlarga, o'tmish hamda kelajak bilan uyg'unlashgan mulohazalarga (introvertirovanlik) taalluqligiga asoslangan holda munosabat ifodasidir.

Kishi xarakteri tabiiy, tug'ma bo'lmay, balki keyin hosil bo'ladi va tarbiyalanib etishadi. «Xarakter tarkib topadi, xarakter hosil bo'ladi» degan iboralar shuni ko'rsatadiki, odamlar kishi xarakterining tarbiya ta'siri bilan o'zgarishi xususiyatiga ega ekanligini o'zlarining kundalik oddiy ku-zatib borishlaridan bilib olganlar.

Burjua olimlaridan bir qanchasining Krechmer va uning izidan boruv-chilar, odam xarakteri va uning taraqqiysi tamomila kishining tana tuziiishi bilan, faqat shu bilan belgilanadi, deb isbotlashga urinishlari fanga xilof reaksion urinishdir. Bunday olimlar xarakterning tarkib topishida, shuningdek, shaxsning psixik hayotining taraqqiy etishida ijtimoiy sharoit ham, insonning faoliyati ham, tarbiya ham hech qanday rol o'ynamaydi, deb da'vo qiladilar.

Kishining xarakteri tug'ma, doimiy va o'zgarmaydigan narsa emas. Hech bir bola mehnatsevar yoki dangasa, rostgo'y yoki munofiq, botir yoki qo'rqoq, intizomli yoki intizomsiz bo'lib tug'ilmaydi.

Har bir odamning xarakteri temperamenti asosida, ijtimoiy muhit ta'siri bilan, tarbiya, amaliy faoliyat jarayonida va kishi o'z-o'zini tarbiyalash bilan taraqqiy qilib, o'zgarib boradi.

Xaraklerning taraqqiysi kishining irodasi, aql-idroki va hissiyotlarining taraqqiy qilib borishi bilan mustahkam bog'liqdir. Shu sababli, kishining irodasi, aql-idroki va tuyg'u-hissiyotlarining taraqqiy

qilib borishi va ularning tarbiyalanishi haqida aytilgan fikriarning hammasi kishi xarakterining taraqqiysiga ham tegishlidir.

Ikkinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. Ekstroversiya va introversiyaga ta'rif bering ?
2. Xarakterning tuzilishini ishlab chiqing ?
3.Xarakterning xislatlarini aniqlang ?
4. Barqaror xususiyatlarni belgilang ?
5. Laganbardorlik, xushomadgo'ylik, takabburlik, egaizm, tamoyilsizlik kabi salbiy illatlarga qisqacha ta'rif bering.

3.Xarakter va temperament.

3-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi: Xarakter va temperamentning bog'liqligini talabalarga tushuntirish.

Identiv o'quv maqsadi:

Xarakter va temperamentning bog'liqligini talabalarga tushuntiradi.

Uchinchi savolning bayoni:

Har bir odamning xarakteri temperamenti asosida, ijtimoiy muhit ta'siri bilan, tarbiya, amaliy faoliyat jarayonida va kishi o'z-o'zini tarbiyalash bilan taraqqiy qilib, o'zgarib boradi.

Agar temperament va uning tug'ma xususiyatlari o'z holicha qolaver-sa, odamda yomon xarakter xislatlari tarkib topishi mumkin. Masalan, xolerik temperament odamni cho'rtkesar, qo'pol, o'zini tuta olmaydigan qilishi mumkin. Sangvinik temperament sabotsizlikka, diqqatni bir joyga qo'ya bilmaslikka sababchi bo'lmog'i mumkin bo'lganidek, flegmatik temperament sustkashlikka, loqaydlikka olib borishi mumkin. Melanxolik temperamentli kishida o'z kechinmalariga ortiqcha berilishlik, pismiqlik paydo bo'lishi mumkin.

Xarakterni tarbiyalash, jumladan, temperamentning ijobiy tomonlarini o'stirishdan, uning salbiy tomonlarini va bu salbiy tomonlarni xarakterning ijobiy xislatlari bilan «almashtirishdan» iboratdir. Masalan, xolerik temperamentli bolalarni tarbiyalashda ularni o'ylab ish qilish, o'zini tuta bilish, atrofdagi odamlar bilan yaxshi muomalada bo'lishga odatlantirish va ularda shu sifatlarni o'stirishga alohida e'tibor berish lozim. Sangvinik temperamentli bolalarni sabotli bo'lishga, diqqatini bir joyga qo'ya bilishga, ishga qunt qo'ya olishga, boshlagan ishni oxiriga etkazishga odat-lantirmoq kerak. Melanxolik temperamentli bolalarni odamga ko'proq aralashishga, jamoachilikka, ildam harakat qilishga odatlantirmoq, ularda shu sifatlarni tarbiyalamoq kerak. Flegmatik temperamentli bolalarni tashabbuskorlikka, faollikka, kishilarga el bo'lishga, quvnoqlikka odatlantirmoq lozim.

Xarakterning salbiy tomonlarini yo'qotmoq uchun, ijobiy tomonlarini tarbiyalab etkazmoq uchun tarbiyalanuvchini o'z temperamentini o'zi idora qila bilishga o'rgatish lozim, uni shunday tarbiyalash kerakki, u temperamentini o'zi idora qilish zaruriyatini o'zi anglashi va haqiqatan uni idora qila olsin, temperamentiga bo'ysunmaydigan bo'lsin. O'z temperamentini idora qila bilish xarakterning muhim ijobiy xislatidir. Xarakter tarbiyasini faqat temperamentning salbiy tomonlarini ayrim ijobiy sifatlari bilan almashtirishdan iborat deb tushunish yaramaydi. Xarakterni tarbiyalashda pedagog, avalo muayyan idealni yoki davrimizning oliyjanob kishilari obrazini asos qilib olmog'i lozim. Bu ma'naviy boylik-ni, axloqiy soflikni va jismoniy kamolotni o'zida garmonik holda mujassamlashtirgan yangi odamlardir. Bunday yangi odam xarakterining xislati ijtimoiy va shaxsiy hayotda halollik va rostgo'ylik, axloqiy poklik, oddiylik va kamtarlikdir. Bizga yuksak ma'naviy fazilatga ega bo'lgan, halol vijdonli kishilar, tetik va xushchaqchaq kishilar, qiyinchiliklardan qo'rqmaydigan, mustaqil jamiyat qurish yulida har qanday qiyinchilik-larga bardosh bera oladigan, ularni bartaraf qilishga tayyor turgan kishilar kerak.

Uchinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. Har bir odamning xarakteri temperamenti asosida, ijtimoiy muhit ta'siri bilan o'zgarib borishini misollar bilan tushuntiring?
2.Tarbiya, jarayonida va kishi o'z-o'zini tarbiyalash bilan xarakter taraqqiy qilib, o'zgarib boradimi ?

4.Tarbiya va kishining o'z xarakterini o'zi tarbiyalashi.

4 savol bo'yicha darsning maqsadi: Tarbiya va kishining o'z xarakterini o'zi tarbiyalashni talabalarga tushuntirish. Xarakterning o'sishida tarbiyaning ahamiyatini aniqlash. Xarakterni tarbiyalashda ota-onaning, o'qituvchining, tarbiyachining o'rnini aniqlashni o'rgatish.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Tarbiya va kishining o'z xarakterini o'zi tarbiyalashni talabalarga tushuntiradi.
2.Xarakterning o'sishida tarbiyaning ahamiyatini aniqlash.
3.Xarakterni tarbiyalashda ota-onaning, o'qituvchining, tarbiyachining o'rnini aniqlashni o'rgatish.

To'rtinchi savolning bayoni:

Xarakterning o'sishida tarbiya va o'z-o'zini tarbiyalash asosiy rol o'ynaydi.

O'sib kelayotgan yosh avlodning xarakteri, avvalo, oilada va maktabda tarbiyalanadi. Bolalarning xarakterini tarbiyalashda katta mas'uliyatli vazifa ota-onalar, o'qituvchilar, bolalar bog'chalari, kasb-hunar kollejlari va internat-maktablar tarbiyachilari zimmasiga tushadi.

Kishi xarakteri faqat pedagoglar tomonidan olib boriladigan tarbiyaviy ta'sir etishning samarasi bo'libgina qolmay, balki o'z-o'zini tarbiyalashining ham mahsulidir. Shu sababli har bir kishi ma'lum yoshdan boshlab o'z xarakteri va uning ayrim sifatlari uchun o'zi javobgardir. O'z xarakterini tarbiyalashda u kishi, avalo, yaxshi fazilatlarni, shaxs idealini o'zida tarbiyalab etkazishni ko'zda tutmog'i lozim.

O'z kamchiliklariga o'zi iqror bo'lish kishi xarakterining ijobiy, progressiv xislatidir. O'z kamchiliklariga iqror bo'lish kishini o'z-o'zini tarbiyalash yo'liga boshlaydi.

Maktab o'quvchisi xarakterining tarkib topishida o'z-o'zini tarbiyalash katta o'rin egallaydi. O'z-o'zini tarbiyalashga harakat qilish ko'p jihatdan atrofdagi odamlarning ta'siri va avvalo pedagogning ta'siri ostida tug'iladi va taraqqiy etadi.

O'z-o'zini tarbiyalashga intilishni paydo qilishda jamoaning roli katta. Ta'lim-tarbiya ishlari to'g'ri yulga qo'yilgan taqdirda o'rta yoshdagi maktab davrining birinchi yillaridayoq o'quvchilarda o'z xarakterini o'zi tarbiyalashga intilish istagi sezilarli ravishda ko'rina boshlaydi.

O'smirlarda o'z-o'zini anglashning tarkib topishi asosida kishi shaxsi-ga xos bo'lgan yaxshi fazilatlarni o'zlarida paydo qilish masalasi tug'iladi. O'smirlar ko'pincha o'z harakatlarida faqat katta yoshdagi kishilarga yoki o'rtoqlariga taqlid qilibgina qolmay, balki har bir ishni o'z xohlagan-laricha qilishga, mustaqillikka, boshqalarga o'xshamaslikka intiladilar.

To'rtinchi savol uchun nazorat topshiriqlari

1.Xarakterning o'sishida tarbiyaning rolini belgilang ?
2.O'z-o'zini tarbiyalashga harakat qilish ko'p jihatdan pedagogning ta'siri ostida tug'iladi va taraqqiy etadi deylik bunda pedagogning ta'siri nimalardan iborat bo'ladi ? Gapirib bering?
3. Xarakter haqida umumiy tushuncha bering ?
4. Xarakterning fiziologik asoslarini tekshiring ?
5. Xarakter tuzilishi nazariyalarini o'rganing ?
6. Xarakter va shaxs haqida fikringizni bayon qiling ?

Mavzu bo'yicha asosiy xulosalar:

Xarakterning tuzilishini o'rganish. Xarakter xislatlarini sanash. Ekstroversiya va introversiya to'g'risida tushuncha berish. Xarakterda aktsentuatsiya holatini ta'riflash. Xarakter va temperamentning bog'liqligini aniqlash. Tarbiya va kishining o'z xarakterini o'zi tarbiyalashini ko'rib chiqish.

14-mavzu: Qobiliyat

Asosiy savollar.

1.Qobiliyat haqida tushuncha.
2.Qobiliyatning sifat va miqdor tavsifi.
3.Qobiliyatlarning tuzilishi.
4.Qobiliyatlarning turlari: umumiy va maxsus qobiliyatlar. Qobiliyat va faoliyat. Qobiliyat va qiziqishlar.
5.Talant, uning kelib chiqishi va tuzilishi. Qobiliyat va talantning dastlabki tabiiy shart-sharoitlari. Qobiliyat va irsiyat. Qobiliyatlarning tarkib topishi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Qobiliyat , talant, qiziqish, umumiy qobiliyatlar, maxsus qobiliyatlar, ziddiyatli xarakter, vijdonlilik, shaxsning yo'nalganligi, xarakter aktsentuatsiyasi, introvert, ekstravert, boshqarib bo'lmaydigan, senzitiv, namoyishkorona tip.

Mavzuga oid muammolar:

1. Qobiliyatni tug'ma xususiyat deb o'ylaysizmi ?
2. Qobiliyat hayot davomida paydo bo'lishi mumkinmi? Mumkin bo'lsa misollar bilan isbotlang?
3. Qobiliyat va talant o'rtasida bog'liqlikni isbotlang
4. Qobiliyatning ta'limga bog'liqligi.
5.Iste'dod, uning kelib chiqishi va tuzilishini dalillang..

1.Qobiliyat haqida tushuncha.

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Qobiliyat haqida haqida talabalarga tushuncha berish. Qobiliyatni ta'riflash.

Identiv o'quv maqsadlari.

Qobiliyat haqida haqida talabalarga tushuncha beradi. Qobiliyatni ta'riflaydi.
Talabalarda qobiliyat mavzusini o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

Birinchi savolning bayoni.

Shaxsning faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan, bilim, ko'nikma va malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namoyon bo'ladigan individual psixologik xususiyati **qobiliyatlar** deyiladi.

Kishilar turli sohalardagi faoliyatlarida — mehnat, o'yin, o'qish va ijodiyotda biror narsani tez yoki sekin bajarishlari bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Ba'zi bir odam bir ishni sekinlik bilan bajarsa, bir kishi tezlik bilan bajaradi. Ayrim kishilarning faoliyatlari samarali, serunum bo'lsa, boshqalarniki esa kam unum bo'ladi. Ba'zi odamlar o'z ishlarida ijodiy, original usullarni ko'proq qo'llasa, ba'zi bir kishilarning ishlarida esa bunday usullar kamroq ko'rinadi. Kishilar faoliyatining mana shu xususiyatiga qarab, biz ularning qobiliyatlari qandayligini aniqlab olamiz. Kishilar qobiliyati nihoyatda xilma-xil bo'ladi. Har bir kasb kishidan mehnatda, ijodiyotda va o'qish faoliyatlarida tegishli qobiliyat talab etadi. Kishi faoliyatining har xil turlariga muvofiq, nazariy va amaliy qobiliyatlarni, matematika, texnika, musiqa, adabiyot, pedagogika, xo'jalik, tashkilotchilik va boshqa sohalarga oid qobiliyat turlari bo'ladi.

Inson qobiliyatining barcha turlari hamma odamlarga xosdir — har qaysi odam ma'lum darajada kishi faoliyatini barcha turlariga layoqatli bo'ladi.

Kishining iste'dod darajasini undagi muayyan qobiliyatlarning qanchalik tez o'sishiga, bilim va malakalarni qanchalik egallash iga hamda o'z ishini qanchalik muvaffaqiyat bilan va samarali bajarishiga qarab aniqlaymiz.

Qobiliyat va iste'dodda kishining aqli (intellekti) ham, ya'ni idrok va kuzatuvchanligining, tafakkur, xayol, nutq va xotiraning qanchalik o'sganligi ham ko'rinadi. Aql faoliyati diqqat va iroda bilan bog'liq bo'lgani uchun qobiliyat va iste'dod diqqat va irodaning qanchalik kuchli va barqarorligida ham ko'rinadi. Kishining qanchalik kuzatuvchan ekanligi, bilimlarni qanday o'zlashtirishi, nazariy va amaliy masalalarni qanday hal qilishi, qanday qimmatli yangiliklar yaratishi, o'z bilim va malakalarini turmushga qanday tatbiq qila bilishidan ham, kishining qobiliyat va iste'dodini bilish mumkin.

Qobiliyat va iste'dodni bilim yoki ma'lumotga teng baravar deb, ya'ni u bilan aynan bir narsa deb qarash yaramaydi. Kishining muayyan bir xildagi qobiliyati va iste'dod darajasi uning ma'lum sohada bilim va ko'nikma hosil qilish tezligi darajasi bilan belgilanadi. Shuningdek, qobiliyat amalda qo'llay olish va ijodiyotda undan foydalana bilishda ham ko'rinadi. Bilim olish va ko'nikma hosil qilish esa, o'z navbatida, qobiliyat va iste'dodning yuzaga chiqishiga hamda o'sishiga sabab bo'ladi.

Ma'lum soha yoki biror ixtisos bo'yicha faoliyat samarasi jihatidan odamlarning qobiliyat darajasi har xil bo'ladi. Ba'zi odamlar o'zining yuksak darajali qobiliyatlari bilan boshqa odamlardan ajralib turadi. Bunday odamlarni talantli va genial deyiladi, ularning yuksak qobiliyatini esa geniallik va talantlilik deyiladi.

Qobiliyat, odatda, ishtiyoq va moyillik bilan bog'liq bo'ladi. Muayyan faoliyatga bo'lgan moyillik va unga bo'lgan qobiliyat, ko'pincha, bir-biriga mos keladi, birgalikda o'sadi. Kishidagi moyillik ko'pincha, undagi mavjud qobiliyatlarning ko'rsatkichi bo'ladi.

Birinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. Qobiliyatlar deb nimaga aytiladi ?
2. Kishilarning turli sohalardagi faoliyatlarida — mehnat, o'yin, o'qish va ijodiyotda qobiliyatning o'rnini aniqlang ?
3. Nazariy va amaliy qobiliyatlarni ajrating ?
4. Layoqat va qobiliyatning farqini tushuntiring ?

2. Qobiliyatning sifat va miqdor tavsifi.

2-asosiy savol bo'yicha darsning maqsadi: Qobiliyatning sifat va miqdor jihatini tavsiflash. Fanning mumtoz psixologlariga aylangan Spirmen, Pirson, Kettell va boshqalar XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlaridayoq muayyan ixtisoslar uchun kasb tanlashni ilmiy asosda yo'lga qo'yish zaruriyatidan kelib chiqadigan talablar tazyiqida o'quv yurtlarida saboq olayotgan shaxslarning qobiliyat darajasini aniqlashga doir qarashlarini ta'riflash.

Identiv o'quv maqsadlari:

Qobiliyatning sifat va miqdor jihatini tavsiflaydi.

Spirmen, Pirson, Kettellning o'quvchilarning qobiliyatlarini aniqlashga doir qarashlarini ta'riflaydi.

Ikkinchi savolning bayoni:

Bizga ma'lumki qobiliyatlar individual-psixologik xususiyatlar hisoblanadi. Buning asosida bir insonning boshqa insondan tafovutlanadigan xislatlari, fazilatlari yotadi. Shuning uchun har bir shaxsdan bir xil natija, bir xil sifatni kutish mumkin emas, chunki insonlar o'z qobiliyatlari bo'yicha bir-birlaridan muayyan darajada farq qiladilar, binobarin, ular o'rtasida farqlar sifat va miqdor jihatidan bir talay bo'lishi mumkin. Qobiliyatlarning sifat tavsifi shaxsning qaysi individual-psixologik xususiyatlari faoliyat muvaffaqiyatining majburiy sharti tariqasida xizmat qilishini anglatadi. Ularning miqdoriy tavsifi esa faoliyatga qo'yiladigan talablarga shaxs tomonidan qay yo'sinda bajarish imkoniyati mavjudligini bildiradi, ya'ni mazkur inson boshqa odamlarga qaraganda malaka, bilimlardan nechog'lik tez, engil, puxta foydalana olishini namoyish qiladi.

Qobiliyatlarning miqdoriy tavsifi va ularni o'lchash muammosi psixologiya fanida o'ziga xos rivojlanishning tarixiy o'tmishiga ega. Hozirgi davrda fanning mumtoz psixologlariga aylangan Spirmen, Pirson, Kettell va boshqalar XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlaridayoq muayyan ixtisoslar uchun kasb tanlashni ilmiy asosda yo'lga qo'yish zaruriyatidan kelib chiqadigan talablar tazyiqida o'quv yurtlarida saboq olayotgan shaxslarning qobiliyat darajasini aniqlashga kirishdilar. Ularning taxminlaricha, insonning lavozimiga loyiqligi, uning mehnat faoliyatiga layoqatini, shuningdek, oliy o'quv yurtlariga, harbiy xizmatga, rahbarlik martabasini egallashga nisbatan imkoniyatlarini aniqlash mumkindir.

3.Qobiliyatlarning tuzilishi.

3-savol bo'yicha darsning maqsadi: Qobiliyatlarning tuzilishini talabalarga tushuntirish. Tematik qobiliyatlarni ajratish. Adabiy qobiliyatlarni farqini aniqlash. Pedagogik qobiliyatlarning tuzilishini va ahamiyatini aniqlash.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Qobiliyatlarning tuzilishini talabalarga talabalarga tushuntiradi.
2. Tematik qobiliyatlarni ajratadi.
3.Adabiy qobiliyatlarni farqini tekshiradi.
4. Pedagogik qobiliyatlarning tuzilishini va ahamiyatini aniqlaydi.

Uchinchi savolning bayoni:

Insondagi yuksak ko'rsatkichga erishgan sifat harchand ustuvorlikka ega bo'lmasin, u talablarni qondirish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Ayrim hollarda alohida namoyon bo'lgan psixik xususiyat (xislat) faoliyatning yuksak mahsuldorligi va samaradorligini ta'minlash qurbiga ega, u qobiliyatlar uddalay oladigan imkoniyat bilan babbaravar kuch-quvvat tariqasida vujudga keladi degan faraz o'zini oqlamaydi. Shuning uchun qobiliyatlar murakkab tuzilishga ega bo'lgan psixik sifatlar (xislatlar) majmuasidir, deyish juda o'rinlidir.

Qobiliyatlar sifatida ro'yobga chiqadigan psixik xislatlar majmuasining tuzilishi yaqqol va alohida faoliyat talabi bilan belgilanganligi tufayli har qaysi turdagi faoliyatlar uchun o'ziga xos tarzda qo'yilishi turgan gap. Buning uchun ayrim misollarni tahlil qilib o'tamiz:

1) tematik qobiliyat: Matematik materiallarni umumlashtirish, mulohaza yuritish jarayonini qisqartirish, matematik ish-amallarni kamaytirish, masalani idrok qilish bilan natijasi o'rtasida aloqa o'rnatish, to'g'ri va teskari fikr yuritishdan engil o'tishlik, masala echishda fikr yuritishning epchilligi kabilar;

2) adabiy qobiliyat: Nafosat hislarining yuksak taraqqiyot darajasi, xotirada yorqin ko'rgazmali obrazlarning jonliligi, «til zehni», behisob xayolot, ruhiyatga qiziquvchanlik, o'zi ifodalashga intiluvchanlik va boshqalar. Ajratib ko'rsatilgan qobiliyatlar tarkibidan ko'rinib turibdiki, matematik va adabiy qobiliyatlar o'zaro bir-biriga o'xshamagan talablari bilan tafovutga egadir. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, pedagogik, musiqaviy, texnik, konstruktorlik, tibbiy qobiliyatlar va shunga o'xshash qobiliyatlar tuzilishi maxsus xususiyatga ega bo'lib, kasbiy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Yaqqol qobiliyatlar tuzilishini tashkil qiluvchi shaxsning xislatlari, fazilatlari orasida ustuvorlik qilsa, ayrimlari yordamchilik vazifasini bajaradi. Ma'lumki, pedagogik qobiliyatlar tuzilishida etakchi xislatlar sifatida pedagogik odob (takt), bolalarni sevish, o'quvchilar jamoasini tashkil qilish va uni boshqarish, kuzatuvchanlik, talabchanlik, bilimlarga chanqoqlik, bilimlarni uzatishga uquvchanlik va shunga o'xshashlar tan olinadi. O'qituvchilik qobiliyatining yordamchi (qo'shimcha) fazilatlariga quyidagilar kiradi: artistlik, nutqiy qobiliyat, diqqatni taqsimlash, akademik qobiliyatlar va hokazo. Pedagogik qobiliyatlarning etakchi (asosiy) va yordamchi (qo'shimcha) tarkiblari, jabhalari ta'lim jarayoni muvaffaqiyatini ta'minlaydigan birlikni (birikuvni) yuzaga keltiradi hamda o'qituvchi shaxsi bilan bog'liq bo'lgan hamkorlik individual faoliyatini tashkillashtiradi.

Uchinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. Har bir odamning xarakteri temperamenti asosida, ijtimoiy muhit ta'siri bilan o'zgarib borishini misollar bilan tushuntiring?

2.Tarbiya, jarayonida va kishi o'z-o'zini tarbiyalash bilan xarakter taraqqiy qilib, o'zgarib boradimi ?

4.Qobiliyatlarning turlari: umumiy va maxsus qobiliyatlar. Qobiliyat va faoliyat. Qobiliyat va qiziqishlar.

4 savol bo'yicha darsning maqsadi: Qobiliyatlar turlarini aniqlash. Umumiy va maxsus qobiliyatlarni ajratish. Qobiliyat va faoliyatning bog'liqligini tekshirish. Qobiliyat va qiziqishlarni belgilash.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Qobiliyatlar turlarini aniqlaydi.
2.Umumiy va maxsus qobiliyatlarni ajratadi.
3. Qobiliyat va faoliyatning bog'liqligini tekshiradi.
4.Qobiliyat va qiziqishlarni belgilaydi.

To'rtinchi savolning bayoni:

Qiziqish-havas iborasini biz ko'pincha maroqli, ajoyib, yoqimli ma'nolarda ham ishlatamiz. Qiziq spektakl, maroqli roman, ajoyib odam va hokazolar deganimizda, odatda, shu ma'noda gapiramiz.

Bunday ma'noda tushuniladigan qiziqish-havasni bevosita qiziqish-havas yoki qisqa muddatli qiziqish-havas deymiz. Bu xildagi qiziqish-havas, asosan, kishidagi ixtiyorsiz diqqat jarayonida ro'y beradi va u kishining individual xususiyatlari tarkibiga kirmaydi.

Bevosita qiziqish-havasni uzoq muddatli, nisbiy barqaror qiziqish-havasdan farq qilmoq kerak. O'ziga xos tor ma'noda ishlatiladigan qiziqish so'zi aslida shu xildagi barqaror qiziqish-havasni bildiradi.

Qiziqishning bu xili (barqaror qiziqish-havas) shaxsning diqqat-e'tiborini muayyan narsaga, voqelik va hayotning muayyan sohasiga, muayyan bir faoliyatga birmuncha uzoq vaqt va barqaror qaratilishida ifodalanadi.

Qiziqish-havas, jumladan, kishining o'zini qiziqtirgan narsaga erishu-viga doimo intilishida, bu narsani bilib ishga, shu narsani o'ziga yaqin-lashtirish va uni egallab olish uchun har doim intilishida ifodalanadi. Odamlarga xos bo'lgan turli xil qiziqishlar orasida har bir kishining biron-bir sohaga asosiy qiziqish-havasi bo'ladi.

Shunday qiziqish-havasning bo'lishi shaxsning individual xususiyatini tashkil etadi.

Individual qiziqish-havas — kishining o’z hayotida, dunyoda ma’lum bir narsani eng muhim, eng qimmatli hisoblab, shu narsaga erishmoq uchun intilishidir.
Shaxsning asosiy hayot yo’li individual qiziqish-havaslarida namoyon bo’ladi. Qiziqishning bu turi faoliyatning uni qiziqtirgan narsaga moyilligida, shu narsani eslaganda har doim yoqimli tuyg’ular his qilishida, shuningdek, shu narsa va u bilan bog’liq bo’lgan ishlar haqida doim gapirishga moyil-likda ko’rinadi.
Bu qiziqish butun diqqat-e’tiborimizni o’sha bizni qiziqtirgan narsaga qaratishimizda, shu narsaga nimaiki yaqin aloqador bo’lsa, shuni tez-tez esga olishimizda, xayolimizning hadeb shu narsa tevaragida aylanaverishida, fikrimizni o’sha biz qiziqtirgan narsa bilan bog’liq bo’lgan masalalar juda ham chulg’ab olishida ifodalanadi.
Individual qiziqishni kishidagi diqqatning individual xususiyatlari bilan, yoki his-tuyg’ular bilan yoki undagi orzu, intilishlar bilan aynan bir narsa deb tushunish yaramaydi. Qiziqish-havas - shaxsning individual xususiyati bo’lib, uning diqqat-e’tibori real olamdagi muayyan bir sohaga muttasil qaratilishidir. Lekin kishidagi bu xil qiziqish-havas uning diqqat-e’tiborida ham, hissiyotlarida ham, intilishlarida ham, fikrlarida ham, faoliyatlarida ham namoyon bo’ladi.
Qiziqish hammadan ko’ra ko’proq kishining kasbi, ixtisosi bo’yicha qiladigan mehnati, o’qishi bilan bog’liq bo’ladi. Odamda shaxsiy qiziqishlar bilan birga, u ijtimoiy ozod bo’lgani tufayli, unga yana ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy qiziqishlar ham xosdir.
Ijtimoiy-siyosiy qiziqishlari ham mavjuddir. Bu qiziqishlar jamiyatga foyda keltiradigan yoki reaksion jamiyat uchun zararli, emiruvchi qiziqish bo’lmog’i mumkin.
Progressiv ijtimoiy-siyosiy qiziqishlar kishidagi eng yuksak, qimmatli qiziqishdir. Kishilarning individualligi faqat unda ijtimoiy qiziqishlarning mavjudligi bilan emas, balki yana mana shu ijtimoiy qiziqishlarning undagi shaxsiy qiziqishlar bilan bo’lgan nisbatida hamdir. Kishidagi ijtimoiy qiziqishlar uning shaxsiy qiziqishlaridan ustun bo’lganda, undan ham muhimrog’i, kishining shaxsiy qiziqishlari ijtimoiy qiziqishlar bilan mos bo’lgandagina shaxsning ma’naviy hayoti ko’rkamroq bo’ladi.
Intellektual (aqliy) qiziqishlar yuksak ijobiy qiziqishlardir. Ana shunday qiziqish egalari uchun o’z hayotlarida eng muhim narsa - fan bilan mashg’ul bo’lish, kerakli nazariy va amaliy masalalarni hal etishdir. Chunonchi, buyuk sarkarda, sohibqiron Amir Temur, musiqashunos, olim, maqol janrining ijodkori, Muhammadjon Mirzaev, matematik, fizik olim Qori Niyoziy, O’zbekiston FA akademigi I.S. Salimov va boshqalar ana shunday qiziqish bilan yashadilar.
Estetik qiziqishlarning o’ziga berilib ishlaydigan kishilar ham bo’ladi. Bunday odamlar uchun o’z hayotlarida eng asosiy narsa san’at va unga xizmat qilish qimmatbaho san’at asarlari yaratishdir. Chunonchi, rus kom-pozitorlaridan Glinka, Musorgskiy, Chaykovskiy va Moskva badiiy teat-riga asos solgan Stanislavskiylar mana shunday kishilardandir.
Ayrim kishilarda past va sayoz qiziqishlar ham bo’ladi. Bunday past qiziqishga faqat o’zining hissiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan qiziqishlar kiradi.
Shuningdek, faqatgina shaxsiy boylikka - pul yig’ish, dunyo to’plashga qiziqadigan pastkash odamlar ham bor. Bunday odamlar o’zining eng zarur ehtiyojlarini qondirishdan ham voz kechib, emay, ichmay, kiyin-may, faqat dunyo to’plashga, mol yig’ishga harakat qiladi.
Faqat o’z nafsini ko’zlash, dunyo to’plash, molparastlikka qaratilgan tuban qiziqishlar xudbinlik xarakteridagi qiziqishlardir. Bunday qiziqishlar jamiyat manfaatlariga zid bilib, boshqa kishilar farovonligiga zarar etkazadi.
Kishidagi **qiziqishlar doirasi** har xil bo’ladi. Odamlar o’zidagi qiziqish doirasining keng yoki tor bo’lishiga qarab ham bir-biridan farq qiladilar. Faqat birgina narsaga qiziqish bilan cheklanib, boshqa narsalarga e’tibor bermaydigan odamlarni qiziqish doirasi tor kishilar deb ataladi.
Voqelikdagi ko’p sohalarga qiziqadigan kishilarning qiziqish doirasi xilma-xil va keng bo’ladi. Lekin shu bilan birga bunday kishilarda bir qiziqish asosiy, markaziy o’rinni oladi.
Ba’zi odamlar bir narsaga juda qattiq qiziqadilar, kuchli, zo’r havas qo’yadilar, lekin ulardagi qiziqish-havaslar uzoqqa bormaydi; bunday odamlardagi biron narsaga, biron-bir faoliyatga bo’lgan zo’r qiziqish-havas o’rnini darrov boshqa bir xil va shunday zo’r qiziqish-havas oladi.
Bunday kishilarning qiziqish-havaslari tez o’zgaradi. Bunday odamlarni, odatda, «juda qiziqib ketadigan» ishqiboz kishilar deb yuritiladi.

Biz odamlardagi bunday qiziqishlarga barham berish uchun kurashamiz. Bizdagi boshqaruv va tarbiya ishlarimiz, jumladan, yosh avlodlarimizda yuksak va xilma-xil ijobiy qiziqish-havaslar o'stirishga qaratilgandir.

To'rtinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

1. Qobiliyat turlarini aniqlab gapirib bering ?
2.Umumiy va maxsus qobiliyatlarni ajrating ?
3. Qobiliyat va faoliyat bir-birlariga bog'liqlikligini tushuntiring ?
4.Qobiliyat va qiziqishlarni ajrating ?

Mavzu bo'yicha asosiy xulosalar:

Qobiliyat haqida tushuncha berish. Qobiliyatlarning tuzilishini tekshirish. Qobiliyatlarning turlari: umumiy va maxsus qobiliyatlarni aniqlash. Qobiliyat va faoliyat. Qobiliyat va qiziqishlar. Talant, uning kelib chiqishi va tuzilishini o'rganish.

Qobiliyat va talantning dastlabki tabiiy shart-sharoitlarini kuzatish.

15- mavzu: Muloqot

Asosiy savollar.

1.Muloqot. Muloqot axborot almashish tariqasida.
2.Muloqot shaxslararo ta'sir sifatida.
3. Muloqot treningi.
4. Nutq. Nutq turlari va uning vazifalari.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar: Muomala, nutq, attraktsiya, muloqot hayot kechirishning bir shakli, nutqning kommunikativ vositalari, til, jamiyat,elat, ijtimoiy pertseptsiya

Mavzu bo'yicha asosiy muammolar

Muloqotni qanday izohlaysiz? Misollar bilan tushuntiring. Muloqotning tuzilishini ta'riflang. Muloqotning asosiy funktsiyalarini tushuntirib bera olasizmi ?

Verbal va noverbal nutq vositalari haqida o'z fikringizni bildiring Verbal va noverbal nutq vositalari qachon paydo bo'lgan deb o'ylaysiz?

Ularning shakllanish qonuniyatlarini gapirib bera olasizmi? Nutqning tuzilishini qanday aniqladingiz, tushuntirib bering? Identifikatsiyani ta'riflab bering? Muloqot treningini qanday boshqa treninglardan farqi nima? Misollar bilan tushuntiring?

Nutqning asosiy turlarini ajrating. Muloqot bilan nutqning o'zaro bog'liqlik tomonlarini ajratib bering. Sizningcha muloqot bilan nutq bir-birlarisiz paydo bo'lishi mumkinmi, mumkin bo'lsa, ta'rif bering.

Muloqot. Muloqot axborot almashish tariqasida.

Birinchi savol bo'yicha darsning maqsadi: Muloqot haqida talabalarga tushuncha berish. Muloqot axborot almashish tariqasida ekanligini ta'riflash. Muloqotning interaktiv jihatilarini aniqlash.

Identiv o'quv maqsadlari.

Muloqot haqida talabalarga tushuncha beradi. Muloqot axborot almashish tariqasida ekanligini ta'riflaydi. Muloqotning interaktiv jihatilarini aniqlaydi.

Talabalarda muloqot mavzusini o'rganishga qiziqish uyg'otadi.

Birinchi savolning bayoni.

1.Muloqot- ikki yoki undan ortiq kishilarning afektiv baholovchi xarakterda va bilish bo'yicha ma'lumot almashishdan iborat bo'lgan o'zaro ta'sir etishdir. Muloqotning tizimida o'zaro bir-biriga bog'liq jihatlari ajratiladi: kommunikativ, interaktiv, va pertsevtiv

1. Muloqotning kommunikativ jihati bu muloqotdagi individlarni o'zaro ma'lumot almashishidir.
2. Muloqotning interaktiv,jihati bu individlar muloqotda nafaqat bilim va g'oyalar balki harakatlar bo'yicha ham o'zaro ta'sirini tashkil etishdan iboratdir.
3. Muloqotning pertsevtiv jihati muloqot jarayonida o'zaro bir-birini idrok qilish orqali tushunishdir. Demak, muloqot birgalikdagi xarakat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan, aloqa almashish, bir-biriga ta'sir etish, boshqalarni tushunish, odamlar o'rtasida kontakt o'rnatish va rivojlantirish jarayoni. Muloqot hayot kechirishining bir shaklidir. Muloqot hayot kechirishning bir shaklidir.

Muloqotning o’zaro birgalikdagi harakati va kommunikativ jihatdan tashqarida uning pertsivtiv jihati munosabat ishtirokchilarining uning jarayonida amalga oshiriladigan o’zaro idrok etish yuzaga keladi. Taniqli psixolog S.L.Gubinshteyn shunday deb yozgan edi: “Kundalik hayotda odamlar bilan muomalaga kirishar ekanmiz, biz ularning xulq-atvoriga mo’ljal olamiz. Negaki biz ularning tanqidiy ma’lumotlariga ma’lumotlari mohiyatini ”g’oya o’qib,ya’ni mag’zini chaqib chiqamiz va shu yo’sinda kontekstda mujassamlashadigan matnning ichki psixologik jihati mavjud bo’lgan mazmunini anglaymiz”

Birinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

Muloqotni ta’riflang?
Muloqotning interaktiv jihatlarini aniqlang?
Muloqotning kommunikativ jihatini belgilang?
Psixolog S.L.Gubinshteynning fikrlarini bayon qiling? . Muloqotning pertsevtiv jihati muloqot jarayonida qanday yuz beradi? Fikringizni asoslang?

2. Muloqot shaxslararo ta’sir sifatida.

2-savol bo’yicha darsning maqsadi: Muloqot shaxslararo ta’sir sifatida ekanligini tushuntirish. Muloqotning qisqacha ta’rifini ishlab chiqish.
Ijtimoiy pertseptsiyani ta’riflash.

Identiv o’quv maqsadlari:

1. Muloqot shaxslararo ta’sir sifatida ekanligini tushuntiradi.
2. Muloqotning qisqacha ta’rifini ishlab chiqadi.
Ijtimoiy pertseptsiyani ta’riflaydi.
3Talabalarda muloqot mavzusini o’rganishga qiziqish o’yg’otadi.

Ikkinchi savolning bayoni:

Shaxslararo idrok etish jarayonida teskari aloqa, xabar beruvchi funktsiyani va o’zini - o’zi boshqarish funktsiyasini bajaradi. Steriotiplashtirish – xulq -atvor shakllarini tasniflash va ularni hozirgacha ma’lum va mashhur deb sanalgan ya’ni ijtimoiy qoliplarga mos keladigan hodisalar jumlasiga kiritish yo’li bilan ularning sabablarini o’zgartirishdan iboratdir. Ko’p hollarda insonlarning bir-birlarini idrok etishlari «ijtimoiy pertseptsiya» sifatida namoyon bo`ladi. Muloqotning bu jihati ijtimoiy pertseptsiya haqidagina emas, balki shaxslar aro pertseptsiya haqida hamdir. Inson jamiyatda shaxs sifatida qabul qilingani sari. Muloqotda ham shaxs sifatida namoyon bo’ladi. S.L.Rubenshteyn aytganidek: «Biz insonni tashqi xulq - atvoriga qarab o’qiymiz». «Boshqa odamni bila turib, o’rganayotgan individning o’zi ham shakllanadi» deb yozgan edi L.S.Egodskiy. Insonni inson tomonidan idrok etilishida kamida 2 kishi jalb qilingan bo’lishi lozim bo’lib, ularning ikkalovi ham faol sub’ektdir. O’zini boshqa inson tahlil qilishini o’z ichiga identifikatsiya va reflektsiyani kiritadi.
3. Odamlarda samarali muomala o’rnatish malakalarini tasodifiy ravishda tarkib topadi yoki ta’limning yordamchi maxsuli sifatida yuz beradi. Katta maktab yoshidagi o’quvchilar xulq - atvori qoidalariga bag’ishlangan ommabop adabiyotlarni o’qir ekan, muloqot madaniyatining ba’zi jihatlari bilan tanishadi. Lekin muomala malakalarini maxsus o’rgatilishi alohida bir vazifa bo’lib pedagog uchun uning qanchalik muhim ekanligini trening, ya’ni muomalaning mashq qilinishi bu vazifaning hal etish yo’llaridan biri sifatida namoyon bo’ladi.

Ikkinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

Muloqotning tuzilishini aniqlang?
Muloqotning paydo bo’lishini misollar yordamida tushuntirib bering.
Steriotiplashtirishni tushuntiring ?
Shaxslararo idrok etish jarayonida teskari aloqani ta’riflang ?

3. Muloqot treningi.

3- savol bo’yicha darsning maqsadi: Talabalarga muloqot treningini tushuntirish. Muloqot treningini o’tkazishni o’rganish. O’tkazilgan treningni psixologik tahlil qilish yo’llarini ishlab chiqish.

Identiv o’quv maqsadi:

1. Talabalarga muloqot treningini tushuntiradi.
2. muloqot treningini o’tkazishni o’rgatadi.
3. O’tkazilgan treningni psixologik tahlil qilish yo’llarini ishlab chiqdi.

Uchinchi savolning bayoni:

Lekin muomala malakalarini maxsus o'rgatilishi alohida bir vazifa bo'lib pedagog uchun uning qanchalik muhim ekanligini trening, ya'ni muomalaning mashq qilinishi bu vazifaning hal eish yo'laridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Psixologik trenining bu vazifaning hal etish yo'llaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Psixologik trenining mazmunan ikki xil vazifani:

1. Muomalaning va shu jumladan pedagogik muomalaning umumiy qonuniyatlarini.
2. Pedagogik kommunikatsiyaning texnologiyasini egallash, ya'ni professional pedagogik muomala va malakalari shakllanishini o'z ichiga oladi. Psixologik pedagogik trenining shakllaridan yana biri tipik pedagogik vaziyatlarining misol uchun imtihonlarni modellashtiruvchi amaliy o'yinlari. Muomala trening, ya'ni muomalani mashq qilish o'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish sistemasida pedagogik ishning yangi shakli bo'lib, pedagogik ta'lim uchun juda istiqbolli hisoblanadi.

Bog'lanish lotincha son ya'ni "yaqinlashish" degan so'zdan olingan, munosabatga kiruvchilar o'rtasida ikki tomonlama aloqa bo'lishini taqoza etadi. Bunga erishish va uni ko'ngildagidek rivojlantirish sharti munosabatiga kirishuvi shaxslarni o'zaro bir-biriga hurmati va ishonchidan iboratdir. Agar pedagog o'z tarbiyalanuvchilariga ishonch va hurmat bilan munosabatda bo'lsa, u har qancha printsipial va talabchan bo'lgan taqdirda ham, uning eng arzimas tanbehlari ham ta'sirli bo'ladi.

Uchinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

Muloqot tushunchasini yoritib, uni inson hayotidagi rolini tushuntirib bering.
Muloqotning asosiy funktsiyalarini ayting.
Pedagogik muloqot deganda nimani tushunasiz?
Verbal va noverbal nutq vositalari nima?
Identifikatsiya deganda nimani tushunasiz.

4. Nutq. Nutq turlari va uning vazifalari.

4- savol bo'yicha darsning maqsadi: Attraktsiya hodisasini ta'riflash. Talabalarga muomala munosabatlarda attraktsiyalarning o'rni haqida tushuncha berish. Muloqot treningini o'tkazishni o'rganish. O'tkazilgan treningni psixologik tahlil qilish yo'llarini ishlab chiqish.

Identiv o'quv maqsadi:

1. Talabalarga muloqot treningini tushuntiradi.
2. muloqot treningini o'tkazishni o'rgatadi.
3. O'tkazilgan treningni psixologik tahlil qilish yo'llarini ishlab chiqdi.

To'rtinchi savolning bayoni:

Kommunikativ jarayonida qo'llaniladigan bir necha belgilar tizimi mavjud. Bular verbal kommunikatsiya (nutq orqali) va noverbal (nutq bilan bog'liq bo'lmaydigan belgilar orqali) kommunikatsiyadir. Verbal kommunikatsiyada inson nutqi belgilar tizimi sifatida qo'llaniladi. Nutq inson tomonidan qo'llaniladigan tovushlar signallari yoki yozma belgilardan iborat bo'lib, ular orqali muloqotdan olingan ma'lumot qayta ishlanadi, saqlanadi va uzatiladi. Bu jarayon til orqali amalga oshiriladi. Til so'z belgilari tizimi bo'lib, u muloqot jarayonida psixik faoliyat mahsuli bo'lib yuzaga keladi.

Nutqni paydo bo'lishi va amalda qo'llanishini quyidagi sxemada ko'rish mumkin:



aylanishi

ТАКЛИФЛАР

ФОНЕМАЛАР

ОВОЗ

Nutqning o'ziga xos turlari mavjud – tashqi, ichki, og'zaki, yozma va xokozo. Kommunikativ jarayonda o'zaro munosabatga kirishuvchilarni bir-birlari tushunishlari juda muhimdir. Buyuk frantsuz yozuvchisi Antuan Sent Ekzyuperi «Muloqot bu shunday ne'matki, u orqali inson lazzatlanadi deb yozgan edi. So'zning mohiyati haqida Sa'diy «Aqlmisan yoki ahmoq, kattamisan yoki kichik buni biror so'z aytmaganigcha bila olmaymiz» degan edi.

Yozma nutq insoniyat tarixida og'zaki nutqdan ancha keyin paydo bo'lgan. Yozma nutq fanda foydalaniladigan murakkab umumlashmalarning rivojlantirishida, badiiy timsollarni etkazishda muhim rol' o'ynaydi. Nutq o'zining fizologik negiziga ko'ra eshitish va harakat analizatorlari faoliyatini bajaradi. Nutqni programmalashtirish – nutqiy ifodaning, ya'ni kishi bildirmoqchi bo'lgan fikrning ma'naviy o'zagini tuzishda birinchi bosqich hisoblanadi, ikkinchi bosqich jumlaning sintaktik strukturasini tuzishdan iboratdir.

Noverbal kommunikatsiyaga – belgilarning optik kinetik tizimi kirib, ularga jestlar (qo'l harakatlari), mimika (yuz harakatlari) va pontomimika (qo'l- oyoq, tana harakatlari) kiradi.

Jestlar – insonning qo'l harakatlari bo'lib, u orqali insonning ichki holati biror bir ob'ektga munosabati va tashqi olamga yo'nalganligi ifodalanadi. Mimika – inson yuz harakatlarining bir qismi bo'lib, u orqali insonning o'ylari, xatti - harakatlari, tasavvurlari, xotirlashi, taajubi va hokozolar namoyon bo'ladi.

Pontomimika – inson tanasi yoki uning qismlari yordamida ifodalanadigan harakatlar tizimidir.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kundalik muloqot jarayonida so'zlar 7 % ni, tovush va intonatsiya 38 % ni, nutqsiz muloqot esa 55 % ni tashkil etadi.

Noverbal kommunikatsiyaning paralingvistik va ekstralingvistik belgilar tizimi ham mavjud. Bular lokalizatsiya tizimi bo'lib, u ovoz sifatida uning deapozani nutqdagi pauzalar, yo'tal, yig'i, kulgu nutq tempida namoyon bo'ladi.

Muloqotning maqsadga ko'ra 8 ta funktsiyasi mavjud: (L.A.Korpenko)

1. Kontakt.
2. Aloqa o'rnatish.
3. Undovchilik.
4. Koordinatsion.
5. Tushunish.
6. Amotiv (hissiy aloqa) hissiyotni o'zgartirish.
7. Munosobat o'rnatish o'z o'rnini anglash)
8. Ta'sir o'tkazish.

Pedagogik munosobat deganda pedagog va o'quvchilar kollektivi o'rtasida o'zaro birgalikdagi harakatining mazmunan axborot ayirboshlashdan, o'quv tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish va o'zaro hamjihatlikni tashkil etishdan iborat sistemasi usullari va malakalari tushuniladi.

To'rtinchi savol uchun nazorat topshiriqlari:

Muloqot tushunchasini yoritib, uni inson hayotidagi rolini tushuntirib bering.
Muloqotning asosiy funktsiyalarini ayting.
Pedagogik muloqot deganda nimani tushunasiz?
Verbal va noverbal nutq vositalari nima?
Nutqning funktsiyalari nimalardan iborat?
Identifikatsiya deganda nimani tushunasiz.

Mavzu bo'yicha asosiy xulosalar:

Muloqotni tushuntirish. Muloqot axborot almashish tariqasida ekanligini isbotlash. Muloqot

shaxslararo ta’sir sifatida ekanligini ko’rib chiqish. Muloqot treningini o’tkazish. Pedagogik muloqotni ta’riflash. Muloqot va tilning paydo bo’lishini ta’riflash.Nutq turlarini ajratib, uning vazifalarini belgilash

PSIXOLOGIYa FANIDAN AMALIY MASHG’ULOTLAR

1-mavzu.
“Psixologiya fan sifatida” mavzusi bo’yicha amaliy mashg’ulotning texnologik xaritasi

T-r, bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi mas’ul
1-bosqich	**Darsning maqsadi:** Hozirgi zamon psixologiya fanining tuzilishi bilan tanishtirish. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining metodologik asosini yoritish. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining boshqa fanlar o’rtasida tutgan o’rni va aloqasi haqida tushuncha berish. Sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlarining mohiyatini yoritish. **Identiv o’quv maqsadlari:** 1.Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining fanining mohiyatini yoritadi. 2. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining maqsadini izohlaydi. 3. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining vazifalarini umumlashtiradi Sharq falsafasidagi psixologik qarashlarni ajratadi.	O’qituvchi
2-bosqich	**Asosiy tushunchalar:** Psixika, telepatik, sub’ekt-ob’ekt, ong, rux, jon, psixik holat, psixosomatik, determinizm, epifenomenalizm, regulyator, aks ettirish, fiziologik, o’zini-o’zi anglash,sensor, birinchi signal sistemasi, ikkinchi signal sistemasi refleks,dualizm. **Dars shakli:** guruh va mikroguruhda ishlash. **Vositalar**: darslik, ko’rgazmali qurollar, test ishlanmalari, anketa savollari, mavzuga doir hujjatli va badiiy film tasmalari. tarqatma materiallar, psixologik testlar, vedio tasmalar, slaydlar, vedio proektor, ko’rgazmali materiallar. **Metod va usullar:** kitob bilan ishlash, kuzatish, tushuntirish, amaliy mashq.	O’qituvchi
3-bosqich	**Guruhda ishlash** Psixologiya fanining vujudga kelishini ta’riflab berish. Psixologiya fanining maqsadini tushuntirish. Psixologiya fanining vazifalarini aniqlash. Sharq falsafasidagi psixologik qarashlarni o’rganish.	Talaba
4-bosqich	**Mustahkamlash va baholash uchun savollar** Hozirgi zamon psixologiya fanining tuzilishi haqida ma’lumotlar yig’ish. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining metodologik asosini yozma tarzda ifodalash. Sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlarini o’rganish va mohiyatini yoritish. Umumiy psixologiya nazariyasi va amaliyoti fanining boshqa fanlar o’rtasida tutgan o’rnini aniqlash. Psixologik test savollarini echish. Mikroguruhlar ishini baholash.	O’qituvchi-talaba
5-	**Umumiy yakuniy xulosalar chiqarish.**	

bosqich	Darsga qo'yilgan maqsad va belgilangan vazifalar bajarilganligi tahlil qilinadi, tegishli takliflar beriladi, mustaqil ish topshiriqlari beriladi.	O'qituvchi

2-mavzu.
"Psixologiyaning asosiy metodlari" mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

T-r, bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi mas'ul
1-bosqich	**Darsning maqsadi**: Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishini tushuntirish va tamoyillari bilan tanishtirish. Umumiy psixologiyaning asosiy metodlarini o'rgatish. Umumiy psixologiyaning yordamchi metodlarini ajratish. Umumiy psixologiya fanining tarmoqlarini sanash. **Identiv o'quv maqsadlari:** 1.Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi va tamoyillarini tushuntiradi. 2. Umumiy psixologiyaning asosiy metodlarini ta'riflaydi. 3.Umumiy psixologiyaning yordamchi metodlarini ajratadi. 4. Psixologiya fanining tarmoqlarini sanaydi.	O'qituvchi
2-bosqich	**Asosiy tushunchalar:** miya, ong, psixika, ongsizlik, ruhiy sog'lomlik, shaxs faoliyat, individ, individuallik, motivatsiya. **Dars shakli:** guruh va mikroguruhda ishlash. **Vositalar**: darslik, ko'rgazmali qurollar, test ishlanmalari, anketa savollari, mavzuga doir hujjatli va badiiy film tasmalari. tarqatma materiallar, psixologik testlar, vedio tasmalar, slaydlar, vedio proektor, ko'rgazmali materiallar. **Metod va usullar:** kitob bilan ishlash, kuzatish, tushuntirish, amaliy mashq.	O'qituvchi
3-bosqich	**Guruhda ishlash** Hozirgi zamon psixologiyasining tuzilishi va tamoyillarining mohiyatini yoritish.Umumiy psixologiyaning asosiy metodlarini o'rganish. Psixika va aks ettirishni talqin qilish. Umumiy psixologiyaning yordamchi metodlarini aniqlash. Psixologiya fanining tarmoqlarini va uning tutgan o'rnini belgilash.	Talaba
4-bosqich	**Mustahkamlash va baholash uchun savollar** Hozirgi zamon psixologiya fanining tuzilishi haqida ma'lumotlar yig'ish. Psixologiya fanining metodologik asosini yozma tarzda ifodalash. Sharq mutafakkirlarining psixologik qarashlarini o'rganish va mohiyatini yoritish. Psixologik test savollarini echish. Mikroguruhlar ishini baholash.	O'qituvchi-talaba
5-bosqich	**Umumiy yakuniy xulosalar chiqarish.** Darsga qo'yilgan maqsad va belgilangan vazifalar bajarilganligi tahlil qilinadi, tegishli takliflar beriladi, mustaqil ish topshiriqlari beriladi.	O'qituvchi

3-mavzu:
"Psixodiagnostika va psixokorrektsiya" mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

TG'r	Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt
1	**Tayyorlov bosqichi:** **Dars maqsadi:** Psixika materiya evolyutsiyasi natijasi ekanligini talabalarga tushuntirish. Seskanuvchanlik psixikaning sodda shakli ekanligi va uning paydo bo'lishini o'rgatish. Psixikaning taraqqiyot bosqichlarini ta'riflash.Hayvonlarning individual va intellektual xatti-harakatlarini ajratish. Odam psixikasining paydo bo'lishi va uning taraqqiyotini ko'rib chiqish. **Identiv o'quv maqsadlari.** 1.Psixika materiya evolyutsiyasi natijasi ekanligini talabalarga tushuntiradi. 2.Seskanuvchanlik psixikaning sodda shakli ekanligi va uning paydo bo'lishini o'rgatadi. 3. Psixikaning taraqqiyot bosqichlarini ta'riflaydi. 4.Hayvonlarning individual va intellektual xatti-harakatlarini ajratadi. 5.Odam psixikasining paydo bo'lishi va uning taraqqiyotini ko'rib chiqadi. **1.3. Dars shakli:** guruh va mikroguruhda ishlash. **1.4. Foydalaniladigan metod va usullar:** suhbat, ma'ruza, baxs, **1.5. Kerakli jihoz va vositalar:** namoyish etish, savol-javob, suhbat, taqdimot.	**O'qituvchi**
2	**O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi:** **2.1.** Mavzu e'lon qilinadi. **2.2. A**sosiy qismlari bayon qilinadi.	**O'qituvchi, 15 minut**
3	**Guruhda ishlash bosqichi:** **3.1.** Talabalarga mavzuga oid muammoli savol beriladi. **3.2.** Talabalarning fikri eshitiladi va boshqa talabalar baxsga chaqiriladi. **3.3.** Talabalarning fikri tinglanib,umumiy xulosalar chiqariladi va to'g'riligi tekshiriladi. **3.4.** Umumiy xulosani o'qituvchi bayon qiladi.	**O'qituvchi-talaba, 40 minut**
4	**Mustahkamlash va baholash bosqichi:** 1. Seskanuvchanlikni ta'riflang ? 2. Psixika materiya evolyutsiyasi natijasi ekanligini belgilang. 3. Psixikaning taraqqiyot bosqichlarini ta'riflang. 4. Hayvonlarning intellektual xatti-harakatlarini ajrating. 5. Odam psixikasining paydo bo'lishi haqida umumiy tushunchangizni bayon qiling?. **6.** Eng faol talabalar (baholash mezoni asosida) baholanadi.	**O'qituvchi, 15 minut**
5	**O'quv mashg'ulotini yakunlash bosqichi:** **5.1.** Talabalar bilimi tahlil qilinadi. **5.2.** Mustaqil ish topshiriqlari beriladi.	**O'qituvchi, 10 minut**

4-mavzu. "Diqqat" mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

T-r, bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi mas'ul
1-bosqich	**Darsning maqsadi:** Diqqat haqida tushuncha berish, diqqatning nerv-fiziologik asoslarini ko'rib chiqish. Diqqat turlarini sanash, ixtiyorsiz diqqat ixtiyoriy diqqatni ajratish Ixtiyoriydan so'nggi	

	diqqatni kuzatish. Diqqatning xususiyatlarini tushuntirish. Diqqatning kuchi va bo'linishini ta'riflash. Diqqat ko'lami, diqqat taqsimlanishi, shaxsda diqqat rivojlanishini tavsiflash . **Identiv o'quv maqsadlari:** 1.Diqqat haqida tushuncha beradi. 2. Diqqatning nerv-fiziologik asoslarini ko'rib chiqadi. 3.Diqqat turlarini sanaydi, ixtiyorsiz diqqat va ixtiyoriy diqqatni ajratadi. 4. Ixtiyoriydan so'nggi diqqatni kuzatadi. 5. Diqqatning xususiyatlarini tushuntiradi. 6. Diqqatning kuchi va bo'linishini ta'riflaydi. 7. Diqqat ko'lami, diqqat taqsimlanishi, shaxsda diqqat rivojlanishini tavsiflaydi..	O'qituvchi
2-bosqich	**Asosiy tushunchalar:** diqqatning nerv-fiziologik asosi, ixtiyorsiz diqqat, ixtiyoriy diqqat, ixtiyoriydan so'nggi diqqat, diqqatning kuchi, bo'linishi, ko'lami, taqsimlanish. **Dars shakli:** guruh va mikroguruhda ishlash. **Vositalar**: darslik, ko'rgazmali qurollar, test ishlanmalari, anketa savollari, tarqatma materiallar, psixologik testlar. **Metod va usullar:** kitob bilan ishlash, kuzatish, tushuntirish, amaliy mashq.	O'qituvchi
3-bosqich	**Guruhda ishlash** Diqqat haqida tushuncha berish, diqqatning nerv-fiziologik asoslarini ko'rib chiqish. Diqqat turlarini sanash, ixtiyorsiz diqqat ixtiyoriy diqqatni ajratish Ixtiyoriydan so'nggi diqqatni kuzatish. Diqqatning xususiyatlarini tushuntirish. Diqqatning kuchi va bo'linishini ta'riflash.	Talaba
4-bosqich	**Mustahkamlash va baholash uchun savollar** Diqqat to'g'risida umumiy tushuncha. 9.2.2.Diqqatning fiziologik asoslari. 9.2.3.Diqqat turlari va ularning psixologik tavsifi. 9.2.4.Jahon psixologiyasida diqqat nazariyalari. 9.2.5.Diqqatning otnogenezda o'sishi. Berilgan psixologik test savollarini eching ? Mikroguruhlar ishini baholash.	O'qituvchi-talaba
5-bosqich	**Umumiy yakuniy xulosalar chiqarish.** Darsga qo'yilgan maqsad va belgilangan vazifalar bajarilganligi tahlil qilinadi, tegishli takliflar beriladi, mustaqil ish topshiriqlari beriladi.	O'qituvchi

5-mavzu. "Sezgi " mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

T-r, bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi mas'ul
1-bosqich	**Darsning maqsadi:** Sezgilar haqida tushuncha berish. Sezgilarning neyrofiziologik asoslarini o'rganish. Sezgilarning qonuniyatlari o'rganish va tahlil qilish. Sezgi turlarini aniqlash. **Identiv o'quv maqsadlari:** Sezgilar haqida tushuncha beradi. Sezgilarning neyrofiziologik asoslarini aniqlaydi. Sezgilarning qonuniyatlarini ko'rib chiqadi. Sezgi turlarini tahlil qiladi.	O'qituvchi
2-bosqich	**Asosiy tushunchalar:** seskanish, retseptor, reflektor, sezgirlik,statik sezgi, organik sezgi, adaptatsiya,analizator,	

	retseptor. **Dars shakli:** guruh va mikroguruhda ishlash. **Vositalar**: darslik, ko'rgazmali qurollar, test ishlanmalari, anketa savollari, tarqatma materiallar, psixologik testlar, slaydlar, vedio proektor, ko'rgazmali materiallar. **Metod va usullar:** kitob bilan ishlash, kuzatish, tushuntirish, amaliy mashq.	O'qituvchi
3-bosqich	**Guruhda ishlash** Sezgilar xaqida tushuncha berish. Sezgilarning neyrofiziologik asoslarini asoslash. Sezgilarning qonuniyatlarini o'rganish va qiyosiy solishtirish. Sezgi turlarini ta'riflash. Bolalarda sezish qobiliyatlarini kuzatish va misollar bilan tushuntirish.	Talaba
4-bosqich	**Mustahkamlash va baholash uchun savollar** Sezgilar haqida tushunchangizni bayon qiling? Sezgilarning fiziologik asoslarini aniqlang? Kishi hayotida va uning faoliyatida sezgilarning ahamiyatini tahlil qiling ? Sezgilarni klassifikatsiya qiling ? Sezgilardagi qonuniyatlarni o'rganing ?. Berilgan psixologik test savollarini eching ? Mikroguruhlar ishini baholash.	O'qituvchi-talaba
5-bosqich	**Umumiy yakuniy xulosalar chiqarish.** Darsga qo'yilgan maqsad va belgilangan vazifalar bajarilganligi tahlil qilinadi, tegishli takliflar beriladi, mustaqil ish topshiriqlari beriladi.	O'qituvchi

6-mavzu. "Idrok " mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

T-r, bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi mas'ul
1-bosqich	**Darsning maqsadi:** Idrok haqida umumiy tushuncha berish. Idrokning xususiyatlarini o'rganish va tahlil qilish. Idrokning fenomenlarining mohiyatini yoritish. Idrokning sifatlarini o'rganish. **Identiv o'quv maqsad:** Idrok haqida umumiy tushuncha beradi. Idrokning xususiyatlarini aniqlaydi. Idrokning fenomenlarini ko'rib chiqadi. Idrokning sifatlarini tahlil qiladi.	O'qituvchi
2-bosqich	**Asosiy tushunchalar:** fenomen, appertseptsiya**,** attraktsiyalar, gallyuginatsiya, antitsipatsiya **Dars shakli:** guruh va mikroguruhda ishlash. **Vositalar**: darslik, ko'rgazmali qurollar, test ishlanmalari, anketa savollari, mavzuga doir hujjatli va badiiy film tasmalari. tarqatma materiallar, psixologik testlar, vedio tasmalar, slaydlar, vedio proektor, ko'rgazmali materiallar. **Metod va usullar:** kitob bilan ishlash, kuzatish, tushuntirish, amaliy mashq.	O'qituvchi

3-bosqich	**Guruhda ishlash** Idrok haqida umumiy tushuncha berish. Idrokning xususiyatlari aniqlash. Idrokning shakllarini psixologik tavsiflash. Idrokning fenomenal holatlarini talqin qilish.	Talaba
4-bosqich	**Mustahkamlash va baholash uchun savollar** Sezgilar haqida tushunchangizni bayon qiling? Sezgilarning fiziologik asoslarini aniqlang? Kishi hayotida va uning faoliyatida sezgilarning ahamiyatini tahlil qiling ? Sezgilarni klassifikatsiya qiling ? Sezgilardagi qonuniyatlarni o'rganing ?. Berilgan psixologik test savollarini eching ? Mikroguruhlar ishini baholash.	O'qituvchi-talaba
5-bosqich	**Umumiy yakuniy xulosalar chiqarish.** Darsga qo'yilgan maqsad va belgilangan vazifalar bajarilganligi tahlil qilinadi, tegishli takliflar beriladi, mustaqil ish topshiriqlari beriladi.	O'qituvchi

7-mavzu. " Xotira " mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

r, bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi mas'ul
1-bosqich	**Darsning maqsadi:** Xotira haqida tushuncha berish. Xotiraning o'sishi testlar orqali aniqlash. Xotira haqidagi ta'limotlarni o'rganish. Xotiraning fiziologik asoslarini ko'rib chiqish. Xotiraning ahamiyatining mohiyatini yoritish. **Identiv o'quv maqsad:** Xotira haqida tushuncha beradi. Xotiraning o'sishini aniqlaydi Xotira haqidagi ta'limotlarni ko'rib chiqadi. Xotiraning fiziologik asoslarini tahlil qiladi. Xotiraning ahamiyatini o'rganadi.	O'qituvchi
2-bosqich	**Asosiy tushunchalar:** fenomen, mnema, mnemametr, reproduktsiya, induktsiya, obraz xotirasi **Dars shakli:** guruh va mikroguruhda ishlash. **Vositalar**: darslik, ko'rgazmali qurollar, test ishlanmalari, anketa savollari, mavzuga doir hujjatli va badiiy film tasmalari. tarqatma materiallar, psixologik testlar, vedio tasmalar, slaydlar, vedio proektor, ko'rgazmali materiallar. **Metod va usullar:** kitob bilan ishlash, kuzatish, tushuntirish, amaliy mashq.	O'qituvchi
3-bosqich	**Guruhda ishlash** Xotira haqida umumiy tushuncha berish. Xotiraning o'sishini aniqlash. Xotira haqidagi ta'limotlarni o'rganish va mohiyatini yoritish. Xotiraning fiziologik asoslarini tahlil qilish. Kishilar hayotida xotiraning ahamiyatini o'rganish.	Talaba
4-bosqich	**Mustahkamlash va baholash uchun savollar** Xotira to'g'risidagi tushunchangizni bayon qiling ? Xotira nazariyalarini o'rganing va qiyosiy solishtiring ? Xotira	O'qituvchi-

	jarayonlarini: esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish va unutishni ta'riflash. Xotira turlarini aniqlang ? Xotiraning individual psixologik farqlarini ajrating ? Diqqat va xotiraning bog'liqligini isbotlang ? O'qish faoliyatida xotirani rivojlantirishning vazifalari va uning shart-sharoitlarini belgilang? Berilgan psixologik test savollarini eching ? Mikroguruhlar ishini baholash.	talaba
5-bosqich	**Umumiy yakuniy xulosalar chiqarish.** Darsga qo'yilgan maqsad va belgilangan vazifalar bajarilganligi tahlil qilinadi, tegishli takliflar beriladi, mustaqil ish topshiriqlari beriladi.	O'qituvchi

8-mavzu. "Xayol" mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

TG'r	**Bosqichlar va bajariladigan ish mazmuni**	**Amalga oshiruvchi shaxs, vaqt**
1	**Tayyorlov bosqichi:** **1.1. Dars maqsadi:** Xayol to'g'risida tushuncha berish. Xayolning fiziologik asoslarini ko'rib chiqish. Xayol turlarini ajratish. Xayol tasavvurlarini tavsiflash. Xayol va ijodiyotni taqqoslash. **1.2. Identiv o'quv maqsadlari.** 1. Xayol to'g'risida tushuncha beradi. 2.Xayolning fiziologik asoslarini ko'rib chiqadi 3. Xayol turlarini ajratadi. 4. Xayol tasavvurlarini tavsiflaydi. 5. Xayol va ijodiyotni taqqoslaydi. **1.3. Mavzuga oid tayanch tushuncha va iboralar:** ijodiy xayol, xayol kengligi, xayol mazmundorligi, real obrazlar, xayol kuchi. analitik-sintetik, fantaziya, ikkinchi tendentsiya, biosfera, neosfera, tasavvurlar, ta'sirlanish, timsollar, ijtimoiy- tarixiy taraqqiyot **1.4. Dars shakli:** guruh va mikroguruhda ishlash. **1.5. Foydalaniladigan metod va usullar:** suhbat, ma'ruza, baxs, videousul, savol-javob, tushuntirish, taqdimot. **1.6. Kerakli jihoz va vositalar:** slaydlar, darsliklar, mavzuni ko'rib chiqishga doir materiallar va mavzuning mazmunini ifodalovchi lavhalar, ko'rgazmali materiallar.	**O'qituvchi**
2	**O'quv mashg'ulotni tashkil qilish bosqichi:** **2.1.** Mavzu e'lon qilinadi. **2.2. A**sosiy qismlari bayon qilinadi.	**O'qituvchi,** **15 minut**
3	**Guruhda ishlash bosqichi:** **3.1.** Talabalarga xayol mavzuga oid muammoli savol beriladi. **3.2.** Talabalarning xayol haqidagi fikri eshitiladi va boshqa talabalar baxsga chaqiriladi. **3.3.** Talabalarning xayol haqida fikri tinglanib, umumiy xulosalar chiqariladi va to'g'riligi tekshiriladi. **3.4.** Umumiy xulosani o'qituvchi bayon qiladi.	**O'qituvchi-talaba,** **40 minut**
4	**Mustahkamlash va baholash bosqichi:** 1. Xayolga ta'rif bering?	**O'qituvchi,**

	2. Xayol jarayonlarida analitik-sintetik faoliyatni belgilang? 3. Orzu va shirin xayolni ajrating? 4. Xayolning turlari va xususiyatlarini aniqlang? 5. Xayolning kengligi va mazmundorligini ta'riflab, umumiy tushunchangizni bayon qiling? **6.** Eng faol talabalar (baholash mezoni asosida) baholanadi.	**15 minut**
5	**O'quv mashg'ulotini yakunlash bosqichi:** **5.1.** Talabalar bilimi tahlil qilinadi. **5.2.** Mustaqil ish topshiriqlari beriladi.	**O'qituvchi,** **10 minut**

9-mavzu. "Tafakkur" mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

T-r, bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi mas'ul
1-bosqich	**Dars maqsadi:** Tafakkur haqida umumiy tushuncha berish. Tafakkur operatsiyalarini o'rganish. Tafakkur turlari va shakllarini tahlil qilish. Shaxsda mustaqil fikrlashni shakllantirish vositalarinini ko'rib chiqish va o'rganish. **Identiv o'quv maqsadlari:** Tafakkur haqida umumiy tushuncha beradi. Tafakkur operatsiyalarini o'rganadi. Tafakkur turlarini aniqlaydi Tafakkur shakllarini tahlil qiladi. Shaxsda mustaqil fikrlashni shakllantirish vositalarini ko'rib chiqadiish va o'rganadi.	O'qituvchi
2-bosqich	**Asosiy tushunchalar:** tafakkur operatsiyasi, sintez, analiz, taqqoslash, abstraktsiya, konkretlashtirish, klassifikatsiyalash. **Dars shakli:** guruh va mikroguruhda ishlash. **Vositalar**: darslik, ko'rgazmali qurollar, test ishlanmalari, anketa savollari, mavzuga doir hujjatli va badiiy film tasmalari. tarqatma materiallar, psixologik testlar, vedio tasmalar, slaydlar, vedio proektor, ko'rgazmali materiallar. **Metod va usullar:** kitob bilan ishlash, kuzatish, tushuntirish, amaliy mashq.	O'qituvchi
3-bosqich	**Guruhda ishlash** Tafakkurni ta'riflash. Tafakkur turlarini aniqlash. Tafakkur operatsiyalarini tekshirish. Tafakkurning mantiqiy shakllarini ajratish. Tafakkurning individual xususiyatlarini belgilash.	Talaba
4-bosqich	**Mustahkamlash va baholash uchun savollar** Tafakkur va hissiy bilish to'g'risidagi tushunchangizni bayon qiling ? Tafakkurning zamonaviy nazariyalarini o'rganing va qiyosiy solishtiring ? Fikrlash operatsiyalarini ta'riflash. Tafakkur va predmetli amaliy faoliyatni aniqlang ? Tafakkurni tadqiq etishning ijtimoiy ahamiyatini ajrating Bolalarda mustaqil va yoshlarda yangicha tafakkur yuritishni shakllantirishni isbotlang ? Tafakkur motivatsiyasini belgilang? Berilgan psixologik test savollarini eching ?	O'qituvchi-talaba

	Mikroguruhlar ishini baholash.	
5-bosqich	**Umumiy yakuniy xulosalar chiqarish.** Darsga qo'yilgan maqsad va belgilangan vazifalar bajarilganligi tahlil qilinadi, tegishli takliflar beriladi, mustaqil ish topshiriqlari beriladi.	O'qituvchi

10-mavzu. "Hissiyot" mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

T-r, bosqich	Bajariladigan ish mazmuni	Amalga oshiruvchi mas'ul
1-bosqich	**Dars maqsadi:** Hissiyot haqida tushuncha berish. His-tuyg'ularning vazifalarini aniqlash. Hissiy holatlarning nerv-fiziologik asoslarini tekshirish. Hissiy holatlarning ifodalanishini tavsiflash. **Identiv o'quv maqsadlari:** 1.Hissiyot haqida tushuncha beradi. 2.His-tuyg'ularning vazifalarini aniqlaydi. 3. Hissiy holatlarning nerv-fiziologik asoslarini tekshiradi. 4. Hissiy holatlarning ifodalanishini tavsiflaydi.	O'qituvchi
